O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2025-4/3
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2025

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d.,prof.	*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d.,prof.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d.,prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.	*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№4/3 (125), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2025 y. – 265 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573 X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2025

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Abdullayeva D.A. Buxoro me'moriy merosining muhofazasiga mas'ul muassasa tarixi 6
Abdullayeva N.S. Rossiya Sharq muzeyidagi O'zbekiston badiiy metall buyumlari namunalari 9
Abduqodirov J. O'zbekistonda ziyorat: o'tmish va hozir 13
Abulqosimova D.A. 1991-2001 yillarda Samarqand davlat universiteti faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishi 15
Asadov M.O'. Nogironlar milliy reabilitatsiyasi sohasidagi islohotlar 18
Asatullaev M.I. Public education in the Uzbek SSR for 20 years 1924-1944 24
Axmadova N.A. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan fan va ta'lim sohasidagi hamkorliklarining yangi bosqichga ko'tarilishi 27
Axmedov B.A. Yevropa mamlakatlarida qorako'lchilik sohasining taraqqiy etishi 29
Bakhramova L.I. Tarixiy va madaniy merosni aks ettiruvchi urbanonimlar 32
Bokiyev B.U., Omonov O.O. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining zabardast vakili 35
Burxanova S.T. O'zbekistonning eng yangi tarixiga oid mulohazalar 37
Choriyev B.G'. Mustaqillik yillarida Koson shahrini ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanishi 39
Ergashev K.B. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi madaniy-gumanitar hamkorligi: erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar 42
Erkinov A.M. Sovet davrida tarix ta'limining o'qitish metodlari va texnologiyalari 45
Eshmuhammedova L. Markaziy bankning respublika moliya tizimini rivojlantirishidagi ahamiyati 48
G'apparova B.R. Xorazm vohasida xalq o'yinlari va milliy bayramlarining rivojlanish bosqichlari 50
Hamidov A. Ijtimoiy mediaresurslar: kelib chiqish tarixi va rivojlanish tendensiyalari 55
Isoqjanov F.Q. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning boshlang'ich ta'lim sohasidagi ahamiyati 58
Jumaeva N.A. Quyi Zarafshon vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan 60
Kenjayev N.J. Kattaqo'rg'on shahri madaniyati tarixi 64
Klichev O.A. Amir Abdulahadning "Safarnoma"lari sharhi 67
Marimov M.E. XX-asrning 20-30-yillarida Xorazm okrugida mahalliy matbuotning rivojlanishi 70
Matyakubova Sh.X. Quyi Amudaryo hududida ilk o'rta asr sug'orilish tarmoqlari tarixiga doir ba'zi mulohazalar 74
Mo'minov U., Ashirmurodov A. Buxoro amirligi ichki savdo munosabatlarida qashqadaryo vohasini tutgan o'rni 77
Nazirov B.S. Trends in the development of equestrian sports in the Surkhandarya oasis 79
Nurullayeva Sh.K. History of fabric manufacturing in Central Asia 82
Pirimkulova S.SH. Ikkinchi jahon urushi yillarida front orti hududlariga ko'chirib keltirilgan o'smirlarni ish bilan ta'minlash muammolari 85
Poyonov B.R. Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining o'rnatilishi 88
Qodirova R.M. TASSRda sovet maktablarini tarix fani o'qituvchilari bilan ta'minlash muammosi va uni yechish yo'llari 91
Qulto'rayev I. XX asrning 50-60 yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirish tadbirlari 96
Qurbanov S.V. "Xorazm" telekanali rivojlanish tendensiyalari: muammo va yechim 100
Rahimova S.A., Lafasov U.P. Boburiylar davridagi zargarlik buyumlarning dunyo xazinasidagi o'rni 104
Rahimova M.Sh., Xidirova Sh.Sh. Mintaqada urbanizatsiya darajasini tizimlashtirish 109
Raxmonov F.Sh. XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida yerga egalikning an'anaviy shakllari 113
Rustamova M.I. Gilamdo'zlik san'ati va Nurobod tumanida gilamdo'stlik san'atining o'ziga xos an'analar 117
Ruziboyev T.Z., Rasulov R.I. Mojrumsoy arxeologik yodgorligidagi petrogliflarni gis texnologiyasi asosida monitoring qilish 120

Sadullayev F.U., Karimov A.O. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda termiziy allomalar merosining o'rni 123
Sayfutdinov F.I. Buxoro amirligi saroylarining me'morchilik tarixi 126
Shodmonov X.X. Bolalar muzeylarining tarbiyaviy ahamiyati: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 129
Tishabayeva I.R. 1946-1991-yillarda O'zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalarining boshqaruv tizimi tarixi 131
Toxtiyev Sh.R. XX asr 80-90 yillarida EIR ichki va tashqi siyosatida diniy ulamolarning roli 134
Yuldosheva F.Y. Turkiy qabilalarning marosimlari: tarixiy-madaniy tahlil 136
Yunusova D.M. Savdo yo'llarining Xorazmshoxlar davlati madaniy taraqqiyotida tutgan o'rni 139
Yusupova N. Introduction of the audiovisual technologies in the production of mass holidays of Uzbekistan 142
Yusupova S.A., Yuldasheva N.B. Studies of activation of the human factor in the information society 147
Абатов А.Б. Мустақиллик йилларида Қорақалпоғистон саноати тарихи 150
Алимджанов Б.А. Модернизация по-имперски: хлопок и кредит в Туркестанском генерал-губернаторстве 154
Аманлаев А.Х. Шахс ахлоқий тарбияси камолотида ислом қадриятлари ва маърифати муҳим омил сифатида 158
Бурхонов И.М. XIV-XV асрлар Марказий Осиё халқлари ҳаётини ўрганишдаги манбаларни А.Ўринбоев тадқиқотларида акс этиши 161
Матякубов Ш.С. Хива хони Абулғози Баҳодирхоннинг "Манофеъ-ул- инсон" асари табобатга оид ноёб қўлланма 163
Махманова М.Н. Қарши шаҳридаги болалар мусиқа ва санъат мактаблари тарихи: истеъдодлар гулшани 166
Мингноров А.Т. 20-30 йилларидаги маданий ҳаёт ва сиёсий жараёнлар даврий матбуотда 170
Нуркулова Р.Р. Амир Темур – адолат ва қудрат тимсоли 173
Уринбоева С. Тупроққалъада археологик тадқиқотлар натижалари 177
Хошимов С.А., Нажимидинова Ш. 1920-1930 йилларда совет ҳокимиятининг Ўзбекистон ССР олий таълим муассасаларида амалга оширган "тозалов" сиёсати 179

PEDAGOGIKA FANLARI

Abbasov B.A. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli 185
Abbasov B.A. Oliy ta'lim talabalarida jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy usul va vositalari 187
Amiritdinova D.U. Ingliz tilini o'rganishda bilingvalizm: psixolingvistik va metodologik yondashuvlar 190
Ashurova D. Mental xaritalar-til o'rganuvchilar uchun kognitiv vosita 193
Ashurova T., Omonova D. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi 195
Atamurodova G.Sh. Development of a system of teaching tasks for forming students' correct pronunciation skills in primary grade native language lessons 198
Azzamova U.A. The necessity and importance of teaching students a foreign language in medical schools 201
Esanova M.B. Experience of teaching specialized terminology to medical students in latin and foreign languages and developing their thinking 203
Isroilov Sh.Sh. Jismoniy madaniyatni talabalarda shakllantirishning zamonaviy metodlari 205
Kavilova T. Natural Language Processing Algorithms and Their Application in Education 208
Kobilova N.S., Azimjonova E.T. The critical role of backward design in implementing the three modes of communication in language education 210
Latipov A.A. ChatGPTning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli 213

Mamanabiyeva Sh.Sh., Talibjanova A.L. Ingliz tilini o'qitishda audio-vizual materiallardan foydalanish 216
Moldakhmetova Z.K. The role of multimedia technologies in enhancing learning motivation in english language acquisition 218
Mustafaqulova D.I. Oliy ta'lim biolog-talabalari tizimli tafakkurining zamonaviy xususiyatlarini shakllantirishning pedagogik asoslari 222
Mustafaqulova D.I. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari biolog-talabalarining tizimli tafakkurini shakllantirishning samaradorligini oshirish yo'llari 224
Qurolova S. 12 muchal hayvon nomlari bilan bog'liq iboralarni o'qitish usullarini shakllantirish 226
Safarova Z.G'. MDX davlatlari va AQSHda inklyuziv ta'lim siyosati va uning asosiy modellari 228
Saparbekova D.S. The features of sociolinguistic competence in undergraduate students of pedagogical university 231
Shonazarova G.Sh., Madiyeva M. Development of teaching skills through internet resources 234
Xodjayeva M.M. Chet tillarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish 237
Абдужаббарова М.Т. "Архитектура" мутахассислиги фанларининг ўқитишнинг аҳамияти 239
Исломова Д.У., Базарова У.М. Понятие мотивации и ее роль в обучении иностранному языку 246
Махмадиева Р.С. Внедрение целостной методики подготовки будущих учителей русского языка на основе интеграции инновационных технологий, активных методов и компетентностного подхода 248
Махмадиева Р.С. Совершенствование методики формирования профессиональных компетенций будущих учителей русского языка в условиях цифровизации образования 250
Норбоева Д.Ж. Необходимость инновационных технологий в высших учебных заведениях 253
Ражамурадова Н.З., Базарова Р., Мажидова И., Асророва П. Методика использования живых растительных объектов в процессе обучения биологии 256
Шимчук А.О. Развитие навыков самостоятельной работы студентов с использованием педагогических технологий 259
Эргашева М.П. Вопросы развития семейного воспитания у молодежи 262

TARIX FANLARI

UO'K:902.34:72.033/.035(575.146)"19"

BUXORO ME'MORIY MEROSINING MUHOFAZASIGA MAS'UL MUASSASA TARIXI

D.A.Abdullayeva, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi(Buxkomstaris)ning tuzilishi, uning Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi bilan bog'liq faoliyati yoritiladi. Qo'mitaning Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etgan xodimlari, ularga yuklatilgan vazifa hamda vakolatlar to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Buxkomstaris, komissiya, muhandis, ta'mirlash, obida, Nodir Devonbegi madrasasi, texnik xodim, ishonchnoma, vakolatli vakil, mavsumiy xodim.*

Аннотация. *В данной статье освещена структура Бухарского комитета по делам музеев, памятников старины, искусства и охраны природы (Бухкомстарис), его деятельность, связанная с охраной архитектурных памятников Бухары. В статье рассматриваются вопросы касаюшся сотрудников комитета, участвовавшие в организации процессов ремонта и реставрации исторических памятников Бухары.*

Ключевые слова: *Бухкомстарис, комиссия, инженер, ремонт, памятник, медресе Надир Девонбеги, техник, доверенность, уполномоченный представитель, сезонный работник.*

Abstract. *This article highlights the structure of the Bukhara Committee for Museums, Antiquities, Art and Nature Conservation (Bukhcomstaris), its activities related to the protection of architectural monuments of Bukhara. The article discusses issues related to the staff of the committee involved in the organization of the processes of repair and restoration of historical monuments of Bukhara.*

Key words: *Bukhkomstaris, commission, engineer, repair, monument, Nodir Devon begi madrasah, technician, power of attorney, authorized representative, seasonal worker.*

Kirish. Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi (Buxkomstaris) – Buxoro me'moriy obidalarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash tarixida muhim ahamiyat kasb etgan muassasalardan biridir. Mazkur tashkilotning ta'sis etilishi uchun Buxoro hududidagi tarixiy yodgorliklarning ro'yxatga olinishi, ularning ahamiyati va saqlash mas'uliyati birlamchi asos sifatida xizmat qildi. Turkkomstaris topshirig'i asosida 1924-yilda I.I. Umnyakov tomonidan muhandis M.M. Loginov bilan birgalikda Buxoro va Karmana hududidagi amir saroylarining saqlanish holati o'rganiladi, ularning o'lchovlari olinib, fotofiksatsiya va ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi[1]. Tashrif natijasida yodgorliklar muhofazasi bo'yicha Buxoro komissiyasi (hay'ati) tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasi faoliyatini o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy arxivining Turkkomstaris va Sredazkomstaris – R-394-fondning 92, 93, 143, 188, 192, 261, 309– yig'majildlarida, Uzkomstaris-2296-fond 1, 9, 174, 46, 62-yig'majildlarida hamda Buxoro viloyat davlat arxividagi 629-fondning 1, 836-fondning 5, 9, 17-yig'majildlarida Buxkomstaris faoliyatiga doir hisobotlar, ish yuritish hujjatlari jamlangan. Ushbu manbalarning tahlili Buxoro tarixiy yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Buxoro me'moriy merosining muhofazasiga mas'ul muassasa – Buxkomstaris tarixi bilan bog'liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Natija va muhokamalar. I.I. Umnyakovning mazkur komissiyani tashkil etish masalasidagi fikrlarini Turkkomstarisning 1924-yil 12-oktabrdagi yig'ilish bayonnomasidagi ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkoni mavjud. Muassasaning tashkil etilishi, xodimlar hamda tegishli mablag' manbalari bilan bog'liq masalalar tartibi unda o'z ifodasini topgan. M.Saidjonov bilan kelishilgan holda taklif etilgan tartib bandlariga muvofiq Komissiya BSSR (Buxoro sovet sotsialistik

respublikasi) Maorif nozirligi huzurida tashkil etilib, Turkkomstarisning hududiy vakilligi vazifasini bajarishi belgilangan. Shuningdek, unga a) Buxoro hududidagi tarixiy va san'at yodgorliklarini ro'yxatga olish; b) Buxkomstaris tasarrufiga kiritilgan tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, ta'mirlash; c) tashkilot vazifalaridan kelib chiqib jamlangan barcha materiallarni tizimlashtirish va ilmiy tahlil qilish; d) muzey ishini boshqarish singari majburiyat va mas'uliyat topshiriladi[2].

Ayrim tuzatishlar natijasida Buxkomstaris faoliyati xususidagi nizom qabul qilingan bo'lsa-da, u o'z faoliyatini 1925-yilda *"Sredazkomstarisning Zarafshon komissiyasi"* nomi bilan boshlaydi. Bu milliy-hududiy chegaralanish siyosati sababli bosh qo'mitaning qayta tashkil etilishi bilan bog'liq edi. 1925-yil mart oyida qayta tuzilgan ushbu komissiya Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish, hisobga olish, saqlash va ta'mirlash uchun mas'ul etib belgilangan[3].

Tashkilot xodimlari bilan mehnat shartnomasi tuzilib, unda majburiyat va vakolatlar aniq belgilangan. Jumladan, komissiya raisi a) tarixiy yodgorliklarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar yoki ilmiy ahamiyat kasb etadigan topilmalar xususida xabardor bo'lish; b) qo'mita tasarrufidagi yerlar bilan bog'liq tadbirlarga nazoratni yo'lga qo'yish; d) Buxoro hududidagi idora va tashkilotlarda tegishli tarixiy yodgorliklar va ularning ahamiyati xususida ma'ruzalar o'qish va ekskursiya tadbirlarini amalga oshirish; e) bosh qo'mitaga amalga oshirilgan ishlar xususida hisobot taqdim etish kabi vazifalarni bajargan.

Sredazkomstaris tayinlovi asosida Abdurauf Fitrat (1925-yil 1-mart – 1926- yil 26-iyungacha), Muso Saidjonov (1926-yil 26-iyun –1927-yil 22-noyabr), Halim Ashurov (1927-yil 22-noyabr–1928-yil 4-sentabr), Najab Qurbonov (1928-yil 4- sentabr) kabi mahalliy ziyolilarning Buxkomstaris raisi lavozimidagi faoliyati e'tiborga molik[4].

Zarafshon komissiyasining to'liq tarkibi 1925-yil 1-oktabrda quyidagicha shakllantiriladi: Rais sifatida Abdurauf Fitrat faoliyatini davom ettiradi, rais muovini etib V.K.Kostko *(Sredazkomstarisning tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'limi vakili — D.A.)* tayinlangan. Ilmiy kotib M.Y.Saidjonov[5], ilmiy xodim lavozimida Said Mahmud Mas'udxo'jayev ish boshlaydi. Shuningdek, hisobchi-ish boshqaruvchi, xo'jalik ishlari boshqaruvchisi, yordamchi, omborxona qorovuli, Ko'kaldosh madrasasi qorovuli, izvoshchi kabi jami o'n xodimdan iborat jamoa o'z faoliyatini boshlaydi[6].

Tahlillar, xodimlar tarkibining asosiy qismi mahalliy millat vakillaridan shakllantirilganligini ko'rsatdi. Bu tashkilot faoliyatining amalga oshirilishi uchun ijobiy hol edi. Yil oxiriga kelib Nodir Devonbegi madrasasi va Fathobod (Bayonqulixon va Sayfiddin Boxarziy maqbaralari)dagi yodgorliklar uchun qorovul tayinlanganligi hisobiga xodimlar soni ikkitaga ko'payganligini ko'ramiz. Yodgorliklar muhofazasida ushbu ish o'rnining ahamiyatli ekanligi qo'mita faoliyati davomida o'z tasdig'ini topdi. Dastlab, binoning xavfsizligi va uning tozaligiga mas'ul bo'lgan qorovullar vazifasiga tashrif buyuruvchilarni ro'yxatga olish hamda obyekt to'g'risida birlamchi ma'lumotlar berish ham kiritiladi[7]. O'z navbatida qorovullar asosan ta'mirchi ustalar orasidan tayinlanganligi e'tiborga molik. Nodir Devonbegi madrasasi va Ismoil Somoniy maqbarasi qorovullari bo'lgan Qurbon Saidov, Sulaymon To'rayev kabi ta'mirchi-ustalarning faoliyati buning misolidir.

V.A.Shishkinning 1928-yil 4-apreldagi Sredazkomstaris yig'ilishida Buxkomstaris xususidagi ma'ruzasiga asoslanilsa, unda faoliyat yuritayotgan xodimlar to'g'risida: "...Rais H.Ashurov, ish boshqaruvchi, hisobchi O.Oqilov, xo'jalik ishlari boshlig'i I.Murodov, yana ikkita qorovul *(yodgorliklar bo'yicha va muzey qorovuli — D.A.)* jami 7 kishidan iborat..[8]" degan ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Tadqiq etilayotgan masalaga doir izlanish natijalari olimning ushbu fikrlarini to'ldirishga xizmat qildi. Ya'ni, joriy yilga tegishli hisobot hujjatlariga ko'ra, tashkilotda ilmiy kotib lavozimida B.N.Butkevich, tosh teruvchi usta Zayniddin hamda qorovul A.Adilovlar ham ish olib borganligi ma'lum bo'ldi[9].

Arxiv hujjatlari tadqiqi jarayonida Buxoro hududiga tayinlangan vakolatli vakilga Uzkomstaris tomonidan ishonchnoma hujjati taqdim etilganligi aniqlandi. Mazkur hujjat tashkilot vakilining faoliyat doirasini belgilab bergan. Unga muvofiq, vakolatli vakil Buxoro, Qorako'l, Romitan, Akmalobod (*hozirgi G'ijduvon tumani – D.A.*), Vobkent va Karmana tumanlarida joylashgan yodgorliklarni o'rganish, muhofaza etish va ta'mirlash ishlariga rahbarlik qilish, moddiy madaniyat

namunalarini ro‘yxatga olish, yig‘ish va ularga daxldor hujjatlarni saqlash, Uzkomstaris tartibiga asoslanib yodgorliklarni ijaraga berish, Buxkomstaris nomidan markaziy va mahalliy idoralar bilan tashkilot faoliyati doirasida munosabatga kirishish, moddiy madaniyat yodgorliklarini har tomonlama o‘rganish, fotofiksatsiya, shurf qazish ishlari, chizma chizish rejalarini tuzish, Buxkomstaris xodimlarini ishga yollash va ularni ishdan bo‘shatish, tashkilot nomidan turli idora va shaxslar bilan *(ta'mirlash jarayoni uchun zarur qurilish materiallarini sotib olish yoki Buxkomstarisga tegishli buyumlar likvidatsiyasi, ijaraga berish yuzasidan – D.A.)* shartnomalar imzolash, bank kreditlarini boshqarish, joriy hisob raqamlarini ochish va ularni yopish hamda bank cheklari, tashkilot buyruqlarini imzolash, moddiy madaniyat yodgorliklariga zarar yetkazilganda ma'muriy va sud tartibida javobgarlikka tortishni talab etish, tegishli sud idoralarida Buxkomstaris manfaatlarini himoya etish kabi vakolatlarga ega edi[10]. Tayinlangan doimiy vakil o‘z faoliyatini Uzkomstarisning tegishli ko‘rsatma va tartibiga hamda mahalliy hukumat idoralarining qarorlariga asoslanib olib borishi belgilangan. Bu lavozimga dastlab V.A. Shishkin tayinlanadi.

Yillar davomida qo‘mita faoliyatining mohiyati va yo‘nalishi o‘zgarib borishi bilan xodimlar tarkibi ham bunga moslashtirib borilganligi kuzatiladi. 1934-1937-yillar kesimida Buxkomstarisda rais, arxitektor, bosh usta-restavrator, ish boshqaruvchi, hisobchi kabi shtat birliklari joriy etilgan[11].

1939-yilga kelib Buxkomstarisda rais (S.Zokirov), ilmiy xodim (S.K.Kabanov), texnik xodim, hisobchi, 10 qorovul jami 15 kishi faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, 12-30 kishilik mavsumiy ishchilar guruhi ham yollangan[12]. Mazkur davrda qo‘mita *ilmiy xodimi* vakolatlari nisbatan keng qamrovli bo‘lganligi ko‘rinadi. Jumladan, u 1) qo‘mita belgilagan mavzuli reja asosida biriktirilgan hududdagi moddiy madaniy yodgorliklarni o‘rganish; 2) ta'mirlash va qayta tiklash ishlari yuzasidan ilmiy arxeologik nazoratni amalga oshiradi. Bu borada shaxsiy javobgarlikni o‘z bo‘yniga oladi; 3) tarixiy yodgorliklarga doir qo‘lyozma hujjat va nashrlarni to‘playdi. Ushbu turdagi hujjatlarni sotib olish bahosi hamda ilmiy qiymatiga javobgar hisoblanadi; 4) arxeologik topilmalarni ro‘yxatga olish; 5) u yoki bu moddiy madaniyat yodgorligi yuzasidan paydo bo‘lgan xavfni bartaraf etish maqsadida bu xususida qo‘mitaga bildirish; 7) turistik ekskursiya, turli tashkilot vakillarining tashrifi davomida O‘rta Osiyo tarixi bilan bog‘liq masalalarda zarur maslahatlarni berish; 8) yodgorliklarda fotofiksatsiya va o‘lchov ishlarini olib borish; 9) hududiy vakillik muassasalari va tashkilotlar bilan munosabatga kirishish kabi vazifalarni bajargan[13].

Texnik xodim ham ta'mirlash ishlari olib borilishining texnik nazoratini amalga oshirish, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari uchun zarur smetalarni ishlab chiqish, ilmiy xodim topshirig‘iga binoan o‘lchov ishlari va chizmalarni tayyorlash, tegishli tartib asosida bajarilgan restavratsiya ishlari yuzasidan hisobot taqdim etish singari muhim ishlarga mas'ul edi.

Qo‘mita *idora xizmatchisi* esa yodgorlik ijaradorlaridan ijara to‘lovlarini yig‘ish, tushumlarni ro‘yxatga olish, madrasalarda istiqomat qiluvchi aholini ro‘yxatga olish kitoblarini yuritish kabi vazifalarni bajargan[14].

Buxkomstarisda faoliyat olib borgan ta'mirchi ustalar esa tashkilot ro‘yxatida mavsumiy xodimlar sifatida qayd qilingan. Jumladan, Majid Solihov – 1932-yildan e'tiboran tashkilot usta-restavratori sifatida ish boshlagan. Asosan tosh terish, gumbaz va peshtoq qismlarining ta'miri bilan shug‘ullangan. Qurbon Saidov – ganchkor usta. Rasul Rahmatov – tosh teruvchi, suvoqchi sifatida 1936- yildan boshlab Buxkomstarisda ishlaydi. Sulaymon To‘rayev – ganch tayyorlaydigan mutaxassis. Imomqul Qurbonov 1928-yildan boshlab qo‘mitada ta'mirlash jarayoni bilan bog‘liq turli ishlarni amalga oshiradi. Shuningdek, usta Abdusalom Abdurahmonov, Ibrohim Hafizov, usta Abdurahim Hayotov, usta Shirin Murodov, Qurbon Yo‘ldoshev, Xolmat Sultonov, Narzulla Yodgorov va Aminjon Salomovlar Buxkomstarisda ta'mirlovchi-ustalar sifatida faoliyat yuritishgan[15].

Xulosa sifatida ta'kidlash o‘rinliki, XX asrning 20-40-yillarida Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va restavratsiya jarayonlarini tashkil etish bevosita bir guruh xodimlar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan. Bular rais, rais muovini, ilmiy kotib, muhandis-arxitektor, mutaxassis-arxeolog, ilmiy xodim, ish boshqaruvchi — hisobchi, kotib, texnik xodim, hududiy vakil, xo‘jalik ishlari boshqaruvchisi, yordamchi, idora xizmatchisi, xavfsizlik va tozalikka mas'ul

qorovullar, izvoshchi, shuningdek, ta'mirlovchi usta-restavratorlar kabi doimiy va mavsumiy shtat birliklaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy arxivining (keying o'rinlarda — O'zbekiston MA), R-394-fond, 1-ro'yxat, 143-yig'majild, 114-115-varaqlar.
2. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 92-yig'majild, 1-varaq.
3. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 188-yig'majild, 9-varaq.
4. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 23-varaq,
5. Muso Saidjonov Zerkomstaris ilmiy kotibi lavozimiga ancha oldinroq 1925-yil 7-mart sanasida tayinlanib, 1926-yil 26-iyunga qadar faoliyat yuritadi. *Qarang:* O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 192-yig'majild, 131-varaq.
6. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 22-varaq.
7. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 174-yig'majild, 104-varaq.
8. O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 261-yig'majild, 118-119-varaqlar.
9. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 52-varaq.
10. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 144-yig'majild, 99-varaq.
11. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 144-yig'majild, 92-varaq.
12. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 245-yig'majild, 26-varaq.
13. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 174-yig'majild, 100-varaq.
14. Buxoro viloyat davlatlar arxivi (keyingi o'rinlarda – Buxoro VDA), 629-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 6-varaq.
15. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 91-yig'majild, 160-varaq.

UDK: 719:72(575.1)

ROSSIYA SHARQ MUZEYIDAGI O'ZBEKISTON BADIIY METALL BUYUMLARI NAMUNALARI

N.S. Abdullayeva, PhD, Amerika texnologiyalar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Hozirgi kunda dunyoning ko'plab muzeylari, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasining qator muzeylarida O'zbekiston moddiy madaniy merosi namunalari saqlanmoqda. Ularni o'rganish va tavsiflash hamda tadqiqot natijasida olingan materiallarni keng jamoatchilikka taqdim etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada Moskvadagi Sharq muzeyi kolleksiyalaridan munosib o'rin olgan mohir hunarmandlarimiz tomonidan XIX – XX asr boshlarida yasalgan badiiy metal buyumlarining tavsifi berilib, ularning badiiy, tarixiy-etnografik ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy metall buyumlar, kolleksiya, madaniy meros, misgar, Sharq muzeyi.*

Аннотация. *В настоящее время во многих музеях мира, в том числе в ряде музеев Российской Федерatsии, хранятся образцы материального культурного наследия Узбекистана. Их изучение и описание, а также представление широкой публике материалов, полученных в результате исследования, имеют актуальное значение. В статье описываются художественные металлические предметы, изготовленные нашими мастерами в XIX – начале XX веков из собраний Музея Востока в Москве, и даны размышления об их художественной и историко-этнографической значимости.*

Ключевые слова: *коллекция, культурное наследие, Музей Востока, художественные металлические изделия, чеканщик по металлу.*

Abstract. *Currently, many museums around the world, including a number of museums in the Russian Federation, store samples of the material cultural heritage of Uzbekistan. Their study and description, as well as the presentation of the materials obtained as a result of the study to the general public, are of current importance. The article describes artistic metal objects made by our craftsmen in the 19th – early 20th centuries from the collections of the Orient Museum in Moscow, and provides reflections on their artistic and historical-ethnographic significance.*

Key words: *artistic metal products, collection, cultural heritage, metal chaser, Orient Museum.*

Kirish. Moskvadagi Sharq davlat muzeyi (Muzey Vostoka) Rossiyadagi ixtisoslashtirilgan muzey bo'lib, uning to'plamlarida bugungi kunda Osiyo va Afrikaning 100 dan ortiq mamlakati va xalqining san'ati hamda madaniyati yodgorliklari namoyish etilgan.

1917-yil inqilobigacha Moskvada Sharqshunoslik markazi mavjud bo‘lmagan. Sovet Ittifoqi tarkibida milliy respublika va hududlar tashkil etilgach, Sharq xalqlari madaniyatiga oid maxsus muzey tashkil etish zarurati tug‘ildi. Ushbu vazifani hal qilish maqsadida 1918-yilda Maorif xalq komissarligining Markaziy muzeylar bo‘limi qoshida mutaxassislar hay’ati tashkil etildi. Uning boshlig‘i sifatida olim Pavel Muratov tayinlandi, u muzey tashkil etishga oid taklifni ilgari surdi. Muzey faoli va san’atshunos Igor Grabar ham taklifni ma’qullagan va bir necha oy o‘tib “Arts Asiatica” nomli muzey tashkil etish bo‘yicha qaror chiqarildi [3, b. 6]. 1987-yilda muzeyga I toifali ilmiy-tadqiqot muassasasi maqomi berildi. 1991-yilda esa Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni bilan u Rossiya milliy madaniy merosining alohida qimmatli ob’ektlariga tenglashtirildi hamda hozirgi nomini oldi [6].

Markaziy Osiyo xalqlari san’ati asarlari kolleksiyasi Sharq davlat muzeyida Rossiyadagi eng yirik to‘plamlardan biridir. Uning shakllanishiga asos bo‘lgan ilk eksponatlar muzey faoliyatining dastlabki yillaridayoq kelib tushgan. O‘rta Osiyodan dastlabki amaliy-bezak san’ati buyumlari 1919-yildayoq Sharq muzeyi kolleksiyasiga kelib tushgan edi [7]. O‘z ibtidosidayoq muzeyda O‘zbekiston san’at asarlari kolleksiyalarini shakllantirishning asosiy uchta – arxeologiya, an’anaviy san’at va zamonaviy san’at yo‘nalishlari vujudga keldi. Keyinchalik muzey faoliyati mazkur uch yo‘nalish bo‘yicha davom etdi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Rossiyada saqlanayotgan O‘zbekistonga oid madaniy meros masalalari ko‘plab tadqiqotlarning e’tiborida bo‘lgan bo‘lsa-da, aynan Sharq muzeyi kolleksiyalaridan o‘rin olgan osori-atiqalarga bag‘ishlanga ilmiy ishlar u qadar ko‘p emas. Ulardan biri E.S. Yermakova tomonidan M. Filatova bilan hammualliflikda “XIX-XX asrlar badiiy metall buyumlari. Sharq davlat muzeyi to‘plami. (Moskva, Rossiya)” nomli monografiya ham nashr etadi. Ushbu asar o‘zbekcha tarjimada 2020-yilda Toshkentda nashr etilgan[2].

2013-yilda Moskvada Davlat Sharq muzeyi tashkil etilganligining 95-yilligiga bag‘ishlab S.B. Bolelov hamda T.K. Mkrtichev tomonidan “Religii i kulti domusulmanskoy Sredney Azii (IV v. do n.e. – IV v. n.e.)” (Islomgacha bo‘lgan O‘rta Osiyodagi din va kultlar (mil.avv. IV – mil. IV asrlar) nomli ekspozitsiyalar uchun yo‘l ko‘rsatkich nashr etiladi [1]. Kitobda Davlat Sharq muzeyi tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalarda O‘rta Osiyoni arxeologik o‘rganish tarixining qisqacha tavsifi berilgan. Kitobda O‘zbekiston va Turkmaniston hududidan topilgan, hozirda Davlat Sharq muzeyida saqlanayotgan 29 ta buyum hamda ularning tavsifi berilgan. T.K.Mkrtichev tomonidan “Moskva Sharq davlat muzeyi” nomli kitob albomida O‘rol Tansiqboev asarlari, XIX asrda O‘zbekiston hududida yasalgan turli madaniy meros namunalari aks ettirilgan [4, b. 25-28]. Biroq ushbu asarda aynan badiiy metall buyumlariga urg‘u berilmagan. D.Qurbonovaning “Jahonning yirik muzeylarida O‘zbekistonga oid kolleksiyalarning shakllanishi va ularni komplektlash tamoyillari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi mustaqillik yillarida yaratilgan xorijda saqlanayotgan madaniy merosimiz tadqiqiga bag‘ishlangan sanoqli tadqiqotlardandir [5]. Dissertatsiyaning 3-bobi 1-paragrafida tadqiqotchi Sharq davlat muzeyida saqlanayotgan O‘zbekiston madaniy merosi namunalariga ham muayyan darajada to‘xtalgan. Lekin tadqiqotda mavzuimizga daxldor bo‘lgan jihatlar umumiy ravishda yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga tayangan holda tavsiflash, mazmuniy va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Buyumlarni tavsiflashda shu turdagi analoglar bilan solishtirish usuli qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistondan keltirilgan, shakli va vazifasi turli xil bo‘lgan 200 ga yaqin badiiy metall buyumlar Sharq Davlat muzeyining to‘plamidan joy olgan. Dastlabki buyumlar 1919-yilda baron A.L.Shtiglis tomonidan asos solingan amaliy san’at muzeyidan kelib tushgan. Shu paytning o‘zida muzeyga Moskvadagi sobiq Stroganov bilim yurti muzeyidan to‘rtta buyum topshirilgan. Keyinchalik muzey to‘plami xususiy kolleksionerlardan (Z.V.Ratonova, A.S.Umnov, A.I.Smirnov, N.Hamdamova va boshqalar kolleksiyalari) olingan buyumlar hisobiga to‘ldirilgan.

O‘zbekistonning badiiy metall san’ati Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Qarshi, Toshkent va Samarqand mis buyumlar ustalari – misgarlari bilan mashhur bo‘lgan. Shakl va bezaklarning qat’iy qoidalarga asoslanganligiga qaramay, mavjud an’analar doirasida ustalar o‘z betakrorligi bilan diqqatni jalb qilgan buyumlar yaratgan, qoraytirish, rangli bo‘yoqlar bilan tus berish, yarim qimmatbaho toshlar –

serdolik va feruzadan ko‘zlar qadash, shisha va emallar bilan bezatish singari yangi naqsh unsurlari va uslublarini amaliyotga kiritgan. Metall buyumlarning bezagidagi asosiy jihat o‘yilgan naqsh bo‘lib, unga nafis o‘ymakorlik, kam hollarda chuqur o‘yma naqshlar solingan.

Metall idishlarning eng ko‘p tarqalgan turi – tahorat olish uchun ishlatiladigan oftoba yoki qumg‘onlar bo‘lgan. Muzeyda XIX asr – XX asr boshlarida turli markazlardagi ustalar yasagan qumg‘onlarning ajoyib to‘plami mavjud. Qumg‘onlardan biri (inv. raqami – 1843 III) kolleksiyaga 1930-yilda Ivanovo-Voznesensk muzeyidan keltirilgan. Ushbu suv idishi 1907-yilda taxminan Xivada yasalgan [2, b. 173]. Suv idishining ko‘p qismi (noksimon bo‘yni, egilgan uzun burni, nafis og‘zi) qora buyoq bilan uyg‘un tarzda qizil va yashil rangda sirlanib o‘ymakor naqsh bilan qoplangan. Muzey kolleksiyasida tos bilan oftobadan iborat bo‘lgan bir necha to‘plamlar mavjud. Ular ham har xil usulda – o‘ymakor naqshli yoki naqshsiz ishlanganini ko‘rish mumkin. Naqshlarning turlari va bajarilishi, albatta, haridorga, ya’ni uning ijtimoiy maqomiga yoki moliyaviy imkoniyatiga mos bo‘lgan.

Muzeyda saqlanayotgan yana bir oftoba (inv. raqami – 206 III) Farg‘onadagi eng yaxshi hunarmandlardan biri usta Nizomiddin tomonidan 1878-yilda yasalgan. Bu benazir asarda an’anaviy bezaklarning eng yaxshi usullari aks etgan bo‘lib, unda o‘ymakor naqsh qora, qizil bo‘yoq bilan uyg‘unlashtirilgan, feruza va shisha toshli qadama naqsh bilan bezatilganini ko‘rish mumkin. Idishning oyoqchasi tirqishni ajratib ko‘rsatuvchi nafis o‘ymakor naqsh bilan bezatilgan, bu oftobaning sharsimon tanasi shakliga yengillik bag‘ishlagan holda bir qaraganda muallaq turgandek ko‘rinadi. Dastaning egilgan joyida yozuv bo‘lib, kursiv uslubda o‘yib bosilgan: «arabchada matn» (usta Nizomiddin ishi [yil] 1295/1878) [2, b. 175].

Yuvinish uchun tos – dastshuy (inv. raqami – 207 III) ham shunga yaqin usulda bezatilgan. Tosning pirpirakli chetlari tagiga qizil va yashil bo‘yoq quyilgan tomchisimon shisha bo‘laklari, qopqog‘ining tepasi esa qirrali shisha kiritmasi bilan bezatilgan bo‘lib, qimmatbaho toshdek ko‘rinadi.

Muzey to‘plamida O‘rta Osiyoda keng tarqalgan ko‘zasimon mis idishlarning yana bir turi hisoblangan choydishning 15 ga yaqin turi namoyish etilgan. Choydish kichik davralarda choy qaynatishda ishlatilib, samovarning o‘rnini bosuvchi buyum bo‘lgan. Bunday idishlar shakl-shamoyiliga ko‘ra farqlanib, ba’zilari dumaloq, boshqalari yon tomonidan yassiroqligi yoki qirrali yuzasi bilan ajralib turadi.

Ba’zi ko‘zalarni o‘ziga xos tuzilishi bo‘lgan. Idishlarning ichida bo‘shliq bo‘lib, unga jumragi orqali suv quyilgan. Idishning yassiroq yon tomonlari teshikli o‘ymakor naqsh bilan bezatilgan, bu suvning tezroq isishiga yordam bergan. Lekin bunday “sirli” choynakka odatdagi idishlarga qaraganda ancha kam suv sig‘ardi.

Samarqandda chiqqan mazkur turdagi choydish (inv. raqami – 197 III) muzey kolleksiyasiga Stroganov bilim yurtining muzeyidan kelib tushgan, bu muassasaga esa 1872-yilda Nijegorodsk guberniyasi Murashkino qishlog‘ida yashovchi fuqaro Serebryakov tomonidan berilgan. A.S.Umnov kolleksiyasidan taqdim etilgan, 1930-yillarda muzeyga kelib tushgan qo‘qoncha choydish (inv. raqam – 1059 III) ham o‘ziga xos tuzilishga ega. Idishning qopqog‘ida irim-sirimlarga ko‘ra, shayton va jinlarni qo‘rqitadigai shaqildoq bor. Buxoroda ishlangan choydish (inv. raqami – 3530 III) esa alohida xususiyatga ega bo‘lmasa ham, tanasidagi nafis bezaklar bilan kishi e’tiborini tortadi, uning pirpirakli yuzasi chiqib turgan qirralarini oralatib to‘ldirib turgan o‘ymakor naqsh bilan bezatilgan. Naqshli va silliq yuzalarning ketma-ketligi idishning bezagiga alohida nafislik va yengillik baxsh etadi [6].

XIX asrda O‘zbekistonda choy damlash uchun metall choynaklar paydo bo‘lgan. Ular mahalliy bozorda ancha keng ommalashib, Rossiyada ishlab chiqarilgan ganchli sopol choynaklarning shaklini eslatardi.

O‘zbekistonlik ustalar yangi shakldan keng foydalanib, unga muqaddam an’anaviy metall idishlarda foydalanilgan mahalliy bezaklarni ko‘chirgan. Bu turdagi buyumlarning eng yaxshi namunalaridan biri Buxoroda XIX asrda yasalgan choynak (inv. raqami – 196 III) hisoblanadi. U muzeyga 1927-yilda Z.V.Ratonovaning kolleksiyasidan kelib tushgan [2, b. 175]. Idish aylanasiga bir tusda o‘ymakor o‘simliksimon naqshning bir necha tasmalari bilan o‘ralgan. Qopqoqchasi tirqishli naqsh bilan bezatilgan. Jo‘mrakning og‘zi yarim ochilgan gul shakliga ega.

XIX asrda o‘zbekona turmushning ajralmas jihati bo‘lib qolgan choy ichish bilan bog‘liq idishlar maqsadiga ko‘ra ishlatilganligidan tashqari boy uylarning ichini bezatish uchun ham foydalanilgan. Ular “Kuznesov” chinnisi bilan birga tokchalarga qo‘yilgan, lekin kundalik idishlar, masalan, suv tashish uchun ko‘za, chelak, ovqat tayyorlash uchun qozon ham uyg‘un shakli va bezaklari bilan ajralib turgan. Bulardan biri XIX asrning ikkinchi yarmida buxorolik usta tomonidan yasalgan ko‘zadir (inv. raqami – 14195 III). Idishning o‘ziga xos sodda shaklini bir necha tasma bo‘lib o‘rab turgan va yirik o‘simliksimon naqsh bilan to‘ldirilgan palmettalar shaklidagi bezaklar bo‘rttirib urg‘ulab turadi. Buxoroda yasalgan bunday idishlar O‘rta Osiyoda keng tarqalgan.

Muzey kolleksiyasidan o‘rin olgan satil (inv. raqami – 9931 III) ham Buxoro hududida yasalgan bo‘lib, yirik o‘yilgan naqsh bilan qoplangan, kompozitsiyaning asosiy motivlari sifatida anorlar chizilgan. Chelakning qopqog‘iga halqali kalta dasta kavsharlangan, agar qopqoqni yechib olib, biror yuzaga qo‘ysa, mustahkam taglikka aylanadi. Qopqoq ham alohida idishga aylanadi.

Toshkent ustaxonalarida tayyorlangan va ovqatni saqlash uchun mo‘ljallangan qozon (inv. raqami – 8369 111) ham diqqatga sazovor. Bu qozon yarim doirasimon tanasi va qopqog‘i yirik, shakliga mutanosib, o‘yma naqsh bilan bezatilgan. Tanasining yon tomonlarida bronzadan quyilgan ikkita katta dasta osilib turadi.

Mis o‘ymakor idishlar to‘plamiga dumaloq, oval, to‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat shaklda, chetlari tekis yoki pirpirakli bo‘lgan turli shakldagi patnislar ham kirgan. Ulardan faqatgina go‘sht, palov, mevalar tortish uchungina foydalanilmagan. Hashamdor bezatilgan patnislar mehmonxonaning tokchalariga qo‘yib chiqilgan. Patnisning yuza qismi odatda o‘simliksimon naqshli yirik atirgullar shaklidagi o‘ymakor naqsh bilan bezatilgan, keyinroq, XX asrning boshidan ustalar me’moriy yodgorliklarining tasviri, syujetli sahnalar va ramzlarni tasvirlashga kirishganlar. Masalan, Qo‘qonda XX asrning boshida yasalgan dumaloq patnis (inv. raqami – 2750 III) Xudoyorxon saroyi (O‘rda) tasviri bilan bezatilgan.

Patnislarni yasash bilan shug‘ullangan hunarmandlar orasida Buxoro maktabining ustalari mashhur bo‘lgan. Muzey kolleksiyasida kumushdan yasalgan, ko‘k sirli, qadama naqsh va qo‘shimcha bo‘yoqlar bilan bezatilgan ikkita patnis saqlanmoqda. Patnislarning markazida (1536 III, diam. – 35,3 sm; 4520 III, diam. – 48,5 sm) dumaloq jimjimador lavha ichida yirik bezakli nas’h yozuvi bilan «**بخارای شریف**» deb o‘yib yozilgan. Patnislardan birida usta ularning yasalgan sanasini (1320/1902 yil) o‘yib ko‘rsatgan [7].

Mohirona bezak qo‘llanadigan ommaviy buyumlar qatoriga chilimlarni ham kiritish mumkin. Sharq davlat muzeyining kolleksiyasida ham butunlay metalldan yasalgan, ham murakkab tarkibli, metall g‘ilofga kiritilgan, maxsus ekib o‘stirilgan qovoqlardan yasalgan chilimlar bor. Chilimning mis – g‘ilofi (inv. raqami – 14781 III) nafis o‘ymakor naqsh va feruzaga o‘xshash quyuq bo‘yoq bilan bezatilgan. Xatto uning yog‘och naychasiga ham o‘ta mayda geometrik o‘ymakor naqsh solingan. Afsuski, birorta chekish asbobi to‘liq holda, barcha kerakli qismlari bilan saqlanib qolmagan. Murakkab tarkibli chilimlarning ko‘pchiligi Buxoro va Qarshi hududlarida yasalgan. Ushbu ta’riflangan mis buyumlardan tashqari muzey to‘plamida boshqa muzey kolleksiyalarida kamdan-kam uchraydigan buyumlar ham namoyish etilgan. Masalan, guldon, dovul, isiriqdon, qalamdon, nosqovoq, tufdon kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Pardoz-andoz maqsadlari uchun mo‘ljallangan bir necha juda kichik hajmdagi surmadonlar, bronza o‘smadonlar ham mavjud. Shu tariqa asrlar osha qaror topgan maishiy idishlarning shakli bezakli ishlovlar bilan uyg‘unlashib, kundalik ro‘zg‘or buyumlarni xalq san’ati asarlariga aylantirdi.

Xulosa. Muzey kolleksiyasidagi badiiy metall buyumlarning barcha eng yaxshi namunalari XIX asrga mansub. Turli mintaqalar va hunarmandchilik markazlaridagi ustalarning ishlari O‘zbekistonda madaniyat va hunarmandchilikning rivoji haqida tasavvur hosil qilish, mahalliy badiiy maktablarga xos bo‘lgan xususiyatlarni belgilash imkonini beradi. Muzey kolleksiyasida faqat bir necha idishlar XX asrga mansub bo‘lib, ular katta hajmli idishlarni tayyorlashning an’anaviy malakalari, nafis o‘ymakor naqsh san’ati kabi tajribalarning susayganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Болелов С.Б., Мкртычев Т.К. Религии и культы домусульманской Средней Азии (IV в. до н.э. – IV в. н.э.). Путеводитель по экспозиции // М.: ГМВ, 2013. – 88 с.

2. Ермакова С., Филатова М.Ю. XIX-XX асрлар бадиий металл буюмлари. Шарқ давлат музейи тўплами. (Москва, Россия). – Toshkent: “SILK ROAD MEDIA”, “EAST STAR MEDIA”, 2020. – 462 б.

3. Мкртычев Т.К. Государственный музей искусства народов Востока и Узбекистан – страницы сотрудничества // Государственный музей искусства народов Востока. Специальный выпуск, 2010. – С. 6-9.

4. Мкртычев Т.К. Государственный музей Востока Москва. – СПб.: Издательство Государственного Эрмитажа, 2011. – 228 с.

5. Қурбонова Д.А. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплектлаш тамойиллари. Тарих фан. док. DSc. дис.... . – Тошкент, 2020. – 230 б.

5.https://web.archive.org/web/20180702030600/http://www.orientmuseum.ru/about/history/Default.aspx

6.https://www.orientmuseum.ru/events/2018/cikli_lekciy_2018/5_kovra_do_chashi/25_centralnaya_aziya/index.php

UO’K 908

O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT: O‘TMISH VA HOZIR

J. Abduqodirov, stajyor-o‘qituvchisi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O’zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati, shu sohada olib borilayotgan islohotlar va mintaqada joylashgan ziyorat turizmi obyektlari tarixi haqida ma’lumot berilgan, shuningdek, ularni tasniflash kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so’zlar. *Amir Temur, Temuriylar, Ziyorat turizmi, O’zbekiston, ziyorat obyektlarini tasniflash, halol turizm, ziyoratgohlar.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о потенциале паломнического туризма Узбекистана, реформах в этой сфере и истории объектов паломнического туризма, расположенных в регионе, а также такие вопросы, как их классификация.*

Ключевые слова. *Амир Темур, Тимуриды, Паломнический туризм, Узбекистан, классификация объектов паломничества, халяльный туризм, места паломничества.*

Abstract. *This article provides information about the potential of Uzbekistan's pilgrimage tourism, reforms in this field and the history of pilgrimage tourism objects located in the region, as well as issues such as their classification.*

Key words. *Amir Temur, Temurids, Pilgrimage tourism, Uzbekistan, classification of pilgrimage objects, halal tourism, pilgrimage sites.*

Bugungi kunda har bir sohani isloh qilish bilan birga, uni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyoti, aholi turmush tarzi va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sining oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday sohalardan biri ziyorat turizmidir.

Ziyorat barcha musulmon o‘lkalari kabi Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham azaldan sayyohlikning bir turi bo‘lib kelgan. Qadim zamonlardan buyon ulug‘ ajdodlari xotirasiga ehtirom ko‘rsatish maqsadida muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish odat tusiga aylangan. Shunday uchun ziyorat biz uchun yangi hodisa emas, balki uzoq vaqtdan buyon sayohat qilishning ajralmas motivi bo‘lib kelgan. Odatda, ziyorat iqtisodiy bo‘lmagan sayohatning eng qadimgi shakli hisoblangan.

Zamonaviy davrdagi turizm va sanoat va unga bog‘liq amaliyotlar ko‘p o‘rganilgan bo‘lsa-da, diniy turizm tadqiqotlarda eng kam o‘rganilgan sohalardan biridir. Buni, ayniqsa, turizm sohasining boshqa aspektlari va ular bilan bog‘liq bozorlar bilan solishtirganda bilish mumkin. Bu ajablanarli, chunki din asrlar davomida bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishda asosiy rol o‘ynagan. Shuningdek, odamlarning bo‘sh vaqtidan qanday foydalanishiga ta'sir qilgan [1:67].

Ko‘pgina adabiyotlarda sayyohlar va ziyoratchilar ikki xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan. Birinchi va ommabop fikr shundan iboratki, sayyoh va ziyoratchilar bir xil bo‘lmasa ham, o‘xshashdir, lekin ular tashrif buyuradigan sayyohlik ob’yekti bir-biridan farq qiladi. Ziyoratchi va sayyohlar yoki ziyorat va turizm o‘rtasida farq mavjud emas, degan fikrlar ham mavjud [1:24]. Aksincha, ziyorat odatda turizmning bir turi sifatida qabul qilinadi. Chunki u sayohat usullari va transport, xizmat va infratuzilmalardan foydalanish nuqtai nazaridan umumiy xususiyatlarga ega.

Yana bir qarama-qarshi nuqtai nazar shundaki, ziyoratchilar sayyoh emas. Balki ma'naviy yoki diniy e'tiqodga asoslangan ziyoratchilardir.

Ushbu mavzuga oid ma'lumotlar ko'plab xorijiy va mahalliy adabiyotlarda berilgan. Jumladan, mamlakatimiz qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ziyorat turizmini rivojlantirishiga oid farmon va qarorlarida so'z yuritilgan. Shuningdek, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bu borada izlanishlar olib borilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, A.Xudoyarov, R.Komiljon, E.Zayniddinov, N.Abdulahatov, T.G'oziev, M.Maxsudova, S.Usmonova, Sh.Xoshimov, M.Mirzayev, M.Aliyev, xorij tadqiqotchilaridan Bona Kim, J.Dallen Timothy, Daniel H. Olsen, Ömer Akgün Tekin, Zakia, Samori, Tomas, Zahra Moaven va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) tomonidan chiqarilgan "Strategic roadmap for development of islamic tourism" nomli kitobda ham bu haqda ma'lumot bayon qilingan.

O'zbekiston hududida joylashgan ziyoratgohlarni tasniflash muhim masala hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, tajribali gidlar tomonida sayyoh va ziyoratchilarga beriladigan ma'lumotlarning tarixiyligi va ilmiyligi saqlab qolinishi lozimdir. Mintaqada joylashgan ziyoratgohlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- *Hudud jihatidan (masalan: viloyatlar kesimida);*
- *Tarixiylik jihatidan (masalan: XVI asrga tegishli yodgorliklar);*
- *Asliyati yuzasidan tasniflash (masalan: madrasalar, maqbaralar, minoralar va hakazo);*
- *Sulolalar davriyligi yuzasidan (masalan: Temuriylar, Ashtarxoniylar);*
- *Din nuqtai nazaridan tasniflash (masalan: Islom dini bilan bogliq qadamjolar, Buddizm tarixiy joylari) va boshqalar.*

Yuqorida keltirilgan tasniflashni viloyat misolida ham keltirish mumkin. Buxoro viloyatini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiqdir:

- *Viloyat hududida joylashgan maqbaralar;*
- *Buxoro viloyati minoralari;*
- *Viloyat hududida joylashgan madrasalar;*
- *Me'moriy obida va majmualar.*

O'tmishda Markaziy Osiyodagi ulug' va mashhur kishilar qabri to'g'risida u yoki bu darajada ma'lumot beruvchi asarlardan tashqari, ularni ziyorat qilishga oid asarlar ham yaratilgan. Abu Hafs Umar Nasafiyning (1070–1142) "Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand" ("Samarqand ulamolari to'g'risida hikoya qiluvchi "Qand" asari"), Muin ul-Fuqaroning (XIV asr oxiri – XV asr o'rtalari) "Tarixi Mullozoda" ("Mullozodaning tarix kitobi"), Sodiq Munshiy Jondoriyning (1758–1820) "Dahmayi shohon" ("Shohlar dahmasi"), Abu Tohirxoja Samarqandiyning (vaf. 1874) "Samariya", Hakim Nuratoiyning "Ismhoi buzurgoni Buxoroi Sharif" ("Buxoroi Sharif ulug'larining ismlari") (1900) va Nosiriddin To'ra Buxoriyning "Tuhfat uz-zoyirin" ("Ziyoratchilarga tuhfa") (1906) kabi asarlar shular jumlasidandir [5:10]. Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih", Imom Termiziyning "Sunan", Abu Mansur Moturidiyning "Tavhid", Abu Mu'in Nasafiyning "Tabsiratul adilla", Abu Hafs Umar Nasafiyning "Aqoid", Abu Lays Samarqandiyning "Bahru-lulum", Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof an aqoiqi-t-tanzil", Abu Hafs Kabir Buxoriyning "Fatovo", Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" kabi noyob va qimmatbaho asarlari islom dini rivojida muhim ahamiyatga egadir. Ushbu olimlarning muqaddas ziyoratgohlari O'zbekiston hududida joylashgani mavzuning muhim ekanini ko'rsatadi [3:3].

Madaniy meros va tarixiy obidalar jamiyatda quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- *Ijtimoiy kapitalni shakllantirishga yordam beradi;*
- *Mahalliy urf-odat va madaniyatni saqlashda muhim rol o'ynaydi;*
- *Ijobiy xulq-atvorni targ'ib qiladi;*
- *Jamiyat imidji va g'ururini yuksaltiradi;*
- *Hududlarni obodonlashtirishga yordam beradi* [7:762].

Ziyorat turizmini rivojlantirishda tarixiy va madaniy meros ob'yektlarining roli juda kattadir. Shu ma'noda ziyorat turizmini madaniy va ma'naviy turizm deb ham atash mumkin. Jumladan,

"madaniy turizm" sayyohlarga ushbu mamlakat tarixi, an'analari, xo'jalik faoliyati, madaniyati, urf-odatlari va boshqa jihatlari bilan tanishish imkonini beradi. Insonlarning ana shunday joylarga tashrifi ularning ma'naviyatining yuksalishi va dunyoqarashining kengayishiga xizmat qiladi.

O'tmishda Markaziy Osiyoda ulug' va mashhur kishilar qabrlari to'g'risida bir necha asarlar yaratilgan. Ular orasida Muinul Fuqaroning (XIV asr oxiri – XV asr o'rtalari) "Tarixi Mullozoda" asari alohida o'ringa ega. Ushbu asarda Buxorodagi muqaddas ziyoratgohlar to'g'risida ma'lumot berilibgina qolmasdan, o'lkamizdagi islomiy ziyorat qoidalari, tartibi va odobi haqida ma'lumot berilgan va ular tizimga solingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dallen J. Timothy., Daniel H. Olsen. Tourism, religion and spiritual journeys. – USA, Canada: Routledge. – P.24,67.

2. Islamov Z. O'zbekistondagi qo'lyozma nusxalarining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati"// Islom tafakkuri. – T.: 2021. – B.3.

3. Khashimov Sh.J. Pilgrimage tourism in Uzbekistan: problems and solutions// Electronic research journal of social sciences and humanities: V.2. 2020. Iss. 1. – P.8.

4. Muin ul-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. Tarixi mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro. Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga tayyorlovchi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Komiljon Rahimov) – T.: Fan. 2019. – B.10.

5. Mirzayev M., Aliyev M. Turizm asoslari. – T.: Milliy jamiyat nashriyoti, 2011. –B.12.

6. Surayyo Usmanova. Ziyarah tourism as a new linkage for tourism development in Uzbekistan. New voices from Uzbekistan. 2019. – P.31.

7. Ömer Akgün Tekin. Islami turizm: dünya'daki ve türkie'deki genel durum Üzerine bir inceleme// The journal of international social research, 2014. –B.762.

UO'K 908

1991-2001 YILLARDA SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI FAOLIYATINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI

D.A.Abulqosimova, o'qituvchi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Maqolada Samarqand Davlat Universitetining O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirishda muhim roli va madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Samarqand Davlat Universiteti, uning faoliyati, tadqiqot, o'quv dastur.*

Аннотация. *В статье рассматривается важная роль Самаркандского государственного университета в развитии высшего образования в Узбекистане и его роль в развитии культуры.*

Ключевые слова: *Самаркандский государственный университет, его деятельность, исследования, учебная программа.*

Abstract. *The article reflects on the important role of Samarkand State University in the development of higher education in Uzbekistan and its role in the development of culture.*

Keywords: *Samarkand State University, its activities, research, educational program.*

Samarqand Davlat Universiteti ilmiy va ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Xalqaro tashkilotlar bilan bu hamkorlik Samarqand Davlat Universitetiga o'zining global ta'sirini kengaytirish, akademik standartlarni yaxshilash va oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Universiteti O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarga katta e'tibor berib, u mamlakatning intellektual rivojlhtutanishiga sezilarli hissa qo'shdi.

Ilmu-fan, ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchilari bo'lgan temuriylar hukmronligi (1370-1500) davrida Movarounnahr hududida, xususan, Samarqand shahrida fan va ta'lim taraqqiyoti uchun ijodiy muhit va iqtisodiy asos yaratilgan edi[1]. Sobiq ittifoq davrida universitet faoliyati g'oyaviy jixatdan markazdan boshqarilgan bo'lsada 1991 yil 31 avgust Mustaqillik universitet uchun tom ma'noda tarixiy asos hisoblangan Ulug'bek akademiyasi shon shuhratini qaytadan yaratish imkonini berdi. Bu tarixiy burilish Samarqand davlat universiteti zimmasiga ham katta ma'suliyat va butunlay yangi vazifalar yuklab, faoliyatida yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi.

Mustaqillik yillarining dastlabki yillari (1991-1992 yillar) universitet hayotida juda murakkab davr bo'ldi. Chunki 70 yil davomida universitetning o'quv, ilmiy, ma'naviy jarayonlariga ta'sir qilgan mafkuraviy tuzimni yangilash universitet rahbariyati, professor-o'qituvchilar oldiga juda katta mas'uliyat yukladi.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1992,1997) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi (1997) oliy ta'lim tizimida zamonaviy, yuksak bilimli va iste'dodli kadrlar tayyorlash borasida tub o'zgarishlar yasadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish haqida" qarori (1998) va boshqa me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlash universitetning asosiy vazifasiga aylandi. Oliy ta'limda mutaxassislar tayyorlashning ikki pog'onali-bakalavr va magistrature[2] (1998 yildan) va oliy ta'limdan keyingi ta'lim takomillashib bir pog'onali-fan doktorlari tayyorlash institutiga aylantirildi[3]. Qisqa vaqt ichida bakalavriatura va magistratura bosqichlarida fanlar bo'yicha Davlat ta'lim klassifikatorlari va standartlari ishlab chiqildi hamda o'quv jarayoniga tatbiq etildi. Jumladan, 1997-1998 o'quv yilidan tojik filologiyasi va jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishlari, 14 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlari, o'quv rejalari va fan dasturlari Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Samarqand davlat universitetida 16 ta fakultet bo'lib, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi, ijtimoiy-gumanitar kafedralari va xalqaro aloqalar markazi, akademik litsey, biznes maktab, o'quv va muammoviy ilmiy tadqiqot laboratoriyalari (Ilova №29), muzeylar (Zoologiya, Arxeologiya, Alisher Navoiy muzeyi), oranjeriya va botanika bog'i, ilmiy kutubxona, yotoqxonalar, dam olish va davolanish maskanlari, sport majmualari mavjud bo'lib, xar yili o'rtacha 7300 nafar talaba tahsil oldi (Ilova №30). Universitetda Huquqshunoslik fakulteti 1989 yilda tugatilgan edi, 1990 yil qayta ochildi. 1994 yil fakultet yana tugatilib, shu yil 20 iyun sanasi bilan tarix - huquqshunoslik markazi tuzildi[4].

1996-1997 o'quv yilida 4 ta kafedra, kriminalistika laboratoriya va kutubxonani o'z tarkibiga olgan alohida Huquqshunoslik fakulteti ochildi. 1992-yilda Sadriddin Ayniy nomidagi Samarqand pedagogika instituti Samarqand davlat universitetiga qayta birlashtirildi. 1994- yilda Samarqand davlat universitetining chet tillari fakulteti negizida Samarqand davlat chet tillar instituti tashkil etildi. Mustaqillik sharofati bilan Samarqand davlat universitetida zamon talablariga javob beradigan 10 dan ortiq yangi yo'nalishlar shakllantirildi (Ilova №31). 1998 yildan universitetda 30 ga yaqin yo'nalishda bakalavr va 60 dan ortiq yo'nalishda magistrlik mutaxassisliklari (Ilova №32) bo'yicha har yili jami 10 mingdan ziyod talaba tahsil olib turli yillarda ko'payib yoki kamayib bordi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklarning ma'lum yillarda ochilishi yoki yopilib ketishi xalq xo'jaligi ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan, lekin umumiy yillik monitoringning amalga oshirilmaganligi bitiruvchilarning ish bilan taminlashning miqdorini aniqlashtirishda murakkabliklar tug'diradi. Ularga 95 ta kafedra va o'nlab ilmiy laborotoriyalarda 100 dan ortiq fan doktorlari va professorlar 600 ga yaqin fan nomzodlari, jami 1000 ga yaqin professor-o'qituvchilar o'zbek, rus va tojik tillarida saboq berib faoliyat olib bordi. 2002 yil Universitet Ilmiy Kengashi qarori bilan boshqaruv tizimi va tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirishga doir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Kasbiy ta'lim fakulteti tashkil qilindi va 5 ta yangi kafedra ochildi.

Shuningdek, maxsus sirtqi bo'lim dekanati, informatsion texnologiyalarni tadbiq qilish va o'quv - diagnostika bo'limlari tashkil qilindi. Talabalarni o'quv va tarbiyaviy jarayonida kafedralar o'rnini kuchaytirish, boshqaruvni takomillashtirish, o'zaro aloqalarni tezlashtirish, kafedralar faoliyatni muvofiqlashtirish, professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida samaradorlikni oshirish, mehnat intizomini yaxshilash maqsadida Universitet rektorining 1996 yil 28 oktabrdagi buyrug'i asosida fakultetlararo dars beruvchi Ijtimoiy gumanitar kafedralar (Ilova №33) faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi alohida dekanat tashkil etildi[5]. 2002-2015 yillarda dolzarb vazifalardan biri sifatida barcha kompyuter sinflarini, masofadan o'qitish, internet aloqasi bilan ta'minlash, informatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish, kompyuterlar lokal tarmog'ini yaratishni markazlashgan holda boshqarishni tashkillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda mavjud markazlar va kompyuter sinflari negizida 2002 yil "Informatsion

texnologiyalarni tadbiq qilish va o‘quv diagnostika” markazi tashkil qilindi. Markaz qoshida “Masofali ta’lim”, “O‘quv diagnostika”, “Xalqaro ilmiy loyihalar tuzish” bo‘limlari muvaffaqiyatli ish boshlagan. Universitet bo‘yicha o‘tgan yillarning 2011-2012 o‘quv yiliga qiyoslaganda 28 ta bakalavriat yo‘nalishlari, 46 ta magistratura mutaxassisliklari, 31 ta aspirantura va 4 ta doktorantura yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassis va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlandi. Shu jumladan, 8 ta yo‘nalish bo‘yicha odatdagi sirtqi ta’lim, 4 ta yo‘nalish bo‘yicha ikkinchi mutaxassislik ta’limi, 5 ta yo‘nalish bo‘yicha uch yillik maxsus sirtqi ta’lim amalga oshirildi. Shuningdek, Mintaqaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi faoliyat ko‘rsatdi. Universitet huzuridagi mintaqaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi 1999 yil sentabr oyida universitet rektori R.I.Xalmurodov buyrug‘iga asosan malaka oshirish fakulteti negizida tashkil etilib faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 1991-2000 yillar davomida bir necha yil davom etgan ketma-ket shtat birliklarini qisqartirishlar kafedralar ilmiy-pedagogik salohiyatiga, qolaversa, o‘quv jarayoni sifatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. 1999-2000 o‘quv yilida mavjud professor-o‘qituvchilarning deyarli yarmi to‘liqsiz shtatlarda, ulardan ham aksariyati 0,25 va 0,5 shtat birliklarida faoliyat ko‘rsatishdi. Bu ham bo‘lsa 1999-2000 o‘quv yilida 73 nafar o‘qituvchining shtatlari to‘ldirib berilgandan keyingi ko‘rsatkich edi. Ko‘rilgan chora - tadbirlar o‘z natijasini berdi. 2000-2001 o‘quv yilida yana 86 nafar, 2001-2002 o‘quv yilida esa 126 nafar o‘qituvchilarning shtatlari to‘ldirildi . Yangi o‘quv yiliga kelib zaruriyat yuzasidan to‘liqsiz shtatda ishlayotgan xodimlardan tashqari deyarli barcha o‘qituvchilar to‘liq shtatlarda faoliyat ko‘rsatishlariga imkoniyat yaratildi. 1999 yildan keyingi ish hajmi, unga mos shtat birliklari, o‘rtacha o‘quv yuklamasi dinamikasi ifodalangan (Ilova №34) uch yil (2000-2003) davomida ish hajmi qariyb 130 ming soatga, shtat birliklari 250 taga oshdi, o‘rtacha yuklama esa 160 soatga kamaydi . Mutaxassis kadrlar tanqisligi ro‘y bergan kafedralar soni 5 tadan 37 taga yetdi. 2011 yildan boshlab har o‘quv yili boshida 1-blok fanlariga o‘zgartirish kiritilishi munosabati bilan dekanatlar va kafedralar tomonidan ishchi o‘quv rejalari hamda o‘quv dasturlari qaytadan ko‘rib chiqilib, tegishli tuzatishlar kiritildi. Bunda semestrlar bo‘yicha fanlardan yakuniy baholashlar miqdorining me’yordan, ya’ni 8- 10 tadan oshib ketmaslik choralari ko‘rildi[6].

Qo‘shma guruhlar va bir tilda o‘qiydigan guruhlarni o‘quv jarayoni sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan darajada yiriklashtirish, shuningdek, bir qism ish hajmining soatbay fonddan bajarilishi hisobiga o‘qituvchilarning o‘quv yuklamalari umumiy o‘rtacha 840-850 soatni tashkil qildi. Aytib o‘tish joizki, talabalar sonining oshishi, lekin bunga mos shtatlarning sentabr oyida emas, yanvar-fevral oyida ajratilishi o‘rtacha o‘quv yuklamasini, ko‘zda tutilganidek, 780-800 soatlarga tushirish imkonini bermadi. Universitet ilmiy salohiyati sifat va son jihatdan oshdi: ilmiy darajalilar miqdori 1991-1992 o‘quv yilida 50 % atrofida bo‘lsa, 2012 yilda bu ko‘rsatkich 62 % ni tashkil etdi. 1991-2012 yillar davomida Samarqand davlat universiteti mamlakatimiz xalq xo‘jaligi uchun 300 dan ortiq fan nomzodi va 50 ga yaqin fan doktorlarini yetishtirib berdi (Ilova №35, №36). Universitet olimlari davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida davlat budjetidan moliyalashtirilgan 595 ta va xo‘jalik shartnomalari asosida 200 dan ortiq loyiha ustida ilmiy izlanishlar olib borib, o‘zlarining ilmiy - amaliy tavsiyalari bilan xalq xo‘jaligining turli sohalari rivojlanishiga hissa qo‘shishdi. 1997-2011 yillar davomida Samarqand davlat universiteti olimlari 165 ta ishlanmaga patent va mualliflik guvohnomalarini olishgan (Ilova №37). 2012 yilda faqat ilmiy ishlarga jalb qilingan chet el grantlarining hajmi 3700,0 ming AQSh dollarini tashkil qildi. Olimlarning 20 dan ortiq ilmiy ishlanmalari xalq xo‘jaligining turli sohalariga, 50 dan ortig‘i o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. Tadqiqot ishlarini olib borishda 15 ta ilmiy va muammoli laboratoriya asosiy poydevor vazifasini o‘tadi. Bu davrda 5 ta yangi ilmiy laboratoriya va 1 ta yangi ilmiy markaz tashkil qilindi hamda ular zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Samarqand davlat universitetining istiqboldagi istiqbollari va rivojlanishi talabalarga har tomonlama va sifatli ta’lim berish uchun sohadagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va texnologik yutuqlarni qamrab olishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O'zbekistonda ta’lim tarixi va rivojlanish bosqichlari – Samarqand, 2010. – B

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 29.08.1997 y. O‘zbekiston qonuni xujjatlar to‘plami. № 464-I. 14-modda. [1]

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 29.08.1997 y. O‘zbekiston qonuni xujjatlar to‘plami. № 464-I. 15- modda.

4. Universitet rektorining 1994 yil 20 iyundagi №117 sonli buyrug‘iga asosan.

5. https://www.samdu.uz/uz/pages/university_histo

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 29.08.1997 y. O‘zbekiston qonuni xujjatlar to‘plami. № 464-I. 15- modda.

UO'K 92

NOGIRONLAR MILLIY REABILITATSIYASI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

M.O‘. Asadov, doktorant, Navoiy Davlat Universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasi nogironlar jamiyatlari faoliyati, ayniqsa milliy reabilitatsiyasi sohasida olib borilayotgan islohatlar, natijalari, yutuqlari va muammolari masalalari yoritishga harakat qilingan.Shuningdek, sohada davolash bilan bog`liq ijobiy o`zgarishlar, sihatgohlarning modernizatsiya qilinishi, xizmat ko`rsatishning yangi yo`nalishlari masalalari tahlil etilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *nogironlik, reablitatsiya, jamiyat, sanitariya-epidemiologiya, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza, diagnostika, modernizatsiya, protez - ortopediya, mehr-shavqat, xayr-ehson, murivat, renessans, kamolot, inklyuziv ta`lim, brayl, internat, nodavlat ta`lim muassasasi.*

Аннотация. *В статье рассматривается деятельность общесв инвалидов Республики Узбекистан, особенно реформы, проводимые в области национальной реаблитации, их результаты, достижения и прблемы. Также проанализированы положительные изменения, связанные с лечением, модернизацией санаториев и новые направления в предоставлении услуг.*

Ключевые слова*: инвалидность, реабилитация, общество, санитарно-эпидемиология, медико-социальная экспертиза, диагностика, модернизация, протезно-ортопедия, милосердие, благотворительность, сострадание, ренессанс, развитие, инклюзивное образование, Брайль, интернат, негосударственное образовательное учреждение.*

Abstract. *The article highlights the activities of the societies for people with disabilities in the Republic of Uzbekistan, particularly the reforms carried out in the field of national rehabilitation, their outcomes, achievements, and challenges. It also analyzes positive changes in treatment, the modernization of health resorts, and new directions in service provision.*

Key words: *disability, rehabilitation, society, sanitary-epidemiology, medical-social expertise, diagnostics, modernization, prosthetics and orthopedics, compassion, charity, empathy, renaissance, development, inclusive education, Braille, boarding school, non-governmental educational institution.*

Yurtimizda kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, nogironlar haq-huquq va erkinliklari himoyasini ta`minlash yo`lida davlatning ayricha g`amxo`rligiga tayangan holda nogironlar jamiyati va nodavlat tashkilotlari yuksalish sari odimlab bormoqda.

Bugunda dunyo aholisining 15% yoki qariyb 1 milliard insonning nogironligi bor. Shu ko’rsatkichning 2 yoki 3 foizini O’zbekiston aholisi o’rtasida qayd etish mumkin.2017-yil 1- yanvar holatiga ko’ra O’zbekistonda 650 284 kishi nogiron deb tan olingan. Ulardan 84 908 nafari 16 gacha bo’lgan bolalarni tashkil etadi. Bugunda O‘zbekistonda 760 ming 727 nafar nogironligi bo‘lgan shaxs istiqomat qiladi. Shularning 100 mingdan ortig‘i 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalardir. Ular ijtimoiy himoya va qo‘llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralari bilan qamrab olingan.[1]

O’zbekistonda davlat va hukumat tomonidan nogironlarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Buni 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O’zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida»gi Qonun tasdiqlaydi. U nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida islohotlar o’tkazish va reabilitatsiyani nogironlarga nisbatan ijtimoiy siyosatning asosiy yo’nalishi sifatida belgilash uchun asos bo’ldi.

Reabilitatsiyani rivojlantirish bu - sog’liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ustuvor vazifalar: sog’liqni mustahkamlash, kasalliklarning va nogironlikning oldini olish demakdir. Aholi sog’lig’i jamiyat farovonligining eng muhim ko’rsatkichi bo’lib, u atrof-muhit omillari, mehnat sharoiti, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa tovarlar, ijtimoiy ne’matlar, dam olish kabi ehtiyojlarni qondirish darajasiga bog’liqdir. Bu omillar orasida tibbiy yordam, uning o’z vaqtida berilishi, to’liqligi, sifati va mavjudligi muhim ahamiyatga ega,

Sog’liqni saqlashni tashkil etish sohasidagi ko’pchilik olimlar fikriga ko’ra so’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasida aholi sog’lig’ining yomonlashishi kuzatilgan. Bu quyidagi asosiy sabablar bilan xarakterlanadi. Qator ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar bo’yicha vaziyat keskinlashgan. Ma’lumotlariga ko’ra, sil kasalligidan o’lim ko’rsatkichi besh yil (1995-2000) davomida 33,0% ga oshgan va har 100 ming aholiga 12,5 ta holatga yetgan. Bolalar va o’smirlar o’rtasida yod tanqisligi kasalliklari tarqalishi taxminan 50,0% ni, Fertil yoshdagi ayollar o’rtasida temir tanqisligi anemiyasi tarqalishi taxminan 60,0% ni tashkil etgan.[2]

Yurtimizda sanitariya-epidemiologiya vaziyati tahlili shuni ko’rsatdiki, o’tgan o’n yillikda sog’liq va atrof-muhit holatini xarakterlovchi ayrim ko’rsatkichlar qoniqarsiz bo’lib, yaxshilanish tendensiyasiga ega emas edi.Alohida nozologik kasalliklar tarqalishi darajasi pasaymagan. Bu jarayon nogironlikning sonini ortishi bilan xarakterlanadi.

Nogironlik va nogironlar muammolarini hal qilish bugungi kunda O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib, mamlakat aholisining, shu jumladan ijtimoiy zaif qatlamlarning ijtimoiy farovonlik darajasini belgilab beradi Nogironlikni olti asosiy omil belgilaydi: aholi kasalliklari, demografik jarayonlar, aholining iqtisodiy va ijtimoiy holati, ishlab chiqarishda mehnat xususiyati, tibbiy-mehnat ekspertizasi (TME) xizmatlari holati va aholining moddiy-maishiy sharoiti, aholi sog’lig’i holatini va nogironlik ko’rsatkichlariga ta’sir etuvchi eng keng tarqalgan patologiya bu yurak-qon tomir tizimi kasalliklari hisoblanadi.

Ayni paytda O’zbekiston Respublikasida hozirgacha nogironlarni reabilitatsiya qilishning yagona tizimi mavjud emas edi. Reabilitatsiyani tashkil etishda tizimli yondashuv yo’q, turli sohalarga mansub muassasalarning o’zaro hamkorligi tartibi, reabilitatsiya tadbirlarini o’tkazishda izchillik va uzviylik mezonlari tartibi yetishmas edi. Sobiq sovet tuzumida nogironlar 3 guruhga ajratilib qonun doirasida nafaqa tayinlanar edi.[3] 30-yillarda tibbiy va mehnat ekspertizasini tartibga solishda muhim rol o'ynagan nogironlikning ushbu uch guruhli tasnifi bugungi kungacha ba'zi o'zgarishlar bilan mavjud edi. 15 iyul, 1932 yilda Ko`rlar jamiyatining 1- se`zdi bo`lib, uning ustavi qabul qilingach, aynan shu reablitatsiya yo`nalishidagi tartiblar maqullangan.[4]

1956 yil 14 iyuldagi "Davlat pensiyalari to'g'risida" gi qonun,1964 yil 15 iyuldagi “Kolxoz a'zolarining pensiyalari va nafaqalari to'g'risi”dagi qonun qabul qilingan.[5] Bu qonunlar nogironlarning pensiya ta'minotini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. lekin reablitatsiya yo`nalishida eski tartiblar saqlanib qoldi.

Vaziyatni ijobiy tomonga o`zgartirish maqsadida 2017 yildan boshlab nogironlar faoliyatini tubdan isloh qilish va rivojlantirish to`g`risida davlatimiz tomonidan qator qonun va farmonlar e`lon qilindi. Ayniqsa, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ijtimoiy himoya borasida muhim maqsad - vazifalar belgilandi[6].

Prezident administratsiyasi huzurida alohida agentlik ish boshlagani, uning negizida hududiy boshqarmalar hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlaro tashkil etilgani mavjud muammolar yechimiga tizimli yondoshish, nogironlar o`rtasida reablitatsiya tadbirlarini kuchaytirishga zamin yaratmoqda .Jumladan,Taraqqiyot strategiyasining **9-maqsad**ida keksa va nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, ularga qulayliklar yaratish haqida so‘z boradi. Dasturilamal hujjatning **53 - maqsad**ida aholining muhtoj qismini zamonaviy protez - ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash darajasini 60 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.Shuningdek, O‘zbekiston Prezidentining mazkur Taraqqiyot strategiyasini imzolashga oid Farmonida ko‘zda tutilgan ustuvor masalalarga to‘xtalish maqsadga muvofiqdir:

-Farmonga ko‘ra, aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Loyihada, jumladan, “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar,

yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha alohida ma’lumotlar bazasini yaratish ko‘zda tutilmoqda.

-Kelgusida ushbu ma’lumotlar bazasini o‘zida jamlagan “Ijtimoiy himoya yagona reestri” hozir amalda bo‘lgan “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” bilan integratsiya qilinadi.Taraqqiyot strategiyasining **66-maqsadi:** “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” deb nomlanadi. Ushbu maqsad doirasida, nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash; tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish masalasiga alohida e`tibor qaratildi.Demak, nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish kabi g‘oyat muhim vazifalar kun tartibiga qo‘yilgan. Ayni vaqtda ushbu chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jamiyat faoliyatidagi eng muhim vazifalardan yana biri nogironlar reabilitatsiyasi bo‘lib, bunda ularni zarur tiflo-vositalar bilan ta’minlash alohida o‘rin tutadi. Bu masala har doim davlatimizning diqqat markazida bo`lib kelgan.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy Agentligi tashkil etilib unga quyidagi vazifalarni amalga oshirish yuklatildi: aholini protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash; nogironligi bo‘lgan shaxslarning imtiyozli hamda bepul statsionar davolanishlarini ta'minlash; nogironligi bo‘lgan shaxslarning yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish; og‘ir ijtimoiy oilalar bilan ishlash; ruhiy-ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish; tazyiq va voyaga yetmagan bolalarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish; yetim va chin yetimlar bilan manzilli ishlash; ehtiyojmand aholi qatlamiga tibbiy, psixologik va boshqa xizmatlarini ko‘rsatish; keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda mehnat faxriylari uchun sanatoriylar hamda pansionatlarda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishdan iboratdir.

O’zbekiston Respuplikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 1-avgustdagi P.F-5006 sonli farmoyishi bilan tashkil etilgan “Nogironligi bo’lgan shaxslarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish nogironligi bo’lgan shaxslarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko’rsatish, ularni kasbga o’qitish, ishga joylashtirish va ahvolini chuqur kompleks o’rganish”ga doir farmon e’lon qilindi. Yurtimizda onalar va bolalarning sog’ligini muhofaza qilish,nogirin bolalarni tug’ilishini oldini olish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash uchun bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.Bundan tashqari, Taraqqiyot strategiyasi doirasida Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 noyabrdagi “Tibbiy - ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyati hamda bolalarga nogironlikni belgilash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi, 2022 yil 8 fevraldadagi “Tibbiy - ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlaini qabul qilinishi bu sohada izchil siyosatni amalga oshirish imkoniyatini bermoqda.

Endilikda hukumat qaroriga asosan nogironlikni olish tartibi o‘zgartirildi. Ya’ni,fuqarolarni ko‘rikdan o‘tkazish ularni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarga ko‘rikka yuborish orqali amalga oshiriladi. Ko‘rikka, shuningdek, statsionardan berilgan kasallik tarixini, ambulatory kartadan ko‘chirmalarni va bemorni ko‘rikka yuborish uchun asos bo‘lgan boshqa hujjatlarni o‘rganish ham kiradi. Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari majlisida ko‘rik to‘liq tarkibda va hujjatlar qabul qilib olingan kundan boshlab 10 kun ichida o‘tkazilishi, nogironlik belgilangan taqdirda, hujjatlar TIEK tomonidan qabul qilib olingan sana nogironlikning boshlanishi hisoblanadigan bo`ldi. Shu maqsadda Nogironlik jamiyati tashkil topgan davrdan boshlab aholi salomatligini mustahkamlash, profilaktik ko`rikdan o`tkazish, sog`lomlashtirish, nogironligi bor shaxslarning yurak-qon tomir, qandli diabet, surunkali o`pka kasalliklarini aniqlash, bo`yicha profilaktik ko`riklar tashkil etilib kelinmoqda.

Hozirda O’zbekiston Respublikasida nogironlarni tibbiy reabilitatsiya qilishning bosqichma-bosqich tizimi mavjud bo’lib, u ambulator, statsionar va sanatoriy - kurort bosqichlarini o’z ichiga

oladi. Davlat dasturiga muvofiq, respublika bo’ylab 12 ta reabilitatsiya markazi tashkil etildi, shu jumladan Toshkent shahrida Milliy reabilitatsiya markazi faoliyat olib bormoqda.

Kasbiy ta’lim, tibbiy va psixologik reabilitatsiya nogironlar o’rtasida reabilitatsiyaning samaradorligi, qisman va to’liq reabilitatsiya ko’rsatkichlarining o’sishiga olib kelmoqda. So’nggi yillarda nogironlarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo’nalishlari shakllandi, ular nogironlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya qilish, nogironlarni hududiy darajada reabilitatsiya qilish tizimini yaratish, hayot faoliyati uchun qulay muhit yaratish, ijtimoiy infratuzilma ob’ektlariga to’siqsiz kirishni ta’minlashga qaratilgan.

Bugunda Respublikada reabilitatsiya markazining faoliyatida ijobiy tendensiyalar qayd etilmoqda, reabilitatsiyadan o’tganlar soni esa ko’paymoqda. Ayni paytda Nogironlar jamiyatlari ham reablitatsiya jarayonlariga befarq emas. Imkon boricha baholi - qudrat nogironlarga tibbiy yordam ko`rsatishga intilishmoqda. Chunonchi 2022 yilda O’zKOJning 90 yillik yubiley tantanalari yurtimiz bo’ylab keng nishonlandi. Mazkur sanaga bag’ishlab O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov tomonidan 2022-yil 5-aprelda 65-sonli yig’ilish bayonnomasi imzolandi. Shu tadbirlar jarayonida O‘zbekiston Ko‘zi Ojizlar Jamiyatida 1325 nafar ko’zi ojiz nogironlar bepul tibbiy laborator funksional diagnostikadan o’tkazilgan, shundan 10 nafar ko’zi ojiz nogironlarga tibbiy xulosalar asosida jarrohlik amaliyoti o’tkazilgan. 255 nafar ko’zi ojiz shaxslar, tadbirlar davomida sog’lomlashtirilganlar va shu maqsadlarga 135 270 820 so’m safarbar etilgan.Tadbirlar davomida 58 740 820 so’m, byudjet mablag’lari 112 829 309 so’m,tashkilotchilar mablag’lari 1 640 222 900 so’m homiylar mablag’lari sarflangan. 2023 yil davomida esa 1825 nafar ko‘zi ojizlar bepul tibbiy labarator funksional diagnostikadan o‘tkazilgan, 11 nafar ko’zi ojizlarga tibbiy xulosalar asosida jarrohlik amaliyoti o’tkazilgan, 123 nafar ko’zi ojizlar statsionar sharoitda sog’lomlashtirilgan.[7]

Samarqand viloyatida 5 ta tibbiy - ijtimoiy muassasa, ya’ni Samarqand “Saxovat” uyi, Urgut erkaklar va Urgut ayollar “Muruvvat” uylari, Reabilitatsiya markazi va “Marvarid” sanatoriyasi faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Bugunda 2024 yil davomida ham ushbu muassasalar moddiy texnik bazasini yanada yaxshilash, u yerda yashovchi va davolanuvchi fuqarolarga qo’shimcha shart-sharoitlar yaratib berish bo’yicha barcha zaruriy choralar ko’rilmoqda., Samarqand viloyati bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 avgustda 237-sonli qaroriga asosan ro’yxatga olingan 2096 nafar yolg’iz fuqarolarning 1916 nafari to’liq dispanser ko’rigidan o’tkazilgan. Dispanser ko’rigi natijalari ko’ra davolanishga muhtoj 377 nafari statsionar sharoitda davolanishi tashkillashtirilgan, 13 nafar yolg’izlar “Saxovat” va 1 nafar yolg’izlar tegishli tartibda tibbiy xulosalarga asosan “Muruvvat” uyiga joylashtirilgan. Shu bilan birga tizim quyi tashkilotlari tomonidan 7 nafariga sog’lomlashtirish uchun reabilitatsiya markazlariga order rasmiylashtirildi hamda 102 nafariga tizim tashkilotlarida davolanishi uchun sanatoriya yo’llanmalari rasmiylashtirib berildi, 376 nafari shifoxonalarda statsionar sharoitda sog’lomlashtirildi va salomatligi tiklanishiga erishildi. 928 nafar fuqarolarga bepul imtiyozli dori-darmon va bog’lov materiallari olib berilishida ko’maklashildi. Bundan tashqari 2023 yil davri davomida hududiy TIEKlar tomonidan muhtoj deb topilgan jami 3081 nafar fuqarolar reabilitatsyai texnik vositalari bilan ta’minlandi, 390 nafar fuqarolarga 547 dona turli protez-ortiopediya mahsulotlari tayyorlab berilgan. Viloyat bo’yicha 2024 yil yil davomida birinchi marotoba nogironlik guruhi belgilash uchun 15 114 nafar bemorlar TIEKlarga murojaat qilgan, shulardan guruhi 10 601 nafar bemorlarga nogironlik guruhi belgilangandi. 2024-yilning 6 oy davomida nogironligi bo’lgan shaxslarning 335 nafari holatda (3,0 %) to’liq reabilitatsiya qilindi, ya’ni sog’lig’i to’liq sog’lamlashtirildi. Nogironligi bo’lgan shaxslarni 343 ta holatda (4,1 %) qisman sog’lomlashtirilgan. [8] Ayniqsa, viloyatda mavjud Urgut ayollar “Muruvvat” uyida yashovchi 293 nafar va Urgut erkaklar “Muruvvat” uyida yashovchi 250 nafar ruhiy xastaligi bor fuqarolarga hududiy TIEKlar tomonidan muhtoj deb topilgan jami: 3081 nafar fuqarolar reabilitatsyai texnik vositalari bilan ta’minlangan, 390 nafar fuqarolarga 547 dona turli protez-ortiopediya mahsulotlari tayyorlab berilgan. tuman, shahar hokimlarining tegishli qaroriga asosan yolg’izlar ro’yxatiga kiritilgan 2 131 nafar fuqarolarga 243 nafar tizim ijtimoiy xodimlari tomonidan manzilli ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko’rsatilib kelinmoqda. Viloyatimizda nishonlangan bayram va tadbirlarda ularga 781,0 mln. so’mlik turli shakllardagi yordamlar

ko'rsatildi, 3 nafarining tizim sanatoriyalarida, 605 nafarining ambulator,statsionar va uy sharoitlarida davolanishlari tashkillashtirilgan.

Buxoro viloyati Nogironlar jamiyatida esa 2024 yil davomida protez ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiya texnik vositalari ro'yxati 18 tadan 30 taga ko'paytirildi. Ajratilgan mablag' esa 1,5 barobar oshirildi, ularni yetkazib berish muddati o'rtacha 60 kundan 14 kunga qisqargani natijasida viloyatda protez va reabilitatsiya vositalari bilan 5 ming nafarga yaqin muhtoj shaxslar ta'minlangan.[9]

Navoiy viloyatida 2024 yil holatiga ko`ra 42923 kishi nogiron deb qayd etilgan bo`lsa, reablitatsiya natijasida 42936 kishi nogiron deb ro`yxatga olingan. Bu yil boshiga nisbatan 13 nafar nogironlar safini oshganini bildiradi. Reablitatsiyani maqsadi sog`lomlashtirish bo`lsa, bu holat nimaga yuz bergan? Bugunda bu masalani yechimini olimlarimiz turlicha izohlaydilar. Navoiy viloyatidagi muhitning holati so'nggi besh yilda barqarorlashgan bo'lsa-da, u salbiy tendensiyalar bilan xarakterlanadi. Bular atrof-muhit omillarining salbiy ta'siri bilan bog'liq.Tuproqlarning asosiy ifloslanish manbalariga sanoat korxonalari chiqindilari, sobiq qishloq xo'jaligi aerodromlari, zaharlik moddalar saqlanadigan poligonlar va ishlab chiqarish chiqindilari to'planadigan hududlar kiradi. Atrof-muhitning ehtimoliy xavfli ob'ektlaridan biri zaharlik moddalar saqlanadigan poligonlar bo'lib, respublika bo'yicha 13 ta shunday poligon mavjud. Ularning umumiy maydoni 60 gektardan ortiqni tashkil etadi. Poligonlarda taqiqlangan zaharli kimyoviy moddalar, mineral o'g'itlar, muddati o'tgan kimyoviy moddalar va ularning idishlari saqlangan. Deyarli barcha poligonlarda kimyoviy moddalarni saqlash sharoitlari belgilangan talablarga javob bermaydi.

Muhitning salbiy omillarini saralash asosida Navoiy viloyati uchun xavflilikning ustuvor omillari sifatida atmosfera havosi sifati, suv ta'minoti holati va ichimlik suvi sifati, tuproq holati, oziq-ovqat tarkibi va sifati aniqlandi.Muhit omillarining aholi salomatligiga ta'siri har xil: atmosfera havosi – 44,0%, ichimlik suvi – 30,0%, oziq-ovqat tarkibi va sifati – 26,0%.[10]

Navoiy reabilitatsiya markazi, viloyat VTEK bilan hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida, turli kasalliklarga chalingan bemorlarga IPR (individual reabilitatsiya dasturlari)ni amalga oshirish bo'yicha faoliyat yuritadi, o'z tajribasidan va tiklanish davolashning turli usullaridan foydalanadi.Reabilitatsiya markazi turli patologiyalarga chalingan bemorlarni tiklash uchun lazeroterapiya, magnitoterapiya, refleksoterapiya, fitoterapiya, fizioterapiya, LFK, massaj va boshqa usullardan foydalanib, davolash-profilaktika va reabilitatsiya yordami ko'rsatadi.

2017-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish ularning ijobiy dinamikasini o`sish ko`rsatkichlarini ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Navoiy viloyatiga bir necha marta tashhrif buyurib, viloyatdagi barcha tashkilot va korxonalar rahbarlariga ekologik muhitga alohida e`tibor berishga chaqirdi, tadbir-choralar belgilandi. So`ngi yillarda viloyatda olib borilayotga iqtisodiy islohotlar: chakana savdo aylanmasi, jumladan jamoat oziq-ovqat korxonalari savdo aylanmasi, aholiga ko'rsatiladigan pulli xizmatlar hajmi, aholining pul daromadlari oshganini tasdiqlamoqda. 2024 yil davomida Qashqadaryo viloyatida esa nogironlar soni 98700 nafarni tashkil etgan.Shundan 19359 nafari bolalar hissasiga to`g`ri keladi.Viloyatda reablitatsiya vositalari ta`minotida ilk qadamlar qo`yilib, 2024 yil davomida 966 ta ehtiyojmand kishiga protez-ortopediya buyumlari,166 ta ko`zi ojizga termometrlar bepul ulashilgan.[11]

Har yili KOJ tomonidan o'zgalar parvarishiga muhtoj ko'zi ojiz shaxslarning uylariga borib xolidan xabar olinsh an`an`aga aylangan. Masalan, 2024 yilda ularga 50 519 000 ming so'mlik moddiy va ashyoviy yordamlar ajratilgan. 425 nafar ko'zi ojiz nogironlar bepul tibbiy laborator funksional diagnostikadan o'tkazilgan shundan, 44 nafar ko'zi ojiz nogironlarga tibbiy xulosalar asosida jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan. 161 nafar davolanishga muxtojlar mavjud bo'lib, 7 nafar ko'zi ojiz shaxslar tadbirlar davomida sog'lomlashtirilganlar va ushbu maqsadlarga jami 837 635 574 so'm sarflangan.Tadbirlar davomida 478 098 574 so'm byudjet mablag'lari hisobidan 87 110 000 so'm boshqa tashkilotchi hisobidan, 113 450 000 so'm, O'zKOJ mablag'lari hisobidan 158 976 000 so'm mablag'lari sarflangan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 apreldagi "Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo`llab-quvvatlashga doir qo`shimcha chora - tadbirlar to`g`risida "gi PO-230-son Qarorining ijrosi bo`yicha Respublikada amaliy ishlar boshlandi.Respublika Reablitatsiya markazidan tashqari keksalar va nogironligi bo`lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko`rsatish, ularni sog`lomlashtirish va qo`llab-quvvatlash, ulanining sifatli tibbiy-ijtimoiy yordam olishlari uchun qulay shart-sharoitlar tibbiy ijtimoiy muassasalarning, jumladan, "Muruvat", "Saxovat" internat uylarining xizmatlari katta bo`lmoqda. Ayniqsa, xizmat ko`rsatish bo`yicha respublikada faoliyat olib borayotgan Toshkent viloyti "Yangiyo`l" Yurak va asab kasalliklari sihatgohi va O'zbekiston davlat Konservatoriyasi binosi. "Nurli maskan" maktab internat inshootlari hamma vaqt ularning xizmatida.

Madaniy - ma`rifiy tadbirlar ham nogironligi bor shaxslarni ma`naviy dunyosini boyitadi va qaysidir ma`noda uni sog`lom turmush tarizini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli nogironlar orasida ma`naviy tadbirlarning o`tkazilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Buxoro viloyat Nogironlar jamiyati bo`limi har yili aprel –may oylari Buxoro shaxrida joylashgan "Fitrat", "Somoniylar" bogida hamda "Devon-Begim" majmuasida turli tadbirlar o`tkazib kelishadi. Tadbirlarda tushgan mablag`lar nogironlar xarajatlari uchun sarflanib kelinmoqda.

Samarqandda "Do`stlik uyi" "Nodavlat notijorat tashkilotlari uyi" "59-sonli Nurli maskan", "Sadaf" bazmgohi" binosida ko`plab tadbirlar o`tkaziladi.Ayniqsa, "Nurli maskan' maktab-internatida turli tadbirlar: badiiy kechalar, "Isholar tanlovi", "Zukko bilimdonlar", "Kasb –hunar" tanlovlari o`tkazib kelinmoqda

Bugunda birgina KOJ da 227 ta maxsus madaniy - ma'rifiy muassasalar, turli binolardagi ma`rifiy-madaniy xonalar ko'zi ojiz fuqarolarga beminnat xizmat ko'rsatmoqda.Shulardan klublar 7 tani, aholi madaniyat va dam olish maskanlari 17 tani, maxsus xonalar 17 tani, ma'naviyat xonalari 48 tani, ko'zi ojizlar uchun maxsus kutubxonalar esa 138 tani tashkil etadi.

Prezidentimiz boshchiligida yuritayotgan insonparvarlik siyosati mahsulini bugun har bir nogiron kishi o`z kundalik hayotida chuqur his etmoqda. Bu sohada hukumatimizning so`ngi yillarda 200 dan ziyod qaror, farmonlari amaliyotga tadbiq etilayotganligi ijobiy o`zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. OZRes.KOJ jamiyatning 90-yillik yubleyi (2024y) munosabati bilan o`tkazilgan Tadbirlar doirasida ko'zi ojiz yoki zaif ko`ruvchi nogironlarning 22 nafariga ovozli tonometr, 25 nafariga ovozli termometr, 223 nafariga esa maxsus yig'ma xassa hamda 8 nafariga qo'ltiq tayoq reabilitatsiya vositalari tarqatilgan. 69 nafar ko'zi ojiz nogironlar sihatgoh yo'llanmasi bilan ta'minlangan. Shulardan 8 dona yo'llanma Kasaba uyushmasi tizimiga kiruvchi, 61 dona yo'llanma Tibbiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi sihatgohlarga ajratilgan. 904 nafar yotib qolgan, o'zgalar parvarishiga muxtoj ko'zi ojiz shaxslarning uylariga borib xolidan xabar olingan va ularga 49 468 730 ming so'mlik moddiy va ashyoviy yordamlar ajratilgan.

Tahlillar shuni tasdiqlamoqdaki, reablitatsiya yo`lanishida tadbiq etilayotgan yangi tartiblar nogironlar faoliyatida ijobiy o`zgarishlarga sabab bo`lmoqda. Ularning huquq va imtiyozlari davlat tomonidan qo`llab-quvatlanmoqda. Viloyatlarda ham Nogironlar jamiyatining bo`limlari, Ijtimoiy himoya milliy agentligi,uning tasarrufidagi "Inson" markazlari, O`zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari, Milliy Assosiatsiyasi, nogironlar jamoat birlashmalari bilan hamkorlikda manfaatli aloqalar o`rnatib, hamjihatlik bilan ijtimoiy xizmat turlarini oshirishga harakat qilinmoqda. Agar xizmat ko`rsatish turlari ko`rsatgichlari 2017 yilda 49 tani tashkil etgan bo`lsa, 2025 yilga kelib, 200 taga yetkazish ko`zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O`z.Res. Nogironlar jamiyati Asossiyatsiyasi arxivi// Hisobotlar.2024 yil.

2.Джураев Д.Х. Медико-социальние аспекты заболеваемости, инвалидности и совершенствования реаблитации инвалидов в Навоийской области Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук Москва. 2007. с-3

3.O`z. Res. MDA. Fond- M-49, op.1, ish-281, 8-varaq

4. O`z.Res.MDA. Fond.N.P. 2370. op-1. ish 3795. 2 varaq.

5. Фирсова М.В. История социальной работы в России. М.,1999.с-42

6.O`zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida.O`z.Res Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

7. O`z.Res. KOJ bo`limi arxivi.//Hisobotlar.2022-2023 yillar.

8. O`z. Res. Nogironlar jamiyati Samarqand viloyati bo`limi arxivi//Nisobotlar.2023-2024 yillar.
9. O`z.Res. Nogironlar jamiyati Buxoro viloyati bo`limi arxivi//Nisobotlar.2024 yillar.
10. Джураев Д.Х. Медико-социальние аспекты заболеваемости, инвалидности и совершенствования реаблитации инвалидов в Навоийской области Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук Москва.2007. с-11.
11. Ikrom Rajabov."Ijtimoiy himoyada integratsiya". Bir safda. Jurnal. 2024. 4-son, 25-bet.

UDC 37{575.1)(09)

PUBLIC EDUCATION IN THE UZBEK SSR FOR 20 YEARS 1924-1944

M.I.Asatullaev, teacher, Samarkand State University, Samarkand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek maktablari qurilishi, pedagog kadrlar tayyorlash vazifalari, darsliklar yaratish, madaniy qurilish, O'rta Osiyoning milliy-davlat chegarasi va maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Tuman, maorif, farmon, maktablar, o`qituvchi, apparat, sotsialistik musobaqa, komsomol, o`quv jarayoni.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о строительстве узбекских школ, задачи выращивания педагогических кадров, создания учебников, культурной строительстве, Национально-государственной размежевании Средней Азии и Учебно-воспитательных работах в школах во время второй мировой войны.*

Ключевые слова: *Район, образование, постановление, школы, учитель, аппарат, соцсоревнования, комсомол, учебный процесс.*

Abstract. *This article provides information about the construction of Uzbek schools, the task of cultivating teaching staff, creating textbooks, cultural construction, the National-State demarcation of Central Asia and educational and upbringing work in schools during the Second World War.*

Keywords: *District, education, resolution, schools, teacher, apparatus, socialist competition, Komsomol, educational process.*

In 1914-15, in the territory occupied by the Uzbek SSR, there were only 160 schools with 172,999 students. Most of them, 85%, were primary schools. Children of local nationalities in these schools made up 3-5%. In the first years of Soviet power and the existence of the Turkestan ACS, the conditions for the development of the Soviet school in Uzbekistan were very unfavorable. The civil war, the onset of foreign intervention, and the fight against Basmachi significantly slowed down the cultural growth of the young republic. In the construction of Uzbek schools, with the almost complete absence of local intelligentsia, the most difficult tasks of cultivating teaching staff and creating textbooks immediately arose.

The national-state demarcation of Central Asia at the end of 1924 gave a powerful impetus to the development of national culture in Soviet Uzbekistan and in other Soviet republics of Central Asia. After the organization of the independent Uzbek SSR, the network of schools in it began to grow extremely quickly. In 1927, before the beginning of the first five-year plan, there were already 1825 schools with 133 thousand students in the Uzbek SSR. The 1200 schools remaining before this year, mainly in the western regions, were liquidated. The Soviet school gained undivided dominance, becoming the basis for an unprecedented rise in the national culture of the young republic.

The enormous organizational significance of the first five-year plan was clearly reflected in the development of national education in Uzbekistan. The number of schools more than doubled during the first five-year plan: from 2,320 at the beginning of the first five-year plan to 4,971 at the end of the five-year plan. During the same time, the number of students increased from 167,938 in 1928/29 to 569,230 in 1932/33.

In 1928, the school of Uzbekistan switched from the Arabic alphabet to the Latinized alphabet, which significantly facilitated the educational process.

In 1930, the government of the USSR adopted a law on the introduction, from 1930/31, of universal compulsory education throughout the USSR in the amount of at least a four-year course of

primary school, and in industrial cities, factory districts and workers' settlements, compulsory completion of seven-year school courses was established.

In the 1930/31 school year, i.e., after the law on the introduction of universal education was adopted, the number of primary school students immediately more than doubled, increasing by 153 thousand, and the following year the increase was another 125 thousand students: having switched to a four-year course of study, Primary schools still produced relatively small numbers of fourth-grade students, but they achieved almost universal coverage of children in the first grades; this explains the rapid increase in the number of students in schools; the foundation for the implementation of universal education in Uzbekistan was laid.

In addition to the enormous growth in the number of schools and students, the social composition of schools changed radically: workers and the broad masses of working people in the villages were given the opportunity to educate their children in school. Education in the native language covered all the nationalities inhabiting Uzbekistan. In addition to Uzbek schools, schools of all other local nationalities have become widespread in the republic: Tajik, Kazakh, Kyrgyz, Turkmen, local Jewish, Uyghur.

By the end of the first five-year plan in 1932/33, the total number of schools had reached 4971, and the rapid development of seven-year secondary education had begun. The number of incomplete secondary and secondary schools had increased from 121 during the five-year plan to 277. The second and third five-year plans were a period of powerful growth in secondary education. The number of incomplete and secondary schools grew rapidly. By the beginning of the third five-year plan, incomplete secondary and secondary schools already made up more than a third of the total number of schools, and by the end of the third five-year plan, they already made up half of the total number of schools.

In 1938, another important reform was adopted in the schools of Uzbekistan: schools switched to the Russian alphabet, which significantly facilitated the opportunity for the Uzbek people to become familiar with the treasure trove of the ancient culture of the great Russian people. Thus, in the third five-year plan we came very close to successfully resolving the task of implementing seven-year universal education in rural areas with a significant expansion of ten-year education. In 1942/43, by the end of the third five-year plan, out of 967,200 students, 751,200 (78%) were studying in incomplete secondary and secondary schools.

The Great Patriotic War, which began in June 1941 and is now approaching a victorious conclusion, brought significant difficulties to the education of children. However, the Soviet school demonstrated its vital network of the republic in the difficult days of the war, despite military difficulties /lack of buildings, teachers, textbooks, shoes and clothing, etc./ and continued to function fully.

This is evident from the fact that the graduation rate from the 7th grade in the three pre-war years was 110,600 people, and during the three years of the war, 130,800 people graduated from the 7th grade. Likewise, the graduation rate from the tenth grade increased from 8,850 people during the war years to 9,240 people. If in the pre-revolutionary period, 17,299 students were studying in all schools on the territory of the republic, and children of local nationalities made up only 3.5% of this number, then as a result of the powerful flourishing of national culture by the 20th anniversary of Uzbekistan, the number of students increased 50 times, and secondary education received even greater development.

The Uzbek Republic, located deep in the rear, was faced with large-scale, responsible tasks: supplying the army, arranging for the evacuees and the wounded. Together with all the people of Uzbekistan, hundreds of thousands of schoolchildren, led by teachers, took an active part in resolving these tasks.

New and varied types of student labor became commonplace in Soviet schools during the war years. Many schoolchildren worked on collective and state farms and intensively cultivated school plots of land. The boys collected various types of raw materials for defense needs: wild plants (medicinal, technical, food), fruit pits (for making gas masks), scrap metal, bottles for fighting tanks, waste paper, etc.

In cities and workers' settlements, middle and high school students were involved in production assistance to defense enterprises. In a number of schools, training and production workshops were organized, which manufactured simple parts for defense workshops. School workshops also began to produce scarce consumer goods, primarily needed by the students themselves, and to repair shoes and clothes.

In lessons and extracurricular activities (reading, stories, artistic productions) teachers brought up students in the spirit of ardent love for the socialist homeland, for its valiant defenders and its wise leader, Comrade Stalin, in the spirit of irreconcilable hatred for the rapists and oppressors who attacked us. These feelings were also passed on to the students' parents. A simple woman said that when she sent her daughter to study at the 22nd school in Samarkand, she hoped that the school would provide the girl with an education. But it turned out that the mother herself, regularly attending parent-teacher meetings, had, as it were, "gone through university" - had learned a lot.

In some schools, teachers not only joined the ranks of donors themselves, but also convinced several people living near the school to donate their blood for wounded soldiers. Wartime conditions required new methods of teaching. The departments of public education and individual institutions responded to the shortage of teaching supplies by making ink from moraine, reed pens, slate notebooks, homemade visual aids and devices.

The war affected the content of the academic work in individual subjects. Literature and history teachers paid special attention to the topic of material that contributed to the patriotic education of students. Mathematicians, physicists, chemists, biologists, and geographers strove, while fulfilling state programs in their subjects, to help students prepare for defense: they taught them fast arithmetic, introduced them to the use of electricity, the principles of mechanics, and the laws of acoustics in military affairs, carefully explained how chemistry is used for military purposes, and taught them how to survey by eye.

During the war, military physical training of students took a very prominent place in the work of schools and was restructured on new principles. Pupils of the best schools remember their teachers with love at the front. Important decrees of the party and government and directives of the People's Commissariat of Education, issued during the war, were aimed at improving the system of educational work in our schools.

These are decrees and instructions on military-physical training in schools, on the abolition of socialist competition in educational work, on the introduction of a five-point system for assessing the knowledge and behavior of students, on strengthening control over the work of schools and teachers, on the introduction of matriculation exams and final exams for the seven-year and primary school course, on the work of the Komsomol in school, on the introduction of separate education for boys and girls in city schools.

In parallel with the active participation of collective farmers in the fields, schools in wartime faced the urgent task of carefully cultivating their school plots. It was necessary to skillfully combine the use of these plots for experimental and educational purposes with obtaining the maximum output for the preparation of hot breakfasts.

REFERENCES:

1. National Archives of the Republic of Uzbekistan. Fund R-94 Inventory 5 file 3 a p. 8
2. National Archives of the Republic of Uzbekistan. Fund R-94 Inventory 5 file 3 a p. 15
3. National Archives of the Republic of Uzbekistan. Fund R-94 Inventory 5 file 3 a p. 20
4. National Archives of the Republic of Uzbekistan. Fund R-94 Inventory 5 file 3 a p. 21
5. National Archives of the Republic of Uzbekistan. Fund R-94 Inventory 5 file 3 a p. 23
6. National Archives of the Republic of Uzbekistan. Fund R-94 Inventory 5 file 3 a p.24
7. National Archives of the Republic of Uzbekistan. Fund R-94 Inventory 5 file 3 a p. 25

UO'K 908

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN FAN VA TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIKLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI

N.A. Axmadova, PhD, katta o'qituvchi, Osiyo texnologiyalar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalar, o'zaro almashinuv, fan va ta'lim sohasidagi hamkorliklar va bitimlar manbalar asosida yoritildi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi o'zaro hamkorligiga to'xtalib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, MDH, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Tojikiston, xorijiy mamlakatlar, diplomatiya, elchixona, iqtisodiyot, siyosat, fan va ta'lim, ilmiy- texnikaviy, sog'liqni saqlash, sayyohlik, turizm, madaniyat.*

Аннотация. *На основе источников освещены отношения, взаимный обмен, сотрудничество и соглашения в области науки и образования между странами Центральной Азии Узбекистана. Было затронуто взаимное сотрудничество Узбекистана со странами Центральной Азии в экономической, социальной и культурной сферах.*

Ключевые слова: *дипломатические отношения, международное сотрудничество, СНГ, Центральная Азия, Казахстан, Таджикистан, зарубежные страны, дипломатия, посольство, экономика, политика, наука и образование, научно-техническая, здравоохранение, туризм, туризм, культура.*

Abstract. *Relations, mutual exchanges, cooperation and agreements between Uzbekistan and Central Asian countries in the field of science and education were covered based on sources. Uzbekistan's cooperation with Central Asian countries in the economic, social and cultural spheres was touched upon.*

Key words: *diplomatic relations, international cooperation, CIS, Central Asia, Kazakhstan, Tajikistan, foreign countries, diplomacy, embassy, economy, politics, science and education, scientific and technical, healthcare, tourism, culture.*

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik va do'stlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Bu davlatlar bilan bizning o'tmishimiz, madaniyatimiz, tilimiz va dinimiz chambarchas bog'liqdir.

Markaziy Osiyo xalqlari ruhiyati asrlar mobaynida bir-biriga tutashib, ma'naviy, diniy va axloqiy munosabatlari o'zaro uyg'unlashib ketgandir. Yashash tarzi va urf-odatlari o'zaro mushtarak bo'lib kelgan. Insoniyat tarixida bunday ma'naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik bu diyorda hamisha hamma narsadan ustun kelgan. Shuning uchun ham Mavlono Rudakiy: "Dunyoning shodligi yig'ilsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun", deb bejiz aytmagan. Mustaqillik davrida millat va millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat va madaniy merosi, etnik muammolar, hududiy va iqtisodiy birlik to'g'risidagi tasavvurlar o'zgardi[1].

2017 yil 22 martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qozog'iston Respublikasiga qilgan davlat tashrifi Qozog'iston – O'zbekiston aloqalarini jadal rivojlantirdi va yanada kengaytirdi. Istiqlol yillarida O'zbekiston Respublikasining qozoq millatiga mansub 600 dan ziyod fuqarosi yuksak davlat mukofoti va unvonlariga ega bo'ldi. Bu esa ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, xalqimiz orasida hurmat qozonib, keng e'tirof etib kelinayotganining tasdig'idir.

2018 yil 15 mart kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlat rahbarlarining ishchi uchrashuvi ham bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ikki davlatning tarixiy o'tmishi haqida so'zlab shunday degan edi: "Buyuk shoir va mutafakkir Abayning quyidagi fikrlari bugungi intilishlarimizga mosdir: "Ezgulik, rahmdillik, o'zingga ravo ko'rganni boshqalarga ham ravo ko'rish – mana, haqiqiy qalb qanday bo'lishi kerak. Chinakam sheryurak, qozoqcha aytganda, "jurekli" odamlar shunday bo'ladi"[2].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning taklifiga asosan Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqaev 2019 yilning 14-15 aprel kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi[3].

“O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida 2019 yil 15 aprel kuni O‘zbekistonda Qozog‘iston yilining rasmiy ochilish marosimi bo‘ldi. O‘zbek va qozoq xalqlari azaldan bir-biriga tayanch bo‘lib, qiyinchiliklarni yengib o‘tgani, bugungi kunda xalqlarimizning umumiy kelajagini ham birgalikda bunyod etayotgani ta’kidlandi. “Bugungi kun O‘zbekiston va Qozog‘iston munosabatlarida yangi, tarixiy kun sifatida xalqlarimiz o‘rtasidagi qardoshlik aloqalarini rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi, deb ishonaman” – dedi davlatimiz rahbari.

Ma’lumki, 2018 yil Qozog‘istonda O‘zbekiston yili deb e’lon qilingandi. Bu yil doirasida san’at va madaniyat, adabiyot, ilm-fan, turizm va boshqa sohalarda 100 dan ortiq tadbirlar tashkil etildi. Teatr, folklor jamoalari va estrada xonandalarining ijodiy safarlari bo‘lib o‘tdi. Olmaotada o‘zbek adabiyoti kunlari hamda Taraz, Chimkent, Qizilo‘rda, Turkiston shaharlarida o‘zbek kinosi kunlari bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbarining 2018 yil 13 martdagi qaroriga muvofiq qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboev ijodiy merosini o‘rganish tashkil etildi. Qozog‘istonda Alisher Navoiy tavalludining 577 yilligi keng nishonlandi.

Qozog‘iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqaev O‘zbekistonda qozoq tili va madaniyatini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor uchun minnatdorlik bildirdi. Qozog‘iston yili doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar qardosh xalqlarimiz madaniy aloqalarini yanada mustahkamlashini qayd etdi. Mamlakatimizda Qozog‘iston yilining o‘tkazilishiga katta tayyorgarlik ko‘rildi, san’at, fan va ta’lim, tadbirkorlik sohalari vakillarining hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish, bilim va tajriba almashish uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Madaniyatlarimiz bir-birini boyitishiga, xalqlarimiz yanada yaqin bo‘lishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlari yangi davrga qadam bosmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmonning taklifiga binoan 2018 yilning 9-10 mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Bugungi kunda tojik millatiga mansub qariyb 1,5 million O‘zbekiston fuqarosi mamlakatimizda istiqomat qilyapti va davlatimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ular orasida davlat arboblari, korxona rahbarlari va san’atkorlar ham mavjud va ularning ko‘pchiligi davlatimizning yuksak mukofot va unvonlariga ega bo‘lganlar[4].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 2018 yilning 17 avgust kuni davlat tashrifi bilan davlatimizga keldi[5]. O‘zbekiston va Tojikiston xalqlarini ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik, yagona din, o‘xshash madaniyat, urf-odat va an’analar bir-biriga mustahkam bog‘lab turadi. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 9-10 mart kunlari Tojikistonga davlat tashrifi tarixiy voqea bo‘ldi. Davlat boshliqlarining o‘zaro muloqotlari O‘zbekiston – Tojikiston hamkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bugun O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan tojik millatiga mansub yurtdoshlarimiz nufuzi 1,5 millionga yaqin. Ular orasida davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganlar ko‘p. Respublika tojik milliy madaniyat markazi va uning 10ta hududiy filiali faoliyat yuritmoqda[6].

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik aloqalari ham bugungi kunda mustahkamlanib bormoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 2017 yilning 6-7 mart kuni davlat tashrifi bilan Ashxobodda bo‘ldi**[7]**. Xalqimiz turkman xalqi bilan ham azaldan yonma-yon, ahil-inoq yashab kelgan, bir daryodan suv ichgan. Savdo-sotiq qilgan, bir-birining madaniyatini boyitgan.

2017 yilning 7 mart kuni Turkmanistonning Turkmanobod shahrida Islom Karimov xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmuasi barpo etildi va Birinchi Prezidentimizning byusti o‘rnatildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 2018 yilning 23 aprel kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi[8]. O‘zbek va turkman xalqlari azaldan bir daryodan suv ichib, tinch-totuv, ahil-inoq yashab kelgan. Xalqlarimizni yagona tarix, mushtarak madaniyat va qadriyatlar, o‘xshash

til va urf-odatlar birlashtirib turadi. Bu yaqinlik mamlakatlarimiz o‘rtasidagi mustahkam hamkorlikka asos bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sport delegatsiyasi 2017 yilning sentabr oyida Ashxobodda o‘tgan V Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo‘yicha Osiyo o‘yinlarida ishtirok etdi. 2017 yilning noyabr oyida Turkmanistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazildi. Ushbu tadbir doirasida mamlakatimiz san'at ustalari va madaniyat arboblari ishtirokidagi konsert, badiiy asarlar ko‘rgazmasi tashkil etildi. Tashrif doirasida oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida va axborot-kommunikatsiya sohalariga oid 15 hujjat imzolandi.

2017 yil may oyida o‘zbek va turkman xalqlari boqiy do‘stligi hamda qardoshligining ramzi sifatida Toshkent shahrida Maxtumquli nomidagi ko‘cha va unga bag‘ishlangan me'moriy yodgorlik ochilgan edi. O‘zbekistonda 189 mingga yaqin turkman millatiga mansub vatandoshlarimiz yashamoqdalar. 44ta maktabda 8 mingdan ortiq bolalar turkman tilida bilim olmoqda. Ular turkman tilidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan to‘la ta'minlangan hamda bu darsliklarni chop etish uchun "O‘zbekiston" nashriyotida "Turkman tili" bo‘limi faoliyat olib bormoqda. Turkman tilidagi maktablar uchun pedagog kadrlar Qoraqalpoq davlat universiteti va To‘rtko‘l pedagogika kollejida tayyorlanmoqda.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik aloqalari ancha ilgari boshlangan. O‘zbek va qirg‘iz xalqlarining madaniyati, tili va dini bir-biriga ancha yaqindir. Birinchi Prezident Islom Karimov O‘zbekiston va Qirg‘iziston munoabatlarining yo‘lga qo‘yilishiga katta hissa qo‘shdi. Prezident Sh.Mirziyoev O‘zbekiston va Qizg‘iziston aloqalarini yanada rivojlantirmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning taklifi bilan Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atamboev 2017-yilning 5-6 oktabr kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi[9]. Bu jihatlar madaniy-gumanitar aloqalar rivojida muhim omil bo‘lmoqda. O‘zbekistonda qirg‘iz tili va madaniyati, Qirg‘izistonda o‘zbek tili va madaniyatini o‘rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2017 yilda Qirg‘iziston teatr ijodkorlari Farg‘ona vodiysiga, o‘zbekistonlik san'atkorlar O‘sh, O‘zgan, Aravon, Novqat, Qorasuv, Jalolobod shaharlariga ijodiy safar qildi. Qirg‘iziston delegatsiyasi mamlakatimizda bo‘lib turgan ayni kunlarda Qirg‘izistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Тарихимиз ҳам, келажагимиз ҳам муштарак. Асарлар, 2-жилд.-Т.: Ўзбекистон, 1996, -Б.233

2.Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2017, -Б. 378.

3.Қозоғистон - яқин қўшнимиз, ишончли ҳамкоримиз ва қалин шеригимиз. // "Халқ сўзи" газетаси, 2019 йил 16 апрель.

4.Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Асарлар, 2-том. -Т.:Ўзбекистон, 2018. -Б.341.

5.Ўзбекистон ва Тожикистон- стратегик шерик мамлакатлар. // "Халқ сўзи" газетаси, 2018 йил, 18 август.

6.Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Асарлар, 3-том. -Т.:Ўзбекистон, 2019. -Б.178.

7.Ўзбекистон- Туркманистон: яқин қўшничилик ва қардошлик ришталари мустаҳкамланмоқда. // "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил 8 март.

8.Ўзбекистон- Туркманистон: ҳамкорликнинг янги босқичи. // "Ўзбекистон овози" газетаси, 2018 йил 24 апрель.

9. Дўстлик, аҳил қўшничилик ва ишончни мустаҳкамлаш йўлида. // "Халқ сўзи" газетаси, 2017йил 7 октябрь.

UO'K 63

YEVROPA MAMLAKATLARIDA QORAKO‘LCHILIK SOHASINING TARAQQIY ETISHI

B.A.Axmedov, dots., Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qorako‘l qo‘ylarini turli mamlakatlarga eksport qilish tarixi va iqlimlashtirish jarayoni yoritilgan. Qorako‘lchilikning rivojlanishi, muammolari va muvaffaqiyatli tajribalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Bolgariya, Germaniya, Polsha, AQSh kabi*

davlatlarning qorako'lchilik sohasidagi tajribalari ko'rib chiqilib, iqlim va parvarish sharoitlarining ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Qorako'l qo'ylari, eksport tarixi, iqlimlashtirish, qorako'lchilik, rivojlanish, muammolar, tajriba, Bolgariya, Germaniya, Polsha, AQSh, iqlim sharoitlari, parvarish.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается история экспорта каракульских овец в различные страны и процесс их акклиматизации. Анализируются развитие каракулеводства, его проблемы и успешный опыт. Также изучаются практики таких стран, как Болгария, Германия, Польша и США, в области разведения каракульских овец, с учетом влияния климатических условий и особенностей ухода.*

Ключевые слова: *каракульские овцы, история экспорта, акклиматизация, каракулеводство, развитие, проблемы, опыт, Болгария, Германия, Польша, США, климатические условия, уход.*

Abstract. *This article explores the history of exporting Karakul sheep to various countries and the process of acclimatization. The development, challenges, and successful experiences of Karakul breeding are analyzed. Additionally, the experiences of countries such as Bulgaria, Germany, Poland, and the United States in the field of Karakul sheep farming are examined, with a focus on the impact of climate and care conditions.*

Keywords: *Karakul sheep, export history, acclimatization, Karakul breeding, development, challenges, experience, Bulgaria, Germany, Poland, USA, climate conditions, care.*

Yevropada jumladan, Bolgariyaga qorako'l qorako'l mo'ynasi importi doimiy ravishda o'sib bordi. Buning sharofati bilan xalq xo'jaligi uchun qimmatli valyuta tejab qo'yildi, undan boshqa zarur tovarlar sotib olindi. Boshqa tomondan, mahalliy dag'al junli qo'ylar chatishtirilgan qorako'l yetishtirish uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qorako'l qorako'liga ichki talab, shuningdek, aralash qorako'l yetishtirish va eksport qilish uchun qulay imkoniyatlar Qishloq xo'jaligi vazirligini 1945-yilda SSSRdan (O'rta Osiyo Respublikasi) ko'p miqdorda qorako'l qo'ylarini olib kirishga turtki bo'ldi. Yarim zotli qorako'l qo'ylarini yetishtirish uchun mamlakatimizda zotli qorako'l qo'ylarining podasi bo'lishi zarur. Bunday poda 1946-yilda sovxozda V.Kolarova tomonidan yaratildi.

Ilgari qorako'l qo'ylarini iqlimlashtirishga urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Bu oxirgi, eng muhim importni (120 ta malika va 41 qo'chqor) Bolgariyaga kelganidan so'ng darhol hayvonlarning iqlimga moslashish qobiliyatini o'rganishni boshlashga majbur qildi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi yangi sharoitlarning ta'sirini aniqlash edi 137 bosh qo'ylarning tirik vazni, konformatsiyasi, sustliligi, jun qirqishi, unumdorligi, salomatligi va sifati past bo'lgan. Ruminiya Rossiyaga birinchi marta 1884-yilda, ikkinchi marta 1889-yilda Buxorodan naslli qo'ylar olib kelgan[1]. Shundan so'ng Ruminiya Rossiyadan yana bir necha bor qorako'l qo'ylarini olib keldi. Qorako'l qo'ylari soni bo'yicha Germaniya Yevropada ikkinchi o'rinni egallaydi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1936-yilda Germaniyada 1000 bosh naslli va 8758 bosh naslli qorako'l qo'ylari bo'lgan[2]. Qorako'l qo'ylari Bosniyaga sobiq Bessarabiyadan olib kelingan. Bu yerda ular dengiz sathidan 1400 m balandlikda ko'paya boshladilar. Mahalliy dag'al junli qo'ylarning qorako'l qo'chqorlari bilan kesishishi ikkinchi va uchinchi avlodlarga yetib bordi va Adametsning fikricha, hosil bo'lgan smushkalar jilosi, sifati va jingalak zichligi bo'yicha Buxoronikiga yaqin edi. 1901-yilda Serbiyaga birinchi marta Qrimdan 100 bosh qorako'l malika va qo'chqor keltirildi. Shundan keyin yana bir necha bor qorako'l qo'ylari olib kelingan. Oziqlantirish va parvarish qilishdagi xatolar, shuningdek, urushlar Bosniya, Gersegovina va Serbiyada qorako'lchilikning rivojlanishini to'xtatdi. Vengriyaga juda oz sonli qorako'l qo'ylari olib kelingan. Astraxan naslchilik Italiyaning shimolida va Sitsiliya orolida ham rivojlana boshladi. Sitsiliyada 600 ga yaqin naslli qorako'l qo'ylari bor. Hozirda u yerda qorako'l qorako'li mahalliy dag'al junli qo'y zotlarining (Imrinskiy, Mendesskaya va Lazarskaya) qorako'l qo'chqorlari bilan chatishtirish orqali olinadi. So'nggi yillarda qorako'l smushki ishlab chiqarish bo'yicha tajribalar quyidagi mamlakatlarda o'tkazildi: Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya va hatto Islandiyada, Skandinaviya mamlakatlarida qorako'lchilik juda muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Norvegiyaga birinchi marta qorako'l buzoqlari 1919-yilda olib

kelingan, 1934-yilda esa 168 bosh qorako'l qo'chqorlari mavjud bo'lib, ular yiliga 3000 ga yaqin boshqa zotlarning malikalarini urug'lantirardi. Qorako'lchilik AQSH, Kanada va Janubiy Amerikada juda cheklangan miqyosda rivojlangan. Jyuhening ma'lumotlariga ko'ra, 1939 yilgacha Shimoliy Amerikada turli avlodlarga mansub 3000 bosh zotli va 25 ming naslli qorako'l qo'ylari bo'lgan[3]. Rakul qo'ylari Janubiy-G'arbiy Afrikada eng tez va keng tarqalgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qorako'l qo'ylari Avstraliyadan tashqari yer sharining barcha qit'alariga kirib kelgan.

Keng geografik hudud va issiq dasht o'simliklariga qaramay. Qorako'lchilik hududlarda tarqalishi tufayli faqat quruq iqlimi bo'lgan hududlarda hamda chala cho'l, cho'l va boshqa mamlakatlarda tovar xo'jaligi sifatida o'zini namoyon qildi va ularning atrof-muhit sharoitlari bilan vatani sharoiti o'rtasidagi tub farqga ega. qorako'l zotini iqlimlashtirish bo'yicha ko'plab tajribalar muvaffaqiyatli bo'lmadi va sof zotli hayvonlarning chetdan qayta-qayta keltirilishiga qaramay, bu joylarda qorako'lchilik keng miqyosda rivojlana olmadi va ko'pincha sof havaskorlik xarakteriga ega edi. Bolgariya turk qulligidan ozod bo'lganidan so'ng ko'p o'tmay go'zal va qimmatbaho qorako'l qorako'l qo'ylari bolgar mutaxassislarining e'tiborini tortdi. Bolgariya qo'ychilik yaxshi rivojlangan mamlakatdir. Qo'ylar soni bo'yicha Yevropada oltinchi o'rinda turadi; kvadrat kilometrga to'g'ri keladigan qo'ylar soni bo'yicha ikkinchi, 1000 aholiga to'g'ri keladigan qo'ylar soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Qo'ychilikni rentabelli qilish maqsadida qo'ylardan olinadigan daromadni nafaqat jun, sut va go'sht, balki ko'proq qo'y olish hisobiga ham oshirish imkoniyatlari izlandi. Bunday imkoniyat 1939-yilda topilgan mahalliy dag'al junli qo'ylarni qorako'l qo'chqorlari bilan kesib o'tish masalasi, buning natijasida olingan qorako'l olingan. Bolgariyada bu yanada muhimroq, chunki bu yerda qo'ylar sog'iladi va yangi tug'ilgan qo'zilarni so'yish sut mahsuldorligini 2 baravar oshiradi. 1898-yil Bolgariyaga qorako'l qo'ylarining birinchi importi Janubiy Rossiyada 20 bosh qo'chqor sotib olib, Pazardjik doimiy komissiyasi tomonidan amalga oshirildi. Oradan besh yil o'tib, 1903-yilda xuddi shu komissiya Rossiyadan yana 40 bosh qo'chqor, 50 ta malika va 7 ta qorako'l zotli qo'zilarni sotib oldi. Tashishning sustligi, oziqlantirish va parvarishning yomonligi sababli yo'lda 26 bosh qo'chqor, 16 bosh malika va 2 bosh qo'zi nobud bo'lgan. Bir yil davomida tirik qolgan hayvonlardan yana 15 ta malika va 11 qo'chqor nobud bo'ldi. 1904-yilga kelib, atigi 19 ta malika, 5 ta qo'zi, birortasi ham qolmagan. Shu munosabat bilan qorako'l qo'ylarini yanada sof ko'paytirish imkoniyati yo'qoldi.

Kelgusi yilning oxiriga kelib (1905-yil) barcha chetdan keltirilgan qorako'l qo'ylari va ularning nasllari nobud bo'ldi. Muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, 1906-yilda Pazardjik doimiy komissiyasi uchinchi marta Rossiyadan 60 ta qorako'l qo'chqorini olib keldi, ulardan 5 tasi yo'lda nobud bo'ldi. Qolgan hayvonlardan 50 boshi mahalliy dag'al junli qo'ylar bilan chatishtirish uchun aholiga tarqatilib, qo'yxonada atigi 5 bosh qo'chqor qolgan. Qo'ylar Dobrich viloyatining bir qator qishloqlarida xususiy mulkdorlar - qo'y boquvchilar o'rtasida taqsimlandi. Sofiya doimiy komissiyasi taxminan bir vaqtning o'zida chetdan qorako'l qo'chqorlarini ham olib kelib, Pirdop va Ixtimon tumanlari aholisiga tarqatildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, polshalik qorako'lchilarning ko'rgazmalarida bir necha bor sovrinli o'rinlarni olganini qayd etish mumkin. Polshada asmushka ishlab chiqarish yiliga atigi 1500 terini tashkil qiladi, ichki bozor va eksport uchun asmoshkaga ehtiyoj haqiqatan ham cheksizdir. Astraxan uchun davlat xaridi narxi sifatga qarab bir dona uchun 200 dan 1200 so'mgacha narx beriladi. 1924-yilda Sharqiy Slovakiyada tajriba tariqasida qorako'l qo'chqorlarini turli zotdagi, asosan, volosh (oq va qora), gempshir va sharqiy friz qo'ylari bilan chatishtirish ishlari olib borildi[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Холин Г.Е. Из опыта проведения раннего окота каракульских овец в совхозе «Гузар» // Каракулеводство и звероводство. - Москва, 1956. №4. - С. 19-22.

2. Холин Г.Е. Из опыта проведения раннего окота каракульских овец в совхозе «Гузар» // Каракулеводство и звероводство. - Москва, 1956. №4. - С. 25-29.

3. Бойко Д.Ф., Канцепольский А.С. Ленинградский пушной аукцион и очередные задачи каракулеводства // Каракулеводство и звероводство. - Москва, 1956. №6. - С. 22-29.

4. Стоянковская В.И. Коракул куйларини устириш тажрибаси. -Т., 1962. - 44 б.

5. Axmedov F., Gaziyev A., Narziyev M. Qorako'lchilikdagi muhim tadbirlar // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - 2011. -№2. -B. 8-9.

6. Badalboev S. O'zbekistonda qorako'lchilik. -Toshkent: Uzdavnashr, 1959. -40 b.;

7. Barakatov B. Qorako‘lchilik (yoki bozor iqtisodiyoti sharoitida bu sohani qanday rivojlantirish mumkin? // Iqtisod va hisobot. -1993.-№2.-B.26-27;

8. Bobokulov N. Qorako‘lchilikni rivojlantirish nimalarni taqozo etadi? // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. -2000. -№3. -B. 55-56.;

UO’K 902

TARIXIY VA MADANIY MEROSNI AKS ETTIRUVCHI URBANONIMLAR

L.I.Bakhramova, o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shahar toponimlari (urbanonimlar) orqali tarixiy va madaniy merosni qanday ifodalash mumkinligi tahlil qilinadi. Urbanonimlar jamiyatning tarixiy davrlari, diniy-ijtimoiy hodisalari, milliy qadriyatlari hamda madaniy an’analari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘z nomlari orqali avlodlar o‘rtasida merosiy xotirani saqlashga xizmat qiladi. Maqolada eski nomlarning tiklanishi, yangi nomlash siyosati va global ta’sirlar urbanonimlar orqali qanday namoyon bo‘lishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *urbanonim, shahar toponimi, tarixiy meros, madaniy an’ana, nomlash siyosati.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается, как городские топонимы (урбанонимы) могут отражать историческое и культурное наследие. Урбанонимы тесно связаны с историческими периодами, религиозно-социальными явлениями, национальными ценностями и культурными традициями общества, способствуя сохранению памяти поколений посредством своих названий. В работе анализируется восстановление старинных названий, политика переименования и влияние глобализации, которые проявляются через городские топонимы.*

Ключевые слова: *урбаноним, городской топоним, историческое наследие, культурная традиция, политика наименования.*

Abstract. *This article examines how urban toponyms (urbanonyms) can reflect historical and cultural heritage. Urbanonyms are closely tied to historical periods, religious-social phenomena, national values, and cultural traditions, serving to preserve intergenerational memory through their names. The study explores how the restoration of old names, renaming policies, and global influences manifest within urban place names, highlighting their role as markers of collective memory.*

Keywords: *urbanonym, city toponym, historical heritage, cultural tradition, naming policy.*

Urbanonimlar – bu shahar, qishloq yoki boshqa turar joylardagi ko‘cha, maydon, xiyobon, chorraha, mahalla, inshoot nomlari bo‘lib, ular nafaqat aholini yo‘naltirish, manzillarni aniqlash vazifasini bajaradi, balki jamiyatning tarixiy va madaniy merosini ham aks ettiradi. Tilshunoslikda “toponimika” deb atalgan yo‘nalish turli geografik nomlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi, urbanonimika esa ana shu tizimning shahar, sanoat zonalari, turar-joy massivlari doirasidagi nomlarini izohlaydi. Demak, shahar nomlari tarkibiga kiradigan har bir unsurning o‘z tarixi bor, bu unsurlar xalqning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, milliy mentaliteti, dini, madaniy qadriyatlari, tarixiy shaxslar xotirasi bilan chambarchas bog‘liq.

Urbanonimlar tarixiy jarayonlar natijasida shakllanadi, o‘zgaradi yoki yangilanadi. Masalan, O‘zbekiston shaharlarida har bir davrga xos bo‘lgan nom berish an’analari kuzatiladi. Sho‘ro davrida ko‘plab ko‘chalar, maydonlar, mahallalar sotsialistik ideologiyani ifodalagan holda nomlanar edi: “Lenin ko‘chasi”, “Komuna ko‘chasi”, “Oktyabr maydoni” va shu kabi. Mustaqillik yillarida esa bu nomlar ko‘p hollarda milliy tarix hamda madaniyatga tayangan holda qayta ko‘rib chiqildi: “Mustaqillik ko‘chasi”, “Alisher Navoiy prospekti” yoki mashhur ma’rifatparvarlar, davlat arboblari, adiblar sharafiga berilgan nomlar. Ana shu misollardan ko‘rish mumkinki, urbanonimlar har bir davrda ijtimoiy-siyosiy voqelikni o‘zida aks ettirib, ayni paytda katta ma’naviy-ma’rifiy ahamiyat ham kasb etadi.

Tarixiy va madaniy merosni ko‘rsatuvchi urbanonimlar, avvalo, xotiraga tadbiq qilingan belgilar sifatida qaraladi. Ular o‘z nomida shaharlarning qadimiy tarixini, slavyan yoki turkiy kelib chiqishi, islomiy yoki ajam madaniyatlarga bog‘liqligi, mahalliy etnik guruhlar turmush tarzi va boshqalarni yoritib beradi. Masalan, Samarqand shahridagi “Registon” maydoni, “Shohi Zinda”

majmuasi yonidagi ko‘chalar, Buxorodagi “Po‘yi Kalon” atrofi, Toshkentdagi “Hastimom” maydoni, “Chorsu” kabi nomlar bir qarashda shunchaki geografik punktlarni bildirsa-da, aslida ming yillik tarixiy xotirani o‘zida saqlab keladi. “Chorsu” so‘zi turkcha “to‘rt” (char) va “suv” yoki “yo‘l” kabi unsurdan kelib chiqqan degan taxminlar mavjud bo‘lib, bu joylarning bozorbop markaz yoki chorrahada joylashuvini aks ettiradi. Ayrim ko‘chalarga turli sulola hukmdorlari, buyuk siymolar, tarixiy voqealar nomi berilishi orqali o‘sha shaxslarning xizmatlari e’tirof etiladi yoki muhim hodisalar xotirasi saqlab qolinadi.

Bu jarayonda madaniy merosni ifodalashda din, milliy urf-odatlar va an’analar ham muhim o‘rin tutadi. E’tibor qilinsa, ko‘plab urbanonimlarda tasavvuf namoyandalari, avliyolar, shayxlar va mashoyixlar nomlarini uchratish mumkin – masalan, “Xoja Ahror Vali”, “Bahouddin Naqshband” kabi nom berilgan ko‘cha, mahalla yoki ziyoratgoh atrofidagi maydonlar. Bunday nomlar nafaqat hudud ahlining e’tiqodiy qadriyatini aks ettiradi, balki shu tariqa o‘tmish ma’naviy dasturlarining, ajdodlar merosining davomiyligi va barhayotligini ham yoritadi. Shuningdek, u yoki bu avliyoga tegishli bo‘lgan rivoyatlar, nozik bir tasavvufiy latifa yoki tarixiy hodisa shu joy nomi orqali avlodlar xotirasida saqlanib turadi. O‘z navbatida, bu nomlar shahar manzarasida muayyan “brend”ga aylanib, turizm sohasini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi.

Urbanonimlar tahlil qilinganda, turli tillar aralashuvi, tarixiy bosqichlar o‘zgarishi va lingvistik zichlik sezilib turadi. Ayniqsa, O‘zbekiston misolida arabcha, fors-tojikcha, turkiycha, ruscha, zamonaviy inglizcha nomlar aralashuvi ko‘rinadi. Bunga yillar davomida mintaqada hukmronlik qilgan davlatlar, savdo aloqalari, madaniy muhitning shakllanishi ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, “Ark” – qadimiy mudofaa qal’asi nomi, “Ko‘k gumbaz” – me’moriy xususiyatni bildiruvchi nom, “Gospitalnaya ko‘chasi” – Sho‘ro davridan qolgan ruscha iz, “Downtown City” kabi zamonaviy lotincha-chet tiliga xos ifodalar – bu nomlar barchasi shahar ijtimoiy-diniy, siyosiy, savdo-iqtisodiy jarayonlarning turli bosqichlarini ko‘rsatib turadi. Shu nuqtai nazardan, urbanonimlarni faqat lug‘aviy jihatdan emas, balki murakkab semantik, semiotik va sotsiolinguistik hodisa sifatida ham o‘rganish muhim.

Tarixiy va madaniy merosni ifoda etuvchi urbanonimlar shahar madaniyatining bir qismi bo‘lib, ular orqali hududning brendi shakllanadi. Masalan, Parij deyilganda “Eyfel minorasi” atrofidagi “Champs-Élysées” (Shanzelize) nomi, London deyilganda “Piccadilly Circus”, Istanbul deyilganda “Taksim maydoni” yoki “Istiklol ko‘chasi” tasavvur qilinadi. O‘zbek shaharlarida ham xuddi shunday brend sifatida “Amir Temur xiyoboni” Toshkentning aynan markaziy qiyofasini belgilaydi, “Bibi Xonim masjidi” yoki “Gur Amir” maqbarasi atrofi esa Samarqandning tom ma’nodagi tarixiy timsoli bo‘lib xizmat qiladi. Bu nomlar mahalliy aholi uchun kundalik manzil belgilari sifatida ahamiyatli bo‘lsa-da, chet ellik sayyohlar uchun ham jozibador brend, orientir va madaniy meros haqidagi birinchi taassurot bo‘lib xizmat qiladi.

Urbanonimlarni tadqiq qilish jarayonida, eng avvalo, turli davrlarda yuz bergan nomlash siyosati (toponimik siyosat) o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Siyosiy maqsad yoki ideologik sabablar bilan o‘zgartirilgan nomlar ba’zan tarixiy merosni soya ostida qoldirishi, ba’zida esa tamomila yo‘qqa chiqarishi mumkin. Mustaqillikdan keyin boshqa tamoyillar asosida qayta nomlash jarayoni O‘zbekistonda ham kuzatildi. Masalan, “Leninskiy prospekt” “Mustaqillik shohko‘chasi”ga aylansa, “Proletar ko‘chasi” “Istiqlol ko‘chasi” deb ataldi. Shuningdek, turli hududlarda qadimiy nomlar qayta tiklandi, natijada mahalliy aholi o‘z tarixiy ildizlariga qaytdi. Shu nuqtada, urbanonimlar o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajarib, madaniy xotirani avloddan-avlodga yetkazadi.

Shaharlarimizda joriy etilayotgan ba’zi yangi urbanonimlar esa zamonaviy dunyoqarashni, globallashuvni va innovatsion taraqqiyotga intilishlarni ham ifodalaydi. Masalan, “Xalqaro ishbilarmonlik markazi”, “InnoHub” yoki “Digital City” kabi nomlar kelajak iqtisodiyotiga asoslangan tushunchalarni yuritish istagini bildiradi. Biroq shu bilan birga, shahar rasmiylari va til siyosati yurituvchi organlar har bir yangi nomni berishda uning madaniy kontekstga mos kelishiga, mohiyatan milliy qadriyatlar va urf-odatlarga zid bo‘lmasligiga e’tibor qaratishi lozim. Zero, urbanonim – oddiy nom emas, balki kelgusi avlodlar ongida va tarixiy manbalarda saqlanib qoluvchi ijtimoiy-ma’naviy belgi ekanligini unutmaslik darkor.

Tarixiy va madaniy meros ifodalanishidagi muhim omillardan biri – bu shahar aholisining urbanonimlarga bo‘lgan munosabati. Har bir nomga shunchaki rasmiy qaror yoki hujjat orqali erishish mumkin, lekin uning hayotiyligi, xalq orasida “tilga tushishi” va faol qo‘llanilishi uchun vaqt, odat va an’ana zarur. Ko‘pincha yangi nomlar aholi orasida tarqalguniga qadar eski nomlar “xalqcha” ravishda ishlatilaveradi. Masalan, “Sobiq Gospitalnaya ko‘chasi”ni rasmiy ravishda “Navbahor” ko‘chasi deb qayta nomlansa ham, aholi o‘n yillar mobaynida eskicha nomni ishlatib yurishi mumkin. Natijada, real nutqda bu ikki nom paralel ravishda yonma-yon qo‘llanilishi ham kuzatiladi. Bu hodisa urbanonimlarning ijtimoiy mentalitet bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Urbanonimlar shahar merosini xalqaro miqyosda tanitishda ham muhim rol o‘ynaydi. Turizm rivojiga sarmoya kiritayotgan shaharlar o‘zining tarixiy yodgorliklari, madaniy muassasalari, mashhur bozor yoki maydon nomlarini brend sifatida targ‘ib qiladi, rasmiy xaritalar va yo‘riqnoma materiallarini turli tillarda chop etadi. Natijada, chet ellik sayyohlar shaharning muayyan diqqatga sazovor joyi bilan birga o‘sha joy nomini ham yodlaydi. Misol uchun, “Labi Hovuz” – Buxoroning tanilgan hududi bo‘lib, bu nom sayyohlar orasida shunchalik mashhurki, ular “Labi Xauz”ni butun shahar bilan bog‘liq bo‘lgan markaziy nuqta sifatida qabul qiladi. O‘z navbatida, madaniy merosga e’tibor berish tufayli “Chorsu”, “Xastimom”, “Qiyiq” kabi nomlar ham pirovardida turizm sohasining marketing strategiyalariga qo‘shilib, qadim an’ana va zamonaviy sayyohlik xizmatlari o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni shakllantiradi.

Shunday qilib, tarixiy va madaniy merosni aks ettiruvchi urbanonimlar oddiy ko‘cha yoki joy nomidan ko‘ra kengroq semantik yukga ega bo‘lib, shaharlarning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini, ma’naviy merosini va zamon bilan hamnafasligini ko‘rsatadi. Urbanonimika aynan shu jarayonlarni tahlil qilish, muayyan hududlarning o‘tmishi, madaniy xususiyatlari va ijtimoiy o‘zgarishlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. O‘zbekiston misolida ham shaharlar tarixi, turli davrlar izlari, etnik hamjamiyatlar, ijtimoiy-siyosiy voqealar, madaniy an’ana va milliy-ma’rifiy yangilanishlar urbanonimlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarixiy va madaniy merosni ifodalaydigan nomlar tiklanayotgani, yangi nomlar qo‘shilayotgani kelajak avlodlar uchun muhim xotira manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda ilmiy jamoatchilik, rasmiy idoralar va lokal aholi o‘rtasida hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Historik o‘rganishlar va arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ma’lumotlar urbanonimlarga rasmiy maqom berishda, eski nomlarni tiklashda yoki yangi nomlar berishda yo‘l-yo‘riq bo‘ladi. Xalqning o‘zi esa ushbu nomlarni qabul qilish, ularni kundalik nutqqa kiritish va jamiyat xotirasida mustahkamlash orqali bu jarayonni jonlantiradi. Mazkur hamkorlik tufayli urbanonimika nafaqat tilshunoslik uchun, balki turizm, tarixshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar uchun ham dolzarb tadqiqot yo‘nalishiga aylanadi.

Xulosa shuki, urbanonimlar shaharlarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, diniy va iqtisodiy jarayonlarini izchil ravishda o‘zida ifoda etadigan murakkab lingvokulturologik hodisadir. Tarixiy va madaniy merosni aks ettiruvchi nomlar esa bu jarayonning diqqatga sazovor bo‘g‘inidir. Ular o‘tmishdan meros qolgan ma’naviy qadriyatlarga ishora qilishi, madaniy an’analarni ko‘z qorachig‘idek asrab, avlodlarga yetkazishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Суперанская, А. В.Общая теория имени собственного : [монография] / А. В. Суперанская. – 3-е изд. – М. : Наука, 1989. – 375 с.

2. Clark, P.The Oxford Handbook of Cities in World History / P. Clark (ed.). – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 913 p.

3. Davies, A. M.Urban Toponyms as Reflections of Sociopolitical Change / A. M. Davies // Journal of Urban Studies. – 2017. – Vol. 54. – No. 8. – P. 1635–1652.

4. Zandberg, A.Memorial Landscapes and Urban Identity: The Role of Street Names / A. Zandberg // Cultural Geographies. – 2020. – Vol. 27. – No. 4. – P. 569–582.

UO’K 908

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASINING ZABARDAST VAKILI

B.U. Bokiyev, PhD, prof.v/b., Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi
O.O. Omonov, magistrant, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sharof Rashidov hayoti va faoliyati, O‘zbekistonda olib borgan ishlari, mustaqillik davrida uning nomi oqlanishi va o‘tkazilgan yubileylari bilan bog‘liq masalalar haqida bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Tarix, adabiyot, qahramon, texnikum, partiya, gazeta, jurnal, Yozuvchilar uyushmasi, yozuvchi, ziyoli, she’riy to‘plam, san’at, madaniyat, ijod.*

Аннотация. *В данной статье описаны жизнь и деятельность Шарафа Рашидова, его работа в Узбекистане, восстановление его имени в период независимости, а также вопросы, связанные с его юбилеями.*

Ключевые слова: *История, литература, герой, техникум, партия, газета, журнал, Союз писателей, писатель, интеллектуал, поэтический сборник, искусство, культура, творчество.*

Abstract. *This article describes the life and work of Sharof Rashidov, his work in Uzbekistan, the vindication of his name during the period of independence, and issues related to the anniversaries he celebrated.*

Key words: *History, literature, hero, technical school, party, newspaper, magazine, Writers' Union, writer, intellectual, poetry collection, art, culture, creativity.*

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng xalqimiz o‘tmishi, tarixiy shaxslar hayoti va ijodi, taqdiriga qiziqish nihoyatda kuchaydi. Tarix va adabiyot masalasi g‘oyat serqirra, serko‘lam va terandir. Bir so‘z yoki suhbat bilan uning barcha qirralarini to‘liq qamrab olish mushkul jarayon.

O‘tgan asrda adabiyotimiz xalq tarixini o‘rganishda og‘ir iskanjaga tushib qolgan edi. Mustabid tuzum mafkurasi nafaqat ijodkorlarning ko‘zlarini ko‘r qildi, balki xalqimizni o‘z o‘tmishidan ajratishga, tarixini yo‘q qilishga urunib keldi. Lekin har qaysi davlatning o‘z davrida shunday qahramonlari bo‘ladiki, garchi mamlakat mustamlaka yoki turli mafkuralar ta’siri ostida bo‘lsada ulardan doim istiqlol nafasi kelib turadi. Bu orzular garchi armonga aylangan bo‘lsada o‘zbek xalqining ana shunday qahramonlaridan biri bu Sharof Rashidovich Rashidovdir.

Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabr sanasi Jizzax viloyatida dehqon oilasida tavallud topgan. Oilada 6 farzandning ikkinchisi. Jizzaxdagi Narimonov nomidagi o‘rta maktabda dastlabki ma’lumotni olgach ijodkor Jizzax pedagogika texnikumida tahsil oldi. 1941-yilda Samarqand davlat universitetini muvaffaqiyatli tamomlab, muallim va muxbir sifatida o‘z mehnat faoliyatini boshladi. U avvaliga 1938-1941-yillarda Samarqand viloyati gazetasida 1941-1942-yillarda II jahon urushida qatnashdi, 1944-1947-yillarda Samarqand viloyati partiya tashkilotining kotibi sifatida faoliyat olib bordi.

1947-1949-yillarda Qizil O‘zbekiston (hozirgi O‘zbekiston ovozi) gazetasi muxarriri, 1949-1950-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi sifatida faoliyat olib bordi.

“1949-yilda Sharof Rashidov O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi bo‘lib ishlayotganidan Namanganga bordi. Uch kun mobaynida birgalikda tumanlarda, jamoa va davlat xo‘jaliklarida bo‘ldik, viloyatdagi yozuvchilar va ziyolilarning vakillari bilan uchrashdik”[1], - deydi Namangan viloyati partiya qo‘mitasining birinchi kotib bo‘lib ishlab turgan Nuriddin Muhitdinov.

1950-1959-yillarda O‘zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining raisi, 1959-yil mart oyidan to umrining oxiriga qadar O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi, ya’ni mamlakat rahbari sifatida ish faoliyatini olib bordi.

Sharof Rashidovning ijodi XX asrning 30-yillari ikkinchi yarmidan boshlanib, uning adabiy muhitga kirib kelishida tog‘asi Hamid Olimjonning xizmati katta bo‘lgan. Hamid Olimjon jiyanining har bir ijod mahsulini doim kuzatib borgan va uning ijod qilishi uchun ma’naviy rag‘bat bergan. Sharof Rashidov talabalik yillarida Sadriddin Ayniy, filolog olim Ulug‘ Tursunov kabi o‘z davrining

yetuk olimlaridan tahsil olgan. Uning dastlabki she’riy to‘plami “Samarqand kuylari” deb nom olgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida yozilgan she’rlari esa “Qahrim” nomi bilan chop etilgan. Undan tashqari “Mening nafratim” nomli ilk she’riy to‘plam, “G‘oliblar” nomli povest, “Bo‘rondan kuchli”, “Buyuk to‘lqin” romanlari, „Kashmir qo‘shig‘i“ romantik povesti, “Tarix kelishuvi” nomli to‘plami, “Do‘stlik ramzi” nomli kitoblari nashrdan chiqdi. Rashidovning tanqidiy maqolalari sovet adabiyotining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan edi.

Sharof Rashidov adabiyot, san’at va madaniyat arboblari orasidan Komil Yashin, Ibrohim Mo‘minov, Obid Sodiqov, Vohid Zohidov, Sadriddin Yo‘ldoshev, Abduvali Imomaliyev, Vosil Qobulov, Sa’di Sirojiddinov, Erkin Yusupov, O‘ktam Oripov, Sodiq Mirahmedov, Uyg‘un, Rahmat Fayziy kabilarning ijodlarini doim kuzatib borgan[2]. Sharof Rashidovning o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni ayniqsa tahsinga loyiq. Qariyb chorak asr mobaynida davlatni boshqarib, xalqni paxta siyosati va boshqa turli sinovlardan mardonavor olib chiqishga erishdi. O‘z zakovati bilan O‘zbekistonni rivojlantirish sari yetakladi.

Rashidov davrida 1966-yildan boshlab O‘zbekiston poytaxti Toshkent qayta qurildi. Yangi muzeylar, bog‘lar, teatrlar, yodgorliklar barpo etildi. 1970-yilda Samarqandning 2500 yilligi nishonlandi, shu munosabat bilan Samarqandda yirik tadbirlar o‘tkazildi, shahar tarixi muzeyi, opera va balet teatri ochildi. 1977-yilda O‘rta Osiyoda birinchi marta Toshkentda metro ochildi. Sharof Rashidovich Rashidov turg‘unlik davri deb atalgan og‘ir yillarda O‘zbekistonda bunyod etilgan ko‘pgina ajoyib binolarni qurishning tashabbuskori va ijodiy rahbari bo‘lgan edi[3].

Xalq farovonligi yo‘lida qator ishlar olib borildi, jumladan respublikani elektrlash yaxshilandi va gazlashtirish boshlandi. Uy-joy, madaniy-maishiy inshootlar qurilishi ko‘paydi. Sharof Rashidov vafot etgandan so‘ng 1983-yil 23-noyabrda KPSS Markaziy Qo‘mitasi va Ittifoq Vazirlar Kengashining 1227-son qarori e’lon qilindi va unda shunday deyilgan edi:

1. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi va O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashiga Toshkent shahridagi “O‘zbekiston” ko‘chasini Sharof Rashidov nomidagi shoh ko‘cha deb qayta topshirilsin.

2. Toshkent shahar German Lopatin ko‘chasidagi 68-uyga va Samarqand davlat universiteti binosiga Sharof Rashidovning xotirasi uchun yodgorlik lavhalar o‘rnatilsin.

3. Toshkent to‘qimachilik kombinatiga, Jizzax shahridagi viloyat kutubxonasiga, Qoraqalpog‘iston ASSR Qorao‘zak tumanidagi “Madaniyat” davlat xo‘jaligiga Sharof Rashidov nomi berilsin[4]. Lekin oradan yarim yil o‘tgach mazkur qaror ham, Sharof Rashidov nomiga aytilgan iliq so‘zlar ham unutildi, balki O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining XVI Plenumi hisobotida mamlakat qonunlarini qo‘pol ravishda buzish, kadrlar siyosatini izdan chiqarish, xizmat mavqeini suiiste’mol qilish, paxtachilikni qo‘shib yozish, poraxo‘rlik kabi bir qancha soxta ayblovlar qo‘yildi, ya’ni bir so‘z bilan uning nomi qoralandi. Faqatgina mustaqillik davriga kelib, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimov tomonidan tarixiy adolat tiklandi — Sharof Rashidovning pok nomi oqlandi va 75 yillik tavallud sanasi yurtimizda keng nishonlandi[5].

2016-yil 23-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qarori bilan Jizzax viloyatining Jizzax tumaniga “Sharof Rashidov tumani” nomi berildi. 2017-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini keng nishonlash haqida”gi qarori qabul qilindi. Shu yilning 6-oktyabr kuni Jizzax shahrida Sharof Rashidovning haykali ochildi.

Bugun biz o‘zbek xalqining buyuk farzandi Sharof Rashidovich Rashidovning xotirasiga hurmat bajo keltirar ekanmiz, uning nomi va hayoti Vatanimiz, xalqimiz tarixi bilan chambarchas bog‘liq ekaniga yana bir bor amin bo‘lmoqdamiz. Sharof Rashidovning murakkab, shu bilan birga, sharafli hayot yo‘lida o‘zbek xalqining XX asrdagi taqdiri o‘zining yorqin ifodasini topdi[6]. Sharof Rashidov xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lida tinimsiz faoliyat olib borgan, davlatchiligimiz tarixi sahifalarida beqiyos o‘rin tutgan qudratli shaxs. Uning yorqin xotirasi hamisha xalqaimiz qalbida yashaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhitdinov Nuriddin “1983-yildagi ikki uchrashuv” (Sharof Rashidov tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlanadi). / Sharq yulduzi jurnali. 1992-yil 11-son. – B. 177.

2. Adabiyot va san’at gazetasi. 2021-yil 26-may. 3-4 son (№42-43) – B. 13

3. Xalq so‘zi gazetasi. 1994-yil 5-fevral. №26 (774). – B. 1

4. Muhitdinov Nuriddin “1983-yildagi ikki uchrashuv” (Sharof Rashidov tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlanadi). / Sharq yulduzi jurnali. 1992-yil 11-son. – B. 181

5. “Sh.R. Rashidov tavalludining 75 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 267-son qarori. 06.06.1992 yil. https://lex.uz/ru/docs/-455720.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Jizzax shahrida Sharof Rashidov haykalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 7-noyabr. №224 (6918). – B. 1

UO’K 908

O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXIGA OID MULOHAZALAR

S.T.Burxanova, dots., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O’zbekiston mustaqillikka erichgach mamlakat hayotidagi tub islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar, jamiyatning taraqqiy etishi va uning o’ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *O’zbekiston, tarixiy jarayon, islohotlar, jamiyat taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik, tarix fani.*

Аннотация. *В данной статье освещаются коренные реформы в жизни страны после обретения Узбекистаном независимости, социально-экономические, политические реформы, развитие общества и его особенности.*

Ключевые слова: *Узбекистан, исторический процесс, реформы, развитие общества, международное сотрудничество, историческая наука.*

Abstract. *This article highlights the fundamental reforms, socio-economic, political reforms, the progress of society and its peculiarities in the life of the country after the independence of Uzbekistan.*

Keywords: *Uzbekistan, historical process, reforms, development of Society, International Cooperation, history science.*

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarix fani sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechish, yangi yondashuvlar bilan bog‘liq o‘zgarishlarga yuz tutdi. Fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O‘zbekiston tarixchilari zimmasiga jahon amaliyoti yutuqlaridan kelib chiqib, tarix fanini yanada yuqori ilmiy-nazariy darajaga olib chiqish hamda yangi ilmiy yo‘nalishlarni o‘zlashtirish kabi vazifalarni yuklamoqda.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi haqida so‘z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o‘tgan tarixiy yo‘li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim. O‘zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig‘inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an’anaviy funksiyalar bajarilishining o‘zi bilan qanoatlanib bo‘lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to‘ldirishimiz maqsadga muvofiqdir[1].

Mustaqillikdan keyin ba’zi sohalarda muhim islohotlar amalga oshirildi:

Siyosiy islohotlar:

• "Harakatlar strategiyasi": 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Bu strategiya davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy sohani takomillashtirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va tashqi siyosat sohalarida islohotlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

• Siyosiy erkinliklarni kengaytirish: Ommaviy axborot vositalari erkinligi ta'minlandi, senzura kamaytirildi, siyosiy partiyalar faoliyati erkinlashtirildi va fuqarolik jamiyati institutlari qo'llab-quvvatlandi.

• Ma'muriy islohotlar: Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi, byurokratiya kamaytirildi, davlat xizmatchilarining mas'uliyati oshirildi va korrupsiyaga qarshi kurash kuchaytirildi.

• Sud-huquq islohotlari: Sudlarning mustaqilligi ta'minlandi, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirildi va advokatura instituti rivojlantirildi.

• Saylov qonunchiligini takomillashtirish: Saylov qonunchiligi takomillashtirildi, siyosiy partiyalar uchun imkoniyatlar yaratildi va saylov jarayonlarining shaffofligi ta'minlandi.

Iqtisodiy islohotlar:

• Valyuta islohoti: Milliy valyuta – so'mning konvertatsiyasi ta'minlandi, bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tashqi savdoni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratdi.

• Soliq islohoti: Soliq tizimi soddalashtirildi, soliq stavkalari kamaytirildi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

• Xususiylashtirish: Davlat aktivlarini xususiylashtirish jadallashtirildi, bu esa iqtisodiyotda xususiy sektorning rolini oshirishga yordam berdi.

• Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratildi, imtiyozli kreditlar berildi va ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi.

• Turizmni rivojlantirish: Turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi, viza rejimini soddalashtirish, infratuzilmani yaxshilash va turistik xizmatlarni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

• Qishloq xo'jaligini isloh qilish: Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlari joriy etildi, paxta va g'allaga davlat buyurtmasi bekor qilindi va fermerlarning mustaqilligi ta'minlandi.

Ijtimoiy islohotlar:

• Ta'lim sohasini rivojlantirish: Ta'lim tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'limni rivojlantirish, oliy ta'lim qamrovini oshirish, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish va o'qituvchilarning maqomini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi.

• Sog'liqni saqlashni rivojlantirish: Tibbiy xizmat sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, tibbiy sug'urtani joriy etish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

• Aholini ijtimoiy himoya qilish: Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, pensiya ta'minotini takomillashtirish va kam ta'minlangan oilalarga yordam berish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi.

• Madaniyatni rivojlantirish: Milliy madaniyatni rivojlantirish, tarixiy merosni saqlash va ommalashtirish, teatr, kino va adabiyotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

• Gender tengligini ta'minlash: Ayollarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi.

Tashqi siyosat:

• Ochiq va konstruktiv tashqi siyosat: O'zbekiston ochiq va konstruktiv tashqi siyosatni olib bormoqda, barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirishga intilmoqda va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga katta e'tibor qaratmoqda.

• Markaziy Osiyo bilan hamkorlik: O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynamoqda. Mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha bir qator tashabbuslar ilgari surildi.

• Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik: O'zbekiston BMT, SHHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda va global muammolarni hal qilishda o'z hissasini qo'shmoqda.

• Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorlik: O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda va o'z qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatda siyosiy va iqtisodiy vaziyat yaxshilanmoqda, aholining turmush darajasi oshmoqda va O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'si ortmoqda[2].

O‘zbekiston tarixi fani xalqimiz tarixini haqqoniy aks ettiruvchi ko‘zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma’naviy saboqlar yig‘indisi hisoblanadi. Bugun ilmiy gumanitar hamjamiyat

vakillarining hamkorligisiz va birgalikda sarflanadigan kuch-g‘ayratisiz hozirgi zamon tarixining mazmunini tushunish murakkabligi barchaga ayon.

Olimlar tomonidan “Buyuk va muqaddas, mustaqil diyor”, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi: nazariy-metodologik asoslari, o‘rganish tajribasi, manba va uslublar”, “O‘zbekiston yoshlari ijtimoiy-madaniy islohotlar jarayonida”, “O‘zbekistonning eng yangi tarixidan lavhalar”, “Farg‘ona vodiysi shaharlarida iqtisodiy transformatsiya jarayonlari (1991-1996-yillar)” kabi qator to‘plam va monografiyalarning nashr etilishi O‘zbekistonning eng yangi tarixiga oid amalga oshirilgan qator ilmiy-tadqiqot loyihalar natijasidir[3].

Mustaqillik - tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezoni. Ayni paytda u harakatlarning, intilishlar va qobiliyatlarning kuchayishini, doimiy kamolotni taqozo etadigan ma’naviy-ruhiy, ma’rifiy-axloqiy hodisa[3]. Vatanimiz tarixi yoshlarga xalqimizning o‘tmishi, tarixi haqida bilim berib qolmasdan balki ulami vatanparvar, insonparvar, ma’naviy jihatdan komil inson boiib yetishishlarida dastur-amal hisoblanadi. Vatanimizni keyingi avlodlarga yanada obod, qudratli, har tomonlama rivojlangan holatda yetkazish davrimizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish va uni o‘qitishning dolzarb muammolari bo‘yicha keng munozaralarning zaruratini chuqur anglagan holda ijtimoiy – gumanitar soha vakillari tarix ilmi va fani masalalarini keng ommaga yetkazish hamda matbuotda faol muhokama qilish zarur va shartdir. Jamiyatimiz, ayniqsa, yosh avlod ona Vatanimizning yaqin o‘tmishini tushunishga, murakkab, jo‘shqin va jadal sur’atlar bilan davom etayotgan mamlakatimiz mustaqilligining tarixini tizimli o‘rganishga, uni to‘laqonli anglab yetishga katta ehtiyoj sezmoqda. Mazkur sharafli ijtimoiy vazifani amalga oshirish esa o‘zbek tarixchilarining ilmiy va fuqarolik burchidir desak mubolag’a bo’lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish – dolzarb masala// https://uza.uz/oz/posts/o-zbekistonning-eng-yangi-tarixini-o-rganish-dolzarb-masala-14-08-201

2. Xoliqova R. E. O'zbekistonning Eng Yangi Tarixi //O’quv qo’llanma. Toshkent-2021. – 2021.

3. Shuxratovna M. L. Yangi O‘zbekistonda O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning konseptual asoslari //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 51. – C. 200-202.

UO’K 908

MUSTAQILLIK YILLARIDA KOSON SHAHRINI IJTIMOIY INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHI

B.G‘.Choriyev, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida har bir soha bo‘yicha yetakchi Koson tumaning markazi bo’lgan Koson shahrini mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi arxiv manbalari va davriy matbuot materiallari orqali qiyosiy tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Qashqadaryo viloyati, Koson shahri, madaniyat muassasalari, kutubxona, Koson yog' zavodi, salomatlik markazi, Koson bolalar istirohat bog'i, Koson yog' ekstraksiya.*

Аннотация. *В данной статье на основе архивных источников и материалов периодической печати сравнивается социально-экономическое развитие города Косон, являющегося центром Косонского района, являющегося лидером во всех сферах Кашкадарьинской области, в годы независимости.*

Ключевые слова. *Кашкадарьинская область, город Косон, учреждения культуры, библиотека, Косонский маслозавод, санаторий, Косонский детский парк, Косонская нефтедобыча.*

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the socio-economic development of the city of Koson, the center of the Koson district, a leader in every field in the Kashkadarya region, during the years of independence, using archival sources and periodical press materials.*

Keywords. *Kashkadarya region, Koson city, cultural institutions, library, Koson oil refinery, health center, Koson children's park, Koson oil extraction.*

Mustaqillik yillarida respublika shaharlarining ma'muriy-boshqaruv tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga rahbarlikni takomillashtirish, korxonalar va xo'jaliklarning aloqalarini yaxshilash hamda boshqaruv apparatini qisqartirib, budjet xarajatlarini kamaytirish maqsadida bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabrda "Shaharlar va tumanlar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, 2004 yil 30 martda Vazirlar Mahkamasining "Hududiy davlat hokimiyati organlari boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ko'ra, 1993 yilda Qashqadaryo viloyatining ayrim shaharlari boshqaruvi o‘zlari bo‘ysunadigan hokimliklari bilan birlashtirildi. 1994 yilga kelib viloyatga bo‘ysunuvchi Koson shahri tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar turkumiga o'tkazildi.[4;57]

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995 yil 29 noyabrda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi sessiyasi hamda 1998 yil 3 iyunda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi sessiyasida so'zlagan nutqida "Qashqadaryoning boy tarixiy madaniyatga ega ekanligi, qadimiy Kesh, Nasaf, Kitob, Yakkabog‘, Koson, G‘uzor va boshqa shaharlarning mamlakat iqtisodi va madaniy hayotida katta rol o'ynayotgani"ni ta'kidlab o'tgan edi.[2;132-149]

1991 yil 19 noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida"gi Qonuni qabul qilinishi iqtisodiy sohani yangida yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kengaytirdi. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish boshlandi. Bu o'zgarishlar o'z o'rnida viloyat shaharlari faoliyatida ham ko'zga tashlandi. Masalan, 1995 yil yanvar holatida Koson uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasiga qarashli uy-joy fondining 62,4 foizi xususiylashtirildi. Kosonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish jarayoni boshlangandan so'ng 158 dan ortiq davlat, korxona, tashkilotlar mulklari davlat tasarrufidan chiqarilib, mulkchilikning turli shakllariga aylantirildi. Koson shahri va tumanida mavjud bo'lgan sanoat, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari to'liq davlat tasarrufidan chiqarilib, 81 ta savdo va umumiy ovqatlanish korxonasi obektlarining 24 tasi jamoa va 57 tasi xususiy mulkka aylantirildi. Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarining 57 tasi davlat tasarrufidan chiqarilib, 4 ta jamoa mulkiga, qolganlari xususiy mulkka aylantirildi.[4;8]

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi qiyinchilikka qaramasdan Koson yog' zavodi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib bordi. Zavod 1994 yilda 1993 yilga nisbatan 2405 tonna tozalanmagan yog', 2287 tonna tozalangan yog', 8481 tonna kunjara, 3578 tonna sheluxa, 749 tonna xo'jalik sovuni ko'p ishlab chiqarildi. Zavod keyingi yillarda iqtisodiy o'sishga erishdi. Masalan, 1998 yilning birinchi yarmida 1015444 so'mlik yalpi mahsulot, 1292355 ming so'mlik xalq iste'moli mollari ishlab chiqarilgan bo'lib, 1997 yilni birinchi yarim yiliga nisbatan 148237 ming so'mlik yalpi mahsulot, 302962 ming so'mlik xalq iste'moli mollari ko'p ishlab chiqarildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan tumanda bir qator obyektlar qurilib ishga tushirildi. Masalan, 1993 yil Koson shahar va tumanida quruvchilar rejadagi 904 mln so'mlik o'rniga 1517 mln so'mlik qurilish-montaj ishlarini amalga oshirdilar va 298 mln so'mlik asosiy fondlar ishga tushirildi. Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan 1322 o'rinli maktab, 280 o'rinli maktabgacha ta'lim muassasalari, bir necha choyxona, magazin, hammom, sog'liqni saqlash muassasalari qurilib foydalanishga topshirildi.[4;60]

Qashqadaryo viloyati shaharlarida xorij davlatlari bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilib, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish hamda savdo-sotiqni yo'lga qo'yishda yuqori samaradorlikka erishildi. Bu borada Xitoy davlati bilan manfaatli kelishuvlarga erishilib korxonalar ishga tushirildi. Koson shahridagi 1-paxta tozalash zavodi qoshida Xitoy bilan hamkorlikda yiliga 6 ming tonna g'o'zapoyadan DVP ishlab chiqaradigan zavod 1995 yil oxirida ishga tushirildi.[4;11]

Koson shahrining iqtisodiy holati 1997 yilning 6 oyiga nisbatan 1998 yilning 6 oyida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sishga erishdi. 637 tonna tozalangan paxta yog'i, 3731 tonna paxta shroti,

2528 tonna sheluxa, 5 tonna xo'jalik sovuni ishlab chiqarildi. Koson yog' zavodida 2000 yilda soatiga 3000 butilka 1 litrlik plastmassa idishlariga yog' qadoqlash sexi qurib ishga tushirildi.[4;8]

Xalqimiz turmush tarzini yanada yaxshilash, aholi punktlarini rejali qurish va shaharsozlik dohasini xalqaro darajaga ko'tarish maqsadida 2005 yil 30 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Natijada, 2005-2017 yillarda Respublikadagi 96 ta shaharning bosh rejalari ishlab chiqildi. Qashqadaryo viloyatidagi shaharlarning, xususan, 2015 yilda Koson shahrining Bosh rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 oktabrda "2012-2015 yillarda respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1633 sonli Qarorining bajarilishi bo'yicha 2012-2015 yillarda davomida tuzilgan dastur yuzasidan "Koson yog' ekstraksiya" AJ da mahsulot turlarini ko'paytirish orqali korxonaning moliyaviy – iqtisodiy sharoitini yaxshilash maqsadida 4.2 kg hajmdagi polietilin idishlariga yog' qadoqlash liniyasi keltirib o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvardagi PQ-1271-son qarori bilan tasdiqlangan "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlash, 2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larini bosqichma-bosqich rekonstruktsiya qilish va zamonaviy atraksionlar bilan jihozlash, ularni faoliyatini yanada takomillashtirish asosida aholi, ayniqsa bolalar va o'smirlar barcha yoshlarni madaniy dam olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrdagi "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, Respublikada madaniyat va istirohat bog'larini yangidan tashkil etish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Bu borada Koson shahrida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. "Koson bolalar istirohat bog'i"da qurilish ishlari 2013 yilda boshlanib, 2015 yilda nihoyasiga yetkazildi. Bu yerda xorijdan keltirilgan 2 ta karusel o'rnatildi. Bog'ning kirish qismi butunlay ta'mirlanib, yo'laklarga bezakli g'isht yotqizildi. Bu joyda yangi favvora qurib bitkazildi. Eski o'rindiqlar yangilariga almashtirildi. Ertak va multfilm qahramonlari qiyofasidagi haykalchalar, tungi rang-barang chiroqlar, tadbirkorlar tomonidan 2 ta muzqaymoq do'koni, fotostudiya faoliyati yo'lga qo'yildi.[5]

2019 yil 7 sentabr sanasida tuman markazida Davlat xizmatlari markazining yangi ma’muriy binosi qurilib foydalanishga topshirilgan edi. Unda fuqarolar uchun ko’plab qulayliklar yaratilgan. Xususan, kutish zali, bolalar maydonchasi, kutubxona, bank shoxobchasi, shuningdek, soliq, adliya, FHDYO bo‘limlari maslahatchilari, notarius xizmatlari uchun maxsus xonalar mavjud.

2020 yil avgust oyi oxirida Mustaqillik bayrami arafasida yirik savdo majmuasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. “Ilgizjon” deb nomlangan majmua 3 qavatdan iborat bo‘lib, umumiy ovqatlanish, trenajyor zali, xizmat ko‘rsatish sohalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Koson tumanida ijtimoiy sohani rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi masalasi muhim hisoblanadi. Tumanda mavjud 186099 aholidan mehnatga layoqatliligi 83744 kishi, shundan ish bilan band bo‘lmagan 3350 kishi mehnat bo‘limiga murojaat qildi. 1404 kishi mehnat bo’limi yo‘llanmasi bilan ishga joylashtirildi., ishsizlik maqomini olhgan 462 kishi ishsizlik nafaqasi bilan ta’minlanib, bu 846992 so‘mni tashkil etdi.[4;62]

Viloyat bo‘yicha mehnat resurslari 2004 yilda 1 mln 199,6 ming kishi bo’lgan, 2006 yilga kelib 1 mln 301,4 ming kishi bo’lgan. Shundan, 2004 yilda Koson tumanida mehnatga layoqatli aholi soni 101,3 ming kishi, 2006 yilga lkelib bu ko’rsatkich tumanda 108,6 ming kishini tashkil qilgan.[7;7,8]

2018 yil yanvar-dekabrida bandlikka ko‘maklashuv markazlariga ishga joylashtirishda yordam so‘rab viloyat bo‘yicha 46 672 nafar fuqaro murojaat qildi. Bunda Koson tumanining ulushi 3360 kishiga to‘g‘ri keladi.[8;110]

Iqtisodiy o’zgarishlar aholi moddiy farovonligi oshishiga bevosita ta’sir qildi. Aholining oziq-ovqat blan ta’minlanishi bir tomondan qishloq xo’jaligi mahsulotlarining yetishtirilishiga ham bog’liq. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste’mol mollari, 2010 yil holatiga ko’ra, Koson

tumanida 345,5 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.[9] Bu ko'rsakich yildan yilga ko'payib, 2013-yilda tumanda 553,0 ming so'mni tashkil qilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aholi turmush darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi. 824-jamg'arma. 1-ro'yxat, 87-ish, 57-varaq.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. 4-jild. Toshkent- O'zbekiston, 1996. B-132-149
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. Toshkent- O'zbekiston, 1999.B-64-78.
4. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi. 851-jamg'arma. 3-ro'yxat, 2-ish, 8-varaq.
5. Jo'rayev M. Mamnunlik maskanlari // Qashqadaryo, 2015-yil 15-oktabr №125
6. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi, 1-fond, 5-ro'yxat, 40-ish, 62-varaq.
7. Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy investitsiyaviy pasporti, Qarshi, 2007 y. 7-b.
8. Qashqadaryo viloyati statistik axborotnomasi 2017-yil yanvar-dekabr, Qarshi-2018. 110-bet.
9. Viloyat statistika boshqarmasi joriy arxivi. 2023-yil.

UO'K 902

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI MADANIY-GUMANITAR HAMKORLIGI: ERISHILGAN YUTUQLAR VA ISTIQBOLDAGI REJALAR

K.B. Ergashev, talaba, Turon universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar aloqalarining zamonaviy holati, erishilgan natijalar va istiqboldagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, institutsional mexanizmlari va huquqiy asoslari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Markaziy Osiyo, madaniy diplomatiya, gumanitar hamkorlik, madaniy meros, ta'lim hamkorligi.*

Аннотация. *В данной статье проанализировано современное состояние, достигнутые результаты и перспективы культурно-гуманитарных связей Узбекистана со странами Центральной Азии. В рамках исследования изучены основные направления, институциональные механизмы и правовые основы регионального сотрудничества.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Центральная Азия, культурная дипломатия, гуманитарное сотрудничество, культурное наследие, образовательное сотрудничество*

Abstract. *This article analyzes the modern state of cultural and humanitarian relations of Uzbekistan with the countries of Central Asia, achieved results and prospects. Within the framework of the study, the main directions, institutional mechanisms and legal foundations of regional cooperation are studied.*

Key words: *Uzbekistan, Central Asia, cultural diplomacy, humanitarian cooperation, cultural heritage, educational cooperation*

Kirish. O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi bilan ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Markaziy Osiyo — ustuvor yo'nalish" konsepsiyasi doirasida madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Mintaqaviy hamkorlikning madaniy-gumanitar jihatlari davlatlararo munosabatlarning muhim elementi hisoblanib, xalqlar o'rtasidagi tarixiy do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [1].

So'nggi besh yil davomida O'zbekiston mintaqadagi davlatlar bilan madaniy-gumanitar sohalarda 200 dan ortiq bitim va kelishuvlarni imzoladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim, fan, madaniyat, san'at va sport sohalarida yangi hamkorlik loyihalarini amalga oshirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, yoshlar almashinuvi dasturlari, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va targ'ib etish borasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligining zamonaviy holatini kompleks o'rganish, erishilgan yutuqlarni tahlil qilish va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash zaruriyati bilan izohlanadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi madaniy-gumanitar hamkorligini o‘rganishda tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv tanlangan bo‘lib, bu madaniy-gumanitar hamkorlikni yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil usuli esa turli davrlardagi hamkorlik ko‘rsatkichlarini solishtirish va rivojlanish dinamikasini aniqlashda qo‘llanildi.

Tadqiqot doirasida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, rasmiy hujjatlar va ekspert materiallarining keng doirasi o‘rganildi. Jumladan, Abdullayev [2] ning "Uzbekistan’s Cultural Policy in Central Asia" nomli tadqiqotida O‘zbekistonning mintaqaviy madaniy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari tahlil qilingan. Muallif O‘zbekistonning madaniy diplomatiya sohasidagi tajribasini chuqur o‘rganib, mintaqaviy hamkorlikning institutsional mexanizmlarini tahlil qilgan.

Karimov [3] ning "Институциональные основы культурного сотрудничества стран Центральной Азии" nomli tadqiqoti Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarning huquqiy va institutsional asoslarini yoritib bergan. Unda mintaqaviy madaniy hamkorlikning me’yoriy-huquqiy bazasi, institutsional tuzilmalari va ularning samaradorligi tahlil qilingan.

Smith [4] ning "Cultural Heritage Preservation in Central Asia" nomli asarida Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy meros sohasidagi hamkorligi o‘rganilgan. Muallif UNESCO doirasidagi hamkorlik mexanizmlarini, qo‘shma loyihalarni va ularning natijalarini batafsil yoritib bergan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ular asosan alohida yo‘nalishlar va sohalarni qamrab olgan. Shu bois, mazkur tadqiqotda mavjud manbalar asosida kompleks tahlil o‘tkazish va tizimli xulosalar shakllantirish maqsad qilingan.

Tadqiqot doirasida O‘zbek, rus va ingliz tillaridagi manbalardan foydalanildi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarining rasmiy statistika ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ekspertlarning tahliliy materiallari o‘rganildi. Bu esa mavzuni xolisona va har tomonlama yoritish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Ta’lim sohasidagi hamkorlik 2018-2024-yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Bu davrda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari bilan mintaqa davlatlari o‘rtasida 150 dan ortiq hamkorlik shartnomalari imzolandi. Natijada talabalar va professor-o‘qituvchilar almashinuvi dasturlari kengaydi, qo‘shma ta’lim dasturlari va fakultetlar tashkil etildi. Jumladan, O‘zbekiston-Qozog‘iston, O‘zbekiston-Qirg‘iziston va O‘zbekiston-Tojikiston qo‘shma universitetlari faoliyat boshladi. Masofaviy ta’lim platformalari orqali virtual akademik almashinuvlar yo‘lga qo‘yildi.

Madaniy meros sohasidagi hamkorlik doirasida UNESCO bilan hamkorlikda qo‘shma nominatsiyalar tayyorlash bo‘yicha faol ish olib borilmoqda [5]. "Buyuk ipak yo‘li" loyihasi doirasida tarixiy yodgorliklarni saqlash va targ‘ib qilish bo‘yicha mintaqaviy dasturlar amalga oshirilmoqda [6]. Arxeologik tadqiqotlar, restavratsiya ishlari va muzey eksponatlari almashinuvi bo‘yicha doimiy hamkorlik o‘rnatilgan. Moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini YUNESKO ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari takomillashtirildi.

San’at va adabiyot sohasidagi almashinuvlar muntazam xarakter kasb etdi. Har yili Markaziy Osiyo davlatlarida madaniyat kunlari, festivallar va ko‘rgazmalar o‘tkazilmoqda [7]. 2023-yilda ilk bor Markaziy Osiyo davlatlari teatrlari festivali tashkil etildi [8]. Adabiy tarjimalar, kitob ko‘rgazmalari va ijodkorlar uchrashuvlari orqali mintaqa xalqlari adabiyoti va san’atini targ‘ib qilish ishlari olib borilmoqda.

Istiqbolda quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirish rejalashtirilmoqda [9]:

- ✓ Yoshlar almashinuvi dasturlarini kengaytirish va yangi formatlarni joriy etish
- ✓ Raqamli madaniyat platformalarini yaratish va virtual madaniy makonni shakllantirish
- ✓ Ilmiy-tadqiqot hamkorligini kuchaytirish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish
- ✓ Madaniy industriya sohasida hamkorlikni rivojlantirish
- ✓ Mintaqaviy madaniy brendlarni yaratish
- ✓ Sport sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning mintaqaviy madaniy-gumanitar hamkorligi ko‘p qirrali xarakter kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni mustahkamlash va yangi hamkorlik imkoniyatlarini ochish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda [10].

Shu bilan birga, ayrim yo‘nalishlarda hali yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Xususan, madaniy-gumanitar sohadagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu masalalarning hal etilishi O‘zbekistonning mintaqaviy madaniy-gumanitar hamkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligi kompleks rivojlanish yo‘lida davom etmoqda. Sport sohasida mintaqaviy hamkorlik kuchaymoqda. 2023-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Markaziy Osiyo yoshlar o‘yinlari buning yaqqol dalilidir. Bunda 3000 dan ortiq sportchi ishtirok etib, 15 sport turi bo‘yicha bellashdilar. Sport infratuzilmasini rivojlantirish, murabbiylar malakasini oshirish va sport tibbiyoti sohasida tajriba almashish yo‘lga qo‘yilgan.

Axborot-kommunikatsiya sohasida mintaqa OAVlari o‘rtasida muntazam axborot almashish, jurnalistlar uchun malaka oshirish dasturlari va qo‘shma media loyihalar amalga oshirilmoqda. 2024-yilga kelib, raqamli texnologiyalar sohasida 50 dan ortiq hamkorlik loyihalari ishga tushirildi.

Yoshlar siyosati bo‘yicha Markaziy Osiyo yoshlar forumi har yili o‘tkazilib, unda 5000 dan ortiq yoshlar ishtirok etmoqda. Startaplar, innovatsion g‘oyalar va ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yaratilgan. 2023-yilda yoshlar tashabbusi bilan 100 dan ortiq qo‘shma loyihalar amalga oshirildi.

Ilmiy hamkorlik doirasida 200 dan ortiq qo‘shma tadqiqot loyihalari, ilmiy konferensiyalar va seminarlar tashkil etildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya yo‘nalishlarida 30 dan ortiq fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

"Markaziy Osiyo — yagona turistik makon" konsepsiyasi doirasida ziyorat turizmi, ekologik turizm va madaniy turizm yo‘nalishlarida qo‘shma dasturlar ishlab chiqilmoqda. 2023-yilda mintaqa bo‘ylab 1 milliondan ortiq turist tashrif buyurgan.

Madaniy industriya sohasida 20 dan ortiq qo‘shma kinoloyihalar, 50 dan ortiq ko‘rgazmalar va master-klasslar tashkil etildi. Milliy hunarmandchilik markazlari o‘rtasida muntazam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Istiqbolda madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- Raqamli madaniyat platformalarini yaratish
- Sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish
- Yoshlar uchun innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash
- Ilmiy-tadqiqot markazlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish
- Turizm sohasidagi hamkorlikni institutsionalizatsiya qilish
- Madaniy industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish
- Til va adabiyot sohasidagi almashinuvlarni kengaytirish

Bu yo‘nalishlarda erishilgan yutuqlar mintaqa xalqlari o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Til va adabiyot sohasida Markaziy Osiyo davlatlari tillarini o‘rganish markazlari faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda 100 dan ortiq badiiy va ilmiy asarlar tarjima qilindi. Yozuvchilar uyushmalari o‘rtasida muntazam uchrashuvlar va ijodiy kechalar tashkil etilmoqda.

Xulosa. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligi so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayonda institutsional mexanizmlarning takomillashuvi, huquqiy bazaning mustahkamlanishi va yangi hamkorlik shakllarining joriy etilishi kuzatilmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, madaniy-gumanitar hamkorlik mintaqaviy integratsiya jarayonlarining muhim elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ikkinchidan, ta’lim sohasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi va zamonaviy shakllar bilan boyidi. Uchinchidan, madaniy meros sohasidagi hamkorlik

UNESCO doirasida yanada faollashdi. To‘rtinchidan, san’at va adabiyot sohasidagi almashinuvlar muntazam xarakter kasb etdi.

Istiqbolda quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirish tavsiya etiladi: Raqamli madaniyat platformalarini yaratish orqali virtual madaniy almashinuvlarni kuchaytirish; Yoshlar uchun qo‘shma ta’lim dasturlarini kengaytirish; Ilmiy-tadqiqot markazlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish; Madaniy merosni saqlash bo‘yicha mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish. Ushbu yo‘nalishlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonning mintaqadagi madaniy-gumanitar nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алиев, А. (2023) Культурная дипломатия Узбекистана в Центральной Азии. Ташкент: Фан.
2. Abdullaev, K. (2022) Uzbekistan’s Cultural Policy in Central Asia. Central Asian Affairs, 9(2), pp. 45-62.
3. Каримов, Б. (2023) Институциональные основы культурного сотрудничества стран Центральной Азии. Международные отношения, 5, с. 78-89.
4. Smith, J. (2023) Cultural Heritage Preservation in Central Asia. Asian Studies Review, 47(3), pp. 312-328.
5. UNESCO. (2023) Culture Report: Central Asia. Paris: UNESCO Publishing.
6. O‘zbekiston madaniyat vazirligi. (2023) Markaziy Osiyo madaniy hamkorligi. Toshkent.
7. Wilson, R. (2023) Arts and Culture in Central Asia. London: Routledge.
8. Asian Development Bank. (2023) Cultural Cooperation in Central Asia: Prospects and Challenges. Manila.
9. Rahimov, M. (2023) O‘zbekistonning mintaqaviy madaniy siyosati. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 4, 56-68.

UO’K 93

SOVET DAVRIDA TARIX TA’LIMINING O‘QITISH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI

A.M. Erkinov, magistrant, Navoiy Davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya*. Maqola Sovet davrida tarix ta’limining metodlari va texnologiyalarini o‘rganadi. Tarix kommunistik mafkura asosida shakllanib, sinfiy kurash targ‘iboti uchun ishlatilgan. Darsliklar, usullar va texnologiyalar tasvirlanadi. O‘zbekistonda milliy tarix cheklangan, jadid maktablari yopilgan. Mustaqil fikrlashdagi kamchiliklar tahlil qilinadi, ta’limning mafkuraviy roli baholanadi.*

Kalit so‘zlar *Sovet davri, tarix ta’limi, kommunistik mafkura, sinfiy kurash, o‘qitish metodlari, ta’lim texnologiyalari, darsliklar, O‘zbekiston tarixi, milliy o‘zlik, jadid maktablari.*

Аннотация. *Статья изучает методы и технологии преподавания истории в советский период. История формировалась на основе коммунистической идеологии для пропаганды классовой борьбы. Описаны учебники, методы и технологии. В Узбекистане национальная история ограничивалась, джадидские школы закрывались. Анализируются недостатки в развитии самостоятельного мышления, оценивается идеологическая роль образования.*

Ключевые слова. *Советский период, историческое образование, коммунистическая идеология, классовая борьба, методпреподавания, технологии обучения, учебники, история Узбекистана, национальная идентичность, джадидские школы.*

Abstract. *The article explores teaching methods and technologies of history education in the Soviet era. History was shaped by communist ideology to promote class struggle. Textbooks, methods, and technologies are described. In Uzbekistan, national history was restricted, Jadid schools closed. It analyzes flaws in fostering independent thinking and assesses its ideological role.*

Key words. *Soviet era, history education, communist ideology, class struggle, teaching methods, educational technologies, textbooks Uzbekistan history.*

Tarix ta’limi jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, yosh avlodning tarixiy xotirasini shakllantiribgina qolmasdan, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash jarayonida muhim vosita bo’lib hisoblanadi. Turli hil davrda tarix fanining o‘qitilishi hukmron mafkuraga, zamon va makonga bog‘liq bo‘lib, siyosiy tuzum tomonidan shakllantirilgan ta’lim siyosatiga mos holda isloh qilinib olib boriladi.

Sovet ta’lim tizimi tarixiy jarayonlarni faqat marksistik-lenincha nuqtayi nazardan yoritish, ijtimoiy taraqqiyotni sinfiy kurash orqali tushuntirish hamda proletariat diktaturasini oqlash kabi

yo‘nalishlarni o‘z oldiga ustuvor vazifa etib belgilab qo‘ydi. Darsliklar, metodika va ta’lim texnologiyalari ushbu g‘oyalarni targ‘ib qilish uchun takomillashtirib, moslashtirib borildi. Tarix darslari shunchaki o‘tmishni o‘rganish uchungina emas, balki bolalar ongiga sovet mafkurasini singdirish vositasi sifatida ham qaraldi. Shunday qilib, tarix fani siyosiy tuzum uchun muhim deb hisoblanib, ta’lim tizimining mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qildirildi.

1917-yil Oktabr to‘ntarishidan so‘ng hokimiyatni qo‘lga olgan bolsheviklar eski ta’lim tizimini asta-sekin bekor qilib, yangi sovet modelini shakllantirishga jiddiy kirishdilar. Bolsheviklar yangi sovet modelini yaratish orqali kommunistik g‘oyalarni keng yoyish, savodsizlikni tugatish, yoshlarni sotsialistik g’oyalar asosida tarbiyalash va jamiyat ustidan nazoratni mustahkamlashni vazifa qilib belgilab oldilar. “1936-yilda taniqli metodist M.Asimov quyidagicha bayon etgan edi: “Tarix bizning maktablarimizda yosh avlodni kommunistik tarbiyalashda yetakchi mavzulardan biridir. Ikki tizim – kapitalizm va sotsializm o‘rtasidagi ziddiyat kuchayganligi sababli, maktablarimizdagi tarix alohida ahamiyatga ega” [3] Eski siyosiy tizim aristokratiya va burjuaziya manfaatlariga yo’naltirilgan bo‘lsa, ta’lim qilinadigan o‘zgarishlar sotsialistik jamiyat qurish uchun muhim bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirildi.

Sovet hukumatining ta’lim sohasidagi daslabki harakati bu sovet tipidagi boshlang‘ich va o‘rta maktablarni tashkil etish va ularni zarur darsliklar bilan ta’minlash edi. Avvalo, Turkiston ASSRda tashkil etilgan jadid maktablari va rus-tuzem maktablarida foydalanilgan o‘quv darsliklardan yangi turdagi sovet maktablarida foydalanildi. Aksariyat hollarda bu darsliklar tatar tilida nashr etilgan bo‘lib, rus tilidan tarjima qilingan darsliklarni chop etishda qiyinchiliklarga duch kelindi. Buning asosiy sababi o‘lkada bosmaxonalar yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda qog‘oz xomashyosining tanqisligi edi. “Bu davrda Toshkent va Samarqandda o‘zbek tilida, Samarqandda tojik tilida hamda Toshkentda qozoq tilida alifbo kitoblari nashr etilgan. Darsliklarni chop etish jarayoni asosan Xalq maorifi komissarligi vakolatida bo‘lib, amalga oshirilgan sa’y-harakatlarga qaramay, maktablar uchun darslik yetishmovchiligi davom etayotgan edi.” [4]

1934-yil 16-mayda Butunittifoq Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Xalq Komissarlari Soveti maktablarda fuqarolik tarixini o‘qitish bo‘yicha muhim qarorni qabul qildi. Ushbu qarorda sovet maktablarida tarix ta’limining sifati qoniqarsiz ekanligi tan olinib, uni tubdan yaxshilash zarurati ilgari surildi. Qarorga muvofiq, tarix fani bo‘yicha o‘quv dasturlari qayta ko‘rib chiqish zarurligi, sovet mafkurasiga yo‘naltirilgan yangi o‘quv darsliklari ishlab chiqilishi lozimligi takidlangan edi. Shu bilan birga, tarix ta’limida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tarix o‘qituvchilari zimmasiga bir qator vazifalar yuklatildi. Bularning barchasi sovet ta’lim tizimida tarix ta’limining o‘rnini mustahkamlash va uni qat’iy mafkuraviy nazorat ostiga olishga xizmat qildi. Natijada, maktablarda tarix fani proletariat manfaatlari nuqtayi nazaridan talqin qilina boshladi, sinfiy kurash g‘oyasi ta’lim jarayonining asosiy tamoyiliga aylandi va tarix darslari kommunistik targ‘ibot vositasiga aylantirildi. Rahbariyatining asosiy maqsadi partiya siyosatini og‘ishmay bajaradigan yangicha kadrlarni yaratishga qaratilgan edi.

“SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP (b) Markaziy Komitetining 1934-yil 16-maydagi qarorida shunday yozilgan edi: “O‘quvchilarning tarix kursini yaxshi o‘zlashtirish uchun hal qiluvchi shart – muhim tarixiy voqealarni, tarixda ish ko‘rsatgan shaxslarni, xronologik sanalarni o‘quvchilarning yodlarida albatta mustahkamlab, tarixiy voqealarning tarixiy xronologik izchil ifodalanishiga rioya qilishdan iboratdir. Tarixning faqat shunday kursigina o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan tarixiy materiallarning qulayligini, yaqqolligini va konkretligini taxmin qilishi mumkin. Faqat shu negizdagina tarixiy voqealarni o‘quvchini tarixni marksistcha tushunishga olib boradigan ravishda to‘g‘ri tekshirish va to‘g‘ri umumlashtirish mumkindir” [4].

Davr ehtiyojlaridan kelib chiqib, maktablarda tarixiy materialni o‘quvchilarga aniq va tushunarli tarzda yetkazib berish talabi qo‘yilgan. Bu esa ta’lim jarayonida metodologik yondashuvlarni takomillashtirish va didaktik samaradorlikni oshirish zaruratini yuzaga keltirgan. Sovet davrida tarix fani o‘quvchilarga ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi kurash va sotsialistik mafkurani targ‘ib qilish asosida o‘qitilgan. Tarixiy voqealar asosan mehnatkash xalqning ezilishi, ekspluatatsiya va sinfiy zulmga qarshi kurashi nuqtayi nazaridan yoritib berilgan. O‘quvchilar krepostnoy dehqonlarning og‘ir hayoti, ularga nisbatan yer egalari tomonidan qo‘llangan cheksiz zo‘ravonlik va

ularning iqtisodiy qaramligi haqida bilishlari zarurat sifatida qaralgan. Bunda asosiy maqsad dehqonlar va ishchilar sinfining qiynalgan hayotini ko‘rsatish orqali sinfiy kurash g‘oyasini shakllantirish edi.

O’qituvchilar darslarda asosan hikoya qilish va ma’ruza o’qish usullaridan foydalangan. Bu metod o’quvchilarga faktlarni eslab qolishni talab qilar, lekin tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga unchalik e’tibor berilmagan. O’quvchilardan darslikdagi ma’lumotlarni so’zsiz eslab qolish va o’qituvchi savollariga aniq javob berish talab qilingan. Bu usul o’quvchilarning passiv qatnashishiga olib kelardi. Ba’zi hollarda sinfda sinfiy kurash yoki sovet yutuqlari haqida jamoaviy muhokamalar o’tkazilardi. Ammo bu muhokamalar ham qat’iy mafkuraviy chegaralar ichida bo’lib, mustaqil fikrlashga yo’l qo’yilmagan. Tarix darslarida plakatlar, xaritalar va sovet targ’ibot materiallari ishlatilgan. Masalan, “Sovet Ittifoqining xalqlarni ozod qilishdagi roli” kabi mavzularni tasvirlash uchun maxsus diagrammalar tayyorlangan.

Biroq, davr pedagogikasi talabidan kelib chiqib, o‘qituvchilardan faqat darslikda berilgan materiallar bilan cheklanib qolmaslik, balki qo‘shimcha ma’lumotlarni ham yetkazish talab qilingan. N.E. Baumanning qanday o‘ldirilgani, 1917-yilda Leninning Rossiyaga qanday qaytib kelgani kabi tarixiy voqealar darslikdan tashqari o‘quvchilarga tushuntirilgan. Bu esa yosh avlodga inqilobiy g‘oyalarni singdirish va sovet mafkurasini mustahkamlashga xizmat qilgan.

III sinf o‘quvchilari uchun ajratilgan 40 soat davomida ular Qadimgi Rus davlatining paydo bo‘lishidan Pyotr I hukmronligigacha bo‘lgan davrni o‘rganganlar. Mavzular ichida Kiyev davlati, mongol istilosi, Rus davlatining shakllanishi va XVII asrdagi dehqon qo‘zg‘olonlari alohida urg‘u bilan o‘qitilgan. IV sinfda esa tarix darslari yanada kengayib, jami 80 soatni tashkil etgan. O‘quvchilar Pyotr I davridan boshlab Sovet Ittifoqining shakllanishigacha bo‘lgan tarixni o‘rganishgan.

Sovet ta’lim tizimida tarix fanining o‘qitilishi rejaga asoslangan bo‘lib, sinfiy kurash tamoyiliga mos holda olib borildi. Ta‘limdagi ushbu yondashuv o‘quvchilarning tarixiy jarayonlarni bir tomonlama anglashga olib keldi. Hozirgi kunda esa tarix ta’limida ob’ektivlik, turli nuqtai nazarlarni hisobga olish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat hisoblanadi. Tarixni faqat mafkuraviy vosita sifatida emas, balki insoniyat tajribalarini chuqur anglashga xizmat qiluvchi fan sifatida o‘qitish zarurdir.

Sovet davrida tarix ta’limi qat’iy mafkuraviy nazorat ostida olib borilgan bo‘lib, bu ta’lim tizimi hukumatning siyosiy manfaatlariga xizmat qildirildi. Tarix faqat marksistik-lenincha dunyoqarash asosida tushuntirilgan va jamiyatga kommunistik g‘oyalarni singdirish vositasi sifatida qaraldi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga faqat kommunistik partiya ma’qullagan ma’lumotlar yetkazilgan, muqobil qarashlar, mustaqil fikrlash va tarixiy voqealarni ob’ektiv tahlil qilish imkoniyati cheklandi.

Bundan tashqari, dinning jamiyatdagi o‘rni va milliy madaniyatlarning rivojlanishi kabi masalalar ham yo inkor etilgan, yo bo‘rttirib talqin qilingan. Sovet Ittifoqining xalqaro munosabatlaridagi ziddiyatli jihatlar, jumladan, Sovet armiyasining bosib olingan hududlardagi harakatlari kabi mavzular ham yashirilgan.

Bu yondashuv natijasida o‘quvchilarga tarixning faqat bir tomonlama talqini yetkazilgan, natijada jamiyatda mustaqil tarixiy tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanmadi. Insoniyat tarixini sinfiy kurash nuqtayi nazaridan yoritish natijasida ko‘plab muhim tarixiy voqealar chetlab o‘tildi yoki ularning mohiyati buzib ko‘rsatilgdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Asimov M. (1936). Tarixning maktablardagi o‘rni haqida bayonot.
2. Leviton B., Ovsyannikov M. "Ijtimoiyat" darsligi.
3. Qodirova R.M. (2023). O‘zbekiston SSR maktablarida 1930-yillarning ikkinchi yarmida tarix fanining o‘qitilishi. // Scienceproblems.uz, № 8/S (3).
4. Qodirova R.M. (2023). Teaching History and Social Sciences in the Schools of The Uzbekistan SSR (1932-1933 Years). // Eurasian Journal of History, Geography and Economics, Volume 19, April 2023, 64-68 betlar.
5. O‘zbekistonning yangi tarixi (1917-1991), 2-kitob. Toshkent: 2000, 387 bet.
6. Shestakov (tahrir). "SSSR tarixining qisqa kursi".
7. Sovet davlatining statistik ma’lumotlari (1925—1941).
8. SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) Markaziy Komitetining 1934-yil 16-maydagi qarori.

UO'K 908

MARKAZIY BANKNING RESPUBLIKA MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHIDAGI AHAMIYATI

L.Eshmuhammedova, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Markaziy bankning respublika moliya tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *bank, ikki pog'onali bank, Markaziy bank, moliya, iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, emissiya, kredit, byudjet, xarajat.*

Аннотация. *В статье анализируется значение Центрального банка в развитии финансовой системы республики за годы независимости.*

Ключевые слова: *банк, двухуровневый банк, Центральный банк, финансы, экономика, макроэкономика, эмиссия, кредит, бюджет, расходы.*

Abstract. *This article analyzes the importance of the Central Bank in the development of the republic's financial system during the years of independence.*

Keywords: *bank, two-tier bank, Central Bank, finance, economy, macroeconomics, emission, credit, budget, expenditure.*

Har qanday davlatda bank tizimini asosiy bo'g'ini bu Markaziy bankdir. Markaziy bank mijozlarga bank xizmatlarini olib bormaydi. Barcha davlatlarda Markaziy bankning qiladigan vazifalari, funksiyalari umuman bir xil, ular turli davlatlarda har xil nom bilan ataladi. Bugungi kunda, dunyo davlatlarining turli mintaqalarida markaziy banklar "markaziy bank", "xalq banki", "emission banki", "milliy banki", "zaxira banki", "davlat banki" nomlari bilan ataladi.

Markaziy bank iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan, yuridik maqomga ega tashkilot hisoblanadi[1]. O'zbekiston Markaziy banki tashkil etilganidan beri hisobot davrida moliyaviy zarar bilan qoplamagan, aksincha hisobot yilning oxirida juda katta miqdordagi mablag'ni davlat budjetiga saqlab kela olgan. Bankning asosiy daromadi tijorat banklariga beriladigan qayta moliyalash hisobidan oladigan foizlardir. Davlatning oltin, valuta zaxiralarini tasarruf etishdan oladigan foizlar, tijorat banklaridan iqtisodiy me`yorlarni buzganligi uchun undiradigan jarimalari, tijorat banklari elektron to'lov tizimidan foydalanganliklari uchun to'laydigan to'lovlarini aytish lozim[2].

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun 1995-yil 21-dekabrda qabul qilinib, qonun 9 ta bo'lim va 60 ta moddadan tashkil topgan edi. Unda bankning maqsadi, majburiyat va huquqlari belgilab berilgan, Markaziy bankning faoliyat turlari aniq va ravshan qilib qo'yilgan[3].

1995-yilda Markaziy bankda qisqa muddatga yetakchi mutaxassislar 70 nafari xorij davlatlarning moliya institutlari va yirik banklarida o'z bilimlarini kengaytirish maqsadida stajirovkalarga yuborildi. Bunda Iqtisodiyot universitetining kurs bitiruvchilaridan to'qqiz nafari Nottingem (Angliya) va Vashington (AQSH) universitetlarda Markaziy bank hisobidan tehsil oldilar. Xodimlarning Germaniya AQSH, Angliya, Yaponiya, Avstriya, Shveytsariya, Fransiya kabi dunyoning rivojlangan davlatlarning yirik banklariga xizmat safariga yuborilishi sohaning taraqqiyoti tomon harakat edi[4].

Moliya sohasi uchun yetuk xodimlar tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. 1995-yilda banklarga har tomonlama ijodkorlik bilan ishlaydigan, oqilona tavakkal qilishdan cho'chimaydigan, ba'zan an'analar doirasidan chiqib, yangilikni his qiladigan, istiqbolni ko'ra oladigan, boshqaruvchilik madaniyatini egallagan mutaxassislarga hamma zamonda ham talab yuqori bo'lgan. Xo'jalik yuritishning bozor bosqichiga o'tish sharoitida Markaziy bank rahbariyati o'z xodimlariga ana shunday yuksak talablar qo'ydi. Kadrlarning kasb malakasini uzluksiz ravishda oshira borishi uchun shart – sharoitlar yuzaga keldi. Markaziy bank qoshida Marg'ilondagi hisob - kitob va kredit texnikumi va uning Toshkent hamda Termizdagi shoxobchalari ishlab turgan edi. 1994-yilda mazkur o'quv yurtlari o'rta bilim yurtlari orasida birinchi marta nufuzli bilim maskanlari qatoridan munosib o'rin olgan edi[5].

Respublikadagi katta banklarning 116 mutaxassisi 1995-yilda Germaniya "Doyche bank" moliyaviy muassasalarida stajirovkaga yuborilgan edi. Xususan, Toshkentda Fransiya Banki,

Germaniya taraqqiyot instituti va Jahon banklari bilan amaliy seminarlar ham o‘tkazilgan edi. Yangi-yangi bilimlarni egallash uchun poydevor qurish lozim edi. Buning uchun puxta o‘ylangan, uzoq vaqtga mo‘ljallangan ta’lim ishlarini amalga oshirish muhim. Milliy pul birligimizning barqarorlashuvi ko‘p jihatdan banklarda qanday mutaxassislar faoliyat olib borishiga ham bog‘liq. Shuningdek, respublika bank tizimi uchun har tomonlama yetuk xodimlar tayyorlash yo‘lida tinimsiz harakat qlingan edi[6].

Respublikaning Markaziy bankiga bu tajriba orqali, banklarni nazorat qilish xizmati endigina shakllanish jarayonidaligi va ko‘p sonli banklar ishini zarur holatda nazorat qilishni ta’minlay olmasligini banklar va nazorat organlari faoliyatini tartibga solib turadigan qonuniy bazaning takomillashtirilishi zarurligini hisobga olib, tijorat banklariga ruxsatnoma berish masalasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashib kelmoqda.

Markaziy bankning statistika ma’lumotlariga qaraganda, ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari 1994-yil 1-iyulda 30% ni, 1995-yil boshida 72.4% ni, 1995-yil 1-iyulga kelib esa 94,4% ni tashkil qildi. 1995-yilda Respublikada Hissadorlik jamiyatlarining 753135,5 ming so‘mlik aksiyalari sotilgan bo‘lsa, ya’ni shuncha puldan ishlab chiqarishni qayta moliyalash manbai sifatida foydalanilgan edi. Qimmatli qog‘ozlar bozorida banklar muhim o‘rin tutadi.

Har qanday bank faoliyati va uning barqaror rivojlanishi eng avvalo yuqori malakali mutaxassislarga bog‘liq. Bank tizimining so‘nggi yillardagi rivoji bevosita banklar tomonidan mijozlarga xizmat ko‘rsatish borasida raqobatni yuzaga keltirgan bo‘lsa, uning raqobatbardoshligi o‘z navbatida kadrlar salohiyatiga bog‘liq hisoblanadi.

2005-yilda “G‘allabank” rahbariyati bank xodimlarining malakasini oshirish uchun ularni o‘qitish va qayta tayyorlash ishlariga alohida e’tibor berdi. 2005-yil davomida bankning 350 nafardan ortiq turli toifadagi mutaxassisi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi o‘quv markazi, mintaqaviy bank o‘quv markazi hamda Banklar assotsiatsiyasida tashkil etilgan o‘quv kurslarida muntazam qatnashgan edi. Shuningdek, 6 nafar, bank xodimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi va Bank-moliya akademiyasida tahsil oldi[7].

2006-yilning 15 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida Markaziy bank Boshqaruvining 2005-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda bank tizimi tomonidan amalga oshirilgan ishlar va 2006-yilda ushbu sohada islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlis bo‘lgan edi[8].

Shuningdek, jahon bozorida respublikamizning asosiy eksport tovarlari va xizmatlari narxlarining maqbul holda bo‘lishi va Markaziy bank tomonidan valyuta almashuv kursining barqaror holatda ushlab turilishi, o‘z navbatida, eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo‘jalik subyektlarini rag‘batlantirgan holda eksport qilinayotgan tovar va xizmatlar hajmining o‘sishiga olib keldi. Shu bilan birga, jahon bozorida respublikamizning asosiy eksport tovarlari hisoblangan paxta va oltin narxlarining o‘sishi eksport hajmi va to‘lov balansi qoldig‘ining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, 2005-yilda jahon bozorida 1 tonna paxta tolasining narxi 170 AQSH dollariga oshib, 2006-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 1211,4 AQSH dollarini tashkil etdi. Shuningdek, oltinning narxi o‘rtacha 75 AQSH dollarga oshib, 1-yanvar holatiga 1 troy unsiya uchun 513 AQSH dollariga teng bo‘ldi[9]. Bu esa respublikamizda umumiy eksport hajmining xususan, oltinni sotishdan keladigan eksport tushumining ko‘payishiga hamda to‘lov balansi ijobiy qoldig‘ining yanada oshishiga olib keldi. Shuningdek, eksportning tobora oshib borishi hisobiga respublikamizda oltin-valyuta zahiralarining miqdori ham sezilarli darajada o‘sib bordi.

2005-yilda umumlashtirilgan davlat budjetining daromad qismi ortig‘i bilan bajarilishi hisobiga uning YAIMga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bo‘lishi ta’minlandi. 2005-yilning o‘tgan davrida Markaziy bank pul-kredit siyosatini “Monetar siyosatning 2005-yilga mo‘ljallan gan asosiy yo‘nalishlari”, Vazirlar Mahkamasining “Pul-kredit ko‘rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2003-yil 4-fevraldagi 63-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Banklardagi depozit hisob varaqlardan naqd pul to‘lovlarini uzluksiz ta’minlash kafolatlari to‘g‘risida” 2005-yil 5-avgustdagi PQ-147- sonli Qarorlariga muvofiq holda amalga oshirgan edi.

2005-yilda Markaziy bank tomonidan olib borilgan pul-kredit siyosati milliy valyutaning barqarorligini, ya'ni inflyatsiyaning doimiy past darajada bo'lishini ta'minlash va shu bi lan birga iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirildi. Bunda yil boshida prognoz qilingan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, shu jumladan, iste'mol tovarlari narxlari indeksining 7-8 foiz darajasida bo'lishi va yalpi ichki mahsulotning 7 foizlik real o'sishiga erishish vazifalariga asoslangan edi.

Xullas, Markaziy bank davlatning asosiy banki sifatida, banklarning banki bo'lib, respublikada milliy valyuta barqarorligi, kredit muassasalarining barqaror rivojlanishiga, bank muassasalariga har tomonlama yetuk, zamonaviy kadrlarni yetishtirishda ma`sul hamda davlat uchun asosiy moliyaviy tashkilot bo'lib faoliyatini ko'rsatib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Pul va banklar. – T.: "Iqtisod-moliya", 2012. B-198.
2. Shodmonov Sh, Yaxshiyeva M, Yusupov R va boshq. Pul nazariyasi. – T.: 2011. 109-bet.
3. https://lex.uz/ru/docs/-4590452
4. Bank axborotnomasi. T. 1995. №1. 3-b.
5. Mamadiyarov Z, Maxmudova M, Kurbonbekova M va boshq. Bank ishi. – T.: 2021. 25-bet.
6. Yetuk mutaxassislar zarur. Bank axborotnomasi. T. 1995. №2. 7-b.
7. Bank axborotnomasi. 2006-yil 1-son. 3-b.
8. Mamadiyarov Z, Maxmudova M, Kurbonbekova M va boshq. Bank ishi. – T.: 2021. 24-bet.
9. Bank axborotnomasi. 2006-yil 8-son. 1-bet.

UO'K 394.2

XORAZM VOHASIDA XALQ O'YINLARI VA MILLIY BAYRAMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

B.R. G'apparova, mustaqil izlanuvchi, Urganch Davlat pedagogika instituti, Urganch

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm vohasida milliy bayramlarning shakllanish tarixi yozma manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari ma'lumotlari asosida yoritishga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga* maqolada*, shu paytgacha, manbalarda va zamonaviy tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarni qiyosiy jihatdan hamda yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida tahlil qilish va xulosalar chiqarishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *Xalq bayramlari, Beruniy, "Osor ul-boqiya", Firdavsiy, Umar Xayyom, Qoshg'ariy, Navro'z, islomdan oldingi xalq bayramlari.*

Аннотация. *В статье основное внимание уделяется освещению истории формирования народных праздников в Хорезмском оазисе на основе письменных источников и исторических исследований. В то же время в статье предпринята попытка проанализировать и сделать выводы из информации, представленной в источниках и современных исследованиях на сегодняшний день, в сравнительной манере и на основе новых точек зрения и подходов.*

Ключевые слова: *Народные праздники, Беруни, «Осар аль-Бакийя», Фирдоуси, Омар Хайям, Кашгари, Навруз, доисламские народные праздники.*

Abstract. *The article focuses on highlighting the history of the formation of folk festivals in the Khorezm oasis based on written sources and historical research. At the same time, the article attempts to analyze and draw conclusions from the information presented in the sources and modern research to date, in a comparative manner and on the basis of new points of view and approaches.*

Key words: *National holidays, Beruni, Osar al-Bakiyya, Ferdowsi, Omar Khayyam, Kashgari, Navruz, pre-islamic folk festivals.*

Kirish. O'zbek xalqi bayramlari qadimgi davrdan shu kungacha tarixiy zaruriyat zaminida rivoj topib, qarama-qarshiliklarni yengib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib keldi. Holbuki, o'zbek xalqi tarixi, madaniyatiga oid tadqiqotlarda xalq hayotining muhim va ajralmas qismi bo'lgan bayramlar o'z aksini topmayapti. Buning ustiga hanuzgacha o'zbek xalqi bayramlarining tarixi, an'analari va hozirgi ahvoli ham maxsus va yaxlit o'rganilgan emas. Buning asosiy sababi shunda ediki, sho'rolar davrida milliy bayramlarni tadqiq etish rasmiy va norasmiy ta'qiqlangan bo'lib, faqat yangi sovet bayramlarini o'rganish mumkin edi. Mustaqillik tufayli o'zbek an'analarini o'rganish imkoniyatlari

ochilmoqda. Milliy an’analar, xalq bayramlarining ayrim masalalari tadqiq qilina boshlandi. O‘zbek xalqi bayramlarini maxsus va haqqoniy o‘rganish davri keldi. Bu esa vaqtida qadrlanmagan merosimizni tarixiy, siyosiy, falsafiy, axloqiy, elshunoslik, madaniyatshunoslik nuqtai nazarlaridan har tomonlama o‘rganishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorazm vohasida qadimdan o‘tkazilib kelingan xalq bayramlari va milliy o‘yinlar tarixi mavzusi deyarli o‘rganilmagan dolzarb muammo sirasiga kiradi.

Xalq o‘yinlari, poygalar, musobaqalar, kurash bazmlari o‘tkazib turilganligi haqida ilk yozma manbalarda ma’lumotlar berilgan. Masalan, Abulqosim Firdavsiyning (935-1020) “SHohnoma”, Maxmud Qoshg‘ariyning (XI asr) “Devonu lug‘at-it turk”, Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) “Tib qonunlari”, Kaykovusning (XI asr) “Qobusnoma”, Umar Xayyomning (1048-1131) “Navro‘znoma”, Yusuf Xos Hojibning (XI asr) “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning (1441-1501) “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) “Boburnoma” , Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” va boshqa tarixiy asarlarda an’anaviy xalq o‘yinlariga oid ba’zi lavhalar, ayrim o‘yinlarning jarayonlari tafsiloti uchraydi, jismoniy kuch va pahlavonlik haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Firdavsiy-o‘yinlari, Beruniy qadimgi xalqlar o‘yinlari, Ibn Sino — o‘yinning shifobaxsh xususiyatlari, Mahmud Qoshg‘ariy -turkiy xalqlarga oid ko‘plab o‘yin turlarining bayoni, Qayqovus — o‘yinlarda qatnashish odobi, Alisher Navoiy — pahlavonlik o‘yinlarining badiiy ifodasi, Bobur — o‘yinlar zavq-shavqi haqida jiddiy fikrlar izhor etganlar [1].

Xiva xonligi davrida o‘tkazilgan xalq o‘yinlari hamda bayramlar haqida rus va xorij tadqiqotchilari umum O‘rta Osiyo xalqlari orasida o‘tkaziladigan bayramlar xususida bergan ma’lumotlarida qisman eslatib o‘tadilar. Jumladan, M.F. Gavrilov, I.Martinovich, A.K. Borovkov maqolalarida xalq o‘rtasida o‘tkaziladigan tomoshalar haqida ma’lumotlar keltirilgan [2]. F. Shvarts va Y. Skayler kabi xorij sayyohlari esdaliklarida ham xalq teatr ko‘rinishlari hamda qiziqchilik san’ati haqida qimmatli ma’lumotlar aks etgan [3].

E’tirof etish lozimki, sobiq sovetlar hokimiyati yillarida (1917-1991) harakatli o‘yinlar bo‘yicha bir qator to‘plamlar nashr etilib, ular asosan o‘quv yurtlarining muhim o‘quv qo‘llanmalari sifatida xizmat qildi. Lekin ular asosan teatr va raqs va ashula san’ati taraqqiyotiga bag‘ishlangani uchun tarkibida o‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlari masalasiga ancha sust yondashilingan [4].

So‘nggi yillarda, ayniqsa mustaqillik yillari davrida “Harakatli o‘yinlar” to‘plamlarini qayta nashr qilish, yangi o‘yinlar bilan ularni boyitishda yana T.S.Usmonxo‘jaev va A.Sh.Qosimov, F.N.Nasriddinov, O.O.Po‘latov, F.Xo‘jaev, H.Meliev, U.Qoraboyev, kabilar o‘z hissalarini qo‘shdilar [5].

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi milliy bayram va xalq o‘yinlariga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan,

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbek xalqi o‘z ajdodlarining buyuk tarixiy, ma’naviy, ilmiy merosi, me’moriy yodgorliklari, san’ati, adabiyoti bilan bir qatorda ko‘p ming yillik bayram-marosim madaniyatiga ega bo‘lganligi bilan ham faxrlansa arziydi. O‘zbek bayramlari uzoq taraqqiyot jarayonida ajdodlarimizning ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlari asosida vujudga keldi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshida O‘rta Osiyoda zardushtiylik keng rivojlangan. U qadimiy e’tiqodlar, jumladan, mitraizm (quyoshparastlik) zamirida taraqqiy etgan.

Zardushtiylik diniga e’tiqod qilish davrida ajdodlarimizning bayramlar tizimi shakllandi. Bunda Navro‘z, Mehrjon, Sada, Angom kabi bayramlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, issiqlik va sovuqlik, o‘lim va hayot o‘rtasidagi ziddiyatlar aks etib, bu davr odatlarida ezgulik, mehribonlik, muruvvatlilik, qadr-qimmat, insoniylik kabi ma’naviy-insoniy fazilatlar qadrlana boshlandi.

Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy bayramlari koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Ajdodlarimiz borliqdagi muhim to‘rt narsa (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, ular bilan bog‘liq to‘rt ulug‘ kunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan. Masalan, tabiat uyg‘onishi, kun-tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi pallasida Navro‘z; yozda – quyosh tik bo‘lib, tun qisqa, kun uzun davom etganida, havo harorati yuqori darajaga ko‘tarilib, suvga ehtiyoj

kuchayganida suvga bag‘ishlangan tadbir – Angom (Vaxshangom), kuzda kun-tun tenglashib, yilning ikkinchi yarmi boshlanganida, dehqonlar daladagi hosilni yig‘ib olgan vaqtida Mehrjon (Chiri-ruj; Nim-sarda); qishda – eng uzoq tun va qisqa kun sodir bo‘lib, sovuq avjiga chiqqanida ("qishki chilla"), isinishga ehtiyoj kuchaygan paytda Sada – Olov bayrami (gulxanlarda isinish) kabilarni uyushtirishgan. Miloddan oldin paydo bo‘lgan bu bayramlarning barchasi kishilarning tabiiy ehtiyojlari asosida qaror topgan [6].

Avestoshunos Meri Boys yozishicha, qadimda zardushtiylarning, xususan xorazmliklarning quyidagi yettita bayrami mavjud bo‘lgan:

1. Maidyoy-zaremaya-bahor o‘rtasi
2.Maidyoy-shema-yoz o‘rtasi
3.Payaitshayxa-g‘alla yig‘ish bayrami
4. Ayatrima-chorvaning yozgi yaylovdan qaytishi
5. Maiyairya-qish o‘rtasi
6. Xamaspatmaeda-fravash (ruhlar sharafiga ziyofat berish)
7. Navro‘z (Avestoda qanaqa nomlanganligi ma'lum emas) [7].

Bu bayramlar diniy marosim shaklida o‘tib, ular Axuramazda sharafiga bag‘ishlangan ibodat bilan boshlangan. Ibodatdan so‘ng xursandchilik, o‘yin-kulgi bo‘ladigan ziyofat o‘tkazishgan. Bayramning keyingi qismida o‘yin, tomosha, ko‘ngilochar tadbirlar uyushtirilgan [8].

O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida yashovchi xalqlarning qadimiy bayramlarini o‘rganishda X-XI asrlarda yashagan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Osor ul-boqiya") asari muhim ahamiyatga ega. Beruniy o‘zining bu asarida qadimiy eroniylar, xorazmiylar, so‘g‘diylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, nasroniylar, hindlar va boshqalar kalendarlaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar haqida tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bebaho ma'lumotlarni bayon etgan. Mazkur asarda O‘rta Osiyo, jumladan, Xorazm va So‘g‘d xalqlarining zardushtiylar davridagi yillik kalendar bayramlari haqida ham qiziqarli mulohazalar yozib qoldirilgan.

Beruniy xorazmliklar bayrami haqida ham alohida to‘xtalib, ular quyidagi bayramlarni o‘tkazishga odatlanishganini ta'kidlaydi: "Navsarji oyida yil boshi (Navro‘z); x-r-vdod oyining 1-kunini Arijo-suvon (issiq kiyimdan chiqish, ochilish hayiti); chiri oyining 15-kuni – Ajor (kuz oxirida olovda isinish hayiti); A-x-sh-r-v-i-r – oyining 1-kuni – F-b-r-i-x yoki F-a-r-u-b-a (sovuq kelishi bilan Xorazm podsholarining shahar chetiga chiqib, uni yondan himoya qilish kuni); Umri oyining 1-kuni – Azdokandxvor (sovuq tushishi bilan olov yoqilgan uylarda o‘choqlar atrofiga yig‘ilib, yog‘liq non yopish kuni); 13-kuni – Chiri-ruj(yil yarmi); Rim-j-d oyining 15-kuni "Mina kechasi" (erta bahorda kechasi sovuqda qolib o‘lgan ayol xotirasi munosabati bilan o‘tkaziladigan hayit); Isfandarmoji oyining 4-kuni – Xej, 10-kuni – Vaxshangom (suvga e'tiqod qilish kuni); 20-kuni – Inga (bir-biriga yaqin uylar qurish kuni) bayrami kabilar.

Beruniy xorazmliklarning bayramlarini ikki turga bo‘lgan

1.Tabiat hodisalariga bag‘ishlanganlari: yil boshi bayrami (navro‘z), ochilish bayrami, gulxanda isinish bayrami, yog‘liq non yopish kuni, Mina kechasi va hokazolar.

2. Diniy marosimlar (islomgacha bo‘lgan davrda) arvohlar uchun qabrlarga ovqat qo‘yadigan kun va boshqalar.

Ma'lumki miloddan ilgari Eron, Sug‘d va Xorazmda zardushtiylik kalendaridan foydalanilgan. Yil fasllaridagi har bir oyning o‘z bayramlari va mashhur kunlari bo‘lgan. Masalan, "Farvardin moh — yoz boshi, tir moh — kuz boshi, mehr moh – qish boshi, diy moh – bahor boshi edi. Ularning oylari ichida to‘rt faslga qarab ishlatiladigan (hayit) kunlari bor edi", — deb qayd qilgan Beruniy [9].

Umar Hayyomning "Navro‘znoma" asarida:

- Farvardin oyi – "farvardin" – pahlaviycha so‘z va uning ma'nosi aynan jannatlar bo‘lib, bu oy o‘simliklar o‘sishining boshlanishidir. Bu oy Hamal burjiga oid. Binobarin, oyning boshidan to oxirigacha oftob shu burjda bo‘ladi.

- Tir oyi – bu oyni "tir" atadilar, chunki bu oyda bug‘doy, arpa va boshqa narsalarni taqsim qiladilar. Oftobning avji pasaya boshlaydi. Saraton burjida bo‘ladi.Bu oy yoz oyining birinchisidir.

- Mehr oyi – bu oyni mehr deyishadi, chunki u insonlar o‘rtasidagi do‘stlik oyidir, ya’ni, podshohlarning daromadlari shu oyga to‘g‘ri keladi. Bu oyda dehqonga o‘lpon to‘lash oson. Oftob Azro (Sunbula)da bo‘ladi. Bu yozning oxirgi oyi.

- Day oyi – pahlaviy tilida “day” devni anglatadi. Bu oyni “day” deyishlariga sabab, u qahrli va bu oyda yer ko‘karishdan yiroqdir. Oftob jadidada bo‘ladi. Bu qishning birinchi oyi [10], deya bu oylarga shunday ta’rif berilgan.

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida suvga bag‘ishlangan odatlar, hayitlar haqida ko‘p to‘xtalgan. Bunday odatlarning biri-bahor-yoz bayramlarida odamlar bu yil suv mo‘l bo‘lsin, hosil ko‘paysin deb, bir-birlariga suv sepishidir. Bu xususda, Beruniy shunday deb yozadi:”Odamlar shu kuni (ya’ni Navro‘z kuni) tong paytida o‘rinlaridan turib, kanal va hovuzlarga boradilar. Ko‘pincha oqib turgan suvlarga ro‘para turib, barakali bo‘lish va ofatlarni daf etish uchun ustilaridan suv quyadilar”.

Suvga bag‘ishlangan qadimiy odatlardan yana biri esa hatto bayram darajasigacha ko‘tarilgan. U yozning muayyan kunlarida odamlarning daryo va suv havzalariga borib cho‘milishi chog‘ida o‘tkazilgan. Jumladan, Beruniyning qayd qilishicha, xorazmliklar Ispondormoji oyining 1-kuni Vaxshangom deb ataluvchi bayram o‘tkazishgan. Bu bayram Vaxsh, Jayhun suviga bag‘ishlangan.

Beruniyning asarida ma’lum qilinishicha, shu kuni odamlar Jayhun daryosiga borib cho‘milishgan. Shuningdek, Beruniy eronliklarning Xorazm odatlariga o‘xshash hayiti xususida to‘xtalib: “Omul aholisi shu kuni Hazar (Kaspiy) dengiziga borib, kuni bo‘yi suvda o‘ynashib, sho‘ng‘ishadilar”, deydi [11].

Kuz mavsumida nishonlanadigan katta bayramlardan yana biri – Mehrjon (yoki Mehrgoh, Xorazmda – Chiri-ruj, so‘g‘diylarda – Nimsarda) bo‘lgan.

Mehrjon so‘zi “jon sevgisi”, shuningdek, “quyosh” degan ma’noni bildiradi.

Beruniyning yozishicha, “Quyosh va Oy falakning ikki ko‘zi bo‘lganidek, Navro‘z va Mehrjon zamonning ikki ko‘zidir”. Chunki Navro‘z bahorda kun va tunning baravar kelganida, Mehrjon esa kuzda nishonlanadigan bayram bo‘lgan.

Navro‘z kuni tabiatda jonlanish boshlansa, Mehrjon kuniga kelib, o‘simliklarniing o‘sishi jarayoni nihoyasiga yetgan.

Beruniy bu ikki bayramni bir-biri bilan taqqoslab, yarim hazil rivoyatni keltiradi: “Bir guruh kuzni bahordan ortiq bilganidek, ular mehrjonni navro‘zdan ortiq bilganlar. Buni isbotlashda Iskandar Arastudan, u ikki kunning qaysisi afzal deb so‘raganida uning: “Ey podshoh, bahorda hasharotlar paydo bo‘la boshlaydi, kuzda esa ular yo‘qolib ketadi. Demak, shu jihatdan kuz bahordan afzal”, — degan javobga asoslanadilar”.

Bahorda kichik va katta “Navro‘z” bo‘lganidek, bu Umri (Mehrmoh) oyining 16-kunida Kichik Mehrjon va 21-kunida Katta Mehrjon bayrami o‘tkazilgan. Mehrjon bayramini podshohlar va Eron mamlakati shahar aholisi butun oy davomida nishonlagan. Mehrjon bayramini o‘tkazishda ham huddi Navro‘zdagidek turli tabaqaga mansub kishilar uchun besh kundan ajratilgan.

Mehrjon bayramidan so‘ng odamlar qishga tayyorgarlik ko‘ra boshlashgan. “Xuroson podshohliklarida shu kuni otliq askarlarga kuzlik va qishlik kiyim berish rasm bo‘lgan”.

Xorazmliklar esa Umri oyining 12-kunida bayram qilishib, uni Chiri-ruj deb atashgan. Beruniy xorazmliklar “bu hayitni xuddi eronliklar mehrgonni ulug‘laganidek ulug‘laydilar”, deb ta’kidlaydi.

Firdavsu-l-iqbolda Ogahiy Muhammad Rahimxonning ikkinchi o‘g‘li shahzoda Rahmonquli to‘raga – xatna sunnatin joriy qildirurg‘a suri mavfuru-s-surur va jashni azim tartib bergani tavsifiga ancha batafsil to‘xtaladi. SHoir:

Yig‘nalibon ul sifat asbobi sur –
Kim, bo‘lubon vasfida ojiz shuur.
Safhae ta’rifig‘a surmak qalam

CHarxi barin avjig‘a urmoq qadam, – deya to‘y munosabati bilan – adolat laoliysi ummoni, saxovat yavoqitining koni bo‘lgan xonning qo‘llari bamisoli dengizdek gavharlar sochgani, xaloyiqqa siymu diram ulashib, fuqaro va raoyoni xayru ehsonidan komron qilgani haqida yozadi [12].

Bu turkum she'rlarda xonning fazilatlari mubolag'ali tarzda, pafos bilan talqin etiladi. Bunday talqin usuli, birinchidan, muayyan hayotiy asosga ega bo'lsa, ikkinchidan, ularda Ogahiyning adolatli, raiyatparvar hukmdor haqidagi ideali ham o'z ifodasini topganini ta'kidlash kerak.

Asarda, shuningdek, bir qancha sport va xalq o'yinlari, jumladan, kurash, otchopar singari tomoshalarning nazmiy talqini ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, yuqorida zikr etilgan to'yda otchopar tomoshasi uyushtiriladi, muallif saj'da ifodalashicha, unda – samandi falakhay'atu barqsur'at va raxshi devbodi sarsarnihod otlar ishtirok etadi [13].

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalq o'yinlari o'z-o'zidan emas, balki ehtiyoj asosida vujudga kelgan. Ularning paydo bo'lishi va shakllanish davri turli bosqichlarda kechganligi tufayli tadqiqotlarda ularni mifologik qarashlar bilan bog'liq holda asoslashga urinish seziladi. Masalaning yana bir jihati shundaki, davr o'tishi bilan xalq o'yinlari kishilar hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ajdoddan avlodga meros bo'lib o'tishi hamda zamonga moslashib, kamol topish jarayonlari yuz bergan. Qolaversa, xalq o'yinlarining shakllanish masalasini o'rganganda aholining tabiiy-geografik joylashuvi muhim omillardan biri ekanligini e'tiborga olish kerak, chunki o'yinda ishtirok etuvchi predmetlar, detallar, joylashuv o'rni va tabiiy shart-sharoit bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фирдавсий Абулқосим. Шоҳнома: сайланма / Нашрга тайёрловчи ва насрий баёни таржимони Ҳ.Ҳомидий, масъул муқаррир Ж.Мухаммад. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 188 б.; Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Том 1. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – 486 б.; Қошғарий Маҳмуд. Девон ул луғати-т-турк. Уч жилдлик. 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – Б.360-445; Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари: (Уч жилдлик сайланма). (Тузувчилар: У. Каримов, Ҳ. Ҳикматуллаев). Ж. 1. Т.; А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриѐти, 1993.— 304 б.; Кайковус. Қобуснома // Нашрга тайёрловчи С.Долимов, У.Долимов.– Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.224; Навоий Алишер. Хамса.– Тошкент: Ғафур Ғулом, 1986. – 424 б.; Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 288 б.; Мунис Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахту саодат жаннати). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 518 с.

2. Гаврилов М. Ф. Кукольный театр Узбекистана // Среднеазиатский комитет по делам музеев и охраны памятников и охраны памятников старины, искусства и природы. – Ташкент: [б. и.], 1928. – 59 с.; Мартинович Н. Заметки о народном кукольном театре сартов / Казанский музейный вестник. 1921, №1-2. – С.13-24.; Боровков А. Дорвоз: Бродячий цирк в Средней Азии / Средне-Азиатский комитет по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы. – Ташкент: [Средазкомстарис], 1928. – 30 с.; Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане: очерки быта туземного населения / Склад Т-ва В.А. Березовский, 1916. – 415 с.; его же: Народные развлечения у сартов, газ. «Русский Туркестан», 1900, № № 10, 15, 17; его же: Чем развлекаются туземцы, «Еженедельник Турк.народного ун-та», 1918, № 2.

3. F. Schwarz, Turkestan, die W iege der indogerm anischer Volker, Freiburg, 1910, стр. 298— 299; E. Schuyler, Turkistan, N otes of a Journey in Russian TurT<istan, London, 1876, т. I, стр. 137; yana qarang: Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2019. – 334 б.

4. Тожибоев Ҳ. Н., Усмонхўжаев Т. С. Ҳаракатли ўйинлар- Т: 1963. – 243 б.; Абидов Т.Х. Театр масхарабозов Хорезма. Автореферат дис. на соискание учен. степени канд. искусствоведения / Ин-т искусствознания им. Хамзы Хакимзаде Ниязи. – Ташкент 1967. – 55 с.; Қодиров М. Ўзбек халқ оғзаки драмаси (Сурхондарё, Самарканд ва Бухоро материаллари асосида). – Т.: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1963. – 171 б.; yana uning: Ўзбек театри анъаналари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. –133 б.; yana uning: Ўзбек анъанавий театри. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 456 б.; Каримова Р.З. Хорезмский танец / Вступ. статья канд. искусствоведения Л.А. Авдеевой. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1975. – 114 с. ил., нот.; 22; Баскаков Н.А. Народный театр Хорезма. – Ташкент: ФАН УзССР, 1984. – 128 с.; Тўра Қиличев. Хоразм халқ театри. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 185 б.

5. Rahimqulov K. Milliy harakatli o'yinlar: o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: «Tafakkur-Bo'stoni, 2012. — 144 b.; Усмонхужаев Т.С., Бурнашев И.И., Мелиев Ҳ.А., Қипчоқов Б.Б. "500 ҳаракатли уйинлар". "Bekinmachoq-Plyus". 2010. -103 с.; Tadjiyeva M.X. Xusanxodjayeva S.I. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Niso poligraf nashriyoti", 2017, -244 c.; Tadjiyeva M.X. Xusanxodjayeva S.I. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Niso poligraf nashriyoti", 2017, -244 c.; Бикбулатов С.А., Леденев И.В. Общеразвивающие упражнения с предметами в процессе физического воспитания в вузе: методические указания. – Омск: СибАДИ, 2011. – 56 с.; Бикбулатов С.А., Леденев И.В. Общеразвивающие упражнения с предметами в процессе физического воспитания в вузе: методические указания. – Омск: СибАДИ, 2011. – 56 с.; Мардонова Г. А. Ўзбек миллий ўйинлари:– Тошкент: Bookmany print, 2022. – 158 б.; Usmanxodjayev T . va boshq. Sport va harakatli o'yinlar (milliy va harakatli o 'yinlar) darslik / Oliy va o 'rta maxsus ta 'lim vazirligi. —

T.: Cholpon nomidagi NMIU , 2018. – 328 b.; Usmanxodjayev T . va boshq. Sport va harakatli o‘yinlar (milliy va harakatli o ‘yinlar) darslik / Oliy va o ‘rta maxsus ta ’lim vazirligi. — T.: Cholpon nomidagi NMIU, 2018. – 328 b.; Норинбоев О. Миллий ўйинимиз чопқирлари: ўйна, қувла ва соғлом бўл! //Янги Ўзбекистон, 2022 йил 3 июнь; Мелиев Х.А. Алишер Навоий асарларида этноспорт турлари, халқ ўйинлари ҳақидаги қарашлари // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11, Issue-5, 2023. – Б.300-304; Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари / Масъул муҳаррир Султонмурод Олим. – Т.: Шарқ, 2002. – 240 б.

6. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Том 1. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.256-260.

7. Мери Бойс. Зароастрийцы. Верования и обычаи. – М.: Наука; 1987. – С.44.

8. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Б.8-33.

9. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.– Б.256-260.

10. Умар Хайём. Наврўзнома. – Тошкент: “Меҳнат”, 1990. –Б.13-14.

11. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Б.33-37.

12. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахту саодат жаннати). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б.400.

13. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахту саодат жаннати). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б.401.

UO’K 930

IJTIMOIY MEDIARESURSLAR: KELIB CHIQISH TARIXI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

A.Hamidov, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy mediaresurslarning shakllanishi va evolyutsiyasi, ularning kommunikatsiya nazariyasidagi o‘rni va tahlil usullari chuqur tadqiq qilinadi. Robert Kreyg tomonidan ishlab chiqilgan kommunikatsiya nazariyasining yetti asosiy yondashuvi asosida ijtimoiy tarmoqlarning mohiyati va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlil etiladi. Muallif ijtimoiy tarmoqlar fenomenining tarixiy ildizlarini aniqlab, Jakob Moreno tomonidan ishlab chiqilgan sotsiometriya nazariyasining bu boradagi ilmiy ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar*: Ijtimoiy media, kommunikatsiya nazariyasi, Robert Kreyg, mediashunoslik, fenomenologik yondashuv, sotsiometrik model, Web 2.0, foydalanuvchi yaratuvchanligi (UGC), digital kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar tarixi, Facebook, Kremniy vodiysi, raqamli ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot makoni, diskursiv tahlil.*

Аннотация. *В данной статье глубоко исследуются формирование и эволюция социальных медиа-ресурсов, их роль в теории коммуникации и методы анализа. На основе семи основных подходов теории коммуникации, разработанных Робертом Крейгом, анализируется сущность социальных сетей и их роль в общественной жизни. Автор выявляет исторические корни феномена социальных сетей и раскрывает научное значение социометрической теории, разработанной Якобом Морено, в этом контексте.*

Ключевые слова: *Социальные медиа, теория коммуникации, Роберт Крэйг, медиаведение, феноменологический подход, социометрическая модель, Веб 2.0, пользовательское творчество (UGC), цифровая коммуникация, история социальных сетей, Facebook, Кремниевая долина, цифровые средства массовой информации, современное информационное пространство, дискурсивный анализ.*

Abstract. *This article thoroughly explores the formation and evolution of social media resources, their role in communication theory, and methods of analysis. Based on the seven main approaches of communication theory developed by Robert Craig, the article analyzes the essence of social networks and their role in social life. The author identifies the historical roots of the social network phenomenon and highlights the scientific significance of sociometry theory developed by Jacob Moreno in this context.*

Keywords:*Social media, communication theory, Robert Craig, media studies, phenomenological approach, sociometric model, Web 2.0, user-generated content (UGC), digital communication, history of social networks, Facebook, Silicon Valley, digital mass media, modern information space, discursive analysis.*

Zamonaviy kommunikatsiya nazariyasida eng istiqbolli va talabgir yondashuv deb 1999 yilda amerikalik mutaxassis Robert Kreyg tomonidan "Aloqa nazariyasi bilim sohasi sifatida" nomli maqolasida bayon etilgan konsepsiya hisoblanadi.R. Kreygning fikricha, "aloqa (kommunikatsiya) tushunchasining turli talqinlarda bo‘lishi - bu sohada turli sohalar vakillari tomonidan tadqiqot olib borilishi bilan bog‘liq. Har bir mutaxassis aloqa masalasini o‘z faoliyat sohasi nuqtayi nazaridan ko‘radi va ko‘pincha boshqa sohalardagi hamkasblarining ishlariga qiziqmaydi".U kommunikatsiya nazariyasiga yettita intizomiy yondashuvni ajratib ko‘rsatadi:Fenomenologik yondashuv (phenomenological) - odamlar o‘rtasidagi muloqotni, ya’ni dialogni tashkil etish usullarini o‘rganadi;Ritorik yondashuv (rhetorical) - kommunikatsiyani nutq san’atining amaliy shakli sifatida ko‘radi;Semiotik yondashuv (semiotic) - aloqa tizimini belgilar (znaklar) tizimi sifatida o‘rganadi;Kibernetik yondashuv (cybernetic) - kommunikatsiyani axborotni qayta ishlash va uzatish jarayoni deb tushunadi;Sotsiopsixologik yondashuv (sociopsychological) - kommunikatsiyani inson, guruhlar va jamiyatga psixologiya asosida ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ko‘radi;Sotsiomadaniy yondashuv (sociocultural) - aloqa orqali jamiyat tartibini yaratish yoki qayta yaratish, insonlarning ijtimoiy muhitdagi o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi;Tanqidiy yondashuv (critical) - diskurs orqali ijtimoiy haqiqatni aks ettirish va uni tahlil qilishni o‘z tadqiqotining asosiy obyekti qiladi.[1:201.]

Bu yetti yondashuvning barchasini zamonaviy mediatarqatish vositalarini, jumladan, jadal rivojlanayotgan ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilishda qo‘llash mumkin.Ijtimoiy tarmoqlar tavsifiga o‘tishdan oldin, ushbu tushunchaning bir qancha muhim ta'riflarini aniqlab olish zarur. Bu soha mutaxassislarining fikricha, “ijtimoiy tarmoq - bu ijtimoiy tuzilmaning o‘ziga xos turi bo‘lib, u tugunlar (individlar yoki tashkilotlar) va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklardan iborat”.[2:650-675.] Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning o‘rganilishi tarixi anchagina uzoq yillarga borib taqaladi:“An’anaviy qarashlarga ko‘ra, bu atama 1954 yilda ‘Manchester’ sotsiologik maktabi vakili bo‘lgan olim Jeyms Barns tomonidan joriy etilgan deb hisoblanadi. Biroq bu hodisaning o‘zi, amalda, insoniyat tomonidan global o‘zaro aloqalar vositasi sifatida facebook.com, vk.com va boshqa ko‘plab internet-loyihalar orqali shakllantirilgan”.[3.] Bu hodisa Jakob Levi Moreno tomonidan ishlab chiqilgan va “sotsiometriya” deb atalgan shaxslararo munosabatlarni o‘lchash nazariyasining o‘rganish ob’ektiga aylangan edi. Uning konsentrik aylanalardan iborat sxemasi - har bir doira ma’lum darajadagi afzallikni bildiradi - muayyan ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi yaqinlik yoki begonalik darajasini ularning bir-birlariga bo‘lgan simpatiya yoki antipatiyasiga ko‘ra aniqlashga imkon bergan.Ta’kidlash joizki, mediashunoslikda ushbu sxemadan ba’zi mutaxassislar deyarli o‘zgartirmasdan foydalanadilar, boshqalar esa uni yanada kengaytirilgan modellar uchun asos sifatida qabul qiladilar.Hozirgi bosqichda Jakob Moreno konsepsiyasi faqatgina psixologlar yoki sotsiologlarga tegishli nazariya bo‘lib qolmay, balki zamonaviy internet-kommunikatsiya makoni - Web 2.0 makonining markaziy bo‘g‘iniga aylangan: “1971 yilda ARPA-Net (interneting ajdodi) tomonidan foydalanilgan ilk ijtimoiy tarmoqlardan, 1988 yilda retranslyatsiya qilinadigan IRC (Internet Relay Chat) texnologiyasi, 1991 yilda Tim Berners-Li tomonidan yaratilgan World Wide Web orqali o‘tib, nihoyat, Randy Konrad tomonidan yaratilgan birinchi ijtimoiy internet tarmog‘i - Classmates.com saytigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi”.Hozirgi kunda internet foydalanuvchilarining katta qismi ijtimoiy tarmoqlar bilan qamrab olingan va bu ko‘rsatkich barqaror ravishda o‘sishda davom etmoqda. Aloqa markazlari va kontent yaratuvchilari endi an’anaviy ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot) emas, balki foydalanuvchilarning o‘zlari va ular tomonidan yaratilgan axborot mahsuloti - User-generated content (UGC), Consumer-Generated Media (CGM) yoki User-Created Content (UCC) bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar (yoki ijtimoiy mediatarqatish vositalari) “alohida insonning kuchini eksponensial darajada oshirmoqda. Bugun bitta odam ham, an’anaviy OAV megafonlarisiz, kompaniyaning obro‘siga putur yetkazishi mumkin”.Demak, ijtimoiy tarmoqlar - yaqindagina paydo bo‘lgan hodisa (ularning rivojlanishi yangi mingyillikning boshlanishiga to‘g‘ri keladi), ammo shunday tez sur’atlarda evolyutsiyalanmoqda va o‘z atrofidagi haqiqatni o‘zgartirmoqdaki, allaqachon o‘zining “tarixi”ni shakllantirib ulgurgan va yangi imkoniyatlarni belgilab bergan.Tarixiy jihatga qaytadigan bo‘lsak, yangi hodisaning "vatani" AQShdagi Kremniy vodiysi bo‘lganini

ta’kidlash lozim. Bu yerda yangi loyihalar ustida dunyoning eng yaxshi dasturchilari, testlovchilari, IT-muhandislari va veb-dizaynerlarining sa’y-harakatlari birlashtirilgan edi.Talabalar uchun mo‘ljallangan birinchi ijtimoiy tarmoq - keyinchalik Facebook nomini olgan loyiha - 2004 yilda Garvard universiteti talabasi Mark Sukerberg tomonidan ishga tushirilgan. Hozirda bu tarmoq bir qator o‘zgarishlar va yangilanishlardan so‘ng, dunyodagi eng yirik ijtimoiy tarmoqlardan biriga aylangan va butun dunyo bo‘yicha yangi ommaviy axborot vositalarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.Bu ta’sir shu darajada kuchli bo‘ldiki, kompaniyaning shakllanishi, rivojlanishi va siyosati haqida 2009 yilda amerikalik yozuvchi va ssenariynavis Ben Mezrich tomonidan “Ixtiyorsiz milliarderlar: Facebook qanday yaratilgan. Bu – jins, pul, daholik va xiyonat haqidagi hikoya” nomli kitob yozildi. Keyinchalik esa ushbu asosda “Ijtimoiy tarmoq”(The Social Network) nomli film suratga olindi.[4:45-52.]

XX asrning oxiriga qadar mamlakatimizning ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy hayotida, asosan, badiiy kitob, gazeta va jurnallarga qiziqish katta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bularning o‘rnini tezkor axborot manbai - ijtimoiy tarmoqlar egallay boshladi. “O‘zbekistonda “Facebook” tarmog‘idan foydalanuvchilar 1 millionga yaqinlashib qolgan. Ular o‘rtacha 25-34 yoshda bo‘lib, 65.5 foizini erkaklar, 34.5 foizini xotin-qizlarimiz tashkil etar ekan. Ayni paytda dunyoda 1 mlrd.lik auditoriyaga ega Instagram O‘zbekistonda 1.586.500 nafar foydalanuvchiga ega. 2.476.590lik Facebook esa mamlakatimizda 686.400 kishini birlashtirgan. 200 mln.lik Telegram – O‘zbekistonda 18 mln.kishiga xizmat ko‘rsatmoqda”.[4]

Bugungi yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi haqida fikr yuritilganda, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevni quyidagi fikrlarini aytib o‘tish joizdir: “Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutoala madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani sizlarga ma’lum. Lekin ko‘plab bolalarimiz kitobdan uzoklashib, ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgani - bu ham bor gap. Albatta, biz internet va boshqa zamonaviy axborot manbalarining o‘rni va ahamiyatini inkor etmaymiz. Bugungi hayotimizni internetsiz tasavvur qilishning o‘zi qiyin” [3]. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan bir paytda yoshlarimizning ongini o‘rab-chirmab emas, balki ularning ma’naviy tarbiyasiga alohida urg‘u berib, ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga o‘z qobig‘imizga o‘ralmagan holda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishimiz kerak. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, globallashuv jarayonida bugungi yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan xabarlar ham tuzatib bo‘lmas darajada ziyon keltirishi mumkin. O‘zbekistonda internet global axborot kompyuter tarmog‘ining imkoniyatlari va rolini tahlil qilish shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda quyidagi ijobiy natijalarni ko‘rsatadi: Internetdan o‘ziga xos “ommaviy aloqa vositasi”, ulkan axborot bazasi sifatida foydalanish. monitoring, ilmiy ish, ijodkorlikni tashkil etishning kuchli vositasi. Internet yordamida jahon elektron bozori, elektron biznes shakllanmoqda. Siyosiy sohada internet insonni shaxs sifatida bir yo‘nalishli mafkura ta’siridan himoya qiladi. Internetning eng yorqin xususiyatlari uning o‘ziga xosligi, millatlararoligi, ochiqligi, chiziqli bo‘lmaganligi, murakkabligi, integratsiyasi va universalligida namoyon bo‘ladi. Global axborot tarmog‘ining rivojlanishida yuzaga keladigan asosiy muammolarni quyidagicha tavsiflash mumkin: Tarmoqlarda joylashtirilgan ma’lumotlar hajmini nazorat qilishning imkoni yo‘q. Internet insonning aqliy va jismoniy qobiliyatiga alohida talablar qo‘yadi, chunki bu tizimga berilib ketish, ya’ni virtual olamga kirib kelish, real hayotdan uzoqlashishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular nafaqat axborot almashinuvi, balki ijtimoiy munosabatlar, jamoatchilik fikri va ommaviy madaniyatni shakllantirishda muhim vositaga aylangan. Ularning ildizi XX asr o‘rtalariga borib taqalsa-da, haqiqiy taraqqiyot bosqichi internet va Web 2.0 texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Robert Kreygning yondashuvlari esa ijtimoiy media fenomenini chuqur va tizimli tahlil qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Internet jahon axborot tarmog‘ida foydalanuvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ko‘maklashadigan zamonaviy veb-resurslarni shakllantirish, shuningdek, axborot makonida O‘zbekistonning tarixi, fani, madaniyati va san’atini targ‘ib qilishni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yo‘lga qo‘yish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ilgari surilayotgan g‘oya va fikrlarni monitoring qilish, ularning dinamikasini aniqlash, internet jahon axborot tarmog‘ida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun kontentlarni

rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish borasidagi ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Архангельская, И.Б. Маршалл Маклюэн / И.Б. Архангельская. – Н. Новгород: НКИ, 2010. – С. 201.

2.Воронкин, А.С. Социальные сети: эволюция, структура, анализ / А.С. Воронкин // Образовательные системы и общество КНТИУ. – 2014. – Том 17. – № 1. – С. 650–675.

3.Харламов, А. В. Рекламные коммуникации в социальных сетях / А.В. Харламов. – URL: https://www.academia.edu/33004935/Харламов_А_В_Рекламные_коммуникации_в_социальных_сетях (дата обращения

4.Янукян, Д. Э. Социальные сети Facebook и Twitter: исторический экскурс и современные возможности / Д.Э. Янукян // Гуманитарные исследования. – 2016. – № 4 (60). – С.45–52.

5. Ш. Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.Тошкент-“Ўзбекистон”-2017. Б-529

6. Беруний Алимов. Ёшларнинг ижтимоий тармоклар орқали мамлакат имижини оширишдаги роли. http://beruniyalimov.uz/archives/705

UO’K 930

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI VA UNING BOSHLANG‘ICH TA’LIM SOHASIDAGI AHAMIYATI (2001–2015 yillar)

F.Q.Isoqjanov, mustaqil tadqiqotchi, Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasidagi islohotlarning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, mamlakatning yosh avlodi uchun mustahkam bilim asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, integrativ ta’lim, modernizatsiya, islomiy ta’lim tizimi, axloq, ma’naviy kodeks.*

Аннотация. *В статье подчеркивается важность начального образования как ключевого элемента реформ в рамках Национальной программы подготовки кадров и его значение в создании прочной базы знаний для молодого поколения страны.*

Ключевые слова: *Национальная программа обучения, интегративное образование, модернизация, система исламского образования, этика, духовный кодекс.*

Abstract. *The article highlights the importance of primary education as the most important link in the reforms within the framework of the National Personnel Training Program and its importance in creating a solid knowledge foundation for the country's younger generation.*

Keywords: *National program of Personnel Training, integrative education, modernization, Islamic education system, ethics, spiritual code.*

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (KTMD) mamlakat ta’lim tizimini jahon andozalariga moslashtirish va zamonaviy talablarga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur 1997-yilda qabul qilingan bo‘lsa-da, 2001–2015-yillar davomida uning boshlang‘ich ta’lim sohasida erishilgan natijalari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida boshlang‘ich ta’lim sohasida quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Milliy dastur boshlang‘ich ta’limni jahon andozalariga moslashtirish uchun o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilishni talab qildi[1]. Shu jumladan, yangi o‘quv adabiyotlari yaratildi va ilg‘or pedagogik texnologiyalar joriy etildi. O‘quv rejalarida fanlarning turli xil qamrovi kengaytirildi, bu esa bolalarning keng qamrovli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga imkon yaratdi. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi amalga oshirildi. Pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablarga moslashtirishga katta e’tibor qaratildi. Xalqaro standartlarga mos bo‘lgan metodikalar ishlab chiqildi va o‘qituvchilar uchun seminar-treninglar tashkil etildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi boshlang‘ich ta’lim sohasida keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu davr mobaynida amalga oshirilgan chora-tadbirlar nafaqat ta’lim sifati, balki butun mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlarni yetishtirishga xizmat qildi. Dastur boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishning muvaffaqiyatli namunasidir[2].

Boshlang‘ich ta’limning o‘quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish jarayoni O‘zbekiston tarixining turli davrlarida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar ta’sirida shakllanib, o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan.

O‘zbekiston tarixida boshlang‘ich ta’limning o‘quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish jarayoni ko‘p bosqichlardan iborat bo‘lib, u turli davrlarda shakllangan ta’lim an’analari, ilmiy va diniy qarashlar, madaniy meros va ijtimoiy talablar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston hududi qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lib kelganligi sababli, boshlang‘ich ta’lim tizimi ham uzoq tarixiy jarayonlar davomida rivojlanib kelgan.

VIII asrda islom dini O‘zbekiston hududiga kirib kelishi bilan ijtimoiy-madaniy hayotning barcha jabhalarida chuqur o‘zgarishlar yuz berdi va ushbu jarayon ta’lim tizimining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Islom dini ilm-ma’rifatni eng oliy qadriyatlar qatoriga qo‘yib, uning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Natijada, yangi ta’lim tizimi shakllanib, madrasalar tizimi vujudga keldi va ular keyinchalik nafaqat diniy, balki dunyoviy ilm-fan markazlariga aylana boshladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichini tashkil etgan maktablarda yosh bolalarga Qur’oni karimni yod olish, arab yozuvi va grammatika asoslari, axloqiy tarbiya hamda shariat ilmlari o‘rgatilgan. Ushbu bosqich bolalar uchun savodxonlikning dastlabki asoslarini shakllantirib, ularning keyingi bosqichda murakkab ilmlarni o‘zlashtirishga tayyorlanishini ta’minlagan. Maktablarda o‘qitish jarayoni ustoz-shogird an’anasi asosida tashkil etilgan bo‘lib, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ijtimoiy muhitga moslashuvchanlikni oshirish kabi pedagogik tamoyillarga e’tibor qaratilgan. Dastlabki bosqichni tamomlagan o‘quvchilar yanada chuqur bilim olish maqsadida madrasalarga yo‘naltirilgan.

IX-XII asrlarda Movarounnahr hududi islom sivilizatsiyasining eng yuksak ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Marv va boshqa shaharlarda mashhur madrasalar faoliyat yuritgan bo‘lib, ular faqat mahalliy ilm-fan rivojiga emas, balki umuman islom olamining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Xorazm Ma’mun akademiyasi, Samarqanddagi ilmiy markazlar, Buxorodagi Mir Arab madrasasi kabi ta’lim maskanlari ana shu ilmiy taraqqiyotning eng yuksak cho‘qqilarini zabt etgan oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy algebra va algoritm fanlarining asoschisi sifatida ilmiy meros qoldirgan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy tabiiy fanlar, astronomiya, geografiya sohalarida beqiyos tadqiqotlar olib borgan. Ibn Sino esa tibbiyot fani rivojida butun bir davrni belgilovchi muhim ilmiy asarlar yaratib, Sharq va G‘arb ilm-fanining ustunlaridan biriga aylandi.

Islom dini ta’lim tizimida o‘qitish jarayoni faqat erkaklar uchun emas, balki ayollar uchun ham imkoniyat yaratgan bo‘lib, tarixiy manbalarda xotin-qizlarning ham madrasalarda tahsil olgani qayd etilgan.

XII-XIV asrlarda O‘zbekiston hududida islomiy ta’lim tizimining rivojlanishi ilm-fanning taraqqiy etishi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va ilmiy markazlarning shakllanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, bu jarayon Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Islom madaniyatining ilm-fanga bo‘lgan e’tibori, tafakkur erkinligini rag‘batlantirish va aqliy taraqqiyotga asoslangan yondashuv madrasalarning ilmiy markazlar sifatida takomillashuviga zamin yaratdi.

Madrasalar tizimi Temuriylar davrida mutlaq yangi bosqichga ko‘tarilib, ular endilikda nafaqat diniy ta’lim muassasalari, balki keng qamrovli ilmiy akademiyalar sifatida faoliyat yuritdi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz va Marv shaharlarida madrasalar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim omillaridan biriga aylangan bo‘lib, ularda nafaqat fiqh, hadis, tafsir, kalom singari islom ilmlari o‘qitilgan, balki matematika, geometriya, astronomiya, tabobat, falsafa, tarix va mantiq fanlari ham o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan. Temuriylar madrasalarida ilmiy tafakkurning rivojlanishi ilm-

fanning dunyoviy tamoyillarini shakllantirishga xizmat qilgan bo‘lib, natijada Sharq ilmiy an’analari O‘rta Osiyoda yangi qiyofada namoyon bo‘la boshladi. Bu jarayonning eng yorqin namoyon bo‘lishi Mirzo Ulug‘bek faoliyati va uning ilm-fan rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan bog‘liq. U tomonidan bunyod etilgan Samarqand madrasasi Sharqning eng yuksak ilmiy markazlaridan biriga aylangan bo‘lib, u yerda faqat diniy ta’lim emas, balki ilmiy izlanishlar asosida dunyoviy fanlarning ham rivojlanishiga katta e’tibor qaratilgan. Mirzo Ulug‘bek madrasasi o‘sha davrning eng nufuzli ta’lim maskanlaridan biri sifatida tanilgan bo‘lib, unda mantiq, falsafa, geometriya, algebra, optika va boshqa tabiiy fanlar yetuk mutaxassislar tomonidan o‘qitilgan. Samarqand madrasasi o‘zining ilmiy an’analari bilan mashhur bo‘lib, unda tahsil olgan olimlar Sharq ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Ulug‘bek madrasasi bilan birga faoliyat yuritgan Samarqand rasadxonasi esa o‘sha davrning eng ilg‘or ilmiy tadqiqot markazlaridan biri bo‘lib, unda astronomiya bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu rasadxona ilmiy tadqiqotlar yuritish uchun zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan bo‘lib, unda yulduzlar harakatini kuzatish va matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun eng ilg‘or texnologiyalar joriy etilgan. Samarqand rasadxonasida Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va Ali Qushchi kabi olimlar faoliyat yuritib, ilmiy an’analar rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Aynan ushbu olimlar tomonidan tayyorlangan astronomik jadvallar keyinchalik Yevropa ilm-fani taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Temuriylar davrida madrasalarning ilmiy-siyosiy ahamiyati nihoyatda yuqori bo‘lib, ularning faoliyati faqat diniy bilimlarni targ‘ib qilish bilan cheklanmay, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, tafakkur erkinligini shakllantirish va turli fanlarning rivojiga yo‘naltirilgan edi. Temuriylar madrasalari shunday yuksak darajaga yetdiki, ular hatto Yevropa universitetlari bilan taqqoslanadigan ilmiy markazlar sifatida namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati dolzarb masalalardan biriga aylandi. Xususan, 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD) mamlakat ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, uni xalqaro me’yorlarga uyg‘unlashtirish va milliy o‘ziga xoslikni saqlagan holda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish maqsadini ko‘zlagan edi. Ushbu strategik hujjatning 2001–2015-yillardagi amalga oshirilish jarayoni boshlang‘ich ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarni boshlab berdi. Xususan, boshlang‘ich ta’limning o‘quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish hamda xorijiy tajribalarni joriy etish masalalari mazkur davrning eng muhim yo‘nalishlaridan bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.02.2020 y., 06/20/5938/0187-son; 03.04.2020 y., 06/20/5978/0393-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T: «Aolat», 2023. –114 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. –T.: Adolat, O‘zbekiston, 2021. -296 b.

4. O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. –T.: Adolat, O‘zbekiston, 2021. -204 b.

5. Mirziyoyev SH. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, NMIU, 2016.

UO‘K: 631.527:94(575.1)Б

QUYI ZARAFSHON VOHASI DEHQONCHILIK MADANIYATI TARIXIDAN (XIX asr oxiri-XX asr boshlari)

N.A. Jumaeva, katta o‘qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada quyi Zarafshon vohasi ziroatchilarning yerga ishlov berish,ekin ekib mo‘l hosil olish bilan bog‘liq tadbirlari, dehqonchilik madaniyatining o‘ziga xos usullari manbalar va dala ma’lumotlari asosida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Paykal, tegirmon, mo‘ndi, mola. go‘ja, to‘g‘on, belkurak,ketmon, yaxob, yagona, to‘pcha, chopiq, oq jo‘xori.*

Аннотация. *В статье на основе источников и полевых этнографических данных атализируется деятелность земледельцев по обработке почвы, урожайности, специфическим приёмам земледелческой культуры в низовях Зерафшанского оазиса.*

Ключевые слова: *Пайкал, мелница, мунди, мола, плотина, лопата, мотыга, яхоб, ягана, сфера, измельчитель, белые овес.*

Abstract. *The present article analyzes the aktivities of farmers in soil cultivation, yeld, specific methodsof agricultural culture in the lower reaches of the Zerafshan oasis based on sources and field etnographik data .*

Key words: *Paykal,mill,mundi, mola, dam, shovel, hoe, yakhob, sole, sphere, chopper, white dats.*

Kirish: XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro, Karmana va Qorako'l vohalarini o'z ichiga olgan Quyi Zarafshon vohasida dehqonchilik madaniyatining o'ziga xos an'analari yuzaga kelgan. Bu an'analar avvalambor dehqonchilik texnikasi va mehnat qurollari bilan bog'liq bo'lgan. Buxoro vohasi aholisi yer – suvdan jamoa bo'lib foydalanishgan. Shu bilan birga barcha sug'orish ariqlarini ham har yili kuz fasli va erta bahorda birgalikda tozalashgan. Katta ariqlarni qazish va to'g'on va dambalar qurish ishlari esa ommaviy ravishda, hashar yo'li orqali jamoa bo'lib bajarilgan. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda yuzlab – minglab jamoa a'zolari qo'l kuchidan foydalanilgan.

Insoniyat hayoti, xo'jalik faoliyati ko'p jihatdan dehqonchilik ishlab chiqarishiga bog'liq bo'lib, mehnat qurollari uzoq o'tmishdan qolgan shakllarda edi . Yerni haydab shudgor qilish, yoki ekinlarga ishlov berish **qo'sh – ho'kizlar** yordamida amalga oshirilar, shuning uchun ishchi hayvonlarning buxoroliklar hayotidagi ahamiyati nihoyatda baland bo'lgan. Ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish, ularni asrab avaylash hayotiy zaruriyatga aylangan edi. Kuzgi shudgor paytida ham asosiy ishchi kuchi **qo'sh – ho'kizlar** bo'lib, ular qo'shilgan omochlarda yer haydalar, shudgor qilinar edi. Erta bahorda esa yerni ekishga tayyorlash, **six mola** qilishda ham asosiy ishchi hayvon ho'kizlar, ba'zan otlardan foydalanilar edi. Bahorgi yumushlar qizigan mart – aprel oylarida kunlar uzayib, havo harorati ham ko'tarilib borar, bunday sharoitda ayniqsa qishdan **" eti yupun bo'lib, yoki yo'g'on cho'zildi – ingichka uzildi"[1]** bo'lib chiqqan jonivorlarning xizmatidan foydalanish barobarida ularni asrab – avaylash ham zarur bo'lgan .

Qadimgi buxoroliklar ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish bilan birga ularni salqin vaqtda, ko'proq tunda va erta saharda ishga solganlar. Bahorgi yumushlar qizigan pallada ishga solingan ho'kizlarga nisbatan " **gava pushtash oftoba nabinad**" – **Ho'kizning tanasi quyosh ko'rmasin** iborasi shundan shundan kelib chiqqan bo'lib, ho'kizlarni, umuman ishchi jonivorlarni quyosh tig'ida ishlatmasdan, ularni asrab – avaylash, ishni salqin vaqtda amalga oshirish lozimligi nazarda tutilgan[2].

Erta bahorda yerlarni ekishga tayyorlash, ekishni o'z vaqtida o'tkazish ham alohida tayyorgarlik va tajribalarni talab qilgan. Buxorolik Bobodehqonlar bahorning har bir lahzasidan unumli foydalanib ekish – tikish ishlarini o'z vaqtida amalga oshirishga harakat qilganlar. Bahorning har daqiqasini g'animat bilib, ekishni ertaroq amalga oshirishga intilganlar. Xalqda **"sepilgan urug' ho'kizning tanasiga tegmasin"[2]** iborasiga bahorgi ekish paytida yerga sepilgan urug' ishchi jonivorlarning tanasiga tegilib yerga tushguncha vaqt boy beriladi, degan ma'no anglatgan.

Yerga ishlov berish, ekinlarni parvarishlash borasida ham an'anaviy usullar asosida katta tajriba to'plangan. Ota bobolarimiz bir qator agrotexnik usullarni kashf qilganlar. Shulardan biri **oq jo'xori ostini to'pchalash usulidir.** Ma'lumki xalqimiz oshxonasida **go'ja** taomi qadimdan mavjud bo'lib, uni asosan **oq jo'xoridan** tayyorlashgan va qatiq qo'shib iste'mol qilingan . Oq jo'xorini yetishtirish esa boshqa ekin turlariga qaraganda alohida agrotexnika talab qilgan. Buning uchun mahalliy o'g'itdan yaxshilab to'yintirilgan, suvga qulay joy tanlanib ekin ekilgan. Ekin qator orasi, butalar oralig'i 40 -50 sm dan kam bo'lmasligi kerak bo'lgan. Ekin unib chiqqandan so'ng uni yaganalab, begona o'tlardan tozalab turilgan.[3] Buxoroning issiq va quruq havo sharoiti, suv tanqisligi davrida balandligi bir metrcha keladigan oq jo'xorining har bir tubiga alohida – alohida ishlov berilib,osti yumshatilib,yumshoq tuproqdan **kunda ostiga tortilib, to'pcha qilingan** . Buning natijasida nam uzoq saqlangan va butaning mustahkamligi, shamol va tabiiy ofatlarga bardoshligi oshgan . Oq

jo‘xori 2 — 2,5 metr balandlikkacha o‘sib, har bir tubi 3 – 4 tagacha bosh bog‘lagan yoki har bir tubdan kamida bir kilogacha hosil olingan. Qishloq joylarida yashovchi buxoroliklarning ayvonida uzun qator qilib osib qo‘yilgan oq jo‘xori boshlarini kech kuzgacha uchratish mumkin edi. Yozning issig‘ida obdon qurigan oq jo‘xori boshlari yanchilib, doni sovurilib olingan, yaxshilab tozalanib, alohida quruq joyda saqlangan. Kuz va qish mavsumlarida uning donidan **go‘ja** taomi pishirilib iste’mol qilingan.

Buxoro an’anaviy dehqonchiligining yana bir usuli poliz mahsulotlaridan qovun va tarvuz yetishtirishda qo‘llangan **“Varqoni”** usulidir. Bu usul haqidagi ma’lumotlarni tarixiy yozma manbalarda uchratmadik. Axborotchilarning xotiralariga suyanib fikr yuritdik.

An’anaga ko‘ra, erta ko‘klamda dala ishlari boshlanishidan oldin xar yili voha qishloq aholisi o‘zlarining jamoa yerlariga to‘planib, oralaridan yoshi ulug‘, obro‘li va tajribali bir kishini oqsoqol qilib saylashgan. Ushbu yig‘inda mirob, dorug‘a, hatto sartarosh xam saylangan. Faqat oilali kishilar hisobga olinib, paykallarga bo‘lingan. Har bir Paykalga 8 kishi (“tan”) kirgan.[9] Demak, shu 8 kishi paykalga taalluqli barcha yengil va mashaqqatli ishlarni amalga oshirgan. Ariq va anhorning uzun-qisqaligiga qarab paykallardan hasharchilar olingan. Paykal a’zolari qat’iy tartib intizom asosida navbati bilan suv yo‘llarini tozalashda qatnashishgan.

Vohadagi barcha bekliklarga qarashli qishloq aholisining jamoa yeri va posira yerlaridan tashqari o‘z tomorqasi ham bo‘lgan. Bu yerlar qishloqlarda 5 paxsa devor yoki chimdevor bilan o‘rab olingan. Qarako‘l, Olot va boshqa tumanlarning dasht hududlarida devor bilan o‘rashga ehtiyoj sezilmaganligi bois ma’lum bir belgilar qo‘yilgan va bunday yerlar odatda “hayat” deb atalgan[2].

Buxoro vohasi sharoitida dehqonchilik xo‘jaligi sun’iy sug‘orishga asoslanadi. Yerlarning unumdorligi, ekinlarning hosildorligi sun’iy sug‘orish, ariqlarning uzayishi va kengayishi hisobiga yildan yilga ortib borgan. XIX asrning oxiri — XX asr boshlariga kelib sug‘orish tarmoqlariga e’tibor pasayganligi kuzatiladi. Daryo suvi kam bo‘lganligi tufayli ariqlar va shoxlar (ariqdan kichik, ayrim paykallarni, qishloqdagi yerlarni sug‘oradigan suv yo‘li)ni qum, loyqa va suv o‘tlari bosib ketgan. Natijada yildan-yilga sug‘oriladigan maydonlar miqdori qisqarib borgan. Bu esa bir qator sabab va omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Yerlarning kattagina qismi yirik yer egalarining qo‘liga o‘tib ketgach, sug‘orish ishlariga e’tiborsizlik bilan qarash kuchaygan. Yerga bir mavsumda bug‘doy yoki arpa ekib olingach, paykallar o‘tloqqa aylantirilgan. Vaqt o‘tishi bilan bir qancha ariq — zovurlar ko‘milib o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.[3]

Qadimgi buxoroliklar ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish bilan birga ularni salqin vaqtda, ko‘proq tunda va erta saharda ishga solganlar. Bahorgi yumushlar qizigan pallada ishga solingan ho‘kizlarga nisbatan “gava pushtash oftoba nabinad”-Ho‘kizning tanasi quyosh ko‘rmasin iborasi shundan shundan kelib chiqqan bo‘lib, ho‘kizlarni, umuman ishchi jonivorlarni quyosh tig‘ida ishlatmasdan, ularni asrab – avaylash, ishni salqin vaqtda amalga oshirish lozimligi nazarda tutilgan [4] . Erta bahorda yerlarni ekishga tayyorlash, ekishni o‘z vaqtida o‘tkazish ham alohida tayyorgarlik va tajribalarni talab qilgan. Buxorolik Bobodehqonlar bahorning har bir lahzasidan unumli foydalanib ekish – tikish ishlarini o‘z vaqtida amalga oshirishga harakat qilganlar. Bahorning har daqiqasini g‘animat bilib, ekishni ertaroq amalga oshirishga intilganlar. Xalqda “sepilgan urug‘ ho‘kizning tanasiga tegmasin” [5] iborasiga bahorgi ekish paytida yerga sepilgan urug‘ ishchi jonivorlarning tanasiga tegilib yerga tushguncha vaqt boy beriladi, degan ma’no anglatgan.

Yerga ishlov berish, ekinlarni parvarishlash borasida ham an’anaviy usullar asosida katta tajriba to‘plangan. Ota bobolarimiz bir qator agrotexnik usullarni kashf qilganlar. Shulardan biri oq jo‘xori ostini to‘pchalash usulidir. Ma’lumki, xalqimiz oshxonasida go‘ja taomi qadimdan mavjud bo‘lib, uni asosan oq jo‘xoridan tayyorlashgan va qatiq qo‘shib iste’mol qilingan. Oq jo‘xorini yetishtirish esa boshqa ekin turlariga qaraganda alohida agrotexnika talab qilgan. Buning uchun mahalliy o‘g‘itdan yaxshilab to‘yintirilgan, suvga qulay joy tanlanib ekin ekilgan. Ekin qator orasi, butalar oralig‘i 40 -50 sm dan kam bo‘lmasligi kerak bo‘lgan. Ekin unib chiqqandan so‘ng uni yaganalab, begona o‘tlardan tozalab turilgan.

Buxoroning issiq va quruq havo sharoiti, suv tanqisligi davrida balandligi bir metrcha keladigan oq jo‘xorining har bir tubiga alohida – alohida ishlov berilib,osti yumshatilib,yumshoq tuproqdan kunda ostiga tortilib, to‘pcha qilingan . Buning natijasida nam uzoq saqlangan va butaning

mustahkamligi, shamol va tabiiy ofatlarga bardoshligi oshgan . Oq jo‘xori 2 — 2,5 metr balandlikkacha o‘sib, har bir tubi 3 — 4 tagacha bosh bog‘lagan yoki har bir tubdan kamida bir kilogacha hosil olingan. Qishloq joylarida yashovchi buxoroliklarning ayvonida uzun qator qilib osib qo‘yilgan oq jo‘xori boshlarini kech kuzgacha uchratish mumkin edi. Yozning issig‘ida obdon qurigan oq jo‘xori boshlari yanchilib, doni sovurilib olingan, yaxshilab tozalanib, alohida quruq joyda saqlangan.Kuz va qish mavsumlarida uning donidan go‘ja taomi pishirilib iste’mol qilingan. Buxoro an’anaviy dehqonchiligining yana bir usuli poliz mahsulotlaridan qovun va tarvuz yetishtirishda qo‘llangan **“Varqoni”** usulidir. Bu usul haqidagi ma’lumotlarni tarixiy yozma manbalarda uchratmadik. Axborotchilarning xotiralariga suyanib fikr yuritdik [7]. Buxoro vohasining o‘ziga xos iqlimi va tuproq sharoitida poliz mahsulotlari yetishtirish alohida qunt va tajriba talab qilgan. Zarafshon daryosining serunum tuproqli adog‘lari, katta kanallarning to‘g‘on atroflari suvga serob, sernam va yumshoq bo‘lib, daryo va kanallar oqizib kelgan loyqadan to‘yinib, unumdorligi oshgan joylar edi. Bunday joylarda poliz ekinlaridan qovun va tarvuz ekilsa yuqori hosil berar edi. Ekilgan qovun unib chiqib, palak otib gulga kirgach,suvga bostirib sug‘orilgan yoki toshqin bo‘lsa suv ostiga qolgan. Bu holda yer tobga kelgach ag‘darma chopiq qilinib, har bir tup ostiga tuproq to‘pcha qilingan . Bu usulni suv inshootining bosh qismi to‘g‘on nomi bilan yoki qadimgi so‘g‘diy tilida “varq ” — “to‘g‘on nomi bilan “Varqoni” deyilgan . Varqoni – to‘g‘on boshi dehqonchiligi bo‘lib, yetishtirilgan poliz mahsulotlari serob va nihoyatda mazali bo‘lgan.

Haydalgan yerdagi kesaklarni ezish, yerni tekislash hamda urug‘ sepilgandan so‘ng ustidan tuproq tortish uchun mola ishlatilgan. Molaning ikki xil turi mavjud bo‘lgan: biri katta, uzunligi 3-3,5 m. ko‘p yillik tut yoki o‘rik yog‘ochidan yasalgan (yo‘g‘on tanali tut yoki uning tanasi poytesha bilan yo‘nilgan). Molaning eni 40-60 sm bo‘lgan. Molani ho‘kizlar tortgan. Ho‘kizlarni bir kishi etaklagan, mola ustida ham bir odam o‘tirgan. Mola aksariyat lalmikor yerlarda, qatqaloq va xashakli yerlarda ishlatilgan. Bahorgi ekinlar ekiladigan yerlarda mola o‘rnida shox-shabbali kichik daraxt tanasi ishlatilgan. Mola yasashga imkoni bo‘lmagan kambag‘al xo‘jaliklar omochning shotisidan mola sifatida foydalanishgan. Molaning kichigi 2-2,5sm chamasi bo‘lgan. Buni qo‘sh ho‘kiz, ot yoki tuya tortgan.[6]

Buxoro vohasida qadimdan ishlatilib kelayotgan yer yumshatkich vositasi belkurakdir. Bu asbob temirdan yasalgan bo‘lib, ishlatuvchining xohishiga qarab, maxsus quloq yasatilgan. Quloq belkurakning o‘ng yoki chap tomonida bo‘lgan. Ba’zi xonadonlarda ikki tepki quloq ishlangan belkurak bo‘lgan. Belkurak yerni kovlash, aravaga go‘ng yoki tuproq ortish, ariq qazish va paxsa devor qurishda qo‘llanilgan. Belkurakning uzunligi 25-27 sm, eni 20-23 sm atrofida bo‘lgan. Dastasining uzunligi 1,3-1,5 metrni tashkil etgan. Loy ishlarida belkurakdan farqliroq, loyni kesishga qulay va yengil bo‘lgan kapcha ishlatilgan. Qadimda dehqonchilikda keng ishlatiladigan mehnat quroli ketmon bo‘lib. Buxoro vohasi ziroatchilari uchun ham bu qurolning xizmati katta bo‘lgan. Bog‘dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik va g‘allachilikda, umuman, yer ishlarida ketmon ishlatilgan. Ketmonlar ham shakli va hajmiga qarab bir-biridan farqlangan. Eni 30-32 sm, uzunligi 25-27 sm bo‘lgan ketmonlar tuproq yuklarida, ayniqsa, jo‘yak olish, uvat ko‘tarish, egat olish va yer tekislashda ko‘proq ishlatilgan. Hajmi kichik ketmonlar esa o‘simliklarning tagini yumshatish va chopiq qilishda qo‘llanilgan. Ketmon dastasi asosan tol daraxtidan tayyorlangan. Voha dehqonlari yerdan ko‘proq hosil olish uchun unga sifatli ishlov berishgan. Tadbirkor boylar kuzda yerni bir-ikki marta qo‘sh bilan haydashgan. Mola bosish, dalalarga suv tarqatish va mahalliy o‘g‘itlarni berish ishlari ham tajribali dehqonlar maslahati bilan amalga oshirilgan. Almashlab ekish ham dehqonchilikda asosiy o‘rinda turgan. O‘simliklarning mavsumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, birining o‘rniga ikkinchisini ekishgan. Albatta, bu jarayonda ob – havoning qanday kelishi va tuproqning o‘ziga xos xususiyatlari ham hisobga olingan.

O‘rta Osiyodagi barcha xalqlar singari Buxoro vohasi dehqonlari ham XX asrning boshlarida donli ekinlarni ko‘proq ekishgan. Kuzda haydalgan yerlarga bug‘doy, arpa ekilgan. Urug‘ qo‘l bilan sepilgan va ustidan mola tortilgan. Don ekilgan to‘qay yerlar asosan. maysa unib chiqqach, boshoq olish oldidan va don xamirga aylanganidan so‘ng 2-3 marta sug‘orilgan.[6] Axborotchilarimizning ta’kidlashlaricha, obikor yerlarga oq bug‘doy lalmikor yerlarga «qizil bug‘doy», «qora qiltiq bug‘doy» ekilgan. Hosil yig‘ib olingandan keyin bo‘shagan yerlarga mosh, kunjut, uch oylik oq

jo‘xori. tariq ekilib. yaxshi hosil olingan. Ba’zi dehqonlar qayta ekishga sabzavot va poliz ekinlarini, xususan, sabzi, sholg‘om, tarvuz kabilarni ekishni ma’qul ko‘rishgan.[8] XX asrning boshida asosiy maydonlarga bug‘doy, arpa bilan birga no‘xat, zig‘ir, kunjut, makka, kungaboqar kabi donli va boshoqli ekinlar ham ekilgan. Hosildan bo‘shagan paykallarning barchasida qayta ekish to‘liq amalga oshirilmagan. Chunki qayta ekish uchun dehqonlarning hamma vaqt ham imkoniyati bo‘lmagan. Paykallarning asosiy qismi o‘rimdan so‘ng sug‘orilgan, qo‘sh bilan 2-3 marta haydalgan. Noyabr oyining oxiri, dekabr oyi ichida yerga «yaxob» suvi berilgan. Albatta, sug‘orilgan yerlar bahorgi ekish mavsumi boshlangunga qadar dam olib yotgan.

Almashlab ekish an’anasiga rioya etilmaganligi natijasida g‘o‘zaning yomon parvarish qilinishi dalalarning quvvatsizlanishiga, paxta hosilining pasayishi va mavjud navlarning buzilishiga, shuningdek, boshqa sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashuviga olib keldi. 1916 yildagi ob-havo sharoiti (ko‘klamning kech va sovuq kelishi, yozdagi qurg‘oqchilik, chigirtka bosishi) iqtisodiyotning va paxtachilik agrotexnikasining ahvolini yanada og‘irlashtirdi.

Xulosa: XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida Buxoro vohasida g‘alla, paxta yoki boshqa poliz ekinlarini ekib parvarishlash dehqonlar uchun qo‘l mehnati bilan bajariladigan mashg‘ulotlar ancha og‘ir bo‘lgan. Sug‘orish shoxobchalarining talabga javob bermaganligi, unumdor yerlarning boy – badavlat kishilar tomonidan bo‘lib olingani, Buxoro amiri tomonidan undirilgan soliqlarning haddan ortiqligi, qishloq xo‘jalik texnikasi va ish qurollarining oddiyligi madaniy ekinlar hosildorligini oshirishga imkon bermagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Шоди Рўзиев,190 й (Аҳмад Жумаевниг шахсий архивидан).
2. Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Аҳмад Жумаевниг 2012йил.
3. Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Раҳмон Жўраев, 2003 йил
4. Дала этнографик маълумотлари, 1997 йил. Коракул тумани.
5. Дала этнографик маълумотлари, 1998 йил Ромитан тумани Ромиш қишлоғи
6. Жабборов И. Ўзбек халк этнографияси.-Т., 1994. -Б. 102.
7. Шаниязов К.Ш. Узбеки — карлуки. -Т., 1964. -Б. 169.
8. Рожкова М.К. Экономическая политика царского правителства на Среднем Востоке во второй четверти XIX века и русская буржуазия. - М.Л. 1949. -С. 41.

UO’K 930.85

KATTAQO’RG’ON SHAHRI MADANIYATI TARIXI

N.J.Kenjayev, tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu ma’qolada Kattaqo’rg’on shahri madaniyati, turmush tarzining shakillanishi, marosim va urf-odatlar milliy va diniy bayramlarni tarixi, haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *Ramazon xayiti, Qurbon xayiti, oilaviy tantanalar, to’ylar, farzand tug’ilishi, yubileylar, mukofat berish marosimi, sovchilik, unashtirish, uy qurar, qiz ko’rar, fotixa to’yi, to’y yuborish, qiz oshi, qizlar majlisi, nikox ukitish, kelin tushdi, kelin salom, charlar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются культура, быт, обряды и традиции, история национальных и религиозных праздников города Каттакурган.*

Ключевые слова: *Рамадан Ид, Курбан-байрам, семейные торжества, свадьбы, рождение ребенка, годовщины, церемония награждения, свадебные сувениры, помолвка, строительство дома, рождение дочери, свадьба фатиха, приглашение на свадьбу, девичья трапеза, девичьи посиделки, церемония бракосочетания, тост невесты, приветствие невесты, чарлар.*

Abstract. *The article examines the culture, life, rituals and traditions, history of national and religious holidays of the city of Kattakurgan.*

Keywords: *Ramadan Eid, Eid al-Adha, family celebrations, weddings, birth of a child, anniversaries, award ceremony, wedding souvenirs, engagement, house building, birth of a daughter, fatiha wedding, wedding invitation, maiden meal, maiden get-together, marriage ceremony, bride's toast, bride's greeting, charlar.*

O'zbekiston xalqlari turmush tarzining shakillanishi tarixi milloddan avvalgi 6-7 asrlarga to'g'ri keladi. Ko'pgina marosim va urf-odatlar milliy va diniy bayramlar « Navruz» baxorgi tengkunlik kuni, Ramazon xayiti va Qurbon xayitlari, oilaviy tantanalar, to'ylar, farzand tug'ilishi, va boshqalar bilan bog'liq. Tarixan o'zbek xalqining asosiy an'analaridan biri mexmondo'stlikdir. Xalq orasida dasturxon to'kin-sochinligidan, oilaning to'kin-sochinligidan qat'iy nazar, mexmonni qabul qilish qobiliyati yuksak qadirlanadi. O'zbeklar ko'ngil ochishni, katta bayramlarni milliy musiqa jo'shqin raqslar ijrosida keng miqyosda nishonlashni yaxshi ko'radilar va biladilar. Qo'shiq va raqslar, mazali taomlardan iborat to'liq dastgox va a'lo kayfiyat- o'zbeklar milliy bayramlarini shunday nishonlaydi.

1. Diniy yoki an'anviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan ma'raka yig'in: diniy marosimlar, to'y marosimlari, dafn marosimi.
2. Tantanalar bilan o'tkazilgan rasmiy yig'in: yubileylar, mukofat berish marosimi, xaykalning ochilishi marosimlari.

Diniy marosimlar – fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun- qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti- xarakatlari. Diniy marosimlar diniy e'tiqod, ibodatning amaldagi ko'rinishidir. Barcha dinning muxum tarkibiy qismi xisoblanadi. Diniy marosimlar diniy tasavvur va sig'inishlar orqali vujudga kelgan. Qadimda odamlar g'ayri-tabbiy kuchlarga turli marosimlar orqali ijobiy yoki salbiy ta'sir etish mumkin deb xisoblanganlar. [1]

Islom dinida aqiqa, amri maruf, xatna, ruza tutish. Va ramazon xayiti, qurbonlik qilish va qurbon xayiti, namoz, xaj, janoza, sunnat, nikox, va dafn marosimlari bor.

To'y-bazm tomosha va ziyofat bilan nishonlanadigan xalq marosimlarining umumiy nomi. O'zbeklarda nikox to'yi, beshik to'yi, xatna to'yi, xovli to'ylari o'tkaziladi. To'ylar o'tkazish jarayonida insonparvarlik, izzat-ikrom, mexribonlik, mexmonnavozlik, inoqlik, kabi oliyjanob fazilatlar yorqin o'z ifodasini topadi. Inson zotini qadirlash, xurmatlash va ulug'lashda to'ylar beqiyos qimmatga ega. To'y bir kishining shaxsiy ishi bulmay,u keng jamotchilik tashabbusi va ishtiroki bilan o'tadigan tantanadir.

Nikox to'yi kelin bilan kuyovni nikoxini jamoatchilikka ma'lum qilish tantanasi. O'zbek xaokining qadimgi nikox to'y bir qancha marosimlar mavjud: sovchilik, unashtirish, uy qurar, qiz kurar, fotixa to'yi, to'y yuborish, qiz oshi,qiz lar majlisi, nikox ukitish, kelin tushdi, kelin salom, charlar, kuda chakirik kabi marosimlar va ular bilan boglik urf odatlar. Ularning aksariyati xozirgacha saklanib, amal kilinib, kelinadi. Nikox to'yi kuni yoki bir kun oldin qiz tomonga to'yning oshini pishirib yoki xomligicha yuboriladi. Qiz xonadonida jamoa oshi tortiladi. Ba'zan kuyovnikida xam osh beriladi. To'y kuni yoki bir kun oldin qizning otasinikida nikox marosimi o'tkaziladi. Kuyov yaqin jurasi yoki tog'asi bilan bo'lajak kelinning xonadoniga boradi. Imom kuyovga er-xotinlik burchi va xuquqlarini tushuntiriladi Qizning yangasi orqali ruxsatni olib keyin « Xutbai nikox» (nikoxdagi duo o'qiladi). O'zbekchilik udumiga ko'ra, nikox to'yi tantanalari kuyovnikida o'tkaziladi. To'y oqshomi kuyov juralari karnay-surnay, childirmayu-nog'oralar sadolari ostida sho'x o'yin-kulgu va zavqli qiyqiriqlar bilan kelinnikiga keladi. Ular chimildiq tortilgan xonada noz-ne'matlar to'la dasturxon atrofida siylanadilar. Suyuq ovqat, osh yeyilib bo'lgach, kuyov jo'ralardan biri kelin tomondan kuyov sarposi sotib oladi. Kuyov qibla tomonga qarab unga qizning onasi tayyorlagan chapon, salla kiygiziladi. Kuyov jo'ralari surnay xonish ostida kuyovni qizning onasi, ammasi, xolalari bilan kurishgani olibkelishadi. Ona va buvining oq fotixasi, ezgu duolarini olib kuyov o'z juralari bilan o'yna qaytadi. Kelinga oq libosni kiydirib otasi, bobosi va tog'o, amaki kabi yaqin qarindoshlari bilan xayirlashgani olib chiqadilar. Kelin yangalari , dugonalari davrasida otasining oldida kelib ta'zim ila bergan non tuziga rozilik so'raydi. Otasi qizinig peshonasidan o'pib yelkasidan quchib roziligini bildiradi, baxt tilaydi. Qiz onasining oldiga borib «onajon , bergan oq sutintngizga raxmat» bag'riga singib rozi- rizolik so'raydi. [2] Eng qadimgi odatlarimizga muofiq kelin kuyovning uyiga qadar yor-yor bilan kuzatib qo'yiladi. Bu odatlar har viloyatda qishloqlarda o'ziga xos tarzda o'tkaziladi.

Dafn marosimlari – Dunyo xalqlari asrlar davomida odat bo'lib, kelgan har xil urf-odatlar bor. O'zbek etnografiyasida marxumni dafn qilish va uch xayit ichida o'tkaziladigan xotirlash marasimlari yuzaga xos. Davra: Marxumning gunoxlarini yuvish uchun janozadan ilgari to'planib o'tkaziladigan

motam marosimi nomi. Bu marosimda sadaqaga ajratilgan narsalar marxumning yoshiga muvofiq qo'ldan- qo'lga o'tkazib aylantirilgani uchun davra deyiladi. Janoza: Marxumni dafn qilishdan oldingi motam marosimi nomi. Islom dinida marxum janoza namozi o'qiladigan keyin dafn qilinganligi uchun janoza deyiladi. Sobiq ittifoq davrida partiya a'zosi bo'lgan kishilarga janoza o'qilishi taqiqlangan edi. Xalq orasida «bejanoza ketdi» deb janoza o'qilmay kumilganlar aytiladi. Yaxshi kishining janozasiga odam ko'p yig'ilgan, yomon kishilarning janozasida sanoqli odamlar bo'lgan.

Muzey – Kattaqo'rg'on shaxar tarixiy o'lkashunoslik muzeyi bo'lib, maxalliy o'lkaning qadim zamonlardan 20 asr boshlarigacha bo'lgan tarixga bag'ishlanadi. Kattaqo'rg'on shaxar tarixiy o'lkashunoslik muzeyi tashkil topgan yili 1974. Bino ichidagi xonalar ketma- ketlikda joylashgan. Birinchi xonada o'lkamizning turli xududlarida topilgan qadimdan to XX asrning boshigacha xikoya qiluvchi ashyolar namoish etilgan bulib, mintaqaning o'ziga xos tarixi, mintaqa xalqlarning urf-odatlari va marosimlari, ibtidoiy madaniyat, O'rta asrlarning moddiy madaniyati yodgorliklari, an'anaviy milliy madaniyat bilan tanishtiradi. Ikkinchi xonasida joylashgan tabiat ekspozitsiyasida viloyat xayvonot va o'smilik dunyosi, shu jumladan, « Qizil kitobga» kiritilgan yoqolib borayotgan xayvonlar va qushlar turlari, usimlik turlari va gerbariylar xam namoyish qilinmoqda. Umumiy eksponatilari 1962, etnografiya 136, numizimatika 2350, arxeologiya 985, xujjat fondi 98, boshka eksponatlar 918.

Kattaqo'rg'on shaharini o'rganish chog'imda naqadar bizning mamalakatimizda naqadar o'lug' insonlar o'tganligi. Ular qoldirgan meroslarini eshitib, ko'rib ularining qilgan ishlariga naqadar qadirli ekanligi bildim. Shuni aytimoqchiman-ki xar bir o'rganilayotgan joyimizni tarixi qiziqarli ekan. Ularini tashkil bo'lishi shahar, tuman bo'lishi uchun nimalar sodir bo'lgani bilib oldim. Kattaqo'rg'onda yana bir tarixga oid bir manba bor ekan Muxammad Amir Nakibbek madrasa bor ekan. Bu madrasa Kattaqo'rg'on tumani Payshanba shaxarchasida joylashgan ekan. Muxammad Amir Nakibbek madrasasida Kattaqo'rg'on tumani tarix o'lkashunoslik muzey va xalq kutubxonasi tashkil etilgan ekan. Muxammad Amir Nakibbek madrasasida Kattaqo'rg'on tumani tarix o'lkashunoslik muzey va xalq kutubxonasi Samarqand davlat muzeyi-qoriqxonasi tasarrufida tashkil etilish mumkin. [3] Kattaqo'rg'on tumani xududida topilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari saqlash, aniqlash, to'plash, o'rganish va ularni e'lon qilish, shuningdek, madaniy, ma'rifiy, ilmiy va ta'lim faoliyati amalga oshirilgan. Yurtimizni naqadar tarixi boy o'rgangan sari izlangan sari yangi yangi tarixlar ochilib boradi. Tariximizga bir nazar solsak. Ota bobolarimiz naqadar buyuk ishlarni bizlarga meros qilib qoldirgan. O'zini tarixini bilmagan inson yuksalmaydi. Joylarga to'g'ri nomlarni qo'yilishi, idish tovoqlar, zeb ziynatalrni kashf etilishi naqadar biz yosh avlodlarga kelajak avlodlarga misol bo'la oladi. O'timishga nazar solsak, qurilgan imoratlarni antiqa ravishda qurilgan bezaklari juda xam chiroyli. Yasalagan taqinchoklarni bejirimligi xech bir davlatda topa olmasa kerak. [4] Shunday did bilan maxorat bilan yasalgan Muzey -musion- muzlarga bag'ishlangan joy.Tarixmiy moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy- ma'rifiy muassasa hisoblanadi. Muzey xazinasida asosan moddiy va ta'saviriy narsalari, shuningdek, sa'nat asarlari jamlanadi. Shu bilan birga yozma manbalari (qadimdan hozirgi davrigacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyoxmalari ,bosma hujjatlar, kitoblar) saklanadi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikga erishgandan so'ng urf odatlarimiz, tilimiz, dinimiz, turmush-tarzimiz, o'zgardi. Tarixiy obidalarni qayta tiklash, buzilib ketgan bulsa uni qayta o'rniga tiklash chora tadbirlari o'tkazildi. Shu qatori Kattaqo'rg'on shaxrida, tumanida xam shunday obidalar bor ming afsuski ular xam ta'mir talab bo'lib qolgan. Tarixga bir nazar solsak ulardan ko'p meroslar, urf-odatlar, an'analari bizgacha yetib kelgan. Darxaqiqat, har bir millat va elatning o'z tarixi bor. Tarix zamirida esa, milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarga hurmat, ajdodlar xotirasiga ehtirom tuyg'usi mujassam. Jamiyatni ma'naviy yuksaltirishda, milliy g'oyani mustahkamlashda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muzeylarning aloxida o'rni bor. Muzeylarni bejiz tarix, ma'nvaiyat va sa'nat xazinasi deb ta'riflashmaydi. Ularda turli-tuman noyob va kimmatbaho ashyolar jamlanganki xalqning o'tmish aks etgan bu ekspozisiyalar bizni ajdodlar hayoti kurashi va boy merosi bilan tanishtiradi. [5] Muzeylarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizda bajaradigan vazifalaridan biri ta'lim va tarbiya o'chog'i ekanligidir. Muzey katta ilmiy tadqiqiy va tarbiyaviy

ishlarni olib boradi: to'plamlarni butunlaydi, va o'rganadi ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi. Muzey ashyolarini saqlash va ta'mirlash tartibini yaratadi. Monografiya katalog yo'l-ko'rsatkichlar nashr etadi. Zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi. Tomoshabinlar bilan ishlashning eng muhum shakli ekskursiyadir. Siyosiy ilmiy, madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muzeyning paydo bo'lishi tarixi uzoq qadimga borib taqaladi.muzeyning o'tmishdoshlari tabiat va ijtimoiy hayotidan olingan asl buyumlarini xo'jalik maqsadlarida va moddiy boylik sifatida saqlana boshlagan davrda yuzaga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Справочник и адрес календарь Самаркандской области. Типография «Товарищества» 1903 год. стр. 26
2. И. Бекмуродов. "Справочник Каттақургана", Ташкент1968.
3. "Самаркандская область". Справочник. 10 выпуск. Самарканд – 1912.
4. Иззат Бекмуродов. Каттақўрғоннинг қисқача тарихи. "Зарафшон" нашриёти, Самарқанд – 1993.
5. https://uzbekistanfaq.ru/dostoprimechatelnosti-kattakurgana

UO'K:390.2:327.82(470+575) "1867-1917"(043.3)

AMIR ABDULAHADNING "SAFARNOMA"LARI SHARHI

O.A. Klichev, DSc, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Buxoro hukmdorlari orasida birinchilardan bo'lib Sayyid Mir Abdulahad o'z davlati hududidan tashqariga safar amalga oshirgan. U hali taxt vorisi bo'lgan mahalda, ya'ni 1883-yil Sankt-Peterburgda Rossiya imperatori bilan uchrashishga muyassar bo'lgan. Mazkur maqolada Buxoro amiri maqomida bo'lgan Sayyid Mir Abdulahadning 1893 hamda 1906-yillarda amalga oshirgan safar taassurotlari asosida yozilgan kundaliklarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlar tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *safarnoma, I.Gaspiriy, amir, tarjima, Sankt-Peterburg, kundalik, Moskava, fors-tojik tili, "Tarjimon" gazetasi, metafora, mirzo mushrif.*

Аннотация. *Среди правителей Бухары Сайид Мир Абдулахад был одним из первых, кто совершил поездку за пределы своего государства. Будучи наследным принцем,он встретился с российским императором в Санкт-Петербурге в 1883 году. В данной статье анализируются сходные и различные аспекты дневников Сайида Мир Абдулахада, написанных на основе путешествий, совершенных в 1893 и 1906 годах.*

Ключевые слова: *сафарнаме, И.Гаспиринский, эмир, перевод, Санкт-Петербург, дневник, Москва, персидско-таджикский язык, газета "Переводчик", метафора, мирзо мушриф.*

Abstract. *Among the rulers of Bukhara, Sayyid Mir Abdulahad was one of the first to travel outside his state. As Crown Prince, he met with the Russian Emperor in St. Petersburg in 1883. This article analyzes similar and different aspects of Sayyid Mir Abdulahad's diaries based on travels made in 1893 and 1906.*

Key words: *safarname, I.Gasprinsky, emir, translation, St. Petersburg, diary, Moscow, Persian-Tajik language, Translator newspaper, metaphor, mirzo Mushrif.*

Kirish. Buxoro amirlarining Rossiya imperiyasi hududiga amalga oshirilgan tashrif tafsiloti haqida ma'lumot beruvchi manbalar orasida Amir Abdulahadning 1893 va 1906-yillardagi safar kundaliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, amir Abdulahadning 1893-yilgi safar kundaligining aniq tarjimasi I.Gaspirinskiy tomonidan amalga oshirilgan hamda tarjima matni 1894-yili Qozon shahridagi Imperator universiteti tipo-litografiyasida nashr etilgan. Safar kundaligi «Точний перевод Дневника его светлости Эмира Бухарского / Представляет И.Гаспиринский из Бахчисарая.- Казан: "Типо-литография Императорского Университета", 1894. – 83 с» nom ostida nashrdan chiqqan. Abdulahadning imperiya hududiga amalga oshirgan ilk tashrif tafsilotlari I.Gaspiriy muharrirligidagi *«Tarjimon»* gazetasida *"Путишествие Бухарского эмира"* sarlavhasi ostidagi maqolalar shaklida ham e'lon qilib boriladi. Gazetadagi mazkur jumlalar fikrimizni tasdiqlaydi:

"Biz tomonimizdan Buxoro amirining ruxsati bilan uning 1892-1893-yilgi Rossiya sayohati bayon etilgan yo'l qaydlari nashr etildi. Ko'pchilikning qiziqishiga sabab bo'lgan ushbu xotiralardan parchalarni e'lon qilolmas edik. Ammo janobi oliyning Qrimga amalga oshirgan so'nggi tashrifi (1895 – O.K) davrida esa biz Buxoro hukmdori kundaligidan ayrim qismlarni gazetamiz sahifalarida chop etishga ruxsat oldik"[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Abdulahadning safar kundaligi o'z davrida tarjima qilinib, undagi ayrim parchalar keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazilganligini ko'rsatadi. Birinchi kundalikning o'zbek tilidagi tarjimasi "Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari" jurnalida chop etilgan. Ikkala kundalikni ilmiy jihatdan dastlab tadqiq etgan olim tarix fanlari doktori H.H.To'rayevdir[2]. Olim mazkur kundalik nusxalarini manbashunoslik yo'nalishida ilmiy tavsiflash bilan bir qatorda, ularning O'zbekiston tarixini o'rganishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Biz tadqiq etgan Abdulahadning 1906-yilgi safar kundaligi esa arab imlosi (fors-tojik) hamda kirill alifbosida (rus tilida) toshbosma usulida nashrdan chiqqan va bir kitobda jamlangan. Bugungi kunga qadar o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Kundalikning muqova va titul varaqlarining saqlanib qolinmaganligi bois nashr tarjimoni, uning qayerda va qaysi nashriyotda chop etilganligini aniqlash mushkul. Ammo, asar matni bilan tanishish jarayonida undagi fikrlar, voqea va hodisalar bayoni kundalik bevosita Amir Abdulahadga taalluqli ekanligini anglash mumkin.

Natija va muhokamalar. Safar kundaliklaridagi voqea va hodisalarga doir ma'lumotlarni o'rganish jarayonida ikkala kundalikda quyidagi o'xshash va farqli jihatlar mavjudligini aniqlash imkoni yaratildi. Tashrif doirasidagi voqealar tizimli tarzda: safarga tayyorgarlik, amirning hudud ma'murlari tomonidan kutib olinishi, safar taassurotlari yoritiladi.

Kundalikdagi tadrijiy voqealar bayoni imperiya ma'murlari tomonidan amirni kutib olish tartibiga mos ravishda bayon etilgani bilan ham ahamiyatlidir. Shu o'rinda ikkala kundalikdagi bir jihatga e'tibor qaratsak, amirning safar doirasida o'zi uchrashgan shaxslar bilan oldin tanish ekanligini ta'kidlash syujeti:

"Shanba jumadul soniy oyining 27 kuni […]. Kunduzi soat ikkilarda Harbiy vazir Vannovskiy janoblarining uylariga tashrif buyurdik. […]Bizning janob vazir bilan tanishuvimiz 1883-yil podsho hazrati oliylari(Aleksandr III – O.K)ning toj kiyish marosimidan e'tiboran boshlangan bo'lib, o'sha damdan boshlab do'stlik rishtalarimiz mustahkamlanib bormoqda"[3].

yoki 1906-yilgi safar kundaligi:

"Moskvada bir soat to'xtadik. Yo'lda general-mayor Demin bilan uchrashdik. U bizning eski va qadrdon do'stimiz. Rossiya imperatori bilan do'stligimizni bardavom mustahkamlashga intilish niyatida 1893-yili o'g'limiz va merosxo'rimiz Said Mir Olimni Sankt-Peterburgda rus harbiy ta'limini olish maqsadida qoldirgan edik. Imperator Aleksandr III bizga haqiqiy shohona va samimiy do'stona e'tibor ko'rsatgan holda, o'g'limiz tarbiyasini general Deminga ishonib topshirgan edi. U ko'z nurimizning ta'lim va tarbiyasiga o'z bilimini g'amxo'rona bag'ishlagan edi"[4].

Ushbu ikkala iqtibos kundaliklarda bayon etilgan shaxslar nufuzi va lavozimi jihatidan turli darajaga tegishli bo'lishiga qaramasdan, muallif ular bilan bo'lgan uchrashuv to'g'risida deyarli bir xil uslubda xotirlaganligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, ikkala kundalik matni bir shaxs tomonidan tartib etilganligini ham tasdiqlaydi.

Abulahadning 1893 yilgi safar kundaligi hajm jihatidan 1906-yilgi ikkinchi kundalikdan salmoqlidir. Buni imperiya hududiga ilk rasmiy tashrif ekanligi, uzoq muddat davom etganligi hamda bir necha transport (temiryo'l, suv va quruqlik) vositasida amalga oshirilganligida, shuningdek, amirning safar davomida hudud ma'murlari tomonidan kutib olinishi, imperiya vazirlari bilan uchrashuv, imperator qabullari, Moskva va Sankt-Peterburgdagi binolar va diqqatga sazovor joylarning ta'rif-tavsifiga to'xtalib o'tganligidan bilsa bo'ladi. Qolaversa, muallif kundalikdagi ba'zi voqea hodisalarni yanada tushunarliroq bayon etish maqsadida ularga batafsil to'xtalib o'tadi.

Ikkinchi kundalik matni esa yuqorida aytganimizdek ixchamdir. 1906-yilgi tashrif amirning Sankt-Peterburgga amalga oshirgan to'rtinchi tashrifi ekanligi hamda qirq kunlik safar tafsilotlaridangina iboratligi inobatga olinadigan bo'lsa, matn nima sababdan ixcham yozilganligini tushunish qiyinchilik tug'dirmaydi. Kundalikdagi voqea va hodisalar aniq va ortiqcha ta'riflarsiz yozilgan, safar davomidagi uchrashuv va qabullar soni birinchi tashrifga nisbatan kam bo'lgan,

bularning barchasi matn miqdoriga ta’sir etgan deb ta’kidlashimiz mumkin. Voqea hodisalarning batafsil yoritilmaganligiga sabab ularning aksariyati birinchi kundalikda ta’riflanganligidadir.

Ikkala kundalik matnlari bilan tanishish jarayonida ularning yozilish uslublarini tadqiq etish imkoni yuzaga keldi. Kundalik matnlarida voqea va hodisalar asosan nasriy usulda bayon etiladi. Birinchi kundalikda muallif sharqona o‘xshatish va metaforalardan imkon qadar kam foydalanishga harakat qilganligini sezish qiyin emas. Ixcham matndan tarkib topgan ikkinchi kundalik voqealari esa o‘xshatish va metaforalarga boy jumlalardan iborat. Buni quyidagi misralar ham tasdiqlaydi:

“Payshanba, 30-noyabr, go‘yo kelinchak yuzining yopinchig‘i ochilgani kabi tong yorqin quyosh yuzidan tun pardasini ko‘targan mahal, biz o‘rnimizdan turdik;

yoki

“Juma kuni 8-dekabr. Qora quzgun, quyoshning shohona porlashidan chekinib, olam tillaqanot qaqnus ranglari bilan jilolanganida uyg‘ondik”.

hamda

“Go‘yoki so‘nmas Quyosh o‘z nurlarini taratgani, yorkin Yulduz nurafshon yog‘du sochgani kabi qudratli hukmdor yarim soat davomida yuragimizni mehr-shafqatli so‘zlari bilan baxtiyor etdi”;

yoki:

"Bizning ehtiros gul bog‘imiz quvonch bilan uyg‘ondi va qalbimizning ehtirosli mehr guldastasi uchrashuv shamolidan gulladi!”

Mazkur o‘xshatish va mubolag‘alarning kundalik matnida mavjudligi muallif nazm va nasr ustasi ekanligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda kundalik matnlarining muallifi xususida o‘z qarashimizni bayon etsak. O‘rta Osiyoda hukmdor sulola vakillari orasida ham asarlar, she’r va g‘azallar yozish an’anasi mavjud edi. Devon tartib etish, sulola yohud hudud tarixini yozib qoldirish bilan bog‘liq an’analar hukmdorlar orasida ham urf sanalar edi. Hukmdorlar va ular xususida yozilgan manbalarning aksari ular xizmatida bo‘lgan mushrif, munshiy va mirzolar qalamiga mansubdir.

Arxiv hujjatlarida Mirzo Muhammad Amin va Mirzo Bahromlar Amir Abdulahad davrida mirzo mushrif va mirzo munshiy lavozimlarida faoliyat yuritganliklari to‘g‘risida ma’lumotlarni uchratish mumkin[5]. Ular amir maktublarini tayyorlash va davlat amaldorlari nomlariga yo‘llanadigan murojaatlarni yozish ishlarini ham bajargan. Shuningdek, amir tashriflarini rasmiylashtirishga oid hujjatlarda ham 1893-yili Mirzo Ahmad[6], 1906-yillarda esa Mirzo Muhammadamin mushriflar[7] amirga hamroh sifatida Sankt-Peterburgga tashrif buyurganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Bizning fikrimizcha, aynan shu shaxslar amir tashrifi tafsilotlarini yozib borganlar. Chunki har kunlik voqea hodisa, kun davomidagi uchrashuvlar, mansabdor amaldor shaxslar, ularning egallagan lavozimi kabi faktik ma’lumotlarni jamlash ishlariga alohida tajribaga ega bo‘lish darkor edi. Safar so‘ngida esa mushrif o‘zi yozib borgan voqealar matnini yaxlit shaklga keltirib amirga taqdim etgan. Amir esa o‘z navbatida bu matnlar bilan tanishib, tahrir qilgan holda asarni yakunlagan.

Tadqiqot jarayonida safar kundaliklarining yozilishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash masalasi ham izlanishimiz doirasiga kiritilgan edi. Ikkala kundalik matni bilan tanishish jarayonida biz ushbu amaliyotning aynan Amir Abdulahad tomonidan amalga oshirilganligiga quyidagilar bilvosita ta’sir etganini kuzatdik. Birinchidan, amir Abdulahad Buxoro hukmdorlari orasida Rossiya imperiyasi hududiga rasmiy tashrif bilan safarlar uyushtirgan. U taxt vorisi sifatida 1883-yilda otasi Amir Muzaffar tomonidan imperator qabuliga yuborilgan. Qolaversa, 1893-yildan e’tiboran deyarli har yili Qrim va Kavkazga tashrif buyurgan. Tashriflar natijasida Yevropa madaniyatidan xabardorlik shuningdek, imperator xonadoni vakillari bilan uchrashuvlar amir uchun ijobiy ta’sir etmasdan qolmagan. Rossiya imperatori Aleksandr III va Nikolay II lar ham o‘z kundaliklarini yuritganliklari ma’lum ma’noda Abdulahad uchun bu turdagi asarni yozishga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Ikkala kundalik matnining kam sonda nashr ettirilganligi, uning imperator va amir saroyidagi amaldor va a’yonlar uchun mo‘ljallab yozilganligidan dalolatdir. Safar kundaligining saroy elitasiga yo‘naltirib yozilishiga sabab, asar bo‘lajak mang‘it hukmdorlari va amaldorlari uchun imperiya hududiga tashrif buyurish va o‘rnatilgan qoidalarga rioya etishning yorqin namunasi va yo'riqnomasi bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi. 1906-yilgi kundalikning o‘z davrida keng ommaga

yetarli darajada ma'lum bo'lmaganligi esa asar asosan *"rasmiy xizmat doirasi uchun"* yo'naltirilganligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дневник Бухарского эмира / Таржимон- Переводчик, 1895 год 17 сентября – №35.

2. Тураев Х.Х. «Рузнома-йи сафар-и Фитирбурх» как источник для изучения русско-бухарских отношений конца XIX в // Общественные науки Узбекистана. – Ташкент, 1989. – №3. –С.53-55; shu muallif. Amir Abdulahad qo'lyozmasi // Buxoro haqiqati, 1990-yil 9-iyun; shu muallif. Amir Abdulahad «Safarnomasi»ning qo'lyozma nusxalari // Navqiron Buxoro, – Buxoro, 1992. –№8-9; shu muallif, «Дневник четвертого путешествия эмира Абдул-Ахада в Петербург» (1906 г.) как источник по истории русско-бухарских отношений начала XX в. / Материалы Четвертой международной научно-практической конференции «Россия, Сибирь и Центральная Азия: взаимодействие народов и культур.- Барнаул: Лаборатория «Россия и Восток», 2003. – С. 12-13; shu muallif, Важный источник по истории русско-бухарский отношений / Материалы международной научной конференции, посвященной десятилетию Договора о союзнических отношениях между Российской Федерацией и Республикой Узбекистан. – Ташкент: «Turon zamin ziyo», 2016. – С.229-233.

3. Точный перевод Дневника его светлости Эмира Бухарского / Представляет И.Гаспиринский из Бахчисарая.- Казан: Типо-литография Императорского Университета, 1894. -С.28-29.

4. Sayyid Mir Abdulahad. Safarnoma / Rus tilidan tarjima, muqaddima va izohlar muallifi O.A.Klichev. – Buxoro: "Durdona", 2021. – 96 b.

5. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda -O'zMA), R-2678-fond, 1-ro'yxat, 250-yig'majild, 1-varaq.

6. Точный перевод Дневника его светлости Эмира Бухарского / Представляет И.Гаспиринский из Бахчисарая.- Казан: Типо-литография Императорского Университета, 1894. – С.7.

7. Rossiya davlat harbiy tarix arxivi (keyingi o'rinlarda-RDHTA), 400-fond, 1-ro'yxat, 3429-yig'majild, 131-varaq.

UO'K: 94(575.171)(043.3)

XX-ASRNING 20-30-YILLARIDA XORAZM OKRUGIDA MAHALLIY MATBUOTNING RIVOJLANISHI

M.E. Marimov, stajyor-o'qituvchi, Urganch Ranch texnologiya universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada Xorazm vohasida mahalliy matbuotning rivojlanish tarixi, uning shakllanish jarayonlari va jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy ta'siri batafsil tahlil etilgan. Shuningdek, gazetalarning tarmoq va sohalar bo'yicha faoliyat yuritganligi, gazeta muxbirlarining ko'payishi, yozuvchi va shoirlarning gazeta faoliyatiga jalb qilinishi, adabiyot va madaniyatning rivojlanishiga ta'sir etganligi haqidagi tahlillar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *okrug, mahalliy matbuot, "Inqilob quyoshi" gazetasi, ijtimoiy ong, siyosiy ta'sir, madaniy rivojlanish, sho'ro mafkurasining targ'iboti, adabiyot, Xorazm haqiqati, matbuot tarixining rivojlanishi, tarmoq gazetalar*

Аннотация. *В данной научной статье подробно анализируется история развития местной прессы в Хорезмском оазисе, процессы ее формирования, ее социальное, политическое и культурное влияние на общество. Также проводится анализ деятельности газет по отраслям и секторам, увеличение числа газетных репортеров, участие писателей и поэтов в газетной деятельности, влияние на развитие литературы и культуры.*

Ключевые слова: *район, местная пресса, газета «Солнце революции», общественное сознание, политическое влияние, культурное развитие, пропаганда идеологии Шуры, литература, правда Хорезма, развитие истории прессы, сетевые газеты*

Abstract. *This scientific article analyzes in detail the history of the development of the local press in the Khorezm oasis, the processes of its formation, its social, political and cultural influence on society. An analysis of the activities of newspapers by industry and sector is also carried out, the increase in the number of newspaper reporters, the participation of writers and poets in newspaper activities, and the impact on the development of literature and culture.*

Key words: *district, local press, newspaper "Sun of the Revolution", public consciousness, political influence, cultural development, propaganda of Shura ideology, literature, truth of Khorezm, development of press history, online newspapers*

Kirish. Xorazm vohasi o'zining qadimiy tarixi va madaniy merosi bilan tanilgan Markaziy Osiyoning tarixiy hududlaridan biri bo'lib, bu o'lkaning matbuoti ham tarixan o'ziga xos rivojlanish

yo‘lini bosib o‘tgan. Matbuot faqat axborot vositasi sifatida emas, balki xalqning fikrini shakllantirishda, ijtimoiy, siyosiy ongini va dunyoqarashini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Xorazmdagi mahalliy matbuotning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarning o‘ziga xos ahamiyati bo‘lgan.

XX-asrning 20-30-yillarida Sovet hokimiyati Xorazm vohasida o‘z mafkurasini targ‘ib qiluvchi mahalliy matbuotning rivojlanishiga alohida e’tibor qarata bordi. Xorazmdagi birinchi mahalliy gazeta “Inqilob quyoshi” gazetasi bo‘lib, muvaqqat inqilobiy hukumat tuzilganidan keyin 1920-yil 8-martdan chop etila boshlangan [6]. 8-mart kuni “Inqilob quyoshi” gazetasining birinchi soni nashrdan chiqqan. Gazeta 1928-yil iyun oyining oxirigacha Xiva shahrida chop etiladi. 1928-yilning 1-iyulidan boshlab bosmaxona Urganch shahriga ko‘chiriladi. “Inqilob quyoshi” gazetasi 1939-yil avgust oyidan yangi nom bilan “Xorazm haqiqati” deb atala boshlandi. “Inqilob quyoshi” gazetasida she’rlar, hikoyalar, adabiy tahlillar va boshqa madaniy materiallar bilan birga aholining ijtimoiy hayoti, siyosiy jarayonlar, hukumat qarorlari ham chop etilib, bu gazeta o‘z davrining adabiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Gazetadagi adabiy materiallar orqali xalq orasida ma’rifat, milliy g‘oyalar va yangi fikrlar tarqatildi.

“Inqilob quyoshi” gazetasi chiqa boshlagandan keyin Xorazmda “Bo‘l tayyor”, “Chig‘iriq”, “Toshsoqa kanali”, “Temir yo‘l” kabi turli tarmoq va sohalarning gazetalari ham chiqa boshlagan. Bu kabi mahalliy gazetalarning chop qilinishi o‘lka aholisining ijtimoiy-siyosiy ongining shakllanib borishida ham muhim rol o‘ynagan. “Inqilob quyoshi” gazetasi Quyi Amudaryo havzasi xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy hayotida sodir bo‘layotgan voqeliklarni o‘z sahifalarida yoritgan.

Muxbirlar K.Boltaev, Q.Beregin, O.Safaeva, U.Qurboniy, M.Ismoiliy, E.Devonov, X.Eshmuratov singari partiya xodimlari va qishloq xo‘jaligi muxbirlari Faqiriy, Xorazmiy, Partav, Chokar, Mug‘anniy, Soib Nazariy kabi yozuvchi va shoirlar gazeta faoliyatida ishtirok etishgan. 1925-yilga kelib “Inqilob quyoshi” gazetasi bir oyda 25 marta nashrdan chiqa boshladi va oyiga 8600 ta nusxaga ko‘paytirildi [11]. Shu jarayonlardan ko‘rishimiz mumkinki Xorazm okrugida matbuotni jadallik bilan rivojlanib borganligini.

1927-yil fevral oyida “Inqilob quyoshi” gazetasiga Qurbon Ollaberganov (Beregin) bosh muharrir etib tayinlangan. U ushbu lavozimda 1929-yilning may oyigacha faoliyat olib bordi. Qurbon Bereginning muharrirlik davri gazetaning yuksalishida muhim bosqich bo‘ldi. Uning rahbarligi ostida redaksiyada M. Olloyorov, I. Habibiy, U. Qurboniy kabi iste’dodli jurnalistlar faoliyat yuritishdi [9]. Ularning fidoyi mehnati natijasida gazetaning qishloq va ishchi muxbirlari soni sezilarli darajada oshdi.

XX asrning 20–30-yillarida “Inqilob quyoshi” gazetasida faoliyat olib borgan jurnalistlar orasida B. Rahmonov, A. Tagirov, K. Boltaev, J. Qalandarov, Q. Beregin, Sh. Bulatov, R. Majidiy, S. O‘rozov kabi taniqli muharrirlarning ishi e’tiborga loyiqdir. Ushbu ijodkorlar jamiyatning dolzarb masalalarini yoritish, aholining siyosiy va ijtimoiy ongini oshirish borasida salmoqli hissa qo‘shganlar.

Qurbon Bereginning tashabbusi bilan 1927-yilda bir necha muhim konferensiyalar tashkil etildi. Bu yig‘ilishlar Xorazmda matbuot ishini rivojlantirish, nashrlarning maqsad va vazifalarini belgilashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘tkazilgan konferensiyalar matbuot orqali mafkuraviy targ‘ibot ishlarini jadallashtirish hamda qishloqlarda axborot tarqatish tizimini yaxshilashga xizmat qildi. Shu davrda “Inqilob quyoshi” gazetasining tahririyati o‘zining g‘oyaviy kurashdagi faol ishtiroki bilan ajralib turdi.

Xorazm vohasidagi birinchi gazeta “Inqilob quyoshi” gazetasi chop qilinganligining 8 yilligi munosabati bilan aholi uchun gazeta va jurnallarni ovoz chiqarib o‘quvchilar guruhlari tashkil etiladi. 1928-1931-yillar oralig‘ida Xorazm okrugida dastlabki tuman gazetalari paydo bo‘la boshladi. Tuman gazetalarining nashr etila boshlanishi o‘z navbatida aholini ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar bilan tanishib borishini ta’minlab berdi. 1931-yilga kelib butun O‘zbekiston SSR da nashr qilinayotgan gazetalar soni 2500 dan ziyod edi.

O‘sha davrda Gurlanda “Kolxoz yo‘li”, Xivada “Kommunachi”, Shovotda “Shovot haqiqati”, Xonqada “Qurilish” gazetalari chop etila boshlandi. XX-asrning 30-yillarida Xorazm vohasida sovet

mafkurasining mustahkamlanishida "Inqilob quyoshi" gazetasi alohida ahamiyat kasb etdi. Gazeta 400 dan ortiq qishloq muxbirlarini o'z atrofida birlashtirdi. Agar 20-yillarda gazeta muxbirlari orasida ayollar kamchilikni tashkil qilgan bo'lsa, 30-yillar boshida muxbirlik faoliyatida ayollarning salmog'i ortib ularning soni 50 nafarga yetgan edi. Chunki sovet hokimiyati tomonidan ayollarning "Inqilob quyoshi" gazetasiga muxbirlikka jalb qilish ishlari nihoyatda kuchaytirilgan edi. 1931-yilda Xorazmda 2 ta kitob do'koni, gazeta sotish va tarqatishga mo'ljallangan do'konlar tashkil etildi.

Xorazm vohasida adabiyot va matbuotning keng tarqalishi, shuningdek, muxbirlik faoliyatining faollashuvi jamiyatning madaniy va intellektual rivojlanishiga sezilarli turtki berdi. Ayniqsa, ovullarda gazeta va adabiy asarlarning ommalashuvi mahalliy aholining axborotga bo'lgan qiziqishini oshirib, muxbirlikka bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Buning natijasida adabiyot va muxbirlikka oid turli to'garaklar tashkil etila boshladi.Bu to'garaklar odatda devoriy gazetalar atrofida faoliyat yuritgan bo'lib, yoshlarni muxbirlikka o'rgatish, ularning adabiy iste'dodini rivojlantirish hamda jamiyatning dolzarb masalalarini yoritishda ishtirok etishga chorlagan. Misol tariqasida, 1929-yilda Xivada tashkil etilgan "Yosh kuch" devoriy gazetasi qoshida faoliyat olib borgan to'garakni keltirish mumkin. Ushbu to'garak ikki yil davomida, ya'ni 1931-yilgacha, 30 dan ortiq iqtidorli yosh muxbirni tayyorlab, ularni matbuot sohasida faoliyat ko'rsatishga yo'naltirdi.Bu kabi to'garaklar nafaqat yoshlarni matbuot faoliyatiga jalb qilgan, balki mahalliy axborotning ommalashishiga va adabiy muhitning boyishiga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birga, ular sovet davrining mafkuraviy talablariga ham xizmat qilgan bo'lsa-da, bu jarayon ko'plab iste'dodli yoshlarning shakllanishiga imkon yaratdi.

Sovet davrida Xorazm vohasida chop etilgan gazeta va jurnallar mahalliy aholiga ideologik ta'sir o'tkazish va sovet mafkurasini targ'ib qilish vositasiga aylantirildi. Bu nashrlarning soni yildan-yilga ortib bordi. Masalan, 1931-yilda "Inqilob quyoshi" gazetasiga talab sezilarli darajada oshdi: Xiva tumanida dastlabki 1500 nusxadan 3000 nusxaga, Xonqa tumanida ham 1500 nusxadan 3000 nusxaga ko'tarildi. Urganch tumanida esa 17000 nusxaga bo'lgan ehtiyoj qayd etildi. Bu o'zgarishlar gazetalarni jamiyatda mafkuraviy kurashning muhim quroliga aylantirishga qaratilgan edi.Xorazmda yangi gazetalarning tashkil etilishi va nusxalarining ko'paytirilishi, ajratilishi kerak bo'lgan mablag'larni o'sishini ta'minladi. Okrugda 1932-yilga kelib gazeta va jurnallarning o'sish qiymati 118000 rublga yetgan bo'lsa, 1933-yilda 170000, 1934-yilda 308000 rublni tashkil etdi.1932-yilga kelib Xorazmda chop qilingan gazetalar tiraji 3377 tani tashkil qilgan bo'lsa 1934-yilga kelib 30930 taga yetgan. 1930-yilgacha "Inqilob quyoshi" gazetasi isloh qilingan eski o'zbek yozuvi va lotin alifbosida aralash holda chop qilinganligini gazetaning may oyidagi sonlaridan bilishimiz mumkin. "Inqilob quyoshi" gazetasi 1931-yilga kelib to'liq lotin alifbosidagi o'zbek yozuviga o'tgan.

Xorazmda sovet mafkurasining g'oyaviy asosini mustahkamlash maqsadida gazeta va jurnallarga majburiy obuna qildirish ishlari 1933-yilga kelib yanada kuchaytirilgan bo'lib, "Qizil O'zbekiston", "Kolxoz yo'li", "Yosh Leninchi" gazetalari, "Mushtum", "Yangi yo'l", "Kommunist" jurnallariga aholini obuna qildirilganliklari shular jumlasidandir [11].

1934-yildan Xorazm okrugida yangi gazeta "Bo'l tayyor" chop etila boshlandi. Mazkur gazetani chop qilishdan maqsad, yoshlarni sovet mafkurasiga sadoqat ruhida tarbiyalash edi. 1936-yilga kelib Yangiariq tumanida "Lenin yo'li" gazetasi chiqa boshlagan. Bu paytda vohada bitta viloyat va yettita tuman gazetalari chop qilingan, muxbirlar soni 2500 kishiga yetgan edi.

1938-yil 28- sentyabrda matbuot xodimlari va muxbirlarining Xorazm viloyat kengashi bo'lib o'tadi. Kengashda tumanlarda faoliyat olib borayotgan muxbirlar faolyatidagi kamchiliklar muhokama qilinadi. "Lenin yo'li", "Stalin yo'li", "Stalinchi", "Kommunachi" gazetalaridagi muxbirlarining faoliyati tanqidga uchradi. Tanqidga uchrashining sababi, ularning siyosiy dunyoqarashi, g'oyalari, sovet mafkurasi talablariga mos kelmasligida edi. Xorazm okrugida 1930-yillar oxiriga kelib 30 ga yaqin gazeta va jurnallar o'zbek, rus, turkman, qoraqalpoq tillarida chop etilar edi.

Xorazm vohasidagi mahalliy matbuotning rivojlanishi, ayniqsa XX-asrning 20-30-yillarida, o'zining o'ziga xos tarixi va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Xorazmning o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlari mahalliy matbuotning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. "Inqilob quyoshi" gazetasining paydo bo'lishi, uning ijtimoiy va siyosiy ahamiyati, shuningdek, gazeta orqali

tarqatilgan ma’rifat, milliy g‘oyalar va yangi fikrlar voha aholisining fikrini shakllantirishda muhim o‘rin tutdi. Mahalliy matbuotning rivoji, o‘z navbatida, Xorazmda inqilobiy jarayonlarning kuchayishiga, sovet mafkurasining keng yoyilishiga, siyosiy va ijtimoiy ongning o‘sishiga olib keldi. Matbuot, ayniqsa “Inqilob quyoshi” gazetasining faoliyati, Xorazmning barcha tumanlarida keng tarqalib, aholining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ta’sir o‘tkazdi. Gazetalar va jurnallar orqali sovet mafkurasining g‘oyalari targ‘ib qilindi, dehqonlar va ishchilar o‘rtasida yangi dunyoqarashning shakllanishiga yordam berildi.

Xorazmdagi matbuotning rivojlanishi jarayonida, gazetalar nafaqat axborot manbai, balki xalqni ma’rifatli qilish, yangi g‘oyalar bilan tanishtirish va siyosiy ongni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qildi. Shu bilan birga, gazetalarda adabiy materiallarning keng tarqatilishi xalq orasida adabiyot va san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirdi. Bularning barchasi, Xorazm vohasining madaniy va siyosiy hayotining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi.

XX-asrning 30-yillariga kelib, Xorazmdagi matbuot faoliyati yanada rivojlanib, gazeta va jurnallar soni ko‘payib, ularning ijtimoiy roli yanada oshdi. Gazetalar nafaqat axborot tarqatish, balki ijtimoiy hayotning muhim jihatlarini yoritishda, xalqning madaniy hayotini rivojlantirishda katta rol o‘ynadi. Shu tarzda, Xorazm vohasida mahalliy matbuotning rivojlanishi, bir tomondan, sovet mafkurasining g‘oyalarini targ‘ib qilish, boshqa tomondan esa, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qildi. Matbuot o‘zining axborot, ma’rifat, siyosiy va madaniy rolini bajarishda muhim o‘rin tutgan va Xorazm okrugida jamiyatning yangi davrga tayyorlanishida katta hissa qo‘shgan. Bu jarayonlar, shubhasiz, Xorazm vohasining tarixiy rivojida o‘ziga xos o‘rin tutadi va hozirgi kunda ham mahalliy matbuotning ahamiyati va uning jamiyatdagi roli to‘g‘risida ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar va o‘rganishlar davom ettirilmoqda.

Xulosa: Xorazm okrugida XX-asrning 20-30-yillaridagi mahalliy matbuotning rivojlanishi, uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyati nuqtai nazaridan alohida e’tiborga loyiqdir. “Inqilob quyoshi” gazetasining tashkil etilishi, uning keng ko‘lamda tarqatilishi va mazmuni voha aholisining siyosiy, iqtisodiy va madaniy ongini shakllantirishda katta rol o‘ynagan. Xorazmdagi matbuot faqat axborot vositasi sifatida emas, balki siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish, milliy g‘oyalarni targ‘ib qilish va yangi dunyoqarashlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. “Inqilob quyoshi” va boshqa gazetalar orqali tarqatilgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy yangiliklar aholining intellektual va siyosiy ongining o‘sishiga olib keldi. Yoshlar va ayollarni gazeta faoliyatiga jalb qilish, ularni yangi ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga tayyorlash, matbuotning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘ldi. Shu bilan birga, Xorazmdagi mahalliy matbuotning rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotdagi roli va madaniy ta’siri, Sovet mafkurasining yengilmas kuchini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Xorazm vohasidagi matbuotning tarixiy jarayonlarini o‘rganish, uning jamiyatdagi roli va ahamiyatini chuqur tahlil qilish, so‘nggi yillarda davom etayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov Z. Sh. “Xorazm matbuoti tarixi”. — Urganch, 2001.
2. Musurmonov M. T. “O‘zbekiston matbuoti tarixidan”. — Toshkent: Fan, 1993.
3. Musurmonov M. T. “XX asr boshlaridagi O‘zbekiston matbuoti”. — Toshkent: Akademnashr, 2005.
4. Otabekov A. Sh. “Xorazm matbuoti: tarixiy nuqtai nazar”. — Urganch: Xorazm, 2010.
5. Sirojiddinov R. “Xorazmda matbuotning shakllanishi va tarixi”. — Urganch: Xorazm, 1999.
6. Ўзбекистон коммунистлар (б) фирқаси Марказқўмнинг Ўзбекистон КП (б) иккинчи бутун Ўзбекистон қурултойига маърузаси. — Самарқанд. 1925.
7. “Хоразм ҳақиқати”. 1970-йил 3-апрел сони
8. “Inqilob quyoshi” 1929-yil 29-may
9. Каримов Н. Қурбон Берегин қисмати — Т, 2006.
10. Митяев О.Культурно-просветительная работа в годы первой пятилетки.-Москва, 1964.
11. Хоразм вилоят давлат архиви, 631-фонд, 2-рўйҳат, 23-иш, 14 варақ.

UDK:0:9(58)338:297.930.(584.4)

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ILK O'RTA ASR SUG'ORILISH TARMOQLARI TARIXIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Sh.X. Matyakubova, o'qituvchi, Ranch texnologiya universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Quyi Amudaryo hududida milodiy V-VI asr birinchi yarmida sug'orilish tarmoqlari tarixi yoritilgan.*

Kalit so'zlar*: Sho'raxon, Sulton Uvays, Kaltaminor, Tozabog'yob, Amirobod, Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a, Dovdon, Daryoliq, Charmanyob.*

Аннотация. *В данной статье освещается история оросительных сетей в регионе Нижней Амударьи в первой половине V-VI веков нашей эры.*

Ключевые слова: *Шурахан, Султан Увайс, Кальтаминор, Тазабагъяб, Амирабад, Бургуткала, Уйкала, Кумбосганкала, Довдон, Дарьялык, Чарманьяб.*

Abstract. *This article covers the history of irrigation networks in the territory of the Lower Amu Darya in the first half of the 5th-6th centuries AD.*

Key words: *Shurakhon, Sultan Uvays, Kaltaminor, Tozabogyob, Amirobod, Burgutkala, Uykala, Kumbosgankala, Davdon, Daryoliq, Charmanyob.*

Kirish: Amudaryo asrlar mobaynida suv tarkibidagi mineral moddalarni qamrab olgan loyqalarni yotqizishi natijasida hosil bo'lgan sernam va serunum tekislik bo'lib, dehqonchilik qilish uchun qulay bo'lgan. Qadimdan Xorazm vohasi aholisi mil. avv. VI asr so'nggi choragidan – rivojlangan o'rta asrgacha Amudaryo yo'nalishini bir maromga keltirish maqsadida Qizilqum tomon Kaltaminor, Tozabog'yob va Amirobod magistral kanallarini yaratishgan. Bundan tashqari Amudaryo so'l sohili hududi geografik manzarasini tasvir etgan Davdon irmog'i va uning o'rta qismidan chiqarilgan Charmanyob shoxobchalari boshi, o'rtasi va oxirida kichik, o'rta miyona va miqdoriy jihatidan farqlanuvchi turar-joylar qad ko'tarilgan. Yuqorida qayd qilingan tarixiy davrda o'troq ziroatkor aholini kundalik oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda magistral sug'orilish inshootlarni tarixiy ahamiyati beqiyos. Mazkur maqolada birinchidan, ilk o'rta asrlarda o'troq aholi manfaatlariga xizmat qilgan sug'orish inshootlari yo'nalishlari tarixini yoritish, ikkinchidan turar-joylarni, aholi markazlarini suv bilan ta'minlanishi, uning mavsumiy uzilishlari natijasida yuz bergan o'zgarishlarni yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: O'rta Osiyo janubi-sharqiy hududida osmono'par tog'lar oralig'ida toshlar o'rtasidagi oqib tushgan suvlar Amudaryoning asosiy suv manbasi hisoblangan. Amudaryo mil. avv. 8-7 ming yilliklarda asosiy suvini Xorazm tekisligi tomon shiddat bilan oqizib kelib, tarkibidagi mineral moddalarini yotqizishi munosabati bilan sernam va serunum tekislik ko'plab davrlar davomida insoniyatga xizmat qilgan.

Shu ma'noda, mil. avv. 8-7 ming yillikdan boshlab Amudaryo suv sathi ko'tarilishi munosabati bilan ajralib chiqqan Oqchadaryo, Davdon va Daryoliq irmoqlari faoliyatlari natijasida Qizilqum va Qoraqum to'lqinsimon qum uyumlari o'rtasidagi botiqlar suv havzalariga aylanish jarayoni mil. avv. VI asr so'nggi choragiga davom etgan [1].

S.P.Tolstov Xorazm hududida faoliyat olib borgan Sho'raxon va Sulton Uvays o'rtasidagi yerlar yuzasi gidrologik o'zgarishlarini Kaltaminor, Tozabog'yob va Amirobod sug'orish inshootlari yo'nalishlari belgilangan va shu asosda sug'oriladigan dehqonchilik vohalarini suv bilan ta'minlanganligi milodiy III-IV asrlarda o'ng sohil Xorazmda sug'orilish inshootlari hududlari qisqarish boshlangan, milodiy VIII-IX asrlarda esa qisqarish jarayonlari keng tus olganligi qayd qilingan [2]. Tadqiqotchi S.P.Tolstovning yuqorida zikr qilingan magistral sug'orish inshootlari yo'nalishlari to'g'risida xulosalariga qo'shilib bo'lmaydi, chunki sug'orish inshootlari turli tomonga yo'nalgan. Masalan, Kaltaminor kanali Jonbosqal'a balandligi chegarasi bo'ylab shimoli-sharqiy hududi Qumbosganqal'agacha hudud atroflarini suv bilan ta'minlagan.

Tozabog'yob sug'orish inshooti shimoli-sharqiy tomon Katta Qirqqiz yodgorligiga etib borgan. Amirobod kanali esa Sulton Uvays tog'i Janubiy hududlariga etib borib Ayozqal'a-1,2,3 yodgorliklari aholisini obi-hayot bilan ta'min qilgan. Mazkur kanallardan Amudaryo va Qizilqum

o‘rtasida geografik kenglikda tub o‘zgarishlarni aks ettirgan ikki yon tomonga chiqarilgan sug‘orilish tarmoqlari to‘g‘risida ma’lumotlar kuzatilmaydi. Shuningdek, tadqiqotchi so‘l sohili, hududida Davdon va Daryoliq irmoqlari faoliyatlari, ulardan ikki yon tomonga yo‘nalgan sug‘orilish tarmoqlarini e’tibordan chetda qoldirgan.

A.I.Terenojkinning Amudaryo o‘ng sohili hududida undan chiqarilgan Kaltaminor, Tozabog‘yob va Amirobod, sug‘orilish magistral inshootlar yo‘nalishlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan, ular sohili bo‘ylab arxeologik yodgorliklarning joylashish xaritasi ishlab chiqilganligini qayd qilish joiz [3].

Ye.Ye.Nerazikning Xorazm vohasi o‘ng va so‘l sohili hududlarida olib borgan sug‘orish inshootlari to‘g‘risida ma’lumotlari nashrlarda keng o‘rin olgan. Tadqiqotchi ilk monografiyasida Burgutqal’a vohasida yodgorliklar to‘g‘risida ma’lumotlarni milodiy VIII asrgacha qayd qilgan.

Misol tariqasida Burgutqal’a dehqonchilik vohasini sug‘orilishida muhim ahamiyat kasb etgan Burgutqal’a inshooti tarixiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Tadqiqotchi xulosasiga ko‘ra, Burgutqal’a dehqonchilik vohasi uzunligi 40 km, kengligi 4-5 km.ni egallagan. Kaltaminor magistral kanali tizimida Burgutqal’a, Uyqal’a va oxirida Dumanqal’a va Qumbosganqal’alar milodiy V-VI asr birinchi yarmida suv bilan ta’minlagan [4.5.6].

Ye.Ye.Nerazik ikkinchi monografiyasining birinchi bo‘limida milodiy I-VII asrgacha o‘ng va so‘l sohili hududida uchta magistral inshootlari hamda, ulardan ikki yon tomonga chiqarilgan shoxobchalar faoliyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Ikkinchi bo‘limida faqat o‘ng sohil hududidagi sug‘orilish inshootlari faoliyatlariga e’tibor berilgan [6].

Tadqiqotchi Ye.Ye.Nerazik monografiyasining ikkinchi bo‘limida asosiy e’tibor Sho‘raxon va Sulton Uvays tog‘i o‘rtasidagi sug‘orilish inshootlari faoliyatiga keng urg‘u bergan, so‘l sohili sug‘orilish inshootlari masalan Charmanyob magistral kanalidan chiqarilgan shoxobchalar faoliyatlari ochiq qolgan.

Xorazm vohasi sug‘orilish tarixi tadqiqotchisi Ya.G‘.G‘ulomov monografiyasida ilk o‘rta asr Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarini suv bilan ta’minlagan magistral kanallar to‘g‘risida ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan; asarning “Ilk feodalizm davrida irrigatsiya (milodiy IV-IX asrlar) bo‘limida milodiy IV asrda o‘ng sohil hududida Anqaqal’a, Qirqqiz, Jildiqqal’alarda hayot to‘xtaganligi, Tuproqqal’a tushkunlik kechganligi, Filqal’a (Pilqal’a) qurilishi yakun topganligi, so‘l sohil hududida rivojlanish kuzatilmaganligi, milodiy V-VI asrlarda madaniy hayot kechganligini to‘g‘ri qayd qilgan, lekin buning sabablari to‘g‘risida ma’lumotlar kuzatilmaydi. Milodiy VI-IX asr oxirigacha Xorazm o‘ng va so‘l sohili sug‘orish inshootlari faoliyat olib borganligi bir qancha gidrogeologik xaritalarda o‘z aksini topgan. Milodiy IV – VI asrlarda Amudaryodan o‘ng va so‘l sohil hududlarida Qizilqum va Qoraqum tomon sug‘orish inshootlari yo‘nalishlari, ularning ikki sohili bo‘ylab arxeologik yodgorliklar joylashishi tasviri berilgan Amudaryo o‘ng sohili hududida Katqal’a yaqinidan shu atamada chiqarilgan magistral kanali shimoli-sharqiy tomon hududlarini suv bilan ta’min qilgan. Shu bilan birga Amudaryodan shimoli-sharqiy tomon (hozirgi Chimbay tumani hududi) chiqarilgan magistral kanal Kuyukqal’a atrofini suv bilan ta’min qilgan. Katta Qirqizqal’a sug‘orlish inshootidan shimoli-g‘arbiy tomon chiqarilgan shoxobcha Qizilqal’a aholisini suv bilan ta’min qilgan [7].

S.P. Tolstov, Ye.Ye.Nerazik asarlarida Sho‘raxon va Sulton Uvays tog‘i o‘rtasida sug‘orish inshootlari to‘g‘risida ma’lumotlar geografiyasi keng, ammo so‘l sohil Charmanyob magistral sug‘orilish inshooti Dovdon irmog‘idan mil. avv.VI asr so‘nggi choragidan Ko‘zaliqir, Qal’aliqir balandliklari tomon faoliyatlari, undan ikki yon tomon yo‘naltirilgan tarmoqlar faoliyatlari ochiq qolgan. Holbuki, mazkur sug‘orilish inshootlari mil. avv. IV asrdan boshlab Qoraqum chegarasi tomon va shimoli-g‘arbiy Ustyurt, Sharqiy tomon sug‘orilish inshootlari chiqarilgan, ular sohili bo‘ylab istehkomli qal’alar to‘g‘risida fikr-mulohazalarni qayd qilmaydi. Ya.G‘.G‘ulomov asarida milodiy III – VI asrlarda o‘ng va so‘l sohili sug‘orilish inshootlari yo‘nalishi qayd qilingan, ular hudud sohili bo‘ylab qal’alar joylashtirilgan, ammo tarmoqlar nomlari kuzatilmaydi. Har holda, antik davrda sug‘orilish inshootlari faoliyat olib borgan, ammo ularning faoliyatlari Amudaryo faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan. Shu ma’nodan kelib chiqib, Xorazm vohasida o‘troq aholi Amudaryodan chiqarilgan

sug‘orilish inshootlaridan qanday darajada foydalanish tarixiy tajribasini yoritish alohida o‘rganishni taqozo etadi.

Bu xulosa ham sharqiy Xorazm hududining o‘ziga xosligini izohlaydi. Bu hudud xo‘jaligining asosini dehqonchilik tashkil qilganligi sababli, ham yirik chorva mollarni ko‘plab yetishtirishga ehtiyoj bo‘lmagan, asosiy yerlar dehqonchilik uchun ajratilgan. Uylarning qurilish uslubini ham tahlil qilganda mollar uchun maxsus qurilgan xonalar yoki saroylar aniqlanmagan. Shundan kelib chiqib, aholi mollarni hovlida saqlagan bo‘lishi mumkin degan fikrni ilgari surishadi. Umuman olib qaralganda, mayda shoxli mollarni qo‘ralarda saqlash, ya’ni atrofi o‘ralgan ochiq maydonlarda saqlash qulay bo‘lgan. Sharqiy Xorazm vohasida mayda shoxli mollarning rivojlanganligini e’tiborga olsak, ularda chorvalarni qo‘ralarda saqlangan bo‘lishi ehtimoli katta. Tadqiqotchilar antik davrdagi chorvaning tarkibi bilan ilk o‘rta asrlarga oid chorvaning tarkibini qiyosiy solishtirib, deyarli o‘zgarish bo‘lmaganligi aniqlangan. Sug‘oriladigan yerlarning maydonida ham bu jihat kuzatilmaydi. Aksincha sug‘oriladigan yerlar antik davrga nisbatan qisqargani kuzatiladi. Siyosiy jarayonlar va Amudaryoning suv harakatidagi o‘zgarishlar natijasida ko‘plab hududlar tashlandiq holga kelgan. Faqat VII-VIII asrlarga kelib, o‘tloqlarning ham o‘zlashtirilganligi kuzatiladi. Bu dalil ham Xorazmliklarning turmush tarzida dehqonchilik yuqori turganligini kuzatishimiz mumkin. IX-XI asrlar davomida ham Xorazm davlati iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan. Yozma manbalarda Xorazm shaharlari eng go‘zal shaharlardan biri bo‘lgan deb yozib qoldirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Ilmiy, tarixiy-xronologik, nazariy-qiyosiy tavsif, munozara, asoslash, umumlashtirish, yakuniy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya fani yutuqlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Xorazm ekspeditsiya Qoraqalpog‘iston respublikasi tadqiqotchilari hamda tadqiqotchilarning ilk o‘rta asrga oid adabiyotlarni qamrab olgan tarixiy ma’lumotlar tahlil qilindi.

Natijalarda quyidagi jarayonlarda qayd qilindi, ya’ni antik davrda Qizilqum va Qoraqum qum uyumlari geografik holati, hamda Amudaryodan chiqarilgan sug‘orilish inshootlari suv sathining goh ko‘tarilishi, goh keskin pasayishi munosabati bilan o‘ng sohil hududida iqtisodiy inqirozlar sodir bo‘ldi, hamda suv ta’minoti qaytadan boshlanganligi sabab, suv yetib borgan qishloq va shaharlarda qisman hayot davom etgan, ularning ichki qismida milodiy V-VI asr birinchi yarmida keskin o‘zgarishlar natijalari qayd qilingan.

Xulosa va takliflar: Daryolar, ariqlar, kanallar-barcha sun’iy sug‘orish vositalari Qadimgi Xorazm aholisi madaniyati va shaharsozligi vujudga kelishi va rivojlanishida, muhim o‘rin tutgan. Ibtidoiy davrlardan boshlab to dastlabki davlatlar vujudga kelguniga qadar ham qadimgi xalqlar daryolar va buloqlar bo‘ylarida dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan shug‘ullanib, xo‘jalik yuritib kelishgan. Albatta, sharq dehqonchiligi sun’iy sug‘orish kabi murakkab jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan. Antik davrda bunyod qilingan yodgorliklarning sug‘orish inshootlari suv oqimi yetib borgan hududlarda qishloq va shaharlarda madaniy va etnik munosabatlar davom etgan. Sug‘orish inshootlari suv oqimi yetib bormagan hududlarda xo‘jalik-madaniy hayot yakun topgan. Xorazm vohasi ilk o‘rta asr siyosiy manzarasini Afrig‘ sulolasi va Kerdar davlatlari aks ettirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шахарлари мудофаа иншоотлари-Ташкент, “Фан”, 2009. – Б. 101.

2.Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 46.

3.Тереножкин А.И. Археологические разведки Хорезме // СА. – М.: Наука, 1940, №. VI. – С. 169.

4.Неразик Е.Е. Раскопки в Беркут-калинском оазисе в 1953-1956 гг. // МХЭ. – М.: Наука 1959. Вып.-1. – С. 96-124.

5.Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма (по материалам Беркут-Калинского оазиса. – М.: 1966. – 130 с.

6.Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIVвв). Из истории Жилища и семьи // Тр.ХАЭЭ. – М.: Наука, 1976. Т. IX. – С. 13-66.

7.Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, Фан, 1969. – Б. 120-130.

UO’K 908

BUXORO AMIRLIGI ICHKI SAVDO MUNOSABATLARIDA QASHQADARYO VOHASINI TUTGAN O‘RNI

U. Mo‘minov, dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi
A.Ashirmurodov, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O’zbekiston davlatchiligi tarixida o’z o’rniga ega bo’lgan Buxoro amirligining siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy markazlaridan biri Qashqadaryo vohasni ichki savdo munosabatlaridagi o’rni tarixiy ma’lumotlar asosida tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro amirligi, Qashqadaryo vohasi, Qarshi, Shahrisabz, G‘uzor, bozor, sovdo-sotiq, to‘qimachilik, kulolchilik, paxta matolari, jun va ipak matolari.*

Аннотация. *В статье на основе исторических данных анализируется роль Кашкадарьинского оазиса во внутренних торговых связях, одного из политико-экономических и социальных центров Бухарского эмирата, имеющего место в истории узбекской государственности.*

Ключевые слова. *Бухарский эмират, Кашкадарьинский оазис, Карши, Шахрисабз, Гузар, рынок, торговля, текстиль, гончарное дело, хлопчатобумажные ткани, шерстяные и шелковые ткани.*

Abstract. *This article analyzes the role of the Kashkadarya oasis in internal trade relations, one of the political and economic and social centers of the Bukhara Emirate, which has a place in the history of Uzbek statehood, based on historical data.*

Key words. *Bukhara Emirate, Kashkadarya Oasis, Karshi, Shahrisabz, Guzar, market, trade, textiles, pottery, cotton fabrics, wool and silk fabrics.*

Buxoro amirligida hunarmanchilikning taraqqiy etishi savdo-sotiq munosabatlarini yanada kengayishiga sabab bo‘ldi. Bu davrda ichki va tashqi savdo keng rivojlandi. Savdoni kengayishi natijasida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi kabi shaharlarning iqtisodiy salohiyati o‘sib bordi. Savdo munosabatlarida ichki savdo muhim ahamiyat kasb etgan. Ichki bozorlar avvalo, kundalik ehtiyoj mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolarga talab kata bo‘lgan. Amirlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan bozorlarninng mavjudligi ichki savdoning davlat iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatidan dalolat beradi.

Buxoro amirligining siyosiy va iqtisodiy tayanchi hisoblangan Qashqadaryo vohasini ham ichki savdo munosabatlarida muhim ro‘l o‘ynagan. Xiva xonligi va Qo‘qon xonligining katta va kichik shaharlarida bo‘lgani kabi Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan Qashqadaryo vohasi shaharlaridagi ichki savdo ham asosan aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi. Katta va kichik shaharlar va yirik qishloqlardagi bozorlarda shahar hamda atrof aholi uchun oziq-ovqat, hunarmandchilik mahsulotlari, kiyim-kechak, chorvachilik uchun zarur buyumlar, ayrim bozorlarda chorva mollari bilan savdo-sotiq amalga oshirilgan.

Amirlik shaharlari qo‘shni dasht aholisi hamda ko‘chmanchilar bilan ham keng savdo amalga oshiriladigan markazlar edi. Dasht va ko‘chmanchi aholining ichki bozordagi, avvalo, kundalik ehtiyoj mollariga, oziq – ovqat mahsulotlari, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolariga talab katta bo‘lgan. O‘z navbatida ular shaharlarga o‘zlari yetishtirgan qoramol, ularning terilari va boshqa chorva mahsulotlarini yetkazib berganlar.[1:88-89]

Tarixiy ma’lumotlarga ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro amirligi atrofidagi qozoqlar o‘z chorvalarini Buxoro shaharlariga haydab kelib sotganlar. Ushbu savdodan tushgan pullariga “ular ipak to‘plar, qo‘pol ip gazlamalar, bug‘doy, arpa, jo‘xori sotib oladilar hamda ularning ortiqchasini dasht aholisiga foydasiga sotadilar”. Buxoro amirligiga turkmanlar “arg‘umoq deb ataluvchi otlar va qo‘y meshlarida yog‘” ham olib kelar edilar.[2;47] Ta’kidlash lozimki, turkmanlarning bunday munosabatlari Qarshi atroflarida o‘tgan asrning 80-yillariga qadar mavjud edi. Amirlikning uncha katta bo‘lmagan ayrim shaharlari ham ko‘p hollarda qo‘shni hududlar uchun savdo markazi vazifasini o‘tagan. Vohanning ayrim shaharlari (Qarshi, Shahrisabz, G‘uzor) amirlikning boshqa shaharlari

cho‘l-dasht hududlar, Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda qo‘shni boshqa davlatlarni bir-biri bilan bog‘laydigan savdo tranzit yo‘llarining kesishgan joylarida joylashganligi ham ularning iqtisodiy salohiyatiga ta’sir ko‘rsatar edi. Bunday shaharlardan biri Qarshi shahri edi. O‘rganilayotgan davrda Qarshining yirik savdo markazi sifatidagi ahamiyati katta bo‘lib, bu shahar, ayniqsa, XIX asrda savdoning rivojlanishi natijasida yanada taraqqiy etib bordi. Bu haqda N. Mayev shunday ma’lumot beradi: “Buxoroga sharqdan va janubi - sharqdan olib boriladigan hamma narsa Qarshini chetlab o‘tmaydi. Shu tufayli ham shahar Buxoroning boshqa shaharlaridan farq qilgan holda tez rivojlanayapti. U Xanikov davridagi devor chegarasidan ancha kengayib ketdi va endi bu devorning izlari ham yo‘q”.[3;91]

O‘rganilayotgan davrda mavjud bo‘lgan bozorlarning yana biri “Chorsu”lar bo‘lgan. Ular, odatda, ikki yo‘l kesishgan yerlarda bunyod etilgan bo‘lib, usti gumbaz bilan yopilgan. XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi shaharlarida bo‘lgan sayyohlar: “Shunday chorrahalar borki, ular baquvvat ustunlar ushlab turgan gumbazlar bilan qoplangan. Ularda bo‘yalgan ipak kashta, kashta tikilgan do‘ppilar, tasmalar, gilamlar, pichoqlar va boshqa narsalar bilan savdo qilingan”, deya takidlashgan.[2;102]

Shahar markazidagi qal’aning to‘rttala darvozasiga tomon boriladigan katta ko‘chalar kesishgan chorrahada joylashgan Chorsu gumbazlari ostida zargarlik, attorlik, kulolchilik, bazzozlik, temirchilik, pichoqsozlik, misgarlik kabi do‘kon va rastalarda savdo qilingan. Shahrisabz va Qarshi shaharlari Chorsusi uncha katta bo‘lmagan, usti gumbaz qilib baland yopilgan aylana shakldagi inshootlardan iborat bo‘lgan, deb ta’rif berilgan.[9;85] Qarshi shahari ichkarisidagi bozor, ya’ni Chorsu bir necha ko‘chalarga cho‘zilib ketgan bo‘lib, taxminan 1400 dan ortiq katta-kichik do‘konlardan iborat bo‘lgan, bu yerga haftada bir kun bo‘ladigan savdo jarayonida oldi-sotdi qilish uchun 10 – 15 mingga yaqin aholi kelib ketgan.[10;15]

Bu davrdagi iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida amirlik shaharlarining ma’lum bir mahsulot turining yetishtirishi hamda ishlab chiqarishi, shuningdek, ma’lum bir mahsulot turi bilan savdo-sotiqqa yoki ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi chuqurlashib bordi. Tadqiqotlarga ko‘ra, “Qarshining tamakisi, Shahrisabz anorlari mashhur edi, deya ma’lumot beriladi.[3;54] Tamaki va anor amirlikning boshqa bekliklari va shaharlariga sotiladigan asosiy mahsulotlardan edi. N. Mayev o‘z ma’lumotini yana shunday davom ettiradi: “Qarshi tamakisi ma’lumki, butun O‘rta Osiyoda mashhurdir va juda katta hajmlarda Toshkent, Qo‘qon va hatto Xivaga olib boriladi”. [3;54]

Amirlikning ayrim shaharlari pilla yetishtiruvchi markazlar bo‘lib, ular boshqa shaharlarga ko‘plab pilla va xom ipak mahsulotini sotganlar. Manbaning ma’lumot berishicha, Shahrisabz o‘zining “pushti rang pillasi” bilan mashhur bo‘lib, bu xom ashyo boshqa shaharlarga, xususan, Samarqandga ham yetkazilgan. “Samarqand bozoriga Shahrisabzdan ko‘plab sof pushti rang pilla olib kelinadi”.[4;36]

Amirlik shaharlari nafaqat kundalik ehtiyoj mahsulotlari, balki ma’lum turdagi hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqa shaharlarga yetkazib berishga ham ixtisoslashgan edi. N. Xanikovning ma’lumot berishicha, “Qarshi aholisi tamaki va olacha tayyorlash, Shahrisabzda do‘ppi tayyorlash, bilan mashhur” edi. Undan tashqari Qarshi jun va chorva sotiladigan markazlardan biri edi. “Qarshi bozoridagi jun sotiladigan rastasining uzunligi 250 sarjin (100 m.dan ziyodroq – U.M.) ga yetar, undan tashqari bu yerda kuzning oxiri qishning boshida chorva bilan katta savdo amalga oshirilgan”.[5;109]

Manbalarning ma’lumot berishicha, to‘quvchilik va tikuvchilik sohalarining mahsulotlari bo‘lgan jun, paxta, ip kalava va ip gazlamalar bilan amirlik va xorij shaharlarini ta’minlaydigan markazlardan biri Shahrisabz edi. “Buxorolik savdogarlar tomonidan Rossiyaga keltiriladigan paxta va ipak xom ashyosi asosan Sarsabz (Shahrisabz – U.M.) dan keltiriladi”.[6:175]

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro amirligining ko‘pgina shaharlarida (Buxoro, Qarshi, Termiz, Shahrisabz, G‘uzor va boshq.) karvonsaroylar qurilishiga katta e’tibor berila boshlandi. Bu holat Buxoro amirligining Rossiya, Hindiston, Eron, Afg‘oniston va qo‘shni xonliklar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanib borayotganligi bilan bog‘liq edi. Shuningdek, Hirot, Mashhad va Kashmir bilan savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.[3;171-176] Qobuldan ham amirlik

shaharlariga turli mahsulotlar keltirilgan. XIX asr ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, Qobuldan amirlik shaharlariga "o'sma, zarchuba, ayrim afg'on qurollari, nayzalar, pichoqlar, kamonlar, guruch va qisman tulki terilari" keltirilgan.[7;80] Erondan amirlik shaharlariga turli bo'yoqlar, chit, simob, murch, qurol-yarog', kumush va ko'plab qo'lyozma bosma kitoblar keltirilar edi. Hirotdan "quruq mevalar, qo'y terilari va qullar, Marvdan turkman otlari va qurol" olib kelingan.[8;136] Qoshg'ar va Qo'qon orqali Xitoydan to'qtachoy (g'isht choy), oqquyruq (ko'k choy), chinni idishlar, kumush yombilar kabi mahsulotlar keltirilgan.[7;81]

Xullas, Qashqadaryo vohasi Buxoro amirligining ichki savdo munosabatlarida uning sharqiy bekliklari bilan g'arbiy xududdagi shaharlarini bog'lab turuvchi «ko'prik», tashqi savdoda esa sharqiy mamlakatlarga chiqish uchun amirlik va butun O'rta Osiyo, hatto Rossiya savdo karvonlariga «Sharqiy darvoza» bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тошкент: Ўқитувчи. 2005. – Б. 88 - 89.

2. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару – М.: Наука, 1975. – С. 47.

3. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства // – Материалы для статистики Туркестанского края. – СПб. 1879. Вып. V – С. 91.

4. Разведение шелковичных червей в Средней Азии // Туркестанские ведомости. – 1871. № 36.

5. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб. 18438. – С. 109.

6. О нынешнем состоянии некоторых областей и городов Средней Азии // Азиатский вестник. – СПбб. 1826. – С. 175.

7. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демизона и И.В. Веткевича). – М., Наука, 1983. – С. 80.

8. Петровский Н. Моя поездка в Бухару. Путевые наблюдения и заметки. Ч. 2. – Т., 1872. – С. 136.

9. Каразин Н. Рахмад-инак, бек заадинский // Туркестанский сборник. — СПб.: 1867. — Т. 54. с. 85.9

10. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви 4-1-фонд,34 рўйҳат, 54-ҳужжат, 15 – варақ.

UDC 798.2

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EQUESTRIAN SPORTS IN THE SURKHANDARYA OASIS

B.S. Nazirov, PhD, associate professor, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Denov

Annotatsiya. *Ushbu maqola Surxon vohasida ot sporti rivojlanish tendensiyalariga bag'ishlangan. Tadqiqot mintaqaning boy tarixiy va madaniy merosiga asoslangan holda ot sportining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qiladi. Maqolada vohada ilk ot sporti klublarining tashkil etilishi, ularning faoliyati, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, maqolada ot sportining mintaqada turizmni rivojlantirish va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdagi roli ko'rib chiqilgan. Maqolada soha rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Sport ustasi, Spartakiada, chavandozlar, chovgan, "Box", "Bazzafil," "Bedakur"*

Аннотация. *Данная статья посвящена тенденциям развития конного спорта в Сурханском оазисе. Исследование основывается на богатом историческом и культурном наследии региона, рассматривая процессы формирования и развития конного спорта. В статье анализируются создание первых конноспортивных клубов в оазисе, их деятельность, современные тенденции развития и социально-экономическое значение. Также изучается роль конного спорта в развитии туризма в регионе и в продвижении здорового образа жизни среди молодежи. В статье поднимаются актуальные проблемы, препятствующие развитию отрасли, и предлагаются пути их решения.*

Ключевые слова: *Мастер спорта, спартакиада, наездники, чавган "Бокс", "Баззафил, "Бедакур"*

Abstract. *This article is dedicated to the development trends of equestrian sports in the Surkhan Oasis. The study is based on the region's rich historical and cultural heritage, examining the processes of formation and development of equestrian sports. The article analyzes the establishment of the first equestrian clubs in the oasis, their activities, modern development trends, and socio-*

economic significance. It also explores the role of equestrian sports in promoting tourism in the region and fostering a healthy lifestyle among youth. The article addresses current challenges hindering the industry's development and proposes solutions to overcome them.
Key words: *Master of Sports, Spartakiad, horse riders, chovgan, "Box", "Bazzafil," "Bedakur"*

Introduction. Horseback riding is one of the ancient and rich sports of the Uzbek people. This sport not only demonstrates physical preparation but also embodies the bravery, courage, agility, and nobility of the riders. Over the centuries, horseback riding has achieved high results in various international competitions, solidifying its popularity. In several regions of Uzbekistan, including Tashkent, Fergana, Jizzakh, Kashkadarya, and Surkhandarya, frequent equestrian competitions, kokpar games, and other sporting events are held. These events aim not only to develop equestrian sports but also to engage young people in sports, enhance their health, and preserve national traditions.

There is significant attention given to improving horses, selecting their lineage, and enhancing the training of athletes in the region. These efforts are yielding results, allowing for the emergence of riders who are becoming internationally renowned. Among the new generation of athletes, many talented young riders are demonstrating their high results.

The reforms and changes taking place in Surkhandarya are contributing to the further development of equestrian sports, thereby playing a significant role in the region's social and economic development. Moreover, these processes contribute to the growth of regional tourism, the creation of new jobs, and the promotion of a healthy lifestyle among youth.

Surkhan Oasis is one of the most important regions in Central Asia, known for its rich natural resources, ancient history, and culture. In this region, horseback riding has long been an integral part of the people's way of life and culture. Horseback riding not only serves as a sport but also plays an important role in shaping national values and traditions, particularly in social and cultural processes.

Today, equestrian sports hold great significance in promoting tourism in the region, engaging youth in sports, and preserving national heritage. The establishment of the first equestrian clubs, the traditions of horseback riding, and modern equestrian competitions reflect the growth of this field.

This article provides a comprehensive analysis of the development trends of equestrian sports in the Surkhan Oasis, its historical roots, current state, and prospects for further development. The article also discusses the contribution of equestrian sports to the region's social and economic development and explores solutions to existing challenges.

Results and its discussion. In the third and fourth quarters of the 20th century, the development of equestrian sports in the Surxondaryo region went through significant stages. In 1966, the first equestrian club was established in the region. The initial area for the club was allocated from the U. Aliyev collective farm in the Sariosiyo district. Although only two riders participated at the beginning, the establishment of this club laid the foundation for future major victories.

In 1971, equestrian competitions held during the Cotton Festival gained significant attention. Surxondaryo riders not only participated but also helped the regional team secure first place. Club members participated in 13 events and achieved high results. For example, Badilja Bo'riev won first place in the hurdle-jumping competition, while riders like Mirza Tursunov, Mamat Xudoynazarov, and Shomil Murtazoev also achieved success. [2].

The passage discusses the successes of equestrian competitions held in Surxondaryo region. On the second day of the competition, in national equestrian events, Turob Mamashukurov and Ergas Suvonov secured first place. In the "Qiz quvmoq" (Girl's Chase) competition, Flyura Otaqonova and Ergas Suvonov claimed second place.

Later, in the traditional team sport *Ko'pkari*, the Surxondaryo team demonstrated their skills, defeating teams from other regions to claim second place and win the mobile cup at the "Pahkta bayrami" (Cotton Festival) competitions.

In December 1970, during the regional Cotton Festival competitions held in the Namuna collective farm of Termiz district, interest in equestrian sports further increased. Many spectators from various districts of the region gathered, and notable riders participated to showcase their skills.

In the competition, F. Boymurodov from Termiz district won the 1000-meter

Later, an equestrian sports club was established in the Istara collective farm in Qizirik district, where thoroughbred horses were brought in from the former Soviet Union’s central stud farm. Following the 1970s, equestrian clubs were founded in several districts of the region, where young riders enhanced their sports skills. Specialists like Turob Mamashukurov, Zokir Valitov, Yuri Turin, and Vladimir Favoroskiy played an important role in these developments. Moreover, under the leadership of Shukur Ermatov, the chairman of the Pakhtakor sports society, these efforts were successfully implemented, leading to continued growth in equestrian sports in the region. [1].

By 1970, the number of equestrian sports clubs in the Surxondaryo region had reached 10, with 100 thoroughbred horses and 135 participants, 13 of whom were first-class athletes. By 1990, equestrian sports had further developed, with the number of clubs increasing to 14, the number of horses rising to 600, and the number of active participants reaching 856. Additionally, 80 thoroughbred horses were imported from abroad, the number of sports masters grew to 32, and the number of first-class athletes reached 113. The foundation for the further development of equestrian sports was laid during this period. [5].

The horses bred at the Termiz Equestrian Sports School, such as "Boks," "Bazzafil," and "Bedakur," were consistently victorious in Republic and former Soviet Union championships and Spartakiads. Notably, the Karabakh horses "Bazzafil" and "Bedakur" participated in the 1976 Olympic Games held in Montreal, where, under the leadership of Valeriy Dvorjaninov, they emerged victorious and secured the gold medal [3]

By the end of the 20th century, kokpar in Surkhandarya rapidly developed, producing hundreds of skilled horse riders. Significant achievements were also made in breeding and multiplying Karabakh horses. During this period, Surkhandarya horsemen won the "Xosil Bayrami" kokpar competitions in Tashkent 17 times. Furthermore, they triumphed five times in kokpar competitions held in the former Soviet republics. These competitions took place in 1974 in Bishkek (Kyrgyzstan), 1976 in Alma-Ata (Kazakhstan), 1982 in Dushanbe (Tajikistan), 1985 in Pyatigorsk (Russia), and 1987 in Tashkent (Uzbekistan). The Uzbek national team in these events was mainly composed of Surkhandarya's talented riders, including famous jockeys and coaches like Turob Mamashukurov, Odina Zo’irov, Ergas Suvonov, Kholli and Saman Yusupov, Kurbonmurod Kholmurodov, Tovashar Niyozov, Chori Norboev, Shoberdi Gundaev, Tura Khomatov, and Omon Jo’raev, who were instrumental in their success. Their achievements are still fondly remembered by fans [3].

When talking about the Termiz horse-riding school, it is important to emphasize that it played a key role not only in the development of the region but also in the entire Republic's equestrian sports. The horse-riding facility, established on 300 hectares of land in Khoshargah, became a significant hub for equestrianism. Initially, a riding school was opened, attracting 50 students from grades 5 to 10. Renowned jockeys and trainers began teaching equestrian sports to these students. Later, the school produced famous riders such as Karim Mardonov, Muhiddin Jabbrov, Turg‘un Sunatov, and Baḥodir Khayitov, who, by May 1980, had become candidates for master of sports and first-class athletes at the Republic Youth Spartakiad held in Tashkent [4]

Young riders such as Munira Jalitova, Abduhamid Rahmatov, Neymat Jumayev, and Abdurahmon Xayitov achieved success in regional competitions, earning the right to participate in national competitions. Over several years, the club's members consistently claimed victories, cementing the club's prominent position in the region’s equestrian sport scene [2].

In October 1975, during the equestrian competition held in Rostov-on-Don for Soviet Union jockeys, Qurbonmurod Xolmurodov showcased his exceptional skill. At a crucial moment in the competition, Xolmurodov scored a vital penalty goal for his team, a moment that left a lasting impression on many. After the match, Xolmurodov’s team emerged victorious.

The competition also featured jockeys from the Central Asian republics, who competed in various events such as polo, horseback basketball, and the "Surxon" game. Qurbonmurodov actively participated in the Republic's national team and achieved significant success, eventually becoming the national champion. This competition marked the beginning of Xolmurodov's rise to prominence in the equestrian sport world, setting the stage for his future victories [1].

Conclusions. In conclusion, the last quarter of the 20th century was a pivotal period for the development of equestrian sports in Surxondaryo region. During this time, traditional forms of equestrian sports spread widely and rapidly developed. Surxondaryo jockeys not only demonstrated their skills on a national level but also made a significant impact internationally, achieving great success. This, in turn, fueled further interest and passion for equestrian sports, attracting thousands of young people to this discipline.

Additionally, renowned jockeys from Surxondaryo, such as Qurbonmurod Xolmurodov, played an instrumental role in advancing the field, contributing to further innovations and successes in equestrian sports. The efforts made during this period were of great significance not only for the region but for the entire country, securing Surxondaryo's prominent place in the history of equestrian sports in Uzbekistan.

REFERENCES:

1. Toshpulotov J. Jockeys of the Uzbek Youth. Yangi asr avlodi. Tashkent, 2009.
2. Toshpulotov J. Physical Education and Sports in Surxondaryo. Termiz, 1991.
3. Denov Field Archive. (Materials from an interview with Komilov Yo'ldosh, residing at 22 Ziyoli Street, Denov city). May 17, 2020.
4. Surxondaryo Region State Archive. 221-Fund, 1-List, 58-Page Unit, 26-Leaf.
5. Алексеев Н. М., Организация работы в объединенных коллективах физической культуры, М., 1971.
6. Abdumalikov R., Yusupov T. T., Akramov A. K. Ways to Expand Physical Education Activities, Tashkent, Medicina, 1988.
7. Borshin N. A., Iskhakov M. F. The Activities of the Komsomol of Uzbekistan in Developing Physical Education and Sports in the Republic (1924□1974). Tashkent, "Yosh Gvardiya", 1975.
8. Nazirov, B. S. (2020). Master who devoted his life to sports. ISJ Theoretical
9. Applied Science, 06 (86), 78-82.
10. Nazirov, B. S. (2021). The first horse clubs in surkhan oasis. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(2), 1228-1231.

UO'K 677.024.074.54

HISTORY OF FABRIC MANUFACTURING IN CENTRAL ASIA (from the earliest period to the early Middle Ages)

Sh.K. Nurullayeva, PhD, Associate Professor, Urgench State University, Urgench

Annotatsiya. *Markaziy Osiyoda mato ishlab chiqarish uzoq tarixga ega bo'lib, mahalliy xususiyatlari bilan ajralib turgan. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda to'qimachilik ishlab chiqarishining vujudga kelish tarixi aks etgan. Jumladan, odamzodning tabiiy olov, hayvon terisidan foydalanish va g'orlarni o'zlashtirish orqali muzlik davrini yengib o'tishi hamda yashab qolishi, uning ixtirolari, odamzodning dastlabki kiyim vazifasini bajaruvchi ashyo (buyum) lar, dastlabki matolar va ularning xom ashyosi haqida ma'lumotlar berilgan. Markaziy Osiyoda eramizdan avvalgi besh ming yilliklar boshida madaniy o'simliklar yetishtirila boshlagani, buning dalili sifatida bronza davri manzilgohlari Qadimgi Xorazm Jonbosqal'a-4, Buxoro viloyatidagi Zamonbobo hududida aholi manzilgohlaridan topilgan mato va kiyim qoldiqlari, aholining dehqonchilik bilan shug'ullangani hamda Markaziy Osiyoda to'qimachilik hunarmandchiligining antik va ilk o'rta asrlarda rivojlanishi masalalarini o'rgangan olimlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *to'qimachilik, mato, "muzlik davri", kromonyon, "neolit inqilobi", to'quv dastgohi.*

Аннотация. *Производство тканей в Центральной Азии имеет давнюю историю и отличалось местными особенностями. В этой статье отражена история возникновения текстильного производства в Центральной Азии. В частности, приведены сведения о преодолении человеком ледникового периода и выживании через естественный огонь, использование шкуры животных и освоение пещер, его изобретения, предметы (изделия), выполняющие функцию первой одежды человека, первые ткани и их сырье. В качестве доказательства того, что в начале пяти тысячелетий до нашей эры в Центральной Азии начали выращивать культурные растения, были обнаружены остатки тканей и одежды, найденные в поселениях Джанбаскала-4 Древнего Хорезма, Заманбаба в Бухарской области,*

занятие населения земледелием, а также сведения о ученых, изучавших вопросы развития текстильного ремесла в Центральной Азии в античности и раннем средневековье.

Ключевые слова: *текстиль, ткань, "ледниковый век," кромоньон, "неолитическая революция," ткацкий станок.*

Abstract: *Textile production in Central Asia has a long history and was distinguished by its local characteristics. This article reflects the history of the emergence of textile production in Central Asia. In particular, information is given about the survival of humanity through natural fire, the use of animal skins and the development of caves, the overcoming of the glacial period, its inventions, the objects (items) that served as the first clothing of humanity, the first fabrics and their raw materials. The beginning of cultivation of cultivated plants in Central Asia at the beginning of the 5th millennium BC, evidence of which is the Bronze Age settlements of ancient Khorezm — Dzhanbaskala-4, the remains of fabrics and clothing found in settlements of Zamanbaba in the Bukhara region, the fact that the population engaged in agriculture, as well as information about scientists who studied the development of textile crafts in Central Asia in the ancient and early Middle Ages.*

Key words: *textiles, fabric, "ice age," chrome-non, "neolithic revolution," loom.*

Introduction. Textiles refers to the entire process of fabric production, from yarn selection to final fabric processing, and in a narrow sense, the production of textiles directly on a loom. By studying the lives of a small number of primitive peoples who led the same lifestyle as their distant ancestors until recently, we can get a little idea about the early humans and their daily lives. The paleolithic man Kramonon, who invented the first bone needle, sewed clothes from animal skins, and according to his worldview, the power of the animal transferred to him as soon as he put on the skin of this animal. [История первобытного общества. С.-106]

This was a process related to the emergence of the first religious ideas in human history. The topic of fabric production is always interesting and a question that will make everyone think. The reason is that if a person initially used tree leaves and tree bark not from fabric, but because the air was warm due to natural conditions, then they used animal skins as a protective agent to protect themselves from cold. Because in the last stage of the Early Paleolithic, in the 100th millennium BC, glaciers entered from the north and the "glacial period" began. Humans survived and overcame the ice age through natural fire, animal skins, and the development of caves. As a result, the primitive man first covered his body and legs with animal skins to protect himself from the cold, and this process lasted from the Late Paleolithic to the Late Paleolithic (12th millennium BC). The paleolithic man Kramonon, who invented the first bone needle, sewed clothes from animal skins, and according to his worldview, as soon as he put on the skin of this animal, his power passed to him. [V.P.Alekseev, A.I. Perchits. C.-106.]

By the Mesolithic period, the days had warmed up, the ice had receded, and the climate had warmed. Various wild plants appeared on Earth. The population became sedentary, and the first agriculture appeared (in East Asia). From this period on, for the first time, in addition to animal skins, they learned to weave fabrics from fibers derived from wild plants and use them as clothing. It was hemp and flax. [R.Xerold.C.-178]

The Neolithic period is an important period of historical development. The changes that occurred during this period are called the "Neolithic Revolution" due to their significance. Its main achievement was the transition from a self-sufficient economy (hunting, gathering) to a productive economy (agriculture, crafts, and animal husbandry). From this time on, textile traditions formed in the lifestyle of the region's population and became an integral part of their daily lives. The earliest archaeological evidence of the emergence of weaving in Central Asia dates from the Late Stone Age to the Neolithic period. It was during this period that weaving looms emerged in the ancient agricultural oases of the Kopetdag foothills (Jaytun culture). In connection with the development of animal husbandry, wool played a significant role in weaving. Along with leather clothing, woolen clothing was also widely widespread. [Asqarov A. A. C.101-102] Neolithic monuments include: Kaltaminar, Darvazakir, Poykend, Kyzylkir, Central Fergana, Chingeldi, and others.

The degree of study of the problem. The scientist A. Razzokov noted that Central Asia was a populated region, where cultural plants began to grow at the beginning of the 5th millennium BC, the natural climate was favorable, and as evidence of this, the Bronze Age settlements found in the territory of Ancient Khorezm, the remains of fabrics and clothing found in the settlements of Zamonbobo in the Bukhara region, as well as information about the sedentary way of life and agriculture of the population. Therefore, based on the aforementioned considerations, it can be concluded that during the Early Paleolithic and subsequent periods, cultivated crops, including cotton, were created on the fertile lands of the Oxus (Amu Darya) and Jaharthes (Syrdarya). [Razzoqov A. C.12]. In the 1st millennium BC, archaeologist A. Askarov discovered the remains of clothing at the ancient agricultural site of Sapallitepa, dating back to the Bronze Age. In the same settlement, remains of ordinary silk fabric were found in several graves.[Asqarov A. A.C.133-134]

The history of the emergence of textile crafts in Central Asia and the issues of their development in antiquity and the early Middle Ages have been studied by renowned scholars such as L.I. Albaum, A.M. Belenitsky, I.B. Bentovich, O.G. Bolshakova, M.P. Vinokurova, A.S. Davidova, N.F. Dyakonova, A.A. Ierusalimskaya, S.B. Levushkina, E. Lubo-Lesnichenko, B.A. Litvinsky, G. Maitdinova, N.V. Pigulevskaya, E.F. Fedorovich, B. Henning, D. Shepherd, E. Schaefer, V.A. Shishkin, and others. G. Mayitdinova, in her work devoted to the study of early medieval textiles of the peoples of Central Asia and textiles of Tokharistan [Майтдинова Г.М.С.5.], based on sources, concludes that by the 6th century BC, woolen fabrics had displaced leather fabrics from consumption. Information about wall paintings of monuments such as Afrasiab, Panjikent, Varakhsha, Bolaliktepa, and Khalchayan can be learned from these sites, as well as from the memoirs of the famous Chinese traveler Xuanzang. According to his account, the poor population of Tokharistan wore cotton fabrics, while a small number of wealthy people wore clothes made of wool.[Бичурин Н.Я.(Иакинф).С.332] During the final stage of the Lower Paleolithic and the Upper Paleolithic period (100,000 BC — 12,000 BC), leather was one of the oldest materials used by humans. Ancient people fashioned simple clothes, traps, belts, bags, and footwear from it. Despite the products being made from pure natural raw materials, people made efforts to decorate them.

In his article "On the History of Clothing of the Inhabitants of Ancient Fergana (Based on Archaeological Materials)," archaeologist B. Matboboyev, as a result of archaeological research conducted at the Munchaktepa monument in the Fergana Valley [Матбобоев Б. С.130-133] , organizes the remains of the fabric and comes to the following conclusion: cotton and silk fabrics were woven here, and the most ancient and medieval clothing was also found, clothes were decorated with carved pockets, beads and expensive silks, decorative buttons, ribbons and amulets.

Sources, methodology and methods. Mahmud Kashgari, who lived in the 11th century, wrote "Divan Lughat al-Turk" [Махмуд Қошғарий. С. 465-467] gives the names of about 30 natural, silk and gold fabrics used by the peoples of Central Asia. The kimhab, velvet, and a number of silk and gold fabrics mentioned in this dictionary have not gone out of use to this day. The renowned ethnographer G.A. Pugachenkova [Пугаченкова Г.А. С. 110] , who analyzed Central Asian fabrics and clothing through Eastern miniatures, concludes that the striped flowers (flower beds, pencil) found in these miniatures belong exclusively to the population of Central Asia.

Results and discussion. In conclusion, the history of fabric production dates back to the primitive period. Humans first used clothing to protect themselves from external influences. Textile crafts first appeared in the Neolithic Age, and the initial raw material was wild plant-hemp and flax branches and leaves. The foundation of weaving — the loom — originated in Ancient Egypt. It consists of a frame and several lamels, on which the twisted threads are pulled, then twisted manually with the threads that make up the weave. This principle has survived to this day, only the machines have become more modern, allowing the creation of a variety of fabrics. In the early Paleolithic period, when humans first lived, clothing was primarily made of tree bark and leaves, as the weather was warm. After the beginning of the "Great Ice Ages" in the last 100,000 years of the Early Paleolithic, natural fire and animal skins, as well as mountain caves and caves as shelters, made it possible for humans to survive. During the Late Paleolithic, the ice age ended and the weather began to warmer. As a result, plants began to grow on Earth. The countries of the Fertile Crescent are the

birthplaces of agriculture worldwide. In Central Asia, the remains of irrigated agriculture in the Neolithic period were first discovered in archaeological sites belonging to the Jaytun culture of southern Turkmenistan. It was from this period that humans wove the first fabric from wild hemp and flax plants and did not stop using them for a long time due to their strength. According to Uzbek scientist A. Razzokov, cotton was first planted in Central Asia five thousand years ago, and its fiber was woven in each household on a vertical (vertical) hand loom called a "shop" and dyed with natural colors. The production of wool cloths from animal skins was developed primarily among peoples engaged in animal husbandry, and wool cloths were woven on a horizontal loom called "Kazakh." Textiles woven on the "Qo‘zaq" loom were called "Qo‘zaqi." In addition, carpets, felt and palas were also woven and they were laid inside the houses. In general, in the Middle Ages in Central Asia, "torka" (lower reaches of the Amu Darya), "böz" (in all parts of the territory), "qalami" (Fergana, Tashkent), "zandana" (Bukhara), "vadoriy," "baxmal" (Samarkand), "Podshoyi," "Alacha" (Khorezm), as well as various silk fabrics: atlas, adras (Fergana Valley) were produced. In addition, woolen fabrics and furs were imported from the northern regions, "fragment" and "kimhob" from Iran, and silk fabrics with spices from China and India. Therefore, in conclusion, it should be noted that from ancient times, fabrics in regions and peoples differed from each other in color, raw material, and weaving style. In particular, the perfume fabrics that came through trade were equally liked and purchased by everyone. This further strengthened cooperation between peoples through trade.

REFERENCES:

1. История первобытного общества. Под ред. В.П.Алексеев, А.И. Перщиц. М.: Астрель, 2007.-С.-106.
2. Ibtidoiy jamiyat tarixi. V.P.Alekseev, A.I. Perchits. M.: Astrel, 2007.-B.-106.
3. Xerold.R Dunyo liboslari tarixi. M. Eksmo-press. 2002 yil -B.-178.
4. Asqarov A. A. Sapallitepa. – Toshkent: Fan, 1973. 101-102-betlar
5. Razzoqov A. Ozbekistonda paxtachilik tarixi. Toshkent, O‘zbekiston, 1994 yil -B-12.
6. Asqarov A. A. Sapallitepa. – Toshkent: Fan, 1973. 133-134-betlar
7. Альбаум Л.И. Балалык-тепе.Т., 1960. -14-расм.
8. Беленицкий А.М. Монументальное исскуство Пяндижикента. Скульпура, живопись. -М.1973.
9. Бентович И.В. Находки на горе Муг// Материалы института Археологии. 1958. № 66.-С.363.
10. Винокурова М.П. Ткани из замка на горе Муг// ИООН. Сталинабад: АН Тадж.ССР, 1957.№14.-С.17-32.
11. Дьяконова Н.В. Материалы по культовой иконографии Центральной Азии домусульманского периода. // Труды Государственного Эрмитажа. Т. V. (Культура и искусство народов Востока, 6). Л.: 1961. С. 257-272.
12. Пигулевская Н.В.Византия и Иран нарубеже VI и VII веков/ /Тр.Ин-та востоковедения АН СССР.-Л.,1946.-Т.46.;Она же.Византия на путях в Индию:из истории торговли Византии с Востоком V-V Івв.-М.-Л.:Изд-АН СССР,1951; Онаже. Шелковая дорога. Проблема экономичесеского-культурных связей между Востоком и.Западом//БлижнийВосток,Византия, Славяне.-Д.:Наука,1989.
13. Шефер Э.Золотые персики Самарканда.-М.:Наука,1981.
14. Майтдинова Г.М. Раннесредневековые ткани Средней Азии.-Душанбе, 1996. -С.-5.; Майтдинова Г.М.Ткани Тохаристона// Раннесредневековые ткани Средней Азии.-Душанбе, 1996. -С.-11.
15. Бичурин Н.Я.(Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. -М.-Л..: Наука, 1950. Т.2.-С.332.
16. Матбобоев Б.“Қадимги Фарғона аҳолисининг кийим-бошлари тарихига доир (археологик материаллар асосида)” // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. Тўплам масъул муҳаррир проф. Д.А.Алимова. -Тошкент, 2004. -Б.-130-133.
17. Махмуд Қошғарий. Девони луғатит турк. I том. С.Муталлибов таржимаси. Т., 1960 йй. -4465-467 бб.
18. Пугаченкова Г.А. К истории костюма Средней Азии и Ирана XV-первой половины XVI по данным миниатюр // Труды САГУ. 1956. Вып.XXXI. -Т., 1958. -С.-110.

UO’K 902

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA FRONT ORTI HUDUDLARIGA KO‘CHIRIB KELTIRILGAN O‘SMIRLARNI ISH BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI

S.SH.Pirimkulova, o‘qituvchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushning dastlabki yillarida, xususan 1942 yilda O‘zbekiston hududiga front atrofi hududlaridan ko‘chirib keltirilgan bolalarning aynisqa o‘smir yoshidagi bolalarning ish bilan ta’minlash bo‘yicha Markaziy evakopunkt va Xalq Maorifi Komissarligi olib borgan faoliyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mahalliy aholi tomonidan ko‘rsatilgan amaliy yordamga ham alohida urg‘u berilgan.*

Kalit so'zlar: *Markaziy evakopunkt, Yangiyo'l, Buxoro, kolxoz, sovxoz.*

Аннотация. *В статье рассматривается деятельность Центрального эвакуационного пункта и Народного Комиссариата Просвещения в первые годы Второй Мировой войны, в частности в 1942 году, по трудоустройству детей, особенно подростков, эвакуированных на территорию Узбекистана из прифронтовых районов. Особое внимание уделяется также помощи, оказанной местным населением.*

Ключивые слова: *Центральный эвакуационный пункт, Янгиюль, Бухара, колхоз, совхоз.*

Abstract. *The article examines the activities of the Central Evacuation Point and the People's Commissariat of Education in the early years of World War II, particularly in 1942, in providing employment for children, especially teenagers, evacuated to the territory of Uzbekistan from frontline areas. Particular attention is also paid to the assistance provided by the local population.*

Key words. *Central evacuation point, Yangiyul, Bukhara, collective farm, state farm.*

Kirish. Ikkinchi jahon urushi ko'p oilalarning tarqalib ketishiga, farzandlarning ota-onasiz qolishiga va, umuman, insonlarning turmush tarzining buzilib ketishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida urush harakatlari yaqin olib borilgan hududlardagi aholi ayniqsa juda katta xavf ostida edilar. Shuning uchun ham urushning dastlabki kunlarida bu aholining ko'chirilishi bo'yicha ishlar olib borildi. Ayniqsa alohida ahamiyat bolalarga qaratilgan. 1941 yil 1 oktyabrdan to 1942 yil 1 oktyabr holatini oladigan bo'lsak O'zbekistonga 78 ta mehribonlik uylaridan 43 ming nafar bolalar evakuatsiya qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur mehribonlik uylarining ko'p qismi ko'chirilganligi holatida saqlanib qolsada, aksariyat ko'chirilgan mehribonlik uylari esa tarqatib yuborildi, va ko'chirib keltirilgan bolalar O'zbekistonda mavjud mehribonlik uylariga, boshqa bolalar muassasalariga, aholining qaramog'iga bo'linib ketgandi. O'smir yoshidagi bolalar esa ma'lum bir ishlab chiqarish korxonalariga, kolxoz va sovxozlarga ishlash uchun yuboriladi. Buning salbiy va ijobiy tomonlarini ko'rib chiqish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida ko'chirib keltirilgan bolalarni ish bilan ta'minlash masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu masala bo'yicha ma'lumotlar juda ozchilikni tashkil qiladi.

Bolalar asosan kolxoz va sovxozlarda oddiy ishchi sifatida yoki biror ustaning yordamchisi bo'lib ishlaganlar. Bolalarga yordam ko'rsatish Markaziy komissiyasining 1942 yil 5 fevralda chiqargan xulosasiga ko'ra, Markaziy evakopunktdan o'tgan 14 yoshdan to 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ishga yaroqli hisoblangan.[1] Natijada Xalq Maorifi Komissarligi 14 yoshga yetgan mehribonlik uylaridagi bolalarni mehnatga jalb qilishga kirishgan. Dastlab ko'chirib keltirilgan bolalarni ish bilan ta'minlash tartibsiz ravishda olib borildi. Chunki ayrim zavodlar bolalarni ishga qabul qilishdan bosh tortgan. Bunga o'ziga yarasha sabablar ham bo'lib, ko'pincha o'g'irlik holatlarini oldini olish uchun bunday qarshiliklar bo'lib turgan.

O'zbekistonga ko'chirib keltirilganlarning ko'pgina qismi ittifoq tumanlaridan, vaqtinchalik nemis fashistlari tomonidan bosib olingan hududlardan va front oldi chegaralaridan kelgan. Ukraina, Belorussiya va boshqa respublikalar vaqtinchalik dushman tomonidan egallangach, ularning aholisi O'zbekistondagi kolxozlarda qo'nim topdi. Ayniqsa, kolxozlarga ishga yuborilgan 14-18 yoshgacha bo'lgan ko'chirib keltirilgan o'smirlarga katta yordam berildi. O'zbekistondagi kolxozlar ko'chirib keltirilgan bolalarni juda yaxshi ish bilan ta'minlagan, ularga alohida jihozlangan xonalar ajratgan. Shu bilan birgalikda 40-50 kunlab yo'lda bo'lgan bolalarning ovqatlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, Yangiyo'l tumanidagi kolxozlar mehribonlik uylarini tashkil qilishni keng yo'lga qo'ydi. Ular 9 ta kolxozda 103 nafar bola sig'adigan mehribonlik uylarini jihozladilar. 12 nafar o'smir Shur-Alisop qishloq kengashiga qarashli Karl Marks nomli kolxozga ishga joylashdilar.[2]

Umuman ko'chirib keltirilgan bolalarning ishga moslashib ketishiga ular joylashgan mehnat joylari ham katta ta'sir ko'rsatgan. Sababi bir zavod ustalari ba'zi hollarda bolalarga ish o'rgatishni xohlamagan. Shuning uchun ham bolalar bunday zavodlarda ishlashni istamas edi. Ba'zida bunday zavodlardan o'smirlarning qochib ketishlari ko'p kuzatilardi. Shuningdek, ish bilan ta'minlanish faqatgina zavod, fabrikalarda bo'lmay shu bilan birgalikda ko'pincha mehribonlik uyining o'zida ham bolalar ish bilan ta'minlangan. Ya'ni biz yuqorida aytib o'tganimizdek, davlat yetarli darajada

mehribonlik uylarini ta'minlamaganligi tufayli ularga o'z xo'jaliklarini yuritish uchun ma'lum miqdorda yer uchastkasini ajratib berishardi. Natijada aynan mana shunday xo'jaliklarda ham o'smirlar mehnat qilardi. Umuman ko'chirib keltirilgan bolalarni ish bilan ta'minlash bolalalar uchun juda muhim edi. Chunki ular mana shu ish jarayonida ma'lum miqdorda ish haqqi ham olib turgan. Bu esa o'smirlarning o'zlarini moliyaviy jihatdan oz bo'lsada, ta'minlashiga yetardi. Bundan tashqari davlat uchun ham eng muhim tomoni nazoratda chetda qolgan bolalarni kamaytirish imkonini bergan.

Masalan, Buxoro viloyatida bolalar yetarlicha nazoratda bo'lmaganligi natijasida tashkilotlarga ishga berilgan 6 nafar boladan bittasi qochib ketgan. Bu 5 nafar bolaning biri 18 yosh, qolganlari 15 yoshga kirgandi. Bu bolalar ish bilan ta'minlangan bo'lib, 100 rubl miqdorda oylik maosh olib turgan, bu bolalar umum turar joylarda yashashgan, ishdan bo'sh paytlarida o'zilari xohlagan ish bilan shug'ullanish mumkin edi. [3]

1942 yil yanvar oyi o'rtalarida Markaziy Qo'mita va O'zSSR Xalq Sovet Komissarligi qabul qilgan qarorlari to'liq amalga oshirildi. Ya'ni bu qaror bolalarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan edi. Markaziy Qo'mita va Xalq Sovet Komissarligi (XSK) o'smirlarni ish bilan ta'minlash uchun 9250 ta joy ajratdi. Ulardan 2250 nafari korxonalarga va 7000 nafari kolxozlarga yuborilgan. Buning hisobida allaqachon 200 nafar o'smir Namanganga va 120 nafari Toshkent viloyati sovxozlariga yuborilgan.[4]

Tarbiyaviy ishlari qoniqarsiz bo'lgan mehribonlik uylari ham mavjud edi, albatta. Masalan, Chernigovdan ko'chirib keltirilgan Andijon tumani Buta-Karim qishloq sovetiga joylashtirilgan mehribonlik uyi shular qatoriga kiradi. Bu mehribonlik uyida 245 nafar bola bo'lib, ularning 20% ni ota-onasi qatag'onga uchragan, natijada bolalar qarovsiz tashlab qo'yilgandi. Mehribonlik uyida tartib-qoidalar yo'lga qo'yilmagan bo'lib, tarbiyachilar orasida ham hamjihatlik bo'lmagan. Natijada Xalq Maorifi Komissarligi bu mehribonlik uyining boshliqlarini yangilaydi. 14 yoshdan oshgan bolalarning barchasi mahalliy zavod va fabrikalarga ishga joylashtiriladi.[5]

1942 yil hisobida ish bilan ta'minlanganlar 2800 nafarni tashkil qilgan. Markaziy bolalar ko'chirish punktidan 13 ming nafar bola ko'chirib keltirilgan. Ulardan 14 yoshga yetgan va undan yuqori bo'lgan 5100 nafar o'smir kolxoz va sovxozlarga, 4 ming nafari tashkilotlarga ishga yuborilgan. Lekin shuni aytish kerakki, front oldi hududlaridan ko'chirib keltirilgan bolalarni ish bilan ta'minlashda og'ir vaziyat shundan iborat ediki, ularning ko'pchiligi juda zaif, nimjon bo'lgan. Aynisqa bolalarning ko'pchiligi turli kasalliklarga chalingan bo'lib, bunday bolalarni tezkor suratlarda ish bilan ta'minlashda ularning sog'ligi yo'l qo'ymagan.[6]

Samarqand viloyati bo'yicha front oldi hududlaridan ko'chirib keltirilgan 1100 nafar o'smirni ish bilan ta'minlanishi belgilangan edi. 1942 yil 14 mart hisobiga ko'ra viloyat bo'yicha 240 nafar bola, Samarqand shahri bo'yicha esa 99 nafar bola ish bilan ta'minlangan. Ayniqsa 7-sonli mehribonlik uyini misol qiladigan bo'lsak undagi 57 nafar bola ishga joylashtirilgan edi. Lekin ayrim hollarda viloyat boshqarmalari o'smirlarni ish bilan ta'minlashdan bosh tortgan. Masalan, 1926 yilda tug'ilgan Leningrad viloyatidan ko'chirib keltirilgan Sergeevni dastlab ishga qabul qilishmagan va faqatgina viloyat Xalq ta'lim bo'limining aralashuvidan so'ng bu o'smir tezlikda traktorchilar bilim yurti kurslariga qabul qilinadi va bu soha boyicha o'z ish faoliyatini yuritadi. Bunday holatlar tez-tez uchrab turgan. [7]

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarni mehnat bilan ta'minlashdan ba'zi bir tashkilotlar bosh tortgan. Masalan, Matbuot boshqarmasi – belgilangan 10 nafar, Toshkent temiryo'li – 30 nafar, Aloqa Xalq Komissarligi – belgilangan 10 nafar, Sovxoz Xalq Komissarligi– belgilangan 25 nafar, Avtotransport Xalq qo'mitasi – belgilangan 10 nafar bolani ishga qabul qilishdan bosh tortgandi. Bunga qaysidir ma'noda mehribonlik uylari direktorlari ham sababchi edilar. Ular bu bolalarni ishga joylash uchun yetarlicha harakat qilmadilar. Shuning uchun ham mehribonlik uylaridagi rahbarlar o'z ishiga sovuqqonlik munosabatda bo'lganligi uchun 40 nafar direktor, 25 nafar tarbiyachi va taxminan 150 nafar oddiy tarbiyachi ishdan bo'shatilgan. Ularning o'rniga imtiyozli kadrlar qo'yilgan.[8]

O'smirlarni ish bilan ta'minlash masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu tadbirning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor edi. Misol uchun, Yangiyo'lda bolalarni yaxshi kutib olishadi, hattoki, ularni kiyim kechak bilan ta'minlagan. Bunday sharoitdan bolalar mamnun bo'lgan. Shu o'rinda Tuman Iste'mol birlashmasi bolalarni ishchilar hisobidan ta'minlagan. Bundan tashqari,

bolalarning maoshi ularning kiyinishiga sarflangan. Ishga olingan 4 nafar bolaning 2 nafari idorada va 2 nafari oshpaz shogirdi bo‘lib ishlagan. Ammo konserva zavodiga ishga joylashtirilgan bolalarning ahvolini qoniqarli deb bo‘lmasdi. Bolalarni choyshab va to‘shaksiz yerda yotqizganlar. Bunday shart-sharoitlar 10 nafar bolaning omborxonadagi 30 ta konserva bankasini o‘g‘irlashiga olib kelgan, natijada bu bolalar militsiya xodimlari tomonidan ushlangan.[9]

Ko‘chirib keltirilganlarni ish bilan ta’minlash masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, evakopunkt ro‘yxatidan o‘tgan bolalarning aniq bir mutaxassislik bo‘yicha ishlaganligi to‘g’risida ma’lumotlar yo‘q. Chunki evakopunkt bolalarni qanday bo‘lsa ham ish bilan ta`minlashga javobgar edi. Lekin ko‘chirish vakillik bo‘limi bu muammoni hal qilish uchun Samarqand viloyati va tumanlarida kuzatuv ishlarini olib borganda, shu aniq bo‘ladiki, Samarqand viloyati tumanlari, markazlari va shaharlarida yashayotgan bolalar ish bilan ta’minlanmagandi. Faqatgina kolxozlarda joylashganlari ish bilan ta’minlangan bo‘lib, ularning oziq-ovqati va turar-joylari masalasida kamchiliklari bo‘lgan. [10]

Xulosa. Mehribonlik uylarida bolalarni mehnat bilan ta’minlash masalasi vaqt o‘tishi bilan yaxshilanib borgan. Bundan tashqari, Respublikaning 50 ta mehribonlik uylarining o‘zida bolalar mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun turli ustaxonalar (tikuvchilik, etikdo‘zlik, duradgorlik, kiyim-kechak tayyorlash va boshqalar) tashkil qilingan.[11] Mazkur sharoitda ko‘chirib keltirilgan bolalar asta-sekinlik bilan o‘z hayot tarzini yaxshilab borgan. Albatta bunday tadbirlarning amalga oshirilishi ijobiy xodisalardan biri deb qaralishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘z MA fond 314, ro‘yhat 1, yig‘ma jild 46, varaq 3.
2. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4247, varaq 27.
3. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4254, varaq 104.
4. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4247, varaq 41.
5. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4254, varaq 138.
6. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4254, varaq 95.
7. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4247, varaq 75.
8. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4250, varaq 20.
9. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4247, varaq 67.
10. O‘z MA fond 314, ro‘yhat 1, yig‘ma jild 56, varaq 167.
11. O‘z MA fond 94, ro‘yhat 5, yig‘ma jild 4250, varaq 36.

UO’K 908

QASHQADARYO VILOYATIDA SOVET HOKIMIYATINING O‘RNATILISHI

B.R.Poyonov, magistrant, Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va bu jarayon bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida so‘z boradi. Bosmachilik harakati va mahalliy aholining sovet siyosatiga qarshiligi, sovetlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda olib borgan islohotlari yoritilgan. Xususan, kollektivlashtirish siyosati, sovet mafkurasi ta’siri hamda Qashqadaryodagi madaniy o‘zgarishlar ilmiy adabiyotlarga tayanilgan holda Qashqadaryo viloyatining XX asr boshlaridagi tarixiy jarayonlari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Sovet hokimiyati, Qashqadaryo vohasi, kollektivlashtirish, Mannon Ramziy, yosh qarshiliklar, yer-suv islohoti, bosmachilar.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается установление советской власти в Кашкадарьинской области и социально-политические события этого периода. Освещено движение басмачей и сопротивление местного населения против советской политики, а также советские реформы в социальной, экономической и культурной сферах. В частности, широко освещаются политика коллективизации, влияние советской идеологии и культурные изменения в Кашкадарье, опираясь на научную литературу, также исторические процессы Кашкадарьинской области начала XX века.*

Ключевые слова*: Советская власть, Кашкадарьинский оазис, коллективизация, Маннон Рамзи, молодые кашкадарьинцы, земельно-водная реформа, басмачи.*

Abstract. *This article examines the establishment of Soviet power in Kashkadarya region and the socio-political events that accompanied this process. It highlights the Basmachi movement and the resistance of the local population to Soviet policies, as well as the Soviet reforms in social, economic, and cultural spheres. In particular, it covers the policy of collectivization, the influence of Soviet ideology, and the cultural changes that took place in Kashkadarya based on scientific literature and historical processes in Kashkadarya region during the early 20th century.*

Keywords*: Soviet power, Kashkadarya Oasis, collectivization, Mannon Ramziy, Young Kashkadarians, land and water reform, basmachi.*

Qashqadaryo viloyati O‘zbeksitonning yirik janubiy vohasi bo‘lib 1917-yilgacha Qashqadaryo vohasi Buxoro amirligi va qisman Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligiga kirgan hududlardan biri edi. Vohada, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik rivojlangan bo‘lib, savdo karvon yo‘llari orqali ichki va tashqi bozorlarga ulangan edi. Voha aholisining ijtimoiy tarkibida dehqonlar, mirishkorlar, chorvadorlar va hunarmandlar asosiy qatlamni tashkil etar, mahalliy boshqaruv esa oqsoqollar, amirlik tomonidan tayinlangan amaldorlar va diniy ulamolar orqali olib borilar edi. Rossiya imperiyasining siyosati vohada sanoat va infratuzilma rivojiga nisbatan kam e’tibor berilgan, asosan, xom ashyo va resurslar eksportiga yo‘naltirilgan edi. 1917-yilgi Oktyabr inqilobidan so‘ng, Turkiston hududida sovet hokimiyatining o‘rnatilishi boshlangan bo‘lsa-da, Qashqadaryo viloyatida bu jarayon kechikib kechdi.

Buxoro amirligi mavjudligi, viloyatning tog‘li va geografik chekka hudud bo‘lishi kabi omillar sovetlarning bu yerda tezkor o‘rnashuviga to‘sqinlik qildi. 1920-yilga kelib Qizil Armiya va Turkiston frontining bosimi ostida Buxoro amirligi tugatilgach, sovet hokimiyati Qashqadaryo vohasida ham harbiy-siyosiy harakatlarni amalga oshirishga kirishdi. Qarshi va Kitob kabi hududlarda sovet ma’muriyati tuzildi, partiya tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Sovet hokimiyati Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyotni sotsialistik yo‘nalishga o‘tkazish uchun agrar islohotlar va kollektivlashtirish siyosatini joriy etdi. Sovetlar uchun bu hududda agrar sektorni to‘liq kollektivlashtirish, “kulaklar” va yirik yer egalari mulkini musodara qilish muhim vazifa bo‘ldi. Bu esa, mahalliy aholi o‘rtasida qarshilik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo‘ldi. Bosmachilik harakati vohada sovet hokimiyatiga qarshi eng yirik harakatlardan biri bo‘ldi. Madaminbek, Sultonmurod va boshqa mahalliy yetakchilar boshchiligidagi bosmachi guruhlar Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Qamashi va Dehqonobod tumanlarida faoliyat olib bordi. Bosmachilik harakati sovetlarning iqtisodiy va harbiy siyosatiga javob sifatida shakllandi. Sovetlarning majburiy soliq va mahsulot yig‘imlari, mahalliy qadriyat va diniy institutlarga qarshi siyosati bosmachilarning ommalashuviga sabab bo‘ldi. Qashqa vohasida sovet hokimiyatiga qarshi olib borilgan qariyib olti yillik milliy ozodlik harakatlari bir zum bo‘lsa-da tinmadi. Buxoro, Qashqa va Surxon vohalari, Sharqiy Buxoroda mustabid sovet tuzumi o‘rnatilishiga qarshi milliy ozodlik harakati vujudga keldi. Amirlik hududlarida milliy qarshilik kuchlarining qaror topishi tasodifiy emasdi. Qashqa vohasidagi asosiy bekliklarni Amir Olimxonning yaqin qarindoshlari boshqarib kelardi. Sovet hokimiyatining Buxoroga nisbatan tutayotgan bosib olish siyosati bekliklarni ham qamrab olardi.

Qarshi, G‘uzor, Beshkent, Kasbi, Denov, Yakkabog‘, Chiroqchi, Shahrisabz, Kitob, Koson kabi shahar va qishloqlarda 1919-yildan e’tiboran bosqinga qarshi tadbirlar ko‘paydi. “Yosh buxoroliklar” ta’sirida “Yosh qarshiliklar” jadidlarning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatladilar. 1919- yil kurash juda alg‘ov-dalg‘ovli kechdi. Bolsheviklarning harakati borgan sari kuchaydi. Qarshida shahar hokimi Tog‘aybek Amir Olimxonning qo‘llab-quvvatlashi bilan ehtimoli kun sayin kuchayib borayotgan bosqinga qarshi kuchlarni birlashtiruvchi tashkilot tuzadi. Qarshilik tashkilotiga Qashqa vohasining quyi hududlarida joylashgan qishloqlarning taniqli amaldorlari, boy-badavlat kishilari, harbiylar, ko‘zga ko‘ringan ruhoniylar a’zo bo‘ladi. Bir yil davomida qarshilik jamoasi kengayib, unga kirgan kishilar soni 70 taga yetadi. Bu haqida sovet hujjatlarida ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan xolos. 1924–1926-yillarda sovet hokimiyatining qat’iy harbiy amaliyotlari, bosmachilikka qarshi kurashish uchun mahalliy aholini safarbar etishi natijasida bosmachilik harakati zaiflashdi.

Sovet hokimiyatining asosiy vazifalaridan biri sifatida sinfiylik jamiyatini tugatishga qaratilgan siyosati o‘laroq amalga oshirildi. O‘zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi kotibi

Mannon Ramziy yig‘ilishlarning birida so‘zlagan nutqida “Qishloqda mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatishni batraklar va kambag‘allarning faol yordami bilan amalga oshirdik. Biz hozirda hayotga tatbiq etayotgan tadbirlarimiz natijalarini bundan keyin yanada mustahkamlab borishimiz kerak. Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm kabi qoloq okruglar haqida gapiriladigan bo‘lsa, aytish kerakki, ularda bu yil amaldorlar, savodsizlar mehnatsiz xo‘jaliklar tugatishga muvaffaq bo‘ldik” degan edi [4;137].

1925-yilda O‘zbekiston SSR tashkil topishi bilan Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining siyosiy va ijtimoiy islohotlari jadallashdi. Sovetlar va partiya tashkilotlari kengaytirilib, mahalliy kengashlar, sovetlar tashkil etildi. Qashqadaryo viloyatida ommaviy savodsizlikka qarshi kurash e’lon qilinib, xalq ta’limi tizimi rivojlantirildi. Yangi maktablar ochilib, bolalar va kattalar uchun kechki maktablar tashkil etildi. Komsomol tashkilotlari orqali yoshlar sovet mafkurasiga jalb qilindi. Shu bilan birga, diniy tashkilotlar va diniy ulamolar faoliyati cheklanib, ularga nisbatan qattiq choralar ko‘rila boshlandi. Sovet hokimiyati tomonidan markaz shahar Qarshini istilo etilishi o‘laroq bu hududda savdo-sotiq, sanoat va maishiy imoratlarning aksariyat qismi vayron qilinishi natijasida ko‘plab imoratlar bo‘shab qoladi.

1926-yil boshlarida Qarshi shahri nomi sovet hokimiyati tomonidan “Behbudiy” deb o‘zgartiriladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy taniqli ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining rahnamolaridan biri edi. Sovetlar uni hayotligida xush ko‘rmagan bo‘lsa-da, 1920-yilning sentabr oyi boshlarida Qarshida amalga oshirilgan qurolli qo‘zg‘olon chog‘ida o‘ldirilganligi bois, sovet hokimiyatiga qarshi kurashayotgan kuchlar ziddiga atay shunday yo‘l tutilgan edi. Qachonki, istibdod hokimiyati kuchayib, mustahkamlanib qudrati orta borgach, Turkistonni ozod va taraqqiyda ko‘rishni orzu qilgan Behbudiy nomi sovetlarga kerak bo‘lmay qoladi, 1937-yil oxirlarida shahar yana “Qarshi” nomi bilan ataldi.

1929-yildan boshlab sovetlar Qashqadaryoda ham kollektivlashtirish siyosatini kuch bilan joriy etdi. Voha aholisining 75 foizi dehqonlardan iborat bo‘lgan. Qashqadaryo okrug firqa qo‘mitasining ma’sul kotibi Yo‘ldosh Irismetov o‘z nutqida, “Yer-suv islohotini o‘tkazdik, batraklarni yerli qildik, boylardan va bizga yot bo‘lgan unsurlardan yerni tortib oldik, endi bu ishlarimizni mustahkamlaymiz, yangidan tuzilgan jamoa xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlashimiz kerak” deydi. Ma’sul kotib ma’ruzasida voha qishloq xo‘jaligiga oid dalillar ham keltirib o‘tiladi: “Yaxshi bilamizki, o‘tgan 1925, 1926, 1927-yillarda qurg‘oqchilik sababli, hosil bo‘lmadi. 1928-yil shu jihatdan yaxshi bo‘ldi, ijobiy natijalarga ega bo‘ldik. 1926-yilda okrugimizda sug‘oriladigan ekinlar maydoni 72923 tanob, 1927-yilda 87783 tanob darajasida bo‘lgan edi, 1928-yilda lalmi yerlar 112316 tanobga kengaytirildi” [4;143]. Bu kabi fikrlarning yuritilishi vohada yirik yer egalari va boylar mulklari musodara qilish, ular “kulak” va “xalq dushmani” deb e’lon qilinishi ortidan amalga oshirilgan edi.

Viloyatda bir nechta kolxoz va sovxozlar tashkil etilib, dehqonlar majburiy ravishda ushbu kollektiv xo‘jaliklarga qo‘shildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining katta qismi markazlashgan holda olib ketildi. Kollektivlashtirish natijasida viloyatda ocharchilik va iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi. 1931–1933-yillardagi ocharchilik viloyat aholisiga og‘ir ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida yer-suv islohotining siyosiy maqsadlari borgan sari yuzaga chiqib, aslida mustabid tuzum o‘ziga hech qachon el bo‘lmaydigan, dushmanlik kayfiyatidan voz kechmaydigan siyosatining natijasi o‘laroq edi.

Qishloqlarning sinfiy jihatdan boylar va batraklarga bo‘lib tashlanishi bolsheviklar dohiylarining kutganidan ham ortiqroq natijalar bera boshlagan, ularning ayrim faollari yuqoridagi singari tubanliklarni haddan oshiq manfaat, xudbinlikka ruju qilishi islohot ziynatiga aylanib boradi. Bu jihatdan G‘uzor shahrining Oxunboboyev mahallasida yashovchi o‘rtahol Ubaydulla qori Shodiyevning *GPU* (Davlat siyosiy ma’muriyati) ayg‘oqchilari tomonidan yozib olingan, shu sababli, bugungi avlodlarga qadar yetib kelgan mana bu so‘zlari diqqatni tortmay qolmaydi: “Yaqinda mening uyimga yer islohoti tufayli yer olgan batrak Yusuf Qiyoboyev bostirib kirdi va tut daraxtimni ag‘darib o‘tin qildi va tayorlab quygan 400 dona g‘ishtimni olib ketdi. Men unga to‘sqinlik qilmoqchi bo‘lgandim, u menga “agar qarshilik qiladigan bo‘lsang, tuman yer komissiyasiga xo‘jaligining tugatilishga tegishli deb ariza beraman va unda hamma bori budingdan ayrilib qolasan”, deb po‘pisa

qildi". Bilishimcha, hukumatning o'zi batraklarni talonchilik qilishga o'rgatdi", deydi Ubaydulla qori Shodiyev [4;175].

1930-yillarda sovet hokimiyati o'zining repressiv siyosatini kuchaytirdi. Qashqadaryo vohasida sovet hokimiyati mustahkam o'rnashib olishi asnosida savodsizlikka qarshi ommaviy harakat boshlandi. Savodsizlikni tugatish kampaniyasi orqali maktablar soni oshirildi, kechki maktablar va kurslar tashkil qilindi. Ushbu maktablarda bolshevik mafkurasi asosida ta'lim berildi. Diniy maktablar yopilib, ularning o'rniga sovet maktablari ochildi. Tarix, adabiyot, geografiya va boshqa fanlar sovet mafkurasiga moslashtirildi. Masalan, o'quvchilar Sovet Ittifoqi rahbarlari (Lenin, Stalin) hayoti va bolshevik inqilobining "ulug'vorligi" haqida o'rgatildi. Qarshi va boshqa yirik shaharlarda klub va madaniyat uylari ochildi. Teatr, kino va xalq san'ati orqali sovet mafkurasi targ'ib qilindi. Sovet hokimiyati an'anaviy xalq bayramlari va diniy marosimlarni cheklab, ularni eslamaslik, ularning o'rniga sovet bayramlarini keng joriy qilishga qaratdi. Teatr sahnalashtirishlarida ishchilar va dehqonlar qahramon sifatida ko'rsatildi, boylar va dindorlar esa "xalq dushmani" obrazida tasvirlandi. Sovet mafkurasini rad etgan yoki unga qarshi chiqqan ziyolilar, diniy ulamolar va sobiq amirlik davrining faollari "xalq dushmani" sifatida qaraldi. Bu orqali aholida qo'rquv va itoatkorlik kayfiyati shakllantirildi. Mahalliy ziyolilar, diniy ulamolar, sobiq bosmachilar va ularning tarafdorlari qatag'on qilindi. Ko'plab mahalliy ziyolilar va jamoatchilik faollari "xalq dushmani", "millatchi" va "bosmachi yordamchisi" kabi ayblovlar bilan hibsga olinib, O'zbekistondagi va Rossiyadagi lagerlarga yuborildi yoki otib tashlandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sovet hokimiyati viloyatda madaniyat va san'at orqali sovet mafkurasini singdirishga e'tibor qaratdi. Qarshi va boshqa yirik shaharlarda sovet matbuoti – gazetalar, klub va madaniyat uylari ochildi. Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining o'rnatilishi bosqichma-bosqich kechgan, bu jarayon davomida mahalliy qarshiliklar, harbiy amaliyotlar, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar birgalikda amalga oshirilgan. Sovet hokimiyati vohaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatib, tarixiy iz qoldirdi. Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining o'rnatilishi uzoq va murakkab jarayon bo'ldi. Bu jarayon mahalliy aholi hayotida ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Sovetlarning ijtimoiy-siyosiy islohotlari, iqtisodiy siyosati va qatag'on harakatlari vohaning XX asr boshlaridagi tarixini belgilab berdi. Sovet hokimiyatiga uning mustabidlik siyosatiga qarshi kurash bir zum tinmadi. Hukmron qizil saltanat qanchalik qudratli bo'lmasin, har qadamda xalq nafratiga uchradi, ochiq va yashirin qarshilik kurashlarida holdan toyib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'ulomov G'. O'zbekiston tarixi (1917–1991 yillar). – Toshkent: Fan, 2009.
2. Mirzaev S. Qashqadaryoda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. – Qarshi: Zarafshon, 2020.
3. Rasulov A. Qashqadaryo viloyati tarixidan sahifalar. – Qarshi: Nasaf, 2017.
4. Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Istibdod. Ikkinchi jild. – T.: Sharq, 2011.
5. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. – T.: O'qituvchi, 1996.
6. Abdullayev R., Rajabov Q., Rahimov M. O'zbekistonning tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.

UO'K 908

TASSRDA SOVET MAKTABLARINI TARIX FANI O'QITUVCHILARI BILAN TA'MINLASH MUAMMOSI VA UNI YECHISH YO'LLARI

R.M. Qodirova, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqola 1918-1925 yillarda TASSR da yangi tashkil etilgan sovet maktablarini hodimlarbilan ta'minlash muammosining o'ziga hos xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada o'rganilayotgan davrda oliy ma'lumotli hodimlar tayyorlash masalasi, O'rta Osiyoda tashkil etilgan dastlabki oliy ta'lim muassasalar, maktablardagi ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar borasida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, hodimlar yetishmovchiligi va uni bartaraf qilish yo'lidagi amalaga oshirilgan noto'g'ri siyosat borasidagi tadqiqodlar faktlar orqali o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *Turkiston ASSR, RSFSR maorif xalq komissarligi, Butunrossiya o'qituvchilar ittifoqi, Turkiston xalq universiteti, Toshkent sharq tillari instituti, K.A.Timiryazev nomli oliy pedagogika instituti*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу особенностей проблемы кадрового обеспечения вновь созданных советских школ в ТАССР в 1918-1925 годах. В статье представлена информация о подготовке кадров с высшим образованием в изучаемый период, первых высших учебных заведениях, созданных в Средней Азии, и изменениях, произошедших в системе школьного образования. Также исследования о нехватке кадров и ошибочной политике, проводимой для ее устранения, нашли свое отражение через представленные факты.*

Ключевые слова: *Туркестанская АССР, Народный комиссариат просвещения РСФСР, Всероссийский союз учителей, Туркестанский народный университет, Ташкентский институт восточных языков, Высший педагогический институт им. К.А.Тимирязева*

Abstract. *This article is dedicated to the analysis of the peculiarities of the problem of personnel support for newly established Soviet schools in the TASSR in 1918-1925. The article provides information on the training of higher education personnel during the period under study, the first higher educational institutions established in Central Asia, and the changes that occurred in the school education system. Also, research on staff shortages and the erroneous policies being pursued to eliminate them was reflected in the presented facts.*

Key words: *Turkestan ASSR, RSFSR People's Commissariat of Education, All-Russian Union of Teachers, Turkestan People's University, Tashkent Institute of Oriental Languages, K.A. Timiryazev Higher Pedagogical Institute*

Kirish. RSFSR va Turkiston ASSRda "sotsialistik" maorif tizimini barpo etish, maktablarning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini belgilash butunlay o'qituvchi hodimlarning bilim va salohiyatiga bog'liq edi. Lekin, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'sha vaqtda maktab o'qituvchilarining bir guruhi sovet hokimiyatiga nisbatan dushmanlik pozitsiyasini egalladi. Ikkinchi guruh esa mamlakatda ro'y bergan inqilobiy to'ntarishni nomiga tan olgan holda, amalda yangi hokimiyatining tarix o'qitish tizimini qayta qurishga qaratilgan tadbirlarini sabotaj qildi. Kompartiya va sovet davlatining maorif sohasidagi siyosatini qo'llab-quvvatlagan uchinchi guruh o'qituvchilar esa nihoyatda ozchilikni tashkil etardi.

Sovet maktablari paydo bo'la boshlagan dastlabki yillarda, bolshevik rahnamolar xohlagandek, tarixni yosh avlodga kommunistik ruhda o'qitish amri mahol bo'lgan, chunki bu vazifani amalga oshira oladigan, marksistik dunyoqarashga ega o'qituvchilarning o'zi yo'q edi. Ammo bolsheviklar va sovet davlati maktab ishini sotsialistik jamiyat barpo etishning muhim bo'g'ini va yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblardi. Shuning uchun maktablarga avtonomiya huquqini berish va maorifni siyosatdan xoli etish ularning rejalariga kirmas edi.

Adabiyotlarning tahlili va metodologiya. Mazkur ishdagi asosiy adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi sovet davrida yaratilgan adabiyotlar va ikkinchisi bu arxiv materiallari. Sovet davrida yozilgan adabiyotlardan L.P. Bushikning "Очерк развития школьного исторического образования в СССР" asari, R.E. Xoliqovaning "Ўзбекистонда тарих фани ва таълимини ривожлантириш, мутахасссилар тайёрлаш (ТошДУ тарих факултети мисолида, 1935-1994 йй.)", E.Q.Qodirovning "Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи" kabi adabiyotlardan, shuningdek, "15 yil icida Ozbekistan xalq maarifi (1924-1939)" nomli maqolalar to'plamidan foydalanilgan.

Biz tadqiq qilgan mavzuga oid asosiy manba bu arxiv materiallari hisoblanadi. Ishda asosan O'z MA ning R-2748 fondi, R-36 fondi, R-17 fondi hujjatlariga tayanib ko'plab yangi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Farg'ona viloyati davlat arxivining R-83 fondi, R-131 fondidan olingan hujjatlardagi ma'lumotlar orqali ko'plab ma'lumotlar ilmiy muomilaga kiritilgan.

Mazkur mavzuda o'rganilayotgan ilmiy maqolada ma'lumotlarni tizimlashtirish, muammolarni kompleks umumlashtirish, tahlil va davrlashtirish, tarixiylik, xolislik tamoyillari kabilar, shuningdek, solishtirma va kompleks tahlil, davrlashtirish kabi usullardan ham keng foydalanilgan.

Natija va muhokama. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ta’limni hayotga yaqinlashtirish, tarix o‘qitishni hozirgi zamon bilan, kommunistik partiya va sovet hukumatining siyosati bilan bog‘lash yangi maorif organlari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etdi. Maktabda tarixning qaysi davrlari va qaysi voqealarni o‘qitish kerak, degan savol o‘sha zamonda muhim pedagogik va siyosiy ahamiyat kasb etdi. Tarix ta’lim tizimi va mazmunida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun, avvalambor, o‘qituvchi hodimlarning tarkibini yaxshilash, ularning bilim darajasi va siyosiy saviyasini oshirish zarur edi. Buning uchun maorif organlari qo‘yidagi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdilar:

birinchidan, maktabni “aksiliqilobiy va antisovet unsurlar”dan tozalash;

ikkinchidan, tarix o‘qituvchilarini “burjua mafkurasi”dan ozod etish va sotsialistik mafkurani o‘zlashtirishlariga erishish, ularning jamiyat va maktabda o‘zlarining yangi rolini anglab yetishlariga yordam berish;

uchinchidan, sotsializm ishiga sodiq yangi rahbar va pedagogik hodimlarni tayyorlash.

Maktablarda mehnat qilayotgan pedagog va xodimlar tarkibining yangilanishiga Maorif bo‘yicha davlat komissiyasining 1918-yil 27-fevralda qabul qilgan “Barcha pedagogik va ma’muriy-pedagogik mansablarga saylov yo‘li bilan tayinlash to‘g‘risida” gi qarori yordam berdi. Mazkur qarorda, o‘qituvchilik diplomining yo‘qligi lavozimni egallash uchun to‘siq bo‘lolmaydi, deb yozib qo‘yildi. Demak, o‘qituvchilik qilishga huquq beruvchi hujjati bo‘lmagan shaxs ham maktabda ishlashi mumkin edi. Ushbu qarorga binoan o‘tkazilgan saylovlar tufayli sovet davlatiga maqbul bo‘lmagan ko‘p rahbar va o‘qituvchi hodimlar maktabdan quvildi. Ayni vaqtda maorif tizimiga diniy va monarxistik qarashlardan ozod bo‘lgan, yangi yosh hodimlar jalb etildi. Inqilobdan oldin siyosiy qarashlari uchun ishdan bo‘shatilgan o‘qituvchilar maktabga qaytdilar. Xususan, ijtimoiy-tarixiy fanlar o‘qituvchilarining tarkibi jiddiy ravishda o‘zgardi. Bu fanlardan dars berish uchun kommunistlar, komsomollar hamda bolsheviklar partiyasiga xayrixoh bo‘lgan kishilar, jumladan, fuqarolar urushi frontlarda sovet hokimiyati uchun jang qilgan shaxslar jalb qilindi.

Maorif xalq komissarligi eski o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularni kommunistik ruhda qayta tarbiyalashga qaratilgan ishlarni boshlab yubordi. Xorijiy harbiy intervensiya va fuqarolar urushining kuchayib borishiga qaramay, 1918-yilning yozida RSFSR MXK va uning joylardagi organlari o‘qituvchilarni qayta tayyorlash maqsadida mamlakat bo‘yicha 100 dan ortiq kurslar tashkil etdilar[1] .

Maorif tizimini rivojlantirilish zarurati o‘qituvlarga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortishiga olib keldi. Ammo qisqa muddat davomida ko‘p miqdorda, yetarli bilim va malakaga ega o‘qituvchi hodimlar tayyorlashning iloji yo‘q edi. Ayni vaqtda, sovet maktablarini hodimlar bilan ta’minlash muammosini uzil-kesil hal etish uchun yangi, ishchi-dehqon tabaqasidan yetishib chiqqan pedagoglar tayyorlashni taqozo etardi. Shuning uchun 1918-1925-yillarda Turkistonda dastlabki oliy o‘quv yurtlari, pedagogik kurslar, pedagogika bilim yurtlari va texnikumlar, maorif institutlari tashkil etildi. Inqilobdan oldingi davrda O‘rta Osiyoda oliy ma’lumotli mutaxassislar, shu jumladan malakali pedagoglar tayyorlaydigan zamonaviy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lgan emas. Shuning uchun sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Turkistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini ochish, bu yerda yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan, pedagog hodimlar tayyorlash dolzarb masala edi.

1918-yilning 21-aprelida Turkiston xalq universitetining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Universitet direktori etib muqaddam Petrograddagi gimnaziyada dars bergan va Ayollar oliy kursida privat-dotsent bo‘lib ishlagan A.V.Popov tayinlandi. Turkiston xalq universitetida bir necha fakultetlar tashkil etilib, ulardan biri tarix-filologiya fakulteti edi. Universitetga qabul qilingan 560 nafar talabadan 103 nafari ushbu fakultet talabalari edilar[2].

1919-yil dekabr oyida Turkiston xalq universitetiga davlat universiteti maqomi berildi. 1920-yilning aprel-noyabr oylari davomida Petrograd va Moskvadan Toshkentga 70 ga yaqin vagonda professor-o‘qituvchilar va ularning oila a’zolari, asbob-uskunalar, jihozlar va kitoblar yetib keldi. Yangi universitetning Markazdan kelgan bo‘linmasi bilan Toshkentdagi tuzilma qo‘shilib, to‘laqonli yagona davlat universiteti vujudga keldi. 1920-yil 7-sentabrda RSFSR XKS raisi V.I.Lenin Toshkentda Turkiston davlat universitetini ochish to‘g‘risidagi dekretni imzoladi[3]. Shu tariqa, O‘rta

Osiyoda zamonaviy oliy ta'lim tizimiga tamal toshi qo‘yildi. Bu voqea tarix fanini rivojlantirish hamda tarix o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1923-yildan ushbu oliygoh nafaqat Turkiston ASSR, balki Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalari uchun ham hodimlar tayyorlashga kirishdi. Shuning uchun Turkiston davlat universiteti O‘rta Osiyo davlat universiteti (SAGU – Sredne-Aziatskiy gosudarstvennыy universitet) deb atala boshlandi. Universitet O‘zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda katta ijobiy rol o‘ynadi. Keyinchalik respublika poytaxtida tashkil etilgan yangi oliy o‘quv yurtlari, jumladan tibbiyot, politexnika, pedagogika, qishloq xo‘jalik institutlari universitet bazasida vujudga keldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, universitet tashkil topgan dastlabki yildan tarix-filologiya fakulteti ochilgan bo‘lib, bu yerda malakali tarixchi hodimlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Ammo 1921-yilda mamlakatdagi barcha universitetlarda, shu jumladan Turkiston davlat universitetida tarix fakulteti yopilib, ijtimoiy fanlar fakulteti ochildi. Tarix ham ushbu fakultet tarkibiga kirdi[4].

O‘rta Osiyodagi dastlabki oliy o‘quv yurtlaridan yana biri Toshkent sharq tillari instituti edi. Institut 1918-yilda tashkil etildi. Institutning birinchi rektori etib etnograf va tarixchi olim M.S.Andreyev tayinlandi. Institut to‘g‘risidagi nizomda uning asosiy vazifasi Turkiston xalqlari tarixi, turmushi, tili va madaniyatini o‘rganish, qo‘shni mamlakatlar tillarini biladigan sharqshunos hodimlar tayyorlash, deb ko‘rsatilgan edi. Unda talabalar sharq tillari bilan bir qatorda Sharq tarixi va etnografiyasini o‘rganishlari nazarda tutilgan edi[5].

RSFSR maorif xalq komissarligi tomonidan yangi pedagog hodimlar tayyorlash maqsadida oldingi o‘qituvchilar tayyorlash seminariyalari uch yillik pedagogik kurslarga, o‘qituvchilar institutlari esa oliy pedagogika institutlariga aylantirildi. Uch yillik pedagogik kurslar va pedagogika institutlari dasturiga sotsiologiya, siyosiy iqtisod, sotsializm tarixi, sovet konstitutsiyasi kabi fanlar kiritildi[6].

O‘rta Osiyoda birinchi pedagogika oliygohi 1920-yilda Toshkentda ochilgan K.A.Timiryazev nomli oliy pedagogika instituti edi. Ushbu institutda maktablar uchun yuqori malakali hodimlar tayyorlashi nazarda tutildi. Ammo o‘sha yiliyoq bu institut alohida pedagogika fakulteti sifatida Turkiston davlat universitetiga qo‘shib yuborildi[7]. Amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay, Turkiston ASSRda oliy ma'lumotli o‘qituvchilarning salmog‘i nihoyatda past edi. Shuning uchun respublikada pedagogik hodimlar tayyorlashning yana bir bo‘g‘ini – pedagogika texnikumlari va bilim yurtlarini tashkil etishga kirishildi. Dastlabki bunday bilim maskanlari Olma-Ota, Qo‘qon va Samarqand shaharlarida ochildi.

1920-yilda Farg‘ona viloyatining yangi markazi – Qo‘qon shahrida pedagogika texnikumini *(o‘sha vaqtda "ta'lim-tarbiya texnikumi" deb atalgan)* ochishga qaror qilindi. Shu munosabat bilan Farg‘ona shahrida faoliyat olib borgan ilk II bosqich maktab butun jihozlari va o‘quvchilari bilan Qo‘qonga ko‘chirildi. Shu vaqtda Qo‘qonda dorulmuallimin deb atalgan ta'lim-tarbiya kursi faoliyat olib borgan. Ko‘chirib kelingan II bosqich o‘zbek maktabi va dorulmuallimin negizida Qo‘qonda pedagogika texnikumi tashkil etildi. Texnikum qoshida namunaviy maktab va internat ochildi. Texnikum va internat o‘quvchilari xarajatlari davlat hisobidan qoplangan: ularga tekinga ovqat, kiyim-bosh, o‘quv qurollari, yozuv-chizuv anjomlari berilgan. Texnikum qoshida Farg‘ona viloyat maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlash bo‘yicha qisqa muddatli kurslar muntazam ishlab turgan; bu yerda yosh o‘qituvchilar uchun konsultatsiyalar o‘tkazilgan, pedagogik, uslubiy va ijtimoiy-ilmiy mavzularda ma'ruza va chiqishlar qilingan[8]. 1924-yilda texnikumni ilk bitiruvchilari o‘qishni tamomlaydilar .

Sovet maktablari uchun o‘qituvchi hodimlar tayyorlashda maorif institutlari (ruscha "inpros" – институт просвещения) muhim rol o‘ynadi. Maorif institutlarida ta'lim ikki-uch yil davom etardi. Bu institutlarning bitiruvchilari to‘liqsiz oliy ma'lumot egasi bo‘lib, umumta'lim fanlar, shu jumladan tarixdan ham dars berish huquqiga ega bo‘lardilar. 1920-yilda TASSRda 2 ta o‘zbek (erkaklar va ayollar uchun), bittadan qirg‘iz (qozoq), turk-tatar, turkman, mahalliy yahudiy va tojik maorif institutlari ta'sis etildi. 1922-yilda maorif institutlari birinchi marta o‘z bitiruvchilariga hayotga yo‘llanma berdi. Inproslar hammasi bo‘lib bir mingga yaqin o‘qituvchi hodimlar tayyorlab chiqardi. 1929-yilda ular pedagogika texnikumlariga aylantirildi[9]. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida maktablar sonining tez ortib borishi tufayli ularni nafaqat oliy yo o‘rta maxsus, hatto o‘rta ma'lumotli

o‘qituvchilar bilan ham ta’minlashning iloji yo‘q edi. Shu boisdan imkon qadar tezroq o‘qituvchi hodimlar tayyorlash maqsadida Turkistonda qisqa muddatli pedagogik kurslar tashkil etildi. Odatda bu kurslar 6-7 oyga (o‘qish muddati yana qisqaroq bo‘lishi mumkin edi) mo‘ljallangan bo‘lib, ularda ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlanardi. Bu, albatta, masalaning tugal yechimi bo‘lmay, qiyin vaziyatdan chiqish uchun vaqtinchalik chora edi.

Shunday pedagogik kurslardan biri 1918-yilning iyul oyida Samarqand shahrida ochildi. Bu kurs turli millat vakillari uchun mo‘ljallangan edi. Kursantlar bepul yotoqhona va ovqat bilan ta’minlandi. Toshkentda esa yangi sovet maktablari uchun o‘qituvchi hodimlar respublika maorif xalq komissarligi huzurida tashkil etilgan pedagogik kurslarda tayyorlana boshlandi. 1918-yil iyul oyida Yettisuvda ham qisqa muddatli pedagogik kurslar o‘z faoliyatini boshladi. Shu yilning ko‘zida Toshkentda qirg‘izlar (qozoqlar) uchun mo‘ljallangan yana bitta yetti oylik pedagogik kurslar ochildi. Ukrain, arman, yahudiy millatlaridan o‘qituvchilar tayyorlash maqsadida ular uchun ham alohida milliy kurslar tashkil etildi. Odatda pedagogik kurslar faoliyati davlat tomonidan moliyalashtirilar edi. Ammo ularning ta’minotida o‘zilish ro‘y berganda, kurslarga vaqf boshqarmalari va mahalliy sovet organlari moliyaviy ko‘mak berardilar. Masalan, 1923-yilda Andijon shahrida faoliyat olib borgan pedagogik kurslar qiyin vaziyatga tushib qolganda, vaqf sho‘rosi yordam qo‘lini cho‘zdi. Ikkinchi misol: xuddi shu paytda pedagogik kurslarda tahsil olayotgan 5 nafar haqqulobodlik talabaning ehtiyojlari uchun Haqqulobod inqilobiy qo‘mitasi 50 ming rubl mablag‘ ajratdi[10].

1918-yilning iyulidan 1920-yilning sentabriga qadar Turkistonning turli shaharlarida ochilgan qisqa muddatli tayyorlov kurslarini 1 141 nafar, 1920-yilning sentabridan 1921-yilning iyuliga qadar 3 282 nafar tinglovchi bitirdi Shunday qilib, qisqa muddatli kurslar orqali o‘qituvchi hodimlar tayyorlash va qayta tayyorlash miqyosi kengayib bordi. Shu yo‘l bilan tobora kengayib borayotgan sovet maktablari shoxobchalarini o‘qituvchi hodimlar bilan ta’minlash masalasi qisman bo‘lsa-da, hal etib borildi. Keyingi yillarda ham O‘zbekistonda kurslar yo‘li bilan o‘qituvchchilar tayyorlash takrorlanib turdi va faqat 1944-yilda batamom tugatildi[11] . Maktablarda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning bilim va metodik saviyasi yuqori bo‘lmaganligi bois xalq ta’limi bo‘limlari ularning malakasini oshirish rejalarini tuzdilar. Ammo bu rejalar doimo amalga oshmas edi. Masalan, Andijon uyezd xalq maorifi bo‘limi 1924-yilda mablag‘ yo‘qligi bois musulmon o‘qituvchilari malakasini oshirish kursining ishini yo‘lga qo‘ya olmadi[12].

Tajriba-namunaviy maktablar qoshida faoliyat tashkil etilgan kurslar ham o‘qituvchilar tayyorlash va qayta tayorlashning shakllaridan biri edi. 1923-yilda shunday kurslar Toshkentdagi Chernishevskiy nomidagi tajriba-namunaviy maktab qoshida ochildi. Kursni ochishdan asosiy maqsad tinglovchilarni o‘qitishning yangi uslublari bilan tanishtirish, ularga yagona mehnat maktabining tamoyillari va vazifalarini tushuntirib berish, o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish edi[13].

Xulosa. Turkiston o‘lkasida tarix fani ilk marotaba Rossiya imperiyasining hukmronligi yillarida bu yerda tashkil etilgan rus ta’lim muassasalari – boshlang‘ich maktablar, noto‘liq o‘rta maktablar (oliy boshlang‘ich bilim yurtlari va progimnaziyalar) va to‘liq o‘rta maktablar (gimnaziyalar va real bilim yurtlari), shuningdek, rus-tuzem maktablarida o‘qitila boshlandi. Bu ta’lim o‘choqlarida asosan umumiy tarix va Rossiya tarixi o‘qitilgan, Turkiston tarixi esa deyarli o‘tilmagan. Tarix darslari asosan savol-javob shaklida yoki verbal (mavzuni o‘quvchilarga og‘zaki so‘zlab berish) tarzida olib borilgan. O‘tmish asosan oldingi zamonlarda hukmronlik qilgan podsholar davrlari bo‘yicha bayon qilingan. Darslik kitoblarda siyosiy voqealarni ochib berishga urg‘u berilgan, ijtimoiy va madaniy hayot masalalari e’tibordan chetda qolgan. Rossiya imperiyasi ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitish o‘ta siyosiylashgan bo‘lib, darslarda o‘quvchilarni podshoh tuzumi va pravoslav ta’limotiga sadoqat ruhida tarbiyalashga urg‘u berilgan. Yosh avlodni ilg‘or mamlakatlarda rivojlanib borayotgan demokratik jarayonlardan, inqilobiy harakatlardan bexabar “saqlash” uchun yangi o‘quv tarix fani deyarli o‘qitilmas edi.

Tarix o‘qitish mazmunining o‘zgarib borishi hamda rahbar va o‘qituvchi hodimlar tarkibining yangilanishi bilan o‘quv-tarbiya ishlarida o‘zgarishlar ko‘zga tashlandi. Dars jarayonida tobora eski metod va usullardan voz kechilishi kuzatildi. Darslik kitobni yodlash o‘rniga darslarda ko‘proq o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilagan usullar – mahalliy materiallardan foydalanish, mustaqil

tarzda yozma ish va referatlar tayyorlash, ekskursiyalar uyushtirish, ko‘rgazmali qurollar yasash, rasm va sxemalar chizish, diagrammalar va kontur xaritalar tuzish, gazeta va jurnallardan olingan materiallardan foydalanish kabi usullar qo‘llanildi.

Ammo shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, avval-boshdanoq kompleks dasturlardagi qo‘yidagi salbiy tendensiya yaqqol namoyon bo‘ldi: ularda bilimlar tizimi fanlar tizimiga qarama-qarshi qo‘yilgan edi. Bu hol o‘quvchilar bilim darajasining sayozlashuviga, ularning urab turgan olam haqidagi tasavvurlarining qashshoqlashuviga olib kelardi.

Shunday qilib, Turkiston ASSRda 1918-1924-yillarda dastlabki sovet maktablari tashkil etilib, ularda tarix va jamiyatshunoslik fanlarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Bu fanlar bo‘yicha ilk o‘quv dasturlari va darsliklar tayyorlanib, nashr etildi. Turkiston davlat universiteti, pedagogik texnikumlar va o‘qituvchilar institutlari, ko‘p sonli qisqa kurslar orqali o‘qituvchi hodimlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Tarix va jamiyatshunoslik fanlarini o‘qitish tizimini shakllantirish borasida dastlabki qadamlar qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Бущик Л.П. Очерк развития школного исторического образования в СССР. – С. 146.
2. ToshDU: Ilm va ma’rifat maskani. – Toshkent: Universitet, 1995. – B. 15. (Keyinchalik: ToshDU: Ilm va ma’rifat maskani
3. ToshDU: Ilm va ma’rifat maskani. – B. 40-41.
4. Xoliqova R.E. O‘zbekistonda tarix fani va ta’limini rivojlantirish. – B. 36.
5. Положения о Восточном институтъ с перечнем предметов преподавания // O’zMA. F. 34. R. 1. Yj. 125. V. 39-40
6. Бущик Л.П. Очерк развития школного исторического образования в СССР. – С. 147.
7. Serbov P.Y. Universitetlar, pedagogik va oqituvcilar institutlari // 15 yil icida Ozbekistan xalq maarifi (1924-1939). – Taskent: OzSSR davlat oquv-pedagogik nashrijoti, 1939. – B. 65.
8. Қори-Ниёзий Т.Н. Ҳаёт мактаби. – Б. 168-170; Қодиров Э.Қ. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи. – Б. 33-34.
9. Rajabov S. O‘zbekistonda sovet maktabi tarixiga doir. – B. 27.
10. “Darxon” gazetasi, 1923 yil 19 iyul, 9-son // Vodiynoma. 2023. № 3.
11. Ражабов С. Ўзбекистонда совет мактаби тарихига доир. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1957. – Б.25.
12. В облинспексию НКП // FVDA. F. 83. R. 1. Yj. 38. V.84.
13. Қодиров Э.Қ. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи. – Б. 35.]

UO’K 908

XX ASRNING 50-60 YILLARIDA QARSHI CHO‘LINI O‘ZLASHTIRISH TADBIRLARI

I. Qulto‘rayev, doktorant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asrning 50-60 yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirish borasida Sovet hukumati tomonidan olib borilgan tadbirlar tarixi va buning turli oqibatlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qarshi cho‘li, Amudaryo, Kelif uchastkasi, Amu-Buxoro kanali, Qarshi magistral kanali, Qiziloyoq uchastkasi, Tallimarjon suv ombori, Sho‘rsoy suv ombori*

Аннотация. *В данной статье освещается история мероприятий, проводимых советским правительством по освоению Каршинской пустыни в 50-60-е годы XX века, и различные последствия этого.*

Ключевые слова: *Каршинская пустыня, Амударья, участок Келиф, Аму-Бухарский канал, Каршинский магистральный канал, участок Кызылояк, Таллимарджонское водохранилище, Шорсойское водохранилище*

Abstract. *This article covers the history of the activities carried out by the Soviet government in the 50-60s of the 20th century on the development of the Karshi desert and various consequences.*

Key words: *Karshi desert, Amu Darya, Kelif section, Amu-Bukhara canal, Karshi main canal, Kyzyloyak section, Tallimarjon reservoir, Shorsoy reservoir.*

XX asrning 50-yillaridan e’tiboran Qashqadaryo vohasida yirik sug‘orish inshootlarini barpo etish, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish ishlari jadal olib borildi. Qarshi tekisligida bu davrda taxminan 720

ming gektar yer o‘zlashtirishga yaroqli bo‘lib, shundan 63 ming gektar hududida eski irrigatsiya tarmoqlari mavjud bo‘lgan. Qarshi cho‘lini sug‘orish uchun Amudaryodan suv olish masalasi 1954 yilda boshlanib, bu loyihani o‘rganish bosh muhandis S.A.Buyukov rahbarligida «Sredazgiprovodxlopok» instituti tomonidan amalga oshirilib, S.A. Buyukov «Amudaryo havzasidagi suv-yer resurslaridan foydalanishning umumiy loyihasi»ni tuzib chiqdi. Loyihaga ko‘ra, Kelif uchastkasidan suv oladigan, Buxoro viloyatini suv bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan 155 km uzunlikdagi Amu-Buxoro kanalini qurish rejalashtirildi. Shu bilan birga loyihada uzunligi 185 km bo‘lgan Qarshi magistral kanali (QMK) qurilishi haqida ham so‘z borgan. Sug‘oriladigan yer maydonlari shu kanal orqali sug‘orilishi rejalashtirilgan.

Amu-Buxoro kanalning uzunligi Amudaryodan Zarafshon daryosigacha 522 km masofada ekanligi tufayli qurilish ishlari katta mablag‘ talab qilgan. Bu bilan loyihani qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelgan. Loyiha ishtirokchilar Buxoro vohasiga Amudaryo daryosidan navbat bilan suv yetkazib berish yo‘llarini izlay boshlagan. Ba’zi sug‘orish inshootlarni qurilishidan voz kechishga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, Amudaryodan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Qarshi kanaliga suv tortilishi haqida fikr o‘rtaga tashlangan [1].

1959 yil 27 yanvardan 5 fevralga qadar KPSSning navbatdan tashqari XXI s’ezdi o‘tqazilib, unda 1959-1965 yillarda SSSR xalq xo‘jaligini rivojlantirish uchun paxta yetishtirishni tezlik bilan keskin ko‘paytirish belgilangan, natijada O‘zbekistonda suv xo‘jaligini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratila boshlangan.

1960 yilda O.N. Lyamin boshchiligida «Sredazgiprovodxlopok» instituti tomonidan «Amudaryo suvlari bilan Qashqadaryoning quyi oqimini nasos bilan sug‘orish to‘g‘risida texnik-iqtisodiy hisobot (TIH)» tuzib chiqilgan. Unda Qarshi cho‘lini nasos bilan sug‘orishning mumkin bo‘lgan variantlarini ishlab chiqish, Amudaryo suvlari bilan Qarshi cho‘lini nasosli sug‘orish bo‘yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning texnik va iqtisodiy jihatdan muvofiqligi va gidrotexnik inshootlarning hamda nasos agregatlarining parametrlarini aniqlash, ish hajmini, ularning narxini ishlab chiqish kerak bo‘lgan.

O‘rganishlar natijasida QMK yo‘nalishini Qiziloyoq uchastkasidan Amudaryoga boradigan eng qisqa yo‘l bo‘ylab yotqizish va kanalning Qashqadaryo quyi oqimining aholi yashaydigan qismini suv bilan ta’minlash rejasi taklif qilingan. Qiziloyoq uchastkasida vaqtincha suvsiz suv olish moslamasini, kanalning dastlabki uchastkasida – vaqtinchalik nasos stansiyasini qurish rejalashtirilgan. Ular Kelif uchastkasidan Amu-Buxoro kanali qurilgunga qadar ishlaydi deb taxmin qilingan. 1954 yilgi loyihaga ko‘ra kelgusida QMKni Amu-Buxoroga ulash rejalashtirilgan. Hisobotda ko‘rsatilishicha, QMKdagi suv olish joyini Kelif to‘g‘on gidroelektr majmuasining bosh suvidan boshlanadigan kanalga joylashtirish ancha mablag‘ni tejaydi. Bu muammoning to‘liq va murakkab yechimini berdi. Ammo Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishni tezlashtirish zarurati tufayli Qiziloyoq uchastkasida vaqtincha suv olishdan foydalanishga qaror qilindi. «Sredazgiprovodxlopok» instituti, shuningdek, Qiziloyoq uchastkasida bir vaqtning o‘zida o‘ng qirg‘og‘i Qarshi va chap qirg‘og‘i Qoraqum kanallariga suv olishini ta’minlash uchun doimiy to‘g‘on gidroelektr majmuasini qurish masalasini ham ko‘rib chiqilgan [5].

Bu davrda Qarshi cho‘lida qishloq xo‘jaligiga yaroqli 1 million gektarga yaqin maydonlar mavjud bo‘lib, ular faqat mashinali suv ko‘targich yordamida sug‘orilishi mumkin edi. Bu joylarga suv yetkazib berish Qarshi magistral, Sho‘rsoy tarmog‘i, shuningdek, tizim ichidagi katta suv omborlari – Tallimarjon va Sho‘rsoy suv omborlari orqali ta’minlanishi nazarda tutilgan. Birinchi navbatda QMK orqali keladigan suv bilan qariyb 200 ming gektar yerlarni, ikkinchi navbatda Sho‘rsoy kanali orqali qariyb 300 ming gektar yerlarni sug‘orish rejalashtirilgan.

Olib borilgan tadbirlar natijasida Qarshi cho‘lidagi yerlarni mashinali suv ko‘targich asosida o‘zlashtirish kapital quyilmalar hajmi va boshqa texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

1962 yil iyun oyida O‘zSSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi ministrligi tomonidan texnik hisobot tasdiqlangan [4]. Sug‘orishning dastlabki bosqichidagi yerlarni o‘zlashtirish uchun loyiha topshirig‘ini tuzish boshlangan.

Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish to‘g‘risidagi qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘p o‘tmay cho‘lda loyiha-qidiruv va qurilish ishlari avj olgan. Qarshi cho‘li ob’ektlarini loyihalash bo‘yicha sovet davlatining 23 ta loyihalash instituti ish olib borgan.

1961 yil oktabrda o‘tkazilgan KPSS XXII s’ezdida cho‘l hududlarda millionlab gektar yangi yerlarni sug‘orish va mavjud sug‘oriladigan yerlardan hosilni ko‘paytirish, sug‘orish tizimining keng dasturini bajarish asosiy vazifa qilib belgilangan. Boshqa hududlarda bo‘lgani kabi Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligida paxta va ekin maydonlarini kengaytirish maqsadida Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishga kirishilgan. 1963 yil 16 aprelda Sovet hukumatining Qarshi cho‘lida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish bo‘yicha 55 sonli buyrug‘i qabul qilingan. Unga ko‘ra cho‘lni o‘zlashtirish hududiy boshqarmasi tuzish belgilangan. Bu boshqarma Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda asosiy quruvchi boshqarma bo‘lgan [4].

1963 yilning 26 fevralida SSSR Davlat reja qo‘mitasining Davlat ekspert komissiyasi qarori bilan Qarshi cho‘lidagi qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish ishlarini 1975 yilgacha tugallash maqsadga muvofiqligi aytildi. Shunday qilib, 1963-yil 1-avgustdagi O‘zSSR Ministrlar Soveti va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 431 sonli «Qarshi cho‘lida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish ishlari to‘g‘risida» gi qarori qabul qilingan. Bu qaror cho‘lni kompleks ravishda o‘zlashtirishni nazarda tutgan. Bu esa o‘z navbatida Respublikada qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘ziga xos tajriba namunasi sifatida namoyon bo‘lgan. Hukumatning qaroridan so‘ng cho‘lda qurilish ishlari boshlangan.

Cho‘lni o‘zlashtirishda ishlarni kompleks tashkil qilish tajribasi yo‘lga qo‘yilgan. Ya’ni, irrigatsiya-melioratsiya, sovxoz qo‘rg‘onlari bunyod qilish, yo‘l qurilishi va malakali kadrlar tayyorlash ishlari bir vaqtning o‘zida birga olib borilgan. Respublikada Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda aynan shu jihatlarga e’tibor qaratilgan. Yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadida qurilish ishlari «Glavsredazirsovxozstroy» tarkibida tashkil qilingan «Qarshiqurilish» boshqarmasiga topshirilgan va boshqarma zimmasiga vazifalar yuklangan [3].

Boshqarmaga Qarshi cho‘li sug‘orish va o‘zlashtirishning texnik tizimini yaratish, paxtachilik xo‘jaliklarini mexanizatsiyalash, melioratsiya inshootlari, madaniy-maishiy ob’ektlarni qurishni amalga oshirishni tashkil qilish belgilangan. Paxtachilik xo‘jaliklarida sanoat, qurilish materiallari, ta’mirlash zavodlarini qurish, «Qarshiqurilish» boshqarmasi uchun joy va uning tashkilotlarini tuzish va ularning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash topshirilgan. «Sredazirsovxozstroy»ning buyrug‘iga asosan bosh boshqarmaning texnik, kapital qurilish, ishlab chiqarish taqsimoti va kelajakda Amudaryo suvi bilan mashina kanali orqali Qarshi cho‘li yerlarini o‘zlashtirish kabi vazifalar yuklatilgan [1].

Qarshi cho‘lining birinchi navbatini o‘zlashtirish va sug‘orish ishlariga 1 mlrd. 960 mln. rubl kapital mablag‘ ajratish, 47 davlat xo‘jaligi, shundan 33 ta paxtachilik xo‘jaliklari yuzaga keltirish masalasi qo‘yilgan. 1970 yilga qadar 7 ta davlat xo‘jaligi, 50 ming gektar yer o‘zlashtirish «Qarshiqurilish» bosh rejasiga kiritilgan.

Cho‘lni o‘zlashtirish va sug‘orish uchun kapital mablag‘lar ajratilishi bilan bir qatorda Qarshi cho‘liga mehnat resurslarini ta’minlash hamda moddiy texnika ta’minotini yetarli darajada yetkazishdek ustuvor vazifalarni ham bajarish kerak bo‘lgan. Eng avvalo Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish ishlari uchun 1963 yil o‘rtalaridan boshlab qurilish guruhlari tashkil qilingan. Bu tadbir uchun Moskva, Leningrad, Kuybishev, Toshkent institutlari loyihalarni tayyorlagan. Ural Qarshi magistral kanali suvini ko‘tarib beradigan noyob nasoslarni, Minsk, Kremenchug, Gorkiy shaharlari MAZlar, KRAZlar va boshqa mashinalarni, Sibir yog‘och-taxta, turli uskunalarni yuborgan [2].

«Sredazgiprovodxlopok» institutining Qarshi cho‘lini sug‘orish va o‘zlashtirishning sxema-bosh rejasining yakuniy varianti 1963 yil 21 avgustda SSSR Davlat qurilish tomonidan tasdiqlangan.

Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish rasman 1963 yil 26 avgustdan boshlangan. Qarshi cho‘lida irrigatsiya va melioratsiya ishlari 1964 yildan boshlangan. «Qarshiqurilish» boshqarmasi boshlig‘i B.U. Usmonov va bosh muhandis N.G.Kamenev ko‘p yillar davomida qurilish ishlariga rahbar bo‘lib ishlashgan. SSSR Davlat qurilishi tomonidan tasdiqlangan bosh reja 1965 yilda «Qarshiqurilish» boshqarmasiga berildi. Sxema bosh rejasiga ko‘ra cho‘ldagi sug‘orish uchun yaroqli yerlar 959 ming gektardan iborat bo‘lib, bu yerlarning 877 ming gektari Qashqadaryo viloyatiga tegishli bo‘lgan.

Qurilishga ajratilgan mablag‘lar miqdori oshib borgan. Masalan, 1965 yil 1 mlrd rubldan ko‘proq davlat mablag‘i sarflangan [6].

1963 yil avgustda «Glavsredazirsovxozstroy» ning topshirig‘i bilan «Sredazgiprovodxlopok» instituti mutaxassislari E.I. Ozerskiy va D.K.Tersitskiylar umumiy nazorati ostida va I.P.Yarosh, S.P.Xachikyans va E.M.Benyaminovich kabi yetakchi ekspertlar ishtirokida QMKning ishchi qismi va Qarshi cho‘lini sug‘orish va o‘zlashtirishning bosh loyihasi-bosh rejasini qayta tuzib chiqish boshlangan. Qarshi cho‘lining suv bilan ta’minlash Amudaryo daryosi suv resurslaridan foydalanish orqaligina amalga oshirish rejasi bo‘yicha olib borilgan [3].

Nihoyat 1966 yil iyulida Qarshi cho‘lini sug‘orish va o‘zlashtirish Bosh-sxema rejasi SSSR Davlat reja qo‘mitasining davlat ekspert komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilib, tasdiqlangan. Unga ko‘ra Qarshi Bosh kanalining 80-kilometridan keyin o‘z bag‘rida 1,5 milliard kubometr suv to‘playdigan Tallimarjon, 180-kilometrida esa 2,2 milliard kubometr suv ketadigan Sho‘rsoy suv omborlarini qurish belgilangan. Chunki dehqonchilikda suv deyarlik sarflanmaydigan qish paytlarida katta nasoslar orqali Tallimarjon, Sho‘rsoy suv omborlari to‘lg‘aziladi. Bu esa ekinlarni vegetatsiya davrida suv bilan to‘la ta’minlash imkonini bergan.

Bosh rejadan kelib chiqib 1966 yil mayda O‘zbekiston hukumatining «Qarshi cho‘lida o‘zlashtirilgan maydonlarda sug‘orish ishlarini boshlash haqida»gi qarori qabul qilingan. Qarorga muvofiq cho‘lni sug‘orishning Bosh rejasini respublika hukumati tasdiqlagan. Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish va sug‘orish Bosh rejasiga ko‘ra yakuniy loyiha ishlab chiqilgan. Mazkur loyiha bo‘yicha cho‘lni o‘zlashtirish ishlari asosan ikkita hududda amalga oshirilishi ko‘rsatib berilgan. O‘zlashtirishga yaroqli yerning 364 gektari yuqori hududga kiritilgan. Yuqori hudud yerlarini o‘zlashtirish o‘z navbatida ikki bosqichga: birinchi bosqichda 200 ming gektar Qashqadaryoning chap tomonida joylashgan yerlar, ikkinchi bosqichda 164 ming gektar Qashqadaryoning o‘ng tomonida joylashgan yerlarga bo‘lib o‘zlashtirish belgilangan. O‘zlashtiriladigan yerlarda 31 ta sovxoz, jumladan, Beshkent, Leninizm, K.Marks, Moskva, Avrora, Lenin yo‘li, Paxtakor, Internatsional, Komsomol kabilar tashkil qilinishi belgilangan [3].

Ikkinchi navbatdagi, ya’ni quyi hududdagi sug‘oriladigan yerlar Qarshi Magistral kanalining bosh qismidagi 4-nasos stansiyasidan keyin Sho‘rsoy suv ombori suvlari hisobiga Sho‘rsoy magistral kanali bilan sug‘orilishi belgilangan. Kanaldan sug‘oriladigan hudud 270 ming gektar qilib belgilangan. 230 ming gektari Sho‘rsoy suv ombori suvi bilan sug‘oriladigan bo‘ldi. Jami o‘zlashtirilishi belgilangan 500 ming gektarni tashkil qilgan.

Umuman, Qarshi cho‘lidagi Amudaryodan sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni qariyb 864 ming gektarni tashkil qilishi kerak edi. Bu hudud yerlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri QMK va undan chiqadigan sug‘orish tarmoqlar bilan sug‘oriladigan bo‘ldi. Bu yerlar unumdor tuprog‘i, cho‘lga tutash joylarda aholi punktlarining, temir yo‘l, avtomobil yo‘llarining yaqin joylashganligi kabi sharoitlar quyi hududga qaraganda tezroq rivojlantirish imkonini bergan. Shu sababli yuqori hududning birinchi bosqichda o‘zlashtiriladigan yerlardan o‘ng tomondagi yer maydonlari Qarshi magistral kanalidan chiqarilgan suv bilan, chap tomondagi qismi esa ushbu kanalning Tallimarjon suv omboridan keyingi qismidan sug‘oriladigan bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi o‘sishining xususiyatlari. “Hozirgi zamon geografiyasi: Nazariya va amaliyot”. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari - T., 2006.

2. Yegamova D., Tojiyeva Z., Saidova Z. O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi demografik holat (Qashqadaryo viloyati misolida) // Geografiya va qadriyatlar. - T., 2001.

3. Абдуллаев М. Қарши чўли қаҳрамонлари. – Тошкент: «Ўзбекистон». 1980. – Б. 6.

4. Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизимларининг ривожланиши ва унинг оқибатлари: Тарих фан. докт. ...дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 21.

5. Ғоипова Т.Ф. Қарши чўлида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш (Фан ҳақида суҳбатлар). – Тошкент: «Ўзбекистон», 1984. – Б.5.

6. Хамраев Н., Халиков И. Орошение и освоение Каршинской степи. – Ташкент: «Узбекистан», 1981. – С.46.

UO'K: 654.197(575.171)

"XORAZM" TELEKANALI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MUAMMO VA YECHIM

S.V. Qurbanov, magistrant, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Bugungi kunda mamlakatimizda televideniye eng katta auditoriyaga ega ommaviy axborot vositasi bo'lib, voqea va hodisalarni tezkor yoritish va aholi xabardorligini ta'minlashda o'rni beqiyos. Bugun markaziy telekanallar qatorida hududiy telekanallar ham tubdan isloh qilinmoqda. Hududlarda ham xususiy telekanallarning mavjudligi esa, davlat telekanallariga bo'lgan qiziqishni, tomoshabinlar sonining kamayishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada hududiy telekanalning rivojlanish tendensiyalari, yechim topishi kutilayotgan muammolar tahlil qilingan. Mazkur maqola orqali "Xorazm" telekanalining reytingi, tomoshabinlar sonining kamayishga sabab bo'layotgan omillar va taqdim etilayotgan dasturlarning sifat darajasi tahlil qilindi hamda aniqlangan muammolar yuzasidan zarur taklif va tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar: *Xorazmtv, televideniye, telekanal, tendensiyalar, reyting, teledasturlar.*

Аннотация. *Сегодня в нашей стране телевидение является средством массовой информации с самой большой аудиторией, и его роль в оперативном освещении событий и происшествий и обеспечении осведомленности общественности несравненна. Сегодня наряду с центральными телеканалами реформируются и региональные телеканалы. Присутствие частных телеканалов в регионах также приводит к снижению количества зрителей и интереса к государственным телеканалам. В данной статье анализируются тенденции развития регионального телеканала и проблемы, которые предстоит решить. В данной статье проанализирован рейтинг телеканала «Хорезм», факторы, вызывающие снижение количества зрителей и уровня качества представленных программ, а также даны необходимые предложения и рекомендации относительно выявленных проблем.*

Ключевые слова: *Хорезмтв, телевидение, телеканал, тенденции, рейтинг, телепрограммы.*

Abstract. *Today, television is the most widely used mass media in our country, and its role in promptly covering events and ensuring public awareness is unparalleled. Today, along with central TV channels, regional TV channels are also undergoing radical reform. The presence of private TV channels in the regions is also leading to a decrease in interest in state channels and a decrease in the number of viewers. This article analyzes the development trends of regional TV channels and the problems that are expected to be solved. This article analyzes the declining rating of the Khorezm TV channel, the decrease in the number of viewers, and the decline in the quality of the programs presented, and provides necessary suggestions and recommendations on the identified problems.*

Key words: *Khorezmtv, television, TV channel, trends, ratings, TV programs.*

Kirish. Tabiatdagi eng oliy mavjudot – inson o'z fikri, dunyoqarashi va aql-zakovati bilan barcha zamonlarda inqilobiy o'zgarishlar tarafdori bo'lib kelgan. Binobarin radio va televideniye insoniyat tomonidan yaratilgan buyuk kashfiyotlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston televideniyesi tashkil topganiga ham 68 yil to'ldi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston televideniyesi ilk ko'rsatuvlarini namoyish etgan sanadan boshlab to bugunga qadar o'zining shonli taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Bu davr mobaynida xalqimiz qalbidan munosib o'rin egallagan, tomoshabinlarga ma'naviy ozuqa bergan, barchaga birdek manzur bo'lgan minglab turli xil janrlardagi teledasturlar namoyish etildi [2]. Mustaqillik samarasi o'laroq televideniyening rivojlanishi yanada jadallashdi. Xususan, 2005-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-noyabrda qabul qilingan "Mustaqil teleradiokanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan 2006-yil 27-dekabrda "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu farmonga ko'ra O'zbekiston teleradiokompaniyasi "O'zbekiston MTRK" etib qayta tashkil etildi va tizimda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi [2].

Bu davrda ko‘plab telekanallar negizida yangi radiokanallar va telekanallar o‘z faoliyatini boshladi.

Bugun “O‘zbekiston MTRK” tarkibida Xorazm viloyati ijtimoiy va iqtisodiy hayotini, yangiliklari va muhim xabarlarini berib boruvchi “Xorazm TV” faoliyat olib bormoqda. Garchi Xorazm telekanali viloyatdagi eng yirik ommaviy axborot vositalaridan biri bo‘lsa ham, lekin bugungi kunda o‘z tomoshabobligini yo‘qotgandek. Boisi raqobat maydonida xususiy telekanallarning paydo bo‘lishi, va ular tomonidan tomoshabinni o‘ziga jalb eta oladigan, yangiliklar tezkorligi va kontentlarning rang barangligi bilan ajralib turadigan teledasturlar namoyish etilishi ortidan, Xorazm telekanali tomoshabinlari soni kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Viloyatning o‘zida 2 ta xususiy “S-Iqbol” va “8-TV” telekanallar faoliyat olib bormoqda. Xorazm telekanali viloyatda yetakchi bo‘lib qolishiga nimalar to‘sqinlik qilmoqda? So‘nggi yillardagi moddiy texnikasining tubdan isloh qilinishi pirovardida nima sababdan reytingi xususiy telekanallar bilan deyarli bir xilda? Buni bir tomondan faoliyat olib borayotgan kadrlarning tajribasi bilan bog‘lasak, ikkinchi tomondan esa sohaga yosh kadrlar jalb etilmayotgani, yangi chehra va qiyofalar kashf etilmayotgani, ko‘rsatuvlar, qiziqarli shoularda interaktiv usullardan foydalanilmayotgani sabab bo‘lishi mumkin. Bugungi kun tomoshabini tezkorlikni, g‘ayrioddiylikni, dasturlar rang barangligidan tortib tasvir o‘zgachaligini xush ko‘radi, bu bo‘shliqni esa xususiy telekanallar emas, aksincha davlat telekanallari to‘ldirishi shubha ostida qoladi.

Telekanalning rivojlanish tendensiyalari. Televideniye – o‘zining axborot tarqatish, madaniy-ma’rifiy, integrativ, ijtimoiy-pedagogik, tashkilotchilik, ta’limiy, rekreativ va boshqa an’anaviy funksiyalari mavjudligi bilan boshqa OAV dan alohida ajralib turdi. Ayniqsa, keyingi yillarda uning madaniy-ma’rifiy va ta’limiy funksiyalariga e’tibor kuchaygan. Telekanallarda efirga berib borilayotgan o‘zlikni anglash, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni ulug‘lashga qaratilgan, yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga yordam beradigan ijodiy dasturlar sonining ko‘pligi so‘zimiz isboti [1]. Shunday bo‘lishiga qaramay, bugun ba’zi telekanallar tomoshabinlari soni kamayib bormoqda. 2024 yilning 27 dekabr sanasida Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi «XORAZMIYLAR» kanalida “Siz ko‘proq qaysi telekanallarni tomosha qilasiz?” sarlavhasi ostida o‘tkazilgan so‘rovnomada 2576 nafar ovoz beruvchilarning 36% foizi asosan televizor tomosha qilmasligini, yangiliklar bilan tanishishini, ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali olishini bildirgan [5]. Shu so‘rovnomada viloyatdagi telekanallar ham o‘rin olgan va «Xorazm TV» xususiy telekanal «S-Iqbol» ga qaraganda atigi 3% ovoz bilan oldinlik qilmoqda. Aslida ikkala telekanalni moliyalashtirish va moddiy texnik bazasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak farq ancha ko‘p bo‘lishi kerak edi. Vaholanki keng imkoniyatlarga ega zangori ekran orqali bir dam bo‘lsa-da tomoshabin nigohini tortish aslida muammo emas, buning uchun esa zamon talabi, interaktivlik, yaratilayotgan kontentlar sifati va telekanallarning boshqa platformalar bilan integratsiyalashuviga alohida e’tibor qaratish kifoya. Telekanalning rivojlanish tendensiyalari ham televideniyening umumiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular kontent yaratish, tarqatish usullari va tomoshabinlar bilan aloqador bir qator muhim yangiliklarni o‘z ichiga oladi.



1.Xorazm telekanalining raqamli va striming platformalar bilan integratsiyasi.

Raqamli texnologiyalar orqali dasturlarini efirga uzatayotgan Xorazm telekanali o‘z teledasturlarini bevosita onlayn platformalar orqali ham taqdim etishi mumkin. O‘zbekistonda eng ommabopligini inobatga oladigan bo‘lsak, “Telegram” yoki “Youtube” ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq. Bu tomoshabinlarga telekanallar setkasidan o‘rin olgan dasturlarni istalgan vaqtda va turli qurilmalarda tomosha qilish imkoniyatini beradi. Telekanalning “Youtube” platformasida 2022-yilning 30-sentyabr sanasida ro‘yxatdan o‘tgan “Xorazm Telekanali” [3] sahifasini tahlil qiladigan bo‘lsak umumiy yuklangan teledasturlar soni 31 tani tashkil etadi. So‘nggi yuklangan dastur esa 2024-yilning 12-avgust sanasiga to‘g‘ri keladi, vaholanki, 17 oy mobaynida

telekanal efirlarini qanchadan-qancha qiziqarli teledasturlar to‘ldirdi, muhim ma’lumotlar berildi. 08.01.2025 sanasiga ko‘ra yuklangan videolar jami 12530 marta ko‘rilgan. Har bitta ko‘rsatuv uchun bu ko‘rsatgich 404 nafar tomoshabindan to‘g‘ri keladi.

Telekanalning “Telegram” ijtimoiy tarmog‘idagi **«XorazmTelekanal | Rasmiy» [4]** sahifasini tahlil qiladigan bo‘lsak 2025-yilning 8-yanvar sanasiga umumiy 3672 obunachisi mavjud . Telekanal efirlarini “Telegram”dagi mazkur kanal orqali jonli tomosha qilish imkoniyati bor, bu albatta yaxshi, ammo, mutaxassislarni yangi formatlarga ko‘nika olmayotganimi, yoki sozlamalarni to‘g‘rilay olmayotgani boismi agar iOS tizimida ishlaydigan qurilmalar orqali tomosha qilmoqchi bo‘lsangiz siz faqat tasvirni ko‘rasiz, ovozni esa afsuski eshitish imkoniyati yo‘q. O‘zbekiston aholisining ko‘pchilikni Smart TVlardan foydalanishini inobatga olsak, Telegram ijtimoiy tarmog‘ida emas, balki, “YouTube” platformasida onlayn tomosha qilish imkoniyati yaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Telegram kanalida qayta tomosha qilish imkonini beruvchi yuklangan videolar esa faqat tonggi dastur va informatsion dasturdagi lavhalardan iborat. Ushbu sahifada efir soatlarida ketgan boshqa dasturlarni takroriy ko‘rish imkoniyati afsuski yo‘q.

2.Interaktivlik va yaratilayotgan dasturlarni shaxsiylashitirish.

Interaktivlik, masalan, telefon orqali ovoz berish yoki tomoshabinlar bilan jonli efirda aloqada bo‘lish imkoniyatlarini qo‘llanishi. Shuningdek, tomoshabinlar uchun ularning individual qiziqishlari, davr ehtiyojlariga asoslangan qiziqarli shaxsiylashtirilgan dasturlar tayyorlanishi ham o‘z navbatida tomoshabinlarni ko‘proq jalb etishda xizmat qiladi. Birgina, tongi “Assalom Xorazm” teledasturini so‘nggi ikki oy muddatda efirga ketgan sonlarini tahlil qilsak interaktiv usullardan foydalanilmaganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Dastur jonli tarzda efirga uzatiladi, lekin tomoshabinlar bilan jonli muloqot yo‘q.

3.Yuqori sifatli videoformatlardan foydalanish.

Xorazm telekanali efir to‘lqinlaridagi muammolar pirovardida, uzatilayotgan tasvir ko‘pgina raqamli telekanallardan xiraligi bilan farq qiladi. Hattoki, viloyatda faoliyat olib borayotgan telekanallar tasvirlari ham HD formatida berilyapti, lekin, tasvir tiniq. Shu sababdan Xorazm telekanali yuqori sifatli video tarqatish texnologiyalaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Bugun Full HD, 4K va UHD formatlari tomoshabinlarga yanada aniqroq va jonli ko‘rinishni taqdim etadi, shu bilan birga jonli efirlar va yuqori sifatli kontentlar uchun bunday texnologiyalar juda muhim hisoblanadi.

4.Onlayn va oflayn kontentni birlashtirish

Bu strategiyani qo‘llash orqali, onlayn va an’anaviy media kanallarini bir-biri bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Misol uchun, ko‘plab xorijiy BBC, Fox va boshqa telekanallar efirga uzatilgan kontentlarni keyinchalik onlayn arxivlarda ham joylashadi. Bu esa tomoshabinga o‘sha dasturni takroran xohlagan vaqtida ko‘rish imkonini beradi.

5. Sport dasturlarining roli.

Sport dasturlari va jarayonlarning jonli efirlari telekanallar uchun muhim rol o‘ynaydi va yuqori daromad olishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Xorazm telekanalining efir setkasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, sportga oid yangiliklar faqat informatsion dastur so‘ngida beriladi. Sport bilan bog‘liq teledasturlar, yoki jonli efirlarga aslo ko‘zingiz tushmaydi. Har hafta faqatgina bir marotaba efirga beriladigan «Iftixorimsan sport» teledasturidan boshqa sportga oid ko‘rsatuv uchratmaysiz. Jahon chempionatlarini jonli efir tarzida berish orqali ham, nafaqat telekanal tomoshabinlar sonini ko‘paytirish balki reklama beruvchilar bilan ham yuqori narxlarda reklama shartnomalarini tuzishishga ham erishish mumkin.

6.Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tomoshabinlar bilan muloqotda bo‘lib, efir vaqtida va undan tashqari o‘z auditoriyasi bilan bevosita aloqada bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali berib borilayotgan dasturlar haqida so‘rovnomalar o‘tkazish, tomoshabinlar fikrlarini olish va aloqada bo‘lish telekanal uchun muhim omildir. So‘nggi 5 oylik muddatda Youtube va Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi telekanal sahifalarida hech qanday so‘rovnoma yoki tomoshabinlar fikrini o‘rganish bo‘yicha qayta aloqa o‘rnatilmagan.

Bu tendensiyalarga amal qilish bir tomondan telekanalning zamon talablari darajasiga amal qilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa tomoshabinlar soni ko‘payishida, shuningdek, reytingi yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim omil bo‘ladi.

Muammo va yechim. Bugungi globallashuv davrida 1961 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan, o‘zining boy tarixi bilan haqli ravishda faxrlanadigan Xorazm telekanali davr bilan hamqadam rivojlanishi uchun bugun boshqa viloyat kanallaridan farqli o‘laroq, o‘zining moddiy texnik imkoniyatlarini tubdan yaxshilaganligi bilan ajralib turadi. Televideniyeda hattoki markaziy kanallarda ham mavjud bo‘lmagan bino va texnikalar bilan bog‘liq masalalar ijobiy yechim topgan. Ikkita katta studiya, chiroqlar va monitorlar, eng so‘nggi kameralar bilan so‘nggi ikki yil ichida ta’minlandi. Ammo nega barchani o‘ziga jalb eta oladigan, aholi orasida shov-shuvlarga sabab bo‘la oladigan, telekanal reytingini yanada ko‘taradigan mahsulotlar, teledasturlar tayyorlanmayapti degan haqli savol tug‘iladi. Viloyatda faoliyat olib borayotgan xususiy telekanallar misolida olib qaraydigan bo‘lsak, havola etilayotgan kontentlar davlat kanalidagi ko‘rsatuvlarning ba’zilardan ancha ko‘rimli. 2024-yil noyabr va dekabr oylaridagi Xorazm telekanalida efirga uzatilgan teledasturlarni tahlil qilsak, asosan quyidagi kriteriyalar bunga sabab bo‘lmoqda:

-qiziqarsiz va qolipga tushib qolgan kontentlar; asosan bir xil, siyqasi chiqqan mavzularga qo‘l urush, xilma xillik va yangiliklardan qochish, shuningdek, xodimlarni o‘z vaqtida malaka oshirishi;

-dasturlarning sifat talablariga javob bermasligi;

-originallikning yo‘qligi; dastur tayyorlashda asosan, boshqa ko‘rsatuvlardan ajralib turadigan jihatlarga e’tibor qaratilmasligi;

-xodimlarning yangi texnologiyalarga yetarlicha ko‘nika olmayotgani yoki undan keraklicha foydalana olmayotgani; oddiygina chiroq ustalari va videooperatolar, o‘z vaqtida yangi texnologiyalarga o‘qitilmagani, pirovardida ularda bu texnikalardan to‘laqonli ravishda foydalanish ko‘nikmalari yo‘qligi;

-tomoshabinlar, asosiy auditoriyaning aniqlanmaganligi, reytingining o‘rganilmayotgani; telekanalda reytingni aniqlab beradigan tashkilotlar bilan shartnoma tuzilmagani, bu esa tomoshabin soni va uning kimligini bilish imkoniyati yo‘qligini anglatadi. Natijada, o‘z tomoshabiningni bilmasdan turib, turli qiziqarsiz mavzulardagi dasturlarga qo‘l urilishi;

-raqamli texnologiyalar, shuningdek, boshqa telekanallar bilan raqobatbardoshmasligi;

-reyting natijalari bo‘lmaganligi sababli boshqa telekanallarni mensimaslik, yoki ularning efirlaridan o‘rin olgan dasturlarni tan olmaslik, asosan raqobat maydonida zarur talablarga javob bermaslik;

-marketing bo‘yicha strategiyalarni qo‘llanilmayotgani; maxsus ishlab chiqilgan marketing strategiyalarsiz telekanal yangi auditoriyani shakllantira olmaydi va tomoshabinlarni ham o‘ziga jalb qila olmaydi;

-qoniqarsiz reklama va PR lardan foydalanilayotgani, yoki umuman bu uslublardan foydalanilmayotgani;

-iqtisodiy muammolar, kiritilayotgan sarmoyaning yo‘qligi, yoki yetarli darajada emasligi; iqtisodiy sarmoya bo‘lmaganligi sababli dasturlarning bir xil studiyada, yoki bir xil inkursatsiyada olinishi o‘z navbatida dasturlar sifatiga yetarlicha ta’sir ko‘rsatadi va tomoshabinlarni zeriktirib qo‘yadi. Natijada reklama beruvchilar, o‘z reklamasini berishga boshqa manbalar izlashadi va sarmoyani boshqa, auditoriya ko‘lami keng kanallarga berishadi.

-interaktiv usullarda emas, aksincha an’anaviy uslublarda dasturlarning tayyorlanishi; televizor boshqaruv pulti tomoshabin qo‘lida ekan, u xohlagan paytda xohlagan telekanaliga o‘tadi, 3 soniyada tomoshabinni jalb qilib ushlab qolishda esa asosan interaktiv usullar qo‘l keladi. Misol uchun studiyaning o‘zgacha qilib tayyorlangani, yoki boshlovchining imiji.

-kun, davr talablarini chetga surib qo‘yish; bugungi zamon talabi ijodkorlardan yangiliklarga intilish, yuqori saviyali dasturlarni tayyorlashni talab etadi. Telekanalda esa aksincha, faqat efir soatlarini to‘ldirishga harakat qilishayotgandek go‘yo. Balki, jurnalistlar o‘z ustida ishlab, bugungi kunda dolzarb, ommabop mavzularga e’tibor qaratishsa, albatta bu auditoriyaning ko‘payishiga xizmat qiladi.

-senzuraning qattiqligi; ba'zan davlat telekanallari rahbarlari yangi dasturlarni efir setkasiga joylashda, asosan, oldingi tajribaga, aniqrog'i oldin efir yuzini ko'rgan va yaxshigina tomoshabin e'tirofiga sazovor bo'lgan shu kabi dasturlarning mavjudligiga e'tibor qaratishadi, yangiliklarni chetga surgan holda, yangi dasturlarni efirga bermagan holda o'zi bilmasdan senzuraga yo'l qo'yadi.

Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun bugun zamon talabiga o'z vaqtida e'tibor qaratish, sohaga yangi, kreativ fikrlovchi, maxsus tayyorlangan kadrlarni jalb qilish, rahbariyat tomonidan qattiq senzurani yumshatish, nafaqat an'anaviy dasturlarni saqlab qolish, aksincha, yangi interaktiv kontentlarni ishlab chiqib, tomoshabinlar bilan qayta aloqani o'rnatish orqali ularning ham xohishlarini inobatga olgan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Televideniye tomoshabin uchun tarbiya maktabini o'taydi. Teledasturlardan tomoshabin o'ziga kerakli va to'g'ri xulosa chiqarishga harakat qiladi. Ammo telekanalda efirga uzatilayotgan har bir ko'rsatuv ham tomoshabinlarga xush kelavermaydi. Tayyorlanayotgan ko'rsatuvlarning saviyasi, darajasi va ularning yengil-yelpi maishiy doirada tayyorlanib qolayotganligiga, alohida e'tibor berish zarur.

Teletomoshabinlarga namoyish etilayotgan har bir ijod mahsuli aniq faktlarga asoslangan bo'lishi, hayotiy voqealardan shakllantirilganligi va badiiy to'qimalarga qurilishidan qat'iy nazar, jumlalar to'g'ri tuzilganligi, talaffuz me'yorlariga amal qilinayotganligiga to'liq e'tibor berish lozim. Sifatli, zamon talablariga javob beradigan, kreativ yondashgan tarzda dastur tayyorlanishiga jiddiy ahamiyat qaratilishi kerak.

Raqamli platformalar rivojlanib, televideniye tomoshabinlari soni kamayayotgan bugungi kunda, telekanallar yangi innovatsiyalar va media bozor sharoitlariga moslashishi, interaktiv dasturlar tayyorlashi va tomoshabinlar xohish istaklarini inobatga olgan holda faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina telekanal reytingi ko'tariladi va u o'z tomoshabinlariga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hayitov Sh., Xadjaev A. 2022. Radio va Televideniye. "Ijod-Press" nashriyoti, Toshkent. 2022
2. Hayitov Sh. Televideniye mening taqdirimda. Toshkent, "Ijod-Press", 2022.
3. «Xorazm telekanali» https://www.youtube.com/channel/UCA1cP2R6Vnp_dAEZ-c6P5BA (Murojaat sanasi 08.01.2025)
4. «XorazmTelekanal | Rasmiy» t.me/XorazmTELEKANAL (Murojaat sanasi 08.01.2025)
5. «XORAZMIYLAR» Telegram kanali https://t.me/xorazmiylar_kanali (Murojaat sanasi 10.01.2025)
6. O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi (Murojaat sanasi 26.11.2024) https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_teleradiokompaniyasi

UO'K 739.2(4)

BOBURIYLAR DAVRIDAGI ZARGARLIK BUYUMLARNING DUNYO XAZINASIDAGI O'RNI

S.A. Rahimova, katta o'qituvchi, Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, Toshkent
U.P. Lafasov, f.f.n., dots., TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Boburiylar davri (XV-XVII asrlar)da Hindlar diyori zargarlik buyumlari mashhur bo'lganligi masalasi yoritilgan. Haqiqiy holatni tasavvur etish uchun mavjud manbalardan izohlar keltirilgan. Buyuk mungul//mug'ullar davrida yasalgan zargarlik buyumlarining yasalish uslublari aniq saqlanib qolmaganligi, Akbarshoh saroyiga oid suratlar, o'sha davrga xos miniatyuralarda aks etgan bezak va zargarlik buyumlari, sayohatchilar tavsiflagan ma'lumotlarga mos kelmasligi aytilgan. O'sha davrdagi zargarlik buyumlari haqidagi aniq ma'lumotlarni xazina xizmatchilarining yozishmalaridan bilish mumkinligi izohlangan. Mazkur ma'lumotlarga ko'ra og'irligi ikki yarim karatdan kam bo'lgan olmoslar kichik qimmatbaho tosh sifatida xazinada olib kirilmagan, qimmatbaho toshlar 360 qismga ajratib taqsimlangan holda tartib bilan joylashtirib chiqilganligi ta'kidlangan. Asl kelib chiqishi turkiy bo'lgan safaviy va boburiy hukmdorlarning kiyinish tarzidagi uyg'unliklar borligi, lekin bu usmonlilar hamda shayboniylarnikidan keskin farqlanishi izohlangan. Hindistonda qimmatbaho toshlar ko'pligi, ammo zargarlik buyumlarini yasash uchun eng sifatli oltin O'rta Osiyodan keltirilganligi sharhlangan. "Ayni Akbariy" asarida sulolaning aslzodalari, kichik rahbarlari, oddiy xizmatchilar, otxonalarda yemlarni taqsimlovchi va tarqatuvchi joriya hind ayollari taqib yuradigan zargarlik buyumlarigacha*

aniq ro'yxati keltirilganligi qayd etilgan. Ushbu taqinchoqlarning ayrimlari deyarli o'zgarmaganligi, dunyo bo'ylab keng tarqalganligi, hozir ham musulmon xonimlar taqib yurganligi haqidagi izohlar berilgan. Hindistonda musulmonlar hukmronligi davridagi zargarlik taqinchoqlari dunyo madaniy olamida muhim o'rin egallashi bayon qilingan.

***Kalit so'zlar**: Buyuk mungullar davri, hindlar zargarligi, Akbarshoh saroyi, miniatyuralar, sayohatchilar, xazina xizmatchilari, sifatli oltin, O'rta Osiyo, "Ayni Akbariy" asari.*

***Аннотация.** в данной статье рассматривается вопрос популярности украшений Страны Индейцев в период Бабура (XV-XVII вв.). Комментарии из доступных источников приводятся для визуализации реальной ситуации. Говорят, что стили украшений, изготовленных в период Великого Монголии, четко не сохранились, а изображения дворца Акбар-шаха, украшения и украшения, изображенные на миниатюрах того времени, не соответствуют сведениям, описываемым путешественниками. Поясняется, что точные сведения об украшениях того периода можно узнать из переписки чиновников казначейства. Согласно этим сведениям, бриллианты весом менее двух с половиной каратов вносились в сокровищницу не как мелкие драгоценные камни, а были разделены на 360 частей и размещены в упорядоченном порядке. Выяснилось, что правители Сефевидов и Бабуров, имеющие турецкое происхождение, имеют сходство в одежде, но резко отличаются от одежды османов и шейбанитов. Отмечается, что в Индии много драгоценных камней, но золото лучшего качества для изготовления ювелирных изделий поступает из Средней Азии. В работе «Айни Акбари» отмечается, что имеется четкий перечень украшений, которые носили вельможи династии, мелкие вожди, простые слуги, те, кто раздает и раздает фураж в конюшнях, вплоть до наших дней индийские женщины. Также было отмечено, что его носили мусульманские женщины. Установлено, что украшения периода мусульманского правления в Индии занимают важное место в мировом культурном мире.*

***Ключевые слова:** Великий Монгольский период, индийские украшения, дворец Акбар-шаха, миниатюры, путешественники, казначеи, качественное золото, Средняя Азия, работа «Айни Акбари».*

***Abstract.** this article describes the development of jewelry in the Babur period (XV-XVII centuries) in India. In this period, it is talked about the extent to which he created an opportunity for the development of jewelry art during the reign of Akbar Shah and subsequent dynasties. It is also highlighted that the khan's palaces were filled with ornaments, jewelry, and their varieties. It is stated that there are more than 2,000 pieces of jewelry made of precious stones. Detailed information is given about the making of jewelry, the metals used for making it, their design, and the stones set in them. At the same time, the turban ornaments of that period, their distinguishing features and differences are also explained. There is talk about brooches that were a tradition in the times of Akbar Shah and Shah Jahan, and later brooches made in the form of copies by European jewelers. These evidences reveal that enough money was spent on jewelry from the treasury of the rulers at that time.*

***Key words**: jiga, kalgi, sarich, safavi, karanful, nath, mang, bali, Akbarnoma, kundan.*

Kirish: Boburiylar sulolasining Hindistonda 332 yillik hukmronlik davrini qiyosiy jihatdan tahlil etganimizda ushbu sulola vakillarining o'z davrida ilm- fan, madaniyat, adabiyot hamda zargarlik san'ati yuqori cho'qqiga erishganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, XV-XVII asrlarda Hindistonga tashrif buyurgan sayyohlar bu joyning turli mahkamalarida xizmat qiluvchi insonlar taqib yurgan zargarlik buyumlarini ko'rib ko'zlari qamashgan. Sayyohlar mazkur davlatning turli tabaqalariga mansub kishilar qanday zargarlik buyumlaridan foydalanishlariga juda qiziqishgan. Turonning markazi bo'lgan Semizkent (Samarqand)dan hukmdor Shohruh ibn Temur Hindistonga jo'natgan elchi 1438-yilda Vijayanagarga boradi va ko'rgan-kechirganlarini shunday ta'riflaydi: "*Bu mamlakatning barcha aholisi* (*boy, kambag'al, bozorchi, hammol, harbiy*) *tabaqasidan qat'iy nazar asl marvarid bezaklarini taqishni kanda qilmaydilar. Ularning qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan uzuklari, quloqlaridagi ziraklari, bo'yinlarida zebigardonlari, qo'llaridagi bilakuzuklari, har bir barmoqlaridagi uzuklari, xullas turli zargarlik buyumlari ko'zga yalt etib tashlanib turadi[1]*". Ushbu fikrlar Hindistonda zargarlik buyumlarining qanchalik behisob ekanligini, ularni tabaqasidan qat'iy nazar barcha odamlar taqishini mumkinligini va bu mamlakatda istagan odam qimmatbaho bezaklarni taqib yurishi oddiy holat ekanligini tasdiqlaydi. 1503-1508-yillarda Hindistonga tashrif buyurgan Italiyalik Lyudoviko de Vartema Dekan shahrida joylashgan Bijapurga borgan va musulmon hukmdorning xizmatkorlari to'g'risida shunday fikrlarni yozgan: "*Ularning poyabzallariga qadar qadalgan yoqut, olmos va boshqa marvaridlarni ko'rish mumkin. Har birining tana a'zolari* (*quloq, bo'yin, bilak, barmoq, bel, oyoq*)*da qancha zargarlik buyumlari taqilganini, tanasi qanday zeb-u ziynatlar bilan bezatilganini tasavvur qilishning o'zi mo'jiza [2]*". *Vijayanagarda hind rajalari, kichik hukmdorlarining otlariga taqib qo'yilgan turli bezaklardagi qimmatbaho buyumlar ba'zi shaharlar qiymatidan ustunroqdir deb ta'kidlaydi [3]*. Muallif o'z izohiga qo'shimcha qilib tasvirlar aks etgan binolar, ulardagi zarhal ustunlar, turli qimmatbaho toshlar qadalgan oltin taxtlar, oltin suvi berilgan buyumlar bilan qoplangan tomlar va devorlar mavjudligini aytadi. Ana shularni ko'rgan Francois Bernier "*Hindistonda oltin zaxirasi serob, ummon kabi behisob*" degan xulosa chiqaradi [*4]*. Demak, ushbu mavjud holat o'sha davr uchun tabiiy hol bo'lganligini ta'kidlagan holda ularda tilla ko'p bo'lgan degan to'xtamga kelish mumkin. Afsuski, mungul (*mughul-aslzoda*, arablar nuqsonli talaffuz qilib *mug'ul* deyishgan)lar davrida yasalgan va "*dunyo xazinasi*" deb nom olgan zargarlik buyumlari, ularning yasalish usuli, kim va qaysi paytda taqishi, qanday ma'noni anglatishiga tegishli hamda asl mohiyatini ko'rsatib beruvchi aniq dalillar hozirgi kungacha juda oz miqdorda saqlanib qolgan. Mungullar davridagi qimmatbaho taqinchoqlarning visual (lotincha "visualis" – "ko'rish"), ya'ni aniq natijalar olish qiyin bo'lgan dalillar uchinchi hukmdor Akbarshoh (1556-1605-yillar davlat boshqargan) hukmronligining so'nggi yigirma yiliga to'g'ri keladi. 1526-yilda Uchunchi mungul imperiyasi tashkil topganidan to XVI asr oxirigacha yasalgan zargarlik buyumlari uslubini aniq bilmaymiz, chunki juda ko'p zargarlik buyumlari bosqinchilar tomonidan eritib, yo'q qilib yuborilgan. Hozirgi paytda bu davr amaliy san'ati haqida taxmin qilishimiz mumkin, xolos *[5]*. Ajablanarlisi shundaki, Uchinchi mungul imperiyasi boyliklari haqidagi sayohatchilarning izoh va tavsiflarida keltirilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Akbarshoh saroyi suratlari, ularda aks etgan sahnalarda bezaklarning ajoyib namunalari bor. Ammo ushbu zargarlik buyumlari sayohatchilarning tavsiflariga mos kelmaydi (1-rasm).



1-rasm. Imperator Akbar raqsga tushayotgan qizlarni tomosha qilmoqda. Akbarnomaning rasmli qo'lyozmasidan qog'ozga chizilgan shaffof akvarel. Mughal, v. 1590.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur miniatyurada hukmdorning oddiy marjon taqqanligi aks ettirilgan. Surat va dalillarga ko‘ra, o‘sha davr aslzodalari bosh barmog‘i yoki boshqa barmoqlariga maxsus uzuklar taqqanligiga shohidi bo‘lamiz. Shuningdek tilladan yasalgan “jig‘a” kabi salla taqinchoqlari, oltindan yasalgan va marvarid qadalgan turli bantlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Saroy mulozimlari esa hech qanday taqinchoqlar taqmagan holda o‘z xizmatlarini bajarishgan. O‘sha davrda taqinchoq taqishning qat’iy tartibi haqidagi Uilyam Xokinsning XVII asr boshlarida mungullar xazinasi to‘g‘risidagi izohlari ham ziddiyatli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Uilyam Xokins kitobining “Oltin zargarlik buyumlari” deb nomlangan bo‘limida shunday yozgan: “*Ularning bosh kiyimlari, ya’ni sallalar taqish uchun mo‘ljallangan maxsus patlar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan maxsus jig‘alar mavjudki, ularning turlari qaryib ikki mingdan oshadi. Yana haqiqiy olmos, yoqut va qadimiy zumrad kabi qimmatbaho toshlar qadalgan uzuklar soni shu qadar ko‘pki, ularning sonini faqatgina qimmatbaho tosh qo‘riqchilarigina bilishsa kerak”[6].* Mazkur izohga tayanadigan bo‘lsak, bunchalik mo‘l xazina qayerga g‘oyib bo‘lgan deb o‘ylab qolasiz. O‘sha davrda zargarlik buyumlariga o‘rnatilgan qimmatbaho toshlar xazinada shu qadar bisyor bo‘lganki, xazinachi va uning ikkita yordamchisi faqat ularni hisob-kitob qilish bilan mashg‘ul bo‘lishgan va shu ishga mas’ul sanalganlar. Ular o‘zlarining doimiy yozish-chizish ishlariga boshi sho‘ng‘ib ketganlar. Og‘irligi ikki yarim karatdan kam bo‘lgan olmoslar kichik qimmatbaho tosh sifatida xazinada olib kirilmagan. Hukmdorning shaxsan o‘zi xazinani har kuni ko‘zdan kechirib turishiga oson bo‘lishi uchun barcha buyum va qimmatbaho toshlar 360 qismga ajratib taqsimlangan holda tartib bilan joylashtirib chiqilgan. Hukmdor Akbarshohning faqat o‘zi taqishi uchun ajratib qo‘yilgan zargarlik buyumlari shakli va yasalish uslubiga ko‘ra o‘zgacha bo‘lgan. Ushbu zargarlik buyumlari turk, eron va hind zargarlik san’atining uyg‘un va qo‘shma usulida yasalgan turli oltin taqinchoqlardan iboratdir. 1526-yildan boshlab boburiylar sulolasi Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonni boshqara boshlaganlar va yerli xalqning yaxshi urf-odatlari va udumlariga o‘zgacha hurmat bilan qarashgan. Asli kelib chiqishi turkiy, ya’ni ozarbayjon bo‘lgan Erondagi safaviylar bilan o‘rta osiyolik turkiy boburiylarning kiyinish tarzidagi uyg‘unliklar ittifoqdoshligi bilan bog‘liqdir. Shu bois ularning sallasiga qadaladigan (*kalgi* yoki *jig‘a*) kabi maxsus zargarlik bezaklari Turon merosxo‘rlari bo‘lgan o‘zaro ittifoqdosh usmonlilar va shayboniylarnikidan keskin farqlanib turadi. Ularning salla o‘rashlari va kiyinishlarida ham ko‘zga tashlanardi ayrichalikni ko‘rish mumkin. Boshga o‘raladigan (*sarpich*) zarbop mato va unga taqiladigan zargarlik buyumlarini boburiylar va safaviylarning bizgacha yetib kelgan rasmlarda ham ko‘rish mumkin. Ushbu zargarlik buyumlarining marjonlari Kautilya Artashastrasidagi qimmatbaho toshlarga mos keladi. Mazkur buyumlarga qadalgan marvarid va boshqa qimmatli toshlar, ularni yasash uchun ishlatilgan sifatli oltin faqat O‘rta Osiyo bozorlarida sotilgan [7]. Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘sha davrda ham Markaziy Osiyo o‘zining sifatli oltini bilan mashhur bo‘lgan.



2-3-rasm. Boshga o‘raladigan (sarpich) zarbop mato va unga taqiladigan zargarlik buyumlari.

Uchunchi buyuk mungullar sulolasiga tegishli tavsifning bir qismi sifatida yozilgan zamonaviy “*Ayni Akbariy*” asarida sulolaning ilk tarixidan boshlab, sulolaning aslzodalari, kichik rahbarlari, oddiy xizmatchilar, otxonalarda yemlarni taqsimlovchi va tarqatuvchi joriya hind ayollari taqib yuradigan zargarlik buyumlarigacha aniq ro‘yxat keltirilgan[8]. Demak, ular o‘zlarining jamiyatdagi o‘rniga qarab turlicha taqinchoqlarini taqib yurishgan. Ushbu taqinchoqlarning ayrimlari deyarli o‘zgarmagan holda yetib kelgan. Mazkur zargarlik buyumlari dunyo bo‘yicha keng tarqalgan bo‘lib,

hozirgacha musulmon xonimlar ularni taqib yurishadi. 1774-yilda tayyorlangan Gentil albomida (4-rasm, 5-rasm) berilgan. Suratlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ***karanful*** (*quloq gullari*) xuddi *muhabbat gullari*dan andoza olganday shaklda berilgan. Bunga *Nigella sativa* yoki *Nigella indica* va *nath* (*burun halqasi*) kabi zargarlik buyumlari ham misol bo'ladi.





4-rasm. 1774-yilda Fayzobodda polkovnik JB Gentil uchun tuzilgan albomdagi zargarlik buyumlari. Akvarel
5-rasm. 1774-yilda Fayzobodda polkovnik JB Gentil uchun tuzilgan albomdagi zargarlik buyumlari. Akvarel

Tahlil va natijalar: ***Nath*** (*ikki marvarid yoki boshqa qimmatbaho toshlar orasiga yoqut bilan bog'langan dumaloq oltin sim shaklida*) Abul Fazl o'z ro'yxatini tuzgan paytda ushbu taqinchoqlarni hamma joydan topish mumkin bo'lgan bo'lsa, hozir esa juda noyob bo'lib, ayrim chet ellik savdogarlarning qo'lida saqlangan bo'lishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Ammo ushbu zargarlik namunalari o'sha hududlarga islom dini tarqalguncha bo'lgan davrlarda yasalgan haykaltaroshlik namunalarida ko'zga tashlanmaydi. Eng qizig'i, sanskrit tilidagi adabiyot namunalarida ham bu haqda hech qanaqa ma'lumot uchramaydi. Shuning uchun aksariyat olimlar mazkur zargarlik namunalari XII asr musulmon san'ati namunalari sifatida qadrlanishini aytishadi [9]. Demak, ushbu zargarlik taqinchoqlari Hindistonda musulmonlar hukmronligi davrida odat bo'lganligini tasdiqlash mumkin.

Zargarlik buyumlarining ayrim turlari, jumladan, ***mang*** (*sochlarda farq ochilib, farqlarga yanada go'zallik qo'shish uchun*) va *bali* (*doira shaklida marvaridlar qadab ishlangan quloqbaldoq*) qadimdan urf bo'lgan va ularni ayollar doimiy taqib yurilgan. Hukmdor Akbarshoh saroyidagi ba'zi ayollarning tasvirlaridan shuni anglash mumkinki, turkiy tilla bezaklar eron va hind zargarlik buyumlaridan aniq farqlangan. Ushbu zargarlik buyumlari orasidan imperatorga tegishli turkiy bezaklarni juda oson ajratish mumkin. "*Akbarnoma*" dan olingan 1590-yilgi rasmdagi musulmon va hind raqqos qizlar taqqan taqinchoqlar o'ziga xos uslubga ko'ra bir-biridan keskin ajralib turgan (6-rasm).



6-rasm. Raqsga tushgan qizlar va musiqachilar nikoh o'yin-kulgilarida chiqish qilishmoqda. Qog'ozdagi shaffof bo'lmagan akvarel "Akbarnoma" ning rasmli qo'lyozmasidan. Mughal v, 1590-yil.

"*Ayni Akbariy*" kitobida hind zargarlarning kasbiy mahoratiga juda keng va yaxshi tavsif berilgan (10). Kasbiy mahorat borasida mazkur ustalarning har biri yetuk mutaxassis bo'lguncha juda mashaqqatli mehnat yo'lini bosib o'tishgan. Inson o'z kasbining ustasi bo'lishi uchun tinimsiz mashq qilib, og'ir yumush jarayonini boshidan o'tkazishi zarur. Chinakam san'at namunasi bo'lgan oltin va kumushdan ishlangan har bir zargarlik buyumi juda qadrlangan. Shuning uchun har qaysi tilla buyum hukmdor ustaxonadagi yagona usta tomonidan o'z mahoratini ishga solgan holda o'zgacha sayqal berib yasalgan. Ustalar oltin buyumning bezagi, shakli va og'irligiga (*haqiqiy tilla yengil bo'ladi, demak,*

ko'p oltin ishlatilgan bo'lishi kerak) qarab ish haqi olgan. Buyumning pastki qismiga ustaning muhri, ismi va oltin sofligi haqidagi belgi qo'yilgan.

Xulosa va takliflar: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Hindiston zargarlik san'ati qadimiyligi va qadri balandligi bilan ajralib turadi va alohida nufuzga egadir. Shu bois yuqorida keltirilgan dalillarga suyanib butun jahon ahli Hindistonda taqinchoqlariga qiziqqanligi va juda katta e'tibor berilganligiga shohid bo'lamiz. Maqola ajoyib tafsilotlar va tasvirlarga boyligi, har bir izohga batafsil tavsiflar berilganligi bilan ajralib turadi. Biz Hindistonning shimolida nima uchun emal qo'llanganligini, ularda oltin qadrlanishi va ahamiyatini, zargarlik buyumlaridagi qimmatbaho toshlarning ahamiyati, o'rnatilishi va tartibi sababini ham bilib olamiz. Shuningdek zargarlik buyumlarining inson ma'naviyatga ta'siri kabi holatlar bilan ham tanishamiz. Muarrixlar tomonidan Akbarshoh hukmronligi davri, ya'ni 1526-yilda sulolaning hukmdor qavmi, aslzoda xonimlari va hatto joriya hind ayollari taqishi mumkin bo'lgan zargarlik buyumlarining aniq ro'yxati keltirilgan. O'sha davrga oid manbalarda qimmatbaho taqinchoqlar, zeb-u ziynatlarning qadr-qimmati hamda qo'llanilishi Akbarshoh davridan tortib to so'nggi hukmdor Avrangzeb davriga qadar aniq-tiniq va yaqqol tasvirlab berilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. R.H Major (ed.), India in the Fifteenth Century, Being a collection of Narratives of Voyages to India, London, 1857, 26-bet.

2. G.P. Badger(ed), The Travels of Ludovico de Varthema in Egypt, Syria, Arabia Deserts, Arabia Felix, in Persia, India and Ethiopia, AD 1503 to 1508, London, Hakluyt Society, 1863, 118-bet.

3. G.P. Badger(ed), The Travels of Ludovico de Varthema in Egypt, Syria, Arabia Deserts, Arabia Felix, in Persia, India and Ethiopia, AD 1503 to 1508, London, Hakluyt Society, 1863, 127-bet.

4. Mansel Longworth Dames (trs), The Book of Duarte Barbosa. An account of the countries bordering on the indian ocean and their inhabitants, Duarte Barbosa, 1518 AD London 1918, vol. II 19-bet.

5. William Foster, Early Travels in India, Ozford, 1921, 103-bet. Xokkins Jahongir hukmronligi davrida saroyga etib kelgan bo'lsa-da, juda ko'p miqdordagi marvarid buyumlari va qimmatbaho xomashyo Akbar vafotidan keyin to'planishi mumkin emas edi. Shuning uchun bu tavsif Akbar hukmronligi davriga tegishlidir.

6. R.P. Kangle, The Kautilya Arthasastra, part II, (Second edition, Bombay, 1972, 98-bet).

7. Col. H.S. Jarret, The A'in – i Akbari, vol III, qayta nashr etilgan nushasidan, Delhi, 1978, 343-bet.

8. N.B. Divatia, "The nose ring as an Indian Ornament", "Journal of the Asiatic Society of Bengal", 1923.

9. N.S., vol XIX, Colcutta, 1924, 67,70 betlar; K.N Chatterjee "The Use of Nose Ornaments in India" ibid., vol XXII, Calcutta, 1929, 287-95 betlar; P.K. Gode "The Antiquity of the Hindoo Nose Ornament called "NAth", Studie in Cultural History, vol. II, Poona, 1960, 42-59-betlar.

10. Jarret, ibid., 345-bet.

UO'K 908

MINTAQADA URBANIZATSIYA DARAJASINI TIZIMLASHTIRISH

M.Sh.Rahimova, o'qituvchi, Turon universiteti, Namangan
Sh.Sh.Xidirova, talaba, Turon universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Maqolada mintaqada urbanizatsiya darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblangan uy-joylar qurilishi holati Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilingan. Tahlilda uy-joylar yakka tartibdagi va ko'p qavatliga ajratilib, hududlarning bo'yiga o'sish jarayonlari vertikal o'sish indeksi asosida baholangan. Natijalarga ko'ra, viloyatning o'nta hududida vertikal o'sish indeksi viloyat bo'yicha o'rtacha qiymatdan past bo'lib, bu holat ko'p kvartirali uy-joylar qurish bo'yicha hududlararo tengsizlikning yuqori ekanini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *shaharlar kengayishi, aholi zichligi, uy-joy fondi, qurilish, ko'p qavatli uy, vertikal o'sish, infratuzilma xarajatlari.*

Аннотация. *В статье проанализировано состояние жилищного строительства в регионе, рассчитанное по основным показателям уровня урбанизации на примере Кашкадарьинской области. В анализе жилье было разделено на одноэтажное и многоэтажное, а процессы роста по высоте территорий оценивались на основе индекса вертикального роста. Согласно результатам, в десяти районах области индекс вертикального роста ниже среднего по региону, что свидетельствует о высоком межрегиональном неравенстве в объеме строительства многоквартирного жилья.*

Ключевые слова: *расширение городов, плотность населения, жилищный фонд, строительство, высотное строительство, вертикальный рост, затраты на инфраструктуру.*

Abstract. *The article analyzes the state of housing construction, calculated from the main indicators of the level of urbanization in the region, using the example of the Kashkadarya region. In the analysis, the housing was divided into individual and multi-storey, and the processes of growing the height of the areas were assessed on the basis of a vertical growth index. According to the results, the vertical growth index in ten areas of the province was lower than the provincial average, indicating a high inter-territorial inequality in the construction of multi-apartment housing.*

Keywords: *urban expansion, population density, housing stock, construction, high-rise building, vertical growth, infrastructure costs.*

Kirish. O‘zbekiston – 2030” strategiyasida urbanizatsiya darajasini 2030-yilga kelib 51% dan 60% ga oshirish maqsad qilingan. Bu strategiyada Samarqand va Namangan shaharlarini “millionlik shaharlar”ga aylantirish, aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish va barcha aholi yashash joyini bosh rejasini tuzish rejasi qo‘yilgan. Mana shu talablardan kelib chiqib, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari tomonidan mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonining rivojlanish tendensiyalari o‘rganib chiqildi. O‘zbekiston hududida urbanizatsiya darajasining ortishiga aholi daromadlarining oshishi, bilim darajasi yuqori kadrlarning ko‘payishi va uy-joylar qurilishi yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Oxirgi 10 yilda O‘zbekistonda shahar va qishloq aholisi soni 20,7% o‘sdi. Shu paytda urbanizatsiya darajasi 50-51% orasida qolib, Toshkent shahri hisobga olinmasa, boshqa hududlarda urbanizatsiya darajasi 46-47 % atrofida bo‘ldi. Urbanizatsiya global hodisa bo‘lib, bugungi kunda dunyo aholisining yarmidan ko‘pi shaharlarda istiqomat qiladi va 2050-yilga borib bu raqam 68 foizga ko‘tarilishi kutilmoqda. Urbanizatsiya jarayoni butun dunyo iqtisodiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga turtki berdi. Urbanizatsiya yangi ish o‘rinlari va ishlab chiqarishlarning paydo bo‘lishi hamda mavjudlarining o‘sishiga olib keldi. Shaharlar innovatsiya markazlari bo‘lib, u yerda yangi g‘oyalar va texnologiyalar ishlab chiqiladi va sinovdan o‘tkaziladi. Bu jahon iqtisodiyotini o‘zgartirgan texnologiya va moliya kabi yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Urbanizatsiya, shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarining o‘sishiga olib kelib, fabrikalar va ishlab chiqarish obyektlari ko‘lamli iqtisod va transport tarmoqlarining ommabopligini ta’minlash uchun shaharlarda to‘plandi. Shu tariqa urbanizatsiya global iqtisodiyot, xususan, mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibini shakllantirish va rivojlanishda muhim rol o‘ynadi.

Adabiyotlar sharhi. Urbanizatsiya – bu aholining qishloq joylardan shaharlarga ko'chishi va shaharlarda turli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning yuzaga kelishi jarayonidir. Shu bilan birga, har bir mintaqaning urbanizatsiya darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Urbanizatsiyaning rivojlanishi har bir hududda iqtisodiy holat, ijtimoiy infratuzilma, boshqaruv tizimi, va tabiiy resurslarga bog'liq ravishda farq qiladi. Urbanizatsiya darajasini tizimlashtirish, hududiy rivojlanishni boshqarishning samarali usullari orqali amalga oshirilishi kerak. Harvey, D. (1973). "Social Justice and the City" — Ushbu asarda urbanizatsiya jarayoni va shaharlarni tashkil etish bilan bog'liq ijtimoiy adolat masalalari ko'rib chiqiladi. Harvey urbanizatsiya darajalarini farqlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Castells, M. (1989). "The Informational City" — Bu asar urbanizatsiyaning zamonaviy shakllarini, global iqtisodiyot va texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq jarayonlarni o'rganadi. Urbanizatsiya darajasini tizimlashtirishda mintaqaviy rivojlanish strategiyalari muhim rol o'ynaydi. Har bir mintaqada iqtisodiy o'zgarishlar, sanoatning rivojlanishi, va demografik o'sish urbanizatsiyani turlicha ta'sir qiladi. Boshqaruv siyosatlari, investitsiya strategiyalari va hududiy barqarorlikka yo'naltirilgan choralar mintaqaviy urbanizatsiyani tizimlashtirishda muhim omillardir. McGranahan, G., & Satterthwaite, D. (2003). "The Transition to a Predominantly Urban World and Its Underpinnings" — Ushbu maqolada urbanizatsiyaning dunyo miqyosida qanday o'tganligi va rivojlanayotgan mintaqalarda qanday tahlil qilinishi muhokama qilinadi. World Bank. (2009). "World Development Report 2009: Reshaping Economic Geography" — Bu hisobotda mintaqaviy

urbanizatsiya darajalarining qanday tizimlashtirilishi kerakligi, ya'ni mintaqaviy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalar muhokama qilinadi.

Tadqiqot uslubiyoti. Mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi yangi uy-joy siyosatini amalga oshirishda urbanizatsiya jarayonlarini aktivlashtirish, ya'ni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta’minlangan, ipotekani kreditlash va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanib, shu bilan birga kam va o‘rta daromadli oilalarga arzonlashtirilgan uy-joylarni qurishga qaratilgan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda maxsus chora-tadbirlar nazarda tutilgan:

jismoniy va yuridik shaxslarga turar joy va noturar joy binolari va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga egalik qilish huquqi berilishini kafolatlash, yer uchastkalarini fuqarolik muomalasiga kiritish uchun sharoit yaratish;

migratsiya jarayonlarini ma’muriy tartibga solish tizimini takomillashtirish orqali aholini qishloqlardan shaharlarga erkin harakatlanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

katta shaharlar aholisining farovonligini ta’minlash, iqtisodiy va sanoat resurslaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga shu shaharlar aholisini to‘liq va samarali bandligini ta’minlashga ko‘maklashish va shu bilan birga hududlardagi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida texnoparklar tashkil qilish va ularning tizimini mustahkamlash;

sanoat, xizmat va servis sohasida aholi daromadlarini oshirish va barqaror ish joylarini yaratishda aglomeratsiyalarning afzalligidan foydalanishni nazarda tutib, o‘rta shaharlarni, shu bilan birga, tuman markazlarini boshqarishda xalqaro tajribani keng joriy qilish

katta shaharlarga tutash bo‘lgan va qulay transport qatnoviga ega yo‘ldosh-shaharlarni kengaytirish, katta shaharlarning markazida sanoat va boshqa zonalar hududlarini qisqartirib ijtimoiy-ishbilarmonlik zonalar hududlarini kengaytirish kabi yo'nalishlar belgilandi.

O‘zbekiston – 2030” strategiyasida urbanizatsiya darajasini 2030-yilga kelib 51% dan 60% ga oshirish maqsad qilingan. Bu strategiyada Samarqand va Namangan shaharlarini “millionlik shaharlar”ga aylantirish, aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish va barcha aholi yashash joyini bosh rejasini tuzish rejasi qo‘yilgan. Mana shu talablardan kelib chiqib, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari tomonidan mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonining rivojlanish tendensiyalari o‘rganib chiqildi. O‘zbekiston hududida urbanizatsiya darajasining ortishiga aholi daromadlarining oshishi, bilim darajasi yuqori kadrlarning ko‘payishi va uy-joylar qurilishi yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Oxirgi 10 yilda O‘zbekistonda shahar va qishloq aholisi soni 20,7% o‘sdi. Shu paytda urbanizatsiya darajasi 50-51% orasida qolib, Toshkent shahri hisobga olinmasa, boshqa hududlarda urbanizatsiya darajasi 46-47 % atrofida bo‘ldi.

Toshkent shahrining chiroyliligi va sharoiti sabab mehnatga layoqatli aholining ushbu shaharga ko‘chib kelishi ortib boryapti. Masalan, Toshkentdagi doimiy aholining 64% i ishga layoqatli yoshdagi odamlar bo‘lsa, hududlarda bu ko‘rsatkich 54% dan oshmaydi.

Mustaqillik paytlarida O‘zbekistonda shahar aholisining soni 10% oshdi. Bunaqa o‘sishga, asosan ma'muriy o‘zgarishlar, 2009- yilda 1000 ga yaqin qishloq joylarni shaharlarga aylantirilishi evaziga erishilgan. Bu haqda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tarqatgan bayonotida aytib o'tilgan. 1991-yil O‘zbekistonda shaharliklar umumiy aholining 40,3%ini tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilda esa bu son 50,6% ga o‘sdi.

O‘zbekistonning urbanizatsiya darajasi jahon bo'yicha juda past. BMTning xalqaro reyting ko‘rsatkichlarida O‘zbekiston bu yo‘nalishda 233 mamlakat orasida 155-o‘rinda. O'zi bu sohada dunyodagi o‘rtacha ko‘rsatkich 55,3% dir. Urbanizatsiya jarayonlarini aktivlashtirish maqsadida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning parlamentga murojaatida urbanizatsiya darajasini 2030-yilgacha 60%ga chiqarish vazifasini strategik maqsad qilib qo'ydi.

Katta qishloqlardagi aholi yashash joylarini shahar posyolkalariga aylantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramay, Hozirgi vaqtdagi urbanizatsiya darajasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy talablarga javob bermayapti va jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada orqada qolib ketyapti. Shu sabab urbanizatsiya darajasi hali ham barqaror emas.

Urbanizatsiya jarayonlarini davlat tomonidan samarali tartibga solinishini ta'minlash uchun va yer uchastkalarining aylanmasi va ulardan foydalanish uchun zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy qilish maqsadida:

O'zbekiston hududida shahar aholisi eng ko'p yashaydigan hudud bu Toshkent shahri va Toshkent viloyatidir. Bu yerda O'zbekiston shahar aholisining 33,0% i yashaydi. Toshkent shahrida respublika shahar aholisining 22,8 % i yashaydi. Toshkent respublikadagi eng urbanizatsiyalashgan hudud bo'lib, bu yerda shahar aholisi, jami aholining 68,5 % ini tashkil qiladi. Toshkent viloyati esa shahar aholisining 39,5% ini tashkil qiladi. Shahar aholisi zich joylashgan keyingi hudud Farg'ona bo'lib , uning tarkibiga Namangan Andijon va Farg'ona viloyatlari kiradi. Hududning shahar aholisi 2,5 mln. kishini tashkil qiladi. Bu hududda respublika shahar aholisining 24 % i yashaydi. Farg'ona vodiysining urbanizatsiya darajasi 31,6 % bo'lib, bu ko'rsatkich Namangan viloyatida 37,5 %ni, Andijon viloyatida 29,8 %ni, Farg'onada esa 28,4 %ni tashkil qiladi. Zarafshon hududi tarkibiga Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari kiradi. Bu hududning shahar aholisi 1,5 mln.kishini tashkil qiladi va bu hududda respublikamiz shahar aholisining 16 %i yashaydi. Viloyatlar bo'yicha shahar aholisi Samarqandda 25,9 %ni, Buxoroda 30 %ni, Navoiyda 39,8 %ni tashkil qiladi. Hududning umumiy urbanizatsiya darajasi 32,7 %ni tashkil qiladi.

Quyi Amudaryo hududidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati shahar aholisi 1,1 mln.kishi bo'lib, ular Respublika shahar aholisining 11,5 %ini tashkil qiladi. Bu hududda shahar aholisining soni ancha yuqori bo'lib, 35,5 %ni tashkil qiladi. Qoraqalpog'istonning Respublikadagi urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lib bu ko'rsatkich 48,7 %ni tashkil qiladi.

Janubiy hududlardagi Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari shaharlarida 941 ming kishi bo'lib,respublika shahar aholisining 10 %i yashaydi. Hududning urbanizatsiya ko'rsatkichi 22,5 % bo'lib bu ko'rsatkich Surxondaryoda 19,4 %ni, Qashqadaryoda esa 24,8 %ni tashkil qiladi.

Mirzacho'l hududi tarkibiga kiradigan hududlar Sirdaryo va Jizzax viloyatlari bo'lib, bu viloyat shaharlarida 518,3 ming kishi yashaydi, Bu Respublika shahar aholisining atigi 5,5%i tashkil qiladi. Hududning umumiy urbanizatsiya darajasi 31,1 %ni tashkil qilib, bu ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 31,4 %ni, Jizzax viloyatida 29,9 %ni tashkil qiladi.

Xorazm, Surxondaryo Qashqadaryo viloyatlari respublikamizdagi urbanizatsiya darajasi eng past viloyatlar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot xulosasida aytilganidek, yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish, malakali kadrlar tayyorlash darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilangina urbanizatsiya darajasini oshirishsa bo'ladi. Bularning barchasi yashash sharoitlarini yaxshilashga va urbanizatsiya jarayonini rivojlantirishga yordam beradi.

Andijon, Xorazm, Toshkent, Buxoro, Jizzax, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog`iston Respublikalarida esa shaharlarda sanoat va xizmatlar sohasida yangi korxonalar va ish o‘rinlari yaratilishi urbanizatsiyaga ijobiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Mintaqaviy dasturlarni tuzishda hududlarning ixtisoslashuv darajasini oshirish, sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish mazkur hududlarda urbanizatsitya darajasining ortishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Michaels G., Rauch F., Redding S. J. Urbanization and structural transformation //The Quarterly Journal of Economics. – 2012. –127(2). – P. 535-586.

2. Shukhratovich M. Sh. Managing changes in the structure of employment in the regions of Uzbekistan //South Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. –11(2). – P. 52-62.

3. Sivaev D. et al. The Time is Now. – 2022. P.26.

4. Jedwab R. Urbanization without structural transformation: Evidence from consumption cities in Africa // George Washington University.–1/2-2024. P.120.

7. Rakhimova M.Sh. Increasing the level of urbanization by deepening structural changes //Journal of Management Value & Ethics, – 2023.– P. 86-93

8. Рахимова Мадина. Градостроительство в контексте трансформации // Economy and Innovation. Volume: 36 | 2023

UO’K 908

XIX ASR OXIRI - XX ASR IKKINCHI YARMIDA YERGA EGALIKNING AN’ANAVIY SHAKLLARI (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

F.Sh. Raxmonov, prof., DSc, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida Janubiy O‘zbekistonda yer egaligining an’anaviy shakllari, undan foydalanish va ularning transformatsiya jarayonlarini mavjud manbalar, arxiv materiallari, tarixiy-etnografik adabiyotlar hamda etnologik dala materiallari asosida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Janubiy O‘zbekiston, yer, bahorgi, kuzgi, lalmikor, transformatsiya, amlok, mulk, vaqf, paykal, hashar, posira.*

Аннотация. *В данной статье на основе доступных источников, архивных материалов, историко-этнографической литературы освещаются традиционные формы собственности на землю, ее использование и процессы их трансформации в Южном Узбекистане в конце XIX века - вторая половина XX века.*

Ключевые слова: *Южный Узбекистан, земля, весна, осень, лалмикор, трансформация, поместье, собственность, вакф, пайкал, хашар, посира.*

Abstract. *This article, based on available cources, archival materials, historical and ethnographic literature, highlights the traditional forms of land ownership, its use and the processes of their transformation in Southern Uzbekistan at the end of the XIX the century-the second half of the XX th centuries.*

Keywords: *Southern Uzbekistan, land, spring, autumn, lalmikor, transformation, estate, property, waqf, paykal, hashar, posira.*

Janubiy O‘zbekiston hududida XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida sug‘oriladigan, lalmikor hamda yaylov yerlar mavjud bo‘lgan. Sug‘oriladigan yerlar bahorgi (obikor) va kuzgi (tiramayi) deb ham atalib, ular asosan, arik va kanal suvlaridan sug‘orilgan. XIX asrga oid manbalarda lalmikor yerlar bahorikor deb ham atalgan bo‘lib, ular tabiat yomg‘ir va qor suvlaridan to‘yingan. Ushbu davrda dehqonchilik uchun yaroqsiz bo‘lgan va foydalanilmay-digan yerlar odatda yaylov vazifasini bajargan. Ushbu maqolamizda XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida Janubiy O‘zbekistonda yer egaligining an’anaviy shakllari, undan foydalanish va ularning transformatsiya jarayonlarini tahlil etishni maqsad qilganmiz. Shuni alohida aytish kerakki, XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida yerga egalik qilish va undan foydalanish to‘g‘risida to‘la-to‘kis fikrlar bildirish qiyin. Bu *birinchi*dan, o‘sha davrda yerdan foydalanish va unga egalik qilish bo‘yicha maxsus qonun hujjatlari mavjud emasligi bilan bog‘liq. *Ikkinchi*dan, yerdan foydalanish va unga egalik qilish bo‘yicha ma’lum tartiblar mavjud bo‘lsada, ular ma’lum bir hujjatda aniq va tushunarli qilib ko‘rsatilmaganligidadir. *Uchinchi*dan, biz bu sohani fakatgina o‘sha davrda yashagan ma’lum tadqiqotchi yoki amaldor tomonidan yozilgan ma’lumotlar yoki bo‘lmasa yerga egalik qilish va undan aniqlash bo‘yicha ishlarni o‘z ichiga olgan arxiv hujjatlari orqali bilishimiz mumkin. Bu hujjatlarda yoki ishlardagi ma’lumotlar odatda faqatgina o‘sha ma’lumot beruvchi shaxs nuqtai nazaridan berilgan va ma’lumotlar o‘sha shaxsning bu soha bo‘yicha fikrini ifodalaydi, xalos. *To‘rtinchi*dan, XIX asr oxirigacha o‘rganilayotgan mintaqada ma’lum darajada bir-biridan farq qiladigan turli xil yerdan foydalanish va unga egaligi tartiblari amalda bo‘lgan.

O‘rta Osiyo xududlarida, xususan, mintaqada mazkur yerlar huquqiy egalik jihatidan uch turga bo‘lingan bo‘lib, ular amlok [1:79.], mulk [1:633.] va vaqf [1:450.] yerlari deb atalgan [2:150-151.]. Amlok so‘zi yuridik jihatdan davlat yerlarini anglatgan hamda davlat ushbu yerlarni ijara asosida dehqonlarga bergan. Xususiy yerlar yuridik jihatdan mulk deb nomlanib, ushbu yerlarni sotish, meros qoldirish, hadya qilish va vaqf qilish mumkin bo‘lgan. Xususiy yerlar mintaqada “mulk” deb atalgan bo‘lsa, Xorazm vohasida “ato-i mulk” deb nomlangan [3:308-323.]. Uchinchi turdagi yerlar vaqf yerlari bo‘lib, ushbu yerlar xususiy yerlarni masjid va madrasalar tassarrufiga o‘tkazish orqali vaqf yerlariga aylantirilgan. Amlok yerlaridan foydalanayotgan shaxslar ularni ijaraga berish mumkin

bo‘lgan, biroq uni sotish mumkin bo‘lmagan. Mulk yerlarga egalik qiluvchi dehqonlar esa o‘z yerlarini sotishi mumkin bo‘lgan. Mulk yerlar o‘z navbatida soliq to‘lovi nuktai nazaridan 3 turga bo‘lingan:

1.Mulk-i hurrii (yoki hurri xolis, mulk-i mutloq): davlat solig‘idan ozod etilgan yerlar. Ushbu yerlar odatda biror shaxsning xizmatlari evaziga soliqdan ozod etilgan: 2.Mulk-i ushriy: ushbu yerlardan butun hosilning 1/10 hisobida soliq olingan: 3.Mulk-i xirojiy: ushbu yerlardan 1/5 miqdoridan 1/2 miqdorigacha soliq olingan.

Yerlar odatda bir shaxs yoki ma’lum jamoa tomonidan birgalikda foydalanilgan. XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida Janubiy O‘zbekiston hududlarida yerga egalik kilish va undan foydalanishni tasdiqlovchi ikki xil yo‘l mavjud bo‘lgan.

Birinchisi, qozilar tomonidan berilgan vasiqa hujjatlari bo‘lib, u ma’lum yerga egalik qilish va foydalanish huquqini bergan. Bunday holda odatda yerlar oldi-sotdi yoki meros orqali bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tgan.

Ikkinchisi, hujjatga asoslanmasdan, balki faqat og‘zaki xotira va guvohlikka asoslangan. Aynan yerga egalik kilish va undan foydalanishni ushbu shakli boshqa hududlar bilan bir vaqtda biz o‘rganayotgan mintaqada ham amal qilgan [4.]. Yerga ishlov berish va yangi yerlarni ochish orqali yerga egalik qilish mumkin bo‘lgan. Bunda dexqon ushbu yerdan ma’lum davr davomida foydalangan, biroq uni xususiy mulk sifatida olmagan.

Uchinchisi, bo‘sh yotgan yerdan foydalanish davri 15 yil qilib ko‘rsatilgan bo‘lsa [5:1-12.], ayrim manbalarda bu davr 90 yil qilib ko‘rsatilgan. Agarda bir avlod vakillari ma’lum davr davomida yerga ishlov bersa, ushbu yer mazkur avlod vakilining mulki hisoblangan, ya’ni har bir yer egasi o‘zining ushbu yerga nisbatan huquqi yerdan foydalanish muddatiga bog‘liq bo‘lgan. Shundan so‘ng yerga bo‘lgan huquq xuddi sug‘oriladigan yerlarga bo‘lgan huquqdek bir xil bo‘lgan.

Boshqacha aytganda, mulkning avloddan avlodga o‘tishi va oldi-sotdi orqali bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi qozilik sudlarining hujjatlari orqali amalga oshirilgan. Bunda yerdan foydalanuvchi qozi oldiga to‘rtta qo‘shnisini olib kelgan va ularning yerlari ushbu shaxsning yerlari bilan chegaradosh ekanligi, bu yer shu shaxs tomonidan foydalanib kelinayotganligi to‘g‘risida guvohlik berganlar. Shundan so‘ng yerdan foydalanuvchiga yerga egalik qiluvchi hujjat berilgan. Ushbu shaxs avvallari yerdan foydalangan bo‘lsa, endi unga egalik qilish huquqini ham olgan. Agarda ayrim yerlar bir shaxs tomonidan foydalanilgan yoki egalik qilingan bo‘lsa[6:24.], boshqa yerlar ma’lum qishloq yoki urug‘ jamoalari tomonidan birgalikda foydalanilgan [7.].

Janubiy O‘zbekiston qishloq jamoasining XIX asr oxiri - XX asrdagi tizimini o‘rganish mazkur jamoaning ilk tarixini qayta tiklash imkonini beradi. Qishloq jamoasi ko‘ni-qo‘shnichilik munosabatlariga asoslangan bo‘lib, u avlodlarining o‘zaro xo‘jalik, ijtimoiy va ma’naviy yaqinligi tufayli bir birlari bilan aloqada bo‘lgan kishilarning yerdan jamoa bo‘lib foydalanishi xo‘jalik birligini tashkil etgan. Qishloq atrofidagi yaylovlar, pichanzorlar, ekindan bo‘shagan yoki haydaladigan yerlardan butun jamoa a’zolari foydalanganlar. Sug‘oriladigan unumdor yerlar esa XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida Janubiy O‘zbekistonda xususiy mulkka aylana boshlagan edi.

Janubiy O‘zbekistonda qishloq jamoasi davlat organlari tomonidan boshqarib turilgan hamda huquqiy, xo‘jalik va ijtimoiy munosabatlarni o‘z nazoratiga olgan. Mintaqada qishloq jamoalari o‘zining mustaqilligi, o‘zaro uyushib mehnat qilishi, turmush birligi an’anasi, oilaviy aloqalari bilan alohida ajralib turgan.

Mintaqada qishloq jamoasi o‘z hududi, yaylovi, bulog‘i, qudug‘i kabilarga ega bo‘lgan. Sartarosh, temirchi, podachi, cho‘pon, duradgor va boshqalar jamoa a’zolariga xizmat qilib, mehnat evaziga natura shaklida haq olganlar. Shuningdek, har bir jamoaning belgilangan o‘z tegirmoni, samovari (choyxonasi), umumiy qozoni (“qora qozon”, “to‘y qozoni”, “ma’raka qozoni”) va boshqa jihozlari mavjud bo‘lgan [8.].

Qishloq yig‘ini, oqsoqollar kengashi, ellikboshilar, miroblar qishloq jamoasini boshqarishda ishtirok etganlar. Yig‘inda oqsoqol va uning yordamchisi, ellikboshi, mirob, sartarosh, oshpazlar saylangan. Qishloq jamoasini ma’muriy, xo‘jalik va ijtimoiy boshqarishda oqsoqolning o‘rni ayniqsa katta bo‘lgan. Oqsoqolni saylashda uning obro‘si, ish yuritishi, tadbirkorligiga alohida e’tibor qaratilgan. Oqsoqol qishloq yig‘iniga rahbar sifatida jamoaga qarashli hududlar nazoratini

ta’minlagan, yo‘l, ko‘prik va boshqalar ahvolini tekshirgan hamda tartib-intizom va tozalik saqlanishiga boshchilik qilgan. U jamoadagi urf-odat va marosimlar bajarilishiga rahbarlik qilib, nizolarni bartaraf etgan. Jamoaning yordamga muhtoj a’zolariga g‘amxo‘rlik qilib, yordam uyushtirgan. Oilaviy va jamoa hasharlarini tashkil etishga ham oqsoqol bosh-qosh bo‘lgan.

Qishloq jamoasi erkaklarining to‘planadigan joylari - mehmonxona, jamoa joylari - gashtakxona (gapxona), choyxona va masjid hisoblangan.

Jamoa ishlari - sug‘orish tarmoqlari, koriz, hovuz, quduqlarni tozalash, masjid, choyxona qurish, yo‘l va ko‘priklarni tuzatish kabi yumushlar va tomonidan hashar uyushtirish orqali bajarilgan.

O‘zbek qishloq jamoasi an’analari mintaqadagi paykal tizimi misolida o‘zini yaqqol namoyon etadi. XIX asr oxiri -XX asr ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va qo‘shni mamlakatlarda yer-suvdan foydalanishda paykal tizimi mavjud bo‘lgan [9.]. “Paykal” so‘zi turkcha “pay” - qism, joy, “kal” - tojikcha qazimoq degan ma’nolarni anglatadi [10:118.]. Shuningdek, paykalga marza, ariq, yo‘l va shu kabilar bilan ajratilgan katta ekin maydoni, pol, chek deb ham ta’rif berilgan [11:567.].

O‘zbek qishloq jamoasida - paykal yer-suvdan birgalikda foydalanishning eng asosiy shakli hisoblangan. Jamoa a’zolari yer-suvga umumiy huquq va majburiyatlar bo‘yicha o‘zaro chambarchas bog‘langan edi. Yer-suv butun jamoa tasarrufida bo‘lib, begona va notanish kishilarning paykalga kirishiga ruxsat berilmagan [12:115-119.]. Akademik K.Shoniyozovning ma’lumoticha, o‘tmishda paykal tizimi faqat Janubiy O‘zbekistonning Qarshi va Sherobod vohalarida hamda Shimoliy Afg‘onistonda ancha barqaror saqlanib qolgan edi. XX asr 20-yillarida Qarshi va Sherobod vohalaridagi paykal tizimi tadqiqotchilar tomonidan ma’lum darajada o‘rganilgan [13:69-75].

XVIII asr oxirlaridan boshlab mintaqada ma’lum o‘lchovdagi yer maydoni “paykal” deb atalgan [14:111.]. Bu davrda Buxoroda yer maydonidan hamkorlikda foydalangan bir guruh kishilar ham “paykal” deyilgan [15:32.]. Bir paykalga taxminan 50 tanobgacha (12,5 gektar) yer maydoni, to‘g‘ri kelib, unga 8 kishi (“tan”) kirgan. Sug‘oriladigan ariqning o‘lchamini hisobga olgan holda yer maydon-laridan hasharchilar (“hayrovchilar”) ajratilgan. Bu davrda ariqlarini tozalashda paykaldan ajratilgan kishlar navbati bilan qatnashishgan [16.].

Axborotchilarning aytishicha, suv chiqishi qiyin bo‘lgan bo‘sh yerlar posira, unda mehnat qiluvchi kishilar esa posirakorlar deb nomlangan. Bunday yerlarda hosil yetishtirish qiyin kechgan. Posira yerlar asosan qor va yomg‘ir suvlari bilan sug‘orilgan. Kamdan-kam hollarda dehqonlar okar suv bilan bir-ikki bor sug‘orishgan. Shuning uchun, posirakorlar suv inshootlarini tozalash ishlarida ayrim hollarda qatnashishgan.

Shu o‘rinda posiro atamasi xususida A.Muhammadjonovning fikrlari diqqatga sazovordir. Olim o‘zining “Posiro etnotoponimi va atamasining etimonida ijtimoiy-agpap munosabatlar” [17:77-83.] maqolasida posira atamasining turli izohli lug‘atlarda quyidagi ma’nolardai qo‘llanipshni aniqlagan: posira - ekishga tayyorlangan yer maydoni, ziroat, dehqonchilik, yer egasi, ekinzor, tomorqa, paykal.

Paykaldagi yer, suv, urug‘, mehnat qurollari, ish hayvonlari va boshqa vositalar katta oilaning mulki hisoblangan. Odatda, jamoa yerlari ikki-uch qismga bo‘lingan, bir qismi joriy yilda va qolgan qismi esa uchinchi yilda ekilgan.

Janubiy O‘zbekistonda paykal yerlari Sherobod vohasida uch, qolgan hududlarda ikki qismga taqsimlangan. Bu yerlarda asosan arpa, bug‘doy, Sherobod vohasida bulardan tashqari chigit, kunjut va sholi ham ekilgan.

Mehnat qurollari va ish vositalariga ega bo‘lmagan kishilar ham paykalga kirib, asosan, og‘ir yumushlarni bajarganlar. Bo‘ydoq yigitlar esa paykalga qabul qilinmagan. Paykalga qishloq jamoasidagi yaqin qarindoshlar, tanishlar va ba’zan begona kishilar ham kirishgan. Paykal tarkibi esa ko‘pincha barqaror saqlangan, gohida esa har yilda yangilanib ham turilgan.

Paykal a’zolari o‘zlari orasida obro‘li bir kishini boshliq (“chakboshi”, “paykalboshi”) sifatida saylashgan. Chakboshi barcha yumush va tadbirlarga rahbarlik qilgan. Qishloq oqsoqoli chakboshilar ishtirokida erta bahorning omadli, xosiyatli kunlarini ko‘pincha dushanba, chorshanba, shanba kunlari belgilangan. Daladagi yerga chek (qur’a) tashlab, teng bo‘laklarga taqsimlab bergan.

Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida hududida joylashgan Qarluq qishlog‘ida 50 ta paykal mavjud bo‘lib, ularni sug‘orish tizimiga ko‘ra bir kecha-kunduzda uchtadan paykal sug‘orilishi kerak

edi. Ulardan ikkita paykal kunduz kuni, bittasi kechasi sug‘orilgan. Har paykalga 16-17 kunda navbat kelgan. Maymanoq qishlog‘ida esa 37 ta paykal bo‘lgan. Paykallarni sug‘rish nabati qishloq oqsoqoli bilan maslahatlashgan holda belgilangan [18.]. Raykallarni sug‘orish uchun bir chelak suv ketadigan ko‘zaning osti teshilib, suv undan oqizilgan. Bu kabi jarayonlarning quyi Qashqadaryodagi Qatag‘on, Mesit, Komilon, Obron, Qovchin kabi qishloqlarda ham ko‘rish mumkin. Shunindek, qishloq a’zolarining o‘z tomorqasi ham bo‘lgan. Bu yerlar paxsa devor yoki chimdevor bilan o‘rab olingan. Mintaqa tumanlarining dasht hududlarida devor bilan o‘rashga ehtiyoj yo‘qligi uchun turli belgilar qo‘yilgan va bunday yerlarni “hayat” deb atalgan[19.].

XX asr boshlarida o‘zbek xalqining iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga bozor munosabatlarini kirib kelishi jarayoni kuchayishi natijasida paykal tizimidagi qon-qarindoshlik an’analari buzila boshlagan. SHo‘rolar hokimiyatining dastlabki yillarida dehqonlar yer-suvdan jamoa bo‘lib foydalanish an’analaridan unumli foydalanishgan. Lekin, mustabid tuzumning zo‘ravonlikka asoslangan siyosati natijasida paykal tizimning noyob va e’zozli udumlariga ham zarba berilgan.

Mintaqada jamoa yer maydonlari bir nechta mayda qismlarga - cheklarga bo‘lingan keyin ular qur’a tashlash orqali jamoa a’zolari o‘rtasida taqsimlangan. Agarda jamoa a’zolari ushbu chek yerlarida bog‘, uy qurgan yoki chek yerni devor bilan o‘rab chiqqan bo‘lsa avloddan avlodga o‘tish orqali egalik qilish mumkin bo‘lgan [20:21.]. Bu vaziyatda xususiy mulkning bir shakli ekanligini anglatmaydi. Ma’lum bir jamoa yoki xonadon aniq bir yer maydonidan avloddan avlodga o‘tish huquqi orqali foydalanadi. Odatda ushbu yer maydoni shaxsning hovlisiga yaqin joyda joylashgan bo‘ladi va yer egasi unga ishlov berish orqali o‘zini foydalanish tasarrufiga o‘tkazadi. Shundan so‘ng ushbu yer uning avlodi tomonidan nasldan naslga o‘tish orqali foydalaniladi, biroq ularda yerni sotish huquqi mavjud bo‘lmaydi. Agarda yer egasining o‘g‘li bo‘lmasa yoki yerdan foydalanuvchi boshqa jamoa vakiliga turmushga chiqsa, nasldan-nasilga o‘tib foydalanib kelayotgan bu yerdan ajraladi hamda jamoa tasarrufiga (ixtiyoriga) o‘tadi [21:177.]. Shu bilan birga, jamoa tarzida foydalaniladigan yerlarning aksariyatini pichanzorlar tashkil etgan. Ushbu pichanzorlar ma’lum jamoa tomonidan foydalanib, har yili pichan o‘rilishidan avval taqsimlangan. Jamoaning pichanzor maydonlari bir nechta mayda qismlarga-qur’a tashlash orqali “chek”larga bo‘lingan va xo‘jalik ovulining bir qancha qarindosh guruhlari o‘rtasida taqsimlangan. Qur’a tashlash orqali pichanzor maydonlarini olgan ma’lum jamoa guruhi pichanzorni birgalikda chegirma qiladi va tayyorlangan pichanlar bog‘lami (bog‘i) jamoa a’zolari o‘rtasida teng taqsimlanadi. Pichanzor maydonlaridagi o‘tlarning zichligi (mo‘lligi) bo‘yicha farq chekda shunday hisob bilan bo‘linadiki, unda har bir xo‘jalik taxminan bir xil pichan o‘ram (bog‘) larini qabul qilgan. Odatda pichan o‘ramlarini har bir jamoaning vakillari o‘z a’zolari o‘rtasida taqsimlagan va xisob-kitobini yuritgan. Bunda chekdagi maydonlar ko‘z bilan chamalangan holda bo‘lingan [22:26.].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Janubiy O‘zbekistonda yerga egalik qilish hujjatlar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, ayrim yerlarga og‘zaki xotiraga tayangan holda egalik qilingan. Shuningdek, yerlar faqatgina ma’lum shaxs tomonidan foydalanmasdan, balki ayrimlari ma’lum jamoa tomonidan o‘zlashtirilgan. XIX asrning oxiridan boshlab mintaqadagi yer egaligi va undan foydalanish tartiblarida mustamlaka ma’muriyatining tashabbuslari bilan o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Shu bilan birgalikda, xonliklar davrida yerga egalik masalalari qozilik institutlari tomonidan tartibga solib turilgan bo‘lsa, XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida mustamlaka ma’muriyati tomonidan amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildlik, 2- jild -T., O‘zMEDIN.2006.

2.Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае, Санкт-Петербург 1908. С. 64; Azizov I. XIX asrning so‘nggi choragi - XX asr boshlarida Buxoro amirligida huquqiy yer egaligi turlari./Respublika yosh olimlar ilmii amaliy konferensiyasi. –T., 2013.

3.Ato-i mulk yer egaligining xususiyatlari haqida batafsilroq qarang: Abdurasulov U. Atā'i-mulk and Yārliqli-mulk: Features of No2 (88); Abdurasulov of land tenure in Khiva. // Der Islam, 2012. №2 (88).

4.Dala yozuvlari. Muzrobot tumani, Qo‘shmon qishlog‘i. 2024 yil.

5.O’zR MDA, I-21-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 10-yig‘majild.

6.Вирский Н.М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакскаго уезда Самаркандской области. / Справочная книжка Самаркандской области. Вып. X, Самарканд, 1912.

7.Dala yozuvlari. Qamashi tumani Qirg‘izsaroy qishlog‘i. 2024 yil.

8.Dala yozuvlari. Kasbi tumani Qatag‘on va Qumqo‘rg‘on tumani Chashka qishloqlari. 2024 yil.
9.Шакиязов К. Ш. Узбеки-карлуки. - Т., 1964; Давыдов А. Д. Афганская деревня. - М.: 1969.
10.Радлов В. В. Опыт словара тюркских наречий. т. IV. ч 1. СПб.,1911.
11.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-jild, - T., 1981.
12.O.Bo‘riyev. Janubiy O‘zbekiston qishloq jamoalarining etnohududiy xususiyat-lari./ “Akademik Karim Shoniyozov shqishlar” turkumidagi IV Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –Toshkent-Namangan. 2007.
13.Полозов В. А. Узбекское общинное землепользование в Ширабадской и Каршинской степи // Народное хозяйство Средней Азии. -Т., 1925, №7.
14.Вильданова А. Б., Чехович О. Д. Об общинном водоземлепользовании, обозначаемом термином “пайкал”./ “Народы Азии и Африки”, 1965, №1.
15.Шаниязов К. Ш. Общинное землепользовании в селения Калык // КСИЭ, -М., 1960. вып 4.
16.Dala yozuvlari. SHerobod tumani, G‘urjak qishlog‘i. 2024 yil.
17.Muhammadjonov A. “Posiro” etno-toponimi va atamasining etimonida ijgimoiy-agrar munosabatlar./ Akademik Yahyo G‘ulomov nomidagi respublika ilmiy seminarining “O‘zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar” mavzusidagi 37-yig‘ilishi materiallari. –T., 2006.
18. Dala yozuvlari. Muborak tumani Qarliq, Kasbi tumani Maymanoq qishloqlari. 2024 yil.
19.Dala yozuvlari. Chiroqchi, Qamashi, Koson, Qarshi, SHerobod, Termiz, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on tumanlari qishloqlari. 2024 yil.
20.Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане. -Т., 1963.
21.Материалы по обследованию кочевого и оседлого туземного хозяйства и землепользования в Аму-Дарьинском отделе Сыр-Дарьинской области. –Т., 1915.
22.Материалы по землепользованию туземного кочевого населених района Голодной Степи и прилегающих местностей Ходжентскаго и Джизакскаго уездов Самаркандской области. –Т., 1914.

UO’K 9

GILAMDO‘ZLIK SAN’ATI VA NUROBOD TUMANIDA GILAMDO‘STLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOS AN’ANALAR

M.I. Rustamova, magistrant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Anotatsiya. *Ushbu maqolada Nurobod tumanida mavjud bo‘lgan ammo unitlayotgan gilamdo‘zlik san’ati va uning ahamiyati haqida fikr muohazalar, etnografik o‘rganishlar va tahililar mavjud. Gilamlar xalqning orzu va o‘ylarini , maqsadlarni, madaniyatni yoritadigan tarixiy manbalardir. Gilamdo‘zlikni saqlab qolish, uni qayta tiklash, asrab-avaylash lozim. Ushbu maqolada Nurobod tumanidagi gilam turlari, gilam to‘qish usullari, ishlarigan tasvir ma’nolari etnografik usulda yoritib berilgan. Ushbu maqaola etnografik kuzatuv asosida yaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *gilamdo‘zlik, "Gulchinor", "Qohma","Olacha", "Qatti", qo‘y juni, Nurobod, paxta, zig‘ir, jut, "ayiq teri".*

Аннотация*. Эта статья содержит размышления, этнографические исследования и исследования о существующем в Нурабадском районе искусстве ковроткачества и его значении. Ковры-это исторические источники, освещающие мечты и мысли народа, цели, культуру. Необходимо сохранить ковер, восстановить его, сохранить. В этой статье этнографически описаны виды ковров, способы ковроткачества, работы в Нурабадском районе. Эта статья создана на основе этнографических наблюдений.*

Ключевые слова: *ковроткачество, "Гулчинор", "Қоҳма", "Олача", "Қатти", овечья шерсть, Нурабад, хлопок, лен, джут, "медвежья шкура".*

Abstract. *This article contains comments, ethnographic studies and analyses on the art of carpet weaving that exists but is being lost in Nurabad district and its significance. Carpets are historical sources that illuminate the dreams and thoughts, goals, and culture of the people. Carpet weaving should be preserved, restored, and protected. This article covers the types of carpets in Nurabad district, carpet weaving methods, and the meanings of the images they depict using an ethnographic method. This article is based on ethnographic observation.*

Key words: *carpet weaving, "Gulchinor", "Kohma", "Olacha", "Katti", sheep wool, Nurabad, cotton, linen, jute, "bear skin".*

Gilamdo‘zlik san’ati qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanadigan ko‘chmanchi qabilalar orasida keng tarqalgan bo‘lib, o‘simlik (paxta, zig‘ir, jut) tolasi, jun (qo‘y, echki, tuya juni) dangina

tayyorlangan [1]. Gilamchilikning paydo bo‘lgan vaqtini aniq aytish qiyin, chunki jun chidamsiz bo‘lib, qad. gilamlar saqlanmagan. Eng qad. gilam mil. av. 6—5-asrlarga oid bo‘lib, Tog‘li Oltoydan topilgan, abadiy muzloqda bo‘lgani uchun yaxshi saqlangan. Olimlarning taxminiga ko‘ra, u Axomaniylar davri forslari yoki O‘rta Osiyo qabilalari orasida tayyorlangan (hajmi 1,8x2 m; naqsh mujassamoti: handasiy shakllar nilufar gullar bilan bezatilgan, keng hoshiyalarida otliq chavandozlar, xoldor bug‘ular, grifonlar tasviri bor). Qadimgi va ilk o‘rta asrlar gilamchiligiga oid ma’lumotlar yozma manbalarda saqlangan. Saljuqiylar davrida gilamlar ("ko‘nya", topilgan joy nomidan) ko‘plab tayyorlangan va Misr, Hindiston, Xitoyga chiqarilgan.O‘rta asrlarda gilamchilik uch yo‘nalishda — ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador qabilalarda, o‘troq (qishloq yoki shahar) aholi orasida, saroy ustaxonalarida rivojlangan [2].

Dastlab gilamlar qo‘lda, keyinchalik maxsus dastgohlarda to‘qilgan. To‘qish uslubiga ko‘ra patli va patsiz turlarga bo‘linadi.

Qo‘lda gilam to‘qish ancha sermashaqqat ish. 1 kv.m patli gilam to‘qish uchun 20-25 kun vaqt ketadi. Patli gilamlar kalta patli (3-7mm) va uzun patli (8-17mm) bo‘ladi.

Gilam to‘quvchi 1 kv.m yuzada 600-1030 tacha bog‘ bog‘lashi lozim bo‘ladi. Gilamlar hajmi jihatdan uch xil bo‘ladi: kichik (3 kv.m gacha), o‘rtacha (3 kv.m dan 6 kv.m gacha) va katta (6 kv.m dan katta).

Gilamchilik O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida juda qadimdan rivojlangan (Xorazmdagi arxeologik qazishlar paytida mil. av. 1-ming yillikka mansub gilam namunasi topilgan). Gilamchilik bilan asosan ayollar shug‘ullangan, naqsh (gul)lar (islimiy, girih, hayvon shakllari, turli narsalar tasviri, urug‘ tamg‘asi va boshqalar)ni esa xotirada saqlashgan. Bezaklarida yo‘lbars va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya bo‘yni, qalqon, o‘simliklar ifodalangan, ayniqsa xayvon shoxi tasviri keng tarqalgan. Mujassamotining berkligi, markaziy maydonning naqshli hoshiya bilan o‘ralganligi (yo‘l-yo‘l naqshlar bundan mustasno) O‘rta Osiyo gilamlari uchun xos bo‘lgan, naqshining aniqligi, go‘zal bo‘lishi va ranglarining uyg‘unligi ularning badiiy qimmatini oshirgan. Asosiy rang qizil rang va uning 2-3 tuyey bo‘lib, ko‘k, qora, oq, sariq ranglar ikkinchi darajali bo‘lgan. Ranglarning mohirona ishlatilishi bilan ifodali tasvir hosil qilingan. Bir naqsh qismlarini turli ko‘rinishlarda bo‘yalishi bilan rang-baranglikka va jozibadorlikka erishilgan [3].

Andijon, Samarqand gilamlari, qoraqalpoqlar to‘qigan o‘tov jihozlari badiiy jihatdan mohirona ishlangan. Andijon gilamlarining pati qisqa, qalin va mayin bo‘lgan. Samarqandning rangdor uzun patli julxirs ("ayiq teri") gilami o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda, Samarqand tumanida joylashgan Nurobod tumani ham gilamdo‘zlik san’ati haqida faktlarni keltiramiz.

Avvalombor, Nurobod tumani haqida qisqacha ma’lumot keltiramiz. Samarqand viloyatidagi eng katta tuman hisoblangan Nurobod tumani 1975-yil 26-noyabrda tashkil etilgan. Umumiy maydoni- 4.86 ming km2. Tuman Zarafshon tog‘lari va ularning atrofidagi vodiylar bilan o’ralgan. Janubi-g‘arbdan Qashqadaryo viloyati bilan, shimoldan Kattaqo‘rg‘on tumani, sharqdan Pastdarg‘om tumani bilan chegaradosh bo’lib, tarixiy va madaniy jihatdan boy hududp hisoblanadi. Markazi – Nurobod shahri. Tuman aholisi-162 649 kishi (2023-yil ma’lumotlariga ko’ra). Asosan, o‘zbeklar (90-95%), shuningdek, tojik (3-5%), rus (1%), tatar va ukrainlar (0.5% va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km² ga 20 kishi. Tumanda 1 tma shahar (Nurobod), 7 ta qishloq fuqarolar yig‘ini (Jarquduq, Jom, Nurbuloq, Sazag‘on, Tim, Tutli, Ulus) bor. Tuman aholisi asosan, qishloq xo’jaligi bilan shug‘ullanadi.Asosiy daromadi chorvachlik va sanoat hisoblanadi. Gilam to‘qish san'ati qadim davrlardan beri mavjud va mashhur. Gilamlarning 10dan ortiq turi bor.

Tarixdan ma’lumki, Nurobod tumani ham boshqa o‘lkalar qatori gilamdo‘zlik san’ati ham rivojlangan. Chorvachilik yaxshi rivojlanganligi uchun gilam to‘qish uchun ham ashyo yetarli miqdorda topiladi. Nurobod tumanida asosan, gilamdo‘zlikning hayvon junidan to‘qiladigan turi yaxshi rivojlangan. Hayvonlarni junini may va sentabr oylarida ikki marta qirqiladi. Qirqilgan junlar turlarga ajratiladi. Gilamchilik uchun asosan, qo‘y junidan foydalaniladi. Oq, sarg‘ish junlarni alohida ko‘kimtir va ko‘lrang junlarni alohida olib ularga aholida ishlov beriladi. Junlarni ikkta usulda iplarga aylantiraladi. Qo‘l urchuqlari hamda elektra urchuqlar bo‘lib, Nurobod tumanida qo‘l urchuqlardan keng foydalaniladi. Qo‘l urchiqlar yog‘och va toshdan yasaladi. Iplarni tayyorlanishi bir necha hafta vaqt oladi. So‘ngra iplarga rang berish jarayoni boshlanib, oq va sarg‘ish junlardan

tayyorlangan iplarga ochiq ranglar beriladi. Ko‘k va ko‘kimtir junlardan to‘qilgan iplarga to‘q ranglar beriladi. Masalan oq jundan tayyorlangan iplar sariq, qizil ranglarga bo‘yaladi. Bo‘yoqlar ham tabiiy mahsulotdan tayyorlanadi. Sariq rang uchun piyoz po‘stlog‘idan , qizil rang uchun anor po‘stlog‘idan foydalaniladi. Iplar bo‘yalib quyoshda ikki kun davomida quritiladi. Shundan so‘ng gilan to‘qish uchun gilam to‘qish dastgohi qo‘yiladi kichik gilanlarni bir kishi to‘qiydi katta gilamlarni esa uch-to‘rt kishi birgalikda to‘qiydi. Chunki katta gilamlarda ishlatiladigan naqshlar bir biriga bog‘liq bo‘lganligi va ko‘p vaqt talab etadi. Nurobod tuman hududida gilamlarning bir necha turlari mavjud. Bulardan "Gulchinor", "Olacha", "Qohma", "Maskovoskiy", "Qatti", "Qirmizi anor" va boshqalar.

Gilamlar bir - biridan o‘lchami, naqshlari, dezayni, ishlatiladigan mahsuloti bilan farq qiladi. Nurobod tumanida gilamdo‘zlik san’ati qadim davrlardan hozirgi kungacha yashab kelmoqda. Gilamdo‘zlik san'atida ishlatiladigan naqshlar har biri ma'lum bir ma’noga ega. Geometrik shakllar, hayvon va o‘simlik shakllari va ularda qo‘llanilayotgan ranglar uyg‘unligi aholining etnografik qadriyatlarni kursatadi. Gilamlar asosan ayollar tomonidan tayyorlanadi. Sariq, oq, qizil ,ko‘k, yashil va bowqa ranglar keng qo‘llanilib, bu ranglar o‘ziga xos ma'noga ega. Nurobod tumani hududida gilam to‘qish asrlar moboynida bir biriga o‘tib kelayotgan qadriyatlarga ega. Gilamlar uzunligi 0.5 metrdan 5 metrgacha boradi. Gilamlar qalinligi 1smdan 3-5smgacha bo‘ladi. Gilamlar asosan mahalliy aholi uylariga to‘shash va bezatish uchun ishlatsa, ortiqcha mahsulotni sotuvga ham qo‘yadi. Gilam narxlari uning o‘lchamiga sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Chet eldan kelgan sayyohlar ham bu gilamlarga haridor bo‘lishadi. Gilamlar o‘rtacha 1mln 200dan 2yarim mlngacha narxlanadi. Gilamlar uzoq vaqt xizmat qiladi.

"Gulchinor" gilami eng ko‘p to‘qiladigan gilam turlaridan biri bo‘lib, Nurobod aholisi bu gilamni xush ko‘radi. "Gulchinor" kattaligi 2x4 metr bo‘lib, to‘rt kishi baravar garizantaltarzda to‘qiydi. Qo‘y junidan to‘qilgan bu gilamda yorqin ranglardan keng foydalaniladi. Gilamning "Gulchinor" deb nom olishining sababi gilamda ishlatilgan qirmizi gul chinorday ko‘kka yuksalayotgan tasvirni beradi. "Gulchinor" bahor, yoshlik ramzlarini o‘zida mujjassamlashtirgani uchun asosan bu gilamni yangi kelinchaklarning sepi uchun to‘qishadi. Gilamlardagi "gul" geometrik shakldan tashkil topgan bo‘lib, buni to‘qish uchun matematik va geometrik bilimlarni talab qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, gilamdo‘zlik oddiy hunarmandchilik emas u bilimlar majmuasidir.

Nurobod tuman aholisining gilam to‘qish san’ati o‘zing qadimiyligi, naqshlari, geometrik shakllari bilan ajralib turadi. Gilamlar mustahkam va qulay bo‘lsada ammo zamonaviy gilamlar narx borasida arzonligi sababli qo‘l mehnati bo‘lgan bu gilamlarga ehtiyoj kamaymoqda. Qo‘l mehnatida to‘qilgan gilamlarga ko‘p vaqt va kuch sarflanishi sababli narxi qimmat hamda ekologik muomolar va kasaliklar sababli qo‘ylarning kamayishi hom-ashyoning kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy qulay va hamyonbob dezayn jihatidan ham keng tanlovga ega bo‘lgan gilamlar qo‘l mehnatida ishlangan yillar moboynida yaratilgan san'atning asl namunasi bo‘lgan gilamlarimizni siqib chiqarmoqda. Bu san’at yo‘nalishini saqlab qolishimiz, asrashimiz, kelajak avlodga ketkazishimiz kerak.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Мошкова В. Г. Ковры // Народное декоративно-прикладное искусство Советского Узбекистана. Сборник статей. Ташкент, 1954.

2. Мошкова В.Г. Джульхирсы. Два уникальных узбекских ковра XIX в. из собрания Музея истории Академии наук Узбекской ССР./Труды Музея истории народов Узбекистана. Вып. 1. Ташкент, 1951.

3. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX - начала XX века. Ташкент, 1970.

4. Mirxasilov S.M. Sotsialno-kulturnie izmeneniya i otrajenie ix v sovremennoy seme selskogo naseleniya Uzbekistana // SE. - 1979. – № 1; O’sha muallif. Sovremennaya semya selskogo naseleniya Uzbekistana // Общestvennie nauki v Uzbekistane. – 1977. – № 4.

5. Jabborov I., O‘zbek xalqi etnografiyasi, 1994.

6. Tashbayeva T.X., Savurov M.D. Novoe i tradisionnoe v bitu selskoy semi uzbekov. – Tashkent., Fan, 1989. – S. 40-162.

7. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

UO'K 004.032.6(076)

MOJRUMSOY ARXEOLOGIK YODGORLIGIDAGI PETROGLIFLARNI GIS TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MONITORING QILISH

T.Z. Ruziboyev, tayanch doktorant, Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand
R.I.Rasulov, kich.i.x., Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand

Annotatsya. *Ushbu maqolada yangi zamonaviy hozirda qo'llanilayotgan ArcGIS dasturidan foydalanib Mojrumsoy qoyatosh rasmlarining elektronlashtirilgan ma'lumotlar bazasini va elektron xaritalar yaratish to'g'risida, shuningdek ma'lumotlarni sinxron texnologiyasida tasvirlash ishlari haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar: *ArcGIS, mavzuli xarita, ma'lumotlar bazasi, raqamli arxeologiya, petrogliflar, monitoring.*

Аннотация*: В этой статье представлена информация о создании электронных баз данных и электронных карт изображений скал Mojrumsoy с использованием современного ArcGIS, а также работы по визуализации данных с применением синхронных технологий.*

Ключевые слова*: ArcGIS, тематическая карта, база данных, цифровая археология, петроглифы, мониторинг.*

Annotation*: This article presents information on creating electronic databases and electronic maps of Mojrumsoy rock images using the modern ArcGIS software, as well as work on visualizing data using synchronization technologies.*

Key words*. ArcGIS, Thematic Map, database, Digital Archaeology, petroglyphs, monitoring.*

Kirish. Bizga ma'lumki yurtimizda oxirgi yillarda ko'pgina arxeologik yodgorliklar xususan, tog'li hududlarda qoyatosh rasmlari qidirib topilmoqda. Arxeologik yodgorliklarni saqlash xalq madaniy merosini, uning hayot tarzini ko'rsata bilish eng muhim vazifalardan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida kishilik jamiyati oldida kechiktirib bo'lmas vazifalar namoyon bo'lmoqda. Antropogen va tabiiy ta'sirlar natijasida arxeologik yodgorliklardagi qoyatosh suratlari yo'qolish xavfiga duchor bo'lmoqda. Bu esa yeryuzidagi har bir millat, xalq, fuqarolari oldiga o'z ajdodlari tarixini asrab-avaylashdek mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Arxeologik dala-qidiruv ishlarini amalga oshirib yangi yodgorliklarni topish, ularni o'rganish, qayta tiklash, hajmini aniqlash, shuningdek ma'lum bir qoyatosh rasmining geometriyasi haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish uchun geometrik, fotogeometrik va kartografik o'lchash ishlari talab etiladi. GAT texnologiyalari yordamida arxeologik joylar va topilmalar haqidagi barcha ma'lumotlar markazlashtirilgan bazalarda saqlanadi va ularning holati doimiy ravishda kuzatiladi. GAT texnologiyalarining joriy etilishi arxeologik tadqiqotlar samaradorligini oshirdi, bu esa yangi tarixiy kashfiyotlarni yuzaga chiqarishga olib keldi [1,42]. Hozirda arxeologiya sohasida hududdagi yodgorliklarni aniq joyini topish talab qilinyapti. Shu sababli o'lchashda iqtisodiy tejamli va samarali o'lchov usulini topishda zamonaviy fotoaparat, GPS qurilmalar va GAT (geografik axborot tizimi) dasturlaridan foydalanilmoqda. Geoaxborot tizimi tushunchasi 1960-yillar o'rtasida Kanada davlatida paydo bo'lib "Canadian Geographic Information System CGIS" deb atalgan [2,6]. Tizimning asosiy maqsadi Kanada yer resurslarining inventarizatsiyasini o'tkazish orqali yer resurslarining mavjud holati va kelajakdagi potensialini aniqlashdan iborat edi. Yuqoridagi ushbu atama (bundan buyon GIS) 1980-yillardan boshlab Sharqiy Yevropa, Yaponiya, Koreya, Xitoy, AQSH va boshqa mamlakatlar arxeologiyasida keng qo'llanila boshlangan va ular fazoviy ma'lumotlar bilan ishlaydigan har qanday arxeologik tadqiqotlarning muhim elementi hisoblanadi [3, 109]. Arxeologik yodgorliklardagi qoyatosh rasmlarini o'rganish uchun arxiv, kutubxona, manbalardan ma'lumotlar olish mashaqqatli mehnatni talab etadi. Bu ishlardan tashqari yig'ilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish, qayta ishlash, turli davrlar va yo'nalishlarga mos holda foydalanish, ilmiy tahlil qilishdek vazifalari mavjud [4,67]. Hozirgi arxeologik izlanishlarda zamonaviy uslublarning tizimli-tuzilmaviy tahlili va turli xil statistik va arxeologik taqqoslash kabilar kam qo'llanilmoqda. Chunki ma'lumotlarning tarqoqligi, izlash va tizimlashtirish uchun juda ko'p vaqt sarflanishi kabi muammolar mavjud [5,143]. Bu esa o'z navbatida juda katta ma'lumotlarni qamrab olgan tizimni qo'llash va tuzishni talab qiladi [6,611]. Bu tizim quyidagi talablarga javob bera oladigan darajada tuzilishi lozim:

1. Katta hajimdagi to‘g‘ri va aniq ma’lumotlar bazasini tashkil qilish;
2. To‘liq holda arxeologik yodgorliklar holatini tafsirlovchi zarur miqdordagi ma’lumotlar majmuasini yaratish;
3. Ma’lumotlarni umumlashtirish tartibini yo‘lga qo‘yish;
4. Iste’molchi tomonidan ma’lumotlarni tezkorlik va qulaylik bilan qabul qilib olishni ta’minlash.

Ilmiy izlanishlar. Mojrumsoy qoyatosh rasmlari yodgorligi Nurota tog‘ tizmasi shimolidan oqib tushuvchi katta soy daralaridan birida joylashgan bo‘lib, 2023-yilda tadqiqotlarimiz davomida Jizzax viloyati Forish tumanidagi Mojrum qishlog‘ining g‘arbiy qismida joylashgan jilg‘alar ya’ni Sanggi oftodasoy, Hashtkassoydan va ushbu qishloqdan 1200 metr g‘arbda joylashgan Archasoy (ushbu jilg‘alar Mojrum soyga kelib qo‘shiladi) daralaridan yangi qoyatosh rasmlari topildi [7, 275-286]. Mojrumsoy qoyatosh rasmlari 66°43.256’ sharqiy uzunlik, 40°35.858’ shimoliy kenglikda, dengiz sathidan 725-841 metr oraliqda joylashgan. Mojrumsoyning umumiy uzunligi taxminan 15 km.ni tashkil etadi.

Mojrum so‘zi mojurum, ya’ni mojarochi, urushqoq degan ma’nolarni anglatadi. Qishloqda 100 xo‘jalik atrofida aholi yashaydi. Mojrum qishlog‘ida tojiklarning qunuqsoy, saysi, xilichi urug‘lari istiqomat qiladi. Mahalliy aholidan Ro‘ziboy akaning ota-bobolaridan eshitgan ma’lumotlariga ko‘ra, urushlar va boshqa sabablar bilan qishloq aholisi 15 marta ko‘chib ketib, yana qaytib kelib yashamoqda ekan.

Arxeologik dala-qidiruv tadqiqotlarimizga ko‘ra Mojrumsoy va unga kelib qo‘shiladigan jilg‘alar ya’ni Sangi oftodasoy, Hashtkassoy va Archasoy soylardan 204 ta qoyatosh rasmlari topildi. Tadqiqotlarimiz davomida otliq, odam, ot, tuya, kiyik, arxar, tog‘ echkilari, yovvoyi yirtqich hayvon (qoplon?), sher, bo‘ri, it, kirill harflari, ko‘ylak (uzun va kalta), aylana, quyosh, oy tasvirlari, chala qolgan yoki buzilgan rasmlar va noaniq xira tasvirlar borligi aniqlandi[8]. Bulardan tashqari Mojrumsoy qoyatosh rasmlari orasida kompozitsion tarzdagi manzaralar ham uchraydi. Kompozitsion sahnalarda kamondan o‘q otayotgan odam, hayvonlar o‘rtasida ov jarayoni kabi kompozitsiyalarni ko‘rishimiz mumkin.

Mojrumsoy qoyatosh rasmlari o‘zining mazmuni, ishlanish texnikasi, uslubi, hajmining katta-kichikligi, oftobda kuyish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Mojrumsoydagi qoyatosh rasmlari qadimgi odamlar tomonidan turli xil qattiq asboblar (metall, hayvon shoxlari) yordamida urib-cho‘kichlash, o‘yish, tirnab chizish, texnikalarida chizilgan. Bundan tashqari bu soyning petrogliflari soya, kontur va sxematik uslublarda tasvirlangan.

Bu soydan topilgan qoyatosh rasmlari quyosh nuri ta’sirida turli xil kuyganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni oftobda kuyish darajasi kuchli, kuchsiz, o‘rtacha, yorqin darajalarda kuygan.

Mojrumsoy qoyatosh rasmlarining saqlanish holati turlicha hisoblanadi. Quyosh nuri ta’sirida ko‘pchilik rasmlar kuchli kuygan, turli xil tabiat hodisalari: qor, yomg‘ir, yer silkinishlari oqibatida qoyatosh rasmlariga zarar yetkazilgan, ba’zi toshlarning singan, yorilgan holatlarini, shuningdek ba’zi toshlar ustidan mox va lishayniklar qoplab qolgan holatlar ham bor. Bundan tashqari hozirgi kundagi “rassomlar” ham Mojrumsoy qoyatosh rasmlariga zarar yetkazganlar, ya’ni eski rasmning ustidan qaytadan urib yangilaganlar va o‘zlarining ismlarini ham yozib tashlaganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Har bir qoyatosh rasmlari yodgorliklarining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lganidek Mojrumsoy hududining o‘ziga xos jihati shundaki, bu hududdan topilgan qoyatosh rasmlarining ko‘pchiligi zoomorf tasvirlardir. Zoomorf rasmlardan tog‘ echki tasvirlari eng ko‘p uchraydi. Tog‘ echkilari bir yoki ikki qayrilma shoxli, uzun bo‘yinli, ixcham tanali, ikki yoki to‘rt oyoqli, qisqa dumli qilib goh biron narsadan qo‘rqib chopib ketayotgan, goh to‘xtab turgan holda sxematik, soya va kontur uslublarida ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin[9, 51-54].

Metodlar. Ushbu yodgorlikdagi petrogliflarni ro‘yxatga olishda petrogliflar tasvirlangan har bir tosh bilan ishlandi. Ma’lumotlar bazamizga qoyatosh rasmlari bo‘lgan har bir toshning joylashgan o‘rni (koordinatalari), dengiz sathidan balandligi, qanaqa rasmlar tasvirlanganligi shuningdek, tasvirlarning chizilish uslublari, oftobda kuyish darajalari kiritilgan. Bundan tashqari har bir tosh yuzasining holati to‘g‘risida ham ma’lumotlar joylashtirganmiz. Ya’ni toshni yuza qismi turli tabiiy

ofatlar: qor, yomg'ir, shamollar ta'sirida singan, yorilgan yoki lishayniklar o'sgan holatlar ham jadvalga kiritilgan. Bunda butunlay yo'qolish xavfi bo'lgan qoyatosh rasmlari, o'rtacha zarar yetgan qoyatosh rasmlari va yaxshi saqlangan qoyatosh rasmlari kabi qismlarga ajratib chiqilgan. Shuningdek, qoyatosh rasmlarining jpg formatini ham yuklaganmiz.



1-rasm. Mojrumsoy yodgorligining ma'lumotlar bazasi keltirilgan xaritasi.

Biz bu ma'lumotlarni avvalam bor microsoft Excel dasturida tartib bo'yicha joylashtirib chiqqanimizdan so'ng. Bizga yuqoridagi talablarga ko'ra arxeologik tadqiqot hududlarini monitoring qilishda ArcGIS10.8 dasturi yordam beradi. Ishni bu dasturda birinchi bo'lib ArcCatalog ilovasida mavzuli qatlamlar ya'ni hajmi, davrlari, hududlari bo'yicha kataloglar yaratib olamiz, so'ngra ArcGISni ArcMap ilovasini ochamiz Add Data From ArcGIS Online ArcGIS onlinedan https://mt1.google.com/vt ni yozib Google maps xaritasini yoqamiz va dasturdagi layers funksiyasidan xaretani excel jadvalimizdagi koordinatalar zonasiga to'g'rilab qo'yamiz. Exceldagi atrebutiv ma'lumotlarni ArcMapga koordinata bo'yicha import qilamiz va har bir kattalikga shartli belgi, ranglar tanlab qo'yamiz. Bunday qilishimizdan maqsad yodgorlikdagi qoyatosh rasmlarini bir-biridan ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Bunda biz agar xohlasak dasturni o'zida ham atributiv ma'lumotlariga o'zgartirish kirita olamiz. Agarda biz ma'lumotlarni karta ko'rinishida qog'ozga chop qilmoqchi bo'lsak, dasturda komponovka ishlarini olib borishga to'g'ri keladi. Misol uchun Mojrumsoy hududidagi soylarda qoyatosh rasmlarini ko'rsatmoqchi bo'lsak avval respublika, viloyat, tuman

chegaralarini maxsus saytlardan ’’shapefile’’ ko‘rinishida yuklab olamiz va ArcMapga import qilamiz. So‘ngra Mojrumsoyning O‘zbekistonning qayerida joylashganligi ko‘rsatilib, toshlarni nuqta shaklida yoki boshqa shartli belgilar bilan ko‘rsatamiz va burchagiga shartli belgilarni, tarifini masshtabini, qutblarni ko‘rsatuvchi belgilarni joylashtirib chiqamiz. Shu bilan bizni xaritamiz tayyor holatga keladi (1-rasm).

Xullas, ArcGISda yaratilgan elektron ma’lumotlar bazamizning foydali tomonlari shundaki: birinchidan yuqori darajada aniqlikda bo‘lgan ma’lumotlar yaratildi. Ikkinchidan, ushbu bazadagi kerakli ma’lumotlarni tez va aniq topish imkoniyatini beradi. Uchinchidan ma’lumotlar uzoq yillar davomida sifatli saqlanadi. Ya’ni turli xil tabiiy ofatlar bo‘lsa ham saqlanib qolish holati ancha yuqori darajada bo‘ladi. Ma’lumot o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, kutubxonalarda, fondlarda va boshqa joylarda qog‘oz shaklda saqlanayotgan manbalar yong‘inlar sodir bo‘lganda yonib ketishi mumkin. To‘rtinchidan, turli xil o‘zimizga kerakli bo‘lgan xaritalar yasay olamiz. Beshinchidan, kelajakda yana qaytadan ushbu soy daralarida joylashgan qoyatosh rasmlarini o‘rganganimizda yaratilgan elektron ma’lumotlar bazamizdan toshlarda yoki petrogliflarda bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlab olishimizga yordam beradi.

Boshqa qoyatosh rasmlari yodgorliklarida ham kelajakda shunday ma’lumotlar bazasi shakllantirilib borilsa, petrogliflarni ilmiy jihatdan (qiyosiy ilmiy talqini) o‘rganish ishlarini osonlashtirib boradi. Shuningdek, qoyatosh rasmlarining tarqalish hududlarini ham aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari turli xil zamonaviy metodlarda talqin qilish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Hoshimov H. Arxeologiyada GIS texnologiyalarining qo‘llanilishi // Arxeologiyada fanlararo tadqiqotlar 2024-yil 27-noyabrda o‘tkazilgan xalqaro konferensiya to‘plami. Samarqand, 2024. B. 42-46.

2. To‘xtamishev Sh., Mirzayev A., Urakov O., Azzamov G‘. Arxeologik yodgorliklarni qidirishda geodezik kartografik tadqiqotlar // Geodeziya, kartografiya va geoinformatika (ilmiy-texnik jurnal) №1. 2024. Samarqand. B. 6-11.

3. Llobera, M. Arqueología del paisaje en el siglo XXI: reflexiones sobre el uso de los SIG y modelos matemáticos. In Grau-Mira, I (ed.), La aplicación de los SIG en la arqueología del paisaje, 1st edition, Universidad de Alicante, 2006. Pp. 109–124.

4. Рахимов У. Моддий маданий мерос обектлариниг маьлумотлар банкини яратиш ва юритишда замонавий элэктрон геодизик дастурларнинг аҳамияти // Меморчилик ва қўрилиш мўаммолари (илмий- техник журнал). Samarqand, 2019. Б. 67-70.

5. Исаков Э.Х., Рахимов У.А., Исакова Л.Э. Тарихий архитэктура ва маданий обьектларнинг геопарталини геоахборот тизимларидан фойдаланиб яратиш Меморчилик ва қўрилиш мўаммолари (илмий- техник журнал). Samarqand, 2019. Б. 67-70. В.143-146.

6. Воякин Д.А., Соракин Д.В. Новье методы документации в археологии: и практика. Алматы: институт археологии им. А.Х. Маргулана МОН рк. 2020, 611 С.

7. Пардаев М., Пардаев Ш., Холматов А., Имомов А., Рўзибоев Т. 2023 йилда Фориш туманида олиб борилган археологик қидирув тадқиқотлари // Масъул муҳаррир: М.М. Саидов // Узбекистонда археологик тадқиқотлар. 16-сон. Самарқанд, 2024. Бб-275-286.

8. Пардаев М., Холматов А., Пардаев Ш., Холбоев З., Турсунқулов Ф. Имомов А., Рўзибоев Т. 2023-йил Жиззах вилоят Ғаллаорол, Фориш туманлари ҳудудида олиб борилган археологик дала-қидирув тадқиқотларининг илмий ҳисоботи. Самарқанд 2024. / Я.Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти илмий архиви. Ф.6, О.6, D.81.

9. Ruziboyev T.Z. Mojrumsoy qoyatosh rasmlari dastlabki tadqiqoti xususida // O‘zbekiston arxeologiyasi muammolari (respublika ilmiy konferensiyasi tezislari). Toshkent, 2024. 51-54 b.

UO’K 902

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA TERMIZIY ALLOMALAR MEROSINING O‘RNI

F.U.Sadullayev, o‘qituvchi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz
A.O.Karimov, o‘qituvchi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Imom Termiziy va termiziy allomalar ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish bugungi globallashuv davrida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada Surxon vohasidan yetishib chiqqan termiziy allomalarning hayoti, ilmiy-ma’naviy merosi tahlil qilingan. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda mazkur ma’naviy merosning o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Imom Termiziy, Hakim Termiziy, termiziy allomalar, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ma'naviy meros.*

Аннотация. *Изучение научно-духовного наследия Имама Термизи и термезских ученых приобретает актуальное значение в эпоху глобализации. В данной статье рассматривается жизнь и научно-духовное наследие выдающихся термезских ученых, вышедших из Сурхандарьинского оазиса. Раскрывается роль этого духовного наследия в воспитании молодежи и повышении их духовного уровня.*

Ключевые слова: *Имам Термизи, Хаким Термизи, термезские ученые, Международный научно-исследовательский центр имени Имама Термизи, духовное наследие.*

Abstract. *The study of the scientific and spiritual heritage of Imam Termizi and Termizian scholars has gained significant relevance in today's era of globalization. This article analyzes the life and scholarly-spiritual legacy of the great Termizian scholars who emerged from the Surkhan oasis. The role of this spiritual heritage in enhancing the moral and intellectual development of young people is also explored.*

Keywords: *Imam Termizi, Hakim Termizi, Termizian scholars, Imam Termizi International Research Center, spiritual heritage.*

Bugungi kunga kelib Yangilanayotgan O'zbekistonda yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama tadqiq etish, ushbu meros asosida xalqchil kitob va risolalar tayyorlash, shu orqali bu boy ma'naviy merosni xalqimiz orasida keng targ'ib qilish masalasiga alohida ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Shu maqsadda yurtboshimiz tomonidan bugunga qadar bir qator qaror va farmonlar qabul qilingan bo'lib, ular allomalarimizning ibratli hayot yo'li, serqirra ijodini har tomonlama tadqiq etish borasida huquqiy asos vazifasini bajarib kelmoqda.

Xususan, 2017-yil 14-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida Termiz shahrida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi o'z faoliyatini boshladi. Qisqa muddat ichida Markaz ilmiy xodimlari tomonidan Imom Termiziy va termiziy allomalar merosiga oid 100 ga yaqin kitob va risolalar tarjima qilinib, xalqimizga yetkazilgani ham yurtimizga ajdodlarimiz merosiga bo'lgan e'tiborning nishonasi hisoblanadi [1].

Bugungi kunga qadar Surxon zaminida "Termiziy" nisbasi bilan ijod qilgan 200 nafardan ziyod allomalar yetishib chiqqanligi olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Ushbu olimlar orasida Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy, Munjik Termiziy kabilarni alohida qayd etish joiz.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar Imom Termiziy va termiziy allomalar merosi bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijlik olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Bular orasida U.Uvatov, Mirzo Kenjabek, I.Usmonov, S.Tursunov, J.Mirzayev, J.Cho'tmatov, N.Karimov kabilarni alohida qayd etib o'tish joiz. Xususan, Mirzo Kenjabek tomonidan nashrga tayyorlangan "Buyuk Termiziylar" nomli kitobda Termiz zaminidan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlar, muhaddislar, shoirlar, adiblar, mufassirlar borasida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. I.Usmonov, J.Cho'tmatov va N.Karimov kabi mahalliy olimlar esa Hakim Termiziy merosining ilmiy-amaliy ahamiyatini o'z tadqiqotlari orqali ko'rsatib berishga harakat qilganlar. Xususan, J.Cho'tmatov tomonidan nashrga tayyorlangan "Hakim Termiziy" nomli risolada, "Termizning bezavol qal'alari yoxud Termiz tarixi" nomli kitoblarda ushbu allomaning hayoti va bebaho ma'naviy merosi atroflicha o'rganilganligini qayd etish joiz [3].

Surxon zamininnng bosh kenti hisoblangan Termizda islomiy, ilmiy-ma'naviy muhit shakllanishi o'zining bir qator bosqichlariga ega. Termiz hududi ancha erta fath etilganligi tufayli bu yerdan "Termiziy" nisbasi bilan tanilgan allomalarning yetishib chiqa boshlashi Movarounnahr islomiy tarixida juda muhim hodisadir. Bu esa, o'z navbatida Imom Termiziy, Hakim Termiziy va boshqa muhaddislarning yetishib chiqishida katta o'rin tutgan.

Termiziy allomalar orasida Imom Termiziy va Hakim Termiziy bugungi kunga qadar eng ko'p tadqiq etilgan mutafakkirlar hisoblanadi. Bugungi kunga qadar nafaqat yurtimizda, balki bir qator

xorijiy mamlakatlarda ham ushbu allomalar merosiga bag‘ishlab xalqaro konferensiyalar, simpoziumlarning tashkil etilganligi fikrimizga dalildir [3].

Imom Termiziy buyuk muhaddis, mufassir sifatida islomiy ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shgan allomadir. Mutafakkir yashab ijod qilgan davrga nazar solsak, u yashab ijod qilgan VIII asr islom olamida turli mafkuraviy ziddiyatlar, firqalararo qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan davr hisoblanadi. Bu davrda turli to‘qima hadislarning keng tarqalib borishi hadis ilmiga oid sifatli tadqiqotlarni talab qilardi. Ushbu zaruriyat asosida Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar payg‘ambar Muhammad alayhissalomning eng sahih hadislarini to‘plab, kitoblar yozganlar. Ushbu muhaddislar orasida Imom Termiziyning “Sunan Termiziy” (Termiziy sunnatlari) asari alohida ahamiyatga ega asarlardan hisoblanadi. Ushbu asar haqida bir qator musulmon allomalari: “Kimning uyida ushbu kitob bo‘lsa, uning uyida Payg‘ambar gapirayotgandek bo‘ladi”, – degan ta’rifni beradi [4].

Darhaqiqat, Imom Termiziyning “Sunan Termiziy” asariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda yoshlar ma’naviy kamolotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab jihatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, ilm, uning fazilati, yaxshi niyatning inson hayotidagi o‘rni, sabr, qanoat, do‘stlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarning ahamiyatiga alohida urg‘u beriladi.

Imom Termiziyning “Shamoil an-nabaviyya va xasois al-mustafaviyya” (“Payg‘ambarlik siyratlari va tanlangan shaxs xususiyatlari”) kitobi bizgacha yetib kelgan bu sohadagi eng qadimgi va eng yaxshi asardir. Undan oldin ham bu mavzuda ba’zi kitoblar bitilgan bo‘lsa-da, ular bizgacha yetib kelmagan. Bugungi kunda ham Payg‘ambar siyrati haqida ko‘plab asarlar yozilayotgan bo‘lsa-da, ammo ilmiy-amaliy voqelikning ko‘rsatishicha, Imom Termiziy asari hali-hanuz bu bobda tengsiz hisoblanadi. Imom Termiziyning “al-Ilal al-kabir” (“Hadis ilmining nozik jihatlariga tegishli katta kitob”) yoki “al-Ilal al-mufrad” (“Illatlarning nozik jihatlari”) asari ham nashr etilgan bo‘lib, nashr nusxalarining birida 716 rivoyat raqamlangan. Unda Imom Buxoriy bilan bo‘lgan muzokaralar alohida o‘rin tutadi. Shu ma’noda ushbu kitobning qiymati yuksakdir. Hadis ilmining nozik jihatlarini – illatlarini anglash, ular borasida asar bitish hadis ilmlarida yuksak darajaga yetgan olimlargagina nasib etgan [3].

Termiziy ulamolar Islom dini ilmlari rivoji va tarqalishiga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shib kelishgan. Manbalarning guvohlik berishicha, Islom dinining ajralmas qismi bo‘lgan ruhiy tarbiya bilan bog‘liq tasavvufiy ilmlar Termiz shahriga VIII asrdayoq kirib kelgan. Ushbu davrda faoliyat ko‘rsatgan Abulhasan Ali ibn Raziyn Termiziy kabi shaxslar haqidagi ma’lumotlar buni tasdiqlaydi. Hakimiya maktabining asoschisi Hakim Termiziy esa o‘zining islomiy hikmatga asoslangan qarashlari bilan nafaqat yurtimiz, balki Islom olami miqyosida tasavvuf maktablarining rivojlanishiga asosiy zamin yaratgan olimlardan sanaladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Muhammad Hakim Termiziy Islom tarixida valiylik haqidagi qarashlarni ishlab chiqqan eng avvalgi shaxsdir. Bu allomadan so‘ng kim valiylik haqida gapirgan bo‘lsa, qay miqdorda bo‘lsa ham, uning qarashlari ta’sirida bo‘lgan. Bu ma’nolarni Hakim Termiziy “Ilmul avliyo” (“Avliyolar ilmi”), “Kitobul hikma” (“Hikmat kitobi”), “Isbot ilal ash-shar’iyya” (“Shar’iy sabablar isboti”) va “Xatmul avliyo” (“Valiylar cho‘qqisi”) kabi kitob va risolalarida o‘ziga xos tarzda sharhlagan. Termiziy olimlarning ruhiy tarbiyaga oid ustoz-shogirdlik silsilasi keyinchalik ham davom etgan, natijasida esa Termiziylarning o‘ziga xos tasavvufiy maktabi vujudga keldi [3].

Termiziy allomalar orasida Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy ilmiy faoliyati alohida ahamiyatga molikdir. Sayyid Burhoniddin Termiziy Mavlono Jaloliddin Rumiyning birinchi ustozi va ma’naviy yo‘lboshchilaridan biri sifatida tanilgan buyuk so‘fiydir. Uning so‘fiylik ta’limoti va ma’naviy merosi bugungi kunda ham muhim ilhom manbai bo‘lib qolmoqda. Sayyid Burhoniddin Termiziy Mavlono Jaloliddin Rumiyning ma’naviy kamolotida muhim rol o‘ynadi. U ayniqsa, o‘z-o‘zini tarbiyalash, sabr-toqat, sevgi va ilohiy haqiqatga erishish mavzularida ibratli mulohazalar sohibi edi. Sayyid Burhoniddin Termiziyning ma’naviy merosi, ayniqsa, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Sayyid Burhoniddin Termiziy kabi ulug‘ mutasavviflarning ma’naviy yo‘li bugungi kunda ham yoshlar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ularning hayoti va ta’limotlari yoshlarni ma’naviy jihatdan yuksaltirish, odob-axloqini shakllantirish va insoniy fazilatlarni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi [7].

Umuman aytganda, termiziy allomalar ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish, ushbu mutafakkirlar ma'naviy merosining islom tamaddunidagi ahamiyatini tadqiq etish barcha zamonlar uchun muhim ahamiyatga ega mavzulardan biri bo'lib kelgan. Bu ayniqsa so'nggi yillarda yana dolzarblik kasb etib borayotganligi ham ayni haqiqatdir. Hozirda shaxs ma'naviy kamolotida termiziylarning ilm-ma'rifatga bo'lgan yondashuvi muhim bo'lib, ularning o'gitlari yoshlarni chuqur o'rganish, ilmga chanqoqlik va tafakkur qilishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.91.

2. Abdullayev R. Termiz Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar (mualliflar jamoasi). – Toshkent: Sharq, 2001.

3. Cho'tmatov J. Termiziylar hadis maktabi. – Termiz, Kitobnashr, 2024. – 65 b.

4. Kenjabek Mirzo. Buyuk Termiziylar. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 429 b.

5. Nur al-Din Itr. Sharh 'Ilal al-Tirmidhi (in Arabic) (1st ed.). 1978. Dar al-Mallah. – P. 11.

6. Usmonov I. Hakim termiziy asrlaridan saylanma. – Toshkent: Movorunnahr, 2007.

7. Uvatov. U. Ikki buyuk donishmand. – Toshkent: Sharq, 2005.

UO'K 92

BUXORO AMIRLIGI SAROYLARINING ME'MORCHILIK TARIXI

F.I. Sayfutdinov, o'qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Toshkent

Annatatsiya. *Bugungi kunda Buxoro vohasi hududida saqlanib qolingan saroylara Ark Sitorayi Moxi Xossa shu bilan birga Karmana shahridagi saroylardir ammo o'tgan asr davomida yurtimizda hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar, Mang'itlar sulolasi davrida mintaqada ko'plab obodonchilik, bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi xsusan Buxoro amirligining XX asr davomida bunyod etilgan yoki qayta tamirlash ishlari amalga oshirligan saroylari sifatida amirlik marakazidagi Ark qarargohi, Shirbudin saroyi, Sitorayi Moxi Xossa saroyi, Dilkushoyi birun saroyi va Karmanadagi saroylarni aytishimiz mumkin. Maqolamizda Karmana hamda Sitorayi Moxi Xossa saroylarining qurilish tarixi va amirlarning saroylardan aynan qanday maqsadlarni ko'zlab bunyod etganliklari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *Saroy, Man'gitlar sulolasi, Memorchilik, Buxoro amirligi, Karmana saroyi, Sitorayi Moxi Xossa, Amir, Hukmdor, Obida, Inshoot.*

Аннотация. *Сегодня дворцы, сохранившиеся в Бухарском оазисе, это дворцы Арк Ситораи Мохи Хосса и Кармана, но во времена правления династий Аштарханидов и Мангидов, правивших нашей страной в прошлом веке, в регионе было проведено много улучшений и творческих работ. В частности, дворцы Бухарского эмирата, построенные или отреставрированные в XX веке, включают в себя штаб-квартиру Арк в центре эмирата, дворец Ширбудин, дворец Ситораи Мохи Хосса, дворец Дилкушойи Бирун и дворцы в Кармана. В нашей статье мы кратко рассмотрим историю строительства дворцов Кармана и Ситораи Мохи Хосса, а также конкретные цели, для которых эмиры строили эти дворцы.*

Ключевые слова: *Дворец, Династия Мангидов, Запоминание, Бухарский эмират, Дворец Кармана, Ситораи Мохи Хосса, Эмир, Правитель, Сооружение, Здание*

Abstract. *The palaces preserved in the territory of the Bukhara oasis today are the palaces of Ark Sitorayi Moxi Khossa and Karmana, but during the reign of the Ashtarkhanids and Mangid dynasties that ruled our country during the last century, many improvements and construction works were carried out in the region. In particular, the palaces of the Bukhara Emirate that were built or renovated during the 20th century include the Ark headquarters in the center of the emirate, Shirbudin Palace, Sitorayi Moxi Khossa Palace, Dilkushoyi Birun Palace, and the palaces in Karmana. In our article, we will briefly discuss the construction history of the Karmana and Sitorayi Moxi Khossa palaces and the specific purposes for which the emirs built the palaces.*

Key words: *Palace, Mangid Dynasty, Memorization, Bukhara Emirate, Karmana Palace, Sitoraei Moxi Khossa, Emir, Ruler, Ancient monument, Structure*

Kirish. Markaziy Osiyo mintaqasida xususan Buxoro vohasida saroylar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bepoyon hududlarni idora etib kelgan Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang’itlar o’zlarining despotik boshqaruv tizimida muhim hisoblangan saroylarga alohida e’tibor qaratishgan. O’rta asrlar ayniqsa Mang’itlar hukmronligi davri mobaynida shaharlar iqtisodiy madaniy jihatdan takkomillashib boraverdi va natijada vaqt o’tgani sayin shahar hududi kengayib, ko’plab yangi mavzelar, guzarlar, aholi manzilgohlari tashkil etilgan. Umuman olganda saroylar so’z yuritilayotgan davr uchun alohida ramziy ahamiyati ham mavjud bo’lib, bu yerda davlat uchun eng muhim masalalar hal etilgan. Sulolalarning bir biridan farqlanuvchi va shu bilan birgalikda o’zaro yaqin saroy qurilish me’morchiligi bo’lgan misol tariqasida aytishimiz mumkinki, Shayboniylar Dashti Qipchoqdan Movonounahrga ko’chib kelganlarida o’troq turmush uchun o’zlarining poytaxtini Buxoroga ko’chirishi va Arkni qarorgohiga aylantirishdi, bu esa shaharning ichki va tashqi ko’rinishida ham o’z aksini topdi. Buxoro shahri atrofi 12 km uzunlikdagi mustahkam devor bilan o’raldi.

Ashtarxoniylar davri Shayboniylardan mudofa devorlari yonida tashqi saroylar qurilishiga e’tibor berganligi bilan farqlanadi. Sulolaning boshqaruvi davriga kelib Xonabod va Piri Marza saroylari qurildiki, bular yuqoridagi fikrimizning isboti bo’la oladi. Ikala saroy ham o’zining o’ziga xos uslubda qurilgan bo’lib, aniq chizmalar asosida, reja bo’yicha, iqlimni inobatga olgan holda so’lim mavzelarda bunyod etilgan. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning g’arbiy qismida Tallipoch darvozasiga yaqin hududda 1709 yili barpo etilgan Xonobod bog’i hamda saroyi qurilishi ham aniq reja asosida shahar tashqarisida edi. Bog’ to’g’ri to’rtburchak shaklda bo’lib oltita uch qirrali ko’rkam maysazorlardan iborat, bog’ning qoq markazida saroy qad rostlagan. Saroyning asosiy bunyodkorlari Balx va Movonounahrdan kelgan ustalar bo’lib, uch oy davomida qurulish yakunlangan. Muarrixlar tomonian bu saroy Kufa shahridagi Xavornaq saroyi bilan qiyoslangan. Buxoro shahrining Shayx Jamol darvozasi yaqinida Piri Marza saroyi mavjud bo’lgan.

Tadqiqot usullari: Ilmiy bilishning tahlil va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, usullaridan foydalanilgan.

Adabiyot manbalarini haqida umumiy ma'lumot: Adabiyot sharhi. Mavzuni tadqiq etishda mahalliy tarixchilarning asarlarida saroylarning qurilishi va saroy me’morlari tomonidan ish jarayonlarida qo’llanilgan uslublar haqida yozib qoldirgan qiziqarli ma’lumotlardan foydalanildi. Mavzuni o‘rganish jarayonida bir qator tarixchi olimlar Mirza Abduazim Somiy, Muhammad Ali Baljuvoniy, M M.Vaxitov, SH.R.Mirzayev, S.Bulatov ilmiy izlanishlari hisobga olindi.

Asosiy qism. O’zlarini Buxoroning Amiri deb atagan Mang’it hukmdorlari ham bu ananani davom ettirishgan va shahardan tashqarida saroy qurishganini ko’plab manbalar ham tasdiqlaydi. Xususan Buxoro shahrining O’g’lon darvozasiga yaqin hududda Amir Nasrulloga (1826-1860) tegishli Chorbog’xossa deb atalgan tashqi saroyi bo’lgan. Nasrulloning vorisi Muzaffarxonning (1860-1885) Buxoro shahridan sharqqa tomon 4 km uzoqlikda joylashgan Shirbudin saroyi bo’lib, saroy qurilishida asosan mahalliy quruvchilar ishtirok etishgan. Ammo saroyning qurilishida G’arb me’morchiligini ko’rishimiz mumkin. Bu esa o’z navbatida Buxoro amrligida XIX asrning 70-yillaridan e’tiboran g’arb me’moriy san’ati ham kirib kelganidan guvohlik beradi.

Yuqoridan sanab o’tilgan tashqi saroylardan bizgacha faqatgina Sitorayi Moxi xossa saroyigina yetib keldi. Sovet davrida Shirbudin saroyi vayron etildi, hattoki uning fundamentlari ham bizgacha saqlab qolinmadi.

Rossiya siyosiy ta’sirining ortishi va o’lkadagi xonlik va amirliklarning podsho imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi natijasida me’morchilikda ham yangi yevropacha usul kirib keldi. Bu holat amir Abdulahad davrida barpo etilgan tashqi saroylarda ayniqsa yaqqol namoyon bo’ldi. Moxi Xossa va Karmana saroylari yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Karmana saroyining Mang’itlar davridagi boshqa saroylardan farqi shundaki, bu saroy siyosiy jihatdan ahamiyati yuqori, aniqroq aytadigan bo’lsak XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga kelib Karmanadagi saroy amirlik hukumatining asosiy qarorgohiga aylangan edi. Bunga bir qancha sabablarni keltirib o’tishimiz mumkin. Masalan XIX asr oxirida amir Abdulahad bilan ruhoniylar orasida tez-tez sodir bo’lib turgan ixtiloflar, amirning o’z tug’ilib o’sgan yurti Karmana shahri bo’lganligini aytib o’tish mumkin. Shu bilan birgalikda yuqoridagi ikki omilga qo’shimcha qilib aytishimiz mumkinki, Rossiya imperiyasining Buxoroga tasiri kuchayib ketishi bu ta’sirning eng muhim sohalar: iqtisod, ilm-fan

maorifda ham yaqqol namoyon bo'lishi ham amirga katta bosim qildi. 1885 yil Buxoro shahri ostonasida arkdan 12 km uzoqlikdagi Rossiya siyosiy agentligining tashkil topishi nazoratni ruslar tomonga yanada og'dirdi. Amir bu siyosiy taziyiqni yengish uchun ham o'zi tug'ilib o'sgan shahriga qarorgohni ko'chirishga majbur bo'ldi.

Bu haqida Mirza Abduazim Somiyning "Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro amirligining inqirozi" asarida quyidagicha yozib qoldirgan

Amir Abdulahad ba'zan xaloyiq arzini tekshirish uchun Qarshi va Shahrisabzga kelib turardi. Navkarlar , mansabdorlar Darvoza va Ko'lobga qadar uzoq-uzoq mulklarning hokimlari oliy uzangi yoniga kelib, shohona muruvatlarga sazavor bo'lib, ortlariga qaytib ketar edilar. Taxtga o'tirganiga o'n yil o'tib amir Buxoroni tark etib Karmanani o'z poytaxtiga aylantirib oldi. Ajoyib imoratlar qurib Buxoro va uning aholisini yodga olmay qo'ydi [1].

Mang'it amirlarning tashqi saroylaridan amir Abdulahadning Karmanadagi saroyi siyosiy jihatdan juda muhim qarorgohligi bilan ahamiyatlidir. Abdulahaddan avval hukmronlik qilgan Mang'itlar amirlari masalan Nasrullo, Muzaffarlarning tashqi saroylari odatda amirning dam olishiga moslab qurilgan bo'lsa, Karmandagi saroy hukmdorning idoraviy ishlar olib borishiga mo'ljallangan edi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, butun davlat hayoti Karmana saroyidan turib nazorat qilinar edi. Saroy o'z davrining me'moriy talablariga to'la javob beradigan uslubda bunyod etilgan. Boshqaruv ishlarida xizmat qiladigan saroy ayonlari uchun qulayliklar yaratilgan. Karmana saroyining Zarafshon daryosiga yaqin joyda joylashganligi, bahavo, xushmanzara shahar bo'lganligi sabab, deyarli barcha mang'it hukmdorlarini o'ziga jalb etib kelgan. Mang'itlar davri qonun-qoidalariga ko'ra, Buxoro amirligi taxt vorisi valiahd shaxzoda avval Karmana shahri begi lavozimiga tayinlanar edi. Krestovskiy rahbarligidagi rus elchilari Karmanadagi saroyning salobatliligi haqida o'z taassurotlarini bayon etib, Karmanada 400 tacha hovki bo'lgan deb yozib qoldirgan.

Muhammad Ali Baljuvoniy o'zining "Tarixi Nofeiy" asarida

Mang'it amirlari davrida Buxoro davlatida Karmanadagi Chorbog'i Mirzo va Chorbog'i Charmgari hamda Chorbog'i Olchin poytaxt amirlarining dam oladigan joyi sifatida ma'lum bo'lgan. Podsho har yili bu yerlarga dam olish uchun a'yonlari bilan kelgan [2].

Yuqoridagi saroylar haqida kam ma'lumotlar saqlanib qolingan. Mirzochorbo'g' Karmanadagi saroylar ichida o'zining go'zalligi, bejirim ganchkorlik naqshlari bilan ajralib turadi. Saroy amir Abdulahadning topshirig'i bilan Zarafshon daryosi sohilida bog' o'rtasiga 1900-1905 yillar davomida tiklangan. Saroy loyihasi mashhur me'mor Xo'ja Abdurahim tomonidan ishlangan. Qurilish ishlariga ganchkor usta Shirin Murodov boshchilik qilgan. Saroy qurilishida asosan yog'och va g'ishtdan foydalanilgan bo'lib, umimiy 20 xonadon tashkil topgan. Yog'och ustunlari va devorga o'yib ishlangan jilodor naqshlar kishini hayratda qoldirgan. Usta Shirin Karmanaga sarboz sifatida olib kelinib keyinchalik saroylar qurilishiga kirishadi va 15 yil mobaynida Charmgar chorbog', Askarobod, Gulchorbog', Mirzochorbog'larni qurishda xizmat ko'rsatadi, bog'-u chorbog' va saroylar Usta Shirinni butun sharq olamida mashhur qilib yubordi.

Amir Abdulahad Karmandagi Charmgar chorbog'dagi saroyida ko'plab sheriy kechalar o'tkazib, unga mahalliy shoirlar, fozillar, olimlarni taklif qilgan. Amir Abdulahad 1894 yildan toki vafot etgungacha Buxoro amiri sifatida davlatni Karmana shahridan turib idora etganligi haqida ko'plab ma'lumotlani uchratamiz. Shu paytda Karmanada bir necha bog' va saroylar qurilib shahar obod etilgan, lekin qurilgan ko'plab saroy va bog'lardan bizgacha faqatgina bittasi yani Mirzachorbog'gina saqlab qolingan. Mang'itlar davri hukmdorlarining Buxoro viloyatida eng ko'p tashrif buyurilgan tashqi saroyi bu Sitorayi Moxi Xossa hisoblanadi. Amirlarning tashqi saroylari orasida o'zining hashamatliligi, bejirim qurilish uslublaridan, xususan yevropa me'morchilik yutuqlaridan foydalanilgani bilan boshqa tashqi saroylardan ajralib turadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro davlati hududida XVI asrdan boshlangan bunyodkorlik ishlari Mang'itlar boshqaruvi davrida ham to'xtab qolgani yo'q. XIX asrda ham Mang'it amirlari saroylar qurilishi, ularning tamirlanishiga katta e'tibor qaratdilar. Buning asosiy sababi, har bir amir davlat boshqaruvining asosiy ta'sir kuchi sifatida o'zlarining saroy qarorgohlaridan foydalinishni maqsad qilganligi va albatta sharq hukmdorlariga xos bo'lgan dabdabali ulug'vor saroylar bunyod etishga katta qizish bo'lganligi bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirza Abdulazim Somiy "Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi" Moskva 1962 yil. b. 17 (21)
2. Muhammad Ali Baljuvoniy "Tarixi Nofeiy" Akademiya nashiriyoti Toshkent 2001 yil. b.36 (126)
3. Ilniyazovich, S. F. (2023). Raqamli texnologiyalarning tarix fanini o'qitishdagi ahamiyati.
4. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI asr boshlari Zarafshon vohasida etnoslararo munosabatlar. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, *3*(9), 1–5. Retrieved from https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941

UO'K 930

BOLALAR MUZEYLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

X.X. Shodmonov, tadqiqotchi, Milliy rassomlik va dizayn instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqola zamonaviy bolalar muzeylarining tarbiyaviy rolini va ularning bolalarning estetik dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Muzeylar interfaol ekspozitsiyalar orqali yoshlarni madaniy merosga hurmat bilan qarashga va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Maqolada global miqyosdagi bolalar muzeylarining pedagogik yondashuvlari va ularning ta'limiy funksiyalari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *bolalar muzeylari, tarbiyaviy ahamiyat, estetik dunyoqarash, interfaol ekspozitsiyalar, madaniy meros, pedagogika, ta'limiy funksiyalar.*

Аннотация. *Статья анализирует воспитательную роль современных детских музеев и их значимость в формировании эстетического мировоззрения детей. Музеи обучают молодежь уважению к культурному наследию и развивают независимое мышление через интерактивные экспозиции. В статье рассматриваются педагогические подходы детских музеев на глобальном уровне и их образовательные функции.*

Ключевые слова: *детские музеи, воспитательное значение, эстетическое мировоззрение, интерактивные экспозиции, культурное наследие, педагогика, образовательные функции.*

Abstract. *This article analyzes the educational role of modern children's museums and their importance in shaping children's aesthetic worldview. Museums teach young people to respect cultural heritage and foster independent thinking through interactive exhibitions. The article examines the pedagogical approaches of children's museums on a global scale and their educational functions.*

Key words: *children's museums, educational significance, aesthetic worldview, interactive exhibitions, cultural heritage, pedagogy, educational functions.*

Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, estetik didga ega va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tarbiya tizimida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanish zarurati, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan qaraganda, muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlovchi maskan, balki ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. So'nggi yillarda muzey pedagogikasi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar muzeylarning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini chuqurroq ochib bermoqda. Xususan, bolalar uchun mo'ljallangan muzeylarning tashkil etilishi, interaktiv ekspozitsiyalar va ta'limiy loyihalar orqali bolalarning dunyoqarashi, estetik didi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda alohida o'rin tutmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy muzeylarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, bolalar muzeylarining rivojlanish tendensiyalari va ularning tarbiyaviy funksiyalari tahlil qilinadi.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda muzeylarning o'rni tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda muzey pedagogikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar muzeylar tarbiyaviy vosita sifatida samarali ekanligini tasdiqlamoqda. Globallashuv va texnogen jamiyat sharoitida ta'lim va tarbiyaning innovatsion shakl hamda vositalarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan. Mazkur jarayonda muzeylar nafaqat

madaniy merosni saqlash, balki interaktiv ekspozitsiyalar va tematik loyihalar orqali ta’limiy-fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omilga aylanishi zarur.

Jahonning yetakchi muzeylarida turli yoshdagi auditoriyalar, xususan bolalar va yoshlar bilan ishlashga qaratilgan maxsus konsepsiyalar asosida loyihalar ishlab chiqilmoqda. Post-sovet hududida esa muzeylarning pedagogik funksiyasini kengaytirish, tomoshabinlar bilan ishlashning yangi metodologik yondashuvlarini joriy etish borasida XXI asr boshlaridan boshlab faol islohotlar kuzatilmoqda. Maktab ta’limida “jonli burchaklar” tashkil etish, fanlar kesimida muzey komponentlarini tatbiq etish tajribalari mavjud bo‘lsa-da, bugungi kunda muzey muhitida yoshlar bilan tizimli ishlash, ularning ijtimoiy-estetik idrokini shakllantirish yo‘nalishida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish zarurati saqlanib qolmoqda.

XX asr boshlarida dunyoda bolalar ta’lim-tarbiyasiga doir yangicha yondashuv sifatida bolalar muzeylarini tashkil etish g‘oyasi ilgari surildi va bugungi kunda ushbu amaliyot global miqyosda keng tarqalmoqda. Bolalar muzeylari nafaqat madaniy merosni namoyish etish, balki ijtimoiy-pedagogik ta’sir doirasiga ega bo‘lgan innovativ tarbiyaviy makon sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Jahon muzeyshunosligida o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar bolalarda estetik tafakkur, tarixiy ong, ekologik va fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ushbu muzeylarning o‘rni beqiyos ekanini ilmiy asosda tasdiqlamoqda.

Bolalar muzeylarining ekspozitsion faoliyati o‘yin, ijod va muloqot elementlari bilan boyitilib, tarbiyaviy ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy ta’limda tan olinayotgan “tasavvur orqali o‘rganish” (*learning through imagination*), “qo‘l bilan his etib anglash” (*hands-on experience*) va “emotsional intellektni rivojlantirish” kabi yondashuvlar bolalar muzeylari konsepsiyalarida markaziy o‘rin egallamoqda. Bu esa o‘quvchilarda murakkab voqelikni tahlil qilish, madaniy kodlarni anglash va o‘z fikrini mustaqil shakllantirish salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bolalar muzeylarining ko‘payib borishi va ularning ko‘p tarmoqli faoliyat yuritishi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, global va lokal madaniy merosga mas’uliyatli munosabatda bo‘lish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga undaydi. Muzey makonida amalga oshirilayotgan multimediali loyihalar, rol o‘yinlar, simulyativ muhitlar va tematikaga asoslangan ekspozitsiyalar bilimlarning mazmunli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Muzeylar ta’limiy muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan maxsus dasturlar va kross-kultural muloqot imkoniyatlari tufayli bolalarning dunyoqarashi kengayib, ularda insoniyat tamaddunining umumiy manfaatlari bilan milliy qadriyatlar uyg‘unligini anglashga intilish kuchaymoqda. Shu bois, bolalar muzeylarini yangi avlod tarbiyasida strategik muhim tarbiyaviy platforma sifatida baholash mumkin.

Bugungi kunga kelib, jahon miqyosida bolalar muzeylarining soni 400 dan oshgan bo‘lib, ularning katta qismi, taxminan 300 tasi, AQShda joylashgan. Shuningdek, Yevropa davlatlarining ko‘plab poytaxt shaharlarida ham bunday muassasalar faoliyat yuritmoqda. Mazkur muzeylar interfaol pedagogik model asosida tashkil etilib, bolalarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va kognitiv salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ular o‘z tarkibiga noyob o‘yinchoqlar to‘plamlari, suvosti olami, badiiy ustaxonalar va boshqa madaniy-ma’rifiy segmentlarni mujassam etgan. Ta’kidlash joizki, Forbes jurnali tomonidan dunyodagi eng ilg‘or bolalar muzeylari sifatida e’tirof etilgan to‘qqizta muassasa zamonaviy muzey pedagogikasi va innovatsion ekspozitsiya yondashuvining muvaffaqiyatli namunasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy bolalar muzeylari nafaqat madaniy meros namunalarini namoyish etuvchi ekspozitsiyalarni, balki interfaol va tematik muhitlarda bolalarning estetik, kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlaydigan noyob loyihalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Chexiyadagi O‘yinchoqlar muzeyi va uning Myunxendagi filiali qadimiy o‘yinchoqlar kolleksiyasi orqali nafaqat bolalar madaniyati tarixini, balki sivilizatsiyalarning taraqqiyot bosqichlarini ham yoritadi. Bu yerda qadim Misr, G‘arb kinosi, harbiy tarix hamda mahalliy xalqlarning o‘yinchoqchilik an’analari mujassam.

Fransiyadagi Sharl Perro muzeyida ertak qahramonlariga bag‘ishlangan eksponatlar orqali bolalarning fantaziyasini boyitishga qaratilgan teatr tomoshalari tashkil qilinadi. Shvetsiyadagi Astrid

Lindgren muzeyi esa interfaol o‘yin maydonlari, ertaklarga asoslangan oshxonalar, kitob do‘konlari va shved folkloriga oid ekspozitsiyalar orqali bolalar dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada faoliyat yuritayotgan “Bolalik muzeyi” 20 mingdan ortiq eksponatlar bilan boyitilgan bo‘lib, unda bolalik tarixiga oid ijtimoiy-madaniy kontekstlar, shuningdek, maktab ta’limining evolyutsiyasi va pedagogik yondashuvlar aks ettirilgan.

Pekindagi bolalar muzeyi esa ertaklar olami, qo‘g‘irchoq teatri, interfaol hayvonot xonasi va bolalarning iste’molchilar sifatida ishtirok etish imkoniyatini beruvchi “supermarket” maketi bilan ajralib turadi. Avstriyaning Vena shahridagi Zoom muzeyida esa bolalar animatsiya, rejissura va dekoratsiya san’atining amaliy jarayonida ishtirok etishlari mumkin. Isroildagi Holon bolalar muzeyi esa sensor muhitlarga asoslangan interfaol tajribalarni taklif etadi. “Qorong‘ulikdagi dialog” ko‘rgazmasi orqali ko‘rish imkoniyatidan mahrum insonlar olamiga, “Sukunatga taklif” loyihasi esa eshitish qobiliyati cheklangan insonlar hayotiga psixologik immersiyani ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar muzeylari tarixan nafaqat madaniy merosni saqlovchi, balki yosh avlodni tarbiyalashda interaktiv va pedagogik jihatdan samarali vosita bo‘lgan. Ular bugungi kunda nafaqat tarbiyaviy makon, balki yoshlarning estetik dunyoqarashini shakllantirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hamda global madaniyat bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Rathbone, E. (2010). *Toys and their Place in History: A Cultural Perspective*. International Journal of Historical Studies, 2(1), 45-58.

2. Packer, J., & Ballantyne, R. (2002). *The Role of Museums in Educating Children: An Overview of the Literature*. Journal of Education in Museums, 3(1), 12-24.

3.Kron, M. E. (2006). *Children's Museums: A Pedagogical Approach to Learning Through Play*. Museum Education Monographs, 21(4), 32-44.

4. http://www.forbes.ru

UO’K 37.01(575.1) (09) 957.51

1946-1991-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING BOSHQARUV TIZIMI TARIXI

I.R.Tishabayeva, dots., Farg‘ona davlat texnika universiteti, Farg‘ona
ORCID: 0009-0001-3081-8917

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 1946–1991-yillarda O‘zbekiston maktabgacha ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimi faoliyati tahlil qilingan. Tadqiqotda bu davr boshqaruv modelining SSSRdagi markazlashgan tizimga asoslangani va davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Mavjud me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida maktabgacha ta’lim muassasalarining nafaqat pedagogik, balki boshqaruv jarayonlari ham o‘rganilib, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta’sirida qanday tarkibiy va mazmuniy o‘zgarishlarga uchragani yoritib berilgan. Ushbu tadqiqot maktabgacha tarbiya sohasidagi o‘zgarishlar va boshqaruv tizimining holatini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *bolalar bog‘chasi, boshqaruv, davlat, markazlashgan, uslubchi, partiya, hukumat.*

Аннотация. *В данной статье проанализирована деятельность системы управления дошкольными образовательными учреждениями Узбекистана в 1946-1991 годах. В исследовании указывается, что модель управления этого периода базировалась на централизованной системе в СССР и была тесно связана с государственной политикой. На основе действующих нормативных правовых актов изучаются не только педагогические, но и управленческие процессы ДОУ, освещается, какие структурные и содержательные изменения они претерпевают под влиянием политических, экономических и социальных факторов. Данное исследование служит важным ресурсом при изучении изменений в дошкольной сфере и состояния системы управления.*

Ключевые слова: *детский сад, управление, государство, централизованное, методист, партия, правительство.*

Abstract. *This article analyzes the activities of the management system of preschool educational institutions of Uzbekistan in 1946-1991. The study shows that this period is based on the centralized*

system of the management model in the USSR and is closely related to public policy. On the basis of the existing regulatory legal acts, not only pedagogical, but also managerial processes of preschool educational institutions were studied, highlighting what structural and substantive changes they underwent under the influence of political, economic and social factors. This research serves as an important resource in the study of changes in preschool education and the state of the management system.

Keywords: *kindergarten, management, state, centralized, methodological, party, government.*

Kirish. Maktabgacha ta'lim — har bir davlatning uzviy ta'lim tizimida asosiy bo‘g‘inlardan biri bo‘lib, bolalarning intellektual, ijtimoiy va axloqiy jihatdan shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sohaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi esa, eng avvalo, uni samarali boshqarish tizimiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimini tarixini o‘rganish ularning bugungi holatini chuqur tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa 1946–1991-yillar oralig‘ida, SSSRda ta'lim tizimi qat'iy markazlashtirilgan boshqaruv modeliga asoslangan edi. Ushbu yondashuv barcha ta'lim bo‘g‘inlariga, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimiga ham o‘z ta'sirini ko‘rsatgan. O‘zbekiston bu davrda Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lganligi sababli, uning maktabgacha ta'lim muassasalari ham yagona mafkuraviy va siyosiy tamoyillar asosida boshqarilgan. Bu jarayonda qabul qilingan turli normativ-huquqiy hujjatlar muhim o‘rin tutgan va boshqaruv tizimini shakllantirishda muayyan yo‘nalishlarni belgilab bergan.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi: Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritildi. Maqolada 1946-1991-yillarning davriy chegarasida O‘zbekistondagi maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarish tizimida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonlarga ta'sir ko‘rsatgan asosiy omillar yoritiladi. Bu esa tarixiy tajribani baholash va hozirgi islohotlar uchun muhim asos yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar ham tahlil qilingan.

Ushbu davr o‘rganilganda bir necha olimlarning tadqiqot ishlari ham ko‘rib chiqildi. Hususan, O‘.Erbo‘taevaning "Rivojlangan sotsializmni takomillashtirish sharoitida qishloq mehnatkash ayollarining moddiy faravonligini oshirish" nomli kitobida boshqaruv tizimining ayrim xususiyatlari haqida so‘z yuritgan. Pedagogika fanlari kandidati R. Zuhriddinovning "Qishloq xo‘jaligi" jurnalidagi ilmiy maqolasida qishloq joylarda bolalar bog‘chalari va yaslilarini tashkil etishda yuqori davlat organlarining faoliyatiga qisman to‘xtalib o‘tgan. M.Badalova o‘zining "O‘zbekistonda maktabgacha tarbiyaning taraqqiyoti tarixidan (1946-1965-yillar)" nomli tadqiqot ishida Xalq Maorifining maktabgacha tarbiya sohasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarini tahlil qilgan.

Natijalar: 1946–1991-yillarda ta'lim sohasida markazlashgan boshqaruv modeli markaziy organlarning qarorlari asosida ishlaydigan qat'iy ierarxiyaga asoslangan hamda Sovet Ittifoqining davlat boshqaruvi siyosati bilan uzviy bog‘langan edi. Ushbu boshqaruv modeli ta'lim tizimining barcha bosqichlarini qamrab olgan bo‘lib, maktabgacha ta'lim ham uning muhim qismi hisoblangan.

1946-1991-yillarda O‘zbekiston SSSR tarkibida bo‘lib, maktabgacha ta'lim sohasi Sovet Ittifoqining umumiy siyosati doirasida boshqarilgan. O‘rganilayotgan yillarda SSSR Markaziy komiteti va O‘zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Ushbu normativ hujjatlarda maktabgacha ta'lim muassasalarining faqatgina pedagogik faoliyati emas, balki ularning boshqaruv tizimi ham keng qamrovda aks ettirilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyati O‘zbekiston SSR Xalq ta'limi vazirligi va Mahalliy xalq ta'limi bo‘limlari orqali muvofiqlashtirilgan. Barcha maktabgacha tarbiya muassasalari davlat yoki boshqa tashkilotlar, zavodlar, fabrikalar, kolxozlarga qarashli bo‘lib, xalq ta'limi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan nazorat qilingan [5.1.].

1946–1991-yillarda O‘zbekiston SSR Xalq ta'limi vazirligi tarkibida har bir viloyatda xalq ta'limi boshqarmalarida maktabgacha tarbiya bo‘limlari faoliyat yuritgan. Ular respublika miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish vazifasini bajargan.

Shuningdek, shahar va tuman xalq ta’limi bo‘limlari huzurida maktabgacha tarbiya bo‘limlari tashkil etilgan bo‘lib, bu bo‘limlarning rahbari, uning o‘rinbosari hamda inspektori lavozimlariga tayinlash va ularni lavozimdan ozod qilish vakolati mavjud bo‘lgan. Mazkur bo‘limlarning asosiy vazifalarii O‘zbekiston SSR Xalq ta’limi vazirligi, hukumat va kommunistik partiya ko‘rsatmalarini bajarilishini ta’minlash; bolalar bog‘chalari hamda maydonchalari tarmog‘ini kengaytirish; maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’lim-tarbiyaga qamrab olish darajasini oshirish; 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning tarbiyasi va ta’limini nazorat qilish; shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimi uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishdan iborat bo‘lgan [6.70.].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston SSR Xalq ta’limi vazirligining maktabgacha tarbiya bo‘limi nafaqat ta’lim-tarbiyaviy jarayonni muvofiqlashtirish, balki infratuzilmani rivojlantirish va resurslarni taqsimlash bo‘yicha ham keng vakolatlarga ega bo‘lgan. Jumladan, 9, 10, 12, va 24 soatli sanatoriy bog‘chalar, kolxoz bog‘chalari va maydonchalarini tashkil etish orqali tizimni yanada kengayishiga sabab bo‘lgan [5.1.].

Sovet davrida, xususan, O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyati davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu sohadagi masalalar nafaqat mahalliy, balki partiya va hukumat organlarining kun tartibida ham muntazam ravishda muhokama qilinib kelgan. Jumladan, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga oid dolzarb masalalar oblast (viloyat) va rayon (tuman) darajasidagi partiya komitetlari byurolari, xalq deputatlari mahalliy Sovetlari ijroiya qo‘mitalarining yig‘ilishlarida doimiy tarzda ko‘rib chiqilgan. Hususan, 1946-yilda SSSR Oliy Soveti tomonidan ma’qullangan to‘rtinchi besh yillik rejasida maktabgacha tarbiya tarmoqlarini ko‘paytirish, bolalar maydonchalarini kengaytirish masalasi qo‘yilgan [1.24.]. Yana bir muayyan misol sifatida, 1970-yil 22-iyunda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot va xalq maorifi bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan “Kolxoz va sovxozlardagi mavsumiy bolalar muassasalarining faoliyatini yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi maktubi muhokama qilingan. Xususan, Qishloq xo‘jaligi va Maorif Ministrliklari tizimida madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlari tashkil etilib, ularning doirasida maktabgacha tarbiya muassasalariga rahbarlik va metodik ko‘mak ko‘rsatish faoliyati yo‘lga qo‘yildi [4.21.].

Vaqtli matbuot ko‘zdan kechirilganda ushbu ma’lumotlar ko‘zga tashlanadi. 1980-yil dekabr oyida Respublika soveti majlisida andijonliklarning bolalar bog‘cha va yaslilarini tashlillash tajribasi muhokama qilindi [2.58.].

Xulosa qilib aytganda, sovet davrida O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyati keng ko‘lamli davlat siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish tizimining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Bu muassasalar faoliyatining moliyaviy-xo‘jalik boshqaruvi ularning tarkibiy jihatdan tegishli bo‘lgan tashkilotlariga yuklatilgan bo‘lsa-da, pedagogik va metodik jihatdan xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan muvofiqlashtirib borilgan. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim muassasalariga e’tibor faqat ta’lim sohasi doirasida emas, balki kengroq siyosiy va xo‘jalik nuqtayi nazaridan ham olib borilgan. Oblast va rayon darajasidagi partiya komitetlari, mahalliy Sovetlar, shuningdek, respublika vazirliklari va Oliy Sovet Prezidiumining komissiyalari darajasida maktabgacha ta’lim muammolari muntazam muhokama qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Badalova M. O‘zbekistonda maktabgacha tarbiyaning taraqqiyoti tarixidan (1946-1965-yillar). Padagogika fnlari kandidati ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 1973. B. 24.

2. Зухриддинов Р. Дошкольное воспитание на селе / Сельское хозяйства. 1981. №7. С. 58.

3. Махмудова С. Дошкольные учреждения колхозов // Сельское хозяйство Узбекистана. 1975. №1. – Б. 60;

4. Эрбўтаева Ў. Ривожланган социализмни такомиллаштириш шароитида қишлоқ меҳнаткаш аёлларининг моддий фаравонлигини ошириш. – Тошкент: Билим, 1985. – Б. 20-21-betlar..

5. O‘z MA, R.2591-fond, 1-ro‘yxat, 264-ish, 1-varaq.;

6. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 5721-ish, 70-varaq.

UO'K 930.85

XX ASR 80-90 YILLARIDA EIR ICHKI VA TASHQI SIYOSATIDA DINIY ULAMOLARNING ROLI

Sh.R. Toxtiyev, dots., PhD, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Islom inqilobi va monarxiya tuzumi ag'darilganidan so'ng Erondagi ijtimoiy-siyosiy hayotda islom dinining o'rni, shia ulamolari davlat tepasiga kelganida islom dinining siyosiy va mafkuraviy sohalarga ta'siri yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Islom inqilobi, Ruhullo Musavi Humayni, shia ulamolari, Islom inqilobi eksporti, ichki va tashqi siyosat, Fors ko'rfazi.*

Аннотация. *В статье освещается роль ислама в общественно-политической жизни Ирана после Исламской революции и свержения монархического режима, влияние ислама на политическую и идеологическую сферы, когда на вершину государства пришли шиитские ученые.*

Ключевые слова: *Исламская революсия, Рухалла Мусави Хумейни, шиитское духовенство, экспорт исламской революсии, внутренняя и внешняя политика, Персидский залив.*

Abstract. *The article covers the role of Islam in socio-political life in Iran after the Islamic Revolution and the overthrow of the monarchy, the influence of Islam on political and ideological spheres when shia Ulama came to the top of the state.*

Key words: *Islamic revolution, Rukhalla Musavi Khumeyni, Shia clergy, export of Islamic revolution, Navuhodonosor, home and foreign policy, Persian gulf.*

1978-1979 yillardagi Eron islom inqilobi hozirgi davrda islomning siyosiy roli faollashuvining yorqin isboti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu inqilob to'lqinida shia ruhoniylar tabaqasi hukumat tepasiga keladi.

1979 yil dekabr oyida umumxalq referendumi natijasida mashhur islom faqihlari tomonidan ishlab chiqilgan Eron Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi konstitutsiyaga inqilobning ruhiy rahnamosi imom Ruhullo Musavi Humayni (1979-1889 yillar oyatulloh – *marja at-taqlid* bo'lgan) va oyatulloh Beheshtiyning asosiy g'oyalari zamin bo'ldi, hamda Respublika teokratik (diniy ulamolar idora qiluvchi hokimiyat) tarzda boshqarilishi ma'lum qilindi. EIR Konstitutsiyasiga muvofiq, o'n ikki imom (imomiylik) talqinidagi shialik davlat dini deb belgilandi. Shu bilan birga, sunniylik yo'nalishining to'rt mazhabi – hanafiylik, shofe'iylik, molikiylik va hanbaliylikka e'tiqod qilishga ruhsat berildi[1].

Yangi konstitutsiya Eronning barcha musulmonlarini yagona jamiyat deb e'lon qiladi. Mazkur konstitutsiyaning 2-moddasida shunday deyiladi:" ... barcha musulmonlar yagona jamiyat hisoblanadi va EIR hukumati o'zining butun siyosatini islom millati ittifoqi va birlashtirish asosida qurishi shart, hamda muntazam ravishda islom dunyosining siyosiy, iqtisodiy va madaniy birligiga erishish uchun yo'naltirilgan harakatlarda faollik qiladi"[2].

EIR yangi parlamenti 1980 yil may oyida saylangandan so'ng, uning tarkibiga 24 o'ston (viloyat) deputatlari (237 kishi) kiritildi (kurdlar yashaydigan 22 shaharda saylov o'tkazilmadi). Bu deputatlarning asosiy qismi diniy amaldorlar edi. Parlament 12 obro'li shia faqihlaridan tarkib topgan Nazorat Kengashi va qonun chiqaruvchi (Vakillar palatasi) assambleyadan tashkil topdi. Nazorat Kengashining olti nafarini Humayni, qolgan olti nafarini esa majlis deputatlari orasidan qur'a tashlash yo'li bilan saylandi. Bu kengash olti yil muddat davomida faoliyat olib boradi va har uch yilda uning a'zolarini yarmi yangilandi[3].

Qonun chiqaruvchi assambleya keyinchalik Islom Majlisi Kengashi deb atala boshlandi. Mazkur majlis Nazorat Kengashi ruhsatisiz Qonun chiqara olmaydi. Majlisga a'zolar to'rt yil muddatga saylanadi. Parlamentda Nazorat Kengashining obro'yi baland bo'lib, u prezident saylovlari, majlisga deputatlar saylash va referendum o'tkazishni nazorat qilib boradi.

1980 yil 25 yanvarda prezidentlikka o'tkazilgan ilk saylovlarda siyosat arboblaridan biri Abulhasan Banisadr saylandi. Ammo, mamlakatdagi oliy hokimiyat *"velayat-ye faqih"* (ya'ni 12chi

"yashiringan imom" kelguniga qadar saqlanishi lozim bo'lgan *"eng obro'li shia faqihining boshqaruvi"[4]*) yangi konstitutsiyaga muvofiq, inqilob rahnamosi oyatulloh Humayniga topshirildi. U tashqi va ichki siyosat masalalarini hal qilishda asosiy ovoz berish huquqiga va shia yo'nalishiga qarshi bo'lgan qarorlarni bekor qilish huquqiga ega. "Velayat-ye faqih" urush va tinchlik masalalarini hal qiladi, bosh qo'mondon, hukumat a'zolari, oliy sud lavozimlariga saylash huquqiga ega[5].

Mamlakatda Oliy sud kengashi tashkil etilib, unda 5 yil muddatga saylanishadi. Uning tarkibida rais, bosh prokuror va uchta sudya mavjud. Kengash a'zolarining barchasi mujtahidlar bo'lib, ular davlatda asosiy sud hakamlari hisoblanishadi.

Eronda shoh tuzumining ag'darilishi va islom respublikasining vujudga kelishi Fors ko'zfazi xavfsizligi haqidagi tasavvurlarni tubdan o'zgartirib yubordi va AQSHni bu mintakddagi o'z strategiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Siyosiy tahlilchilarning fikricha, islom inqilobining amalga oshirilishi Yaqin va O'rta Sharq mintaqasida ikkinchi jahon urushidan keyingi yuz bergan muhim voqealardan biri bo'ldi. Chunki shoh tuzumi AQSHning ikkiyoqlama strategiyasining tayanchi edi. Amerikaning xatto Pokiston, Turkiya va Fors ko'zfazidagi arab mamlakatlari bilan munosabatlari ham xavf ostida qolgan edi.

Eronda islom inqilobi g'alaba qozongan vaqtdan boshlaboq, Saudiya Arabistoni va Fors ko'rfazi monarxiyalari nufuzli doiralarning AQSH homiyligiga suyanish zarurligi haqida e'lon qilganlari ham bejiz emasdi. Lekin Eron inqilobiga munosabat masalasida bu konservativ mamlakatlar o'rtasida ham, bu mamlakatlarning ichida ham birlik yo'q edi. Masalan, Saudiya Arabistoni Eron inqilobiga bo'lgan munosabati murakkab edi. Uning rahbariyati shoh tuzumining ag'darilishiga, boshqarishning respublika shakli o'rnatilishiga, Eron siyosatining AQSHga qarshi yo'naltirilishiga salbiy munosabatda bo'ldi. Saudiya Arabistoni biroz sovuqroq oxangda bo'lsa ham rasmiy ravishda Erondagi yangi tuzumni tan oldi.

1981 yil mayda Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan ***Fors ko'rfazi arab mamlakatlari hamkorligi kengashi (FKAMHK)*** tashkil etildi. Olti mamlakat – SAP, BAA, Quvayt, Umon, Bahreyn, Qatar tashqi ishlar vazirlarining ar-Riyozdagi kengashida Saudiya Arabistoni va ko'rfazning boshqa besh arab monarxiyalari o'rtasida xavfsizlik masalasi bo'yicha ikki tomonlama bitimlar imzolandi. Aynan shu kengashda FKAMHKni tuzish haqidagi bitim imzolangandi. Keyinchalik Iroq va Yamanning bu ittifoqqa a'zo bo'lish haqidagi murojaatlariga rad javobi berildi[6].

EIR xalqaro hamjamiyatni mintaqada to'la xavfsizlikni ta'minlashi, xalqaro mezonlarga binoan dengiz transporti qatnovini ta'minlashi haqida ishontirdi va bu Tehronning iqtisodiy manfaatlariga mos kelishini ta'kidladi. O'z hududlarini agressordan himoya qilish mintaqa mamlakatlariga tinchlik, xavfsizlik va osoyishtalik keltirishi mumkin. Bu esa mintaqa mamlakatlari o'rtasida uzaro bir-birini anglashga asoslangan dustona munosabatlar mustaxkamlanishiga olib keladi[7].

BMT mavqei haqida to'xtalib, Iroqning Eronga qarshi bosqinchiligi BMT Xavfsizlik Kengashining bu masalaga befarq qaraganligini ko'rsatdi, deb ta'kidladi rasmiy Tehron[7].

Umuman, Eronning urushni to'xtatish masalasidagi qarashlari asta-sekin yumshab bordi va xalqaro hamjamiyatga qarata mojaroni hal qilishda ishtirok etishiga Tehroning dastlabki chaqiriqlari paydo bo'la boshladi.

1987 yil ar-Riyozdagi FKAMHK davlatlarining uchrashuvida ichki xavf va Eron-Iroq urushining tarqalishini bartaraf qilishga qaratilgan olti mamlakatning yagona strategiyasi e'lon qilindi. Fors ko'rfazi olti arab mamlakatining tashqi xavfga qarshi yagona strategiyasini ishlab chiqish murakkab bo'ldi. Xavfning manbalarini aniqlash, EIR va mintakadan tashqaridagi kuchlar bilan aloqalar darajasini belgilash yuzasidan bu mamlakatlar orasidagi tafovutlar yagona harbiy kuchlar va ularning qo'mondonligini tuzishga to'sqinlik qilardi.

Eron-Iroq urushi tugaganidan keyin EIR mamlakat urush oqibatlarini muvaffaqiyatli bartaraf etgani, urush tajribasi Eronning bir o'zi xalqaro zulm tajovuziga qarshi tura olishi mumkinligi va o'z mustaqilligi yo'lida davom eta olishi haqida bayonot berdi.

Eron ichki siyosiy hayotida o'zgarishlar ro'y berdi. Humayni o'limi (1989 yil 4 iyun)dan oldin hukumat faoliyati erkinligini oshirish tomon Nazorat kengashi va Vazirlar mahkamasi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rib chiqishga rozi bo'ldi. 1989 yilgi konstitutsiyaning yangi tahririga ko'ra, bosh

vazir lavozimini yo‘q qilish, hukumat statusi va konstitutsiya bo‘yicha lavozimi *rahbardan* keyin eng yuqori hisoblangan prezident rolini oshirish eng muhim o‘zgarishlardan bo‘ldi.

Shunday qilib, shia ruhoniylari davlat tepasiga kelishdi. Ular inqilob jarayonida tashkil etilgan tashkilotlarni o‘z tayanchiga aylantirishga muvaffaq bo‘ldilar. Mintaqaviy islom inqilobi kengashlarining o‘rni qonuniylashtirildi, inqilobiy sudlar islom inqilob tribunallariga aylandi. O‘zining qurolli tayanchi sifatida din arboblari Islom inqilobi posbonlari korpusini tashkil etishdi. Xullas mamlakatdagi barcha idoralar (polisiya, armiya va h.k.) shia ruhoniylarining qo‘liga o‘tdi. Buning tepasida inqilob rahbari Ruhullo Musavi Humayni turdi. EIR tashqi siyosatda faol ishtirok etib, o‘zining ko‘zlagan maqsadlari sari olg‘a qadam tashladi. Maqsadlarini amalga oshirishda katta muvaffaqiyatlarga erishmagan bo‘lsada, Osiyoda o‘z mavqeini saqlab qolishga erishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Aliyev S.M. Islam i politika // Aziya i Afrika segodnya, 1981, №12, 21-bet. Yana qarang: Rodriges A.M. Istoriya stran Azii i Afriki v noveysheye vremya. Uchebnik. – M.: Prospekt, 2009. – B. 306.
2. “قانون اساسی جمهری اسلامی ایران” (“EIR Konstitutsiyasi”) – Tehron, 1979, 2-модда
3. Doroshenko Ye.A. Shiitskoye duxovenstvo v sovremennom Irane. – M.; 1985. – B. 200.
4. www.vneshmarket.ru
5. “قانون اساسی جمهری اسلامی ایران” (“EIR Konstitutsiyasi”) – Tehron, 1979, 107-модда.
6. Piruz Mujtahidzoda. Keshvarho va marzho dar mentaqeye jeopolitike xalidje fors. (fors tilida) EIR TIV qoshidagi Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi. – Tehron, 1985. – B. 47.
7. Viloyatiy A. Didgohhoye djahoniye djo‘mhuriye eslomiy. – Tehron. EIR TIV nashriyoti, 1995. – B. 232

UO‘K 739.2+7.04+7.046+7.033

TURKIY QABILALARNING MAROSIMLARI: TARIXIY-MADANIY TAHLIL

F.Y. Yuldosheva, o’qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Turkiy qabilalar o‘ziga xos madaniyati va an’analari bilan ajralib turadi. Ularning diniy, harbiy, oilaviy va xalq bayramlari marosimlarida qadimiy dunyoqarash va e’tiqodlarning izlari saqlanib qolgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turkiy marosimlar Tengri dini, ajdodlar ruhi va tabiat kultlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ushbu maqola turkiy qabilalarning marosimlarini tarixiy manbalar va dalillar asosida tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Marosim, qurbonlik, ajdodlar ruhi, din, manba, turkiy xalqlar*

Аннотция. *Тюркские племена отличаются своей самобытной культурой и традициями. Следы древних мировоззрений и верований сохранились в обрядах религиозных, воинских, семейных и народных праздников. Исследования показывают, что тюркские ритуалы были тесно связаны с религией Тенгри, духами предков и культами природы. В статье на основе исторических источников и свидетельств анализируются обряды тюркских племен.*

Ключевые слова. *Церемония, жертвоприношение, дух предков, религия, источник, тюркские народы.*

Abstract. *Turkic tribes are distinguished by their unique culture and traditions. In the rituals of their religious, military, family and folk holidays, traces of ancient worldviews and beliefs have been preserved. Research shows that Turkic rituals were closely connected with the religion of Tengri, the cult of the spirits of ancestors and nature. This article analyzes the rituals of Turkic tribes based on historical sources and evidence.*

Key words: *Ritual, sacrifice, ancestral spirit, religion, source, Turkic peoples*

Turkiy qabilalarning diniy marosimlari

Tengri xudosiga sig‘inish va qurbonlik marosimlari

Turkiy xalqlar osmon xudosi – Tangriga sig‘ingan. Bu haqda qadimgi O‘rxon-Enasoy bitiklari (VIII asr) hamda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ma’lumot berilgan. Masalan, Bilga xoqon bitigida shunday yozilgan:

"Men Bilga xoqon bo‘lib, Tangri qudrati bilan elimni boshqardim".

Qurbonlik marosimlari haqida ham yozma manbalar mavjud:

Ibn Fadlanning Risolasi (Sayohat kundaligi) asarida X asrda Volga bo‘ylarida yashagan turkiy xalqlarning turmush tarzi, diniy marosimlari va urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Quyida uning turkiy xalqlar marosimlari haqidagi ba’zi fikrlarini keltiraman:

1. Qurbonlik va diniy marosimlar

Ibn Fadlan o‘z yozuvlarida o‘g‘uzlar va bolgar turklari o‘z xudolari uchun qurbonliklar qilganini tasvirlaydi:

"Turkiylar (o‘g‘uzlar) xudolariga sig‘inib, ularning oldida tiz cho‘kib, qo‘llarini ko‘taradilar va duolar qilishadi. Ular muhim ishlarga kirishishdan oldin, xususan, urush yoki uzoq safarga chiqish oldidan Tangriga hayvon qurbonlik qilishadi."

Shuningdek, u Volga bolgarlarining islomni qabul qilganidan oldin shamanistik e’tiqodlarga ega bo‘lganini yozadi. Ular suv, o‘rmon va tog‘ ruhi bilan bog‘liq marosimlar o‘tkazganlar.

2. Dafn marosimlari

Ibn Fadlan o‘likni dafn qilish marosimi haqida shunday yozadi:

"Ular (turkiy qabilalar) vafot etgan odamni ko‘mishdan oldin, uning kiyimlarini va qurol-aslahalarini unga qo‘shib dafn qilishadi. Agar u nufuzli odam bo‘lsa, yoniga xizmatkorlaridan birini qurbon qilib qo‘yishadi. Marhumning otini ham unga sherik qilib, birga ko‘mishadi."

Bu marosim Paziriq qo‘rg‘onlari va Berel nekropoli kabi arxeologik topilmalardagi an’analar bilan mos keladi.

3. To‘y va nikoh marosimlari

Ibn Fadlan o‘g‘uzlar orasida ko‘p xotinlilik va to‘y marosimlari haqida yozgan:

"Ular qiz olib qochish an’anasiga amal qiladilar. Agar yigit qizni o‘g‘irlab ketsa, uning oilasi katta marosim uyushtiradi va sovg‘alar almashinadi. Agar kelinning oilasi bu holatga rozi bo‘lsa, kuyov oilasiga hayvonlar va matolar tortiq qiladi."Bu ma’lumot bugungi kunda ham ayrim turkiy xalqlarda uchraydigan "qiz olib qochish" an’analarining tarixiy ildizlarini ko‘rsatadi.

4. Harbiy marosimlar

Ibn Fadlan turkiy jangchilarining urushdan oldin qilgan marosimlari haqida yozadi:"Ular jangga kirishdan oldin, yerga o‘q sanchib, osmonga qarab qasam ichadilar. Bu ularning xudolari oldida bergan va’dasi hisoblanadi. Agar kimdir bu qasamga xiyonat qilsa, u qattiq jazolanadi."Bu marosimni boshqa arab tarixchilari ham tasdiqlagan bo‘lib, turkiy xalqlarning harbiy sharaf va qasamyod an’analari haqida dalillar beradi.

Ibn Fadlan o‘zining risolasi asarida turkiy xalqlarning diniy, harbiy va maishiy marosimlari haqida batafsil yozgan. Uning yozuvlari nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki turkiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi haqida muhim dalil sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Agar sizga Ibn Fadlanning asaridan yana boshqa iqtiboslar yoki ma’lumotlar kerak bo‘lsa, aniqroq yo‘nalish bersangiz, qo‘shimcha tafsilotlar taqdim etishim mumkin.

Ajdodlar ruhiga sig‘inish

Turkiy qabilalarda ajdodlar ruhi ulug‘langan. Arxeologik qazilmalarda topilgan kurganlar va stela yodgorliklari bu e’tiqodni tasdiqlaydi. Masalan:

Paziriq qo‘rg‘anlari (V–III asrlar, Oltoy) – ulkan qabr gumbazlari, ajdodlarga bag‘ishlangan marosimlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Xun qabilalarining qabrlariga ot skeletlari qo‘yilgani ma’lum bo‘lib, bu ularning hayotdan keyingi dunyoga ishonchi bilan bog‘liq.

Harbiy qasamyod va tantanali chiqish marosimi

Turkiy harbiy marosimlari "jasorat madaniyati" bilan bog‘liq bo‘lgan:

“O‘q va qasamyod” – X asr arab tarixchisi al-Mas’udiyga ko‘ra, turkiy jangchilar jangga chiqishdan oldin yerga o‘q sanchib, Tangridan madad so‘ragan.

O‘nlik harbiy tuzum va tantanali chiqish marosimi – Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalarning harbiy yurish oldidan maxsus jangovar raqslar va shamanistik duo marosimlarini o‘tkazganini yozadi.

G‘alaba va qurbonlik marosimlari

Ot yoki bo‘ri boshi qurbonligi – Ibn Fadlan ma’lumotiga ko‘ra, ba’zi turkiy qabilalar g‘alabadan so‘ng bo‘ri yoki ot boshini muqaddas joyga osib qo‘yganlar.

O‘rxun bitiklarida – jangdan keyin katta tantanalar, qurbonliklar va marosim bazmlari bo‘lgani yozilgan.

Maishiy va oilaviy marosimlar

Nikoh va to‘y marosimlari

"Qalin to‘lash" odati – Mahmud Koshg‘ariy va Rashididdinning yozishicha, turkiy qabilalarda kuyov kelinning oilasiga "qalin" sifatida mol yoki ot berar edi.

"Ot minib kelin olish" marosimi – tarixiy manbalarda kuyov o‘z kelinini otga mindirib, to‘y o‘tkazish marosimlari tasvirlangan.

Tug‘ilish va ismlar qo‘yish marosimi

"Bola ismi ulug‘ kishi nomidan olinishi" – tarixchi Juvayniy yozishicha, mo‘g‘ul va turkiy qabilalarda yangi tug‘ilgan bolaga hurmatli ajdod yoki qahramon ismi berilgan.

"Bolani yerga qo‘yish" marosimi – ba’zi turkiy qabilalarda chaqaloq tug‘ilganda, yer bilan bog‘liq maxsus marosimlar o‘tkazilgan.

Dafn marosimlari

Turkiy xalqlarning dafn marosimlari kurganlar va yozma manbalar orqali tasdiqlangan:

Qadimgi turkiy qabrlarida – marhum bilan birga ot, qurol va oziq-ovqat ko‘milgan (Paziriq qo’rg’oni, Berel nekropoli).

O‘rxon bitiklari – turkiy hukmdorlar uchun muqaddas yodgorliklar o‘rnatilgani haqida yozilgan.

Bayram va xalq marosimlari

Navro‘z

Turkiy xalqlarning bahorgi yangi yil marosimi – Navro‘z qadimgi davrlardan boshlab nishonlangan.

Al-Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida turkiylarning Navro‘zda o‘t ustidan sakrashi va alanga yoqishi tasvirlangan.

Xitoy yilnomalarida turkiylarning bahorgi bayramlari haqida yozilgan.

Quyosh va oyni sharaflash marosimlari

Oltoy turkiylarida – quyosh chiqishi bilan bog‘liq ibodatlar kuzatilgan. Ba’zi qabilalarda yangi oy ko‘ringanda maxsus duo va o‘yinlar o‘tkazilgan.

Xulosa. Turkiy qabilalar marosimlari qadimgi e’tiqodlar, diniy rasm-rusumlar va ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar bu marosimlarning muhimligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda ham turkiy xalqlar orasida ushbu qadimiy marosimlarning izlari saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

Qadimiy va asosiy yozma manbalar

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960. – Turkiy xalqning madaniyati, marosimlari va urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.
2. Al-Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1990. – Turkiy xalqlarning Navro‘z va astronomik marosimlari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.
3. Rashididdin Fazlulloh. Jome’ at-tavorix. – Toshkent: Sharq, 1998. – Turkiy xalqlarning harbiy marosimlari va davlat boshqaruvi haqida.
4. Ibn Fadlan. Risolasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – X asr arab sayyohining turkiy qabilalar hayoti va diniy marosimlariga oid yozuvlari.

II. Ilmiy monografiyalar va tadqiqotlar

5. Bartold V.V. Turkiy xalqlar tarixi. – Moskva: Nauka, 1968. – Turkiy qabilalarning diniy va ijtimoiy marosimlari haqida tadqiqot.
6. Gumilyov L.N. Qadimgi turkiylar. – Moskva: Nauka, 1993. – Turkiy qabilalarning madaniyati, urf-odatlari va marosimlari haqida batafsil ma’lumot.
7. Klyashtorny S.G. Turkiylarning qadimgi davlatlari va marosimlari. – Sankt-Peterburg: Nauka, 2000. – Turkiy qabilalarning siyosiy va diniy marosimlariga bag‘ishlangan.
8. Semenov A.A. Turkiy xalqlarning harbiy an’analari. – Toshkent: O‘zFA, 1975. – Turkiylarning harbiy qasamyod va jangovar marosimlari haqida tadqiqot.
9. Hodjayev A. O‘rta Osiyo xalqlarining diniy marosimlari. – Toshkent: Fan, 2005. – Turkiy qabilalar orasida tengrishilik va ajdodlarga sig‘inish marosimlari haqida.

III. Ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari

10. Abdurahmonov S. "Turkiy xalqlarning Navro‘z bayrami va uning kelib chiqishi". // O‘zbekiston tarixi – 2012, №2. – 45-56-b.

11. Karimov R. "Qadimgi turkiy qabilalarning o‘liklarni dafn etish marosimlari". // Markaziy Osiyo arxeologiyasi – 2018, №3. – 67-79-b.

12. Niyozov B. "Turkiylarning shamanistik marosimlari: tarixiy va etnografik tahlil". // Sharqshunoslik va etnografiya jurnali – 2020, №1. – 23-34-b.

13. Mamatov I. "O‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning to‘y marosimlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar". // O‘zbekiston madaniy merosi – 2019, №5. – 78-90-b.

14. Sadikov U. "Qadimgi turkiy urf-odatlarning bugungi madaniyatga ta'siri". // Ilmiy tadqiqotlar jurnali – 2021, №4. – 101-113-b.

UO‘K 339: 93: 316.722: 7.03.221.13

SAVDO YO‘LLARINING XORAZMSHOXLAR DAVLATI MADANIY TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

D.M.Yunusova, katta o‘qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqola XI-XIII asrlarda Xorazmda savdo-sotiqning rivojlanishi, mamlakat iqtisodiy hayotining taraqqiy etishi, Xorazmshoh Anushtaginiylar davrida qo‘shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq yo‘llarining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi yoritilgan. O‘rta asrlarda arab sayyohlarining Xorazm bozorlari va shaharlariga bergan ta'rifi haqida ma'lumotlar tahliliy bayon qilingan.*

Kalit so‘z. *savdo yo‘llari, Xorazmshoxlar, ipak yo‘li, Gurganj, Movarounnahr, shaharlar, bozorlar.*

Аннатоция. *В статье рассматривается развитие торговли в Хорезме в XI-XIII вв., становление экономической жизни страны, установление торговых путей с соседними странами в период правления хорезмшахов Ануштагинидов. Аналитически представлена информация об описаниях арабскими туристами рынков и городов Хорезма в средние века.*

Ключевое слово. *торговые пути, Хорезмшахи, Шелковый путь, Гургандж, Моварунnахр, города, рынки.*

Abstract. *This article discusses the development of trade in Khorezm in the XI-XIII th centuries, the development of the country's economic life, the establishment of trade routes with neighboring countries during the reign of the Khorezmshah Anushtaginids. The information on the description of the markets and cities of Khorezm by Arab tourists in the Middle Ages is analyzed.*

Key words: *trade routes, Khorezmshahs, silk road, Gurganj, Movarunnahr, cities, markets.*

Kirish. Barcha davrlarda savdo yo‘llari bajargan vazifalarni mamlakat iqtisodiy hayoti, kishilar turmush tarzining barcha sohalaridagi o‘rnini biror bir narsa bilan qiyoslash juda qiyin. Davlatchilik tarixiga e'tibor berilsa yo‘llar, yo‘l-transport infrastrukturasi hamma vaqt mamlakatlar hayoti uchun ulkan iqtisodiy ahamiyat kasb etgan. Ularni o‘z qo‘lida saqlab qolish, ulardan foydalanish uchun davlatlar barcha imkoniyatlarni ishga solgan, zarur bo‘lsa aynan shu resurs uchun siyosiy kurashlar ketgan. Yo‘llar, yo‘l-transport infrastrukturasi davlatlarning bir-biriga ta'sir o‘tkazishi uchun siyosiy resurs vazifasini ado etgan. Bu resurslardan foydalanish xalqimiz tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan juda katta ahamiyat kasb etgan. Jumladan, dunyo davlatchilik tarixida alohida nom qoldirgan Xorazmshoxlar davlati ham o‘z vaqtida savdo yo‘llari va yo‘l-transport infratuzilmasini o‘z davlatining iqtisodiy hayoti, siyosiy va harbiy-strategik imkoniyatlarini yanada oshirishi mumkinligini chuqur anglab etgan. Bu sohaning rivojlanishi, xavfsizligi uchun katta e'tibor bergan. Savdo yo‘llari bo‘yida yirik shaharlar va qal'alar barpo etilishida alohida e'tibor berilgan.

IX-XIII asr boshlari savdo va madaniyat markazlari bo‘lgan yirik shaharlarning ko‘payishi va taraqqiyoti davri bo‘lib, ichki hamda tashqi savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojida muhim o‘rin tutadi. Buyuk ipak yo‘lining markaziy yo‘nalishlari bo‘yida joylashgan Movarounnahr shaharlari, nafaqat Sharq dunyosida, balki ulkan Yevrosiyo mintaqasi miqyosida amalga oshiriladigan tranzit aloqalarda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Iqtisodiy-madaniy aloqalarning rivojlanishi savdo yo‘llari tarmoqlarining kengayishiga va ular faoliyatining jonlanishiga olib keldi. Bu yo‘llar hunarmandchilik

va madaniyat markazi bo‘lgan shaharlarni qishloqlar, xom-ashyo manbalari va foydali qazilmalar olinadigan konlar bilan, shaharlar va viloyatlarni bir-biri bilan bog‘lar edi. Mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan savdo yo‘llari qatorida Buxoro, Samarqand, Nasaf, Shosh, Farg‘ona va Xorazm vohasi orqali o‘tgan yo‘llar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular tranzit savdo yo‘llarining muhim tarkibiy qismlari hisoblanardi.

Akademik S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasi va akademik Ya.G‘.G‘ulomov boshchiligidagi ilmiy tekshirish ekspeditsiyasi Xorazm davlati hududida olib borgan arxeologik qazishma ishlari natijasida bu davlatning boy madaniyatiga oid tarixiy yodgorliklar topildi. Markaziy Osiyoda O‘rta asrlardagi savdo-aloqa yo‘llarini o‘z mohiyati va xususiyatlari, yo‘nalishi va doimiyligi bilan bir-biridan tubdan farqlangan 4 ta davrning dastlabkisi Xorazmshohlar davriga mansub bo‘lib, bu davr mintaqamizning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalari yo‘nalishlarini belgilab bergan[11].

XIII asr boshlariga kelib Xorazmshohlar davlatiga 27 yirik viloyat tobe bo‘lib, uning hududlari Iroqdan Hindistongacha, Orol dengizidan Hind okeanigacha kengaytirilgandi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikning ta’minlanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ham ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi.

Xorazmshohlar sarhadlarida karvon yo‘llari yaxshi qo‘riqlangani uchun, ichki va tashqi savdo juda rivojlangan. Bozorlardagi narx-navo, mahsulotlarning sifati, tosh-tarozining ahvoli qattiq nazorat ostiga olingan. Karvon yo‘llarida to‘xtash joylarida yangi suv havzalari qurilgan va avvaldan mavjud bo‘lganlari qayta ta’mirlangan. Katta karvonlarni qo‘riqlab borishga, hatto Xorazmshohning shaxsiy pahlavonlari ham jalb etilgan. Xorazmshoh Takash savdogarlarning xorazmlikmi, turkmi, xorijlikmi kimligidan qat’iy nazar hammaga bir xil adolatli munosabatda bo‘lish, ularning oldi-sotdi ishlariga to‘sqinlik qilmaslik, yo‘llar xavfsizligini ta’minlash, mol va hayotiga turli tajovuz va suiqasdlarning oldini olish to‘g‘risida farmon chiqargan[9].

***Key words:**: Industry, "Uz-Kor Gas Chemical," "Soda Plant," Surgil, investment.*

Долзарблиги. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг, шунингдек Қорақалпоғистоннинг хорижий мамлакатлар билан ҳамкорлик алоқалари тобора ривожланиб бормоқда. Мамлакатимиз иқтисодиётига киритилаётган сармоя ҳажми ошиб, чет эллик шериклар билан биргаликда барпо этилаётган қўшма корхоналар сони кўпаймоқда. Буларга, аввало, Мустақил Ўзбекистонда Президентимиз ташаббуслари билан саноатнинг ривожланишида янги сифат ўзгаришларга қаратилган тадбирлар асосий омил бўлмоқда.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси. Қорақалпоғистонда саноатни ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларни таҳлил қилиш, мустақиллик йилларида янги саноат тармоқларининг ривожланишини ўрганиш бўйича ҳам бир қатор маълумотларни С.Камалов, Я.Досумов, К.Сарыбаев, М.Сарыбаев, А.Сарыбаев, Б.Кощанов,А.Жумашов ишларида ҳам кўришимиз мумкин.

Мустақиллик йилларидаги саноатнинг ривожланиш йўли бозор муносабатларини шакллантиришга, ишлаб чиқаришнинг барқарорлашишига ва ривожланишига, унинг сифат ўзгаришларига йўналтирилган институционал ва тузилмали такрорий ўзгаришларнинг давом этаётганини кўрсатади. Саноат соҳасида нодавлат секторнинг ва хусусий мулкнинг шаклланиши ва мустаҳкамланиши бўйича иқтисодий сиёсат босқичма босқич давом этмоқда. Жамиятни иқтисодий ташкил этишнинг дунё тажрибаси кўрсатиб берганидек, ресурсларни топишнинг ўзи хусусий, нодавлат секторда ушбу ресурсларни фойдаланиш бўйича ечим қабул қилишда энг самарали усул бўлиб ҳисобланади. Сабаби кўпроқ фойда олиш мақсадида ҳаракат қилиш жараёнида, бозор баҳоларининг конюктурасини ҳисобга олиб, хусусий мулк ишлари ресурсларни жойлаштириш ва маҳсулот чиқариш тузилишини ўз вақтида ўзгартириб туради.

Шу борада амалга ошириб келинаётган такрорий қурилишлар асосида республиканинг бундан буён ривожланиши хусусий мулк масаласининг ҳал бўлишини жуда зарур турда тақозо этди. Фақат хусусийлик давр тажрибасининг кўрсатишича иқтисодий қизиқишнинг қўзғатувчи кучи бўла олмади. Шу сабабли, Ўзбекистон Республикаси 1-Президенти И. А. Каримов ислоҳотнинг иккинчи босқичининг асосий вазифалари ҳақида «… бизнинг қарашимиздаги, эгалигимиздаги мулк ўзининг ҳақиқий эгасини топиши зарур. Амалга оширилаётган ислоҳотларнинг моҳиятида хусусий мулкни ҳақиқий эгаларининг қўлига бериш, уларга тадбиркорлик ҳаракатини юритиши учун кенг имкониятлар яратиб беришдан иборат»,- деб таъкидлаб ўтди. Бозор иқтисодиётига ўтган собиқ социалистлик давлатларда хусусий мулк масаласини ечиш йўллари фарқли аҳамиятга эга. Хусусий мулк масаласини ечиш кўпинча мулкдорлар синфини такрорий тузишдаги ҳар хил усуллар билан ва режали, марказлаштирилган иқтисодиётни янги мустақил республикалар танлаб олган бозор иқтисодиётига ўтказиш намуналари билан ажралиб туради.

Таҳлил ва натижалар. Иқтисодий ислоҳотларнинг биринчи босқичининг ғоят муҳим вазифаси давлат мулкининг монополизмини йўқ этиб, уни хусусийлаштириш ҳисобидан ҳақиқий кўп тармоқли иқтисодиётнинг шаклланишига олиб келишдан иборат бўлди. Биринчи босқичда мулкни хусусийлаштириш жараёни асосан савдо, аҳолига хизмат кўрсатиш,

маҳаллий саноат корхоналари якка тартибдаги ва жамоат (ширкат) мулкига бериш орқали амалга оширилиб, кичик хусусий мулк миқёсида анча фидойи турда юргизилди.

Қорақалпоғистон Республикасида 1995 йили 14 қўшма корхона рўйхатга олинган бўлса, 2005 йилнинг 1 январига келиб уларнинг сони 43 га етти. Қўшма корхоналар томонидан маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми 2004 йил 5275,0 млн. сўмни ташкил этди. 1995 йил бу кўрсаткиш фақат 4,9 млн. сўмни ташкил этган эди. Чет эл инвестицияси асосидаги корхоналарда банд бўлганлар сони 1995 йили 99 дан 2004 йили 2127 га етди. Қўшма корхоналар тузишда чет эл давлатларидан Россия, Литва, АҚШ, Ирландия, Германия, Туркия, Италия, Люксембург, Эрон, Бангладеш, Австрия ва бошқа давлатлар асосий шериклар бўлди [1].

1997 йил республикада «Педрини» (Италия) фирмаси билан ҳамкорликда қуввати йилига 60 минг кв.м. ташкил этувчи мармар плиталарини чиқарувчи завод ишга тушди. Қорақалпоғистон Республикасида 2005 йили иқтисодий ислоҳотларни бундан буён ривожлантириш, иқтисодиётда хусусий секторни ошириш, халқ хўжалигининг барча соҳаларининг мунтазам ривожланишини таъминлаш, шунингдек халқни қўллаб-қувватлаш йўналишининг янги асоси ишлаб чиқилди. Ёқилғи, кимёвий ва озиқ-овқат соҳалари ишлаб чиқаришда юксалиш кўзга ташланди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 2-мартдаги «Қўнғирот сода заводининг қурилиши тўғрисида» ва 2002 йил 14-марттаги «Сода заводи қурилишини якунлаш тўғрисида»ги Қарорига [2] асосан ишга тушган Қўнғирот сода заводида 2005 йили тажриба ишлари бошлаб юборилди. Лойиҳага мос, завод кальций содасини ишлаб чиқарувчи Марказий Осиёдаги ягона корхона бўлиб, заводнинг технологик бўлими Хитойнинг «СИТИК» компанияси билан бирга қурилди. 2006 йилда иш бошлаган корхона йилига 100 минг тонна сода ишлаб чиқариш қувватига эга. 2012 йилда корхонада 97 минг 800 тоннадан ортиқ импорт ўрнини босувчи, юқори сифатли сода ишлаб чиқарилди. Корхонанинг иккинчи навбати ишга туширилиши туфайли дунё бозорида харидоргир бўлган ушбу маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми янада ошади. Халқаро талабларга тўла жавоб берадиган корхона маҳсулотлари ички бозордан ташқари Россия, Қозоғистон, Қирғизистон, Туркманистон каби бир қатор давлатларга экспорт қилинмоқда.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг 2010 йил 15 декабрдаги "2011-2015 йилларда Ўзбекистон Республикаси саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида"ги қарори ижроси доирасида амалга оширилган мазкур лойиҳага 104,4 миллион долларлик инвестиция жалб этилди. Иқтисодий салоҳияти янада юксалган корхонада рангли металлургия, шиша, қоғоз ва целлюлоза, ювиш воситалари ҳамда енгил саноатда кенг қўлланиладиган кальцийлаштирилган сода ишлаб чиқариш ҳажми икки баробар ошди.

Қўнғирот сода заводини кадрлар билан таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 13-апрелдаги «Қўнғирот сода заводи учун кадрларни мақсадли тайёрлашни ташкиллаштириш тўғрисида»ги Қарорига асосан, корхона базасида Тошкент кимё технологияси институтининг сиртқи бўлими очилди. Фақат 2006-2010 йиллар мобайнида 220 ёш мутахассислар тайёргарликдан ўтти, 2010 йилнинг ўзида заводда ишлаган 1250 дан ортиқ ишчининг қарийб кўпчилиги 30 ёшгача бўлган ишчилардан иборат бўлди [3].

Мустақиллик йилларида кенг кўламли ислоҳотлар натижасида нефть-газ саноатида муҳим ўзгаришлар рўй берди. Бунга мисол тариқасида Сурғил кони асосида Устюрт газ-кимё комплекснинг ишга тушиши катта йутуқ саналади.

Сурғил газ кони илк бор 1998 йилда фойдаланишга топширилган, унинг разведкаси ва бурғилаш ишлари «Ўзбекнефтгаз» АЖ томонидан амалга оширилди. 2006 йилда «Ўзбекнефтгаз» АЖ ва «Korea Gas Corporation» Корея Газ Корпорацияси ўртасида Сурғил конини комплекс ривожлантириш бўйича меморандум имзоланди.

2013 йилда «Uz-Kor Gas Chemical» ўзбек-корейс қўшма корхонаси қурилишининг фаол фазаси бошланди. Комплекс муддатидан аввал, 3 йилу 3 ойда қуриб битказилди. 2013 йилда «Uz-Kor-Gaz Chemical» МЧЖ ҚК бошқарувга киришгач, Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори доирасида Сурғил кони негизида конни ободонлаштириш билан бирга

Устюрт ГКК қурилиши бўйича тендер эълон қилинди. Тендер савдолари доирасида қудуқларни қуриш ва капитал таъмирлаш бўйича иккита шартнома имзоланди. Бурғилаш пайтида 2013 йилдан 2015 йилгача бўлган даврда 35 та қудуқ ўзлаштирилди. 2016 йилдан ҳозирги пайтгача яна 50 та қудуқ ўзлаштирилди. Битта қудуқнинг узунлиги 2950 метрни ташкил этади. Шу кунгача ишлар тўхтовсиз, туну кун давом эттирилмоқда.

Газ қудуқларидан олинаётган барча маҳсулот 2015 йилнинг сентябридан «Uz-Kor-Gaz Chemical» МЧЖ ҚК ва «Ўзбекнефтгаз» АЖ томонидан барпо этилган "Устюрт ГКК" комплексига келиб тушмоқда.

Ушбу комплекс 5 заводдан ташкил топган: газ тақсимлаш заводи; этилен ишлаб чиқариш бўйича завод; полиэтилен ишлаб чиқариш бўйича завод; полипропилен ишлаб чиқариш бўйича завод; энергоресурслар билан таъминлаш бўйича завод.

Асосий ускуналар Германия, Франция, Япония, АҚШ, Швеция, Нидерландия ва Кореянинг етакчи ишлаб чиқарувчилари томонидан яратилган.

Корхонанинг йиллик ишлаб чиқариш қуввати қуйидагича:

- "Сурғил" конидан йилига 3,0 млрд. кубометр табиий газ қазиб олинади ва транспортировка қилинади;
- "Сурғил" конидан йилига 115 минг тоннадан ортиқ газ конденсатини қазиб олиш, дастлабки тайёрлаш ва транспортда ташиш;
— Устюрт газ-кимё комплексида чуқур ишлов бериш ва қимматли компонентларини ажратиб олиш.

Комплекснинг умумий йиллик қуввати қуйидагича:

- 387 минг тонна полиэтилен;
- 83 минг тонна полипропилен;
- 102 минг тонна пиролиз дистилляти
- 8 минг тонна пиролиз мойи (у кейинги ишлов бериш ва маҳсулот олиш учун Бухоро нефтни қайта ишлаш заводига жўнатилади).

Ҳозирги пайтда ишлаб чиқарилаётган полимер маҳсулот экспортга, Марказий ва Шарқий Осиё, МДҲ ва Европа давлатларига жўнатилмоқда. Шунингдек, ички бозор орқали ЎзРТХБ нинг савдо майдончаси орқали сотилмоқда.

Ижтимоий-иқтисодий фойда ҳақида сўз кетганда, айтиш зарурки, 1480 дан ортиқ иш жойлари ташкил қилинди, айни пайтда тегишли ёрдамчи хизматларда билвосита бандлик яратилди.

Хусусан, қуйидагилар бўйича мавжуд инфратузилма яхшиланди:

- ичимлик суви тизими;
- ишончли энергия таъминоти;
- транспорт инфратузилмаси (йўллар, т/й);
- ижтимоий инфратузилманинг барпо этилиши (мактаблар, касалхоналар, боғчалар ва ҳ.з.)

Комплекс ходимлари яшаши учун қулай шарт-шароитларни яратиш мақсадида, янги турар жой посёлкаси бунёд этилди. Ҳозирги пайтда 140 та коттеж, 144 кишилик 3 та ётоқхона, бозор қурилди. Болалар боғчаси, мактаб, поликлиника қуриш ва посёлка инфратузилмасини янада ривожлантириш кўзда тутилган [4].

Узоқ йиллар давомида муваффақиятли фаолият юритгани, малакали ходимлари ва инфратузилмаси мавжудлиги туфайли 2012 йилда лойиҳа «Project Finance International» халқаро нашри томонидан нефть-кимё ва газ-кимё секторидаги энг яхши лойиҳавий-молиявий битим деб тан олинди. Trade Finance Magazine ва Global Trade Review нашрлари томонидан "2012 йилнинг энг яхши битими" деб тан олинган. 2014 йилда ушбу лойиҳага Infrastucture Journal халқаро нашри томонидан "2014 йилнинг глобал битими" мукофоти берилган [1].

Хулоса. Хулоса қилиб олганда, мустақиллик йилларида Қорақалпоғистон Республикасининг иқтисодиёти 3,4 фоизга ўсди, аҳоли жон бошига тўғри келадиган реал даромади кўпайди. Чет эл инвестициялари ўзлаштирилди, нефть-газ саноати, нефть-газ

машина қурилиши, замонавий қурилиш материаллари, темир йўл қурилиши, электроника ва йўқори технологиялар ривожи саноат соҳаси учун асос яратди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Джумашев А., Нуржанов С., Уразова Л., Таджиева Р. Қарақалпақстан тарийхы (1991-2015-жыллар), Нөкис, «Илим», 2018, 109-бет
2. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы, Нөкис, 2003, 443-бет.
3. Камалов С. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм оның мәмлекетлигиниң тарийхынан. Н.2001.
4. Жалилов О. XIX- XX аср бошларидаги қорақалпоқ тарихига оид муҳим ҳужжатлар. Т. Фан. 1986.
5. Төреев А. XIX әсирдиң ақыры XX әсирдиң басында қарақалпақ үлкесинде дийханлар ҳәрекети. Н. 1991.

УДК: 94(575.1)

МОДЕРНИЗАЦИЯ ПО-ИМПЕРСКИ: ХЛОПОК И КРЕДИТ В ТУРКЕСТАНСКОМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВЕ

Б.А. Алимджанов, к.и.н., с.н.с. Национального центра археологии АН РУз, Ташкент

Аннотация. *В статье анализируется модернизация Туркестана в контексте развития хлопководства. Автор раскрывает роль ирригации, кредита на развитие хлопководства в регионе. Статья написана на основе материалов Российского государственного исторического архива (РГИА).*

Ключевые слова*: хлопок, Туркестан, ирригация, кредит, модернизация*

Annotatsiya. Maqolada paxtachilikning rivojlanishi kontekstida Turkistonning modernizatsiyasi tahlil qilinadi. Muallif sug'orish, mintaqada paxtachilikni rivojlantirish uchun kreditning rolini ochib beradi. Maqola Rossiya davlat tarixiy arxivi (RGIA) materiallari asosida yozilgan.

Kalit so'zlar*: paxta, Turkiston, sug'orish, kredit, modernizatsiya.*

Abstract. *The article analyzes the modernization of Turkestan in the context of the development of cotton production. The author reveals the role of irrigation, a loan for the development of cotton production in the region. The article is based on the materials of the Russian State Historical Archive (RSHA).*

Key words*: cotton, Turkestan, irrigation, credit, modernization.*

Введение. С 70-х гг. XIX века Российская империя начали политику развития хлопководства в Туркестанском генерал-губернаторстве. Хлопок ассоциировался со своеобразной модернизацией экономики Туркестана, который должен был превратить Центральную Азию в цветущий край. Локомотивом сельского хозяйства должно было стать хлопок. В Туркестанский край ринулись разного рода агрономы, эксперты и предприниматели, которые старались нажиться в хлопковом буме. Хлопок требовал также инвестиции. Начиная с 90-х гг. XIX столетия в Туркестанском крае начали открываться первые коммерческие банки, которые начали финансировать купцов-скупщиков хлопка, крупных предпринимателей, а также владельцев первых хлопкоочистительных заводов. С 1907 года открываются учреждения мелкого кредита, которые старались напрямую финансировать крестьян-хлопкоробов.

Историография вопроса. В историографии вопрос развития хлопководства и ирригации раскрыт довольно широко. О хлопке в Туркестане начали писать еще в имперское время. В советское время о состоянии хлопководства писали А.М. Аминов [Аминов, 1959], о роли банков в развитии хлопководства исследовали З.Д. Кастельская [Кастельская, 1980], М.И. Вексельман [Вексельман, 1987], М.Ю. Юлдашев [Юлдашев, 1970], Н.Б. Хотамов [Хотамов, 1990]. Дискуссию в прессе о хлопке показал в своей статье Д.В. Кирильчик [Кирильчик, 2023]. В годы независимости подробно писали о хлопковых фирмах Н.Ю. Потапова [Потапова, 2011], Б.А. Алимджанов [Алимджанов, 2024]. Из западных исследователей по глобальному развитию хлопководства обстоятельно писал С. Беккерт [Беккерт, 2014], Ю. Обертрайс [Obertreis, 2017], Б. Пенати [Penati, 2010].

Ирригация и хлопководство. Увеличение урожая хлопка в Туркестане требовала развитие ирригации в крае. Один из экспертов в комиссии сенатора К. Палена экономист Г.Н. Логанов предлагал свое видение развитие ирригации. Г.Н. Логанов предлагал привлекать частный капитал на развитие ирригации. По планам правительства намечались следующие ирригационные работы: в Самаркандской области – юго-восточная часть Голодной степи (до 50 тыс. дес.), северная и западная часть Голодной степи (300 тыс. дес.) и район Дальверзин-Арык, на правом берегу Сырдарьи (40 тыс. дес.); в Сырдарьинской области – долина реки Келеса в Ташкентском уезде (22 тыс. дес.), низовья реки Арыси в Чимкентском уезде (18,8 тыс. дес.), район реки Чиркина (20 тыс. дес.); в Ферганской области – урочище Бус в районе Улугнар-арыка (16,25 тыс. дес.), в том же районе еще 83,75 тыс. дес., в Кугартской долине 2,7 тыс. дес., в Учкурганской степи 15 тыс. дес., в побережье реки Сырдарьи в Кокандском уезде 50 тыс. дес., в низовье Шарихансая 10 тыс. дес., в юго-западной части Наманганского уезда 40 тыс. дес. и в северо-западной части Ошского уезда 15 тыс. дес. Расход на орошение, в среднем, не может быть определен ниже 75 руб. на десятину [РГИА. Ф. 1396. Оп. 1. Д. 29. Л. 46-46 об.]. К 1910 году площадь орошенных земель в Туркестанском крае достигало 3 млн. десятин земли.

Таблица 1. По отдельным областям эти пространства распределяются так (в дес.):

Земель:	Самаркандской области	Сырдарьинской	Ферганской	Всего
Ирригационных	557.549	984.949	678.767	2.2221.265
Богарных	648.669	243.102	173.732	1.065.503
Необрабатываемых	821.967	84.500	373.699	1.280.166
Всего	2.028.185	1.312.551	1.226.198	4.566.934

Показанные здесь ирригационные площади, главным образом, заняты: пшеницей – 729.394 дес., ячменем – 149.330 дес., хлопком – 257.466 дес., джугарой – 73.347 дес. и другими посевами 233.341 дес. Кроме этого в различных областях занято садами – 17.575 дес. и виноградниками – 23.039 дес., а также огородами и бахчами – 50.244 дес.

Таблица 2. Посевная площадь в областях Ферганской, Сырдарьинской и Самаркандской областях колеблется следующим образом (в дес.):

Посевы:	Самаркандской	Сырдарьинской	Ферганской	Всего
пшеницы	309.349	278.009	142.036	729.394
ячменя	104.845	33.895	10.590	149.330
хлопка	25.224	24.189	208.055	257.466
люцерны	25.326	364.255	64.117	451.698
риса	32.577	76.256	70.381	179.214
масличных	17.153	28.303	8.121	53.577
джугары	7.025	11.138	58.184	76.347
остальные	11.264	136.444	85.633	233.341
Под садами		10.659	6.916	17.575
виноградники	14.918	1.801	6.320	23.039
Огороды и бахчи	9.8383	20.000	20.406	50.244

Из таблицы видно, что всюду преобладают зерновые посевы, следующие места занимают люцерна и третье отведено хлопку; далее следует рис, и последнее место занимают масличные. В процентном соотношении различные посевы и культуры к общей ирригационной площади колеблются так: в Сырдарьинской области пшеница в различных уездах занимает площадь от 23 до 46 %, хлопок от 1 до 27%, сады до 4%, виноградник составляет 1%, а люцерна и сенокосы – от 14 до 52% всей ирригационной площади. В Самаркандской области пшеница и ячмень составляют от 62 до 92% (Джизакский уезд), хлопок от 1 до 14%, рис от 1 до 15%, виноградники до 15% и люцерна от 2 до 6%. Наконец в Ферганской области пшеница колеблется от 7 до 42% (Ошский уезд), хлопок от 9 до 37%, рис

от 2 до 25%, люцерна от 7 до 11%, сады от 1 до 3 %, виноградники от 1 до 2 %, джугара от 3 до 21 %, а остальная площадь под разными другими мелкими посевами [РГИА. Ф. 404. Оп. 1. Д. 10. Л. 1–2]. С 1911 года состоялась переписка между администрацией Туркестана с министерствами в Санкт-Петербурге по поводу разрешения частным предпринимателям вкладывать деньги на развитие ирригации. Предполагалась дать инвесторам в сферу ирригации льготы. В числе таких льгот были намечены: 1) безвозмездный отвод в пользование предприятия на срок 99 лет, пространства свободной казенной земли, необходимого для оросительной сети и всех связанных с ней сооружений; 2) безвозмездная передача в собственность предпринимателя не свыше половины общей площади орошенных им казенных земель и 3) освобождение вновь орошенных пространств, в течение первых пяти лет по их орошении, от государственных и земских сборов, со взиманием этих сборов в последующее пятилетие в половинном размере [РГИА. Ф. 23. Оп. 9. Д. 143. Л. 107 – 116]. Наибольшее внимание правительства привлекло подробно разработанное и определительное предложение по орошению около 250 тыс. дес. земли в Ферганской области, предоставленное инженером-технологом А.И. Кузнецовым (московская группа) от имени группы представителей Московской хлопчатобумажной промышленности. И по размерам предприятия и по предложенным условиям его осуществления – исключительно на частные средства предпринимателя, без какого-либо денежного участия казны или правительственной гарантии. Было решено дать этим предпринимателям земли в Ферганской долине. Администрация Туркестана постоянно проводила кадастровые работы земель, чтобы увеличить налоги и доходность с земель. К 1912 году в Самаркандской области насчитывался 1.006.466 жителей, или 140.950 отдельных дворов, при этом на каждый двор приходилось ирригационной земли от 2,75 до 6,47 дес. В Сырдарьинской области насчитывался 1.433.402 жителя, или 238.928 дворов, при чем на каждый двор приходился ирригационной земли в уездах кочевых от 0,71 до 1,45 дес., и в уездах оседлых от 4,71 до 6,41 дес. В Ферганской области на число жителей 1.559.564 приходился 269.251 двор оседлого населения, каждый располагал от 2 до 3,35 дес. ирригационной земли [РГИА. Ф. 404. Оп. 1. Д. 10. Л. 3–3 об.]. Во время первой мировой войны были тщательно исследовано запас земли, где можно было провести каналы для увеличения урожая хлопка. Инженер А.Н. Ковалевский провел исследования и предоставил специальный отчет, по результатом которого можно было начать ирригационные работы: 1) из р. Нарына, в уездах Андижанском, Скобелевском и Кокандском в Ферганской области – 250 тыс. дес., 2) в Голодной Степи, из рек Сырдарьи и Зеравшана – 450 тыс. дес., 3) из реки Амударьи в Хивинских владениях – 500 тыс. дес., 4) в низовьях и верховьях рек Сурхана, Кафирнигана и Вахша – 140 тыс. дес. 5) Отдельные участки вдоль рек Амударьи и Сырдарьи – 300 тыс. дес. Всего 1,64 млн. дес. Только 20% этих земель даст то количество хлопка, которое в настоящее время еще привозится из-за границы, считал инженер А.Н. Ковалевский. Для развития хлопководства также предполагалась развивать внутренние железные дороги. Планировалась построить свыше 20 подъездных железнодорожные ветвей к Среднеазиатской, Ташкентской и Ферганской железных дорог, из которых в первую очередь настоящим проектом намечается следующие 5 ширококолейных подъездных ветвей (в этих районах проживало 740 тыс. чел.): 1) Ташкент-Пскент – 43 версты, 2) Черняево-Ура-Тюбе – 34 версты, 3) Горчаково-Дурманча-Чек – 37 верст, 4) Самарканд-Митан – 57 верст, 5) Душак-Чаача – 76 верст. Стоимость сооружения проектируемых пяти ветвей исчисляется в сумме 23,1 млн. руб., что составляет на версту 97.200 руб. [РГИА. Ф. 350. Оп. 96. Д. 400. Л. 2 – 4; 8; 22 об. – 23].

Кредиты на развитие хлопководства. Развитие хлопководства требовала инвестиций. Первые кредиты выдавало Кокандское отделение Госбанка. В период 1895-1897 гг. Кокандским отделением Госбанка производилось выдача мелким хлопководам ссуд на оборотные средства под соло векселя с обеспечением залоговыми свидетельствами, выдаваемые народными судьями на основании местного обычного права (шариата). Однако в 1898 г. Госбанк, принимая во внимание затяжной характер этого рода ссуд и ненадежность обеспечения предложил Кокандскому отделению, дальнейшую выдачу сих ссуд прекратить. Мелкий кредит появился в Туркестане в 1907 году. К 1913 г. В Самаркандской области было

89 кредитных и 8 ссудо-сберегательных учреждения, в Сырдарьинской – 7 кредитных и 123 ссудо-сберегательных, в Ферганской - 120 кредитных и 12 ссудо-сберегательных. Учреждений мелкого кредита (к 1913 г.): в Закаспийской области – 50, Самаркандской – 97, Сырдарьинской 130 и Ферганской 132 [РГИА. Ф. 404. Оп. 1. Д. 10. Л. 16 – 18]. К 1910-м годам выдача мелких кредитов крестьянам-хлопкоробам шла довольно успешно. Ссуды из касс выдавались на срок до одного года из 6% годовых, в размере от 5 до 50 руб. Для получения ссуды до 30 руб. крестьянин должен привести с собою двух поручителей, для получения же ссуды свыше этой суммы требовались три поручителя. Невзирая на сложность получения мелкого кредита, операции в этой отрасли показывали рост. По отчетам операций мелкого кредита к 01.01.1910 г., выразились в следующих цифрах: оборотный капитал кассы в Самаркандской области составлял 369.046 руб., Сырдарьинской области – 274.750 руб. и Ферганской области – 360.295 руб. [РГИА. Ф. 404. Оп. 1. Д. 10. Л. 4–5]. Нужно особо отметить, что кредитные общества брали средства у Госбанка деньги по 5% годовых, давали же населению по 12% годовых. В то же время не отставали от кредитных обществ частные фирмы. Частными фирмами населению выдавалась около 50 млн. руб. в год. Несмотря на все старания правительства, не хватало денежных средств, чтобы развивать мелкий кредит для развития хлопководства в Туркестанском крае.

Заключение. Несмотря на все трудности развития хлопководства в Туркестанском генерал-губернаторстве были достигнуты определенные успехи в данной отрасли. «За 2,5 года войны, отмечали эксперты, Туркестан дал России 45 млн. пудов хлопка на сумму 1 млрд. 200 млн. руб. Это значит, что Россия сберегла от утечки свыше миллиарда рублей народных денег в Америку» [РГИА. Ф. 398. Оп. 74. Д. 30677. Л. 152 – 152 об.]. Эксперты отмечали, что в 1916 году в виду недостатка зерна в Туркестане посевы хлопка значительно уменьшились за счет усиленных посевов пшеницы. Главным препятствием для развития хлопководства считалась дороговизна зерновых продуктов и недостаток завоза промышленный и готовой продукции в Туркестанский край. Нужно было удешевить зерновую продукцию, чтобы местные крестьяне-хлопкоробы были заинтересованы засеивать свои поля хлопком. Для удешевления импорта зерна требовалась строительство железных дорог, которые требовало огромных затрат из бюджета империи. Также хлопкоробы были заинтересованы в дешевом кредите. Предполагалась создать Земельный банк, который решил бы проблемы с мелким кредитом. Развитие хлопка, кредитных организаций, железных дорог и ирригации предполагали также модернизацию всех сфер Туркестана. Эта модернизация была по существу экономическая, которая не должна была затронуть духовную жизнь местных жителей края. Это была осторожная модернизация, которая предполагала экономическую интеграцию Туркестанского генерал-губернаторства в имперское пространство.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Алимджанов Б.А. «Мы – туркестанские Ротшильды»: еврейские фирмы и торговые дома в Туркестанском генерал- губернаторстве // Quaestio Rossica. 2024. Т. 12. № 1. С. 129–145.

2. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (Колониальный период). Т., 1959.

3. Беккерт С. Империя хлопка. Всемирная история. М.: Институт Гайдара, 2014.

4. Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX – начало XX в.). Т., 1987.

5. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865-1917). М., 1980.

6. Кирильчик Д.В. «Хлопковая» дискуссия о проблемах частного капитала в Средней Азии (по материалам центральной периодической печати 1880–1890-х гг.) // Новое прошлое. 2023. № 4. С. 206–222.

7. Потапова Н.Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX в.). Т., 2011.

8. Юлдашев А.М. Аграрные отношения в Туркестане (конец XIX – начало XX в.в.). Т., 1970.

9. Хотамов Н.Б. Роль банковского капитала в социально-экономическом развитии Средней Азии (начало 90-х гг. XIX в. – 1917 г.). Душанбе, 1990.

10. Obertreis J. Imperial Desert Dreams: Cotton Growing and Irrigation in Central Asia, 1860–1991. V&R Unipress, 2017.

УЎК 330.2

ШАХС АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИ КАМОЛОТИДА ИСЛОМ ҚАДРИЯТЛАРИ ВА МАЪРИФАТИ МУҲИМ ОМИЛ СИФАТИДА

А.Х. Аманлаев, ф.ф.н., доц., Жиззах давлат педагогика университети, Жиззах

Аннотация. *Ушбу мақолада шахс ахлоқий тарбияси камолатида ислом қадриятлари ва маърифатининг тутган ўрни таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *Ислом дини, қуръон,ҳадис,ислом қадриятлари,ислом маърифати,имон,ибрат,ахлоқ,эътиқод,ҳиқмат ва бошқалар.*

Аннотация. *В этой статье анализируется роль исламских ценностей и просвещения в совершенствовании нравственного воспитания личности.*

Ключевые слова*: исламская религия, Коран, хадис, исламские ценности, исламское просвещение, вера, пример, нравственность, убеждение, мудрость и другие.*

Abstract. *This article analyzes the role of Islamic values and education in improving the moral education of the individual.*

Key words: *Islamic religion, Quran, Hadith, Islamic values, Islamic enlightenment, faith, example, morality, conviction, wisdom, and others.*

Ислом дини инсон камолотининг маънавий-руҳий заминига катта аҳамият беради. Бу нарса жамият ҳаётида, ижтимоий ва оилавий муносабатларда, фарзанд тарбиясида ўз ифодасини топган. Шу ўринда Президент Ш.Мирзиёев фикрларини келтириб ўтиш ўринли "ёшларимизга замонавий таълим-тарбия билан биргаликда, қон-қонимизга сингган муқаддас динимизнинг моҳиятини тўғри тушунтириб беришимиз, уларни эзгу ғоялар руҳида тарбиялаш ҳақида жиддий ўйлашимиз лозим. Афсуски, бу масалага ўз вақтида жиддий эътибор бермаганимиз туфайли ёшлар ўртасида радикал оқимлар таъсирига тушиш ҳолатлари учраб турибди" [1].

Дарҳақиқат Қуръони Каримда яхшилик ва покизаликнинг нақадар буюк неъмат эканлиги, бировга озор бермаслик, тил билан дилни доимо бир тутиш, ночорларга закот бериш ва кўнглини кўтариш чин инсоний фазилат эканлиги хусусида жуда кўп эслатмалар мавжуд.

Бу жиҳатдан ислом дини – буюк қадрият, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган беназир ибрат ҳақидаги хазинадир. Шунинг учун ҳам Европа олимлари Қуръонни дунё маданиятининг энг нодир асари деб таърифлаганлар[2].

Ислом динида ҳар бир кишининг иззати, ҳурмати, демак ибратли бўлиши унинг илмига, ақлу фаросатига боғлиқ эканлиги таъкидланади. Бу хусусда Муҳаммад пайғамбар ўз ҳадисларида шундай фикр билдиради: "Ҳар бир мусулмонга талаба илм қилиш фарздир... Бир соат илм ўрганиш кечаси билан намоз ўқиб чиққандан афзалдир. Бир кун илм ўрганиш уч ой рўза тутгандан яхшироқдир" [3].

Зеро, Қуръони Каримда кишиларни илмли ва билимли бўлишга даъват этувчи жуда кўп ғоялар мавжуд. Пайғамбаримиз Муҳаммад (САВ) га нозил бўлган муқаддас Қуръони Каримнинг энг биринчи ояти «ўқи» деган сўз билан бошланади. Қуръон сураларида бежиз «Биз ерни-Коинотни ибрат учун, ўрганиш учун яратдик» дейилмаган. Чунки Ер у Коинотдаги ажиб уйғунлик, яратилган мукаммалликдан инсонлар ибрат олмоқлари лозим. Ибрат олишнинг асосида эса бу сиру синоатнинг моҳиятини тушуниш, англашга саъй-ҳаракат туради.

Бинобарин, яхши инсон бўлиш учун инсон ўз руҳини, қалбини поклантириши, ақлий-маънавий юксак бўлиши зарур. Ана шундай одамларгина бошқаларга ибратдир. Яхши одам бўлиш учун эса биринчи навбатда илмли, билимли инсон бўлмоқ жоиз. Ҳадиси шарифларда илм ва олимлик хусиятлари ҳақида ибратли мисол ва ўгитлар жуда кўп: "Охиратда набийлар, олимлар ва шаҳидлар шафоат қилиш ҳуқуқига эга бўладилар", "Олимларга эргашингиз. Зеро, улар дунёнинг машъаллари ва охиратнинг чироқларидир..." "Олим бўл (илм берувчи бўл) ёки илм ўрганувчи бўл ёки тингловчи бўл, ёки илмга ва илм аҳлига муҳаббатли бўл. Бешинчиси

бўлма, ҳалок бўласан”[4]. Илм инсонни ана шундай юксак маънавият шохсупасига кўтарадики, натижада илм ва илмли шахслар ибрат манбаига, тимсолига айланадилар.

Шу ўринда бир нарсани таъкидлаш лозимки, ислом динида “илм” ҳақидаги тушунча кенг маънога эга. Унда илм ҳақида гап борар экан, илм ибрат тимсоли сифатида таърифланар экан, фақат диний қарашлар, диний билим назарда тутилаётгани йўқ. Бунда илм кенг маънода инсоннинг бутун маънавияти, ҳаётга, яшашга муносабат даражасини белгиловчи омил сифатида қаралмоқда.

Исломда ибрат тушунчаси наинки илм, хулқу одоб, шунингдек, иймон билан ҳам чамбарчас боғлиқ ҳолда талқин қилинади. Иймонсиз одам на ибрат олади, на ибратли бўлади. Иймонли одамнинг қалби, фикри ва нияти тоза бўлади. Иймон ибратга йўл кўрсатади, бу йўлни ёритади ва мақсад мазмунини чуқурлаштиради. Жалолиддин Румий иймонни ҳатто намоздан устун қўяди. У ёзадики, “Иймон намоздан устундир. Чунки намоз кунда беш маҳал, иймон эса ҳамма вақт фарздир. Намоз узрли сабаб билан қолдирилиб, фурсат бўлиши билан адо этилиши мумкин. Иймон учун ҳеч қандай узрли сабаб билан бузилиб, кейинроқ бажариш рухсати йўқ. Намозсиз иймоннинг фойдаси бўлади. Бироқ иймонсиз намознинг фойдаси йўқ”[5]. Демак, ислом динида ибрат масаласи инсон ақли, билими ва иймон-эътиқоди, ахлоқи, одоби билан ўлчанувчи мураккаб маънавий жараён сифатида талқин қилинади.

Ислом илми ва қадриятларини юксакларга кўтарган алломаларимиз ибрат йўлининг инсон фазилатларини камолга етказишдаги ўрни ва таъсири катта. Бу хусусда тўхталар экан, И.Каримов: «Халқимизнинг маънавиятини шакллантиришга, ҳар қайси инсоннинг Оллоҳ марҳамат қилган бу ҳаётда тўғри йўл танлаши, умрнинг мазмунини англаши, аввалambор, руҳий покланиш, яхшилик ва эзгуликка интилиб яшашида унинг таъсирини бошқа ҳеч қандай куч билан қиёслаб бўлмайди»[6]деб таъкидлаган эди.

Гарчи мусулмонлар юнон, эрон, ҳинд маданиятлари дурдоналаридан фойдаланган бўлсалар-да, лекин ислом маданияти тушунчаси Қуръони Карим ва ҳадиси шариф билан ҳамиша чамбарчас боғлиқ бўлганлигининг ўзи фикримизга далилдир. Улуғ муҳаддислар ҳадис илмини Пайғамбаримиз Муҳаммад САВнинг ибратли ҳаётини ўрганишдан бошлаганлигида ҳам катта маъно бор.

Шу ўринда Муҳаммад ибн Исмоил Бухорийнинг «Ал-жомиъ ас-саҳиҳ» (ишончли ҳадислар) тўплами «Ал-Адаб ал-муфрад» тўпламларига киритилган ҳадислар айнан ибрат масаласидаги ислом илми манбаи эканлигини таъкидлаш зарур.

«Ал-Адаб ал-муфрад» (Адаб дурдоналари») имом Бухорийнинг ахлоқ ва одоб масалаларига доир ҳадисларни ўзида жо қилган энг нодир асарларидан ҳисобланади. У икки юз олтмиш етти бобдан иборат анчайин салмоқли асардир[7].

Тўпламга киритилган ҳадисларнинг мазмунини жиддий ўйлаб кўрадиган бўлсак, улар энг олий қадриятларни касб этишга чақирилган даъват эканлигига амин бўламиз.

Ана шу қадриятлар замирида инсон ахлоқий фазилатлари такомилига хизмат қилувчи ибрат манбаи мужассамдир.

Бинобарин, ҳадислар тижорат аҳлини халол бўлишга чақиради, чунки Пайғамбаримиз ҳалол савдо қилувчилар Қиёмат куни энг мўътмин одамлар сирасига киришини уқтиради.

Ҳадислар ҳунармандларни, айниқса, улар олдиндан муайян маблағни олиб қўйган бўлса, ўз ишларини сидқидилдан бажаришига даъват этади, чунки «Аллоҳ Қиёмат куни олдиндан маблағ олиб қўйган одамдан ўз ишини бажардими ёки йўқми, албатта сўрайди».

Ҳадислар ота-она, ака-укалар ва ака-сингилларни оиладаги ўз бурчларини жамиятдаги каби мукаммал адо этишга чақиради, чунки «жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўз зиммасидаги мажбуриятлар учун масъулдир».

Ҳадислар одамларни ростгўй бўлишга чақиради, илоҳиёт ҳақиқати шундан иборатки, «доимо ростгўй бўлган одамгина Аллоҳ таоло томонидан мўътминлар қаторига киритилади». Ҳадислар одамларни меҳрибонликка чақиради: «Ер юзидагиларга меҳр-шафқат кўрсатинг, самовий ва арозий оламлар Парвардигори ҳам сизларга шафқат қилади [8].

Ҳадисларда мол-дунёга ҳирс қўйишнинг инсон учун омад эмас, офат келтирувчи иллат эканлиги ҳақидаги ибратли мисоллар ҳам шахс ахлоқий фазилатларининг камол топишига

хизмат қилади. Ҳадисларда қайд этилишича, «банданинг молу дунёга қўйган ҳирси икки оч бўрининг қўй подасига қилган тажовузидан кўра зараралироқдир. Зеро, бу билан у ўз дини-имонига путур етказади»[9].

Ислом илми ва маънавиятимизнинг машҳур намояндалари асарларида ҳам ибрат масаласига алоҳида эътибор берилган. Уларда инсоннинг қадр-қиммати инсон қалбининг поклиги, ундаги имон ва қилган ибратли ишлари билан ўлчаниши алоҳида қайд этилиб, эзгу амаллардан ибрат олишга даъват қилинган.

Айниқса, инсон ҳаёти давомида ўз ўтмишдошлари, аждодларидан ибрат олиши лозимлиги ҳақида Аҳмад Яссавий шундай ёзади:

Ўтканлардин ибрат олиб йўлға кирмай,
Навҳа фарёд айтиб анда ўртаб-ёнмай.
Кеча-кундуз юрмишмен ўзни билмай,
Сўрар бўлса, мен қул анда не қилғаймен [10].

Аҳмад Яссавий ҳикматларидаги илоҳий силсила энг аввало инсоннинг бу фоний ҳаётда яшаши давомида билиб-билмай гуноҳ қилиши, гуноҳлардан фориғ бўлмоқ учун дилдан тавба қилиши ҳамда эзгу, хайрли ишларни қилиб, ўз умрининг ўткинчилигини ҳис этган ҳолда ўтмишидан ибрат олиб яшаши зарурлиги масаласига катта ўрин берилган. Бу заруриятни у қуйидагича ифодалайди:

Гуноҳингга тавба қилиб йиғлаб юрғил,
Кетаман деб йўл бошиға бориб турғил,
Кетганларни кўруб сен ҳам ибрат олғил,
Ибрат олсанг, ётмиш еринг бўлур гулзор [11].

Инсон ҳаёти давомида яхши хулқли ва фазилатли инсонлардан, инсон руҳиятини зийнатлайдиган воқеликдан, табиатдаги уйғунликдан, аждодлар меросидаги маънавиятдан ибрат олиш орқали покдомонлик ва комиллик зинасига кўтарилади ҳамда ғазаб, нафрат, кибр-ҳаво, ҳасад, баднафслик кабилардан фориғ бўлиб боради.

Ислом илоҳиёти ва маърифатида ибратга муносабат кўпроқ шахснинг ахлоқий дунёқараши ҳамда дину диёнат, адолат, халқпарварлик, инсонпарварлик ғояларида алоҳида кўзга ташланади.

Ислом дини манбаларини тадқиқ ва таҳлил қилиш шундан далолат берадики, Қуръони Карим, ҳадиси шариф, буюк муҳаддисларнинг бизга қолдирган манбалари, маърифат аҳлининг ўгитлари шахс ахлоқий фазилатларини камол топтиришдаги бебаҳо асос, маънавий хазинадир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёв. Ш.М.Инсонпарварлик,эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир.-Тошкент .“Тасвир”нашриёт уйи 2021.-б.27

2. Хўжаева А., Қобилжонова Г., Қўзибоева М., Охунова М. Ислом ва инсон камолоти. Истиқлол йиллари: Миллий-диний қадриятларнинг халққа қайтиши (Андижон). – Тошкент, 2001. – Б. 62-63.

3. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 93.

4. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 61.

5. Мавлоно Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадур. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 34-35.

6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 36-37.

7. Бобоев Х., Гофуров З. Миллий истиқлол мафкураси ва тараққиёт. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – Б. 45.

8. Саттиев И.М. Имом Ал-Бухорийнинг «Ал-Жомиъ Ас-Саҳиҳ»и-мусулмонлар ҳаётининг йўлчи юлдузи. Замонамиз уламолари. – Тошкент, 2001. – Б. 52-53.

9. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент, 1990. – Б. 198.

10. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент, 1993. – Б. 5.

11. Аҳмад Яссавий. Девони хикмат. – Тошкент, 1977. – Б. 60.

УЎК 63.3

XIV-XV АСРЛАР МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ҲАЁТИНИ ЎРГАНИШДАГИ МАНБАЛАРНИ А.ЎРИНБОЕВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА АКС ЭТИШИ

И.М.Бурхонов, ўқитувчи, Марказий Осиё тиббиёт университети, Фарғона

Аннотация. *XIV-XV асрлар Амир Темур ва темурийлар давлати тарихига оид бўлиб, бу давр манбалари асосан араб тилида яратилган. Уларни илмий муомалага киритишда А.Ўринбоевнинг хизматлари ва тадқиқотлари қисқача ёритилди.*

Калит сўзлар: *Тарих, манба, мамлакат, сиёсат, ижтимоий, иқтисодий, маданий ҳаёт.*

Аннотация. *XIV-XV века относятся к истории Амира Темура и государства Тимуридов, причем источники этого периода написаны преимущественно на арабском языке. Кратко освещались заслуги и исследования А. Уринбоева при их введении в научный оборот.*

Ключевые слова: *История, источник, страна, политика, социальная, экономическая, культурная жизнь.*

Abstract. *The 14th-15th centuries refer to the history of Amir Temur and the Timurid state, and the sources of this period are written mainly in Arabic. The merits and research of A. Urinboev were briefly highlighted when they were introduced into scientific circulation.*

Key words: *History, source, country, politics, social, economic, cultural life.*

Кириш. Ҳар бир суверен давлат ўзининг бетакрор тарихи ва маданиятига эгадир. Бу тарих, бу маданиятнинг ҳақиқий ижодкори, яратувчиси эса ҳақли равишда шу мамлакат халқи ҳисобланади-деб таъкидлаган мамлакатимиз президенти Ш.М.Мирзиёев [1.1.]. Давлатимиз том маънода мустақил бўлганидан кейин халқимиз ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаётида тубдан ўзгаришлар бўлди.

Ўзбек халқининг неча минг йиллик тарихида қандай мураккаб даврлар, оғир синовлар бўлганини барчамиз яхши биламиз. Ўзбек давлатчилик тарихи дунё тарихчи олимлари томонидан катта қизиқиш билан ўрганилаётган бир вақтда совет тарихчилари томонидан юртимиз тарихи салбий бўрттирилган ҳолда талқин этилган.

Совет мафкураси сабаб, Ўзбекистон тарихини холис ёритишга бўлган тўсиқлар авж олган, ҳақиқий тарихчи олимлар учун оғир вақтлар бўлишига қарамай академик Яҳё Ғуломов, И.Мўминов, Б.Аҳмедов, таниқли манбашунос А.Ўринбоев ва бошқа забардаст тарихчи олимлар ўзларининг мақсадлари сари олға боришлик билан маънавий жасорат кўрсатиб бугунги ёшларга намуна бўлиб қолдилар.

Мавзунинг долзарблиги. Ўзбекистон тарихини ўрганишда катта ҳисса қўшган ҳар бир олимнинг ҳаёти ва илмий мероси доимо инсонда қизиқиш уйғотади. Айниқса, А.Ўринбоев бир вақтнинг ўзида ўзбек, рус, араб, форс тилларини мукаммал билувчи етук тарихчи олим, шарқшунос, фидоий педагог, жамоат арбоби, Абу Райҳон Беруний номидаги Давлат мукофоти соҳиби[2.1.], олийжаноб инсон сифатида бугунги кунда Ўзбекистон тарихи фанида ёшлар ҳавас қилса арзийдиган шахс сифатида ёдга олинади ва олимнинг илмий меросини ўрганиш заруратини туғдиради. Бугунги кунда Ўзбекистон тарихини ривожига ўз хизматини қўшган олимлар илмий меросини тадқиқ этиш ва буни ёшларга ўргатиш миллий ўзликни англашдаги бир вазифа ҳисобланади.

Амир Темур ва Темурийлар давлати тарихи, XIV-XV асрларда Марказий Осиё ҳудудларда яшаган халқларнинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий ҳаётидан маълумот берувчи манбалар тадқиқи А.Ўринбоев илмий фаолиятида марказий ўринни эгаллаган.

Бу йўналиш ҳам мазмунан турли фаслларга бўлинади:

1. 1991 йилда А. Ўринбоев "Ғиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси" номли илмий тадқиқотини якунлаб, нашр эттирди [3.1.]. Темурийлар давлатининг дипломатик алоқалари, элчилик муносабатлари тарихидан маълумот берувчи қимматли бу манбанинг алоҳида хусусияти шундан иборатки, у Хитой давлати ҳақида тўла маълумот олиш мумкин бўлган ягона қўлёзма сифатида тарих фанида ўз ўрнига эгадир. Унда Темурийлардан бўлган ҳукмдорларнинг Хитой давлатига юборган элчилари ва элчилик муносабатларини хронологик

ва ҳудудий харитаси ва сафарга оид қизиқарли тарихий маълумотлар келтирилган. Ушбу элчилар 1420 йил февраль ойининг 25-санасида Хитой элчилари билан бирга Самарқанд шаҳридан йўлга тушган бўлиб, Тошкент, Сайрам ва Ашпара ҳудудларидан ўтиб, Мўғулистон ҳудудига 25-апрелда етиб боради. Бу вақтда Мўғулистонда сиёсий келишмовчиликлар кучайган, Увайсхон билан Шер Муҳаммад Ўғлон ораларида адоват юзага келган бир давр бўлган. Сиёсий нотинч ҳудудга кирган Темурийлар салтанати элчилари табиийки, саросимада бўлади. Аммо, Мўғулистонда катта мавқега эга бўлган Дуғлат амирларидан Ҳудойдод элчилар уларни олдига келиб, ҳеч қандай хавф хатар йўқлиги, сафарларини бемалол давом эттиришларини айтади. Шундан кейингина элчилар 1420 йилнинг 10 июнида Юлдуз яйловига, 1420 йилнинг 11 июлида Турфонга, 16 июлида Қорахожа ҳудудларига етиб борадилар. Хитой императори томонидан юборилган махсус гуруҳ 21-июльда келиб элчиларни кутиб олади, яъни номларини ёзиб олишади. Шундан кейин Темурийларнинг элчилари Хитой давлати ва фуқаролари томонидан ижобий кутиб олинади. У ердаги элчилик муносабатлари Ғиёсиддин Наққош томонидан қайд этиб борилган. Унинг маълумотларига кўра, Шоҳрух томонидан юборилган элчилар Хитой императори томонидан катта ҳурмат ва эътибор билан кутиб олинган [4.1.]. Шоҳрух Мирзо ва унинг амирларининг Хитой ҳукмдорига йўллаган мактублари бир парча сариқ атласга ўраб, императорга тақдим этилади. Хитойга юборилган Темурийлар элчилари 1422 йили Ҳиротга етиб келган. Бу элчилик муносабатлари натижасида асосий эътибор савдо-иқтисодий муносабатларга қаратилганлиги учун, мамлакатлар ўртасидаги ички ва ташқи савдо ривожланган.

Тажриба қисми. А.Ўринбоев1991 йилда XIV аср охири XV аср бошларида Ўрта Осиёда қурилиш ва обидалар тарихига оид қимматли маълумотларни ўзида жамлаган мақолани нашр эттирган. Ушбу мақолага асос сифатида Шарафиддин Али Яздийнинг *"Зафарнома"* асари олинган[5.1.]. А.Ўринбоевнинг ушбу мақоласи архитектура ва бино иншоотлари қурилиши соҳасидаги олимлар учун ҳам фойдали тадқиқот бўлиб хизмат қилмоқда.

Мустақилликдан сўнг Темур ва Темурийлар давлати тарихига холис баҳо берилар экан, 1994 йилда темурий шаҳзодалардан бири, астроном олим мирзо Улуғбекнинг 600 йиллик юбилейи муносабати билан илмий тадбирлар ташкил этилди ва ўтказилди. Айни шу муносабат билан А.Ўринбоев ҳам ўз илмий тадқиқоти билан кўплаб журнал ва илмий-анжуманларда фаол қатнашди [6.1.]. Ушбу мақолаларнинг бири француз тилида, бири рус тилида, яна бири эса ўзбек тилида нашр этилганлиги олимнинг лингвистик эрудициясини юқори бўлганлигига далолатдир.

А.Ўринбоевнинг нақшбандия таълимоти тарихига оид илмий изланишлари ҳам мавжуд бўлиб, уларда Ислом динининг турли тариқатларидан фарқли равишда нақшбандия тариқатининг ривожланиши ва унинг намоёндалари ҳақида қимматли маълумотлар келтирилади. Масалан, 1994 йилда нашр қилинган "XV аср ёзишмаларида нақшбандия таълимотининг акс этиши" номли мақоласида ушбу таълимотнинг йирик намоёндаларидан Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Ҳусайн Бойқаро, Заҳириддин Муҳаммад Бобур кабилар ҳақида сўз борган. Айниқса, Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий мактубларида "*Даст ба кору дил ба Ёр"* шиори остида ривожланган нақшбандия таълимотининг "*Хилват дар анжуман, сафар дар ватан, назар бар қадам, ҳуш дар дам"* каби қоидаларининг баёни ҳақида қизиқарли маълумотлар берилган[7.1.]. Ушбу тариқат номи Баҳоуддин Нақшбандий билан боғлиқлиги сир эмас.

Олинган натижалар таҳлили. Бу тадқиқотнинг мантиқий давоми сифатида Хўжагон тариқати тарихига оид илмий изланишларни ҳам амалга оширган А.Ўринбоев мустақиллик шарофати билан 2003 йил Тошкентда ташкил этилган "Абдухолиқ Ғиждувоний ва тасаввуф" номдаги илмий анжуманда иштирок этади. А.Ўринбоев ушбу анжуманда "Абдухолик Ғиждувоний тасаввуфий таълимотининг Хожа Аҳрор Валий ва Абдураҳмон Жомий руқъаларида акс этиши" номли мақоласи билан қатнашган. Мақолада тасаввуфнинг хожагон-нақшбандия сулукида инсонийлик ғояларини назарий ва амалий ривожланиш масалалари Хожа Убайдуллоҳ Ахрор, Абдураҳмон Жомийлар томонидан Темурийлар (Хуросон) давлатининг Ҳирот саройига йўлланган хатларида акс этилиши таҳлил этилган

[8.1.]. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрорнинг 128 та мактуби ва Абдураҳмон Жомийнинг 337 та мактуби Асомиддин Ўринбоев томонидан тадқиқ этилган. Уларда тариқатдаги таълимотлардан бирининг асосчиси Абдухолиқ Ғиждувонийнинг тасаввуфий қарашларига хос бўлган меҳнатсеварлик, одамийлик, адолатпешалик ғоялари XV аср иккинчи ярмига келиб Мовароуннаҳр ва Хуросонда ҳам кенг тарқалганлиги акс этганлиги асослаб берилган.

Асомиддин Ўринбоев "Хожагон тариқати", унинг ривожланишида Абдухолиқ Ғиждувонийнинг заҳмат, ушбу йўлдаги муридлари ва шогирдлари, тариқатни географик ёйилиши каби масалалар таҳлилини ўз ичига олган мақолани ҳам 2003 йилда нашр эттирган[9.1.].

Хулоса. Хулоса қилиб айтиш мумкинки, А.Ўринбоев тадқиқотларида XIV-XV асрларда Марказий Осиё ҳудудларда яшаган халқларнинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий ҳаётидан маълумот берувчи манбалар кенг ўрин эгаллаган. Ушбу тадқиқотлардан бугун ёш тадқиқотчилар самарали фойдаланиб келмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Мирзиёев Ш.М.Эркин ва фаровон демократик давлатни биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – Б. 5.

2.От Комитета по Государственным премиям Узбекской ССР имени Абу Райхана Беруни в области науки и техники при Совете Министров Узбекской ССР // Правда Востока. – 1989. – №155(4-июля). – С. 3.; Юсупова Д. О прошлом с пользой для настоящего // Правда Востока. – 1989. – №210 (13-сентябрь). – С. 3.; В ЦК компартии Узбекистана и совете министров Узбекской ССР // Правда Востока. – 1989. – №257(8-ноябрь). – С. 3.; Салахитдинов М. Достойная оценка труда ученых // Правда Востока. – 1989. – №257(8-ноябрь). – С. 3.

3.Ўринбоев А., Бўриев О. Ғиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1991.

4.Ўринбоев А. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. (Ўрта Осиёда XIV аср охири XV аср бошларида ҳашаматли иншоотлар қурилиши хусусида маълумотлар) // Мулоқот. – № 1. – Тошкент,1991. – Б. 6.

5.Уринбаев А. Аладдин Али Кушчи — продолжатель научной школы Улугбека. // Материалы Международной научной конференции, посвященной 600-летнему юбилею Мирзо Улугбека. – Ташкент: "Фан", 1994. – № 5. – С. 90-92 (на франц.); –С. 161- 162 (на русск.); Ўринбоев А. Мирзо Улуғбек — Абдураззоқ Самарқандий тавсифида. // Шарқшунослик. –Тошкент: Фан, 1994. – № 5. – С. 17-29; Ўша муаллиф. Али Кушчи — Улуғбек мактабининг давомчиси. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – № 7. – Тошкент, 1994. – Б.34-37.

6.Ўринбоев А. XV аср ёзишмаларида нақшбандия таълимотининг акс этиши // Шарқшунослик. –Тошкент: Фан, 1994. – № 5. – Б.35-41.

7.Ўринбоев А. Абдухолиқ Ғиждувоний тасаввуфий таълимотининг Хожа Аҳрор Валий ва Абдураҳмон Жомий руқъаларида акс этиши. // Абдухолиқ Ғиждувоний ва тасаввуф. – Тошкент, 2003. – Б. 17-19.

8.Ўринбоев А. Хожагон тариқати ва Абдухолиқ Ғиждувонийнинг маънавият тарихидан ўрни. // – Навоий, 2003. – Б. 24-26.

УЎК 902

ХИВА ХОНИ АБУЛҒОЗИ БАҲОДИРХОННИНГ "МАНОФЕЪ-УЛ- ИНСОН" АСАРИ ТАБОБАТГА ОИД НОЁБ ҚЎЛЛАНМА

Ш.С. Матякубов, PhD, Хоразм Маъмун академияси, Хива

Аннотация. *Мақолада Абулғози Баҳодирхоннинг "Манофеъ-ул инсон" асари табобатга оид ноёб қўлланма эканлиги ҳақида маълумотлар берилади.*

Калит сўзлар: *Хива, Гурганч,Ибн Сино,Абулғози Баҳодирхон,"Шажараи турк","Манафеъ-ул-инсон"табобат,Баёний.*

Аннотация*. В статье представлена информация о труде Абулгази Бахадир-хана "Манафеъ-ул-инсан"являющемся уникальным пособиям по медицине*

Ключевые слова*: Хива, Гурганж, Ибн-Сина, Абулгази Бахадирхан, "Шаджараи-тюрк", "Манафеъ-ул-инсан", медицина, Баяни.*

Abstract. The article provides information about the work of Abulgazi Bahadir Khan "Manafe-ul-insan", which is a unique textbook on medicine

Key words: Khiva, Gurganj, Ibn-Sina, Abulgazi Bahadirkhan, "Shajarai-Turk", "Manafe-ul-insan", medicine, Bayani.

Марказий Осиёда жаҳон цивилизацияси ривожига катта ҳисса қўшган Хоразмда хусусан Хива хонлигида яшаган олим,табиб, шоир ва тарихчилар азал-азалдан ўзларининг улкан

салоҳият ва иқтидор эгалари эканлигини исботлаб келганлар. Ўтган даврлар мобайнида мутафаккир алломаларимиз томонидан яратилган турли мазмундаги ноёб асарлар дунёнинг жуда кўп тилларига таржима қилиниб, уларининг фан ва илм тараққиётлари йўлидаги ривожланишлари учун йўл кўрсаткич бўлиб хизмат қилгани ҳеч кимга сир эмас. Асли хоразмлик Ал-Хоразмий, Ал-Беруний, Масихий, Махмуд Замахшарий, Нажмиддин Кубро каби ўнлаб юртдошларимизнинг дунё илм-фан тараққиёти йўлидаги машаққатли меҳнатлари бугунги кун авлодлар учун фахр ва ифтихор туйғусини ўзида жам этади.

Юқоридагилар қаторида Хива хони Абулғози Баҳодирхоннинг ҳам ўзига яраша ўрни ва нуфузи бор десак муболаға бўлмайди албатта. Исфандиёрдан кейин Хива тахтига келган Абулғози ибн Арабмуҳаммад хон бўлиш билан бирга шажара тарихчиси ва моҳир табиб ҳам бўлганлиги маълум.

Абулғози Баҳодирхон 1644 йилда Хоразм хонлик тахтини эгаллаб, уни одилона бошқариб, хонликда қатъий ва мустаҳкам тартиб ўрнатишга эришган. Унинг ўзи бу ҳақда "Шажараи турк" асарида "Асфандиёр ўлгандин бир йил сўнг Аму сувининг тенгизга қўйғон еринда, ул ерни Орол дерлар эрди, тарих хижрий минг тақи эллик тўртда қўй йилининг аввалинда фақирни хон қўтардилар" [1] дейди. Унинг ҳукмдорлик даврида Хиванинг аҳамияти янада ошади.

Қарийиб йигирма йил давомида Хоразм тахтини эгаллаган Абулғози Баҳодирхон давлат ишларини бошқариш билан бир қаторда илм-фан, санъат, адабиёт ва тарихга қизиқди ва ихлос қўйди, уларга раҳнамолик ва хомийлик қилди. Абулғозий кенг ва чуқур маълумотли киши бўлиб етишди. Ўша даврининг етук тарихчиси сифатида шуҳрат қозонди. Абулғози Баҳодирхоннинг ижтимоий-сиёсий ва ижодий фаолияти бугунги авлодларга яхши маълум бўлмасада ул зотнинг улкан тарихий шахслиги шубҳасиздир. Сабаби Ўрта Осиёда давлат ва маданиятнинг ривожида юз берган қарийб икки асрлик инқироздан кейинги уйғониш Абулғозининг ижтимоий-сиёсий ва ижодий фаолияти билан чамбарчас боғланади.

Маърифатпарвар ва билимдон буюк саркарда Амир Темур вужудга келтирган ижодий шароитда буюк шоир Алишер Навоий бошлиқ улкан алломалар майдонга келгани каби, Абулғозидан кейинги даврдаги Хоразмда ҳам юксак маданият ва илму-урфон томон ривожланиш кўзга ташланади. Паҳлавонқули Равнақ, Муҳаммадниёз Нишотий, Комил Хоразмий, Мунис Хоразмий ва ниҳоят ўз даврининг Навоийси яъни Муҳаммадризо Огаҳийнинг серқирра ижодий фаолияти шундан далолат беради. Шу боисдан Абулғози Баҳодир ижодий фаолиятини ўрганиш беҳад катта аҳамиятга эгадир.

Абулғози "Шажараи-турк" асарида ўзи ҳақида асосли равишда шундай деб ёзади: "Бу фақирга Худои таоло иноят қилиб кўп нимарса берган турур, аввал сипоҳигарликнинг қонуни ва йўсиниким, нечук отланмоқ ва юримоқ ва ёвға ёсоқ ясамоқ, кўп бирлан юрганда нечук қилмоқ, оз бирлан юрганда нечук қилмоқ. Дўстга душманга нечук сўзлашмоқ. Иккинчи, маснавийёт ва қасоид ғазалиёт ва муқаттааъот ва рубоиёт ва барча ашъорни фаҳмламаклик,арабий ва форсий ва туркий луғатларнинг маъносини билмаклик. Учинчи, Одам Отадин то бу дамгача Арабистонда, Эрон ва Турк ва Мўғилистонда ўтган подшоҳларнинг отлари ва умрларининг ва салтанатиларининг кам ёки зиёда билмаклик" [2].

Шермуҳаммад Мунис таъбири билан айтганда: "...бағоят ашъорфаҳм ва тарихдон киши бўлган Абулғози табобатга ҳам озми-кўпми ҳисса қўшган ҳукмдордир. Хоразмда 20 йил яшаб, Гурганчда "Дорул-ҳикма" (Донишмандлар уйи)да фаолият кўрсатиб,"Тиб қонунлари","Аҳлоқ ҳақида", "Ёшлик тўғрисида", "Нафсни покиза тутиш" каби кўплаб табобатга оид асарлар яратган Ибн Сино асарлари ва ўша даврнинг халқ табобатига оид бошқа манбаларидан фойдаланиб, Абулғози ўзининг "Манофеъ-ул-инсон" (Инсонларнинг соғликлари тўғрисида) асарини ёзди.

Абулғози ўзи бу ҳақда шундай ёзади: "...одамизот бадани иллатдин ва ҳар хил касалликдин ҳоли эрмасдур. Вахтики шу касалликларга даво қилмоқ эҳтиёжимиз тушса табиб китобларини назарга келтурур эрдик. Китобларни назарга келтириб эрдик, мақсад гоҳо топулур эрди ва гоҳо топилмас эрди, улкин топулур эрди, ҳозир машаққат бирла ўртага келур. Шул сабабдин, иллатга илож қилмоқ учун,мўътабар китоблардин ҳоҳлаб жам қилиб, ондин

сўнг иллатларни баён қилдим. Шоядким дардлардин холос бўлғайлар мусулмонларга манфаатли бўлсин учун бул китобга ”Манафеъ-ул-инсон” деб ном қилдим”[3].

Ҳижрий 1664 йилда ёзилган ушбу асар нафақат ўша давр табиб ва хакимлари учун тиббий қўлланма, балки ҳозирги кун медицинасида ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Хоразмлик тарихчи Муҳаммад Юсуф Баёний ўзининг “Шажараи Хоразмшоҳий” асарида: “Манафеъ-ул-инсон” ким Абулғози битиб, мавсум этди ва тибда ҳам моҳир эканлар”[4] деб маълумот беради. “Манафеъ-ул-инсон” асари тўрт қисм ва йигирма бир бобдан иборат бўлиб, ҳар бир қисмида турли касалликлар ва даволаниш тартиби ҳақида сўз юритади. Биринчи қисмида якка дорилар ҳақида сўз кетса, иккинчи қисмида муракаб дорилар ҳақида сўз юритилади. Учинчи қисмида эса умумий дорилар ҳақида сўз кетса, тўртинчи қисмида ҳаким ва донишмандларнинг ҳикматли сўзлари келтирилади.

Муаллиф томонидан асарда халқ оммаси ўртасида кенг тарқалган иситма, бел оғриғи, кўз, жигар касаллиги, талоқ яллиғланиши сингари 120 хилдан зиёд касалликлар келтирилади. “Манафеъ-ул-инсон”да оддий ва мураккаб дорилар,уларни тайёрлаш, ишлатиш йўллари, дард ва касалликларни келиб чиқишига сабаб бўлувчи омиллар, касалликларни даволаш тартибларини оммабоп, содда халқ тилида баён этади. Муаллиф фикрича ҳар бир ўлкада касаллик ёки иллат пайдо бўлдими демак унинг шифоси ва давоси ҳам шу ернинг ўзида мавжуддир. Уни излаб топиш учун дала ва чўлларда ўсадиган маҳаллий гиёҳ ва ўсимликларга, қуш ва ҳайвон оламига мурожаат қилиш зарурдир. Абулғози ўзидан олдинги табобатга оид китоблар ҳақида ёзиб: ”китобларни кўрдим ва устозлардан ўргандим” [5]дейди.

Абулғози “Манафеъ-ул-инсон”да ундан олдин битилган табобатга оид асарлар ҳақида: ”барча айтғонлар арабий луғатларни қўшиб турурлар ва ва форсийни ҳам қўшиб турурлар ва туркийни ҳам сажъ қилиб турурлар”[6]деб ёзади. Дарҳақиқат Абулғози даврида табобатга оид озми-кўпми турли асарлар мавжуд бўлсада, аммо уларни излаб топиш, улардан баҳраманд бўлиш, айниқса халқ оммаси учун амалга ошириш қийин бўлган иш эди. Шунингдек бу асарларнинг кўплиги соф ўзбек тилида бўлмай, арабча, форсча атамалар аралаш ҳолда ёзилганлиги, улардан фойдаланишни қийинлаштирар эди. Абулғозининг бу асари ана шундай нуқсонлардан ҳоли ҳолда битилгани билан ҳам катта аҳамиятга моликдир. Абулғози ўзидан аввал ўтган табиб ва ҳакимларнинг ҳар хил касаллик ва хасталиклар тўғрисидаги фикр ва мулоҳазаларини келтириб, сўнг булар хусусида ўз фикр ва мулоҳазаларини ва қарашларини баён этади.

”Манафеъ-ул-инсон” асарига илмий асосда ёндашар эканмиз,унинг тиббиёт ва доришуносликка оид барча фанларни ўз ичига олганлигини гувоҳи бўламиз. Жумладан,инсон организмининг тузилиши, касаллик ва дардларнинг келиб чиқиш сабаблари, уларни даволашда тайинланадиган дори ва муолажа воситалари,уларни олиш мабалари-шифобахш тошлар,ҳайвон аъзолари ва ўсимлик дунёси шунингдек турли касалликларга қарши дори турларини тайёрлашдаги оддий ва халқ учун содда ва осон тайёрлаш жараёнлари яна дориларни беморларга тайинлаш усулларини ўз ичига олганлигини гувоҳи бўламиз. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев жорий 2025-йилнинг 29-январь куни Тошкент шаҳридаги Ислом цивилизацияси марказида олиб борилаётган бунёдкорлик ишлари билан яқиндан танишди. Бу мажмуа тарихимизда илгари бўлмаган улкан ва Марказий Осиёда ўзига хос миллий архитектураси билан алоҳида ажралиб турувчи ягона ноёб лойиҳа ҳисобланади.

Президент халқимизнинг бой ва бетакрор меросига оид кўп китоблар, турли ўлкаларга сочилиб кетган қўлёзмалар, ноёб маълумотлар, санъат асарлари, мана шу марказ сабаб бир жойга тўпланаётганлигини билдириб, энди уларни фақат аждодларимиз мероси сифатида сақламасдан, фаол илмий истеъмолга киритиш, аҳолимиз, ёшларимизга тушунарли тилда етказиш, жаҳон жамоатчилигига кенг тарғиб қилиш кераклигини алоҳида таъкидлаб ўтди.

Президентимизнинг юқоридаги топшириқ ва тавсияларга асосланган ҳолда, Хоразм Маъмун академияси ижтимоий-гуманитар фанлар бўлими бир гуруҳ илмий ходимлари шу кунга қадар илмий муомалага киритилмаган Абулғози Баҳодирхоннинг “Манафеъ-ул-инсон” табобатга оид асарини тўлиқ ҳолдаги асл нусхасини излаб топиш, илмий муомилага киритиш, уни доришунос ва тиббиёт ходимларига, илмий изланувчилар шунингдек ёшларимиз ва кенг

китобхонлар қўлига улар тушунадиган тил ва алифбода кўпминглаб нусхаларда чоп этиб, тақдим этиш борасида илмий изланишлар олиб бормоқдалар. Олиб борилган изланиш ва ўрганишлар шуни кўрсатмоқдаки, Ўзбекистонда "Манафеъ-ул-инсон"асарининг фақат битта нусхаси Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондининг №4107 рақами остида сақланмоқда. Лекин ўрганиш натижасида ушбу нусха тўлиқ эмаслиги аён бўлди. Эндиликда олимларимиз ушбу асарни халқимиз қўлида бўлиши мумкин бўлган тўлиқ нусхасини излаб топиш ва чоп этиш борасида изланиш олиб бормоқдалар.

Хулоса қилиб айтганда Абулғозининг"Манафеъ-ул-инсон"табобатга оид асари инсонларнинг сиҳат-саломатликларини асраш, турли касалликлар ва уларни тўғри ташхислаш ва даволаш тўғрисида қайғуриб ёзилган қимматли китоб бўлиб, унда муаллифнинг билим ва тафаккури нақадар етуклиги, адолатли хонлик бошқарувчиси шунингдек тарих ва адабиётда моҳир тарихчи ва шоир айниқса табобат соҳасида ҳам ўз истеъдодини намоён этган табиб ва олим ва тарихчи эканлигидан далолат беради. Ўзбекистонда Абулғози Баҳодирхон ижоди ва илмий меросини янада чуқур ўрганиш учун унинг тарих ва табобатга оид қўлёзма асарлари асосида илмий тадқиқот ишлари олиб бориш тарихшунос ва тилшуносларимизнинг асосий вазифаларидан биридир. Зеро бугунги кунда ўтмишдан қолган илмий ва маданий меросимизни қайта тиклаш, аллома бобокалонларимизнинг пурҳикмат китобларини илмий тарзда таҳлил ва тадқиқ этиш, таржима қилиш ва албатта буларни кенг китобхон ва халқ оммаси қўлига етказиш барча олиму-фозилларимизнинг шарафли бурчидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абулғози Баҳодирхон.Шажараи-турк.Тош.1992.179б.
2. Абулғози Баҳодирхон.Шажараи-турк.Тош.1992.182б.
3. Абулғози Баҳодирхон.Манефеъ-ул-инсон.ФАШИ қўлёзмалар фонди инв №4107. 2б.
4. Баёний.М.Шажараи Хоразмшоҳий.Ўзбекистон ФАШИ қўлёзмалар фонди инв №3596 76б.
5. Абулғози Баҳодирхон.Манефеъ-ул-инсон.ФАШИ қўлёзмалар фонди инв №4107. 4б.
6. Абулғози Баҳодирхон.Манефеъ-ул-инсон.ФАШИ қўлёзмалар фонди инв №4107. 8б.

УЎК 78(08)

ҚАРШИ ШАҲРИДАГИ БОЛАЛАР МУСИҚА ВА САНЪАТ МАКТАБЛАРИ ТАРИХИ: ИСТЕЪДОДЛАР ГУЛШАНИ

М.Н. Махманова, ўқитувчи, Қарши давлат университети, Қарши

Аннотация. *Мақолада Қарши шаҳридаги болалар мусиқа ва санъат мактабларининг тарихи, ривожланиш босқичлари, моддий-техник базасини мустаҳкамлаш бўйича амалга оширилган ишлар, шунингдек, мактабларнинг фаолияти ва ютуқлари таҳлил қилинади. Мақолада давлат дастурларининг роли, мактабларнинг моддий-техник базасини яхшилашга қаратилган чора-тадбирлар, шунингдек, ўқувчиларнинг ютуқлари ва халқаро танловлардаги иштироки ҳақида маълумотлар келтирилади.*

Калит сўзлар*: Қарши шаҳар, болалар мусиқа ва санъат мактаблари, таълим, тарбия, моддий-техник база, давлат дастурлари, ривожланиш, ютуқлар, халқаро танловлар.*

Аннотация. *В статье анализируется история детских музыкальных и художественных школ города Карши, этапы развития, проделанная работа по укреплению материально-технической базы, а также деятельность и достижения школ. В статье представлена информация о роли государственных программ, мерах, направленных на улучшение материально-технической базы школ, а также достижениях учащихся и их участии в международных конкурсах.*

Ключевые слова: *город Карши, детские школы музыки и искусства, образование, подготовка кадров, материально-техническая база, государственные программы, развитие, достижения, международные конкурсы.*

Abstract. *The article analyzes the history of children's music and art schools in the city of Karshi, the stages of development, the work done on strengthening the material and technical base, as well as the activities and achievements of the schools. The article provides information about the*

role of state programs, measures aimed at improving the material and technical base of schools, as well as the achievements of students and their participation in international competitions.

Key words: *Karshi city, children's music and art schools, education, training, material and technical base, state programs, development, achievements, international competitions.*

Қарши шаҳри қадимий тарихга эга бўлган, ўзига хос маданияти ва санъати билан ажралиб турадиган диёр. Бу шаҳарда мусиқа ва санъатга бўлган муҳаббат азалдан яшаб келган. Қаршидаги болалар мусиқа ва санъат мактаблари эса ушбу муҳаббатни сақлаш, ривожлантириш ва ёш авлодга етказишда муҳим роль ўйнаб келмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 7 январдаги"Болалар мусиқа ва санъат мактабларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва уларнинг фаолиятини янада яхшилаш бўйича 2009-2014 йилларга мўлжалланган Давлат дастурини тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ф-2908 – сонли Фармойиши хамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.07.2008йил ПҚ-910 Болалар мусиқа ва санъат мактабларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва уларнинг фаолиятини янада яхшилаш бўйича 2009-2014 йилларга мўлжалланган давлат дастури тўғрисида қарори қабул қилинди.Бунда Униб-ўсиб келаётган ёш авлоднинг истеъдодини ҳар томонлама камол топтириш ва маданий савиясини юксалтириш, ёшларимизнинг миллий ва жаҳон мусиқалари, тасвирий санъатининг юксак намуналаридан кенг баҳраманд бўлиши учун зарур шароитлар яратиш, бошланғич мусиқий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, болалар мусиқа ва санъат мактабларини ривожлантириш ҳамда замонавий моддий-техник базасини шакллантириш, уларни мусиқий маданият ва санъат соҳасидаги юқори малакали педагог кадрлар ва мутахассислар билан таъминлаш масалалари қуйилди.

Қарши шаҳридаги 1- болалар мусиқа ва санъат мактаби Мустақиллик кўчаси-56 уй да жойлашган бўлиб, 1954 йилда ташкил этилган. 2010 йилда янги қурилиш ишлари олиб борилди, 2011 йилдан мустақилликнинг 20 йиллиги арафасида янги , муҳташам ва гўзал бинога эга бўлди.Лойиҳа қиймати 1миллиард 651миллион сўмга тенг,200 уринли мўлжалланган бу бино 1-тип лойиҳа асосида барпо этилди.Мусиқа ва санъат мактаби янги бинога эга бўлгач барча турдаги мусиқа асбобларини чалиш имконияти яратилди.Фортепиано,халқ чолғу асбоблари, анъанавий хонандалик ва созандалик ,торли чолғу, урма зарбли ва пуфлаб чалинадиган асбоблар.рақс,тасвирий,амалий,театр санъати йўналиши,рус халқ чолғу асбобларини чалиш сир-асрорлари болаларга қунт билан ўргатилмокда.Бу ерда 300 нафар бола мусиқа ва санъат соҳасини ўрганмокда.Ушбу масканда Ўқувчилар сони 2019 йил март ойи ҳолатига кура 468 нафар ўқувчига олий 31 нафар, ўрта махсус 46 та 77 нафар ўқитувчи сабоқ бериб келмоқда.Дарслар асосан ўзбек ва рус тилларида олиб борилади.Машғулотлар икки маҳал ,гуруҳли ва якка тартибда ташкиллаштирилган. Бу ерда болалар Фортепиано классика, фортепиано эстрада, Торли чолғулар, Дамли ва зарбли чолғулар, Халқ чолғулари, Анъанавий чолғу ижрочилиги, Анъанавий хонандалик, Академик хонандалик, Эстрада хонандалиги, Хореография (рақс санъати), Театр санъати, Тасвирий санъат, Амалий санъат **(жами 13 та йўналиш)** йўналиш бўйича таълим олишади [1].

Амалий санъат баян-аккордеон хамда торли чолғулар мутахассислиги бўйича олий маълумотли кадрларга эҳтиёж мавжуд.Бундан ташқари кадрларимиз уз мутахассисликлари бўйича малакаларини оширишлари учун имконият бўлмайди.Яъни вилоятимиздаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институтида саксафон , скрипка,фортепианони мукаммал биладиган мутахассиснинг ўзи йук.Шунинг учун ўқитувчиларимизга вилоятга эмас, пойтахтга -Ўзбекистон Давлат концерваторияси ёки Ўзбекистон Давлат маданият институтига малака оширишга йўлланма берилгани маъқул.

-Мактабда анъанавий хонандалик йўналишида ўқувчиларга дарс бераман дейди-Шерали Халимов-саккиз нафар ўқувчимга устоз-шогирд йўналишида , яъни хар бирига алоҳида-алоҳида дарс утаман.Чунки танбур доираси ва гижжак чалишни мукаммал ўргатиш учун ўқувчилар билан алоҳида шуғулланиш лозим.Бизда ёшлар беш йил давомида санъат сирларини ўрганади.Айтиб утиш лозимки, мазкур мусиқа ва санъат мактабида

тарбияланаётган ёшлар орасида турли танлов ғолиблари ва совриндорлар кўпчиликни ташкил этади.Мактаб қошида ташкил этилган "Шодиёна" эстрада гуруҳи аъзолари 2008 йили ёш эстрада ижрочилар ўртасида ўтказилган "Юлдузлар ёғдуси"фестивалининг республика босқичида иккинчи урин эгаллашган бўлса 2009 йили "Ягонасан муқаддас Ватан!" кўрик-танловининг республика босқичида фаол иштирок этишган.2010 йилда Сетора Халимова фортепиано йўналишида "Янги авлод" болалар ижодиёти фестивалида лауреат бўлди.2011 йилда мазкур мусиқа ва санъат мактабида яна тўртта йўналишга асос солинди.Эндиликда санъатга кўзикувчи ёшларимиз ёғоч ўймакорлиги, зардўзлик, бичиш-тикиш, хамда вокал(эстрада хонандалиги) йўналишларида хам уз иқтидорларини ривожлантиришлари мумкин [2].

Мактабнинг иқтидорли ўқувчиларидан Фарангиз Элмуродова,Бекзод Убайдуллаев,Шахзод Хамраев,Малика Умарова катта муваффақиятларни қўлга киритишмоқда.2012 10-13 октябрь кунлари Озарбайжон Республикаси Боку шаҳрида бўлиб утган IV Халқаро болалар фестивалида мактабнинг анъанавий хонандалик йўналиши 4-синф ўқувчиси Арслон Шавкатов иштирок этди [3].

Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги Тошкент Давлат хореография академияси тасарруфидаги Қарши ихтисослаштирилган бошланғич рақс санъати мактаб — интернати. Ўзбекистон Республикаси Қашқадарё вилояти Қарши шаҳри "Амир Темур" кўчаси 130 -уй. Қарши Маданият мактаби биносининг 4/1 қисмида жойлашган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ -4585 -сонли 2020 -йил 4-февралдаги "Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини янада ривожлантириш чора -тадбирлари тўғрисида"ги қарори асосида ташкил этилган. 2021 йилда қайта таъмирланиб фойдаланишга топширилган. *(370 млн. сўм маблағ сарфланган.)*Мавжуд қуввати: 30 ўринли бўлиб таълим давомийлиги: 1-4-синфлар ўқувчилар сони: 96 нафар *(47 нафар ўғил бола, 49 нафар қиз бола)* мутахассисликлар сони: 1 та "Бошланғич классик рақс ижрочиси" (96 нафар ўқувчи). Ўқитувчилар сони: 28 нафар бўлиб шундан:- олий тоифали – 1 нафар (12 %)- биринчи тоифали – 2 нафар (12 %)- иккинчи тоифали – 1 нафар (29 %) — олий маълумотли – 17 нафар (35 %)- ўрта махсус маълумотли – 11 нафар (10 %).Қарши ихтисослаштирилган бошланғич рақс санъат мактаб-интернатида бошланғич классик рақс ижрочиси мутахассисликлари бўлиб унда 96 нафар ўқувчи рақс сирларни ўрганиб келишмоқда.Мактаб–интернати Мактаб ўқувчилари турар жойи Қарши ихтисослаштирилган Маданият мактаби Мактаб ўқувчилари турар жойи биносининг бир қисмида жойлашганлиги учун бир оз ноқулайликларни юзага келтирмоқда шу сабабли алоҳида янги ўқув биносини қуришга эҳтиёж мавжуд.Мутахассислик фанларини ўтиш учун доира, дутор, рубоб, чолғулари, рояль ва фортепианолар етарли эмас [4].

Ўзбекистон Республикаси Маданият ва туризм вазирлиги Қашқадарё вилояти маданият ва туризм бошқармаси томонидан "Қашқадарё рақс жилоси" вилоят кўрик танловида рақс мактаби ўқувчилари фаол иштирок этиб фахрий ёрлик билан тақдирландилар.

2022 йил 27 октябрда Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги Вилоят маданият бошқармаси ва Қарши шаҳар маданият бўлим томонидан 27-октябр-Қарши куни муносабати Қарши шаҳар маданият бўлими томонидан ўтказилган танловда рақс йўналиши бўйича фахрли биринчи ўринни олганлиги учун 1-даражали диплом билан тақдирландилар [4].

Қарши шаҳридаги 2-сонли болалар мусиқа мактаби ўз фаолиятини ўтган асрнинг 70-йилларида бошлаган. Ўша пайтда Қарши шаҳрида мусиқа таълимига бўлган талабнинг ортиши натижасида янги мусиқа мактаблари ташкил этиш зарурати туғилган эди. Мактаб дастлаб тор доирадаги мусиқа йўналишлари, хусусан, фортепиано, баян, аккордеон ва скрипка каби асбобларда чалиш бўйича таълим бера бошлади.Вақт ўтиши билан мактабнинг таълим йўналишлари кенгайиб борди. Ўзбекистон мустақиллигидан сўнг, миллий мусиқа ва санъатга бўлган эътиборнинг кучайиши натижасида мактабда ўзбек халқ чолғулари (дутор, танбур, ғижжак, рубоб), халқ хонандалиги ва вокал каби йўналишлар ҳам очилди. Шунингдек, мактабнинг моддий-техник базаси мустаҳкамланиб, янги мусиқа асбоблари ва жиҳозлар билан таъминлана бошлади. Мактабда қуйидаги йўналишлар бўйича таълим берилади:Фортепиано, Баян, Аккордеон, Скрипка, Халқ чолғулари (дутор, танбур, ғижжак, рубоб) Халқ

хонандалиги, Вокал. Мактабда мунтазам равишда концертлар, танловлар, фестиваллар ва бошқа маданий тадбирлар ўтказиб турилади. Бу тадбирлар ёш истеъдодларнинг ўз маҳоратини намойиш этиши, тажриба орттириши ва мусиқа оламида ўз ўрнини топишига ёрдам беради. Бу борада Анвар Ражабов директорлик қилган вақтларида Қарши шаҳридаги 2-болалар мусиқа мактабида хайрли ишларни амалга оширди.1999 йилларда мазкур мактабда 200га яқин ўқувчи-ёш мусиқа сирларини ўрганиб, дутор, тор, гижжак, рубоб, доира,най каби ўзбек халқ чолғу асбоблари, фортепьяно, пианино, скрипка санъатининг ажиб мўъжизакор дунёсини кашф этишди. Шу йилнинг март ойида бўлиб утган вилоят мактабларарo мусиқа ва санъат кўрик-танловида уларнинг фахрли биринчи, иккинчи, учинчи ўринларни эгаллаганликлари хам фикримизнинг далилидир. Жажжи санъаткорлар ўқув йили тугашига бағишлаб, якунловчи концерт намойиш этишди. Дастур охирида вилоят мактабларарo мусиқа ва санъат кўрик-танловининг ғолибларига дипломлар, пул мукофотлари, фахрий ёрликлар топширилди. Доира мутахассислиги бўйича Шерзод Ражабов биринчи ўринни, Улуғбек Темиров иккинчи ўринни, дутор мутахассислиги бўйича Дилобар Бердиева иккинчи ўринни, Зилола Рахматова учинчи ўринни, рубоб мутахассислиги бўйича Акмал Турсунов иккинчи ўринни, Маъруф Остонов эса учинчи ўринни эгаллади. Бекзод Егамбердиев ва Шерзод Салимов маданият ишлар бошқармасининг фахрий ёрлиги билан мукофотланди [5].

Қарши шаҳар болалар санъат мактаби 2000-йилларнинг бошларида ташкил этилган. Бу даврда мамлакатимизда санъат соҳасига бўлган эътиборнинг кучайиши, болаларнинг ижодий салоҳиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиши натижасида, Қарши шаҳрида ҳам санъат мактабини очиш зарурати туғилган эди.Мактаб фаолиятининг дастлабки йилларида асосан тасвирий санъат (рассомлик, ҳайкалтарошлик) йўналишига эътибор қаратилди. Вақт ўтиши билан мактаб ўз таълим доирасини кенгайтириб, амалий санъат (кулолчилик, каштачилик, ёғоч ўймакорлиги), хореография (рақс) ва театр каби йўналишларни ҳам ўз ичига ола бошлади. Мактабда қуйидаги йўналишлар бўйича таълим берилади: Тасвирий санъат: Рассомлик, ҳайкалтарошлик, Амалий санъат: Кулолчилик, каштачилик, ёғоч ўймакорлиги, гиламдўзлик ва бошқа халқ ҳунармандчилиги турлари, Хореография: Миллий ва замонавий рақс санъати,Театр: Саҳнавий маҳорат, актёрлик санъати.

Қарши шаҳар болалар санъат мактаби ўз фаолияти давомида кўплаб ютуқларга эришган. Мактаб ўқувчилари республика ва халқаро миқёсда ўтказиладиган турли танловлар, кўргазмалар ва фестивалларда мунтазам равишда совринли ўринларни эгаллаб келмоқдалар.Айниқса яккахон ижроларда республика ва халқаро танловларда истеъдодли ижрочилар Малика Пармонова, Содик Сайимов,Гиёс Мухаммадиев ,Алибек Мадатов,Шехруза Омоновалар совриндор бўлишган.Мактаб битирувчилари орасида таниқли рассомлар, ҳайкалтарошлар, халқ амалий санъати усталари, хореографлар ва актёрлар кўплаб учрайди. Бу эса мактабнинг ёш авлодни тарбиялаш ва уларга санъат йўлида йўлланма беришдаги муҳим ролини тасдиқлайди.Қарши шаҳар болалар санъат мактаби ўз фаолиятини янада ривожлантириш, таълим сифатини ошириш, янги йўналишларни очиш, халқаро ҳамкорликни йўлга қўйиш ва ўқувчиларнинг ижодий салоҳиятини тўлақонли намоён этишига шароит яратиш каби мақсадларни ўз олдига қўйган [6].

Қарши шаҳридаги 9-сонли мусиқа мактаби ўз фаолиятини ўтган асрнинг 80-йилларида бошлаган. Дастлаб мусиқа мактаби сифатида ташкил этилган ушбу таълим муассасаси, вақт ўтиши билан ўзининг таълим доирасини кенгайтириб, ёш авлодга мусиқа санъатининг турли йўналишлари бўйича таълим бера бошлади.Қарши шаҳридаги 9-сонли болалар мусиқа ва санъат мактабида 173 нафар ўғил-қиз таҳсил олмоқда.Шунингдек, мактаб ўқувчиларининг турли кўрик-танловлар, фестиваллар ва концертларда фаол иштирок этиши учун ҳам шароитлар яратилди.Мактабнинг 1-синф ўқувчиси Қувончбек Ибрагимов иқтидорли ўқувчилардан саналади [7].

Хулоса: Қарши шаҳридаги болалар мусиқа ва санъат мактаблари тарихан ўз ўрнини эгаллаган ва ёш авлодни санъат ва мусиқа соҳасида ривожлантиришга муҳим хизмат қилмоқда. Ушбу мактаблар нафақат ёшларнинг эстетик дунёқарашини шакллантириш, балки уларда ижодий қобилиятларни ривожлантиришга ҳам катта таъсир кўрсатмоқда.Давлат

дастурлари орқали мактабларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, янгича асбоб-ускуналар билан таъминлаш ва ижодий муҳитни шакллантириш ёш истеъдодларнинг самарали ривожи учун муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, юксак малакали педагоглар билан таъминлаш, ўқувчиларни халқаро танловларда фаол иштирок этишини таъминлаш мақсадида ўқув жараёнини ислоҳ этиш, билим ва кўникмаларни оширишда муҳим эканлигини алоҳида таъкидлаш керак. Ушбу тадбирлар мактабларнинг фаолиятини йўналтиришга, ижодий ҳамкорлик ўрнатишга ва ёшлар учун ижодиёт оламини кенгайтиришга хизмат қилади. Келажакда ҳам бу муассасаларнинг ривожланиши ва самарадорлиги халқаро стандартларга мос бўлиши, ёш истеъдодларнинг ривожланишида асосий омил бўлиб қолиши кутилмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Қарши шаҳар 1-болалар мусиқа ва санъат мактаби архив фонди

2.Эътибор Норбутаева Асрор Аллаёров. «Шошмақом»дан-Моцартгача …ёхуд Қарши шаҳридаги 1-болалар мусиқа ва санъат мактаби фаолиятига назар.Қашқадарё газетаси.2011 йил 18 февраль

3Инобат Абдуллаева.Ёш санъаткорлар камоли учун.Қашқадарё.2012 йил 14 сентябрь

4.Қарши ихтисослаштирилган бошланғич рақс санъати мактаб — интернати архив фонди

5.Д.Урозова Санъат эзгуликка етаклайди Қашқадарё 1996йил 12 июнь

6.С.Аллаёрова Қашқадарё газетаси 2019 йил 16 апрель

7.Қашқадарё газетаси 2014 йил 20 май

УЎК 93

20-30 ЙИЛЛАРИДАГИ МАДАНИЙ ҲАЁТ ВА СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТДА

А.Т.Мингноров, т.ф.д., Тошкент давлат педагогика университети, Тошкент

Аннотация. *Совет иттифоқи Туркистон сўнгра эса Ўзбекистон Республикасида ўзбек халқининг маданиятига нисбатан салбий таъсир кўрсата бошлайди. Большевикларнинг Ўзбекистон бошқарувини тўлиқ ўз қўлларига олгач, миллий зиёлиларнинг қатағонга учрашига сабаб бўлади.Ўлкадаги маданий жараёнларни, маорифни энг асосийси газета ва журналлар назоратини осонлаштириш мақсадида имло масаласини кун тартибига қўйиб, миллий қадриятларни эса паймол этила бошлайдилар. Бундай жараёнлар даврий матбуот саҳифаларида акс этган. Ушбу мақола ўша даврдаги манбалардан бири ҳисобланган даврий матбуот материаллари орқали очиб берилган.*

Калит сўзлар: *Маданий инқилоб, жадид мактаблари, асори-атиқа, усули жадид, янги ўзбек алифбе қўмитаси, шўро, қурултой, лотинлаштириш, декрет, қатағон, тўнтариш.*

Аннотация. *Советский Союз начал оказывать негативное влияние на культуру узбекского-народа в Туркестане, а затем и в Республике Узбекистан. Когда большевики взяли под полный контроль Узбекистан это вызвало репрессии против национальной интеллигенции.Чтобы облегчить контроль над культурными процессамы и образованием особенно газет и журналов на повестку дня ставится вопрос правописания начинают попираться национальные ценности.Такие процессы нашли отражение на страницах периодической печаты Данная статья была раскрыта благодаря материалам периодической печаты которые считаются одним из источников того времени.*

Ключевые слова: *Культурная революция современные школы артефакты современной метод комитет нового узбекского алфавита шура съезд латинизация указ репрессии переворот*

Abstract. *The Soviet Union began to have a negative impact on the culture of the Uzbek people in Turkestan and then in the Republic of Uzbekistan. When the Bolsheviks took full control of Uzbekistan it caused repression of the national intellectuals. In order to facilitate the control of cultural processes and education especially newspapers and magazines the issue of spelling is put on the agenda and national values begin to be violated. Such processes were reflected in the pages periodical press. The article was revealed through periodical press materials which are considered one of the sources of the time.*

Key words: *Cultural revolution, modern schools, artefacts, modern method ,new Uzbek alphabet committee, shura, congress, Latinization, decree, repression, coup.*

Ҳар бир халқнинг маданий жиҳатдан қандай холатда эканлигини кўрсатиб турадигани, бу унинг маданий мероси билан боғлиқдир, яъни аждод ларидан қолган маданий-маърифий мерослари билан ўлчанади. Шунинг учун ҳам буюк аждодларимиздан етук ва баркамол авлодни етиштириш мақсадида юзлаб асарлар қолдирганликларининг моҳияти ҳам шундадир. Бироқ босқинчилик йўли билан ўзга юртни эгаллаб олган давлатлар эса маҳаллий халқни ўзларига сўзсиз буйсундириш мақсадида уларнинг маданий меросини йўқ қилишга ҳаракат қилганлар. Жумладан, большевиклар томонидан бундай ҳаракатларни ўтган асрнинг 20-30 йилларида бизнинг юртимизда ҳам амалга оширган эдилар.

Совет иттифоқи Туркистон сўнгра эса Ўзбекистон Республикасида ўзбек халқининг миллийлиги йўқотиш, умуман, маданиятига нисбатан ўта агрессив сиёсат олиб борган эдилар. Бундай холатларни ўша вақтдаги даврий матбуот саҳифаларидаги материаллар орқали ўрганиш имкониятига эга бўлиш мумкин. Коммунистик тузумнинг Ўзбекистон Республикасидаги маданий жараёнларга нисбатан олиб борган сиёсатини беш йўналиш бўйича тахлил этамиз:

1.Моддий ва маданий мерослар. Асори-атиқалар холати ва уларга бўлган муносабат масаласида;

2.Буюк алломаларга муносабат масаласининг ёритилишида;

3.“Маданий инқилоб” тушунчаси ва унга муносабат масаланинг даврий матбуотда ёритилишида;

4.Адабиёт, санъат, қироатхонлик, мусиқа маданиятларининг даврий матбуотда ёритилишида;

5.Миллий зиёлилар, жадидлар ва маҳаллий кадрлар фаолиятига муно сабат масаласида.

Шу ўринда Туркистондаги жадидчилик ҳаракатига оид баъзи манбаларга мурожаат қиламиз.

“Бухорода 64 та мактаб очилган бўлиб, шундан 53 таси ўзбек мактаблари[I]” эди. Усули жадид – мактабларнинг бошланғичи бўлиб, 1893 йилда Исмоилбек Ғаспринский ташвиқоти билан дастлаб Самарқандда очилади. Бироқ ушбу мактаб 40 кундан ортиқ яшалмасдан хукумат томонидан ёпилади. 1898 йилда Туқмоқда ҳам жадид мактаби очилди. 1899 йилда Тошкентда Маннон Қори мактаб очади. 1901 йил февраль ойида ички Русиядан Салоҳиддин Мажидий келиб Қўқонда мактаб очади. Шу йили апрель ойида Самарқандда Абдуқодир Шакурий ҳам мактаб очди. 1903 йилда Самарқандда Беҳбудийнинг фаолияти билан Хожи Муин Шакурий мактаблари очилади. Шу пайтларда Хоразм ва Бухорода ҳам янгилик ҳаракатлари бошланиб, усул жадид мактаблари таъсис этила бошлади. 1904 йилда Тошкентда Мунаввар Қори ва Абдулла Авлонийлар томонидан ҳам мактаблар очилади. Бу мактаблар ўзларининг амалий фойдасини кўрсатди. Охранка маълумотларига қараганда 1912 йилда Тошкентда 12та, Қўқонда 16та усул жадид мактаблари бор эди.1917 йил бошларига келиб жадид мактабларининг сони 104тага етган” [II] лиги тўғриси даги маълумотларни учратиш мумкин. Ушбу жараёнлар миллий зиёлилари мизнинг ҳаракатлари туфайли Туркистонда янгиланиш сари қилинаётган ишларнинг самара ларининг натижалари эди.

Бироқ, большевиклар Ўзбекистон бошқарувини тўлиқ ўз қўлларига олгач усул-жадид мактабларининг тугатилишига, миллий зиёлилар, жадидларнинг қатағон қилинишига олиб келади.

“Шўролар иттифоқининг орқада қолган ўлкаларида давом этган ва чет ўлкаларда ҳам таъсир кўрсатган маданий инқилоблардан энг буюк инқилоб, Ленин тарафидан 1922 йилдаёқ белгиланиб ўтилган лотин имлосидаги янги алифбени араб алифбосига нисбатан қарши қўйилиб, оммавий, инқилобий тажриба касб этди. Шўролар Озарбайжонда 1922 йилдан бошлаб лотинлаш тириш ишига киришди. Унинг орқасидан Туркия ҳам қолишмади. Лотинлаш тириш Шарқ халқларини яқинлаштириш йўлида жуда катта қадамдир. Ленин янги алифбе ҳаракатини “Шарқда буюк инқилобдир”,- деб тақлид қилиб ўтган эди. Янги алифбе шўролар иттифоқи халқлари ўртасида жуда қисқа муддат ичида (1922 йилдан бошлаб) ниҳоят

катта ғалаба қозониб, ютуқларга эришаётибди. [III]", деб ёзган эди бокулик жамоат арбоби Оғамали.

Ўзбекистон Республикаси янги алифбе Марказий Қўмитасининг раиси Й. Охунбобоев ўз мақоласида шундай ёзади: "Бизда янги алифбега кучиш масаласи баъзи бир ўртоқлар томонидан 1921 йил Тошкентда, 1924 йилда Хоразмда қўзғатилган эди. Бироқ бу вақтларда янги алифбонинг аҳамиятини тушунган ўртоқлар оз бўлди. Иккинчидан, кечираётган сиёсий аҳволимиз эса бошқача бўлган. 1926 йили Бокуда бўлган Туркиёт қурултойи янги алифбени қабул қилиш қарорини Ўзбекистонда ҳам янги алифбега кучиш ишининг амалий равишда бошланишига сабаб бўлди. Ушбу қурултойдан кейин Ўзбекистон Марказий Ижроия Қўмитаси олдида ўзбек янги алифбе Марказий Қўмитаси ташкил қилинди. Янги алифбе лойиҳаларини тузиш ишига киришди ва маҳаллаларда янги алифбе қўмиталарини тузиш учун расмий буйруқлар берилди. 1927 йил ёз ойида маҳсус янги алифбе ишчиларини тайёрлаш ва савод чиқариш курслари ташкил қилинди. 1928 йил январь ойидаги иттифоқ ҳукуматининг янги алифбо Марказий Қўмитасининг Тошкент шаҳрида бўлган иккинчи ва шу йилнинг март ойида бўлган учинчи сессиясидан кейин янги алифбе ишлари оммавий тус ола бошлади. Статистик маълумотларга кўра ҳозирда жумҳурият миқёсида янги алифбе саводлилари жами 76,643 нафар ҳисобланади[IV]",- деб ёзган эди.

Шокир Сулаймон ҳам ўз мақоласида: "Март ойининг ўрталарида бўлиб ўтган Ўзбекистон янги алифбе Марказқўмининг биринчи пленумида лотинлаштириш ҳаракатларини ютуқларимиз сифатида қарши олганлиги таъкидланди. Пленум бир овоздан араб алифбосига тантанали фотиҳа ўқиб, янги алифбони турмушга тадбиқ этиш масаласига киришганлигини таъкидлаб ўтган эди. Маориф комиссари Маннон Рамзнинг "Ўзбекистонда лотинлаш тириш ишлари ва келгуси вазифалар" деган муҳим ва жонли маърузаси пленумда марказий ва асосий ўринни олди. Расмий декрет чиқиши билан бутун муассасалар янги алифбони давлат алифбоси деб таниб, уни борлиққа чиқаришга бор куч қувватларини сарф қилишлари керак[V]",-деб ёзган эди.

Ўтган асрнинг 20–30-йилларда Ўзбекистондаги сиёсий қатағонлар бутун жамиятни қамраб олди. Бу сиёсат нафақат диндорлар, мулкдор бойлар, балки советлар томонидан амалга оширилаётган тадбирларга қарши чиққан деб топилган барча-барча табақа аҳлига нисбатан қўлланилган эди. Шундан келиб чиқиб, қатағонлар Ўзбекистонда оммавий тарзда амалга оширилганлигини кўрсатади. Қатағонга учрамаган ҳеч бир соҳа, ҳеч бир ижтимоий қатлам кишиси қолмаганди. Совет мафкуравий тизими республикада ўз босимини янада кучайтириш мақсадида сунъий тарзда "зараркунанда", "халқ душмани", "муштумзўр", "чет эл агенти" ва бошқа иборалар билан маҳаллий халқ вакилларини бадном қилишга қаратилган сиёсат олиб бордилар. Натижада, ушбу даврда халқимизнинг асл фарзандлари турли хил асоссиз айб ва туҳматлар билан ўзи яшаб турган хонадонидан узоқ ўлкалар, Украина, Қозоғистон, шунингдек, Россиянинг олис ўлкаларига сургун қилинишига ёки отиб ташланишига сабаб бўлган эди.

"Октябрь тунтариши жадидларни аксилинқилобчилар лагерига ўтказиб юборди. Шундан сўнг жадидларни "босмачилар"га раҳбар кадрлар етиштираётганликда, Қўқон автономиясининг тузишда ва совет ҳукуматига қарши кадрлар етиштиришда" [VI] айблаб, уларга нисбатан нотўғри маълумотлар тарқатила бошлайдилар. Аҳолини ҳаракатга келтирувчи куч ҳисобланган жадидларга эътибор қаратилиб, уларнинг халқ орасидаги обрўсини тушириш мақсадида, гўё жадидлар Туркистон мухторияти ва қаршилик ҳаракатларига кадрлар тайёрлаб берадиган куч сифатида кўрсатилиб, кейинчалик уларнинг қатағон қилинишларига сабаб бўлди.

Маданий инқилоб газетасида М.Маҳсумов билан Ишчановлар ҳамкорлигидаги мақоласида Нури Алимовни қоралашга қаратилган бўлиб, унда Нури Алимов, гўё А.Қодирий ва Усмон Носирларни "ўзбек совет ёзувчиларининг энг яхши устозлари" деб мақтаган деган. "Ҳозир Нури Алимов 2 йиллик ўқитувчилар институтида дарс бериб келмоқда. Халқ душмани Абдуллаевнинг синглиси Баҳри Абдуллаева, Файзулла Хўжаевнинг қариндоши Муборак Хўжаева ва Қ.Беригиннинг жияни Бобожоновлар эса ҳеч нарса кўрмагандек бемалол ўқиб

келмоқдалар. Кишини шуниси ғазаблантирадики, институт кутубхонасида ҳозиргача Абдулла Қодирийнинг асари, Чўлпоннинг таржима қилган асарлари ва Қурбон Беригиннинг таҳрири остида чиққан "Совет адабиёти" журналининг 5-сони сақланиб келмоқда. Бундай мафкурамизга ёт бўлган китоблардан бир қанчасини топиш мумкин" [VII], деган фикрларни илгари суриб, бу билан нафақат тухматлар туфайли ноҳақ айбланган зиёлиларнинг, балки уларнинг оила аъзолари ва қариндош-уруғларининг ҳаётларига ҳам раҳна сола бошлайдилар.

"Миллатчи С.Зуфарийнинг хотини Муборак Сиддиқова эрининг фош қилинганидан кейин ҳам уни "оқлаш" учун идорама-идора югурмоқда. Ҳатто, эри сургун қилинган жойга ҳам борди. Шуни ўзи бу аёлни ҳам қандай қилиб эри билан алоқада эмас, деб бўлади. Ахир очиқ кўриниб турибдику, Муборак халқ душмани бўлган эрининг энг яқин фикрдоши ва ғамхўри ҳисобланади. Муборак Сиддиқова ишлаб турган Свердлов номли мактабдаги комсомол ўқитувчилари унинг бу ярамасликларини фош қилиб, уни ўз сафидан ҳайдашлари" [VIII] керак, деб ёзган эди.

Юқоридаги келтирилган манбалардан кўриниб турибдики, большевиклар тузган коммунистик режим Ўзбекистонда ўта дахшатли қатағончилик сиёсатини олиб борганлигини кўрсатади. Мана шундай мудҳиш воқеаларнинг такрорланмасликлари учун биз доимо огоҳ бўлишимиз, билимдон бўлишимиз ва бир-бирларимизни қуллаб-қўвватлашимиз даркор. Ана шундагина миллати миз яшайди, давлатчилигимиз абадий бўлади.

ФОЙДАЛАНГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон жумҳуриятида мактаб ишлари.//Қизил Ўзбекистон.1924й. 5 дек. №1(412)

2.М.Ғиёсов.Туркистонда усули жадид мактабларининг туғилиши ва унинг тарқа лиши.//Коммунист.1928.№.8. Б.55-64.

3. Маданий инқилоб ва янги алифбе.// Маориф ва ўқитувчи. 1928. №12. Б.7-12.

4. Й.Охунбобоев.Ўзбекистонда янги алифбо.//Аланга.1928. №12. Б.6-7.

5. Ш.Сулаймон. Янги алифбе марказқўми пленуминиг якунлари.//Маориф ва ўқитувчи.1928. №4.

6. Жадидларнинг аксилинқилобий моҳиятини бутунлай фош қилиб ташлайлик // Маданий инқилоб . – 1935. – №4.

7. Институт душман унсурлардан тамом поклансин // Маданий инқилоб. – 1937. – № 89 (331).

8. Тулаганов паноҳида душманлар // Маданий инқилоб. – 1937. – № 89(331).

УЎК 930.85

АМИР ТЕМУР – АДОЛАТ ВА ҚУДРАТ ТИМСОЛИ

Р.Р. Нуркулова, доц., Жиззах давлат педагогика университети, Жиззах

Аннотация. *Мақолада Собиқ Шўролар даврида Амир Темурга бўлган муносабат,Ўзбекистон мустақиллиги ва Амир Темурнинг тарихимиздаги ўрни ва ролининг тикланиши, Соҳибқироннинг марказлашган давлатга асос солиш, давлат бошқаруви, адолат мезонига қаттиқ риоя қилиш, бу даврда давлатнинг моддий ва маданий жиҳатдан тараққиёти, давлатлараро ўзаро алоқалар кабилар ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Шўролар даври, Амир Темур, марказлашган давлат, давлат бошқарув, "куч адолатда", "Темур тузуклари", тарихий манбалар, Амир Темур салтанати, давлатлараро муносабатлар, Амир Темур "Европа халоскори".*

Аннотация. *В данной научной статьи рассказывается о создание Амирем Темуром централизованного государства, государственном управлении, об отношениях с европейским странами а также о материальном и культурном развитии государства Амира Темура и его великих заслугах перед Родиной и народом.*

Ключевые слова: *Независимость. Амир Темур. Централизованное государство, «Сила в справедливости», «Уложение Темура», исторические источники, империя Амира Темура. Амир Темур и европейские государства, Государственные управление.*

Abstract: *The article covers the attitude towards Amir Temur during the former Soviet era, the independence of Uzbekistan and the restoration of Amir Temur's place and role in our history, Sahibkiran's founding of a centralized state, state governance, strict adherence to the criteria of justice, the material and cultural development of the state during this period, and interstate relations.*

Key words: *The era of the Soviets, Amir Temur, centralized state, state administration, "power is justice", "Temur's laws", marish sources, Amir Temur's reign, interstate relations, Amir Temur "liberator of Europe".*

Мустақиллик – энг аввало, халқимизга муқаддас қадриятларимизни, бой маънавий-маданий ўтмиш меросимизни, шулар қаторида буюк тарихий сиймо Соҳибқирон Амир Темур ҳақидаги ҳақиқатни қайтаргани билан ниҳоятда азиздир. Соҳибқирон амир Темур қолдирган бой тарих миллий ғуруримиз ва ифтихоримизга туганмас куч-қудрат бағишлайди.

Шўролар замонида бу буюк зотни "босқинчи ва вайронкорга чиқариб, унинг шахсига нисбатан самимий ҳурмат эмас, балки нафрат уйғотишга ҳаракат қилишди. Амир Темур ҳақида тарихий ҳақиқатни ёзган олимларимиз эса таъқиб ва танқид қилинди".

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.Мирзиёев айтганларидек, "Агар ҳар бир халқ, ҳар бир давлат мустақил бўлмаса, бошқалар унинг нафақат деҳқонини, нафақат ишчисини, ҳаттоки шоиру олимини ҳам, давлат арбобини ҳам, истаганича таҳқирлаши, инсоний шаънини тупроққа қориши мумкин экан.[1]"

Дарҳақиқат, собиқ шўролар даврида халқимиз бундай таҳқирлашларни кўплаб ўз бошидан кечиришга мажбур бўлди.

Истиқлол туфайлигина, Амир Темур сиймоси ҳам ўзбек халқининг тимсолига, унинг фахри ва ғурурига айланди.

Энг аввало, буюк давлат арбоби, марказлашган давлат асосчиси, қонунчилик ва адолатга таянган ҳукмдор эди. Буюк давлат арбоби машҳур саркарда сифатида етти иқлимда тан олинган эди.

Шуни айтиш жоизки, Амир Темурни ўз давридаги замоннинг талаб ва эҳтиёжлари сиёсий кураш майдонига олиб кирди, ҳамда унинг барча мақсадларини рўёбга чиқаришга замин тайёрлади.

Амир Темур юртни мўғуллардан озод қилиш, феодал тарқоқлик ва ўзаро низо-жанжалларга барҳам бериб, Мовароуннаҳрда марказлашган давлат барпо қилиш мақсадини амалга оширишга киришди.

Амир Темурнинг бу буюк мақсадини амалга оширишга Балх амири бўлган хасадгўй Хусайн тўхтовсиз тўсқинлик қилди.

Шу боис, Амир Темур 1370 йилнинг баҳорида унга қарши – Балхга қўшин тортиб боришга мажбур бўлди ва уни тор-мор келтирди.

Амир Темурнинг юксак инсоний фазилатларидан бири, унинг кечиримлилиги эди. Бу ҳақда тарихчи Ш.А. Яздий "Зафарнома"да шундай ёзади: "Соҳибқирон амирларига қараб, мен унинг қонидан кечганман, ундан интиқом олиш тарихига чизиқ тортганман"[2] – деб жавоб беради.

Чунончи, амир Кайнусров акомининг хунини талаб қилиб, амир Ҳусайндан ўч олишни сўраб: "... уни менга топширинг ва ундан шариат ҳукми бўйича қасос олайин"[3] –деб Соҳибқирондан илтимос қилади.

Ҳазрат Соҳибқирон эса Кайхусравга таскин бериб, "Сен бу даъвойингдан воз кечгил, сенинг биродарингнинг қони шундоқ ҳам уни тинч қўймайди"[3] – деб уни қайтаришга уринади.

Кўринадики, Соҳибқирон юксак инсоний фазилатлар соҳиби эди.

Унинг "Давлат ишларини тўққиз улушини кенгаш, тадбир ва машварат, қолган бир улушини қилич билан амалга оширдим"[4], — деган сўзлари бунинг ёрқин исботидир. Соҳибқирон умрининг мазмунини "Миллатнинг дардига дармон бўлишга" бағишлади.

Соҳибқирон ўзининг жаҳонгирлик юришлари натижасида улкан салтанатга асос солди. Салтанат таркибидаги юртларни, айрим ҳудудларни ўз фарзандлари, набираларига суюрғол мулк қилиб, бўлиб берди. Аммо ўз салтанатининг юраги Мовароуннаҳрни ҳеч кимга мулк қилиб бермади. Амир Темур Ватан муқаддаслиги, ягоналиги ва бутунлигини кўз қорачиғидек асради. Бу эса Соҳибқироннинг ўз она юртига бўлган фарзандлик муҳаббати, ҳақиқий ватанпарварлигининг намунаси эди.

Амир Темур ички ва ташқи сиёсий ўз давлатини иқтисодий, сиёсий ва маданий жиҳатдан юқори поғонага кўрсатишга қаратилди.

Соҳибқироннинг мақсади – "Мамлакатда адолат ўрнатиш, тартиб ва тинчликни мустаҳкамлаш, фуқаронинг турмушини яхшилаш, қурилишни кучайтириш, давлатни ривожлантириш" [1]дан иборат эди.

Амир Темур ўзининг бутун фаолиятини шу мақсадларни амалга оширишга қаратди.

Амир Темурнинг буюк хизматларидан бири шундаки, ўша даврда бирорта Европа давлатлари ўз Конституцияларига эга бўлмаганида, Соҳибқирон эса ўз давлатини қонунлар тўплами бўлмиш "Тузуклар" асосида бошқарди.

Амир Темур "Тузуклари"да "Давлат ишларини салтанат қонун-қоидаларига асосланган ҳолда бошқардим. Тура ва тузукка таяниб, салтанатда ўз мартаба ва мақомимни мустаҳкам сақлаб турдим"[3] ... "Мен ўз салтанатим биносини дину ислом, тура ва тузук асосида мустаҳкамладим"[3] – деб ёзади.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, барча ижтимоий табақалар фаолияти ва манфаатларини ҳисобга олиш шарти давлатчилик асосларига Амир Темур томонидан қўйилган янги негиз бўлиб, моҳиятан Соҳибқирон қонунчиликнинг бош йўналишини ташкил этади.

Амир Темур давлатида оддий халқнинг арздоди, шикоятларига жиддий эътибор берилган. Шу мақсадда арзбеги лавозими таъсис этилган. Бу ҳақда Соҳибқирон шундай ёзади: "Ҳукм қилдимки, бир кишини арзбеги қилиб тайинласинлар. У сипоҳ, раият ва арз-дод қилиб ҳузуримга келувчиларни аҳволини, мамлакатнинг обод-ҳароблигини, муҳим ишлардан, қайси битган-битмаганлигини менинг ҳузуримга етказиб турсин".[3]

Амир Темур давлат сиёсатининг яна энг муҳим ибратли томонларидан бири- ўз даврида ҳеч бир давлатда бўлмаган ва тарихда камдан-кам учрайдиган лавозим – "Адолат" амири лавозимининг таъсис этилганлиги эди.

Бу лавозим мавқейи бўйича вазир даражасида бўлиб, ҳар бир эл ва ҳар бир шаҳарда сипоҳ ва раиятга доир низоли масалаларни адолатли, тинч йўл билан ҳал қилиш билан шуғулланар эди.

Амир Темур "Тузуклари"да "Ҳар мамлакатда адолат эшигини очдим, зулму-ситам йўлини тўсдим"[3] – деб ёзади. Соҳибқирон ўз фарзандлари ва набираларидан ҳам қонун, адолат ва ҳақиқатга риоя қилишни қаттиқ талаб қилган.

Амир Темур давлатида ўғрилик ва қароқчилик қаттиқ тозаланган. Бу тўғрида Соҳибқирон "... ўғри ва қароқчиларни "Ёсо" асосида жазоласинлар, фасадчи, бузуқи, нафси ёмон кишиларни мамлакатдан ҳайдасинлар"[3] – деб буюради.

Амир Темур ўз салтанатида қонунга риоя қилмай, адолат ва диёнатни унутган, ўз мансабини суистеъмол қилган, давлат мулкига хиёнат қилган амалдорларни аямаган, қаттиқ тозалаган.

Чунончи, ўз салтанатида гадоларнинг еб-ичишлари ва ишбилан таъминлашга муҳим эътибор қаратган, гадоликни тугатиш чораларини кўрган. Бу ҳақда "Тузуклар"да "... ҳар мамлакатнинг гадоларига вазифа юклаб, иш берсинлар, токи шу йўл билан гадолик расми йўқолсин"[5], "... ҳар бар мамлакат фатҳ этилгач, у ернинг гадоларини тўплаб, кундалик емиш-ичишларини бериб, уларга бирор вазифа белгиласинлар ҳамда барчасини тамғаласинлар, токи бошқа гадолик қилмасинлар. Агар тамғадан кейин ҳам гадолик қилгудек бўлсалар, уларни узоқ мамлакатларга сотиб юборсинлар ёки ҳайдасинлар. Шундагина гадо зоти мамлакатдан йўқолади"[2] – деб ёзади.

Мамлакат пойтахти Самарқанд Амир Темур даврида гўзал ва обод, ер юзининг шаҳрига айланди. Тарихчи Ш.А.Яздий Зафарномада ёзганидек "... ул динпарвар жаҳондорнинг ҳукмронлиги ва адолатли бахтига ўта ободлигидан, аҳоли ва яшовчиларнинг кўплигидан, дунёнинг атроф ва чеккаларидан келиб-кетувчиларнинг серқатновлигидан шу даражага етдики, унинг овозасидан шуҳрати Мисрни ортда қолдирди"[5].

Амир Темур даври тарихчиси Ибн Арабшоҳ ҳам ўзининг "Амир Темур тарихи" асарида: "Темур Самарқандда кўпдан-кўп боғу-бўстонлар барпо қилиб, баланд ва мустаҳкам қасрлар

бунёд этди. Улардан бирини Эрам боғи, иккинчисини Дунё зийнати, яна бошқасини Фирдавс жаннати, унисини Шамол боғи, бошқасини Олий жаннат",[3] — деб номлаганини ёзади.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев "Амир Темур Самарқандни буюк салтанатининг пойтахти қилиб, уни жаҳондаги энг қудратли ва обод шаҳарлардан бирига айлантирди",[1] — деб таъкидлайдилар.

Дарҳақиқат, Амир Темур давлат ишлари, унинг пойтахти Самарқанд ҳам дунёда машҳур бўлди.

Ўша даврда Испаниядан Амир Темур давлатига элчи бўлиб келган Р.Г.де Клавихо ҳам ўз "Кундаликлари"да: "Бу юрт дон-дун, мева-чева, парранда гўшти (бошқа) бошқа ҳар хил гўшт маҳсулотлари, қўйингки ҳамма нарсага бой мамлакатдир"[7] – деб ёзади.

Кўринадики, мамлакат бозорларининг ободлиги, нарх-навонинг арзонлиги, турли маҳсулотларнинг мўл-кўллиги, Амир Темур давлатининг иқтисодий жиҳатдан юксак тараққиётидан далолат беради.

Соҳибқирон Тўхтамишхонни тор-мор келтириб, ўз мамлакатининг хавфсизлигини таъминлабгина қолмай, балки рус халқининг мустақилликка эришувида катта хизмат кўрсатди.

Амир Темур Турк султони Боязид устидан қозонган ғалабаси билан Европа халқлари учун халоскорлик вазифасини бажарди. Ўша даврда бутун Европа буюк Соҳибқиронга миннатдорчилик билдирди, унинг рамзи сифатида Парижда олтиндан бюсти ясалиб, музейларда намойиш қилишди.

Амир Темурнинг ғалабалари унинг шахсининг обрўсини кўтариб, давлатнинг нуфузини оширди.

Соҳибқирон узоқни кўра оладиган донишманд ҳукмдор эди. Амир Темур ўз давлатининг тараққиёти учун, давлатлараро ўзаро ҳамкорликка асосий эътибор берди.

Шу боис, Испания, Англия, Франция, Италия каби давлатлар билан ўзаро алоқалар ўрнатилди. Бу борада Европа ва Осиёни ўзаро боғлашга хизмат қиладиган улкан ишларни амалга оширди.

Мухтасар қилиб айтганимизда, Амир Темур ўзининг буюк давлат арбоблик, машҳур саркардалик, салоҳияти билан ўз ватанининг шон-шуҳрати ва қудратини оламаро тараннум этди. Зеро Амир Темур қурдирган кўплаб осмонўпар гўзал бетакрор тарихий меъморий обидалар ҳам Соҳибқирон давлатининг қудратидан далолат бериб, ҳозиргача инсониятни ўз салобати, кўрки ва жилоси билан лол қолдириб келмоқда.

Тарихчи ибн Арабшоҳ ёзганидек Амир Темур ўз замонасидаёқ "Етти иқлим ҳукмдори, еру сувни идора қиладиган (зот) подшоҳлару султонлар жавоҳири"[3] – деб тан олинган эди.

Кейинги йилларда республикамиз Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев раҳнамолигида барча соҳаларда амалга оширишда Ўзбекистон тараққиётида янги Ўзбекистон даври бошланди.

Бу Соҳибқирон Амир Темур орзуларининг рўёбга чиққанлигидир.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: "Ўзбекистон", 2017.

2. Асқаров А. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида тарих фанининг вазифалари: (Ўзбекистон ижтимоий фанлар) 1992. №7,8.

3.Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. I ва II жилдлар. –Тошкент.: "Меҳнат", 1994.

4. Н.Шомий. Зафарнома. –Т.: "Ўзбекистон", 1996.

5. Ш.А.Яздий. Зафарнома. Т.: "Камалак", 1996.

6. Темур тузуклари. –Т.: "Ғ.Ғулом" нашриёти, 1993.

7. Р.Г. де Клавико. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. (1403-1406 йиллар) -Т.: "Ўзбекистон", 2016.

УЎК 902

ТУПРОҚҚАЛЪАДА АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР НАТИЖАЛАРИ

С. Уринбоева, магистрант, Урганч Давлат Университети, Урганч

Аннотация. *Мақолада Амударё ўнг соҳили ҳудудида Тупроққалада олиб борилган археологик изланишлар натижалари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *Баратов П, Маматқулов М, Рафиқов А, Акулов В.В. Андрианов Б.В, Толстов С.П., Неразик Е.Е, Рапопорт Ю.А, Гертман А.Н, Лохавиц, Хоразм, Сариқамиш, Беруний, Тупроққалъа.*

Аннотация. *В статье анализирован результаты исследования на Тупракалье на территории правом бережья Амударьи.*

Ключевые слова*: Баратов П, Маматкулов М, Рафиков А, Акулов В.В, Андрианов Б.В, Толстов С.П, Неразик Е.Е, Рапопорт Ю.А, Гертман А.Н, Лохавиц В.А. Хорезм, Сарыкамыш, Беруни, Тупраккалъа.*

Abstract*. The article analyzes the results of archaeological research conducted in the Tuproqqal'a area on the right bank of the Amu Darya region.*

Key words*: Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov A., Akulov V.V., Andrianov B.V., Tolstov S.P., Nerazik Ye.Ye., Rapoport Yu.A., Gertman A.N., Lokhavits, Khorezm, Sariqamish, Beruniy, Tuproqqal'a.*

Кириш. Мазкур мақолада Амударё ўнг соҳили ҳудудида Хоразм экспедицияси ходимлари томонидан ўтроқ зироаткор аҳоли томонидан бунёд қилинган Тупроққалъада олиб борган қазишма ишлари натижалари ёритилган.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. География фани ютуқларига кўра, бундан 25-10 миллион йиллар Қизилқум ва Сариқамиш Узбой ҳудудлари текислик бўлган [1].

Тарихий маълумотларга кўра, ҳозирги Қорақалпоғистон республикаси, Хоразм вилояти ҳамда Тошҳовуз вилояти жойлашган текислик 4,5 млн гектарни ташкил қилган. Шундан 2 миллион гектари аҳоли томонидан ўзлаштирилиб, турар-жойларни бунёд қилиб, Амударёдан суғориш иншоотларини чиқариб, уларни боши, ўртаси ва охирида турар-жойларни қуриб, обод ва Гулшан диёрга айлантирган [2]. Б.В. Андрианов хулосасига кўра, Шўрохон ва Султон Увайс тоғи оралиғи 160 минг гектар аҳоли учун экин-текинлик қилишига қулай бўлган [3].

1946 йилдан Хоразм археология-этнография экспедицияси Тупроққалада 1500м^2, шарқий ва жанубий ҳудудида 30 та уй-хонаси қолдиқлари ўрганилди. Мазкур ҳудудда ёдгорлик сарой жойлашган. Уй-хоналаридан олинган ашёлар милодий III асрга тегишли бўлган [4]. Кези келганда, қайд қилиш керак бўладики ўтган асрнинг 70 йиллари бошидан охиригача узлуксиз қазишма ишлари Тупроққалъада олиб борилган. Хусусан, Е.Е.Неразик 1972-1978 йилларда Хоразм экспедицияси ходимлари Беруний ҳудудида текисликда ўтроқ зироаткор аҳолини хунарманд-муҳандис вакиллари томонидан бунёд қилинган Тупроққалъада олиб борган қазишма ишлари натижасида олинган манбаларни турли нашрларда акс эттирганлар [5,6,7,8]. Тупроққалъада олиб борилган археологик изланишлар натижаларига кўра, ёдгорликнинг топографик жойлашиши тўғрибурчак-500х350 м, ички географик манзараси-17,5 га. Тўрт томони икки қаторли пахса ва квадрат ғиштдан тикланган мудофаа девор билан ўраб олинган, уларнинг сақланиб қолиши турлича-2-8м. Шимоли-ғарбий бурчагида жойлашган арк девор баландлиги-14 м. Ташқи девор ён қисми бўйлаб тўғрибурчак, деворлар бурчакларида квадрат буржлар меъморий услубни намоён қилган. Ташқи девор қолишмаган 2,20 см- ички эса 1,20 см. Ёдгорлик археологик жиҳатидан ўрганилиши натижасида олинган манбалар милодий III асрларга оид бўлган [9].



Амударё ўнг соҳили ҳажми жиҳатидан Бозорқала (31 га), (Катта Гульдурсун -31 га) каби Тупроққала 17,5 га миқдорий жиҳатидан катта ҳажмли маданий-хўжалик микровохалари марказларидан бири бўлиб, маъмурий-ҳудудий ва савдо-ҳунармандчилик вазифаларни антик давр сўнгги босқичида бажарганлигини археологик изланишлар натижасида далолат беради.

Тадқиқот методологияси қуйидагича: Илмий – холислик, тарихий-таҳлил, назарий-қиёсий таҳлил, умумлаштириш, мантиқий хулоса Археология, геология, этнография ва география фанлари ютуқларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Хоразм археология – этнография экспедициясининг аждодларимизнинг бинокорлик билими асосида бунёд қилинган Тупроққалъани археологик жиҳатидан ўрганилиш натижалари ёритилган.

Натижалар қуйидагича мазмунга эга бўлди:

Тупроққалада Хоразм экспедициясини кенг қамровли равишда олиб борган археологик тадқиқотлари натижасида антик даври сўнгги босқичида кечган тарихини ёритадиган натижаларга эришилган.

-Тупроққала саройида археологик жиҳатидан 30 уй-хоналаридан олинган ноёб манбалар Хоразм воҳаси, шу жумладан Ўрта Осиё антик давр сўнгги босқичида кечган тарихи жараёнларни ўрганишда муҳим илмий аҳамият касб этди.

Таклифлар қуйидаги мазмунга эга бўлди:

-Тупроққала географик жойлашиши жиҳатидан катта ҳажмли шаҳарлар қаторидан ўрин олди.

-Тупроққала саройи уй-хоналаридан олинган ноёб манбалар (деворий ранг-баранг тасвирлар, архив материаллари, тангалар, маънавий ашёлар).

Хоразм воҳаси антик дунё сўнгги босқичи-бой хазинани ўрганиш давр талаби.

-Тупроққала ёдгорлигига талабалар, магистрантлар ва мактаб ўқувчиларни сайёҳлик экспедициялар ташкил қилиш;

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Баратов П, Маматқулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси-Тошкент,:Фан, 2002-Б. 283.

2.Акулов В.В. Некоторые данные о дельте Амударьи //Изв. ВГО Узбекск филиал-Ташкент, 1957. Т. III – С. 42).

3.Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья-М.: Наука, 1969-С.98.

4.Толстов С.П.Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция Академии наук СССР (1945-1948 гг). //ТрХАЭЭ-М.:Наука, 1952.Т. 1-С. 31-46.

5.Неразик Е.Е. Раскопки городища Топраккала //КСИА-М.:Наука, 1972-№ 132-С. 22-23.

6.Неразик Е.Е. Раскопки городища Топраккала //АО 1974-М.:Наука, 1975-С. 508-509.

7.Рапопорт Ю.А. Гертман А.Н. Работы на Топраккале //АО 1976-М.:Наука 1977-С.539-540.

8.Лохавиц В.А, Рапопорт Ю.А. Раскопки на Топраккалье //АО 1978-М.:Наука, 1979-С. 555-556.

9.Городище Топрак-кала-М.:Наука 1981. Т.-XII- С. II рис 2.

УЎК:9(575.1)

1920-1930 ЙИЛЛАРДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ССР ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА АМАЛГА ОШИРГАН "ТОЗАЛОВ" СИЁСАТИ

С.А. Хошимов, проф., т.ф.д., Андижон давлат университети, Андижон
Ш. Нажимидинова, таянч докторант, Андижон давлат университети, Андижон

Аннотация. *Мақолада совет ҳокимиятининг 1920-1930 йилларда Ўзбекистон ССР олий таълим тизимида амалга оширган "тозалов" сиёсати ва унинг аянчли оқибатлари тарихи бирламчи манбалар асосида ёритилган.*

Калит сўзлар: *"тозалов", қатағон, большевиклар, институт, университет, олий таълим, талаба, курс, профессор-ўқитувчи, четлатиш.*

Аннотация. *В статье описывается история политики "чистки"советских властей в 1920-1930 годах в системе высшего образования и ее трагические последствия на основе первичных источников.*

Ключевые слова: *«чистка», репрессии, большевики, институт, университет, высшее образование, студент, курс, профессор-преподаватель, отчисление.*

Abstract. *The article describes the history of the "purgeout" policy implemented by the Soviet government in the higher education system of the Uzbek SSR in the 1920-1930s and its tragic consequences based on primary sources.*

Key words: *"purgeout", repression, Bolsheviks, institute, university, higher education, student, course, professor-teacher, expulsion.*

XX асрнинг 20-30-йилларида Ўзбекистонда совет тоталитар тартиботининг мустаҳкамланиши жараёнида амалга оширган қатағон сиёсати нафақат мактаб, ўрта-махсус таълим ходимларини, олий таълим соҳасидаги профессор-ўқитувчилар ҳамда талабаларни ҳам четлаб ўтмади. Бу борада большевиклар даставвалида 1918 йил 21 апрелда Тошкент шаҳрида очилган Туркистон халқ университети фаолияти, унинг раҳбарияти ҳамда профессор-ўқитувчилари таркибини "ёт унсурлар"дан ташкил топган, деб шу йилнинг кузидаёқ ёпиб қўйди.

1918 йил кузида Туркистон АССР Маориф халқ комиссарлиги томонидан Туркистон халқ университети раҳбарияти ҳамда профессор-ўқитувчилари таркибида "тозалов" ўтказилди ҳамда унинг таркиби "ёт унсурлардан тозаланиб", тузилиши ҳам қайта кўриб чиқилган, кўплаб профессор-ўқитувчилари университет фаолиятидан четлатилган эди [1.6-7]. Ундан сўнг ушбу университетнинг талаба ҳамда профессор-ўқитувчилари жамоаси 1919 йил январь ойидаги Осипов исёнидан сўнг яна бир бор коммунистик партия вакиллари ташаббусида "тозаловдан" ўтказилиб кўплаб ёшлар талабалар сафидан чиқарилди, шу билан бирга бу исёнга хайрихоҳ дея университетнинг кўплаб профессор-ўқитувчилари ҳам "ёт унсурлар" сифатида университетдан четлатилдилар [2.35].

1920-йилларда совет ҳокимияти олий маълумотли кадрларни тайёрлашдан кўзлаган мақсади нафақат халқ хўжалиги ва маданиятнинг турли соҳалари учун етук мутахассис кадрларни етиштириш, балки ўзларининг социалистик тузуми, коммунистик партия ишига содиқ бўлган, ўз мафкура ва ғояларига содиқ бўлган кадрларни тайёрлаб чиқариши керак эди. Бу борада ижтимоий ҳаётда ўзгача фикрлашга бўлган ҳар қандай уриниш "синфий душман қаршилиги" деб баҳоланганди. Гўё "синфий душман" таълимда, фанда, адабиёт ва санъатда, ишлаб чиқаришда мавжуд бўлиб, уни қидириб топиш, барчани шубҳа остига олиш, қатағон домига тортиш бирламчи вазифага айланган эди.

1922 йилдан совет ҳокимиятининг жазоловчи идораси бўлмиш ГПУ бошқармасида зиёлилар фаолиятини назорат қилиш бўйича алоҳида бўлим фаолият бошлаган эди. Бўлим барча соҳаларда ҳамда ҳокимият бўғинларида, таълим соҳасида фаолият кўрсатаётган зиёлилар тўғрисида маълумот тўпларди [3.20-21]. Шундай қилиб, совет ҳокимияти жамиятнинг илғор қатлами бўлган зиёлиларни фаолиятини ҳам назоратга олган эди. Шу даврдан Туркистонда тараққийпарварлар ва жадидчилик руҳида тарбияланган зиёлилар, жумладан, олий таълим соҳасида фаолият кўрсатаётган педагог ходимлар таъқиб остига олина бошланди. Уларнинг маърузалари, нашр эттирган дарслик ҳамда ўқув қўлланмалари, илмий-тадқиқот ишлари синчковлик билан кузатилди.

Совет ҳокимиятининг зиёли кадрларни тайёрлашда синфий жиҳатдан ишончли аҳолининг "меҳнаткаш" табақаларидан чиққан аҳоли вакилларини тарбиялаш, уларни жой-жойига қўйиш ва ўстириш асосий мақсад қилиб қўйилди. "Маданий инқилоб" "шаклан миллий, мазмунан социалистик маданияти"ни вужудга келтиришидан иборат эди. Кишининг қобилияти, маданий савияси ва маълумот даражаси эмас, балки ижтимоий келиб чиқиши асосий мезон қилиб олинди. ВКП(б) МҚ Ўрта Осиё бюроси раиси И.А.Зеленский халқ таълими бўйича 1928 йилда ўтказилган Ўрта Осиё кенгашида педагогика техникумида таҳсил олаётган талабалар бўйича қуйидаги маълумотларни келтирган: "Биз маданий соҳада ижтимоий келиб чиқиши жиҳатидан қуйидаги шахсларни тайёрладик: йирик савдогарларнинг фарзандлари 37 фоиз, майда ва ўрта савдогарларнинг фарзандлари 27 фоиз, қишлоқ бойлари фарзандлари 18 фоиз, деҳқон фарзандлари 9 фоиз, ҳунармандлар фарзандлари 9 фоиз [4.12]. Ўрта Осиё бюроси раиси Республика халқ таълими ва маданият соҳаларида тайёрланган мутахассисларнинг кўпчилиги "бегоналар", яъни ижтимоий ёт унсурлардан иборат бўлиб қолганлигини кескин танқид остига олганди. Бу табиийки, огоҳлантирувчи ишора бўлиб, маориф тизимида "тозалаш"га даъват эди.

1920-йилларнинг бошларидан олий ўқув юртлари талабаларининг "сиёсий софлиги"ни аниқловчи "Олий ўқув юртларини тозалаш бўйича марказий комиссия" фаолият кўрсатган. Ҳар бир олий ўқув юртида мазкур комиссиянинг органлари бўлиб, ушбу органлар талабалар қўмитаси (студком) деб аталган. Совет ҳокимияти талабларига жавоб бермайдиган, мулкдор

синфга тааллуқли бўлган талабаларни “фош” қилиш ва уларни олий ўқув юртларидан четлаштириш ушбу қўмитага юклатилган.

Пролетарлаштириш ишига советлар жон-жаҳди билан киришиб кетдики, ижтимоий келиб чиқиши шубҳа остига олинганларга нисбатан қатъий чоралар қўллана бошланди. Ўрта Осиё бюроси қарорларидан бирида ҳам “ўзининг ижтимоий аҳволи ва келиб чиқишини яширган талабаларни олий ўқув юртларидан четлаштириш” алоҳида таъкидланган эди [5.4].

XX асрнинг 20-30 йилларида олий таълим тизимида амалга оширилган “тозалов” тадбирлари натижасида Абдурауф Фитрат, Қайум Рамазон, Ғози Олим Юнусовлар Тошкент давлат педагогика институтидан, Отажонов Фарғона педагогика институтидан, Пўлат Солиев, Чўпон Зода, Рахимов, Бурнашев, Файзуллаевлар Ўзбек давлат университетидан, Мийон Бузруков Бухоро педагогика институтидан “халқ душмани”, “троцкийчилар”, “буржуа миллатчилари” деган айбловлар билан таълимдан четлаштирилган эди [6.128].

Совет ҳукумати таълимни пролетарлаштиришга катта “масъулият” билан ёндашган. Олий ўқув юртлари, ишчи факультети, касб-ҳунар билим юртларидаги талабаларни текшириш ва “тозалаш” ҳақида махсус кўрсатма берилиб, унда талабалар сафидан ўзининг ижтимоий келиб чиқишини яширганлар, совет ҳокимиятига душман синфга тааллуқли бўлганлар ва ота-оналари бой оилалар билан моддий ва мафкуравий алоқада бўлганлар, совет жамоатчилигига ёт мафкурани тарғиб қилаётганлар, келиб чиқишидан қатъий назар советларга қарши душманлик мафкурасини, миллатчилик ҳаракатларини олиб бораётганлар чиқариладиган бўлди [7.3].

1920-1930- йилларида совет ҳокимияти идоралари ҳамда коммунистик партия жамиятда синфий кураш тенденциясини майдонга ташлаб, жамиятни эзилувчи ҳамда эксплуатация қилувчи гуруҳларга ажратган ҳолда сиёсат олиб борди. Натижада совет ҳокимияти жамиятни ўзлари учун бегона бўлган ёт унсурлар, элементлар ва уларнинг сиёсий мафкуравий таъсирини йўқ қилиш учун кураш олиб борган. Бу кураш олий ўқув юртларининг фаолиятида ҳам ўз аксини топган. Бундай сиёсат ўз навбатида олий таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилар ҳамда талабалар орасида норозилик кайфиятини ҳам келтириб чиқариб, айрим ҳолларда улар партия ва совет ҳокимияти вакилларининг олиб бораётган сиёсатларига очиқдан-очиқ қарши чиқишларни ҳам келтириб чиқарган. Бундай чиқишлар қуйидаги муассасаларда содир бўлган: Ўзбекистон педагогика академиясида 1931 йил, Тиббиёт институтида 1930 ва 1934 йилларда, Ирригация институтида 1935 йил, Транспорт институтида 1936 йил ва Самарқанд қишлоқ хўжалиги институтида 1937 йилда рўй берган эди [8.69-71].

Бундай чиқишлардан сўнг бундай олийгоҳлар раҳбариятлари совет ҳокимияти масъуллари томонидан зудлик билан алмаштирилган. Масалан, Ўрта Осиё давлат университетида 1930 йилда профессор-ўқитувчилар ҳамда талабаларнинг бир қисмини норозилик чиқишлари натижасида, университет партия ва комсомол ташкилотлари, маҳаллий қўмита тарқатилиб, Ўрта Осиё давлат университети бошқарувида ўзгаришлар рўй бериб – ректор ва бир қатор профессор-ўқитувчиларнинг “истеъфоси” кузатилганди [9.10].

Бу чиқишларни большевиклар “буюк давлат шовинизми”, “маҳаллий миллатчилик”, “партия сиёсатига қарши аксилинқилобий гуруҳлар ва уюшмалар” дея талқин қилиб уларни бадном қилишга ҳаракат қилганлар, бунга эришганлар ҳам.

Миллий зиёлиларни аксилинқилобчи, миллатчи, пантуркист, троцкийчи дея олий таълим даргоҳларидан четлаштирилиши олий таълим муассасаларининг илмий салоҳиятига сезиларли даражада таъсир қилди, таълим сифатининг пасайишига олиб келди. Буюк давлат шовинизми ва маҳаллий миллатчиликда айбланган педагоглар ва уларнинг шогирдлари бўлмиш талабаларни буржуа, миллатчи, аксилинқилобчи, троцкийчи қарашларни таълимга олиб кирган, кутубхоналарга эса совет ҳокимиятига қарши адабиётларни олиб кирган, талабалар орасида норозилик кайфиятини уйғотган, миллий муносабатларда “инқилоб”дан олдинги даврдаги қарашларни ёйишга интилган, академик қарздор талабаларни кейинги босқичга ўтказишга рухсат берган, меҳнат интизомини бузган бузғинчиларни қўллаб-қувватлаган деган айбловлар қўйилган. Масалан, 1933 йилда миллатчи педагог ходимларнинг

миллий руҳдаги маърузалари таъсирида бўлган талабалар Самарқанд Олий педагогика академиясида рус талабалари ўзбек тилини ўрганишга менсимаслик билан ёндашганлар, рус талабалари ётоқхоналарда ўзбеклар билан бирга яшашга қарши чиқишган, ўзбек талабалари рус китобларидан воз кечиб, мажбурий ўзбек китобини талаб қилишган, шунингдек, ўзбек талабалари рус қизлари билан бирга яшашдан бош тортганлар [10.69], - дея профессор-ўқитувчилар ҳамда талабалар орасида "тозалаш" ишлари ўтказилган.

Кўрилаётган даврда олий ўқув юртларида "тозалаш" ишлари сиёсий-тарбиявий ишларни йўлга қўйиш деб баҳоланган эди. Совет ҳокимияти олий ўқув юртларида амалга оширган "тозалов" компанияларини олийгоҳларнинг жамоат ташкилотларига ҳам тузумга "душман" бўлган унсурлар кириб олган деган рўкачларни кўрсатди, табиийки, улар социалистик мафкура тарғиботи ўрнига антисоветчилик, антипартиявий ва миллатчилик руҳидаги чиқишларни қўллаб-қувватлашган дея уқтириб, жамоат ташкилотларида ҳам "тозалов" компанияларини ўтказишган эди. Масалан, Ўрта Осиё суғориш инженер ва техника институти партия ташкилоти котиби собиқ қозининг ўғли бўлиб, ўзи ўтакетган миллатчи сифатида танилган, комсомол ташкилоти котиби эса туман ҳокимининг ўғли бўлган, маҳаллий қўмита раиси эса отаси қулоқ қилинган, йирик чорва молларига эга савдогарнинг ўғли бўлган. Шу боис бу институтда сиёсий-тарбиявий ишлар деярли амалга оширилмаган, аммо душман ва миллатчилик руҳидаги чиқишлар профессор-ўқитувчилар ҳамда талабалар орасида кенг тарқалган, деган айблов билан уларни лавозимларидан бўшатиб, институтдан четлатилган [11.5].

Ўзбекистон ССР олий ўқув юртларида совет ҳокимияти буржуа миллатчилари, аксилинқилобчилар ҳамда троцкийчиларга қараши курашда олий ўқув юртлари раҳбарияти ва жамоат ташкилотлари фаолиятини кучайтириш, сиёсий-тарбиявий ишларни янада жонлантириш, талабаларнинг фаоллигини ошириш, меҳнаткашларнинг фарзандлари бўлган талабаларни ўзларининг большевистик мафкураси таъсир доирасига жалб этиш орқали олийгоҳларни "ёт унсурлар", "бегона синф" вакилларидан тозалаш сиёсати юритган эди.

Энг биринчи навбатда партия ва совет ҳукумати, аввало, олий ўқув юртлари талабалари таркибида ижтимоий жиҳатдан ўз мафкурасига содиқлар ва уларнинг фарзандларини қолдириб, очиқдан-очиқ бегона, синфий душман ва антисовет унсурлар, яъни меҳнатсиз даромад топувчилар ҳамда уларнинг фарзандларидан олий таълим даргоҳларини "тозалаш" учун кураш олиб борди. Тадқиқ қилинаётган даврда бундай "ёт унсур"ларни талабалар орасидан излаб топиш, ўз ижтимоий келиб чиқишини яширган ҳолда олий ўқув юртларида антисовет ва антипартиявий ғояларни фаол тарғиб қилганларни аёвсиз таъқиб қилиш амалиёти жорий қилинди [12.17]. Хусусан, 1933 йил подшоҳлик даврида катта амалдор ва судьянинг ўғли бўлган Н. Бекмуродов ўз ижтимоий келиб чиқишини яширган, фамилиясини ўзгартирган ҳолда истеъмол кооперацияси институтининг режалаштириш бўлимига ўқишга қабул қилинганлиги аниқланади [13.]. Уни ижтимоий келиб чиқишини яширганликда айланиб талабалар сафидан четлаштирилган эди.

Шу каби ҳолатлар бошқа бир қатор олий ўқув юртларида ҳам аниқланган эди. Шу боис совет ҳокимияти кўрилаётган даврда олий ўқув юртларида талабалар қўмитаси (студком) орқали талабалар таркибини даврий равишда "тозалаш" ишларини амалга ошириб борган. Бу жараён область ва республика партия ташкилотлари раҳбарлиги остида, партиявий, ёшлар иттифоқи, яъни комсомол, касаба уюшмалари, назорат-муҳандислик ва талабалар қўмитаси иштирокида кенг муҳокама қилиниб, сиёсий тадбирлар амалга оширилган. Муҳокамалар натижалари қоғозда қолиб кетмаслиги учун олий ўқув юртлари маъмурияти, жамоат ташкилотлари билан ҳамкорликда бу қарорларни амалиётга жорий этиш чораларини кўрган. Масалан, ишчи-деҳқон инспекция комиссиясининг йиғилишида шаҳар партия комитети ва район партия комитети ҳамда комсомол комитети вакиллари қатнашиб ўз келиб чиқишини яшириб олий таълим муассасаларига кириб қолган синфий "ёт унсур"ларга қарши курашни бир зум ҳам сусайтирмаслик масаласини кўриб чиқади. Йиғилишда ишчи-деҳқон инспекцияси комиссиясига келиб тушган, келиб чиқишини яшириб олий таълим муассасаларига кириб олган "ёт унсур"ларнинг фарзандлари ҳақидаги маълумотларни доимий синчковлик билан

ўрганиб, уларни олий таълим муассасаларидан четлатишга қарор қилинди [14.7-9]. Ҳужжатда қайд этилишича, ўзларининг сиёсий мақсадини кўзлаб, фамилияси, яшаш манзилини ўзгартириб, ўз келиб чиқишини яширган ҳолда олий ўқув юртларига кириб олган ёт унсурларни аниқлашда сиёсий бўлимлар, жамоат ташкилотлари ҳамда аҳоли вакилларидан олинган маълумотлардан фойдаланилган [15.68-81].

Самарқанд Олий педагогика институти талабаси Акбар Мирзарахимов бошчилигида 20 нафарга яқин талабалар ўз келиб чиқишини яширган дея, ёт унсурлар сифатида институтдан четлатилган эди. Акбар Мирзарахимов 1926 йилда ўз нутқларида Ўзбекистоннинг мустақиллик ғояларини очиқдан-очиқ тарғиб ва ташвиқ қилгани учун партиядан ўчирилган эди [16.315]. Мансуров Тўйчи ишчи факультети талабаси 1912 йилда туғилган, уни ҳам ҳушёрликни йўқотганликда айбланган, Андижон шаҳар партия комитети бюросининг 1937 йил 9 ноябрдаги қарорига кўра партия аъзолигидан ўчирилган [16.315].

Ўрганилаётган даврда совет ҳокимияти олий таълим тизимида амалга оширилган тадбирлар, олий таълим даргоҳларини бегона синф вакилларидан, ёт унсурлардан “тозалаш”, уларга қарши олиб борилаётган кураш фақат қоғозларда қолиб кетмаслиги учун жамоатчилик назорати ҳам кучайтирилган эди. Масалан, Ўрта Осиё давлат университети раҳбарияти барча факультет раҳбарларига қатъий кўрсатма бериб, аввал ўқув юртидан четлатилган, ёки аввалги тузум даврида ҳарбий хизматчи бўлиб, Ўрта Осиё давлат университетида ўқиш ҳуқуқига эга бўлмаган талабаларни дарҳол талабалар сафидан чиқаришга кўрсатма берди. Улар дарсларда қатнашиб, имтиҳонлар ва зачётлар топширишда давом этишлари, кадрлар тайёрлашдаги партия олиб бораётган синфий сиёсатга путур етказаётганини қайд этиб ўтилади [17.58].

Бу даврда ижтимоий келиб чиқиши жиҳатдан бегона синф вакиллари бўлган талабаларни фақат ўқув юртидан чиқариш душман унсурларга қарши курашишнинг ягона чораси бўлмаган эди. ВКП(б) Марказий Комитети Ўрта Осиё бюросининг олий ўқув юртларининг ижтимоий жиҳатдан бегона бўлган ва совет ҳокимиятига сиёсий душман бўлган талабаларга қарши олиб борилаётган сиёсат ҳақидаги ўз йўриқномасида, келиб чиқиши ёт унсурлиги аниқланган олий таълим муассасанинг биринчи ёки иккинчи курс талабаларини дарҳол ўқишдан четлатиш уқтирилади. Юқори курс талабалари ҳақида эса, агар улар ижтимоий келиб чиқиши ва ҳолатини яширган бўлсалар, бироқ жамоат ишларида фаол иштирок этаётган ва ўзининг контрабанда мафкурасини намоён этмаган бўлсалар, уларга нисбатан бошқа таъсир ва тарбия чоралари қўллаш мумкинлиги уқтириб ўтилганди [18.22].

Ўрта Осиё бюроси, шунингдек, олий ўқув юртлари маъмурияти ва жамоат ташкилотларига олий ўқув юртига қабул қилинган талабаларнинг ижтимоий келиб чиқишини доимий назорат қилиш, шу билан бирга, бундай чора-тадбирлар оммавий жазо тусини олмаслиги, норозилик кайфиятларини келтириб чиқармаслиги ҳақида ҳам огоҳлантирганди.

Шунингдек, бу даврда ишчи-меҳнаткашлар муҳитидан чиққан, душманларнинг провокацияларига учиб, уларнинг антисовет, аксилинқилобий чиқишларида иштирок этган талабаларга нисбатан ҳам таъсир кўрсатиш ва тарбия чоралари қўлланилди. Масалан, Ўрта Осиё давлат университети кимё факультетининг тўртинчи курс талабаси И.Турсунбоев аксилинқилобий чиқиши учун университетдан чиқарилган. Унинг ишини кўриб чиққан СССР ХКС қошидаги Ишчи-деҳқон инспекцияси (ИДИ) нинг Ўзбекистон ССРдаги вакиллигининг 1935 йил 23 майдаги қарори билан И.Турсунбоевни ўқув юртидан четлатилишини тўғри деб топди. Бироқ, унинг келиб чиқиши ишчилигини ва айбини тан олганлигини инобатга олган ҳолда, унга Тошкентдаги корхоналардан бирида, аниқроғи, тўқимачилик комбинатида ишлаш имкониятини бериш сўралди. Шу йўл билан у ишчи муҳитида бўлиб, ишчи ташкилотлар назорати остида партия ва совет ҳокимиятига садоқатини исботлаш имконига эга бўлиши керак, деган қарорга келганди [19.180].

Совет ҳокимиятининг кўрилаётган даврда синфий душман ва ёт унсурлардан олий таълим муассасаларини “тозалаш” сиёсий компаниясини амалга ошираётган даврида, олий ўқув юртлари маъмурияти ва жамоат ташкилотлари асоссиз ва шошма-шошарлик билан қарорлар қабул қилиб, келиб чиқиши ишчи, деҳқон фарзандларини ҳам ёт унсур дея олийгоҳлардан четлатиш ҳоллари ҳам рўй берган. Масалан, Ўрта Осиё давлат

университетидан асоссиз маълумотлар асосида талабалар сафидан чиқариб юборилган талаба К.Салимованинг иши бунга мисол бўла олади. Унинг норозилик шикояти асосида СССР ХКС қошидаги Ўзбекистон СССР бўйича Назорат-тафтиш комиссияси томонидан қўшимча текширув ўтказилди ва натижада унинг отаси ҳеч қачон "қулоқ" бўлмаганлиги, аввалига сайлов ҳуқуқидан маҳрум этилгани, лекин кейинчалик Туркистон туман сайлов комиссияси томонидан сайлов ҳуқуқи тиклангани аниқланди. Ушбу маълумотлар асосида назорат комиссияси К.Салимовани талабаликка қайта тиклаш, уни талабалар сафидан чиқариш тўғрисидаги олдинги комиссия қарорни бекор қилиш ва уни ижтимоий келиб чиқишини яширганлик учун берилган маъмурий жазони бекор қилиш ҳақидаги ўз қарорини қабул қилади. Шунингдек, Ўрта Осиё давлат университети маъмуриятига бундан кейин ўз фаолиятида текширилмаган маълумотлар асосида талабаларга нисбатан кескин жазо чораларини қўллашга йўл қўйиб бўлмаслиги ҳақида кўрсатма берилган эди [20.190].

Олий таълим тизимида совет ҳокимияти ўз мафкурасини мустаҳкамлаш ва бу тизимга совет тузуми учун ёт бўлган бошқа синф вакилларини кириб қолишини олдини олиш масалаларига бағишланган яна бир йиғилиш 1937 йил 4-5 июль кунлари Ўзбекистон ССР КП Марказий Комитети ҳузурида олий ўқув юртлари партия қўмиталари котиблари иштирокида бўлиб ўтди. Йиғилишда республиканинг олий таълим муассасаларида тарбиявий ва маданий-оммавий ишларнинг аҳволи, олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари ҳамда талабалари орасида ўтказилган "тозалов"лардан сўнг сиёсий-тарбиявий ишлар сезиларли даражада яхшиланган қайд этилади. Яъни совет ҳокимияти учун ёт бўлган мафкура ва қарашларга эга шахслардан олий ўқув юртлари тозаланганини қайд этади [21.1].

Хуллас, совет ҳокимияти 1920-1930 йилларда Ўзбекистон ССР олий таълим даргоҳларида талабалар ҳамда профессор-ўқитувчилар таркибини синчковлик билан ўрганиб, ўз мафкурасига мос келмайдиган талаба ва ходимларни, социалистик жамият учун ёт бўлган синф вакилларини ўтказилган "тозалов" сиёсатлари натижасида олий таълимдан четлатиш амалиётини қўллаган эди. Бу билан совет тузуми ўзи учун ёт бўлган бошқа синф вакиллари бўлмиш талабаларни олий таълим муассасаларида таълим олиш ҳуқуқидан, дарс бераётган профессор-ўқитувчиларни ўзга синф вакили дея таълим бериш, меҳнат қилиш ҳуқуқларидан маҳрум қилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. XX лет САГУ. –Тошкент, 1940.
2. Партийная организация Ташкентского государственного университета им. В.И.Ленина. –Ташкент: Ўзбекистан, 1990.
3. Мчелин Л. КГБ. Председатели органов госбезопасности. Рассекреченные судьбы. –Москва: Центрполиграф, 2001.
4. Зеленский И. В борбы за культуру // "За партию". 1928, №7.
5. Ўз МА, Р-36-фонд, 3-рўйхат, 11-иш.
6. Tursunova Y.B. Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSRdagi ta'lim siyosati (1918-1941-yillar): Tarix fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2024.
7. Ўз МА, Р-34-фонд,1-рўйхат, 14-иш.
8. Ўз Р ПАА, 58-фонд, 7-рўйхат, 725-иш.
9. Ўз МА, Р-368-фонд, 3-рўйхат, 11-иш.
10. Ўз Р ПАА, 58-фонд, 7-рўйхат, 725-иш.
11. Добить остатки шовинизма и буржуазного национализма в вузах. Г. "Комсомолец Востока" за 10 июня 1933 г.
12. РГАСПИ, 62-фонд, 1-рўйхат, 3443-иш.
13. Выгнать сына кулака из вуза. // «Комсомолец Востока» за 16 мая 1933.
14. Ўз МА, Р-368-фонд, 3-рўйхат, 9-иш.
15. Ўз МА, Р-368-фонд, 3-рўйхат, 11-иш.
16. Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Қатағон қурбонлари хотира китоби. Андижон вилояти (1865-1991 йиллар) 1-қисм. –Тошкент: Akademnashr, 2021.
17. Ўз МА, Р-368-фонд, 3-рўйхат, 11-иш.
18. Ўз МА, Р-368-фонд, 3-рўйхат, 11-иш.
19. ЎзР ПАА, 58-фонд, 11-рўйхат, 138-иш.
20. ЎзР ПАА, 58-фонд, 11-рўйхат, 1038-иш.
21.ЎзР ПАА, 58-фонд, 13-рўйхат, 1245-иш.

UO’K 37.02

JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY MADANIYATNING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

B.A.Abbasov, katta o'qituvchi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat nafaqat jismoniy sog'liqni saqlash, balki aqliy va ruhiy rivojlanishda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada sog'lom turmush tarzi asoslari, sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati, sport kabi jismoniy madaniyatning asosini tashkil etuvchi faol harakatlar, jismoniy rivojlanish, kun tartibi, shaxsiy gigeniya, chiniqtirish omillari, jismoniy kamolot, sog'lom turmush tarzi xususiyatlari yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sog’lom tafakkur, kun tartibi, shaxsiy gigiyena, shaxs kamoloti.*

Аннотация. *Физическая культура и физическая культура играют важную роль не только в поддержании физического здоровья, но и в умственном и духовном развитии. В данной статье рассматриваются основы здорового образа жизни, особенности здорового образа жизни, такие как физическая культура, активные занятия спортом, физическое развитие, распорядок дня, личная гигиена, факторы закаливания, физическая зрелость, составляющие основу физической культуры.*

Ключевые слова: *физкультура, физическая культура, здравый смысл, распорядок дня, личная гигиена, созревание личности.*

Abstract. *Physical education and Physical Culture play an important role not only in physical health, but also in mental and mental development. This article highlights the basics of a healthy lifestyle, the physical culture of a healthy lifestyle, the active actions that form the basis of such a physical culture as sports, physical development, agenda, personal hygiene, conditioning factors, physical maturation, features of a healthy lifestyle.*

Keywords: *physical education, physical culture, healthy thinking, agenda, personal hygiene, personality maturation.*

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat – bu shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, har tomonlama kamol toptirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Uning sog'lom tafakkurni shakllantirishdagi roli beqiyosdir. Sog'lom tafakkur deganda, asosan, sog'lom va barkamol shaxsning fikrlash tarzi, dunyoqarashi, o'ziga va atrofga bo'lgan munosabati tushuniladi.

Sog'lom turmush tarzi insonning madaniy, jismoniy rivojlanishi, mehnat unumdorligi va ijodiy faoliyatini oshirishni o'z ichiga oladi. Sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari samarali ish faoliyati, shaxs gigiyena, gigiyena talablariga qat'iy rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish, belgilangan bir vaqtda to'g'ri ovqatlanish, jismonan va ruhan chiniqish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanib turish. Sog'lom turmush tarzi kasalliklarning oldini olishda asosiy tadbirlardandir. Sog'lom turmush tarzi ma'lum miqdorda ruhiy va jismoniy talablarni qoniqarli darajada amalga oshirishga imkon beradi[1]. Kun sayin sog'lomlashtirish uslubining turlari oshib bormoqda. Jismoniy mashqlar, ovqatlanish me'yori, uyqu, hammomdan foydalanish va boshqalar harakat faoliyatini oshirib boradi.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi asosiy jihatlari:

1. Jismoniy salomatlikning ruhiy salomatlikka ta'siri:

- Endorfinlar ishlab chiqarilishi: Jismoniy mashqlar endorfinlar – baxt gormonlari ishlab chiqarilishiga yordam beradi. Bu kayfiyatni ko'taradi, stressni kamaytiradi va ruhiy salomatlikni yaxshilaydi.

• Uyqu sifatining yaxshilanishi: Muntazam jismoniy faollik uyqu sifatini yaxshilaydi. Yetarli va sifatli uyqu miyaning normal ishlashi uchun zarur bo'lib, diqqatni jamlash, xotirani yaxshilash va o'rganish qobiliyatini oshiradi.

• Stressni boshqarish: Jismoniy mashqlar stressni boshqarishning samarali usuli hisoblanadi. Ular asab tizimini tinchlantiradi, dam olishga yordam beradi va ruhiy zo'riqishni kamaytiradi.

2. Irodani tarbiyalash va maqsadga intilish:

• Intizom va mas'uliyat: Jismoniy mashqlar muntazamligini ta'minlash intizom va mas'uliyatni shakllantiradi. Sport bilan shug'ullanish jarayonida o'z oldiga maqsadlar qo'yish va ularga erishishga harakat qilish irodani mustahkamlaydi.

• Qiyinchiliklarni yengish: Sport mashg'ulotlari davomida duch kelinadigan qiyinchiliklar va to'siqlarni yengish sabr-toqatni, chidamlilikni va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu esa hayotda ham qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengishga yordam beradi.

• G'alaba va mag'lubiyatga munosabat: Sport g'alaba va mag'lubiyatni adolatli qabul qilishni o'rgatadi. G'alabani ortiqcha baholamaslik va mag'lubiyatdan to'g'ri xulosa chiqarish, kelajakda yangi muvaffaqiyatlarga erishish uchun motivatsiya beradi.

3. Aqliy faoliyatni yaxshilash:

• Qon aylanishining faollashishi: Jismoniy mashqlar miyaga qon yetkazib berishni yaxshilaydi. Bu esa miyaning oziqlanishi va kislorod bilan ta'minlanishini oshiradi, natijada aqliy faoliyat yaxshilanadi.

• Neyronlar o'rtasidagi bog'lanishning kuchayishi: Jismoniy faollik neyronlar o'rtasidagi bog'lanishning kuchayishiga yordam beradi. Bu esa xotirani yaxshilaydi, o'rganish qobiliyatini oshiradi va yangi ma'lumotlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

• Diqqatni jamlash qobiliyatining oshishi: Muntazam sport bilan shug'ullanish diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi. Bu esa o'qish, ishlash va boshqa muhim vazifalarni bajarishda konsentratsiyani saqlashga yordam beradi.

4. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish:

• Jamoaviy sport turlari: Jamoaviy sport turlari (futbol, basketbol, voleybol va h.k.) jamoada ishlash, hamkorlik qilish, o'zaro yordam berish va umumiy maqsadga intilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

• Muloqot va o'zaro hurmat: Sport bilan shug'ullanish jarayonida turli xil odamlar bilan muloqot qilish, ularning fikrlarini hurmat qilish va o'z fikrini to'g'ri ifoda etish ko'nikmalari shakllanadi.

• Rahbarlik qobiliyati: Sportda sardorlik qilish, jamoani boshqarish va qaror qabul qilish ko'nikmalari shaxsning liderlik qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Estetik didni shakllantirish:

• Go'zallikni his qilish: Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida o'z tanasini his qilish, harakatlarning go'zalligini sezish estetik didni shakllantirishga yordam beradi.

• Sog'lom turmush tarziga intilish: Jismoniy tarbiya va sport sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantiradi. Sog'lom ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish va o'z salomatligiga g'amxo'rlik qilish go'zal va barkamol shaxs bo'lishning muhim omilidir.

6. Milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish:

• Sport orqali mamlakatni tanitish: Sportchilarning xalqaro musobaqalarda erishgan yutuqlari mamlakat obro'sini oshiradi va milliy g'urur tuyg'usini shakllantiradi.

• Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: Sportga bo'lgan muhabbat vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi. Sportchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning g'alabalari bilan faxrlanish vatanga sadoqat tuyg'usini oshiradi.

Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv- metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ta'lim muassasalarining sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya tizimi jarayoniga yangicha yondashish, bola tarbiyasidagi o'zbek xalqining

milliy an'analari, qadriyatlari, xalq ijodiyotining o'ziga xosligi, xalq pedagogkasining ulkan tajribasi hamda o'ziga xos xususiyatlari, mintaqa iqlim sharoitlari, bolaning jinsi, yosh bokschilari, ularning anatomik-fiziologik, psixologik-gigiyenik jihatlari, barcha ijobiy xususiyatlarini o'zlashtirishni uyg'unlashtirish masalalari alohida o’rin tutadi[2].

Jismoniy mashg'ulotlar muntazam amalga oshirilsa, inson nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham barqaror bo'ladi. Yoshlarni erta sportga jalb qilish, ularda intizom va mas'uliyat hissini shakllantirish kelgusida sog‘lom va samarali jamiyat uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Sport yoshlar orasida nafaqat jismoniy barkamollikka erishishning vositasi, balki ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishning, o‘zini o‘zi anglashning, ijtimoiy muammolarga yechim topishga o‘rganishning muhim manbasi hamdir. Jismoniy tarbiya va sport yoshlarni ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarining olib borilishi nafaqat sog‘lom tana, balki kuchli iroda, maqsadga intilish va tartib-intizomni shakllantiradi[3].

O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish bo‘yicha ko‘plab davlat dasturlari qabul qilingan. Masalan, "Salomatlik - 2022" dasturi doirasida aholining keng qatlamlari, jumladan, yoshlar orasida jismoniy mashg‘ulotlar va sportning ommalashuvi uchun ko‘plab sport inshootlari qurildi, yangi sport dasturlari ishlab chiqildi. Bu esa aholining umumiy salomatligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda[4].

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlash, balki sog'lom tafakkurni shakllantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Intizom, mas'uliyat, maqsadga intilish, irodani tarbiyalash, aqliy faoliyatni yaxshilash, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, estetik didni shakllantirish va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish orqali jismoniy tarbiya shaxsning har tomonlama kamol topishiga hissa qo'shadi va jamiyatda sog'lom tafakkurga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Asatillayevich A. B. Sports Theory as a Science and Academic Discipline //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 27-30.

2. Elboyeva U.R. Sog‘lom turmush tarzini tashkil etishda jismoniy tarbiya asoslari // Экономика и социум. 2024. №5-1 (120).

3. Ibragimov M. Sog’lom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning o’rni // Tadqiqotlar, 2024. – № 46, - Б.110.

4. Ergashov U. Sog‘lom avlod tarbiyasida sportning roli. -Toshkent, 2021.

UO’K 37.02

OLIY TA’LIM TALABALARIDA JISMONIY MADANIYAT VA JISMONIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI

B.A.Abbasov, katta o'qituvchi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida jismoniy tarbiya va sportning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada oliy ta’limda talabalarida jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy usul va vositalari yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar: *zamonaviy ta’lim metodlari, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, dars samaradorligi, ta’lim sifati.*

Аннотация. *В процессе модернизации образования важное значение приобретает роль физической культуры и спорта в формировании здорового образа жизни. В данной статье освещаются современные методы и средства формирования физической культуры и физического воспитания у своих студентов в высшем образовании.*

Ключевые слова: *современные методы обучения, физкультура, физическая культура, здоровый образ жизни, эффективность урока, качество образования.*

Abstract. *In the process of modernization of Education, the role of physical education and sports in the formation of a healthy lifestyle is important. This article highlights modern methods and tools for the formation of Physical Culture and physical education in their students in higher education.*

Keywords: *modern educational methods, physical education, physical culture, healthy lifestyle, lesson effectiveness, quality of education.*

Jismoniy madaniyatni talabalarda shakllantirish – bu ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash, jismoniy faollikga bo'lgan ehtiyojni uyg'otish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayon. Zamonaviy metodlar bu jarayonni yanada samarali, qiziqarli va individual talablarga moslashtirish imkonini beradi.

Talabalarda jismoniy madaniyatni shakllantirishda an'anaviy usullardan tashqari, zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlar ham keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar talabalarni jismoniy faollikka jalb qilish, qiziqishini oshirish va ularning individual xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan.

Talabalarning jismoniy faollikka bo'lgan qiziqishini oshirish uchun turli xil o'yinlar, musobaqalar va sport o'yinlari qo'llaniladi. Jismoniy tarbiya darslarida interaktiv o'quv dasturlari, sensorli ekranlar, simulyatorlar va virtual haqiqat texnologiyalari qo'llaniladi[1]. Bu talabalarni darslarga yanada jalb qilish va o'quv jarayonini qiziqarliroq qilishga yordam beradi.

Har bir talaba uchun individual mashg'ulot rejalari tuziladi, bu esa ularning ehtiyojlarini to'liq qondirishga imkon beradi.

Talabalar jamoalarga bo'linib, bir-biriga yordam berish va birgalikda ish olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Talabalar birgalikda jismoniy faollik bilan bog'liq loyihalarni amalga oshiradilar, masalan, sport tadbirlari tashkil qilish, sog'lom turmush tarzi haqida ma'lumot tarqatish va hokazo.

Talabalarning jismoniy faolligini kuzatish va ularni rag'batlantirish uchun fitnes-trekerlar va mobil ilovalardan, shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini qo'llab-quvvatlash va talabalarga qo'shimcha o'quv materiallari taqdim etish uchun onlayn o'quv platformalaridan foydalanish mumkin.

Talabalarning sog'lom turmush tarzini olib borishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish uchun turli xil motivatsion dasturlar va mukofotlar tizimi qo'llaniladi.Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat nafaqat jismoniy sog'liqni saqlash, balki aqliy va ruhiy rivojlanishda ham muhim rol o'ynaydi. Ular sog'lom tafakkurni shakllantirishga qanday hissa qo'shishini batafsil ko'rib chiqaylik:

1. Miya faoliyatini yaxshilash:

- Jismoniy mashqlar qon aylanishini yaxshilaydi, miyaning kislorod bilan ta'minlanishini oshiradi va shu bilan birga miya hujayralarining faoliyatini kuchaytiradi.

- Jismoniy faollik miyaning neyrotransmitterlarni ishlab chiqarishini rag'batlantiradi, bu esa kayfiyatni yaxshilash, stressga chidamlilikni oshirish va xotirani mustahkamlashga yordam beradi.

2. Stressga chidamlilikni oshirish:

- Jismoniy mashqlar stress gormonlari darajasini pasaytiradi va endorfinlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, bu esa kayfiyatni yaxshilaydi va stressga chidamlilikni oshiradi.

- Jismoniy faollik muammolarni hal qilishga, qiyinchiliklarga duch kelganda xotirjamlikni saqlashga va salbiy his-tuyg'ularni boshqarishga yordam beradi.

3. Ijodkorlikni rivojlantirish:

- Jismoniy faollik miyaning kreativ qismlarini faollashtiradi va yangi g'oyalarni tug'dirishga yordam beradi.

- Sport va raqs kabi faoliyatlar ijodiy fikrlashni, harakatlarni muvofiqlashtirishni va estetik tuyg'uni rivojlantiradi.

4. O'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshirish:

- Jismoniy tarbiya va sport o'z-o'zini boshqarish, intizom, mas'uliyatlilik va maqsadga erishish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- Jismoniy mashqlarni muntazam bajarish intizom va o'z-o'zini boshqarishni o'rgatadi.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat nafaqat sog'lom tanani, balki sog'lom tafakkurni ham shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular miya faoliyatini yaxshilaydi, stressga chidamlilikni oshiradi, muammo hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, ijodiylikni rag'batlantiradi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'z-o'zini hurmat

qilishni oshiradi[2]. Shuning uchun, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatni hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qilish kerak.

Hozirgi vaqtda oddiy faoliyat va aqliy faoliyatning kombinatsiyasini talab qiladigan ko‘plab kasblar mavjud. Ish past faollik rejimida amalga oshiriladi, bu esa harakatsizlikni keltirib chiqaradi. Harakatsizlik moddalar almashinuvining buzilishiga olib keladi. Organizmda moddalar almashinuvi jarayonining buzilishi va harakatsizlikka qarshi kurashning nisbatan samarali vositasi jismoniy tarbiya va sportdir. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari organizm faoliyati buzilishining nomaqbul va salbiy ko‘rinishlariga qarshilik ko‘rsata olishlari uchun ta’lim davrida jismoniy tarbiya va sportdan sifatli foydalanish qobiliyatini mustahkamlash zarur.

Talabalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy tizimi bo‘lajak ishlab chiqarish, fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va shu kabi soha mutaxassislari sifatida talabalarning sog‘lom turmush tarzi va turmush tarzini shakllantirishda ustuvor vazifa hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta’limning o‘quv predmeti sifatidagi vazifasi shundan iboratki, oliy ta’lim talabalarga inson hayoti va faoliyati, salomatligi va sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi bilimlarning barcha jabhalari bilan ta’minlashi, shuningdek, inson salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashni ta’minlaydigan ko‘nikma va malakalarni egallashi lozim. Ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya yosh mutaxassisning shaxsiyati va madaniyatini tarbiyalashni ta’minlaydigan pedagogik jarayonning ajralmas elementi hisoblanadi[3].

Shuningdek, jismoniy madaniyat va tarbiyani shakllantirishda quyidagi zamonaviy usul va vositalarni qo’llash mumkin:

* Jamoaviy sport o'yinlari (futbol, basketbol, voleybol va h.k.).
* Estafetalar va musobaqalar.
* Interaktiv o'yinlar (masalan, sportga oid savollarga javob berish bilan birga mashqlar bajarish).
* Geokaching va shahar bo'ylab o'yinlar.
* Fitnes-trekerlar va aqlli soatlar (qadamlar sonini hisoblash, yurak urish tezligini o'lchash, uyquni kuzatish).
* Mobil ilovalar (mashqlar dasturlarini tuzish, ovqatlanishni kuzatish, natijalarni baham ko'rish).
* Virtual reallik (VR) texnologiyalari (virtual sport zallari, virtual sayohatlar, ekstremal sport simulyatorlari).
* Video-analiz (mashqlar texnikasini tahlil qilish va xatolarni tuzatish).
* Guruhli fitnes mashg'ulotlari va individual treninglar.
* Sog'lom ovqatlanish bo'yicha maslahatlar.
* Stressni boshqarish bo'yicha treninglar.
* Velosipedda sayr qilish, tog'ga chiqish.
* Suv sporti (suzish, kayak, rafting).
* Onlayn kurslar va video-darslar, ilmiy konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etish.
* Sport klublariga a'zo bo'lish.
* Shaxsiy blog yoki jurnal yuritish (jismoniy faollik bo'yicha tajribalarini yozish).

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayoni, talabalarning bilim faoliyati va kasbiy tayyorgarligiga tizimli yondashish asoslanadi, ular bilan axloqiy va jismoniy, mehnat va go‘zallik, ijtimoiy-siyosiy kabi turli tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda ta’lim ob’ektiv voqelik, insoniyat madaniyati, tarixi va sivilizatsiyasining eng muhim qismi bo‘lib qolmoqda. Ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya yosh mutaxassisning shaxsiyati va madaniyatini tarbiyalashni ta’minlaydigan pedagogik jarayonning ajralmas elementi hisoblanadi[3].

Jismoniy madaniyatni talabalarda shakllantirishning zamonaviy metodlari ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash, jismoniy faollikga bo'lgan ehtiyojni uyg'otish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan. Individual yondashuv, interaktiv mashg'ulotlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o'qituvchining shaxsiy namunasi talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga, ularni kelajakdagi hayotga tayyorlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asatillayevich A. B. Types, Features and Strategies of the Market of Physical Culture and Sports Services //The Peerian Journal. – 2023. – T. 16. – C. 1-3.
2. Asatillaevich A.B. Physical culture and sports events as an object of management //Editorial board. – 2022. – C. 127.
3. Samadov S. Zamonaviy Oliy Ta'lim Tizimida Bo'Lajak Mutaxassislarining Jismoniy Tarbiya Qadriyatlarini Shakllantirish Xususiyatlari // Journal of Innovation in Educational and Social Research, 2024. – Vol 2., Issue 6. -B. 109-110.

UO'K 372.881.111.1

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA BILINGVALIZM: PSIXOLINGVISTIK VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

D.U.Amiritdinova, o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bilingvalizmning ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rganish jarayoniga ta'siri psixolingvistik va metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bilingval o'quvchilarning metalingvistik xabardorligi yuqori bo'lib, ularning fonetik, grammatik va leksik bilimlarini tezroq shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, interferensiya, kod almashinuvi va grammatik muammolar singari qiyinchiliklar ham mavjud. Maqolada samarali pedagogik yondashuvlar, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *bilingvalizm, chet tili o'rganish, psixolingvistika, metodologiya, interferensiya, kod almashinuvi, metalingvistik xabardorlik*

Аннотация. *В данной статье рассматривается влияние билингвизма на изучение английского языка как второго иностранного с психолингвистической и методологической точки зрения. Результаты исследования показывают, что билингвальные учащиеся обладают высоким уровнем метаязыковой осведомленности, что способствует более эффективному развитию фонетических, грамматических и лексических навыков. Однако существуют и трудности, такие как интерференция, переключение кодов и грамматические ошибки. В статье предлагаются эффективные педагогические подходы и рекомендации по развитию коммуникативной компетенции учащихся.*

Ключевые слова: *билингвизм, изучение иностранного языка, психолингвистика, методология, интерференция, переключение кодов, метаязыковая осведомленность*

Abstract. *This article examines the impact of bilingualism on learning English as a second foreign language from a psycholinguistic and methodological perspective. The research findings indicate that bilingual learners have a high level of metalinguistic awareness, which helps them develop phonetic, grammatical, and lexical skills more efficiently. However, challenges such as interference, code-switching, and grammatical difficulties also arise. The article provides effective pedagogical approaches and recommendations for improving students' communicative competence.*

Keywords: *bilingualism, foreign language learning, psycholinguistics, methodology, interference, code-switching, metalinguistic awareness*

Kirish. Bugungi globallashgan dunyoda bilingvalizm keng tarqalgan hodisaga aylanib, til o'rganish jarayonida muhim rol o'ynamoqda. Ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashuvchi shaxslar chet tilini, jumladan, ingliz tilini o'zlashtirish jarayonida o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lishlari mumkin. Biroq, bilingvalizmning chet tilini o'rganish jarayoniga ta'siri har doim ham bir xil ijobiy natija bermaydi, chunki lingvistik interferensiya, kod almashinuvi va grammatik muammolar kabi qiyinchiliklar ham kuzatiladi.

Ushbu maqolada bilingvalizm va ingliz tilini o'rganish jarayoni o'rtasidagi bog'liqlik psixolingvistik va metodologik jihatlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — bilingval o'quvchilarning chet tilini o'zlashtirish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, mavjud muammolarni aniqlash va samarali o'qitish usullarini tavsiya qilishdir. Maqolada ilg'or pedagogik metodlar va amaliy tavsiyalar asosida bilingval o'quvchilar uchun eng samarali yondashuvlar muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi o‘n yillikda bilingvalizm va uning chet tilini o‘rganish jarayoniga ta’siri bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar asosan psixolingvistika, ta’lim metodologiyasi va neyropsixologiya sohalarida olib borilib, ushbu mavzudagi ilmiy-nazariy yondashuvlarni chuqur tahlil qilishga imkon berdi.

Bilingvalizm va Psixolingvistika. Psixolingvistik tadqiqotlarda bilingval shaxslarning metalingvistik xabardorligi yuqori bo‘lishi qayd etiladi (Bialystok, 2017). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki tilda so‘zlashuvchi o‘quvchilar chet tilini o‘rganishda grammatik va fonetik tafovutlarni tezroq anglaydi va ushbu bilimlarini yangi tilda qo‘llashga moyil bo‘ladi. Biroq, interferensiya masalasi hanuzgacha dolzarb bo‘lib, ayrim tadqiqotlarda ona tilining yangi o‘zlashtirilayotgan tilga ta’siri cheklangan darajada ekanligi aniqlangan (Kroll & Dussias, 2018). Rus tilidagi adabiyotlarda ham bilingvalizmning lingvistik va kognitiv jihatlari keng tahlil qilingan. Masalan, Grosjean (2020) o‘z tadqiqotlarida bilingvalizmni monolingvalizm bilan solishtirib, ikki tilda fikrlash va muhokama yuritishning inson miyasiga qanday ta’sir qilishini tahlil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilingval shaxslarning ish xotirasi yaxshiroq rivojlangan bo‘lib, bu ularning chet tilini o‘rganish jarayonida yangi grammatik va leksik birliklarni tezroq o‘zlashtirishiga imkon yaratadi. O‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ham bilingvalizmning chet tilini o‘rganishga ta’siri masalasi keng yoritilgan. Masalan, Yo‘ldoshev (2021) va Karimova (2022) o‘z tadqiqotlarida o‘zbek-rus yoki o‘zbek-ingliz bilingval o‘quvchilarining chet tilini o‘zlashtirish xususiyatlarini tahlil qilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bilingval o‘quvchilar fonetik jihatdan o‘zlashtirishga tez moslashsa-da, sintaktik strukturani to‘g‘ri ishlatishda ayrim muammolarga duch kelishadi.

Interferensiya va Kod Almashinuvi. Interferensiya — bu ikki tilning bir-biriga ta’sir qilish jarayoni bo‘lib, so‘nggi tadqiqotlar bu hodisaning turlarini batafsil o‘rganmoqda. Masalan, De Houwer (2019) va Pavlenko (2020) tadqiqotlarida semantik interferensiyaning ta’lim jarayoniga qanday ta’sir qilishi tahlil qilingan. Bu esa ba’zi hollarda grammatik xatolarga olib kelishi mumkin.

Kod almashinuvi esa ayniqsa, rus va ingliz tillarini o‘rganuvchi bilingvallarda keng tarqalgan hodisa sifatida tilga olinadi (Muysken, 2020). Tadqiqotlarga ko‘ra, kod almashinuvi ba’zan kommunikativ qulaylikni ta’minlasa-da, uzoq muddatli ta’sir nuqtayi nazaridan til strukturasi va grammatikaga ta’sir qilishi mumkin.

Pedagogik Yondashuvlar. Ta’lim metodologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilingval o‘quvchilarga mo‘ljallangan chet tili darsliklari va o‘qitish metodlari o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Masalan, Ellis (2020) va Lightbown & Spada (2019) o‘z tadqiqotlarida kommunikativ yondashuv va muhitga asoslangan o‘qitish usullarining samaradorligini ta’kidlaydi. O‘zbek adabiyotlarida esa Mamatqulova (2021) va Norqulov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda integratsiyalashgan o‘qitish usullari va texnologik yondashuvlarning bilingval o‘quvchilarga ta’siri o‘rganilgan.

So‘nggi yillarda chet tilini o‘qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Kahoot, Quizlet kabi gamifikatsiya platformalari va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan til o‘rgatish dasturlarining roli oshib bormoqda (Chun, 2021). Ushbu yondashuvlar bilingval o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishiga yordam beradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bilingvalizm va chet tilini o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab bo‘lib, bir qancha omillar ta’sirida shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari bilingvalizmning ingliz tilini o‘rganishga ta’sirini psixolingvistik va metodologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilishga asoslangan. O‘rganilgan adabiyotlar va empirik tadqiqotlar bilingval o‘quvchilarning chet tilini o‘zlashtirish jarayonidagi afzalliklari va qiyinchiliklarini aniqlashga yordam berdi. Quyida tadqiqot natijalari asosida asosiy xulosalar bayon etiladi.

1. Bilingvalizmning Chet Tilini O‘rganishga Ta’siri. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bilingval o‘quvchilar chet tilini o‘zlashtirish jarayonida bir qancha afzalliklarga ega:

- **Metalingvistik xabardorlikning yuqoriligi:** Bilingval o‘quvchilar til tizimlarini tahlil qilish va qiyoslash qobiliyatiga ega bo‘lib, bu ularning grammatik qoidalarni anglashiga va yangi til tizimini tezroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. **Interferensiya muammosi:** Ona tili va o‘rganilayotgan til

orasidagi farqlar sababli grammatik va semantik xatolar ko‘proq uchraydi. Masalan, o‘zbek-ingliz bilingvallari so‘z tartibi va predloglar (prepositions) ishlatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

- **Kod almashinuvi:** Bilingval o‘quvchilarda ikki til orasida kod almashinuvi kuzatiladi, bu ba’zan til tizimlarini ajratib o‘rganishni qiyinlashtiradi.
- **Leksik interferensiya:** Ba’zi bilingval o‘quvchilar o‘z ona tilidan kelib chiqqan so‘z va iboralarni ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib qo‘llashadi, natijada semantik noaniqliklar yuzaga keladi.

2. Pedagogik Yondashuvlarning Samaradorligi. Bilingval o‘quvchilarga ingliz tilini samarali o‘rgatish uchun qo‘llangan pedagogik metodlar tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, quyidagi yondashuvlar eng samarali hisoblanadi:

- **Kommunikativ yondashuv:** Real hayotiy kontekstda til o‘rganish bilingval o‘quvchilarga tabiiy ravishda yangi til tizimiga moslashish imkonini beradi.
- **O‘zaro taqqoslash metodi:** Ona tilidagi va o‘rganilayotgan til tizimlarini solishtirish interferensiya muammolarini kamaytirishga yordam beradi.
- **Texnologiyalardan foydalanish:** Quizlet, Kahoot va Wordwall kabi raqamli ta’lim platformalarining qo‘llanishi bilingval o‘quvchilarning interfaol va qiziqarli tarzda til o‘rganishiga yordam beradi.

3. Empirik Tadqiqot Natijalari. Tadqiqot davomida bilingval o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishdagi xatti-harakatlari kuzatilib, so‘rovnomalar va intervyular asosida ma’lumotlar to‘plandi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: Bilingval o‘quvchilar monolingvallarga nisbatan o‘rtacha 20-30% tezroq yangi leksik birliklarni eslab qolishadi. O‘quvchilarning grammatik xatolari asosan ona tili interferensiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular ayniqsa, predloglar va so‘z tartibida ko‘p uchraydi. Kod almashinuvi odatda ingliz tilini endigina o‘rganayotgan o‘quvchilarda ko‘proq kuzatiladi, biroq yuqori darajadagi bilingvallarda bu tendensiya kamayadi.

4. Tadqiqotning Amaliy Ahamiyati. Tadqiqot natijalari bilingval o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalarga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlar va texnologiyalardan keng foydalanish bilingval o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Kod almashinuvi va interferensiyani minimallashtirish uchun til amaliyotlari va kommunikativ mashg‘ulotlar ko‘proq qo‘llanilishi lozim.

Xulosa. Ushbu tadqiqot bilingvalizmning ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ta’sirini tahlil qilar ekan, bilingval o‘quvchilarning chet tilini o‘zlashtirishdagi afzalliklari va qiyinchiliklarini aniqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bilingvallar metalingvistik xabardorlik va fonologik moslashuvchanlik jihatdan ustunlikka ega bo‘lsalar-da, interferensiya va kod almashinuvi ularning til o‘rganish jarayoniga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, pedagogik yondashuvlarda individual va interfaol metodlarni qo‘llash chet tilini o‘rganish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amiritdinova, D. "Features of advertising materials." Вестник магистратуры 5-2 (128) (2022): 42-43

2. Amiritdinova, D. (2024, November). Differentiation in Reading Tasks: Supporting Diverse Learners in the Classroom. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 563-565).

3. Amiritdinova, D., & Normurodova, S. (2024, November). Differentiation in Listening Tasks: Supporting Diverse Learners in the ESL/EFL Classroom. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 520-522).

4. Бейли Р. Психолингвистика: введение в науку о языке и познании. — Москва: Издательство ЛКИ, 2018. — 320 с.

5. Богомазов В. А. Двуязычие и когнитивное развитие: психолингвистические аспекты. — Санкт-Петербург: Питер, 2019. — 256 с.

6. Cummins J., Swain M. Bilingualism in Education: Aspects of Theory, Research, and Practice. — London: Routledge, 2020. — 312 p.

7. De Houwer A. An Introduction to Bilingual Development. — Bristol: Multilingual Matters, 2020. — 176 p.

8. Grosjean F. Studying Bilinguals. — Oxford: Oxford University Press, 2019. — 272 p.

9. MacWhinney B. The Bilingual Brain: Challenges and Strategies in Language Acquisition. — Cambridge: Cambridge University Press, 2021. — 354 p.

UO'K 378

MENTAL XARITALAR-TIL O'RGANUVCHILAR UCHUN KOGNITIV VOSITA

D.Ashurova, stajyor-o'qituvchi, O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mental xaritalar (mind maps) chet tili o'rganish jarayonida kognitiv vosita sifatida qaraladi. Mental xaritalar bevosita vizual va assotsiativ fikrlashga tayanib, lug'at va grammatika materiallarini yaxlit tuzilma shaklida yodlash, anglash va qo'llash imkonini beradi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda ijodiylikni oshiradi, motivatsiyani kuchaytiradi va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, mental xaritalar konstruktivizm, Gestalt psixologiyasi hamda assotsiativ o'rganish nazariyalarining tamoyillaridan foydalangan holda yaratiladi va zamonaviy onlayn vositalar orqali yanada samarali qo'llanilishi mumkin. Natijada, til o'rganish jarayonida xotirani mustahkamlash, ma'lumotni tizimli o'zlashtirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati kengayadi.*

Kalit so'zlar: *mental xaritalar, til o'rganish, kognitiv vosita, fikrlash, lug'at, motivatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются ментальные карты (mind maps) как когнитивный инструмент при изучении иностранного языка. Ментальные карты опираются на визуальное и ассоциативное мышление, упрощая запоминание, понимание и применение лексических и грамматических материалов в целостном формате. Этот подход способствует развитию творческого потенциала, повышает мотивацию и формирует навыки самостоятельной работы у обучающихся. Кроме того, ментальные карты основываются на принципах конструктивизма, гештальт-психологии и теории ассоциативного обучения и могут эффективно применяться с помощью современных онлайн-инструментов. В результате расширяются возможности укрепления памяти, систематического усвоения информации и развития креативного мышления в процессе освоения иностранного языка.*

Ключевые слова: *ментальные карты, изучение языка, когнитивный инструмент, мышление, лексика, мотивация.*

Abstract. *This article examines mind maps as a cognitive tool in foreign language learning. Mind maps rely on visual and associative thinking, making it easier to memorize, comprehend, and apply vocabulary and grammar within an integrated structure. This approach fosters creativity, enhances motivation, and develops learners' independent study skills. Moreover, mind maps draw on principles of constructivism, Gestalt psychology, and associative learning theory, and can be employed more efficiently through modern online platforms. Consequently, they offer broadened opportunities for strengthening memory, systematically mastering linguistic content, and cultivating creative thinking in the language acquisition process.*

Keywords: *mind maps, language learning, cognitive tool, thinking, vocabulary, motivation.*

Mental xaritalar (mind maps) – zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda e'tibor qaratilayotgan qudratli kognitiv vositalardan biri bo'lib, ular, ayniqsa, chet tillarini o'rganish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Bir qarashda soddadil chizmalarga yoki diagrammalarga o'xshash bu metodiya chuqur ilmiy asosga ega: mental xaritalar ta'limda individual fikr olish jarayonini samarali tashkil etish, axborotni tizimli ravishda o'zlashtirish hamda ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada mental xaritalarning asosiy nazariy jihatlari, ularning chet tili o'rganishdagi afzalliklari va kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi, shuningdek, amaliy qo'llanilishida nimalarga e'tibor berish lozimligi yoritiladi.

Til o'rganish jarayonida o'quvchilar ko'p hollarda yodlash, matn bilan ishlash, lug'at boyligini kengaytirish yoki grammatik strukturalarni tushunish kabi bosqichlarda qiynalishi mumkin. An'anaviy yondashuvda o'quvchilar so'zlarni ustma-ust yodlashga, murakkab qoidalarga diqqat qaratishga yoki mustaqil ravishda ko'p matnlar bilan ishlashga majbur bo'ladilar. Bunday jarayon bir xil ko'nikmani takror va takror mustahkamlashni talab qiladi, bu esa ko'p hollarda zerikarli bo'lishi, motivatsiyani pasaytirishi yoki tajribali o'qituvchining o'zgacha usul joriy etishiga qaramay, hamon yetarli darajada natija bermasligi mumkin. Mental xaritalar ana shunday murakkablikni chetlab

o‘tishda yordam beradigan vositadir. U inson miya faoliyatining vizual va assotsiativ xususiyatlariga tayanib, axborotni yaxlit bir tuzilma sifatida qamrab olish imkonini yaratadi.

Mental xarita tuzish uslubi, avvalo, markaziy g‘oyani yoki asosiy mavzuni tasvirlashdan boshlanadi. Masalan, til o‘rganish jarayonida mavzu sifatida “grammar” (grammatika), “vocabulary” (lug‘at boyligi), “speaking” (gapirish) yoki “listening” (tinglab tushunish) kabi ustuvor yo‘nalishlardan birini tanlash mumkin. Shundan so‘ng, asosiy mavzudan tarmoqlanib chiqadigan bo‘limlar, kichik bo‘limlar va ularning tasnifiy aloqasi o‘zaro chiziqlar bilan bog‘lab boriladi. Bunda miya turli ranglar, piktogrammalar, kalit so‘zlar va ma’lumotni “eschi” usulda emas, balki eslab qolish oson bo‘ladigan, bog‘lanishlarga boy grafik ko‘rinishda idrok etadi. Bu jarayon, bir tomondan, ijodiy tafakkurga turtki bersa, ikkinchi tomondan, materialni tezroq eslab qolishga xizmat qiladi. Chunki inson miyasida vizual xotira va so‘z birikmalarini uyg‘unlashtirish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo‘lib, u aynan ranglar, shakllar va obrazlar orqali axborotni mustahkam eslab qoladi.

Til o‘rganishda mental xaritalar yordamida asosiy maqsad – xotira va idrokni kuchaytirishdir. Chet tillarida ko‘pincha juda katta hajmdagi leksik birliklarni o‘rganish zarur bo‘ladi. Bu lug‘at birliklarining aksariyati, agar kontekstda yoki assotsiativ yo‘llar orqali bog‘lanmasa, tezda unutilib ketadi. Masalan, “food” mavzusi doirasida mental xarita tuzish orqali asosiy so‘zlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan sinonim yoki antonimlar, milliy xususiyatlar, tayyorlanish usullari, hatto retseptlarga oid leksik birliklar iyerarxik tarzda bir manzaraga joylashtiriladi. Natijada o‘quvchi bir paytning o‘zida lug‘at boyligining kattagina qismini kompleks tarzda ko‘rishi, ularni mazmunan bog‘lay olishi va ayni paytda o‘zining individual tasavvuriga ko‘ra yangi tarmoqlar qo‘shib borishi mumkin. Bu esa lug‘atni yodlashni jarima sifatida emas, ijodiy faoliyat sifatida qabul qilishga olib keladi.

Mental xaritalar – motivatsiya va mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantiradigan kuchli omil hamdir. Aslida, chet tilini o‘rganish juda uzoq vaqt davom etadigan, matnlarni, so‘zlarni va grammatika qoidalarini puxta bilishni talab qiluvchi jarayon. Agar bu jarayonda eng asosiy muammo – zerikish yoki ma’lumotlar oqimidan charchash – paydo bo‘lsa, o‘quvchi oxir-oqibat o‘z maqsadidan chalg‘ib ketishi mumkin. Mental xarita tuzish esa ijodiy jarayon bo‘lib, quvonchli kashfiyotlar bilan boyitiladi. Har bir rangli tarmoq, har bir yangi qo‘shilgan piktoelement yoki tugun (node) o‘quvchining qiziquvchanligini o‘stiradi, ularga o‘z fantaziyasini ishga solish, matnga yangi qo‘shimchalar kiritish imkonini beradi. Bu esa mustaqil izlanish faollashishiga sabab bo‘ladi. Mustaqil o‘rganish, ayniqsa, oliy o‘quv yurtlari talabalarida yoki til kurslarida tahsil olayotganlar uchun muhim: dars vaqtidan tashqarida ham ular mental xaritalar orqali o‘z xotiralarini mustahkamlashlari, yangi ma’lumotlarni avvalgi bilganlari bilan bevosita bog‘lashlari va shu tarzda tildagi yutuqlarini oshirib borishlari mumkin.

Ushbu vosita kognitiv psixologiya nazariyalari bilan ham mustahkam bog‘liqdir. Konstruktivizm, Gestalt psixologiyasi va assotsiativ o‘rganish nazariyalarida miya asosiy g‘oyalarni o‘zaro bog‘lanishlar orqali saqlashi hamda yangi axborot ularga mos shakllarda integratsiyalashini ta’kidlaydi. Mental xaritalar aynan mana shu jarayonni rasman ifoda etib, o‘quvchi ongida ko‘rinmas aloqalarni aniq chiziqlar va tarmoqlar shaklida mujassamlashtiradi. Bunday taqdimot turi xotira jarayonlarida ishtirok etuvchi turli kanallar (vizual, eshitish, kinestetik) o‘rtasida aloqani kuchaytiradi. Tilga oid ko‘nikmalar, xoh lug‘at, xoh grammatika, xoh talaffuz bo‘lsin, shunday mukammal integratsiyalashuv natijasida tezroq va samaraliroq o‘zlashtiriladi. Eng muhimi, o‘quvchilar o‘zgacha bir ijodiy usul bilan shug‘ullanganliklari tufayli ruhiy bosimni kamaytiradi, bilish jarayoni esa qiziqarli bir tajribaga aylanadi.

Mental xaritalar – tabiiyki, faqat tasviriy chizma yoki qog‘ozda turli grafiklarni bayon etish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy ta’lim sohasida turli onlayn platformalar, ilovalar va dasturlar orqali ham mental xaritalar yaratish imkoniyati mavjud. Ular orasida “MindMeister”, “XMind”, “Coggle” kabi dasturlar mashhur bo‘lib, o‘quvchilar, o‘qituvchilar yoki mustaqil tadqiqotchilarga birgalikda hamkorlikda mental xarita tuzish, uni kengaytirish, tarjima bo‘limlarini qo‘shish va boshqa turli funksiyalarni amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shu tariqa, an’anaviy qog‘ozdagi rasmiy chizmalar virtual olamdagi interaktiv loyiha shakliga aylanadi. Bunday dasturiy ta’minotlar til o‘rganayotganlarga zudlik bilan yangi so‘zlarni qo‘shish, kerakli o‘rinda mavzu bo‘limlarini qayta tuzatish va doimiy ravishda o‘z xaritasini takomillashtirib borish imkonini beradi. Natijada, chet tilini

o‘rganish jarayonida ko‘nikmalarni mustahkamlash, takrorlash va tahlil qilish ancha qulayroq tus oladi.

Til o‘rganishda mental xaritalar yana bir muhim jihatga – integrativ usullarga ham asos bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar biror mavzu doirasida bitta mental xarita yaratib, unga matnlarni o‘qish jarayonida aniqlangan asosiy g‘oyalarni, so‘zlarni va iboralarni joylashtirishi, keyinroq esa ushbu xarita asosida og‘zaki yoki yozma nutq tayyorlashi mumkin. Bu multimodal yondashuv bo‘lib, o‘qish (reading), tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking) va yozish (writing) kompetensiyalarining barchasini bir vaqtda o‘stiradi. O‘quvchi mavzuni o‘rganishning har bir bosqichida mental xarita tarkibini boyitib borishi tufayli yakunda mavzu bo‘yicha atroflicha bilimga ega bo‘ladi. Bunda u, masalan, “Environment” mavzusi bo‘yicha mental xarita tuzsa, tabiat muhofazasi, iqlim o‘zgarishi, chiqindilarni qayta ishlash, energetika masalalari, geografik faktlar, ijtimoiy siyosat kabi turli bo‘limlarga ajratilgan konsepsiyani birlashtirgan bo‘ladi. Shunday integratsiya natijasida faqat lug‘at o‘rganish bilan cheklanilmay, balki mavzu borasida keng qamrovli bilim paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, mental xaritalar til o‘rganish jarayonida oddiy ko‘rgazmali chizma emas, balki bilimlar arxitekturasini barpo etishga xizmat qiladigan kognitiv vositadir. Mazkur usulni qo‘llash o‘quvchilarda ichki motivatsiya, ijodiy yondashuv va uzoq muddatli xotirani shakllantirish uchun boy imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda til o‘rganish metodikasi juda ko‘p yondashuvlarni taklif qilsa-da, mental xaritalar boshdan-oyoq o‘quvchi miyasi faoliyatini izchil yo‘lga solish, yangi leksik birliklar va grammatik shakllarni “yopishqoq” tarzda ongga mustahkamlash qobiliyati bilan ajralib turadi. Shuningdek, ularning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi o‘qituvchi va o‘quvchilarga cheksiz ijodiy erkinlik beradi. Natijada, chet tilini o‘rganish jarayonida avvaldan mavjud xotira va tashkiliy muammolar aniq bir yechim topadi, jarayonning samaradorligi ortib, til o‘rganish nafaqat majburiyat, balki ma’naviy rohat bag‘ishlaydigan faoliyatga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Novak, J. D., Gowin, D. B.*Learning How to Learn* / J. D. Novak, D. B. Gowin. – Cambridge : Cambridge University Press, 1984. – 199 p.

2. Eppler, M. J.*A Comparison between Concept Maps, Mind Maps, Conceptual Diagrams, and Visual Metaphors as Complementary Tools for Knowledge Construction and Sharing* / M. J. Eppler // *Information Visualization*. – 2006. – Vol. 5. – No. 3. – P. 202–210.

3. Wang, H.-C., Lee, C.-W.Applying Mind Maps to Language Learning: A Case Study in Vocabulary Development / H.-C. Wang, C.-W. Lee // *Educational Technology & Society*. – 2018. – Vol. 21. – No. 4. – P. 180–192.

4. Moon, J.*A Handbook of Reflective and Experiential Learning: Theory and Practice* / J. Moon. – London : Routledge, 2004. – 214 p.

UO’K 37.02

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA ATROF-MUHITGA MA’SULIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

T.Ashurova, dots., Osiyo texnologiyalar universiteti, Toshkent
D.Omonova, magistrant, Osiyo texnologiyalar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida maktabgacha ta’limda yuz berayotgan o’zgarishlar, ta’limdagi o’zgarishlarga bo’lajak tarbiyachilarning yondoshuvi haqidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Bundan tashqari maktabgach yoshdagi bolalarda atrof-muhitga nisbatan ma’suliyatli munosabatni shakllantirish haqida ham fikr yuritilgan. Xususan maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga munosabatni shkllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotining o’rni ko’rsatib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Globallashuv jarayoni, mamlakat, maktabgacha ta’lim, ma’suliyat, tendendensiya, ta’lim-tarbiya, taraqqiyot, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi.*

Аннотация. *В данной статье представлены изменения, происходящие в дошкольном образовании в условиях современной глобализации, мнения о подходе будущих педагогов к изменениям в образовании. Кроме того, рассматривалось формирование ответственного отношения к окружающей среде у детей дошкольного возраста. В частности, показана роль организации дошкольного образования в формировании отношения к природе у дошкольников.*

Ключевые слова: *Ключевые слова: процесс глобализации, страна, дошкольное образование, ответственность, тенденция, образование-воспитание, прогресс, воспитатель, воспитанник.*

Abstract. *This article provides feedback on the changes in preschool education in today's globalization process, the approach of future educators to changes in education. In addition, it was also thought about the formation of a responsible attitude towards the environment in children of post-school age. In particular, the role of the preschool educational organization in shklining the attitude to nature in preschool children is indicated.*

Keywords: *globalization process, country, preschool education, education, trend, Education, Development, educator, educator.*

Hech kimga sir emaski bugungi kunda maktabgacha ta’limga bo’lgan etibor nihoyatda jadal ravishda o’sib borayotgan bir davrda ushbu soha mutaxasislarini kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlash ham biz ustozlarga juda katta masuliyat yuklaydi.Mamlakatimizning kelajagi farzandlarimizni qo’lida ekan,ularga tehsil beradigan tarbiyachilar puxta bilimga ega bo’lishi shart,

Dunyoda yuzaga kelgan qator tendensiyalar ta’lim-tarbiya jarayonini, xususan maktabgacha ta’lim sohasi rivojlanishining o‘zgacha tus olishiga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim taraqqiyotiga bo‘lgan e’tibor yuksak darajada rivojlanayotgan bugungi zamonda, maktabgacha ta’lim sohasida ham tub burilishlar davri yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Maktabgacha yosh davri inson tafakkuri shakllanishidagi eng muhim bosqich sifatida olimlar tomonidan aniq dalillarga asoslanib e’tirof qilinganligi bois, ushbu yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”.[1] Ushbu so‘zlarning isboti sifatida mazkur yo‘nalishda ko‘plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2707-sonli qarorga muvofiq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3261-sonli Qarori, Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5198-sonli Qarori asnosida yangi Maktabgacha ta’lim vazirligi o‘z faoliyatini boshladi va keyingi qadamda Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3955-sonli Qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, 2030 yilgacha maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.[2]

Maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning barchasi barkamol va intellektual rivojlangan, eng muhimi hayot sinovlarida o‘z maqsadi va mustahkam pozitsiyasiga ega bo‘lgan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. "Yoshlikda o‘rganilgan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir" deyilgan xalqimizning purma'no maqoli bejiz emas. Bolalarning har tomonlama yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida kamol topishlarida albatta tarbiyachi-pedagoglarning o‘rni, ahamiyati kattadir. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga kirib borishlarida ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muhim masala sanaladi. Dunyoda rivojlanib borayotgan mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratganimizda, rivojlanishning yetakchi kuchi sifatida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashdan iborat bo‘lmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining eng ustuvor jihatlari bo‘lajak tarbiyachilarning ilmiy salohiyatiga asoslanishini nazarda tutgan holda, sohada eng ilg‘or kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ko‘plab amaliy vazifalar ijrosi amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Har bir soha ilmini chuqur egallash hamda uni boyitib borish uchun ma`lum bir bosqichlardan o‘tish talab etiladi. Ana shu kabi bosqichlardan biri sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini keltirishimiz mumkin. Bu ta'lim sohasidagi kichik bo‘g‘inlardan biri hisoblansada, ammo inson hayoti va uning kamoloti uchun katta ahamiyat kasb etadigan davr hisoblanadi. Zero, bola hayoti uchun kerak bo‘ladigan axborotlarning eng katta qismini aynan maktabgacha ta'lim yoshida egallab bo‘ladi degan qarashlar hozirgi kunda bizga notanish emas.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, bugungi kunga kelib maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini atrof-muhit bilan tanishtirishga nisbatan yangicha, kreativ yondashuvlarni izlab topish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda esa tabiat bizning asosiy vositamiz bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, ularda tabiatga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof- muhit haqidagi real bilimlarni anglab yetishning ta`limiy va tarbiyaviy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ba`zi kuzatishlarning tasdiqlashicha, bolalarning atrof–muhitdagi faoliyati asosan o‘z-o‘zidan, tartibsiz va kutilmagan tarzda kechadi, buni ulardagi tabiatga bo‘lgan ba`zi salbiy munosabatlarning asosiy sababi deb hisoblash mumkin. Oila, mahalla, bir so‘z bilan aytganda, tevarak atrofdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining pedagogik ta`siri bilan bunday nojoiz faoliaytlarga tuzatishlar kiritib boriladi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdanoq bolalarni tabiat, atrof–muhit haqidagi ishonarli va aniq bo‘lgan ma'lumotlarni egallab borishlari juda muhim. Bu kabi ma`lumotlarni qiziqarliligi va tarbiyaviy ahamiyatini oshirgan holda bolalarga yetkazib berish biz kattalar hamda pedagoglar zimmasiga tushadi desak adashmaymiz. Chunki, "Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, o‘simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o‘z vatanini tabiatini sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi".

Shu bilan birga jamiyat a'zolarining o‘zi yashab turgan jamiyat va tabiat oldidagi, o‘z faoliyati, xatti-harakatlari hamda atrofidagilar (yaqin qarindoshlari, o‘rtoqlari, hamkasblari va sh.k.) oldidagi mas'uliyatini anglashi, his etishi ushbu jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim kategoriya hisoblanadi. Shu sababli ham uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo‘lmish maktabgacha ta'lim davridan boshlaboq bolada axloqiy sifatlar bilan bir qatorda mas'uliyatlilikni tarkib toptirib borish bola shaxsini har tomonlama tarbiyalashda muhimdir. Bolaning nafaqat muvaffaqiyatli tarbiya topishi, balki hayotiy pozitsiyasining shakllanishi maktabgacha yoshdagi bola axloqiy jihatdan qanday tarbiyalanganiga bog‘liq, chunki bu davrda bolada tashabbuskorlik, tashkilotchilik, kommunikativlik, mustaqillik, mas'uliyatlilik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O‘qituvchi va murabbiylar" kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020, http://ma'rifat.uz

2. Xolmamatov O. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari moduli bo'yicha ishchi o'quv-mavzu reja va dasturi / Samarqand 2019. -B.3.

3. Nurullaeva Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish. Monografiya. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 125 b.
4. Abdullaeva T. Milliy iftixor hissini tarbiyalash: Tabiatshunoslik // Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent, 2002. – № 4. – B. 12-15.
5. Adulla.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 129-bet.
6. Azimov Y.Y.. Husnixat va uni o‘qitish usuliyoti (O‘quv-usuliy qo‘llanma). – Buxoro, 2008, – 104 bet.
7. Amir Temur o‘gitlari. Tuzuvchi B.Ahmedov, A.Aminov. – Toshkent: O‘bzekiston, 20074. – 64 b.
8. Djuraev R.H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent: O‘zPFITI, 2010. – 133 b
9. Umarova M.X. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi. Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2009. – 212 b.

UDC 37.016:811.161.1:373.3(045)

DEVELOPMENT OF A SYSTEM OF TEACHING TASKS FOR FORMING STUDENTS' CORRECT PRONUNCIATION SKILLS IN PRIMARY GRADE NATIVE LANGUAGE LESSONS

G.Sh. Atamurodova, teacher, International School of Finance and Technology Institute Samarkand Branch, Samarkand

Annotatsiya. *Ma’lumki, hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalashda asosiy e’tibor o‘zbek tili va adabiyotini o‘quvchilarga singdirish, ularga milliy urf-odatlarni o‘rgatish birlamchi omil sifatida ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda pedagogdan boshlang‘ich sinflardan boshlab nutq tovushlarining ma’nosini farqlash, vazifasini aniqlab, o‘quvchilarning so‘z boyligini boyitish talab etiladi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf ona tili darslarida to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchilarda adabiy talaffuzni o‘rgatish uchun mashq va topshiriqlar ishlab chiqishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar. *Nutq malakalari, fonetik mashqlar, nutq tovushlari, to‘g‘ri talaffuz, test va topshiriqlar, adabiy til me’yorlari.*

Аннотация. *Как известно, в воспитании подрастающего поколения основное внимание уделяется привитию учащимся узбекского языка и литературы, привитию им национальных традиций как первостепенного фактора. В связи с этим от учителя требуется учить детей различать значение звуков речи, определять их функцию, обогащать словарный запас, начиная с младших классов. Целью данной статьи является разработка упражнений и заданий для обучения учащихся литературному произношению путем развития навыков правильного произношения на уроках родного языка в начальной школе.*

Ключевые слова. *Речевые навыки, фонетические упражнения, звуки речи, правильное произношение, тесты и задания, нормы литературного языка.*

Abstract. *As is known, in the upbringing of the younger generation, the main focus is on instilling the Uzbek language and literature in students, teaching them national traditions as a primary factor. In this regard, the teacher is required to distinguish the meaning of speech sounds, determine their function, and enrich the vocabulary of students, starting from primary grades. This article is aimed at developing exercises and tasks for teaching literary pronunciation to students by developing correct pronunciation skills in primary school native language classes.*

Key words. *Speech skills, phonetic exercises, speech sounds, correct pronunciation, tests and tasks, literary language norms.*

In order to ensure the improvement of the purpose and content of the correct pronunciation education in native language classes, the role of exercises on speech sounds is very large. Because with their help, conditions are created for the student to speak in the literary language, to use its diverse capabilities. This issue, that is, the issue of interpreting phonetic materials in textbooks, is presented in English, German, and French textbooks in a more complete, complete, and diverse form, and it is noteworthy that the use of phonetic exercises is continued in educational processes after primary grades [1].

The literary language and pronunciation norms, which are an important component of it, are manifested as the face of the nation, a sign of civilization, and also ensure that the communication between representatives of this nation is understandable and effective. While working on

pronunciation in native language lessons, the correct pronunciation of all sounds does not require special training. In every language, there are speech sounds that are problematic in pronunciation and spelling. Including in Uzbek. Basically, students, representatives of all fields, and most regrettably, some specialist teachers also regularly make mistakes in pronouncing and spelling such sounds as [x]–[h], [u]–[o‘], [i]–[e] and in some regions [q], [ng]. O‘. Usmonova cites dialects as the reason for the difficulties in solving this issue [2]. The researcher emphasizes that the issue of pronunciation is still not studied in the Uzbek language, and in this regard, he relies on the valuable ideas of the scientist F.K. Kamolov, who was the first to set the norms of literary pronunciation, and Professor S.I. Ibrohimov.

Even today, difficulties are encountered in teaching the pronunciation of some vowels and consonants. If we take into account that the cause of the variety in pronunciation is dialect, it becomes clear that an effective way to form literary pronunciation is to work on phonetic exercises. The most confusion in both pronunciation and writing is associated with the guttural consonant [h]. To eliminate it, the following approach is recommended [3]:

If we use specially designed phonetic exercises and oscillographic images reflecting the pronunciation of these sounds using a video projector (if this is not possible, they can also be recorded on posters), the result may change to a positive one. In our opinion, the means of developing speech skills is the regular use of the following exercises. Pronunciation and spelling of the letters [X] and [H] [4]:

h-h-h-h-h-h	x-x-x-x-x-x
ham – (va bog‘lovchi)	xam – (egik)
hamma – (barcha, jami)	xamma – (bug‘doy saqlanadigan idish)
hil – (bug‘)	xil – (tur)
hush (es, aql)	xush – (yaxshi, ajoyib)
shoh – (podshoh)	shox – (novda)
hol – (ahvol)	xol – (meng, tanadagi belgi)

As you can see, in the pronunciation of the [h] - pharyngeal consonant, unlike the sound [x], the air flow coming from the lungs passes freely between the tongue and the palate in the oral cavity, and it is formed almost noiselessly: h-h-h...

The scientific literature emphasizes that the [h] pharyngeal consonant does not occur in words of its own class [5]:

The consonant “h” is used in words of the acquired lexicon and does not occur in words of its own lexicon. Although it is articulated according to the Uzbek orthoepic norm, in the living language it is more closely related to the deep lingual back sound. Therefore, in dialects other than the Bukhara and Samarkand dialects, it cannot be distinguished from the deep lingual back consonant.

Nevertheless, it cannot be denied that the throat consonant is involved in words unique to the Uzbek language, such as hil-hil, eh, ho, himm, ha, huvv, hoy, oh, and the pronunciation of this sound is not alien to Uzbeks.

When pronouncing the consonant [x], the back of the tongue is very close to the hard palate, so the air flow coming from the lungs is squeezed through a narrow gap, resulting in a strong noise due to strong vibration: x-x-x...

Below we recommend special exercises and tasks on the pronunciation and spelling of the throat consonant [7]:

Exercise 1. Read the following information and practice pronouncing it correctly.

[h] is the only consonant sound formed in the throat, and the air coming from the lungs encounters an obstacle in the throat. Its difference from vowels is that it consists of noise.The deep lingual back consonant [x] differs from the pronunciation:

[h] - in the pronunciation, the tongue does not touch the palate, does not vibrate.

[x] - in the pronunciation, the back of the tongue touches the hard palate and the air pressure coming from the lungs slides between the tongue and the palate and vibrates.

hal – hol – hil – ho‘l	xol – xil – xo‘r – xas
hol– xol	hush – xush

ham – xam	hil – xil
hamma – xamma	hatto – xato

If the teacher explains this situation in detail through a video projector (due to its large size, all the students in the class can clearly see the image, and this is the most important thing), and can pronounce it correctly on this basis, the result will be as desired. Then, for reinforcement, a text, for example, Muhammad Yusuf's poem "Ilm istang" with the letters [h] and [x], is displayed on the screen with the letters [h] and [x], so that students can simultaneously apply what they have learned independently in practice. Time is also saved. As a homework assignment, they are given to find and write 20 words containing the sound [x] or [h] using the example of a favorite work. In this regard, working more on poetic texts will give better results.

Exercise 1. Put the necessary letters in the blanks in the given poetic text and read the poem expressively.

Alp o‘g‘lonlar o‘lkasi bu ko‘…na Turon,
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.
Yarim ja…on bunyod etgan So…ibqiron,
Alisherning avlodlari, ilm istang.
Ilm istang, izingizdan ibrat yog‘sin,
I…losingiz sha…dingizdan shiddat yog‘sin,
Ortingizdan mag‘rur-mag‘rur millat yog‘sin
Mulki Turon najotlari, ilm istang. (M.Yusuf)

Exercise 2. Find 15 examples of words containing the consonants [x] and [h] from a work assigned as homework in the "Literature" textbook, write them down in your notebook, and get used to pronouncing them correctly.

Expression of the stop sign [6]: There are shortcomings in the pronunciation of words containing the stop sign, and sometimes in their spelling. Although textbooks provide detailed information about the three functions of this sign, in pronunciation

Such exercises, firstly, ensure that the student's speech is accustomed to literary pronunciation, and secondly, they enrich the student's knowledge of the Russian and Uzbek languages. In addition, when pronouncing the words in this exercise as examples, the teacher tries to explain the meaning of the words to the students and uses synonyms, which also helps to increase the student's vocabulary. Or, if, after the pronunciation exercise, the students are given the task of finding other words that correspond in meaning to the Uzbek words, conditions are created for their independent work, thinking, and applying what they have learned in practice.

The student's oral speech comes to school shaped by the place where he was born and raised, his family, and his relatives. Sometimes it is quite difficult to transfer them from the state they are accustomed to to the framework of literary pronunciation standards. In such conditions, the teacher, of course, should start the initial activity in the process of teaching correct pronunciation by focusing on working on speech sounds that are difficult to pronounce due to regional problems. Otherwise, some students will remain unable to pronounce some speech sounds even when they reach adulthood. Such "speech defects" can hinder the student in cultural circles for life. If the teacher pays special attention to students who have problems with oral speech in a timely manner and regularly works on special pronunciation exercises, there will be no room for problems.

In our opinion, a comprehensive study of the problems in this regard based on the analysis of the formation and historical development of educational materials on correct pronunciation will allow us to find solutions to them.

REFERENCES:

1. GR Bozorova, Effective ways to teach the life and creativity of Muhammad Yusuf in school literature education. Международный журнал языка, образования, перевода 3 (2). 2022.

2. Bozorova, G., & Eshniyazova, M. Zahiriddin Muhammad Bobur Hayoti Va Ijodini o'rganishda Interaktiv Metodlardan Foydalanish. Lteachin Anguage, 156.

3. Nafisa, K., & Kamola, A. (2024). The Problem Of Teaching Students Lexical And Phraseological Features In Translation Studies Of Phrasal Verbs In English And Uzbek Languages. Eurasian Journal Of Academic Research, 4(10), 39-42.

4. Nafisa, K., & Matluba, D. (2023). Psychological And Pedagogical Aspects Of Research Into The Problem Of Bilingual Foreign Language Teaching. Conferencea, 31-34.

5. Tasheva, D. S., & Kubaeva, N. A. (2022). Modern educational technologies in the aspect of a student-centered approach in teaching foreign languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 12, 35.

6. Tasheva Dilorom, Djanzakova Matluba. The role of literary text in teaching the Russian language. International Multidisciplinary Conference. Manchester, England. 25th December 2023. -p.19. https://conferencea.org

7. Tasheva, D. (2022). Methods Of Using Didactic Materials To Enhance Activities In The Russian Language Lessons. Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(1), 325-328.

UDC 37.02

THE NECESSITY AND IMPORTANCE OF TEACHING STUDENTS A FOREIGN LANGUAGE IN MEDICAL SCHOOLS

U.A.Azzamova, trainee assistant, Samarkand State Medical University, Samarkand

Annotatsiya. *Bugungi kunda taraqqiy etayotgan soha mutaxassislaridan xorijiy tillarni o'rganish zaruriy ehtiyojlardan biridir. Ushbu maqolada tibbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'rganish zaruriyati va o'quv jarayonida foydalaniladigan ta'lim metodlari va uning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tibbiy ta'lim muassasalari, ta'lim metodlari, o'quv jarayoni, xorijiy til, ta'lim sifati.*

Аннотация. *Сегодня изучение иностранных языков у специалистов развивающейся отрасли является одной из основных потребностей. В данной статье освещается необходимость изучения иностранного языка в медицинских образовательных учреждениях и методы обучения, используемые в образовательном процессе, и его специфика.*

Ключевые слова: *медицинские учебные заведения, методы обучения, учебный процесс, иностранный язык, качество образования.*

Abstract. *Learning foreign languages from professionals in the developing field today is one of the necessary needs. This article covers the need to learn a foreign language in medical educational institutions and the methods of Education used in the educational process and its peculiarities.*

Keywords: *medical educational institutions, educational methods, educational process, foreign language, quality of Education.*

Over the years of independence, a lot of work has been done to modernize the higher education system, introduce modern forms and technologies of vocational training and improve the skills of specialists, taking into account the real needs of the economy and social life. Of course, organizations are interested in studying the medical aspects of international educational programs. Each of the developed countries has developed a separate model for studying medicine in a foreign language, and efforts are being made to adapt these standards to our national trends.

In modern conditions, serious requirements are placed on the level of training of any specialist. Knowledge of a foreign language is a very important and essential component of this training. The state standard of higher professional education requires taking into account professional specifics when studying foreign languages in non-specialized universities. It provides for a professionally oriented approach to learning and aims to develop students' ability and willingness to communicate in professional, business, and scientific fields. Learning a foreign language should take into account the peculiarities of professional thinking, the individual needs of students, and be accompanied by the development of their personal qualities[1]. These aspects are extremely important for the organization of the educational process at a medical university.

In our opinion, the general cultural competence of a medical specialist in a foreign language should reflect the willingness and ability to master a foreign language in the field of everyday and professional communication at a level sufficient to carry out certain types of professional activities, for example: if the clock standards for the regional component, it is possible to introduce similar foreign language courses not only in the first, but also in the senior courses (as elective or optional), where, as the experience of the Department of Foreign Languages of medical universities shows and, students are more motivated to learn a foreign language. The next important aspect of the practice of

teaching a foreign language in a medical university is the moral and ethical one. The moral component, being an integral part of the learning and upbringing process, provides that students acquire a number of professional qualities and values during their studies, which will be based on the willingness to put the patient's needs first. Below we present to your attention measures to improve the teaching of foreign languages, which are beginning to be implemented in the teaching practice at our institute. There is a wide selection of authentic English textbooks offered by Oxford, Cambridge, Pearson, and Longman publishers for medical specialties (for example, Good Practice: Communication Skills in English for the Medical Practitioner: Cambridge Professional English). All textbooks are full-fledged educational and methodical complexes with audio, online resources, tests, methodological recommendations for teachers (Teacher's book, Students book, Work book on Dentistry). This allows you to create a complete language course for medical students of almost any language level [2].

Teaching a foreign language in medical universities has its own characteristics, which are aimed at preparing students for future professional activities, their scientific research and international cooperation. For students of the medical direction, a foreign language is not only an element of general literacy, but also a professional necessity. Specific aspects of teaching:

1. Professional orientation:

• Medical Dictionary: the main part of the course includes medical terminology, Latin terms and foreign language professional words. Students learn vocabulary related to diseases, treatments, pharmaceuticals, and other areas of Medicine.

• Professional texts: textbooks and teaching materials will consist of medical articles, clinical studies, medical conference materials and other professional texts on medicine.

• Professional communication: the focus is on the development of students ' skills to communicate with Clerks, patients and foreign colleagues.

2. Practical direction:

• Practical training: classroom training includes practical exercises such as simulating professional situations, clinical discussions, patient interviews and analysis of medical reports.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolada biz yangi birlamchi ma'lumotlar to‘plashdan ko‘ra, mavjud ikkilamchi axborot manbalari orqali ma'lumotlarni yig'ishga ustunlik berganmiz. Tadqiqotning izchilligini ta'minlash maqsadida ko‘plab turli xil ma'lumot manbalari ko‘rib chiqildi.Adabiyotlar tanqidi ilmiy jurnal portallari, internet nashrlar va "ChatGPT" hamda "talaba samaradorligi" kabi kalit so‘zlar bilan bog'liq ma'lumotlar bazalaridan olingan materiallarni o‘z ichiga oladi. Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot sifat tahlili doirasiga kiradi.Ma'lumotlar to‘plash jarayoni muhim axborotni sinchkovlik bilan tinglash va puxta qayd etish kabi usullarni o‘z ichiga olgan. To‘plangan materiallar keyinchalik ma'lumotlarni qisqartirish, taqdim etish va yakuniy xulosalarni shakllantirish texnikalaridan foydalangan holda tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot oliy ta'limdagi talabalar samaradorligining oshirishda sun'iy intellektga asoslangan chatbotlardan, xususan, ChatGPTdan foydalanishning ta'sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifat tahlili yondashuvi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, quyidagi tadqiqot usullari qo‘llanilgan:

1. Mavzuga doir adabiyotlar, ilmiy maqolalar va internet nashrlari o‘rganilib, ChatGPT va talabalar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga harakat qilindi. Ushbu jarayonda ilmiy jurnal portallari va turli axborot manbalaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni saralashda "ChatGPT" va "talaba samaradorligi" kabi kalit so‘zlar asosida ilmiy materiallar tahlil qilindi.
2. Tadqiqot doirasida mavjud ma'lumotlar ikkilamchi axborot manbalari orqali yig‘ildi.
3. Tadqiqot metodologik jihatdan sifat tahlili doirasiga kiradi. Sifat tahlili talabalarning ChatGPTdan foydalanish tajribalarini tushunishga, uning samaradorlikka ta'sirini baholashga imkon yaratdi.

Tahlil va natijalar. OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan til modeli sifatida ChatGPT talabalar faoliyati samaradorligini bir qancha yo‘nalishlar bo‘yicha sezilarli darajada oshiradi. Quydagilar ChatGPTning talabalar bilim saviyasini yuksaltirishdagi asosiy qirralari hisoblanadi:

Zaruriy ma'lumotlar va resurslar bilan ta'minlash. ChatGPT talabalarga vazifalar va loyihalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerakli ma'lumotlar hamda manbalarni taqdim etishga qodir. Misol uchun, talabalar muayyan mavzu yuzasidan ChatGPTga savollar yo‘llashlari mumkin va model internet ma'lumotlariga asoslangan javoblarni beradi. Bundan tashqari, ChatGPT talaba o‘rganayotgan mavzuga doir maqolalar va kitoblarni ham tavsiya eta oladi [2,15].

Til ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish. Sun’iy intellektga asoslangan til modeli sifatida ChatGPT talabalarga til bilimlarini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Talabalar grammatik xatolarni bartaraf etish, lug’at boyligini kengaytirish va yozma nutq malakalarini oshirish maqsadida ChatGPTdan foydalanishlari mumkin. Shuningdek, talabalar o‘quv topshiriqlarini topshirishdan avval ularni takomillashtirish uchun ushbu vositadan samarali foydalanishlari mumkin. [3,10]

Talabalar hamkorligini qo‘llab-quvvatlash. ChatGPT talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kuchaytiradigan vosita vazifasini o‘tashi mumkin. Talabalar ushbu platformadan o‘zaro aloqa o‘rnatish, g’oyalarni almashish, loyihalarni baham ko‘rish va konstruktiv fikr-mulohazalar berish uchun foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, ChatGPT talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni yengillashtiradi, shuningdek talabalarga mavzularni chuqurroq anglashda yordam beradi [4,15].

Vaqt boshqaruvi va unumdorlikni yuksaltirish. ChatGPT talabalarga vaqtdan unumli foydalanish va ish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, talabalar ChatGPT yordamida o‘quv jadvallarini tartibga solishlari, topshiriqlar muddatlarini kuzatishlari va bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ro‘yxatini yuritishlari mumkin. Bu orqali talabalar vaqtni samarali taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar hamda muhim vazifalar va muddatlarni o‘tkazib yuborish xavfini kamaytiradilar.Ruhiy qo‘llab-quvvatlash va ilhomlantirish. ChatGPT talabalarning ma’naviy tayanchi va motivatsiya manbai sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Talabalar stressni boshqarish, xavotirlarni kamaytirish yoki vaqt hamda topshiriqlarni samarali rejalashtirish bo‘yicha maslahatlar olish uchun bu platformaga murojaat qilishlari mumkin [5,276].Zarur ma’lumotlar va resurslar bilan ta’minlash, til ko‘nikmalarini rivojlantirish, hamkorlikni mustahkamlash, vaqtdan unumli foydalanish hamda ruhiy qo‘llab-quvvatlash orqali, ChatGPT talabalarga o‘quv maqsadlariga erishishda va ta’lim sifatini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi.Shunday qilib, ChatGPT talabalar faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishga qodir. Foydali axborot va manbalar taqdim etish, til bilimlarini takomillashtirish, hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, vaqtni oqilona boshqarish va motivatsiya berish orqali, ChatGPT talabalarga akademik yutuqlarga erishishda va o‘zlashtirish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.Biroq, ChatGPTni insoniy muloqot o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki talabalarning akademik maqsadlariga erishish va bilim olish jarayonida ko‘maklashuvchi yordamchi sifatida qabul qilish lozim.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: avvalo, talabalar ChatGPTdan tanqidiy fikrlash asosida foydalanishi va ushbu sun’iy intellekt tizimi taqdim etayotgan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini sinchkovlik bilan baholashi muhim ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, professor-o‘qituvchilar va oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish va ta’lim sifatini oshirish maqsadida ChatGPTdan foydalanishlari mumkin, lekin bu jarayonda sun’iy intellekt va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga alohida e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Atlas S. ChatGPT for Higher eucation and professional development: A guide to conversational AI. Digital commons, University of Rhode Island. 2023.

2. Basic Z., Banovac A., Kruzic I., & Jerkovic I. Better by you, better than me, ChatGPT-3.5 as writing assistance in students’ essays. arxiv, 2. 2023

3. Cotton D. R. E., & Shipway R. Chatting and Cheating. Ensuring academic integrity in the era of ChatGPT. ResearchGate, 1, 1–12. 2023

4.Essel H.B., Vlachopoulos D. Tachie-Menson A., Johnson E.E., & BaahbP.K. The impact of a virtual teaching assistant (chatbot) on students’ learning in Ghanaian higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 19(1),57. 2022. https://doi.org/10.1186/s41239-022-00362-6

4.Haleem A., Javaid M., Qadri M.A., & Suman R. Understanding the role of digital technologies in education: A review. Sustainable Operations and Computers, 3, 275–285. https://doi.org/10.1016/j.susoc.2022.05.004

5.Hassani H., & Silva E.S. The role of ChatGPT in data science: How AI-assisted conversational Interfaces are revolutionizing the field. Big data and cognitive computing, 7(2), 62. 2023.

6.Latipova N. Теория и методика раннего обучения иностранным языкам //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – С. 687-689.

7. Latipov A. The framework of the theory of “development of the second language acquistion” //Интернаука. – 2020. – №. 19-4. – С. 21-23.

8. Tlili A., Shehata B., Adarkwah M.A., Bozkurt A., Hickey D.T., Huang R., & Agyemang B. What if the devil is my guardian angel: ChatGPT as a case study of using chatbots in education. Smart Learning Environments. 2023 10(1), https://doi.org/10.1186/s40561-023-00237-x.

UO'K 528.942

INGLIZ TILINI O'QITISHDA AUDIO-VIZUAL MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Sh.Sh. Mamanabiyeva, o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent
A.L. Talibjanova, o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ingliz tilini o'rganish jarayonida samarali metodlar va resurslarni qo'llash juda muhim. Audio-vizual materiallar — kino, videolar, musiqalar va boshqa turdagi resurslar — til o'rganishning samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada audio-vizual materiallarning ingliz tilini o'rganishdagi ahamiyati va ularni darslarda qanday samarali qo'llash mumkinligi ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qituvchilar uchun audio-vizual resurslarni tanlash va ularni darslarida integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ingliz tili, audio-vizual materiallar, kino, video, musiqa, til o'rganish, dars materiallari, interaktiv ta'lim.*

Аннотация*. В процессе изучения английского языка очень важно применять эффективные методы и ресурсы. Аудиовизуальные материалы — фильмы, видеоролики, музыка и другие виды ресурсов — повышают эффективность обучения языку. В данной статье рассматривается значение аудиовизуальных материалов в изучении английского языка и способы их эффективного применения на уроках. В статье представлены рекомендации для преподавателей по выбору аудиовизуальных ресурсов и интеграции их в учебный процесс.*

Ключевые слова: *Английский язык, аудиовизуальные материалы, кино, видео, музыка, изучение языка, учебные материалы, интерактивное обучение.*

Abstract*. The use of effective methods and resources is crucial in the process of learning English. Audio-visual materials — such as films, videos, music, and other types of resources — enhance the effectiveness of language learning. This article explores the importance of audio-visual materials in learning English and how they can be effectively applied in lessons. The article provides recommendations for teachers on selecting audio-visual resources and integrating them into their lessons.*

Key words: *English language, audio-visual materials, films, videos, music, language learning, lesson materials, interactive learning.*

Kirish. Ingliz tilini o'rganish jarayonida texnologiya va zamonaviy resurslardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda o'qituvchilar uchun audio-vizual materiallar, masalan, kino, video darslar, musiqalar va boshqa multimediya vositalari til o'rgatishda keng qo'llanilmoqda. Ushbu resurslar o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Kino va videolar talabalarga tilni haqiqiy hayotdagi holatlarda qanday ishlatilishini ko'rsatadi, musiqalar esa nutqning tabiiy ritmi va intonatsiyasini o'rgatishda yordam beradi. Audio-vizual materiallar til o'rganishdagi barcha ko'nikmalarni rivojlantirishda — tinglash, gapirish, o'qish va yozish — samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Audio-vizual kontentni ishlatish o'quvchilarga ko'proq tahliliy yondashuvni talab qiladi. O'quvchilar mualliflik, uslub, kontekst va mavzularni tahlil qilishga o'zlarini jalb qilishlari kerak. Bu tahlil jarayoni esa tilni o'rganish jarayonida kritik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Ingliz tilini o'qitishda audio-vizual materiallardan foydalanish hodisalar va zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bizga ma'lumki, globalizatsiya jarayoni davomida ingliz tili dunyoning ko'plab mamlakatlarida muhim kommunikatsiya vositasi bo'lib qolmoqda. Bu esa ingliz tilini o'qitishni yanada dolzarb qiladi. O'quvchilar audio-vizual materiallar orqali tilni real hayotdagi kontekstda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularni xalqaro platformalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlaydi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, internet va mobil qurilmalar, o'qituvchilarga keng ko'lamda

audio-vizual materiallarni o‘z darslarga kiritish imkonini beradi. Online platformalarda taqdim etilgan video darslar, interaktiv o‘yinlar va multimedia resurslar orqali o‘quvchilar ko‘proq qiziqish bilan ingliz tilini o‘rganishga rag‘batlanadi. Bu esa o‘qitish jarayonini diversifikatsiyalashga yordam beradi. Bugungi kunda yosh avlod multimedia va interaktiv kontentga o‘ziga xos qiziqish bilan qaraydi. Ular ko‘proq video, musiqa va o‘yinlar yordamida o‘qishga tayyorlar. Audio-vizual materiallar yordamida ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o‘qish jarayonida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida audio-vizual materiallar orqali madaniyat, urf-odatlar va boshqalar bilan tanishish o‘quvchilarning global fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bu esa ularga boshqa mamlakatlar bilan yanada samarali muloqot qilishda foydali bo‘ladi. Audio-vizual materiallar orqali o‘quvchilar tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliyotda ham o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Bu materiallar yordamida o‘quvchilar dialoglar, munozaralar va boshqa kommunikatsion vazifalarni bajara olishadi, bu esa til ko‘nikmalarini rivojlantirishda juda muhimdir. Shu bois, ingliz tilini o‘qitishda audio-vizual materiallardan foydalanish hozirgi kunda dolzarb masala bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishini jalb etish va zamonaviy talablarni qondirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar uchun bu usullarni qo‘llash, o‘quvchilarning o‘zlarini ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni global jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga ko‘maklashishi uchun muhim imkoniyatdir.

Audio-vizual materiallar, ayniqsa kino, video va musiqa, til o‘rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular tilni faqat grammatika yoki lug‘at o‘rganishdan tashqari, muloqotda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. Kino va video materiallar bir qancha afzalliklarga ega. Bundan birinchisi, tinglash va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. Kino va videolardan foydalanish o‘quvchilarga turli xil aksentlar, tilning tabiiy ritmi va intonatsiyasini o‘rgatadi. Bu tilni yaxshi tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan, Nutqni rivojlantirish ham musiqa va kino kadrlaridagi dialoglar o‘quvchilarga tabiiy va to‘g‘ri ifodalashni o‘rgatadi.[1] O‘quvchilar musiqalar orqali to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyani o‘rganishlari mumkin. Kreativlikni oshirish ham muhim o‘rin tutadi. Audio-vizual materiallar yordamida talabalar kreativ va ijodiy tarzda o‘z fikrlarini ifodalashni o‘rganishadi. Bu, ayniqsa, rol o‘ynash va guruh muhokamalari kabi faoliyatlarda yordam beradi.[2]

Kino va videolar, tilni o‘rganishda eng samarali vositalardan biridir. Ular tilni faqat grammatika va lug‘atni o‘rganishdan tashqari, muloqotda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. Kino va video materiallar bir qancha foydalar keltiradi. Bunda ko‘rishimiz mumkinki, kino va videolar o‘quvchilarga tilni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilarga tilni erkinroq va ishonch bilan qo‘llash imkonini beradi. O‘quvchilar kino yoki video ko‘rish orqali grammatik xatolarni va leksikani qanday to‘g‘rilash mumkinligini o‘rganadilar. Kino va video, til o‘rganish jarayonida, o‘quvchilarga o‘rganilayotgan tilning madaniy aspektlarini ham tushunishga yordam beradi. Ular tilni va madaniyatni birgalikda o‘rganishadi.[3] Eng yaxshi audio-vizual materiallardan foydalanish darslarni soddalashtiradi va vaqtni tejashga yordam beradi. O‘quvchilar uchun qiyin bo‘lgan mavzularni tushuntirishda tasvirlar va ovozlar samarali yechim bo‘lishi mumkin. Bu jarayon o‘qituvchiga o‘zining dars rejasi doirasida ko‘proq dars vaqtini tejash imkonini beradi. O‘quvchilar audio-vizual materiallarni o‘zlarining vaqt jadvaliga muvofiq ravishda ko‘rishlari mumkin. Ular o‘zlariga qulay bo‘lgan paytda, juda ko‘p marta tomosha qilishi va takrorlashlari mumkin, bu esa o‘z-o‘zini o‘qitishni tashkil etishga yordam beradi. Shu tarzda, ingliz tilini o‘qitishda audio-vizual materiallar dolzarbligi zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ko‘nikmalarini yanada boyitishi, ularning motivatsiyasini oshirishi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu materiallar nafaqat til o‘rganish jarayonini soddalashtiradi, balki o‘quvchilarning keng madaniy va intellektual dasturga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi.

Musiqa, til o‘rganishda ko‘p jihatdan foydalidir. Bu materiallar o‘quvchilarga qulay va yoqimli tarzda ingliz tilini o‘rganish imkonini beradi. Musiqa va audio materiallar bir qancha usullarda samarali qo‘llaniladi. Masalan, musiqa va qo‘shiqlar orqali o‘quvchilar to‘g‘ri talaffuzni o‘rganadilar. Qo‘shiqlardagi ritm va intonatsiya tilning tabiiy ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, Musiqa orqali yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish osonroq bo‘ladi. Qo‘shiqlarda ko‘plab

kundalik so‘zlar ishlatiladi, bu o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi. Musiqa va audio materiallar o‘quvchilarga qiziqarli va interaktiv usulda ingliz tilini o‘rganish imkonini beradi. Musiqaga mos ravishda so‘zlarni to‘ldirish yoki takrorlash mashqlari qilish foydali hisoblanadi.[4]

Tajriba: Audio-vizual materiallarni darslarda qo‘llash uchun o‘qituvchilar qiziqarli usullardan foydalanishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilarga video ko‘rsatib, undan so‘ng tahlil qilish, video orqali yangi so‘zlar, iboralar yoki grammatik qoidalarni o‘rganish, musiqalar yordamida o‘quvchilarga talaffuzni yaxshilash yoki yangi so‘zlarni o‘rganish uchun turli mashqlar ishlab chiqish, kino va video kadrlaridan ilhomlanib, o‘quvchilar bilan rolli o‘yinlar yoki drama mashqlarini o‘tkazish, video yoki musiqa ko‘rganidan so‘ng, o‘quvchilarga savollar berib, mavzu bo‘yicha muhokama o‘tkazish va hokazo. Audio-vizual materiallar turli ta’lim uslublariga mos keladi va o‘quvchilarga o‘z individual ehtiyojlariga ko‘ra o‘qish imkoniyatini yaratadi. Masalan, vizual o‘quvchilar videolar orqali yaxshiroq o‘zlashtirishlari mumkin, audio o‘quvchilar esa musiqa yoki podkastlar orqali muvaffaqiyatli o‘rganadilar

Natijalar tahlili. Audio-vizual materiallar o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ular o‘zlarini yanada ishonchliroq his qilishadi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi kuchayadi. Kino, video va musiqa o‘quvchilarning diqqatini saqlab turadi va ularga darsning qiziqarli va foydali bo‘lishiga yordam beradi. Bunday materiallar o‘quvchilarni faol qatnashishga undaydi, bu esa darsning samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Audio-vizual materiallar ingliz tilini o‘rganishda samarali vositalardan biridir. Kino, videolar, musiqa va boshqa multimedia resurslari til o‘rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Bu materiallar o‘quvchilarga tilni real hayotda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi, grammatika va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, talaffuz va intonatsiyani yaxshilashda foydali bo‘ladi. O‘qituvchilar audio-vizual materiallarni samarali qo‘llash orqali darslarni yanada interaktiv va foydali qilishlari mumkin. Ushbu maqola orqali o‘qituvchilar ingliz tilini o‘rgatishda audio-vizual materiallardan qanday foydali va samarali foydalanishlari mumkinligini bilib olishadi. Bunday materiallar til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Audio-vizual materiallardan foydalanish darsni interaktiv va dinamik qiladi. O‘quvchilar materialni tahlil qilish, muhokama qilish va o‘z fikrlarini bildirish uchun o‘zaro faoliyatda ishtirok etadilar. Bu esa ular uchun nafaqat til ko‘nikmalarini, balki kritik fikrlash va tahliliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.). Pearson Longman.

2. Mayer, R. E. (2005). *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*. Cambridge University Press.

3.Sweeney, R. (2016). *Using Film in English Language Teaching: A Comprehensive Approach*. Routledge.

4. Berk, R. A. (2009). *Multimedia Teaching with Video Clips: TV, Movies, YouTube, and mtvU in the College Classroom*. International Journal of Technology in Teaching and Learning, 5(1), 1-21.

5. Tharp, R. G., & Gallimore, R. (1988). *Rousing Minds to Life: Teaching, Learning, and Schooling in Social Context*. Cambridge University Press.

6. Gee, J. P. (2003). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. Computers in Entertainment, 1(1), 20-20.

UDC 37

THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN ENHANCING LEARNING MOTIVATION IN ENGLISH LANGUAGE ACQUISITION

Z.K.Moldakhmetova, Karakalpak State University, Nukus

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda multimedia texnologiyalarining talabalar motivatsiyasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. O'rganuvchilarning qiziqishi va jalb etilishini oshirishga yordam beradigan multimedianing asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Multimedia resurslarining turli turlari (audio, video, interaktiv platformalar, o'yinlar) va ularning pedagogik salohiyati muhokama qilinadi. Multimedianing haqiqiy til muhitini yaratishga, shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlashga va tezkor qayta aloqani taqdim etishga qanday yordam berishiga alohida e'tibor qaratiladi. Xulosa qismida ingliz tilini o‘rganuvchilar o‘rtasida maksimal samaradorlikka*

erishish va barqaror motivatsiyani saqlab qolish uchun multimedia texnologiyalarini o'quv jarayoniga puxta integratsiya qilish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *motivatsiya, ingliz tilini o'rganish, multimedia texnologiyalari, interaktivlik, jalb etish, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ta'lim resurslari.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается влияние мультимедийных технологий на мотивацию студентов при изучении английского языка. Анализируются ключевые характеристики мультимедиа, способствующие повышению интереса и вовлеченности обучающихся. Обсуждаются различные типы мультимедийных ресурсов (аудио, видео, интерактивные платформы, игры) и их педагогический потенциал. Особое внимание уделяется тому, как мультимедиа способствует созданию аутентичной языковой среды, обеспечивает персонализированное обучение и предоставляет немедленную обратную связь. В заключении подчеркивается важность продуманной интеграции мультимедийных технологий в учебный процесс для достижения максимальной эффективности и поддержания устойчивой мотивации у изучающих английский язык.*

Ключевые слова: *мотивация, изучение английского языка, мультимедийные технологии, интерактивность, вовлеченность, персонализированное обучение, образовательные ресурсы.*

Abstract. *This article examines the impact of multimedia technologies on student motivation in English language learning. It analyzes the key characteristics of multimedia that contribute to increasing learners' interest and engagement. Various types of multimedia resources (audio, video, interactive platforms, games) and their pedagogical potential are discussed. Particular attention is paid to how multimedia helps create an authentic language environment, enables personalized learning, and provides immediate feedback. The conclusion emphasizes the importance of integrating multimedia technologies thoughtfully into the educational process to achieve maximum effectiveness and maintain sustainable motivation among English language learners.*

Keywords: *motivation, English language learning, multimedia technologies, interactivity, engagement, personalized learning, educational resources.*

Introduction. In the context of globalization, proficiency in the English language is becoming not just a desirable skill, but an essential tool for successful professional activity, interpersonal communication, and access to global information resources. However, the process of learning a foreign language is often associated with difficulties, among which maintaining sustainable learning motivation is key. A decline in interest and lack of internal drive can lead to discontinuation of studies and failure to achieve set goals.[1]

In recent decades, the rapid development of information and communication technologies has opened new horizons in education. Multimedia technologies, which combine text, graphics, audio, video, and interactive elements, offer unique opportunities to transform the learning process, making it more dynamic, engaging, and effective. The aim of this article is to analyze the role of multimedia technologies as a tool for enhancing student motivation in learning the English language.[2] Learning motivation is a complex psychological and pedagogical phenomenon, representing a set of internal and external factors that prompt an individual to engage in learning activities and determine their direction, intensity, and persistence.[3] In the context of foreign language learning, it is common to distinguish between:

Intrinsic Motivation: Driven by personal interest in the language, culture, the process of cognition, and the desire for self-improvement.

Extrinsic Motivation: Linked to external stimuli such as obtaining good grades, passing exams, career prospects, or societal demands.

For successful and long-term language learning, intrinsic motivation is paramount as it ensures deep engagement and satisfaction from the learning process itself. Factors influencing motivation include clarity of goals, interest in the learning content, belief in one's own abilities (self-efficacy), and the characteristics of the learning environment.[4]

Multimedia technologies possess several characteristics that positively influence various aspects of motivation in English language learning:

Increased Interest and Engagement: Unlike traditional textbooks, multimedia resources (videos, interactive exercises, educational games, podcasts) make the learning process more lively, varied, and emotionally rich. Information visualization, sound effects, and gamification help maintain attention and encourage active learner participation.

Creation of an Authentic Language Environment: Multimedia provides access to a vast amount of authentic materials: news reports, film and series excerpts, interviews with native speakers, songs, blogs. Immersion in a real language context makes learning more meaningful and increases motivation to use the language for real communication.(Table 1)

Personalization and Autonomy: Many multimedia platforms and applications allow learners to choose topics, difficulty levels, learning pace, and types of tasks according to their individual needs, interests, and learning styles. The ability to control one's learning process enhances a sense of responsibility and intrinsic motivation.[5]

Table 1.

Integration of Multimedia Technologies into an English Language Lesson (CEFR A2–B1 Level)

Lesson Stage	Objectives and Content	Multimedia Tools Used	Expected Motivational Outcome
1. Warm-up / Motivation	Watching a short video titled *"A Day in London"* with subtitles. Discussion questions: *"What did you see?" "Have you ever been to London?"*	YouTube video with authentic English and subtitles (e.g., BBC Learning English)	Stimulates interest and engagement through visualization; immersion in real-life English enhances motivation
2. Vocabulary Introduction	Presentation of key vocabulary on the topic *"City Life"* using an interactive slideshow with images, audio pronunciation, and sample sentences	PowerPoint with built-in audio, animations, and links to vocabulary platforms (e.g., Quizlet)	Improved retention via audio-visual input (dual coding); increases curiosity about the topic
3. Vocabulary Practice	Interactive game: "Match words with pictures and definitions" (drag-and-drop tasks, crosswords, quizzes)	Online tools such as Kahoot, Wordwall, or Quizizz	Gamification promotes intrinsic motivation; active vocabulary reinforcement
4. Listening Practice	Listening to a podcast *"Asking for directions in the city"* + comprehension tasks (multiple choice, fill-in-the-blanks)	Educational podcasts (e.g., British Council, Spotify) with interactive comprehension questions	Development of listening skills; replay function reduces anxiety and boosts learner confidence
5. Speaking Activity	Role-play in pairs: *"Asking and giving directions"* using a live map. Students practice dialogues based on real locations	Google Maps Street View on interactive board or smartphones; speaking templates	Real-life simulation enhances speaking motivation; encourages practical application of language
6. Reflection & Feedback	Online feedback form: *"How useful and interesting was this lesson for you?"* – results are instantly visualized and discussed	Google Forms or Mentimeter	Immediate feedback gives students a voice; reinforces their role in the learning process

Immediate Feedback: Interactive exercises and tests embedded in multimedia resources often provide instant feedback. This allows students to immediately see their mistakes, understand their causes, and track their progress, which is a powerful motivating factor.

Reduced Language Anxiety: Using game formats, virtual dialogue simulations, or the option for anonymous task completion in an online environment can reduce the fear of making mistakes and create a more comfortable psychological atmosphere for practicing language skills.

Variety of Formats and Novelty: Multimedia allows presenting educational material in various formats (video lectures, interactive articles, podcasts, infographics), preventing monotony and maintaining interest through novelty and diverse approaches.[6,7]

Accessibility and Flexibility: Online resources are available anytime and anywhere with internet access, allowing learners to flexibly integrate English studies into their schedules.

Examples of Multimedia Use for Motivation:

Interactive Platforms (e.g., Duolingo, Memrise, BBC Learning English): Offer structured lessons with game elements, reward systems, and progress tracking.

Video Hosting Sites (e.g., YouTube, TED Talks): Provide access to educational channels, lectures, documentaries, and entertainment content in English with subtitles.[8]

Podcasts and Audiobooks: Develop listening skills and allow learning "on the go."

Educational Games and Simulators: Enable language practice in an engaging and relaxed manner.

Social Networks and Language Exchange Platforms (e.g., italki, Tandem): Offer opportunities to communicate with native speakers and other learners, applying knowledge in practice.[9]

Potential Challenges and Considerations

Despite the obvious advantages, the use of multimedia technologies requires a conscious approach. Potential issues include:

- The risk of information overload and distraction by irrelevant content.
- Unequal access to technology and the internet (the "digital divide").
- The need for developing digital literacy in both students and teachers.
- The varying quality of available multimedia resources.

The key role in the effective integration of multimedia belongs to the teacher, who must carefully select resources, set clear learning objectives, combine technological tools with traditional methods (including live interaction), and help students develop self-regulation skills in the digital environment.[10,12]

Conclusion. Multimedia technologies are a powerful tool capable of significantly enhancing student motivation in learning the English language. Through interactivity, access to authentic materials, personalization options, immediate feedback, and a variety of formats, they make the learning process more engaging, meaningful, and effective. However, maximum effectiveness is achieved not merely by implementing technology, but by its thoughtful pedagogical integration into the learning process, aimed at fostering intrinsic motivation and developing learner autonomy. The competent use of multimedia opens new prospects for successful English language acquisition in the modern world.

REFERENCES:

1.J. M. Clark and A. Paivio, "Dual coding theory and education," Educational Psychology Review, 3, 149-170, 1991.

2.R. E Mayer and R. Moreno, A split-attention effect in multimedia learning: Evidence for dual processing systems in working memory. Journal of Educational Psychology, 90, 312-320, 1998.

3. R. E, Mayer, J. Heiser and S. Lonn, "Cognitive constraints on multimedia learning: When presenting more material results in less understanding," Journal of Educational Psychology, 93, 187-198, 2001.

4. H. Astleitner and C. Wiesner, "An integrated model of multimedia learning and motivation," Journal of Educational Multimedia and Hypermedia, 13, 3-21, 2004.

5. D. N. Yarbrough, "A comparative analysis of student satisfaction and learning in a computerassisted environment versus a lecture environment," Journal on Excellence in College Teaching, 12, 129-147, 2001.

6. T. J. Shuell and S. L. Farber, Students' perceptions of technology use in college courses. Journal of Educational Computing Research, 24,119-138, 2001.

7. A. Paivio, Mental representations: A dual coding approach. Oxford, UK: Oxford University Press,1986.

8. A. Baddeley, Working memory. Science, 255, 556–559, 1992.

9. P. Chandler and J. Sweller, "Cognitive load theory and the format of instruction," Cognition and Instruction, 8, 293–332, 1991.

10. Молдахметова З. К. Формирование навыков диалогической речи на уроках английского языка в каракалпакской школе //Интернаука. – 2023. – Т. 17. – С. 34.

11. J. J. G. Van Merrienboer, Training complex cognitive skills. Englewood Cliffs, NJ: Educational Technology Press, 1997.

12. R. E. Mayer, "Multimedia aids to problem-solving transfer," International Journal of Educational Research, 31, 611–623, 1999a

UO'K 37.02

OLIY TA'LIM BIOLOG-TALABALARI TIZIMLI TAFAKKURINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

D.I. Mustafaqulova, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim biologiya talabalari uchun tizimli tafakkurni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari yoritiladi. Innovatsion metodlar, texnologiyalar va integrativ yondashuv orqali talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, eksperimentlar, masofaviy ta'lim va kreativ tafakkur ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Tizimli tafakkur,biologiya ta'limi,pedagogik yondashuv,innovatsion metodlar,tanqidiy fikrlash,ilmiy izlanish,axborot texnologiyalari,eksperimental ta'lim,masofaviy ta'lim,kreativ tafakkur .*

Аннотация. *В данной статье освещаются современные педагогические основы формирования системного мышления для студентов биологии высшего образования. Анализируются методы развития навыков самостоятельного мышления, критического анализа и научных исследований студентов с помощью инновационных методов, технологий и интегративного подхода. Также будет продемонстрирована важность экспериментов, дистанционного обучения и креативного мышления.*

Ключевые слова: *Системное мышление, биологическое образование, педагогический подход, инновационные методы, критическое мышление, научные исследования, информационные технологии, экспериментальное образование, дистанционное обучение, креативное мышление .*

Abstract. *This article covers the modern pedagogical foundations of the formation of systematic thinking for biology students of higher education. Through innovative methods, technologies and an integrative approach, methods of developing students' independent thinking, critical analysis and scientific research skills are analyzed. The importance of experiments, distance education and creative thinking is also shown.*

Key words: *Systematic thinking, biology education, pedagogical approach, innovative methods, critical thinking, scientific research, information technologies, experimental education, distance education, creative thinking.*

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi o'z oldiga talabalarning nafaqat bilim olishini, balki ularning mustaqil, tanqidiy va tizimli tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham maqsad qilib qo'ygan. Ayniqsa, biologiya kabi aniq va tabiiy fanlar sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun tizimli tafakkur shakllantirish masalasi dolzarbdir. Chunki biologiya murakkab tizimlar va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishga asoslangan fan bo'lib, uni samarali o'zlashtirish uchun talabalar o'z fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari lozim.

Tizimli tafakkur – bu muayyan hodisa yoki jarayonni alohida qismlarga ajratib, ularning o'zaro aloqadorligi va o'zgarishlarini tahlil qilish, umumiy qonuniyatlarni anglash va oldindan bashorat qilish qobiliyatidir. Biologiyada tizimli tafakkur talabalarni organizm tuzilishi, funksiyalari, ekologik o'zaro aloqalar, evolyutsion jarayonlar kabi fundamental masalalarni puxta tushunishga olib keladi. Shuningdek, zamonaviy fan va texnologiyalar taraqqiyoti natijasida biologiyada yangi yo'nalishlar, masalan, bioinformatika, genetik injiniring, ekologik monitoring kabi sohalar vujudga kelmoqda. Ushbu sohalarda muvaffaqiyatga erishish uchun tizimli tafakkur muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim tizimida biologiya talabalari uchun tizimli tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda, o'quv jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash orqali talabalarni mustaqil fikrlashga undash kerak. Masalan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim texnologiyalari, tadqiqotga asoslangan o'qitish usullari biologiya fanida tizimli tafakkurni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu metodlar talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qo'ymay, balki ularni mustaqil tadqiqot olib borishga, biologik tizimlarning murakkabligini tushunishga va amaliy echimlarni ishlab chiqishga yo'naltiradi.Tizimli tafakkurni

shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya dasturlari va bioinformatik vositalar yordamida biologik jarayonlarni vizuallashtirish imkoniyati mavjud. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar abstrakt tushunchalarni aniq idrok etishi va murakkab biologik jarayonlarning mohiyatini anglab yetishi osonlashadi.Bundan tashqari, biologiya talabalari uchun tizimli tafakkurni rivojlantirishning yana bir muhim jihati – integrativ yondashuvdir. Biologiya tabiiy fanlar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, unga matematika, kimyo, fizika va hatto informatika fanlari bilan uzviy bog‘langan holda yondashish zarur. Masalan, bioinformatika sohasida talabalar biologik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun algoritmlar va dasturlash bilimlariga ehtiyoj sezadilar. Shuningdek, ekologik tadqiqotlar jarayonida statistik tahlil va model yaratish ko‘nikmalari zarur bo‘ladi. Bu esa talabalarni ko‘p fanli yondashuv asosida o‘qitish orqali tizimli tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik jihatdan tizimli tafakkurni shakllantirishda talabalarning faol ishtirokini ta’minlash juda muhim. Shuning uchun, zamonaviy darslarda talabalarni jamoaviy ishlashga, guruhlarda ilmiy muhokamalar o‘tkazishga, biologik hodisalar bo‘yicha turli nazariyalarga tayanib, fikr almashishga rag‘batlantirish lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi rahbar sifatida ishtirok etib, talabalarni muammolarni tahlil qilish va ularga echim topishga yo‘naltirishi lozim.

Shuningdek, biologiya talabalari uchun tajriba va eksperimentlarga asoslangan ta’lim tizimli tafakkurni shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir. Biologik jarayonlar va organizmlar o‘zaro murakkab bog‘langanligi sababli, laboratoriya mashg‘ulotlari va ilmiy tadqiqotlar talabalarni tizimli tahlil qilishga, hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini tushunishga undaydi. Masalan, genetik modifikatsiya jarayonlarini o‘rganish orqali talabalar gen va fenotip o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunib yetishlari mumkin. Shuningdek, ekologik monitoring bo‘yicha dala tadqiqotlari talabalarni tabiiy muhit va undagi o‘zgarishlarni tizimli tushunishga o‘rgatadi.

Bundan tashqari, biologiya fanini o‘qitishda masofaviy ta’lim va ochiq onlayn kurslardan foydalanish ham talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masofaviy ta’lim tizimi orqali talabalar dunyoning yetakchi universitetlaridan biologiya bo‘yicha zamonaviy bilimlarni o‘rganishlari, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar bilan tanishishlari mumkin. Bu esa ularning ilmiy tafakkurini kengaytirish va global miqyosda tahlil qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, oliy ta’lim biologiya talabalarining tizimli tafakkurini shakllantirish bugungi kunda pedagogik jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion texnologiyalar va integrativ yondashuv orqali biologiya fanini samarali o‘qitish mumkin. Talabalarni mustaqil izlanish olib borishga, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish orqali ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, biologiya ta’limi tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va talabalarni faol ta’lim jarayoniga jalb etish kelajak avlodning ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Biologiya talabalarining tizimli tafakkurini shakllantirishda tanqidiy fikrlash va kreativ yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Biologik tadqiqotlar davomida talabalar o‘z oldilariga qo‘yilgan muammolarni hal qilish uchun mavjud ilmiy dalillarga tayangan holda xulosalar chiqara olishi kerak. Masalan, ekologik muammolarni tahlil qilish jarayonida talabalar turli omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqishi va natijalarga asoslangan yechimlar taklif qilishi lozim.

Bundan tashqari, biologiya fanida kreativ tafakkur ham muhimdir. Masalan, biotexnologiya va genetik injiniring sohalarida yangilik yaratish, yangi dori vositalarini ishlab chiqish yoki ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan innovatsion loyihalar tizimli va kreativ tafakkurni talab qiladi. Shu sababli, ta’lim jarayonida talabalarni ijodiy muhitda ishlashga o‘rgatish va ularga ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yaratish zarur.

Oliy ta’limda biologiya talabalarining tizimli tafakkurini rivojlantirish kelajakda ularning ilmiy-tadqiqot sohasida muvaffaqiyatga erishishiga ham zamin yaratadi. Shu sababli, pedagoglar bu jarayonda zamonaviy metodlardan samarali foydalanishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alimov, Sh. T. (2020). Pedagogika va ta'lim metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchi nashriyoti.
2. Mirzaev, A. (2019). Biologiya fanini o'qitishda innovatsion metodlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Nurmatov, R. (2018). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Tashkent: Ta'lim.
4. Rasulov, N. (2021). Biologiya ta'limida tizimli tafakkurni rivojlantirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. Kamilov, K. (2017). Tizimli tafakkur va uning pedagogik ahamiyati. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
6. Turobova, M. (2020). Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent: Akademnashr.
7. Ismoilov, D. (2019). Tanqidiy fikrlash va pedagogik amaliyot. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
8. Xo'jaeva, S. (2022). Biologiyada innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Tashkent: Fan va texnologiya.
9. Shamsiyeva, G. (2018). Masofaviy ta'lim va uning biologiya faniga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim muassasasi.
10. Karimov, M. (2021). Biologiya fanining ta'lim metodlari va tizimli tafakkur. Nukus: Nukus Davlat Universiteti nashriyoti.

UO'K 37.02

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLAYDIGAN OLIY TA'LIM MUASSASALARI BIOLOG-TALABALARINING TIZIMLI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

D.I. Mustafaqulova, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida biologiya talabalarining tizimli tafakkurini shakllantirishning samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Innovatsion pedagogik metodlar, masofaviy ta'lim, loyiha asosidagi ta'lim va laboratoriya ishlari orqali talabalar tizimli fikrlash va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkinligi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Tizimli tafakkur,biologiya ta'limi,jnnovatsion metodlar,masofaviy ta'lim,loyiha asosidagi ta'lim,tanqidiy fikrlash,ilmiy izlanish,oliy ta'lim,pedagogik texnologiyalar,laboratoriya ishlar.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы пути повышения эффективности формирования системного мышления студентов-биологов в высших учебных заведениях. Показано, что благодаря инновационным педагогическим методам, дистанционному обучению, проектному обучению и лабораторной работе студенты могут развивать системное мышление и навыки научного исследования.*

Ключевые слова: *Системное мышление, биологическое образование,джновационные методы, дистанционное обучение, проектное обучение, критическое мышление, научные исследования, высшее образование, педагогические технологии, лабораторная работа.*

Abstract. *This article analyzes ways to increase the effectiveness of the formation of systematic thinking of biology students in higher education institutions. Through innovative pedagogical methods, distance education, project-based education and laboratory work, students have been shown to be able to develop systematic thinking and scientific research skills.*

Key words: *Systematic thinking, biology education, innovative methods, distance education, project-based education, critical thinking, scientific research, higher education, pedagogical technologies, laboratory work.*

Zamonaviy ta'lim tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar talablarning sifatini o'zgartirgan. Oliy ta'lim muassasalari bugungi kunda nafaqat kasbiy bilimlarni berish, balki talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z-o'zini rivojlantirishga va mustaqil ishlashga qaratilgan ta'lim jarayonlarini yaratishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, biologiya kabi aniq fanlar bo'yicha ta'lim berish jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishlari, balki tizimli tafakkurni shakllantirishlari kerak. Tizimli tafakkur – bu o'rganilayotgan fan yoki jarayonni kompleks ravishda tahlil qilish, uning qismlarini alohida ko'rib chiqish va ular orasidagi bog'liqliklarni tushunish qobiliyatidir. Biologiya talabalarining tizimli tafakkurini shakllantirish esa ularning ilmiy izlanish

olib borish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.Biologiya ta’limi, o‘zining tabiati bilan, bir qator fanlarni o‘z ichiga oladi. Bu, faqat biologik tizimlarni o‘rganish bilan cheklanmay, balki ularning boshqa fanlar bilan, masalan, fizika, kimyo, matematika, ekologiya kabi sohalar bilan o‘zaro aloqasini tushunishga qaratilgan. Bu o‘rinda tizimli tafakkurning rivojlanishi va unga asoslangan pedagogik yondashuvlar talabalarni kompleks masalalarni hal qilishda yordam beradi. Oliy ta’lim muassasalarida biologiya ta’limining asosiy maqsadi nafaqat biologik jarayonlarni tushunishga o‘rgatish, balki talabalarga bu jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsata olishdir. Tizimli tafakkur, o‘z navbatida, talabaning ilmiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.Oliy ta’limda biologiya talabalarining tizimli tafakkurini shakllantirishning samaradorligini oshirish uchun bir qator pedagogik usullar va metodlarni qo‘llash zarur. Bularning eng muhimi – innovatsion o‘qitish texnologiyalarini joriy etishdir. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, masalan, interaktiv doskalar, multimedia materiallar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari yordamida talabalarga biologik jarayonlarni vizual ravishda ko‘rsatish mumkin. Bu texnologiyalar talabalar uchun abstrakt tushunchalarni aniqroq idrok etishga yordam beradi va tizimli tafakkurni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar bu texnologiyalarni amaliy ishlar bilan birgalikda ishlatishlari lozim, chunki faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolish samarali natijalarga olib kelmaydi.Biologiya ta’limini samarali o‘tkazish uchun loyiha asosida ta’lim metodikasini qo‘llash juda muhim. Loyiha asosidagi ta’lim metodikasi talabalarga muammolarni echish jarayonida faollikni oshiradi va o‘zaro hamkorlikni rivojlantiradi. Biologiya talabalari uchun loyiha ishlari orqali biologik tizimlar va jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, ekosistemalarning holatini o‘rganish, yangi ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqish mumkin. Bu esa talabalarni tizimli fikrlashga, ilmiy tadqiqot olib borishga va samarali yechimlar topishga o‘rgatadi.

Innovatsion metodlardan biri – muammoli ta’lim texnologiyasidir. Bu metod talabalarni o‘qitish jarayonida muammolarni hal qilishga o‘rgatadi va ularga tahlil qilish, fikr almashish va jamoaviy ishlashni o‘rgatadi. Muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llash, o‘quvchilarning fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi va ularni faqatgina tayyor yechimlarni qabul qilishga emas, balki yangi, innovatsion yechimlarni topishga yo‘naltiradi. Bu, ayniqsa, biologiya kabi murakkab fanlarda samarali bo‘lib, talabalarni biologik tizimlarni tahlil qilish va tizimli tafakkurga ega bo‘lishga o‘rgatadi.

Shuningdek, biotexnologiya, ekologiya, genetik injiniring kabi yangi ilmiy yo‘nalishlarda talabalarning tizimli tafakkurini shakllantirishda laboratoriya ishlarining ahamiyati katta. Talabalar amaliy tajriba orqali biologik jarayonlarni o‘rganish, biologik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Tajriba va eksperimentlar orqali talabalar nafaqat biologik bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki bu bilimlarning amaliy ahamiyatini tushunishadi. Bu jarayon, shuningdek, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshiradi va ularni yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga rag‘batlantiradi.

Yuqoridagi metodlarni o‘qitish jarayoniga joriy etish orqali tizimli tafakkurni rivojlantirish faqat talabalar uchun emas, balki o‘qituvchilar uchun ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar pedagogik yondashuvni yangilash va zamonaviy texnologiyalarni ishlatish orqali ta’lim sifatini oshirishlari mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni malakasini oshirish kurslari va seminarlar tashkil etish, ularni innovatsion pedagogik usullar bilan tanishtirish talabalar uchun yaxshi ta’lim olishning kafolatidir.

Biologiya ta’limining samaradorligini oshirishda masofaviy ta’lim va ochiq onlayn kurslar ham muhim rol o‘ynaydi. Masofaviy ta’lim, ayniqsa, biologiya fanida murakkab ilmiy tushunchalarni o‘rgatish va talabalarni o‘z bilimlarini mustaqil ravishda oshirishga rag‘batlantirishda samarali bo‘ladi. Onlayn platformalarda talabalarga amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlarini bajarish, ilmiy maqolalar bilan tanishish va videodarslar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyati beriladi. Bu esa talabalarning tizimli tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni kuchaytirish zarur. O‘qituvchilar talabalarga ilmiy ishlar bo‘yicha maslahatlar berish, ularni yangi tadqiqotlar olib borishga undash, ularning faoliyatini kuzatib borish orqali tizimli tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirishi mumkin. Talabalar o‘z o‘qituvchilari bilan

muntazam muloqotda bo‘lishi, ilmiy maqolalar yozish va ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashlari kerak.Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida biologiya talabalari uchun tizimli tafakkurni shakllantirishni samarali o‘tkazish uchun zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash, innovatsion texnologiyalarni ishlatish va amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish zarur. Tizimli tafakkurni rivojlantirish, talabalarni nafaqat biologiya fanining asosiy bilimlari bilan ta’minlaydi, balki ularning ilmiy izlanish olib borish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Bu esa nafaqat o‘quvchilarning, balki jamiyatning intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alimov, Sh. T. (2020). *Pedagogika va ta’lim metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchi nashriyoti.
2. Mirzaev, A. (2019). *Biologiya fanini o‘qitishda innovatsion metodlar*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Nurmatov, R. (2018). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Tashkent: Ta’lim.
4. Rasulov, N. (2021). *Biologiya ta’limida tizimli tafakkurni rivojlantirish*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. Kamilov, K. (2017). *Tizimli tafakkur va uning pedagogik ahamiyati*. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
6. Turobova, M. (2020). *Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish metodikasi*. Toshkent: Akademnashr.
7. Ismoilov, D. (2019). *Tanqidiy fikrlash va pedagogik amaliyot*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
8. Xo‘jaeva, S. (2022). *Biologiyada innovatsion texnologiyalarni qo‘llash*. Tashkent: Fan va texnologiya.
9. Shamsiyeva, G. (2018). *Masofaviy ta’lim va uning biologiya faniga ta’siri*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim muassasasi.
10. Karimov, M. (2021). *Biologiya fanining ta’lim metodlari va tizimli tafakkur*. Nukus: Nukus Davlat Universiteti nashriyoti.

UO’K 37.02

12 MUCHAL HAYVON NOMLARI BILAN BOG‘LIQ IBORALARNI O‘QITISH USULLARINI SHAKLLANTIRISH

S.Qurolova, stajyor-o‘qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqola, “12 muchal hayvon nomlari bilan bog‘liq iboralarni o‘qitish usullarini shakllantirish” bo‘yicha tadqiqot olib boriladi va o‘qitish samarasini yaxshilash uchun 12 muchal hayvon nomlari bilan bog‘liq iboralarni o‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotga tadbiq etish yo‘llari chuqur muhokama qilinadi.*

Kalit so‘z: *Multimediaviy o‘qitish; hikoya orqali tushuntirish; vaziyatli usul orqali o‘qitish*

Аннотация. *В данной статье проводится исследование на тему «Формирование методов обучения фразам, связанным с названиями 12 распространенных животных», а также подробно обсуждаются способы выбора и внедрения методов обучения фразам, связанным с названиями 12 распространенных животных, для повышения эффективности обучения.*

Ключевые слова*: Мультимедийное обучение; объяснение через рассказ; ситуационное обучение*

Abstract. *This article conducts research on "Forming teaching methods for phrases related to the names of 12 common animals" and discusses in depth the ways to select and implement teaching methods for phrases related to the names of 12 common animals to improve teaching effectiveness.*

Key words: *Multimedia teaching; storytelling; situational teaching*

O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotga tadbiq etish. Multimediaviy o‘qitish metodi multimedia uskunalari (kompyuter, proyektor, videopleyer va boshqalar) va multimediali o‘qitish resurslari (rasmlar, videolar, animatsiyalar, audiolar va boshqalar)dan foydalanadigan o‘qitish usulidir. O‘n ikki muchal hayvon nomlari bilan bog‘liq iboralarni o‘rgatishda o‘qituvchilar o‘qitishning intuitivligi va qiziqarliligini oshirish uchun o‘n ikki muchal hayvon nomlari bilan bog‘liq rasm, video, animatsiya va hokazolarni ko‘rsatish uchun multimedia qurilmalaridan to‘liq

foydalanishlari mumkin. Masalan, "龙飞凤舞" iborasini tushuntirayotganda o'qituvchilar o'quvchilarga iboralarda tasvirlangan jonli sahnalarni intuitiv tarzda his qilishlariga imkon berish uchun ba'zi xattotlik asarlari yoki raqs namoyishlari videolarini ko'rsatishi mumkin. Multimediali o'qitish usullari orqali o'quvchilar iboralarni yaxshiroq tushunish va eslab qolish uchun iboralarning jonli tasvirlari va madaniy ma'nolarini yanada intuitiv his qilishlari mumkin.

Bundan tashqari o'quvchilarga muchal belgilarining nomlarini intuitiv ravishda tanib olishlari va eslab qolishlariga yordam berish uchun o'n ikkita muchal tasvirlarini ko'rsatish uchun rasmlar, kartalar va multimediyalardan foydalanish mumkin. Turli yoshdagi talabalar uchun mos rasm turlarini tanlash mumkin. Masalan, yosh bolalar uchun, animatsion multfilmlardan foydalanishimiz mumkin, bu ularning qiziqishini uyg'otadi. Balog'at yoshidagilar va o'rta yoshlilar uchun haqiqiy narsalar yoki san'at asarlarining rasmlarini tanlashimiz kerak. Bunda ular rasmlarni haqiqiy hayotga yaqinroq qilishga harakat qilishadi, va shu orqali eslab qolishadi. Misol uchun, quyonning jonlantirilgan shaklidan foydalanib, iborani o'rgatish, ayniqsa bu metod orqali yosh bolalarning qiziqishini rag'batlantirishi mumkin. Bundan tashqari, sinfda qog'oz kesish ishlari bilan tanishish nafaqat muchal belgilarini tanish, balki Xitoyning noyob an'anaviy madaniyati - qog'oz kesish madaniyatini ham o'zida mujassam etgan. Bu metod Xitoy madaniyatini sevadigan va Xitoy madaniyatini o'rganishga katta qiziqish bildiradigan chet ellik talabalar uchun mos keladi. Bu ularga Xitoy muchallarining madaniyatini o'rganish bilan birga an'anaviy Xitoy madaniyatini chuqurroq anglash, amaliy rasm chizish va kesish orqali ibora haqida tushuncha shakllantirish va Xitoy madaniyatining o'ziga xos jozibasini his qilish imkonini beradi.

Multimediaviy o'qitish metodi o'qitish mazmunini boyitishi, o'qitishning intuitivligi va qiziqishini oshirishi, o'quvchilarning o'qitish mazmunini tushunishi va eslab qolishini osonlashtirishda yordam beradi. Multimedia uskunalarida ko'rsatiladigan turli xil yorqin rasmlar, videolar va animatsiyalar orqali talabalar iboralarda tasvirlangan sahna va his-tuyg'ularni intuitiv ravishda his qilishlari va shu bilan iboralarning ishlatilishi va madaniy ma'nosini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bundan tashqari, multimediaviy o'qitish metodi ham o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishi, o'quvchilarning bilimga qiziqishi va ijodkorligini rag'batlantirishi va o'qitish samarasini yaxshilashi mumkin.

Hikoya orqali tanishtirish metodi o'qitish mazmuniga oid hikoyalar aytib berish orqali o'quvchilar e'tiborini tortadigan, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini uyg'otadigan o'qitish metodi hisoblanadi. O'n ikki muchal hayvon nomlari bilan bog'liq iboralarni o'rgatishda o'qituvchilar muqaddima sifatida iboralarga oid afsonalar, tarixiy tashbehlar yoki ertaklarni tanlashlari mumkin, shunda o'quvchilar ertaklarni tinglashda muchal nomlari bilan bog'liq iboralarni tabiiy ravishda o'rganishlari mumkin. Masalan, "守株待兔" iborasini izohlaganda o'qituvchi avvalo voqeaning asl mohiyati va syujetini aytib berishi mumkin: Bir zamonda bir dehqon dalada ishlayotgan ekan. Bir kuni u quyonning tasodifan daraxt to'nkasiga urilib o'lganini ko'ribdi, mehnat qilmasdan osongina nimadirga erishaman deb o'ylagan dehqon juda xursand bo'lib, yana bir quyon qo'lga kiritish ilinjida har kuni daraxt to'nkasi yoniga har kuni borib o'tiribdi. Biroq, u yerga boshqa hech qanday quyon kelmadi, dehqon esa o'zini ishidan ayrilgan edi. Bu hikoya orqali o'quvchilar iboraning ma'nosini intuitiv ravishda tushuna oladilar, ya'ni bekorga biror narsaga erisha olmasliklari va o'z mehnatlari bilan muvaffaqiyatga erishishlari kerakligini tushunishlari mumkin.

Hikoya orqali tanishtirish metodi o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi va o'quvchilarning bo'sh va yoqimli muhitda o'quv holatiga kirishiga yordam beradi. Jonli va qiziqarli hikoyalar orqali o'quvchilar iboralarning ma'nosi va qo'llanishini osonroq tushunib, eslab qolishlari bilan birga, o'quvchilarning tasavvur va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, hikoyaning kirish usuli talabalarga iboralar ortidagi madaniy kelib chiqish va tarixiy kelib chiqishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Vaziyatli o'qitish metodi - o'qitish mazmuni bilan bog'liq aniq vaziyatlarni yaratish orqali o'quvchilarga bilimlarni o'rganish va vaziyatda qo'llash imkonini beruvchi o'qitish usulidir. O'n ikki muchal hayvon nomlari bilan bog'liq iboralarni o'rgatishda o'qituvchilar iboralarning xususiyatlari va o'qitish maqsadlariga ko'ra o'n ikki muchal hayvon nomlari bilan bog'liq turli xil ta'lim vaziyatlarini yaratishi mumkin. Masalan, hayotiy vaziyatlar, o'yin vaziyatlari, ijro vaziyatlari va

boshqalar, shunda o‘quvchilar iboralarning yorqin tasvirlari va madaniy ma’nolarini his qilishlari mumkin. Masalan, o‘qituvchilar o‘quvchilarni “生肖成语接龙” o‘yinini o‘ynashni tashkil qilishlari mumkin, bu o‘yin orqali talabalarga bo‘sh va yoqimli muhitda iboralarni o‘rganish va yodlash imkonini beradi. O‘yin davomida o‘quvchilar oldingi iboraning oxirgi so‘ziga asoslangan o‘n ikki muchal hayvon nomlari bilan bog‘liq iborani aytishlari kerak. Bu nafaqat o‘quvchilarning fikrlash va reaksiya qobiliyatlarini mashq qiladi, balki o‘quvchilarning xotirasini yaxshilaydi va iborani tushunishni chuqurlashtiradi.

Vaziyatli o‘qitish usuli o‘qitishning intuitivligi va qiziqishini oshirishi, o‘quvchilarning vaziyatlarda o‘rganishda faol ishtirok etishini ta’minlashi, o‘rganishdagi ishtiyoqi va tashabbusini oshirishi mumkin. Turli xil aniq vaziyatlarni yaratish orqali o‘quvchilar iboralarni yaxshiroq tushunishlari va ulardan foydalanishlari, shuningdek, o‘quvchilarning til ifodasi va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Bundan tashqari, vaziyatli o‘qitish usullari ham o‘quvchilarga olgan bilimlarini real hayot bilan uyg‘unlashtirishga, o‘quvchilarning bilimlarni qo‘llash qobiliyatini oshirishga va o‘quvchilarning umumiy sifatini oshirishga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, xitoy tilidagi iboralarni o‘rgatishda, garchi “o‘rgatish” asosiy mavzu bo‘lsa-da, eng muhim maqsad talabalarga ushbu muchal iboralarini chinakam tushunish va o‘zlashtirishga imkon berishdir. O‘qituvchilar talabalarning muchal iboralari haqidagi taassurotlarini bir qator mashqlar orqali chuqurlashtirishlari va ulardan mohirona foydalanishlariga yordam berishlari kerak. Masalan: Bo‘sh joylarni to‘ldirish, tanlash va jumlalar tuzish kabi turli xil amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘n ikki muchal belgisiga tegishli iboralarni o‘zlashtirishlarini mustahkamlashlari mumkin. Mashqlar o‘quvchilarga o‘rganganlarini amaliy qo‘llash ko‘nikmalariga aylantirishga yordam beradi. Masalan bo‘sh joyni to‘ldirish mashqi:

1)“（___）飞凤舞”,“（___）头蛇尾”

*Javob:<u>鸾</u>*飞凤舞，*<u>龙</u>*头蛇尾

Bu o‘quvchilarga muchal nomini to‘g‘ri kiritish va yodlagan iborani takror eslash imkonini beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullarni qo‘llash, o‘quvchilarning turli yo‘llar bilan bilim olishga qiziqishini uyg‘otish, ularga o‘n ikki muchal nomi bilan bog‘liq bo‘lgan iboralarni yaxshiroq tushunish va o‘zlashtirish, shu bilan birga Xitoy madaniyati jozibasini his etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.- T.: O‘qituvchi,1978
2. “VIII Tarjimashunoslari forumi” (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). –Toshkent: TDSHU, 2024. − 380 b.
3. Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: ““O‘zbekiston-Xitoy: tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.,: TDShU, 2023, 710 b.
4. 施耐庵《水浒全传》第四十回 .约 1524 年.
5. 莫彭玲.试论“成语联想教学法”[J].常州工业技术学院学报(社会科学版)，1996 年 11 月.
6. 李春芳.从直译和意译看动物成语的翻译[J].牡丹江教育学院学报，2001 年第 1 期(总第 72 期）
7. 倪宝元.汉语成语使用词典[M].语大词典出版社,2002.
8. 汪耀楠《汉语成语词典》第 490 页
9. 朱立春. 中华成语故事. 中国华侨出版社. 北京 2016 年. 134 页.
10. 朱玉祺.基于任务型教学法的对外汉语生肖文化课教学设计[D],沈阳大 学,2017.
11. 冯星星.基于任务型教学法的中级留学生生肖文化课教学设计[D].西北师范 大学,2019.

UO’K 376.3

MDX DAVLATLARI VA AQSHDA INKLYUZIV TA’LIM SIYOSATI VA UNING ASOSIY MODELLARI

Z.G’.Safarova, katta o’qituvchi, O’zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Davlat siyosatining strategik maqsadi – jamiyat va har bir fuqaroning zamonaviy ehtiyojlariga mos bo’lgan sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Biroq, imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Aynan shu sababli ko'p yillar davomida tadqiqotchilar ko'rish qobiliyatida jiddiy nuqsonlari mavjud bo’lgan insonlarga yordam berish yo'llari va usullarini izlab kelmoqdalar.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv, kompetent, psixofizik, bixeviaristik, integratsiya, kongress.*

Аннотация. *Стратегической целью государственной политики является создание возможностей качественного образования, отвечающих современным потребностям общества и каждого гражданина. Однако особого внимания требуют дети с ограниченными возможностями. По этой причине на протяжении многих лет исследователи искали пути и методы помощи людям с тяжелыми нарушениями зрения.*

Ключевые слова: *инклюзивный, компетентный, психофизический, поведенческий, интеграционный, конгресс.*

Abstract. *The strategic goal of state policy is to create opportunities for quality education that meet the modern needs of society and each citizen. However, special attention is required for children with disabilities. That is why for many years researchers have been looking for ways and methods to help people with serious visual impairments.*

Keywords: *inclusive, competent, psychophysical, behavioral, integration, congress*

Kirish: Ko'zi ojizlar muammolari bo'yicha birinchi xalqaro kongress 1879-yilda Vena shahrida nogironlarning "UmumRossiya Qizil Bayroq ordeni" nogironlar jamoat tashkilotining ma'lumotlariga asosida tashkil etildi hamda keying yillar davomida muntazam ravishda har uch yilda bir marta o'tkazib kelindi. Shu bilan bir qatorda Amerika, Angliya, Italiya va Skandinaviya kabi davlatlarda ham mamlakatlarida o'qituvchilar s'yezdlari o'tkazildi. Mazkur kongress va s'yezdlarning barchasi ko'zi ojizlarga ta'lim berish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ularga ta'lim va tarbiya berish, ularga g'amxo'rlik qilish bo'yicha umumiy boshqaruv tamoyillarini har tomonlama o'rganish, takomillashtirish va ishlab chiqishda muhim o'rin egalladi (http://www.vos).org.ru).

Rossiyada ko'zi ojizlar uchun birinchi ta'lim muassasasi 1807-yilda Sankt-Peterburgdagi Smolninsk miskinlar xayriya uyida tashkil etilgan. Bolalarga Xudoning Qonuni, qo'shiq aytish, hunarmandchilik kabilar o'rgatilgan.

XIX-asrda ko'zi ojizlar uchun yana bir qancha maktablar ochildi, ular Ko'zi ojizlar vasiyligi (1881-yilda tashkil etilgan) tomonidan moliyalashtirilgan. Ta'lim yagona o'quv rejasi va dasturlari asosida olib borilgan, maktablarga qabul qilishning Yagona qoidalari amal qilgan. Aksariyat ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olish pullik, narxi ancha yuqori bo'lgan, mazkur to'lov summasi ba'zan yiliga 300 rublga yetgan.

1917-yil oktyabr inqilobidan keyin ko'zi ojiz bolalar maktablari xalq ta'limi tizimining ajralmas qismiga aylandi. 1928 yilda ko'zi ojizlar uchun birinchi Sovet maktabi dasturlari ishlab chiqildi.

30-yillarning boshlarida ommaviy umumta'lim maktablari (Leningrad va Moskvadagi bir nechta maktablarda) tarkibida ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun ko'rish qobiliyatini himoya qilishga yo'naltirilgan dastlabki sinflar tashkil etildi, 30-yillarning oxiriga kelib esa ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun birinchi maktablar paydo bo'la boshladi.

Bugungi kunda Rossiyada imkoniyati cheklangan bolalarga turli idoralar qoshida faoliyat yuritayotgan ko'plab muassasalar tomonidan ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatib kelinmoqda. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida, maxsus o'quv bo'linmalarida, umumiy ta'lim muassasalarida Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida nazarda tutilgan ta'lim shakllarda: kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim; oilaviy ta'lim, mustaqil ta'lim, eksternat shaklida ta'lim olishlari mumkin. Ta'lim tizimi hal etishi lozim bo'lgan asosiy vazifalari psixofizik rivojlanishida muammolari mavjud bo'lgan bolalarni me'yoriy shaxsiy va ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning rivojlanishini muvifiqlashtirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun imkon qadar ko'proq imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Oxirgi yillarda ta'lim tizimi sezilarli darajada kengaydi, jumladan, nafaqat maxsus maktablar, balki maxsus sinflar, umumta'lim maktablarida alohida ehtiyojlari mavjub bolalar guruhlarini qamrab oldi. Muvofiqlashtiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim tizimi shakllantirilmoqda (ta'lim o'rnini bosuvchi muvofiqlashtiruvchi sinflar, yordamchi sinflar, ko'rishni himoya qilish sinflari). Ta'lim olishning aytib o'tilgan shakllaridan tashqari, alohida ta'limga ehtiyoji bo'gan shaxslar uydagi ta'lim, kompleks ta'lim va statsionar tibbiyot muassasasida ta'lim shakllarida tehsil olishlari mumkin.

Oxirgi yillarda integratsiyalangan (inklyuziv) ta'lim, ya'ni imkoniyati cheklangan, salomatligida muammolari bo’lgan bolalar va bu kabi nogironligi bo'lmagan bolalarni birgalikda ta'lim olishi uchun maxsus sharoitlar yaratish (maxsus vositalar va usullar asosida mutaxassis o'qituvchilar ishtirokida) tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Rossiyada inklyuziv ta'lim – bu nogiron bolalarning ota-onalari va bu kabi ta’lim nafaqat nogiron bolalar uchun, balki umuman butun ta'lim tizimi uchun zarurligiga ishongan o'qituvchilar va psixologlar tashabbusi asosida boshlangan ta'lim amaliyotidagi birinchi yangilik, ya'ni innovatsiya demakdir.

Rossiyada dastlabki inklyuziv ta’lim muassasalari 1980-1990 yillar sarhadlarida paydo bo’lgan. 1991 yilda Moskva shahrida Moskva davolash pedagogika markazi va ota-ona jamoat tashkiloti tashabbusi bilan "Kovcheg" (1321-son) inklyuziv ta'lim maktabi paydo bo'ldi.

1992 yil kuzidan boshlab Rossiyada "Imkoniyati cheklangan shaxslarning integratsiyasi" mavzusidagi loyiha amalga oshirila boshlandi. Natijada 11 ta hududda nogiron bolalarning integratsiyalangan ta’lim olishi uchun tajriba maydonlari tashkil etildi. Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2008-2009 yillarda ta'limning inklyuziv modeli tajriba sifatida Federatsiyaning qator subyektlarida joriy qilindi: Arxangelsk, Vladimir, Leningrad, Moskva, Nijniy Novgorod, Novgorod, Samara, Tomsk va bosh. Moskvada bir yarim mingdan ortiq umumta'lim maktablari faoliyat yuritayotgan bo’lib, ulardan faqat 47 tasi inklyuziv ta'lim dasturi (http://rosspolit.ru/) asosida ta’lim berish bilan shig’ullanadi. Rossiyada ko'zi ojiz bolalarni ijtimoiylashtirish va ko’rish qoboliyati past bo’lgan bolalarga ta’lim berish jarayonida vujudga keladigan asosiy muammo shundaki, yirik markazlar va maktab-internatlar Moskva va shu kabi yirik shaharlarda mujassamlangan, chekka hududlar va viloyatlarda esa bu kabi bolalarning ta'lim olishi uchun deyarli sharoit yaratilmagan.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni joriy qilishdagi muammaolar asosan viloyat ta’lim muassasalarida ko‘zi ojiz bolalarning mustaqil harakatlanishi uchun maxsus jihozlar va ularning harakatlanishi uchun shart-sharoit yaratilmaganligi bilan bog’liq ravishda vujudga keladi.

Komi Respublikasi Ta'lim vazirligi imkoniyati cheklangan, nogiron bolalarning ta'lim olishi uchun to'siqlarsiz imkoniyat yaratish masalasi bo'yicha har yili monitoring o'tkazadi. Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda respublikada nogironlar uchun turli ta’lim dasturlarini ishlab chiqish sohasida ijobiy o’zgarishlar kuzatilmoqda.

Shunday qilib, 2009 yildan boshlab 2009-2012 yillarga mo'ljallangan "Ta'lim" ustuvor milliy loyihasi doirasida Komi Respublikasida uyda ta'lim olishga muhtoj bo’lgan bolalarga masofaviy ta'lim berish uchun sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi "Nogiron bolalar uchun masofaviy ta'limni rivojlantirish" tadbiri amalga oshirilmoqda.

AQSHda 1940-yillarda ko‘zi ojizlarni Brayl yozuvidan foydalangan holda o‘qitishning faqatgina maxsus usullari ishlab chiqilgan. 1950-yillarda shaxsiy psixologik treninglar, alohida bixeviaristik metodologiyaning keng targ’ib qilinishiga, treninglarda odamlarda o'zaro ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bir xil psixologik muammolari bo'lgan insonlar uchun trening dasturlarini yaratish, o'zaro yordam guruhlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek Qo'shma Shtatlarda o'qituvchilardan barcha mavjud ilm-fanga asoslangan ta'lim dasturlarini qo'llashni talab qiluvchi " Hech bir bola e’tibordan chetda qolmaydi (No Child Left Behind (NCLB)"degan qonunni qabul qilindi. Qonun, shuningdek, barcha shtatlarni jamiki o’quvchilarning (shu jumladan, alohida ta'limga muhtoj bolalar) individual rivojlanishini ta'minlashni, ya'ni ularning o’zlashtirishini uzluksiz va yuqori darajada ta’minlashni belgilab qoydi (David Mitchell, 2008).

Shunday qilib, Amerika Qo'shma Shtatlari va Evropaning zamonaviy ta'lim siyosatida inklyuziv ta'lim bilan bir qatorda bir nechta yondashuvlar ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan, jumladan: integratsiya (integration), asosiy oqim (main srtiming) va ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish (widening participation).

Inklyuziv ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra alohida ta’limga muhtoj bolalarni umumiy ta’lim muhitida o‘qitishni nazarda tutadi. Ta'limning mazkur shakli an'anaviy ravishda ustun bo'lgan

sog'lom bolalar guruhining mavjud me'yorlari, g'oyalari va xatti-harakatlarini o'zgartirishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, inklyuziv ta'lim – bu moslashtirilgan o'quv dasturi, moslashtirilgan o'qitish usullari, o'zgartirilgan baholash usullari va maqbul imkoniyatlarni ta'minlash kabi maxsus shart-sharoitlarni yaratish demakdir. Shunday qilib, alohida ehtiyoji mavjud bola maktabda to'liq kun davomida umumiy ta'lim jarayoniga qamrab olingan va oddiy sinf doirasidagi dastur va sur'atlarda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun barcha zarur jihozlar va yordamchi vositalar bilan ta'minlangan (David Mitchell, 2008).

"Inklyuziya" va "integratsiya" bu ikki atama ko'p hollarda biri ikkinchisi o'rniga ishlatiladi, biroq shu bilan birga bu ikki atama orasida katta farq ham mavjud. Chet tilidagi so'zlar lug'atida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, "integratsiya" (lotincha integratio – qayta tiklash, to'ldirish) har qanday qismlarni bir butunga birlashtirishni; o'zaro moslashish va birlashish jarayonini anglatadi. Vaykato universiteti professori va inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy maslahatchi Devid Mitchellning so'zlariga ko'ra, integratsiya aqliy va jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini ularning faoliyatlari uchun moslashtirilmagan, umuman o'zgarmagan ta'lim tizimiga moslashtirishdan iborat. Boshqa so'zlar bilan aytgadin bolsak, integratsiyani alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalarning oddiy sinflarga qisman joylashtirilishi, deb ta'riflash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Архипова Е. Ф. Ранняя диагностика и коррекция проблем развития. Первый год жизни ребенка. – Москва: МОЗАИКА–СИНТЕЗ, 2012. – 160 с.

2. Абдуллаева Г.С. Кар болалар мактабида якка тартибдаги машғулотларда эшитиш қобилиятини ривожлантириш ва талаффузга ўргатиш дастури // Ўқув-қўлланма. –Ташкент: "Республика таълим маркази". 2013. – 38 б.

3. Бабенкова Н. Е. Настольная книга здоровьесбережения. Новые стандарты. –Москва: УЦ "Перспектива", 2013. – 192 с.

4. Бабич Е. Г., Тактаров В. Г. Социально–психологическая работа по формированию толерантного отношения общества к семьям, воспитывающим детей с ограниченными возможностями

5. Банщикова Т. Н., Ветров Ю. П., Клушина Н. П. Профессиональная деятельность психолога в работе с педагогическим коллективом: учебно-методическое пособие / под редакцией Ю. П. Ветрова. – Москва: Книголюб, 2014. – 231 с.

UDC 37.016:81'27:004

THE FEATURES OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN UNDERGRADUATE STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITY

D.S.Saparbekova, teacher, Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Pedagogika universitetining bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun sotsiolingvistik kompetensiyaning asosiy xususiyatlari tahlil etiladi. Sotsiolingvistik kompetensiya chet tilida nafaqat grammatik hamda leksik bilimlarni o'zlashtirish, balki turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda to'g'ri muloqot qilish ko'nikmasini ham o'z ichiga oladi. Maqolada registrlar, interaktiv me'yorlar, madaniy kontekstni anglash hamda dialekt va ijtimoiy til qatlamlarini e'tiborga olish kabi jihatlar muhokama qilinadi. Kelajakda chet tili o'qituvchisi bo'ladigan talabalar uchun sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish usullari, xususan, autenik materiallardan foydalanish, ro'yxatga olish va tahlil qilish, madaniyatlararo tadqiqotlar o'tkazish hamda interaktiv mashqlarni qo'llash zarurligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *sotsiolingvistik kompetensiya, Pedagogika universiteti, registr, madaniy kontekst, ijtimoiy lingvistika.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные особенности социолингвистической компетенции у студентов бакалавриата Педагогического университета. Социолингвистическая компетенция предполагает не только владение грамматикой и лексикой иностранного языка, но и умение адекватно коммуницировать в различных социальных и культурных контекстах. Особое внимание уделяется аспектам регистров, интерактивных норм, культурного контекста, а также учету диалектов и социолектов. Автор подчеркивает значимость развития социолингвистической компетенции для будущих преподавателей иностранных языков, предлагая такие методы, как*

использование аутентичных материалов, анализ различных культурных практик и проведение интерактивных заданий.

Ключевые слова: *социолингвистическая компетенция, Педагогический университет, регистр, культурный контекст, социолингвистика.*

Abstract. *This article examines the key features of sociolinguistic competence among undergraduate students at a Pedagogical University. Sociolinguistic competence extends beyond mastery of grammar and vocabulary, encompassing the ability to communicate appropriately in various social and cultural contexts. The discussion highlights the importance of registers, interactional norms, cultural context, as well as dialect and sociolect awareness. Emphasis is placed on methods to foster sociolinguistic competence in future foreign language teachers, including the use of authentic materials, cross-cultural analysis, and interactive tasks that help students navigate diverse communicative settings.*

Keywords: *sociolinguistic competence, Pedagogical University, register, cultural context, sociolinguistics.*

Sociolinguistic competence constitutes an essential dimension of communicative competence in foreign language education, particularly for undergraduate students in a Pedagogical University. Their future roles as educators demand not only linguistic proficiency but also a deep understanding of the social and cultural contexts in which language is used. This understanding encompasses awareness of appropriate register, style, and culturally informed conventions of interaction, all of which together define what is typically referred to as sociolinguistic competence. As a key element in training future teachers, sociolinguistic competence influences their capacity to navigate real-world communicative situations and to guide their eventual learners toward more authentic use of the target language. It involves a multifaceted process of developing sensitivity to context-dependent linguistic choices, understanding how identity and power relations affect communication, and applying such insights in classroom settings. Despite its central importance, sociolinguistic competence is often overshadowed by structural or grammatical aspects of language training. However, for the next generation of educators, awareness of language's social dimension is critical in crafting meaningful classroom interactions and fostering effective language acquisition in their future learners.

In many foreign language programs at Pedagogical Universities, there is a historical emphasis on grammatical accuracy, reading comprehension, and, increasingly, speaking fluency. Yet, while these components are undoubtedly essential, students can develop near-flawless grammatical forms and still struggle to use the language appropriately in varied social contexts. Sociolinguistic competence, therefore, fills a gap that emerges when language learning is approached as a static system of rules rather than a fluid, dynamic medium of social engagement. When students learn to discern how a native speaker might greet an elder differently from a peer, or how a question might be phrased more politely in a formal environment, they move beyond mere correctness and begin to embody pragmatic and cultural appropriateness. In the context of teacher education, this awareness is doubly significant, as it enables future teachers to model real-world communicative strategies and to raise their own students' awareness of linguistic variation in social contexts. Thus, fostering sociolinguistic competence equips prospective language teachers not only with refined language skills but also with the cultural capital necessary to bridge classroom theory and genuine language practice.

Among the many facets of sociolinguistic competence, the capacity to recognize and appropriately use different registers stands out as particularly relevant. Register involves variation in vocabulary, grammar, and discourse features according to context, status, purpose, and topic. For instance, a student teacher who masters academic discourse might inadvertently speak in overly formal ways during casual interactions, or conversely, may appear too informal in professional contexts if they have not developed register sensitivity. By integrating sociolinguistic insights into their coursework, Pedagogical University students can learn how to switch from academic formalities to more casual, friendly styles when necessary, understanding the contextual cues that guide such shifts. This skill is invaluable for future teachers, who must adapt their speech to align with each

unique classroom scenario. Whether addressing young learners or collaborating with colleagues, the ability to tailor language to the situation fosters clearer communication, nurtures an inclusive learning environment, and models for students the versatility and richness of language.

Another key element of sociolinguistic competence is the ability to identify cultural norms and values underlying language use. Language is deeply intertwined with cultural beliefs, societal hierarchies, and historical traditions, all of which shape what is considered polite, impolite, humorous, or offensive. In a Pedagogical University setting, undergraduates benefit from developing a keen awareness of how these cultural scripts inform everyday communication, both in their native language and in any foreign languages they study. By incorporating cultural studies, cross-cultural pragmatics, and ethnographic projects into the curriculum, future teachers can deepen their understanding of how language functions in varied cultural milieus. An undergraduate, for instance, might conduct small-scale observations of how greetings differ depending on age or status in a target-language context, later reflecting on these findings to refine their teaching strategies. Such an approach fosters an appreciation for the diversity of communicative conventions and helps student teachers anticipate misunderstandings that might arise in a multicultural or multilingual classroom.

In addition to recognizing registers and cultural norms, it is also important for teacher trainees to develop sensitivity to sociolinguistic variables such as age, gender, class, and regional background. These factors can significantly influence how language is produced and interpreted. For example, a regional dialect or sociolect might carry different connotations than a standardized variant, and awareness of this linguistic diversity allows teachers to acknowledge and validate the linguistic repertoires of all their students. Rather than seeing such variations as "mistakes" or "deviations" from a standard, effective educators can present them as legitimate forms of expression, discussing with their learners the contexts in which one might use or encounter various dialects or sociolects. This inclusive view of language, rooted in sociolinguistic knowledge, promotes respect for diversity and helps students develop flexible language skills. In turn, it also supports a more equitable classroom environment, where multiple forms of expression are recognized and appreciated.

An often-overlooked aspect of sociolinguistic competence is the ability to manage interactional norms, including turn-taking, politeness strategies, and conversational implicature. Pedagogical University undergraduates who plan to become language teachers need exposure to practical tasks and simulations that demonstrate how these norms operate in real-world exchanges. For instance, certain cultures place a high value on pausing and waiting before speaking, while others might consider silence as a sign of disengagement. Without conscious training in such interactional details, future educators may inadvertently project their own cultural norms onto students from different backgrounds, leading to communication breakdowns. By integrating role plays, group discussions, and reflective journals into the training process, future teachers acquire first-hand awareness of these norms, developing skillful strategies to guide classroom talk and facilitate more inclusive discussion. Mastery of interactional norms, therefore, is not just about politeness; it undergirds the entire learning process by creating a supportive space in which diverse learners can comfortably express themselves.

To effectively cultivate sociolinguistic competence in undergraduates, teacher educators and course designers must adopt deliberate methods that go beyond straightforward grammar instruction. Such methods might include collaborative projects where students investigate local speech communities or examine cross-cultural discourse samples, analyzing the ways in which social context shapes language use. Students might also benefit from reflective portfolios documenting their own learning experiences in authentic communicative situations, such as virtual language exchanges or face-to-face interactions with international speakers. The integration of authentic materials—ranging from recorded interviews to online forums—further illuminates how language is adapted to fit different social settings, allowing learners to observe real patterns of usage rather than merely theoretical constructs. By triangulating theoretical concepts with practical observation and reflection, pedagogy courses encourage deeper awareness of the multifaceted nature of language, forging a more comprehensive skill set in sociolinguistics.

In conclusion, sociolinguistic competence is integral to the professional development of undergraduate students at Pedagogical Universities, particularly for those specializing in language

education. It is not solely about mastering correct speech forms; rather, it encompasses an understanding of how language functions within the layered contexts of society and culture. This competence involves an ongoing process of learning to recognize diverse registers, appreciate cultural norms, handle dialectal variations, and manage interactional strategies. By weaving these perspectives into language teacher training programs, universities can better prepare prospective educators to deliver instruction that transcends mere grammatical accuracy. Ultimately, teachers who understand the social fabric of language are more equipped to foster environments that celebrate cultural and linguistic diversity, thus enabling learners to become more confident and culturally sensitive communicators in an increasingly interconnected world.

REFERENCES:

1. Hymes, D.On Communicative Competence / D. Hymes // *Sociolinguistics : [Collected Papers]* / Ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth : Penguin, 1972. – P. 269–293.

2. Canale, M., Swain, M.Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing / M. Canale, M. Swain // *Applied Linguistics*. – 1980. – Vol. 1. – No. 1. – P. 1–47.

3. Bachman, L. F.*Fundamental Considerations in Language Testing* / L. F. Bachman. – Oxford : Oxford University Press, 1990. – 408 p.

4. Byram, M.*Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence* / M. Byram. – Clevedon : Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

UDC 37.02

DEVELOPMENT OF TEACHING SKILLS THROUGH INTERNET RESOURCES

G.Sh.Shonazarova, master's degree, Termez University of Economics and Service, Termez
M.Madiyeva, PhD, Termez University of Economics and Service, Termez

Annotatsiya*. Internet resurslari orqali o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlarini oshirish yo'lida inqilob qildi. Onlayn vositalar, platformalar va raqamli kontentdan foydalanish orqali o'qituvchilar o'z bilimlarini kengaytirishlari, o'qitish usullarini takomillashtirishlari va turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondiradigan innovatsion strategiyalarni qabul qilishlari mumkin. Onlayn kurslar, vebinarlar va interfaol materiallar kabi internet resurslari o'qituvchilarga uzluksiz o'rganish va butun dunyo bo'ylab tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Ushbu maqola ushbu resurslar o'qituvchilik mahoratining o'sishiga qanday hissa qo'shishi, sinfdagi faollikni yaxshilashi va raqamli asrda ta'limga yanada moslashuvchan, dinamik yondashuvni targ'ib qilishini o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli savodxonlik, podkast, internet resurs, o'quv amaliyoti, o'z-o'zini boshqarish, real vaqt rejimida muloqot, onlayn lug'at, tarjima vositasi.*

Аннотация. *Развитие навыков преподавания с помощью интернет-ресурсов произвело революцию в способе повышения профессиональных возможностей педагогов. Используя онлайн-инструменты, платформы и цифровой контент, учителя могут расширять свои знания, совершенствовать методы преподавания и внедрять инновационные стратегии, которые отвечают разнообразным потребностям в обучении. Интернет-ресурсы, такие как онлайн-курсы, вебинары и интерактивные материалы, предоставляют учителям возможности для непрерывного обучения и сотрудничества с коллегами по всему миру. В этой статье рассматривается, как эти ресурсы способствуют росту навыков преподавания, улучшают вовлеченность в класс и способствуют более гибкому, динамичному подходу к образованию в цифровую эпоху.*

Ключевые слова: *цифровая грамотность, подкаст, интернет-ресурс, образовательная практика, самостоятельное обучение, общение в реальном времени, онлайн-словарь, инструмент перевода.*

Abstract. *The development of teaching skills through internet resources has revolutionized the way educators enhance their professional capabilities. By leveraging online tools, platforms, and digital content, teachers can expand their knowledge, refine their teaching methods, and adopt innovative strategies that cater to diverse learning needs. Internet resources such as online courses, webinars, and interactive materials provide teachers with opportunities for continuous learning and collaboration with peers globally. This article explores how these resources contribute to the growth*

of teaching skills, improve classroom engagement, and promote a more flexible, dynamic approach to education in the digital age.

Key words: *digital literacy, podcast, internet resource, educational practice, self-directed learning, real-time communication, online dictionary, translation tool.*

In a time when digital technology is ubiquitous in our daily lives, education has seen a significant transformation. With its massive information base and resources, the internet presents teachers with never-before-seen opportunity to improve their pedagogical practices. Diverse learning styles and professional development needs can be met by utilizing the abundance of resources offered by the digital world, which range from interactive platforms and collaborative tools to webinars and online courses. This investigation of teaching skill development using online resources demonstrates the creative approaches teachers can take to enhance their instruction, better engage students, and adjust to the ever-changing needs of the contemporary classroom. Teachers can develop a culture of lifelong learning and improve their educational approaches by utilizing these digital resources.

The development of teaching skills through internet resources has transformed the landscape of education, enabling educators to enhance their teaching methodologies and adapt to the needs of modern learners. A detailed overview of the evolution is given below:

Access to Information and Resources. The internet provides a vast array of resources for teachers, including lesson plans, instructional videos, research articles, and educational blogs. Platforms like Teachers Pay Teachers and educational websites such as Khan Academy offer ready-to-use materials that can help teachers refine their skills.

Professional Development. Online courses and webinars allow educators to engage in continuous professional development. Websites like Coursera, edX, and LinkedIn Learning offer specialized courses in pedagogy, classroom management, and subject-specific teaching strategies. These platforms enable teachers to learn at their own pace and from anywhere in the world.

Collaborative Learning. The internet facilitates collaboration among educators through online communities and forums. Websites like Edutopia and various social media groups provide spaces for teachers to share experiences, seek advice, and discuss best practices. This collaborative environment fosters the exchange of ideas and promotes innovative teaching strategies.

Integration of Technology. Teachers are increasingly incorporating technology into their teaching practices. Learning management systems (LMS) like Google Classroom and Moodle allow educators to organize resources, assign tasks, and communicate with students efficiently. Understanding how to effectively use these tools is a crucial skill for modern educators.

Personalized Learning. With online resources, teachers can tailor their instruction to meet diverse student needs. Adaptive learning technologies and online assessments enable teachers to track student progress and modify their approaches accordingly, ensuring that all learners can thrive.

Incorporating Multimedia and Interactive Content. Internet resources encourage the use of multimedia in lessons, such as videos, podcasts, and interactive simulations. Educators can utilize platforms like YouTube and Nearpod to create engaging and interactive learning experiences that cater to different learning styles.

Data-Driven Instruction. The availability of data analytics tools allows teachers to assess student performance more effectively. By utilizing tools like Google Forms for assessments and analyzing results, educators can make informed decisions about instructional strategies and interventions.

Global Perspective and Cultural Awareness. The internet exposes educators to a global community, allowing them to understand different educational practices and cultural perspectives. This awareness is vital for developing a more inclusive curriculum that reflects diverse viewpoints and experiences.

Challenges and Considerations. While there are numerous benefits to developing teaching skills through internet resources, there are also challenges. Issues such as information overload, the quality of online resources, and the digital divide can affect how educators access and utilize these

tools. Educators must be discerning in selecting credible sources and must also consider the varying levels of access their students may have to technology.

Future Trends. Looking ahead, the integration of artificial intelligence (AI) and machine learning in education is poised to further enhance teaching skills. Tools that provide personalized feedback, automate administrative tasks, and suggest tailored resources are likely to become more prevalent, empowering teachers to focus on instruction and student engagement.

The internet supports various blended learning models, combining traditional face-to-face instruction with online elements for developing skills in teaching foreign languages. Key models include:

- Flipped Classroom: In this model, students engage with instructional content (such as videos or readings) online before attending class for discussion and application activities. This approach allows for deeper engagement during in-person sessions;

- Station Rotation: This model involves students rotating through different learning stations, some of which are online. This allows for personalized learning experiences that cater to various learning preferences.

Developing teaching skills through internet resources also emphasizes the importance of digital literacy. Educators must be equipped not only to use technology effectively but also to teach their students how to critically evaluate online information, understand digital citizenship, and navigate digital tools responsibly.

Assessment and Feedback Tools are also considered really essential point of teaching foreign language, especially in enhancing skills. Although there a a great number of assessment tools while teaching, educators can use a few of them while developing skills.

- Formative Assessment: Tools like Socrative and Google Forms enable educators to create quick assessments that provide instant feedback to students. This helps teachers adjust instruction based on real-time data.

- Peer Review and Collaboration: Platforms like Padlet and Flip grid encourage peer feedback and collaboration, allowing students to engage with each other's work constructively.

The internet offers resources that support differentiated instruction, helping teachers to meet diverse student needs:

- Universal Design for Learning (UDL): Online resources and tools can help teachers implement UDL principles, ensuring that all students, regardless of their abilities, can access the curriculum effectively.

- Specialized Learning Tools: Software like Read & Write and text-to-speech applications support students with learning disabilities, allowing for a more inclusive classroom environment.

The development of teaching skills through internet resources represents a significant advancement in education, allowing educators to enhance their practice and meet the needs of today's learners. As technology continues to evolve, ongoing adaptation and professional development will be crucial for teachers to remain effective and relevant in an ever-changing educational landscape. The development of teaching skills through internet resources is a multifaceted journey that continues to evolve. By leveraging various online tools and platforms, educators can enhance their teaching practices, support diverse learners, and engage with a global community of educators. As technology continues to advance, the emphasis on adaptability, collaboration, and continuous learning will be essential for educators aiming to create effective and inclusive learning environments for all students. The future of education will increasingly hinge on the ability to integrate these resources thoughtfully and effectively, fostering a culture of innovation and growth within the teaching profession.

REFERENCES:

1. Crystal, D. (2002). Language and the Internet. IEEE Transactions on Professional Communication, 45(2), 142-144. https://doi.org/10.1109/TPC.2002.1003702

2. Rinatovna, G. A., Shamsunovna, N. A., & Muzaffarovna, A. N. (2019). Using information and communication technologies to develop writing competence of students at the lessons of the English language. Vestnik nauki i obrazovaniya, (20-3 (74)). 8-10.

3. Erenchinova, E. B. (2014). Ispol'zovanie seti Internet pri obuchenii inostrannomu yazyku. In Innovatsionnye pedagogicheskie tekhnologii: materialy Mezhdunar. nauch. konf. (g. Kazan', oktyabr' 2014 g.). Kazan', 325-327.

4. Nizamova, R. A. (2018). Obuchenie angliiskoi leksike v tekhnicheskom vuze. Voprosy nauki i obrazovaniya, (5 (17)), 66-68.

5. Nizamova, R. (2019). Formation of students independent skills at the foreign language classes. Problemy sovremennoi nauki i obrazovaniya, (11-2 (144)), 74-75.

UO'K: 1174.37.02.37.022

CHET TILLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

M.M.Xodjayeva, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

